



ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

2016-yil 4-son (98)

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

**Tarix. Falsafa. Sotsiologiya. Filologiya. Pedagogika.
Psixologiya. Iqtisodiyot.**

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.

Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan. Tarix, falsafa, sotsiologiya, filologiya, pedagogika va psixologiya yo'nalishlarida chop qilingan maqolalar doktorlik dissertatsiyalari himoyasida hisobga olinadi.

BOSH MUHARRIR:

A. R. XALMUXAMEDOV, f.-m. f. d., professor

BOSH MUHARRIR

A.J.XOLIQOV, k.f.d., dotsent

O'RINBOSARLARI:

A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M. X. ASHUROV	- O'zFA akademigi
M. M. KAMILOV	- O'zFA akademigi
B. J. AXMEDOV	- f.-m. f. d., professor
A. S. BEGMATOV	- fals.f. d., professor
T. M. MO'MINOV	- O'zFA akademigi
X. I. IBRAGIMOV	- ped.f.d., professor
X. T. MAMATOV	- yu.f.d., professor
U.S. SALIXBAYEV	- f.-m.f.d., professor
E. G'. G'OZIYEV	- psixol.f.d., professor
F.I. TOSHEV	- «Zarafshon» gazetasi muharriri
T. SH. SHIRINOV	- tar.f.d., professor
M. Q. QURONOV	- ped.f.d.professor
B. O. TO'RAYEV	- fals.f.d., professor

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

TAHRIRIYAT HAY'ATI:

M.D.DJURAKULOV	- tar.f.d., professor
I. M. SAIDOV	- tar.f.d., professor
O. M. G'AYBULLAYEV	- fals.f.d., dotsent
N. SH. SHODIYEV	- ped.f.d., professor
B. Y. YO'L DOSHEV	- fil.f.d., professor
Sh. S. SAFAROV	- fil.f.d., professor
D. I. SALOHIY	- fil.f.d., professor
S. A. KARIMOV	- fil.f.d., professor
M. Q. PARDADEV	- i.f.d., professor
M. M. MUXAMMEDOV	- i.f.d., professor
B. X. TO'RAYEV	- i.f.d., professor
Sh. R. BARATOV	- psixol.f.d., professor
B. Q. QODIROV	- psixol.f.d., professor
Z. Yu. MUQIMOV	- yu.f.d., professor
J. Ya. YAXSHILIKOV	- fals.f.d., professor

Koordinator:

A. Sh. YARMUXAMEDOV – f. - m.f.n.

Muharrirlar:

B. S. G'OYIBOV	- t.f.n., dotsent
R. TOSHQUVATOVA	- fals.f.n., dotsent
N. U. ARABOV	- i.f.n., dotsent
H. BERDIYEV	- fil.f.n., dotsent
	- fil.f.n., dotsent

MUNDARIJA/CONTENTS/СОДЕРЖАНИЕ

TARIX/HISTORY		
Гойибов Б.С.	К нумизматической истории Согда About the numizmatics histori of Sogd	6
Abdullaev A.	Xiva xonligi va Amudaryo bo`limidagi qoraqalpoqlarning hududiy joylashuvi va ijtimoiy ahvoli(XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning boshlari) The social position and location of Karakalpaks in Khiva khanate and Amudarya region (the middle of XIX century and the beginning of XX century)	11
Hayitov Sh., Saidov I.	Muhojir o‘zbeklar axloqi va ular ma’naviy-ma’rifiy yuksalishining tarixiy ildizlari xususida (1917-1991 yillar) About the morale of emigrate Uzbeks and the historical roots of their spiritual-cultural development (1917-1991)	15
Умаров А.	Движение «Талибан» после 2014 г: состояние и перспективы The “Taliban” movement after 2014: state and prospects	18
Jumanazarov X.S.	Farg‘ona vodiysi xalq tabobati tadqiqotchilar nazdida Alternative medicine of Fergana valley researches’ outlook	25
Mirzayev G.R.	Xalq diplomatiyasiga asoslangan O‘zbekiston – Turkmaniston hamkorligi tarixidan From the history of cooperation between Uzbekistan and Turkmenistan based on nation diplomacy	29
Muhiddinov S.	Turkistonda ta’lim tizimini boshqarish tarixiga oid muhim bir hujjat The document about management of education in Turkestan	33
Radjabova D.N.	Turkiston xotin-qizlarini o‘lkadagi siyosiy jarayoniga jalb etilishi tarixidan(XIX asr oxiri – XX asr boshlari) From the history of women’s involvement in political processes of Turkestan within the period of late 19 th and 20 th centuries	37
Xushvaqtov N.H.	O‘rta Osiyo madrasalari ta’lim tizimi tarixidan History of education system in madrassahs of middle asia	40
Yakubov M.K.	Gerold Lembning “Amir Temur hukmdor va sarkarda” asarida Sohibqiron siymosi The personality of Timur the Great in the work of Harold Lamb “Tamerlane, the earth shaker.”	44
Xomitov R.X.	O‘zbekiston va Latviya davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalari-yangi bosqichda (1991-2015 yillar) Collaboration between Uzbekistan and Latvia states on new stage (1991-2015 years)	46
FALSAFA/PHILOSOPHY		
G‘aybullayev O.M.	Globalashuv jarayonida shaxs estetik madaniyatining milliy va mafkuraviy ko‘rinishlari National and ideological types aesthetic culture of person in globalization progress	50
Тошкуватова Р.Ш. Маркова Г.В.	Формирование идеологического иммунитета – фактор безопасности и стабильности Formation of ideological immune as a factor of safety and stability	53
Aymatov A.Q.	Tabiatga estetik munosabatni shakllantirishda ekoliyani estetikalashtirish va estetikani ekoliyalashtirish muammolari The problems esthetics of ecology and ecologies of aesthetic in forming aesthetic relations to nature	57

Ochilov J.A.	Texnogen sivilizatsiya transformatsiyasi va globallashuvi Globalization and transformation of technogen civilization	61
Xolmaxmatov A.X.	Yoshlar siyosatini amalga oshirishning ma'naviy asoslari Spiritual basis of the implementation of youth policy	67
Quvvatov S.	Go'zallikka intilish – insonning etnomadaniy xususiyati sifatida The striving for beauty as the ethnocultural peculiarity of person	70
Mavlanov Sh.	Global o'zgarishlar davrida ma'naviyat sohasida islohotlarni rivojlantirish zarurati The need for reforms in the spiritual sphere in the context of global change	74
Pirnazarov G'.	Fuqarolik jamiyati va huquqiy madaniyatimiz negizlariga bir nazar Look back at roots of legal culture and civil society	77
Qodirov N.N.	Ommaviy axborot vositalarining yoshlar ijtimoiy faollligini oshirishdagi o'rni The role of means of mass information in increase social activity of youth	79
Negmatova Sh.Sh.	Sog'lom ma'naviy raqobat – milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash omili sifatida Healthy spiritual contention –as a factor of national spiritual safety	84
Ernazarova Yo.O.	Sharq mutafakkirlari ta'limotida boshqaruv madaniyati va kasb odobi masalalari Questions of management culture and professional ethics of eastern thinkers teachings	87

SOTSILOGIYA/SOCIOLOGY

Kalanova S.M.	Oila va avlodlar tarixini o'rganishga sotsiologik yondashuv The sociological approach to the study of family issues and the history of the descendants	90
----------------------	--	----

FILOLOGIYA/PHILOLOGY

Davronova Sh.	Omon Muxtorning "Ffu" romanida xalq og'zaki ijodi an'analari The oral national traditions of the novel "Ffu" by Omon Muxtor	95
Eshonkulov Sh.E.	Zarafshon vohasidagi toponimlarning etnik xususiyatlari va urug'-qabila nomlari bilan bog'liqligi Ethnic properties of toponymy in Zarafshan territory and it's connection with names of tribes	98
Mardihev T.K.	Baxt tuyg'usini ifodalovchi konseptning ingliz va o'zbek tillarida verballashuvi Verbalization of concept, "Happiness" in English and Uzbek languages	101
Muhiddinova B.M.	Umar Hayyom ruboilyari tarjimasida Shoislom Shomuhamedov mahorati Shoislam Shamukhamedov's interpreting skills in translation of rubais of Omar Hayyam	104
Yo'idoshev B., Yo'idosheva D.	Said Ahmadning badiiy asar tili va nutq madaniyatiga doir qarashlari xususida views of Said Ahmad language artwork and culture of speech	108
Abduvaliyev A., Abduvaliyeva D.	Navoiyning "Tarixi muluki ajam" asarida qo'llangan arabcha o'zlashmalar Arabic borrowed words in the work "Tarixi muluki ajam" of Navoi	112
Amanov A.T.	Paremiyalarning xususiyatlari va ularni madaniy me'ros sifatida o'rganish Investigation of peculiarities of proverbs and their cultural heritage	114
Ikramova S.A.	Makonning o'ziga xos universal tabiatি Peculiar universal nature of space	116

Sulaymanova N.J.	Lokativ sintaksemalarning vositalari va ularning xususiyatlari Means of locative syntaxemes and their peculiarities	119
Yusupova O.S., Umirova S.M.	Badiiy-estetik ifodada shakl va mazmun mutanosibligi The proportionality of form and meaning in the (expression) literary (ethe) aesthetic expression	123
Teshabayeva D.M.	Ommaviy axborot vositalari tilida nutq madaniyatining zamonaviy konsepsiysi Modern conception of speech culture in the language of mass media	127
Boltakulova G.F.	Bir yadroli gaplar tarkibida temporallik Temporality in the structure of one-member sentences	130
Bumatova A.M.	She'riy tarjimada lingvopoetik birliklar: J.G Bayronning "Zamon" she'ri tahlili asosida Lingvopoetic units of the poetic translation: on the basis of the analysis of the poem of J.G.Byron "To time"	133
PEDAGOGIKA/PEDAGOGICS		
Mamatqosimov J.A.	Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimini takomillashtirishning konseptual muammolari Conceptual problems of formation of the systems of intangible cultural heritage protection at the students of professional colleges	141
O'razboyeva M.Q.	Xudbinlik va aqidaparastlik illatining qayta idrok etilishi Manifestation of egoism and fanaticism	146
Shodiev N. Axmedova Sh. Po'latova M.	Bo'lajak o'qituvchilarni ekologik tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni tizimli yondashuv metodi orqali o'rganish Promising environmental education of future teachers by means of a systematic approach	149
Axmedova H.M.	Художественно-эстетический анализ миниатюры бехзада на внеаудиторных занятиях в педагогических высших учебных заведениях Artistically-aesthetic analysis of miniature of Bekhzad on extracurricular employments in pedagogical higher educational establishments	153
Saydaliyev S. Haqberdiyev B.	Tasviriy san'at va chizmachilik fani vositasida o'quvchilarda dizaynga oid bilimlarni shakllantrish Development of students' knowledge in the field design by fine arts and drawing	157
Asilova G.A.	Davlat tilida og'zaki va yozma muloqotga o'rgatishda ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirish masalalari	160
Zohidova S.R.	Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirishda umumkasbiy va xususiy-metodik bilimlar integratsiyasining roli The significance of general professional and individual methodological knowledge integration to the professional socialization of the future teachers	165
Hazratqulov M., Nasimova Sh.	Insho vositasida o'quvchilar bilim va tafakkurini rivojlantirish Innovation education and its scientific – methodical sides	170
Akramova Sh.A.	Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ijtimoiy pedagogik omillari Social-economic factors of formation of ideological immunity of youth	172
Narmetova Yu.	Tibbiyot muassasalarida faoliyat yurituvchi psixolog kadrlar tayyorlash muammolari The problems of training psychologic staff working at medical establishments	175

Eshmamatov I.A.	Pedagogning axborot-kommunikativ kompetentligini ta'lif faoliyatida loyihalash Designing of information and communication competence of the teacher in educational activities	181
PSIXOLOGIYA/PSYCHOLOGY		
Shonazarov A.M.	Umumta'lim maktablari rahbarlari kasbiy kompetentligining psixologik mexanizmlari Psychological mechanisms of the professional competency of administrators at the modern education system	186
Shodiyev N. Jiyanqulova R.X. Igamov S.S. Raximov A.A.	Kasb-hunar kollejlarida pedagog mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik jihatlari Psychological aspects of career guidance teachers in vocational colleges	190
IQTISODIYOT/ECONOMICS		
Tashnazarov S.N.	Innovatsion iqtisodiyot sharoitida moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti mustaqil fan sifatidagi xususiyatlari va taraqqiy ettirilishi Identify financial accounting and reporting of independence science and development under the condition of innovation economy	196
MUALLIFLARGA/FOR AUTHORS		200

УДК: 9 (575.1):9 (575.3)

К НУМИЗМАТИЧЕСКОЙ ИСТОРИИ СОГДА Б.С. ГОЙИБОВ

Самаркандский государственный университет, старший научный сотрудник-

исследователь

E-mail: boburgoyibov@mail.ru

Аннотация. Согдийская конфедерация объединяла территории Самаркандской, Кашкадарыинской областей современного Узбекистана и земли прилагающие к Пенджикенту в Таджикистане. Владение расположенных в долине Зерафшана Панч, Маймург, Иштихан, Кабудан, Кушания и владение расположенных в долине Кашкадары Кеша и Нахшаба, управлялись из Самарканда. В данной статье на основе нумизматических материалов проанализировано история Согдийской конфедерации а также символы власти гербы, тамги, денежная система и генеалогия царской власти.

Ключевые слова: Ранняя средняя века, Согд, Самарканд, Тюркский каганат, конфедерация, нумизматические источники.

Древний Согд, расположенный в долине Зерафшана и Кашкадары, занимал важное место в государственности на территории Центральной Азии. Благоприятное географическое положение, богатая природа, социально-экономические способности, а также активное международное торгово-экономическое участие Согда стало играть роль посредника. Благодаря этому великие господства хотели подчинить Согд, как источник дохода. Однако, Согд продолжал сохранить свою относительную автономию в составе какого бы государства он не был, так, как Согд являлся регионом, дающим большие денежные сборы в казну господствующего государства. Поэтому господствующие государства были заинтересованы в относительной автономии Согда. Это в свою очередь создавало шанс для формирования и развития конфедеративного объединения в Согде.

«Согдийское конфедерация» – относительно общий термин, под которым подразумевалось политическое объединение таких владений долины Зеравшана как Самарканд, Панч, Маймург, Иштихан, Кабудан, Кушания, Фай а также расположенные в бассейне Кашкадары – Кеш и Нахшаб. Правители этих политических единиц были самостоятельны во внутренней политике, имели свои символы власти – столичный город, денежная система, герб, строгая генеалогия царской власти.

Здесь уместно подчеркнуть, что определение по раннесредневековым монетам согдийского чекана целого ряда административных званий, а также имен представителей правящей династии, дают возможность выделить династические связи между различными главенствующими семьями, основу и условия объединения их в единую конфедерацию, различный статус малых правителей государства. Однако, исследователи не достаточно уделяли внимания вышеизложенным критериям в истории изучение Согда, в большинстве случаев опираясь на китайские и арабские письменные источники, слабо вводя в научный оборот нумизматические материалы.

В начале XX в. было положено начало изучению раннесредневековых согдийских монет, основная часть которых чеканена из бронзы в VI–VIII вв., новые материалы, введенные в научный оборот в последние десять лет, подвигли исследователей к более глубокому изучению данного вопроса. Это дало возможность выделению некоторых проблемных моментов истории Согдийской конфедерации. Среди которых вопросы становления конфедерации Согда, связанные с денежной системой и особенностями чекана монет отдельных правителей.

Раннесредневековые монеты Согда в основном исследовали О.И. Смирнова, Э.В. Ртвеладзе, В.А. Лившиц, Е.В. Зеймаль. В настоящее время приоритетным направлением нумизматических исследований являются источники долины Чача. Э.В. Ртвеладзе, Дж. Ильясов, Л.С. Баратова, А. Мусакаева, А.В. Кузнецов, Г. Бабаяров, А. Атахаджаев, А. Кубатин в своих работах осветили данную тему. Но чекан согдийских монет до сих пор остается недостаточно изученным.

Чеканка собственной монеты и установление денежной системы правителей Согдийской конфедерации к середине первого тысячелетия нашей эры обусловленное экономической необходимостью, также свидетельствует в определенном смысле о государственной независимости. Это одна из причин, по которой на раннесредневековых монетах, чеканенных на территории нинешнего Узбекистана, изображались личные клейма правителей. Причем клейма имели не только верховные правители, но также мелкие владельцы, входившие в конфедерацию. Подобные клейма встречаются как на монетах, так и на керамических и металлических изделиях. В действительности, если личное клеймо и становилось официальным знаком правителя, то его нельзя считать неизменным традиционным гербом государства. Так как, в каждый период существовали своеобразные официальные знаки, в корне отличающиеся друг от друга. В частности, несмотря на определенную преемственность между Кушанским царством и государством Кангха, имеется большая разница между античными и раннесредневековыми гербами. Каждый владелец имел свой клеймо. Поэтому логичнее официальные знаки того периода считать не государственными, а лишь династийными клеймами.

В раннее средневековье Согдийское конфедерация делился на крупные – Самарканда (центр), Панч (Панжикент), Кеш (Шахрисабз), Нахшеб (Карши), и малые – Кушания (Каттакурган), Маймург, Кабудан, Фай владения, среди которых только крупные могли чеканить монеты. Согдийские монеты назывались «драхмы» [1]. Драхма первоначально являлась мерой веса и составляла около 4 гр. серебра. Соответствуют арабскому «мискаль». Позднее это чеканенные из данного объема монеты.

Самарканда был центром Согда и занимал ведущее место в жизни конфедерации. В здешнем храме хранился положение Ху (согдийский), по которому велись управление государственных дел и юридические вопросы [2].

Если обратить внимание в китайских летописях, можно узнать, что с последней четвертью VI в. по третий четверти VII в. Самарканом правили такие правители как Шифуби (Тайшеби, годы правления последняя четверть VI в.), Кюемучжи (600–620), Тунга (642) [3]. Затем престолом конфедерации владели ихшиды как *ъузърг* (или *ъзързг*) – Шишпир (650–655), *vrxwm' n* (или *'vrxwm' n*) – Вархуман (655–675), *wrk wrtr'mk* – Урк Вартрамук (675–695) [4], *twk'sp'ð'k* (китайское произношение *Дусаботи*) – Тукаспадак (695–698), *m'stc 'wnc* – Мастич-Унаш (?) Ун-ук (698–700), *trzw* – Тархун (700–710), *'werk* – Гурек (710–738), *twrz'r* – Тургар (738–759) [5]. Но имена правителей правивших раньше их, в последней четверти VII в. по 40-м годам VII в. сохранились или нет в монетах неизвестно.

По сведениям хроники «Тан шу» становится известным, что во второй половине VII в. в Самарканде изменилась династия и на престол приходит другой правитель. В 650 г. военачальник Фухуман (согд. *'vrgwm' n* – Авархуман) занимает власть [6] и это становится основой для прихода на власть тюркской династии. Эти события нашли отражение в нумизматических материалах. Это прослеживается в том, что были и другие тамги вместе с традиционной тамгой вида «петля» (❖)[7].

Тамги вида ❖ относящегося примерно конце VII – начале VIII в. и монеты, на которых отражены изображения правителя тюркского вида и принцессы может быть чеканены самаркандинскими правителями связи с брачными отношениями [8]. Достоин внимания и то, что эти типы монеты по иконографическим признакам похоже монетам Западно-Тюркского каганата. Может вассалы под властью Тюркского каганата как признак подчинения во имя кагана чеканили монеты с его титулом. После этих монет в Самарканде появились монеты китайского типа, посередине которых имелась квадратная дыра [9]. Когда расслабилась контроль каганата над своими вассалами, Самаркандинские правители начали чеканить свои монеты под влиянием Китая.

Говоря одним словом ведущий независимую внешнюю политику, чеканивший монеты, Самарканда был управляющим центром конфедерации, ихшиды из Самарканда контролировали над всеми регионами и проводили свои влияние.

Кеш считается владением, которое некоторое время (650–655) было центром Согдийской конфедерации.

Особое значение имеет следующее описание об Кеше, приведенное в китайских хрониках: – «В Кеше имеется храм жертвоприношение которое приносить в жертву тысячи баран перед каждого военного похода» [10].

Это сведение усиливает мнение, что Кеш был центром. Потому что, одна из условий союза объединенных в конфедерацию владений было вместе совершать религиозные обычие.

В монетах Самарканда, которые чеканились в середине VII в. имеются тамги вида «трискеレス»  встречающиеся в монетах правителей Кеша [11]. В частности, в монетах Самарканда изображены тамги именно этого  вида [12].

На многих монетах, отлитых в Кеше встречается надпись - *kъу'н'к гвв 'хврpt* – «Кеша правитель Аахурпат». Следует отметить, что одна из первых расшифровок монет этого типа данное О.И. Смирновой, где согдийское предложение - *rgv'n'k гвв 'хврpt* – переведено как «Аахурпат правитель Рагфана», привела к целому ряду нестыковок [13]. Здесь «Аахурпат» было идентифицировано с правителем Кеша, направившего послов в Китай в 720-е годы. В китайских источниках имя этого правителя представлено как Ахубидо [14]. В действительности «ахурпат» – это согдийский титул, который означает «управляющий конюшней».

Исследователи, основываясь на китайских летописях, арабских и персидских источниках приводят, что Кешом правили правители как Дичже (600–640), Шашеби (Шишпир; 650-655), Ши-Ахэ (655 гг.), Век (720 гг.), Хубидо (727), Йандун (730–738), Сы-гинти (Ишканд; 738-741), Ихрид (751), Таран (752) [15].

Арабы в 751 г. в битве Талас нанесли им серьезное повреждение. Видимо с этого времени ослабились отношения Китая с государствами Средней Азии. Правители Кеша именно с этих времен чеканили монеты от имени арабских наместниках [16].

В Согдийской конфедерации, как и другие владения **Нахшаб** тоже имел своё место и вклад.

По сведениям хроники «Тан шу», Нахшаб в VI–VII вв. был в статусе полунезависимости и назывался «Малый Ши» находящийся в составе Ши (Кеш). В китайских источниках *Нашебо* (Нахшаб) описан так: - «Нашебо другое название Сяо Шы, потому что он подчиняется Шы» [17].

В 712 г. когда арабы завоевали Самарканд, араб Кутайба ибн Муслим и ихшид Согда Гурек подписали «Самаркандский союз», по которому признаны, что владения Кеш и Нахшаб со своими городами и крепостями были в составе Самарканда, цетра конфедерации [18]. А это еще раз подтверждает, что он был в составе конфедерации. И в произведениях арабских историков и путешественников, которые побывали в Среднюю Азию, говорится, что Нахшаб находился в составе Самаркандинского Согда [19].

Монеты Нахшабского владения малоизучены. Среди найденных монет с территории Каракадары имеются монеты с изображением «государь порожающего льва», которые связаны с историей этого владения [20]. По поводу именно кто изображен на монетах, исследователи стараются объяснить по следующему. Если монета чеканилась до победы тюрков над Эфталитами (563–567), то правитель изображенный в монете эфталит [21], а если наоборот то в монете может быть изображен один из вассалов Тюркского каганата в Нахшабе [22].

А по мнению А.И. Наймарка по палеографическим данным ранние нахшебские монеты со сценой «государь порожающего льва» можно датировать в пределах IV–V вв. или даже конца IV–V вв. [23].

Одну часть монет Нахшаба, чеканенных в начале VII–VIII вв. нашей эры, составляют монеты, в одну сторону которых изображены правители тюркского изображения, а в другую изображение «лошади». Вокруг изображения лошади можно видеть согдийские слова («владетель (обладатель) обилие») [24].

В другую часть монет Нахшаба изображены в одну сторону лошадь и письмо (*вгу гвв* – «божественный правитель»), а в другую тамга вида  над которой имеется письмо. Это письмо прочитан исследователями в виде *ъкнод* – Алькандак [25]. По мнению исследователей в этой монете написан имя ал-Ашканд (734–737) [26], который в арабских источниках в 730-х годах упоминается как «испахбад» Насафа [27]. Персидский термини  – “сипах”,  – “сипахбад” означал “полководец”, “главнокомандующий” [28].

Маймург был самым близким владением Самарканду – центру конфедерации. Есть мнение основанное на сведения китайских летописей, что Маймург и расположенный к востоку от него Панч некоторое время были одним владением [29].

Некоторые исследователи на основе географического положения Панча и Маймурга, а также монетам, которые чеканились правителями Панча развиваются это мнение и стараются более уточнить [30]. Среди монет Восточного Согда (Панч) своей иконографией и параметрами (вес, размер, техника изготовления и др.) особо выделяются монеты с парным изображением царственной черты чеканивший с титулом «хатун» [31]. Если будем основываться на мнение, что Панч и Маймург в своё время были одним владением то уточняется мнение, что Маймург игравший значительный роль в конфедерации Согда в своё время чеканил монеты.

В 40-х годах VII в. когда Западн-тюркский каган Дулу из-за междоусобиц за престол направился в сторону Кана (Самарканда), подчинил Тахаристан, напал на нескольким территориям Согда, в частности на Маймург [32]. Это свидетельствует, что именно в этих годах происходил, изменение династий или борьба за власть [33].

Панч имевший свою монетную двор считался восточным владением, имевший сильный политический статус. Во времена правления Деваштича претендовал на престол Самарканда [34].

Имена правителей, которые правили Панчом в VII–VIII веках сохранились в согдийских документах в виде *u'm'wky'n* – Чамукйон (первая половина VII в. (?)), *ck'yn cwr bylk'* – Чакин чур Билге (693–708), *duw'lytu* – Деваштич (708–722). Известно, что Панчом правила и женщина. Согдийское слово имеющийся на монете, которая чеканилась от имени ее интерпретируется как *rpсу плв' trpnh* – царица Панча Нандибампан [35].

О.И. Смирнова старается объяснить династичную связь, которая была между правителями Панча на основе тамг имеющиеся в монетах, которые они чеканили [36]. Династичные знаки-тамги вида    имеющиеся в монетах [37], означали родовую связь между правителями. В них имеются схожесть формы и некоторые добавки. Некоторые исследователи относят этих монет Панча в эпоху Эфталитов [38].

Подходящая территорию нынешнего Каттакургана владение Согдийской конфедерации считается **Кушания**.

По данным китайских летописей дом правителей Кушаний назывался «Чжаову». Он тоже происходил из рода правителей Кана (Самарканда) [39]. Из этих данных видно, что Кушания был отдельным административно-политическим единением и его правители были из представителей Самаркандинского дома.

Начиная с конца VI и первой половины VII в. Кушания управлялся представителем ихшида Согдийской конфедерации. Кушания считалась благоустроенным городом, одним из культурных центров Зарафшанского оазиса и жители его были богатыми чем другие владение Согда [40].

О.И. Смирнова в своих исследованиях приводит [41], что в IV-V вв. Кушания присоединив мелкие владения находящиеся вокруг себя, чеканил бронзовые монеты имеющиеся тамги в виде   подобные Хорезмских монет [42].

Исходя из вышеуказанных мнений, можно выдвинуть следующие выводы:

- один из особенности Согдийской конфедерации это тот факт что каждый из владений входящий в состав конфедерации мог чеканит своих монет. В месте со Самарканом Кеш, Нахшаб, Панч чеканил своих монет которое может послужить в качестве примера;

- мы предполагаем, что скорее всего монеты с парным портретом и титулом «хатун» чеканились в обширном владении, включавшем в себя Маймург и Панч. В пользу этого говорить и тот факт, что большинство монет данного типа происходят с территории городищ, расположенных на юге-востоке от Самарканда, а также с городища Пенджикент. Несомненно, чекан монет данного типа начался под влиянием Западно-Тюркского каганата. Хотя как показывают сведения письменных источников, Каганат непосредственно не управлял Согдом, но родственные связи и тюрко-согдийские династии региона, позволяли тюркским каганам активно вмешиваться в дела региона;

- еще один фактор, который раскрывающий суть монетного чекана в Согдийской конфедерации это то, что в составе больших и маленьких владений, подчиненных конфедерацию, самый сильный по политическо-экономической стороне претендовал на

центральную власть. В частности, Самарканд всегда в Согда был в статусе центральной власти. А так же во время развития конфедерации на центральную власть претендовали в короткое время правители Кеша, после него Самарканда, а во время арабского нашествия Панча которое от своего имени чеканили монеты.

Литература

1. Исҳоқов М. Унтуилган подшоликдан хатлар. Тошкент: Фан, 1992. Б. 52.
2. Согдийские документы с горы Муг. Вып. II. / Юридические документы и письма. Чтение, перевод и комментарии В.А. Лившица. М.: Издательство Восточной литературы, 1962. С. 38.
3. Бичурин Н.Я. (Иакинф) Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. М.-Л.: Изд. АН СССР, Том II. 1950. С. 311.
4. Смирнова О.И. Сводный каталог sogдийских монет. Бронза. М.: Наука, 1981. С. 213–216.
5. Лившиц В.А. История изучение Согда / Рахмат-наме. Сборник статей к 70-летию Рахмата Рахимовича Рахимова. СПб.: Кунсткамера, 2008. С. 198.
6. Бичурин Н.Я. Собрание сведений. II С. 311.
7. Смирнова О.И. Сводный каталог sogдийских монет. С. 92–93.
8. Бабаяров Г., Кубатин А. К вопросу о монетах Согда с титулом “Хатун” // Марказий Осиё ҳалклари тарихи манбашунослиги ва тарихнавислиги масалалари. 5. 2-қисм. Тошкент: ТДШИ, 2013. Б. 95–108.
9. Смирнова О.И. Сводный каталог sogдийских монет. С. 311.
10. Бичурин Н.Я. Собрание сведений. II С. 271–276; 280–287; 311–318.
11. Смирнова О.И. Сводный каталог sogдийских монет. С. 37–38.
12. Там же. С. 39.
13. Смирнова О.И. Сводный каталог sogдийских монет. ... – С. 306.
14. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – М.-Л.: 1950. – Т. II. – С. 316.
15. Бобоёрёв Ф. Турк ҳоқонлиги даврида Кеш // Шахрисабз шахрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. Тошкент: Фан, 2002. Б. 66.
16. Смирнова О.И. Сводный каталог sogдийских монет. С. 75.
17. Бичурин Н.Я. Собрание сведений. II С. 271–276; 280–287; 311–318.
18. Kurat A.H. Kuteybe bin Muslim'in Hvarizm ve Semerkend'I zebti (higri 93-94-miladi 712) / Ankara Universitesi Dil va Tarih – Gografiya dergisi. 1948. Cilt VI. № 4. S. 387–430.
19. Бартольд В.В. Согд / Соч. III. М: Наука, 1965. С. 487–488.
20. Кабанов С.К. Нахшабские монеты V–VII вв. // ВДИ. 1961. №. 1 (75). С. 137.
21. Allot de la Fuye. Monnaies incertaines de la Sogdiane et des contrees voisines. Revue Numismatique. Paris: 1910; 1925; 1926. Р. 40.
22. Кабанов С.К. Указ. соч. С. 134.
23. Наймарк А.И. К нумизматической истории Нахшеба // Археология Средней Азии. Тезисы докладов. Ташкент: 1990. С. 67.
24. Смирнова О.И. Сводный каталог sogдийских монет. С. 343–344.
25. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. М.: Наука, 1970. С. 25.
26. История ат-Табари / Пер. с араб. В.И. Беляева с допол. О.Г. Большакова, А.Б. Халидова. Ташкент: Фан, 1987. С. 225, 238, 239, 244, 245.
27. Там же. С. 225.
28. Форсча-ўзбекча ўкув лугати / тузувчилар А. Рустамов, Қ. Каримов, З. Умаров. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – Б. 99.
29. Vaissiire de la Й. Sogdian traders: a history. Translated by J. Ward. (Handbook of Oriental studies = Handbuch der Orientalistik. Section eight, Central Asia; v. 10. Brill. Leiden-Boston: 2005. P. 120.
30. Бабаяров Г., Кубатин А. Указ. соч. Б. 106–107.
31. Бабаяров Г., Кубатин А. Указ. соч. Б. 95.
32. Бичурин Н.Я. Собрание сведений. I. С. 287.

33. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. Ташкент: Фан, 1975. С. 29.
34. Согдийские документы с горы Муг. Вып. II. С. 64.
35. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. С. 230.
36. Смирнова О.И. О титуловании согдийских правителей. М.: ИВЛ, 1962. С. 393–398.
37. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. С. 230-231; 233-240.
38. Ильясов Дж.Я. Об этнической принадлежности правителей Пенджикента // Нумизматика Центральной Азии. Вып. VIII. Ташкент: 2004. С. 58–59.
39. Бичурин Н.Я. Собрание сведений. II. С. 280–287.
40. Отакұжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида түрк-сүғд мұносабатлари. Тошкент: ART-FLEX, 2010. Б. 83.
41. Смирнова О.И. Нумизматические заметки // ЭВ. 1967. Вып. XVIII. С. 36–39.
42. Толстов С.П. Древний Хорезм. М.: Наука, 1948. табл. 85

B. G'oyibov**SUG'DNING NUMIZMATIK TARIXIGA DOIR**

Sug'd konfederasiyasi bugungi O'zbekistonning Samarcand va Qashqadaryo viloyatlari hamda Tojikistonning Panjikent nohiyasi hududlarini o'zida birlashtirgan. Zarafshon vohasi bo'ylab joylashgan Panch, Maymurg', Ishtixon, Kabudon va Kushoniya hamda Qashqadaryo vohasidagi Kesh va Naxshab hukmdorliklari markaz Samarqanddan turib boshqarilgan. Mazkur maqolada numizmatik materiallar asosida Sug'd konfederasiyasi tarixi, hokimiyat ramzlari, pul tizimi va hukmdorlar shajarasi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Ilk o'rta asrlar, Sug'd, Samarcand, Turk xoqonligi, konfederasiya, numizmatik materiallar

B. Gayibov**ABOUT THE NUMİZMATİCS
HƏSTORƏ OF SOĞD**

In the beginning of the middle ages there was confederation govern in Sogd. Confederation was the center of Samarkand, Zarafshan Panch, Maymurg, Ishтиhan, Kabadian, Kushaniya and he controls and monitors areas as Kesh and Naxshab. Substantiate the researcher as part of a confederation of numismatics history of Sogd. Study was used for the Chinese annal, and numizmatik data.

Keywords: The early medieval ages, Sogd, Samarkand, Turkic qaghanate, confederation, material numismatics.

UDK: 94 (575.1)

**XIVA XONLIGI VA AMUDARYO BO'LIMIDAGI QORAQALPOQLARNING HUDUDIY
JOYLASHUVI VA IJTIMOIY AHVOLI
(XIX ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASRNING BOSHLARI)**

A.Abdullaev

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada, Xiva xonligi tarkibidagi va Amudaryo bo'limidagi qoraqalpoqlarning XIX asrning o'rtalaridan XX asr boshlarigacha bo'lган davrda hududiy joylashuvi, ijtimoiy ahvoli o'rganilgan. Shu bilan birga, qoraqalpoqlarda o'ziga xos ravishda boshqaruva tizimi shakllanganligiga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Chimboy, Qo'ng'irot, ahvol, hudud, xalq sudi.

Yer yuzidagi, xalq va millatlarning hududiy-geografik joylashuvi, tabiiy sharoiti, iqlimi, shart-sharoitlari o'sha joyda yashovchi aholining kelib chiqishiga, mentalitetiga ta'sir qilishi tabiiy hol, albatta.

Dunyoning ko'pgina mintaqalari kabi Markaziy Osiyo tarixida Orol dengizi va uning atrofida yashovchi xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti, turmush tarzi, dunyo hamjamiyatidagi o'rni va roli nihoyatda ahamiyatlidir.

XVIII asrning oxiri va XIX asrning o'rtalariga kelganda Orol dengizining quyar joylarida Xiva xonligi juda katta hududni egallagan. Xonlik tarkibida yashovchi o'zbeklar, qozoqlar-qirg'izlar, turkmanlar, forslar, qoraqalpoqlarning joylashuvi va ijtimoiy tuzumi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi[1].

Xiva xoni Muhammad Amin inoq (1755-1790) ruxsati bilan qoraqalpoqlar Amudaryo deltasining sharqiyligini qismidagi Ko'ko'zak daryosining va Orol dengizi o'rtasidagi yerlarga joylashtirilgan[2].

Natijada, qoraqalpoqlar Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi Chilpik atrofidan boshlab, to Amudaryoning chap qirg'og'idagi Qipchoqqacha bo'lgan yerlarni butunlay o'zlashtirgan. Aniqrog'i, Amudaryoning o'ng tomonida Gurlanning to'g'risidagi hududda Qo'ng'irotgacha[3] bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan. Chimboyga Amudaryoning o'ng tomonidagi Sultan Uvays tog'ining janubidagi yerlar[4]; Qo'ng'irotgacha xo'jalik tumaniga daryoning chap tomonidagi yerlar - Cho'manay, Qiyotyargan, Ho'kiz kanallarining bo'yalaridagi yerlar kirgan. Shunday qilib, XIX asrga kelib, qoraqalpoqlar, shu bilan birga, o'zbeklar, qozoqlar, turkmanlar, forsiylar, Chimboy, Sho'raxon, Mang'it, Qipchoq, Qo'ng'irotgacha, Xo'jayli hududlarida yashagan[5].

Shu taxlitda aholining yashashi davom etgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelganda qoraqalpoqlar yashayotgan hudud yanada aniqroq ko'zga tashlanadi va hududiy chegarasi quyidagicha ko'rinishni oladi.

Endi avvalgi shaharlar yaqqol markaz shaharlarga aylanib boradi. Ya'ni, birinchisi – Amudaryoning o'ng tomonida Chimboy tumani markazi Chimboy; ikkinchisi – Amudaryoning chap tomonida Qo'ng'irotgacha tumani markazi Qo'ng'irotgacha shahri bo'lib qolavergan. Chimboyga – Amudaryodan Sulton Uvays tog'igacha bo'lgan hudud, keyinchalik Dao'kara va Talliq hududlari kirgan. Dao'karaga – Quanish-jarma kanalining o'rta va quyi oqimlaridagi Uvays, Purxon, Ko'k-uzak, Nao'pir, Ishim irmoqlarini o'z ichiga olgan Amudaryo del'tasining sharqiyligini kirgan. Talliqqa – Ishan jiqqan, erkindaryo, Qazaxdaryo, Orlarning janubiy qismidan Ko'k irmog'igacha bo'lgan hududlarini o'z ichiga olgan, Amudaryo quyi oqimining shimoliy-g'arbiy qismi kirgan[6].

Xiva xonining shimoliy – sharqiyligini qismidagi hududlarda esa ya'ni, Xo'ja eli okrugidan Qiyat-yorgan kanali, Okuz irmog'ining quyar joyi, Qo'ng'irotgacha shahri atroflari, Ko'k o'zak hududlari, Oq qal'a, Tao'qara, Talli, Eshim kanali, Cho'rtanboy, Tali o'zak, Tali uzak, Sari mayli, Sari chungul, Qora Boyli, Qora yab, Chukur ko'l atroflarida, qoraqalpoqlar shu bilan birga o'zbek, turkman va qozoqlar ham joylashgan hamda ular mazkur hududlarda birgalikda yashagan. Chimboy, Xujayli, Qo'ng'irotgacha, Nukus savdo-sotiq markazlaridan hisoblangan[7].

Ushbu hududda yashagan aholi Xiva xonligi fuqarolari sifatida Xiva xoniga soliq to'lagan va xonning barcha buyruq, farmonlarini bajargan.

Aholi o'troq, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi holatda yashagan. Dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullangan va Xiva xoni iqtisodiyotiga ma'lum darajada ulush qo'shib turgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelganda, yirik yer egalari, chorvadorlar, baliqchilik havzalariga ega bo'lgan boyolar paydo bo'la boshlagan. Shu bilan birga, o'ta kambag'allar va kichkina yerga ega bo'lgan aholi vakillari ham yashagan. Ular boy xonardon egalarining xizmatini qilish bilan ham kun ko'rishgan[8].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qoraqalpoqlarning ijtimoiy-siyosiy turmushida urug'- aymoqchilik keng tus olgan va ular mafkurasining asosi hisoblangan. Ularda urug'ga bo'linish doimiy saqlangan. Xiva xoni ularni urug' - amaldorlari: biylari, boylari, ruhoniylari orqali boshqargan[9].

Ushbu hududda yashovchi qoraqalpoqlarning ijtimoiy tuzilishiga kelsak, ular bir nechta urug'lardan va qavmlardan iborat bo'lgan. «Arminiy Vamberining yozishicha, qoraqalpoqlar Oksusning narigi tomonida Gurlanning to'g'risida Qo'ng'irotgacha bo'lgan hududlarda yashagan[10].

Yirik urug'larni biylar, mayda urug'larni oqsoqollar boshqarib borgan, XIX asrning ikkinchi yarmida ular soni 89 ta bo'lgan. Qoraqalpoqlar ushbu hududda yashovchi boshqa millat vakillari qatorida, Xivaga siyosiy jihatdan qaram bo'lgan.

Yuqori tabaqaga - otaliq, beglar begi, biy, mirob, yuzboshi, katxuda, mulla, eshon, qozi va boshqa amaldorlar kirgan. Qoraqalpoqlar ularni «boylar» yoki «borlar» deb atagan. Natijada, Xiva xoni Said Muhammad xon II davrida ushbu hududdagi aholini boshqarish tartibi o'zgartiriladi. Biylar 1859 yildan boshlab otaliqlarga bo'ysunadigan bo'lgan. Jami bo'lib, 4 ta otaliq lavozimi o'rnatiladi. Otaliqlar beglar begiga bo'ysundirilgan.

Ularning o'rribbosarlari noiblar hisoblangan. Noiblarni og'a biy nazorat qilgan. Ushbu lavozim o'sha davrdagi eng nufuzli lavozimlardan hisoblangan.

XIX asrning boshlaridan boshlab, ya’ni 1810-1873 yillar oralig‘ida o‘zbek, qozoq, turkman va qoraqalpoqlarning Xiva xonligiga qarshi harakatlari va qo‘zg‘olonlari ham bo‘lib turgan[11].

Xiva xonligida sudlov jarayoni qozi va muftiyarning xususiy uylarida, machitlarda urf odatlarga asoslangan holda amalga oshirilgan[12].

1873-yil Amudaryoning o‘ng tomonidagi yerlar Rossiyaga o‘tkazilgandan keyin Amudaryo okrugi keyinchalik bo‘limi deb atalib, Turkiston General Gubernatorligi tarkibiga kiritiladi.

Bu davrga kelib, Amudaryo bo‘limida 15 ta bo‘lislik, 41 nafar xalq sndlari, 1nafar katta oqsoqol, 9 nafar ovul oqsoqollari, 62 nafar qishloq oqsoqollari faoliyat yuritgan[13]. O‘lkada o‘zbeklar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqa millat vakillari yashagan. Amudaryo bo‘limida o‘zbeklar o‘troq hayot kechirgan. Qoraqalpoqlar, qozoqlar esa, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi holatida yashagan. Ko‘chmanchi aholi joylashgan hududlarda sud‘yalarning s‘yezdлari har bir bo‘lisda uch nafardan kam bo‘Imagan sud‘yalar qatnashganda, qonunga muvofiq hisoblangan. S‘yezdлar zaruriyat tug‘ilganda chaqirilgan va uyezd boshlig‘i tomonidan oldindan belgilangan bo‘lib, s‘yezdда bo‘lis boshliqlari ishtiroq etgan va ular tinchlikni ta‘minlash uchun kuzatuvchi vazifasini bajargan. Xalq sud‘yalar s‘yezdiga kelgan sud‘yalar o‘zlarining orasidan ishni qarab chiqish uchun rais saylashgan va s‘yezd qarorini kitobga kiritib, rasmiylashtirgan.

Arxiv hujjatlarini tahlil qilib, shunday xulosaga keldikki, Amudaryo bo‘limidagi qozilar va biylar sudi ishini hududiy va faoliyati jihatidan bizning nazarimizda shartli ravishda uchta guruhga bo‘lib, o‘rganish mumkin:

Birinchi guruhga – asosan o‘zbeklar yashaydigan hududlar – Sho‘raxon, To‘rtko‘l, Shayx–abbos–vali, Ishim va Chimboy hududi kirgan va bu joylarda qozilar sudi faoliyat ko‘rsatgan;

Ikkinci guruhga – asosan qozoqlar, qoraqalpoqlar yashaydigan hududlar – Mingbuloq, Tamdi, Ko‘k–ko‘l, Nao‘pir hududlari kirgan va u yerda biylar sudi ish olib borgan;

Uchinchi guruhga – o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq-qirg‘izlar aralash yashaydigan hududlar – Biybozor, Qo‘ng‘iroq, Taldiq, Dao‘qara, Nukus va Kegeyli hududlari kirgan va joylarda qozilar va biylar sndlari tengdek faoliyat yuritgan.

Tadqiq etilayotgan davrda, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi orasida urug‘-urug‘ bo‘lib yashash davom etgan. Bunga sabab, bir urug‘ vakillarining ikkinchi urug‘ vakillari ustidan ustunligi kuchayib ketmasligiga kafolat sifatida biylar sudi son jihatdan nisbatan ko‘proq tashkil etilgan. Arxiv hujjatlarida yozilishicha, ayrim hollarda xalq sndlari saylash paytida biron urug‘ vakili sud‘ya bo‘lib uch yilga saylanadigan bo‘lsa, o‘sha urug‘ vakili asosan barcha sud jarayonlarida boshqa urug‘ vakili ustidan g‘alabaga erishib kelgan[14].

Amudaryo bo‘limi o‘lka ma’muriyati va tashkiliy komissiya tomonidan ikki katta qismga – Chimboy va Sho‘raxon uchastkalariga bo‘lingan. Sho‘roxon uchastkasi aholisi o‘troq, Chimboy uchastkasi aholisi ko‘chmanchi holatda yashagan[15]. Bu ikki hududda 41 nafar qozilar va biylar sudi, 10 nafar qozi, 31 nafar biylar sudi umumiy hisobda 41 nafar qozilar va biylar sudi faoliyat ko‘rsatgan

Amudaryo bo‘limida 41 nafar qozi va biylar sudi bo‘lganligini 1889 yil 1 iyunda rus ma’murlari tomonidan yozilgan 702/5700 – sonli xat ham tasdiqlaydi[16].

Amudaryo flotiliyasining tashkil etilishi temir yo‘lga chiqish imkoniyatini yaratdi, mazkur yo‘l orqali Amudaryo bo‘limi Rossiya imperiyasi markazi bilan bog‘langan. Amudaryo bo‘limining Petro-Aleksandrovsk va Chimboy shaharlari orasida to‘g‘ri yo‘l paydo bo‘ldi. Xivadan Shimolga – to Kazalinsk va Perovskgacha, G‘arbda Kaspiy dengizining o‘ng sohillarigacha, Janubda Ashxabod va Buxorogacha, Sharqqa Jizzax va Toshkentgacha yo‘l qurilgan[17]. Petro-Aleksandrovsk va Chorjo‘y, Petro-Aleksandrovsk va yangi Urganch orasida telegraf, Petro-Aleksandrovsk va Darg‘an ota oralig‘ida esa, telefon tizimi ishga tushgan[18].

XX asrning boshlarida Amudaryo bo‘limi aholisi etnik tarkibi jihatidan asosan qoraqalpoqlar (95.000 kishi), o‘zbeklar (55.000 kishi), qozoqlar (40.000 kishi) turkmanlar (16.000 kishi)dan iborat edi. Qoraqalpoq, o‘zbek, qozoq, turkmanlardan tashqari ruslar (5526), arab, fors va tatarlar (551), polyaklar (51), armanlar (74), nemislar (8), yahudiylar (13) ham istiqomat qilgan[19].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ushbu hududlarda yashovchi xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanish o‘zgachaliklari hisobga olinmasdan, Rossiya imperiyasining talab va shartlariga to‘liq muvofiqlashtirilib borildi.

Podsho Rossiyasi tomonidan yuritilan mustamlakachilik boshqaruv tizimi mahalliy boshqarish tartibini buzdi. Albatta, tabiiy ravishda xalqning milliy talablari metropoliyani qiziqtirmas edi.

Shu bilan birga, Turkiston o‘lkasini boshqarishning Nizomi (1886), Amudaryo okrugini boshqarishning vaqtinchalik Nizomi (1873) va boshqa qonun-qoidalar qabul qilindi. O‘lkani boshqarish Rossiya imperiyasi qonunlari asosida qayta tashkil etildi va boshqaruv tizimi ham o‘zgartirildi.

Adabiyotlar

1. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. Часть II. Москва. 1874. – С. 253, 254, 255, 275. Ушбу китобда Хивадаги қозоқларни кирғизлар деб ҳам атаган. Шу билан бирга, қозоқларнинг кирғизлар деб янгиши аталаётганилигини ҳам айттиб ўтган. Аммо, кейинги фикрни А.Вамбери Кўқон хонлигидаги кирғизларга нисбатан айтган – А.А.
2. Қаранг.: История Узбекистана (XVI - первая половина XIX в.). – Ташкент: Фан, 2012. – С. 503; Фуломов Я. Хоразмнинг сугорилиш тарихи. – Тошкент: Фан, 959. – С. 222.
3. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. Часть II. Москва. 1874. – С. 257.
4. Вамбери А. Очерки Средней Азии. Дополнение к путешествию по Средней Азии. Москва. 1868. – С. 125-128.
5. Қарақалпакстанның жаңа тарийхы. Қарақалпақстан XIX ғасирдин екинши ярымынан XXI ғасирге шекем. «Қарақалпақстан». 2003. – Б.22. Ушбу изоҳда кўрсатилишича, мазкур худудларда қарақалпоклар яшаган деб кўрсатилади. Аммо таҳлиллар шуни кўрсатадики, (Вамбери А. 1874. –С.255-257; История Узбекистана (XVI- первая половина XIX в. 2012. – С. 499.) бу ерда ўзбеклар, қозоқлар, туркманлар ва бошқа миллат вакиллари ҳам яшаган – А.А.
6. КамаловС.К. Каракалпаки в XVIII-XIX веков. – Ташкент: Фан, 1968. – С.85-86.
7. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. Исследование описание документов с историческим введением. –Ленинград: 1940. – С. 208, 214, 216, 217, 229; КамаловС.К., УббиниязовЖ.У., КошановА.К. Из истории каракалпаков с другими народами Средней Азии и Казахстана в XVII-начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1988. – С.55.
8. НурмухамедовМ.К., ЖданкоТ.А., КамаловС.К. Каракалпаки. – Ташкент: Фан, 1971. –С. 28-29.
9. Камалов С. Қарақалпаклардың XIX ғасирдеги Хийӯа ханлықларына қарсы халық азатлық гүреслери. Нукус: Қарақалпак мәмлекет баспасы, 1955. –Б. 38.
10. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. II часть. М. 1874. – С. 257.
11. Қарақалпакстанның жаңа тарийхы. Қарақалпақстан XIX ғасирдин екинши ярымынан XXI ғасирге шекем. – Нукус: Қарақалпақстан, 2003. –Б. 24, 25, 29.
12. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. II часть. –М.: 1874. – С. 251.
13. Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат Архиви. И-907-жамғарма, 1-рўйхат, 285-йигма жилд, 76-о, варак (Бундан кейин ЎзРМДА).
14. ЎзР МДА. Р-25 жамғарма, 1-рўйхат, 946-йигма жилд, 4-варак.
15. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. II часть. Составлено ген. Штабакапитаном Г. К. Гиршфельдом. Переработано начальником Аму-Дарьинского отдела генерал майором А. С. Галкиным. Т.Типография штаба Туркестанского военного округа. 1903. – С.12.
16. ЎзР МДА. И-907-жамғарма, 1-рўйхат, 285-йигма жилд, 54-55-вараклар.
17. История Каракалпакской АССР. –Ташкент: Фан, 1974. – С.162.
18. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. Составиль генерального штаба полковник В.Лобачевский. Т. Эл-пар.типо-лит. Штаба Туркестанского военного округа. 1912. – С.29.
19. Тухтаметов Т.Г. Амударгинский отдел (социально-экономическое и политическое значение для Хорезмского оазиса) –Нукус: 1977. – С.79.

А. Абдуллаев

**СОЦИАЛЬНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ И
РАСПОЛОЖЕНИЕ КАРАКАЛПАКОВ В
ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ И В
АМУДАРЬИНСКОМ ОТДЕЛЕ
(СЕРЕДИНА XIX- НАЧАЛО XX ВЕКОВ)**

В данной статье изучено социальное положение и территориальное место расположения каракалпаков в Хивинском ханстве и в Амударгинском отделе в середине XIX и в начале XX веков. Также уделено внимание судебно-правовой системе того времени.

Ключевые слова: Чимбай, Кунград, положение, территория, народный суд.

A.Abdullaev

**THE SOCIAL POSITION AND LOCATION OF
KARAKALPAKS IN KHIVA KHANATE AND
AMUDARYA REGION
(THE MIDDLE OF XIX CENTURY AND THE
BEGINNING OF XX CENTURY)**

The article deals with the social position and territorial location of Karakalpaks in Khiva khanate and Amudarya region in the middle of XIX century and at the beginning of XX century. The article draws attention to judicial-lawful system of that time.

Keywords: Chimbay, Kungrad, position, territory, people's court.

UDK: 9(575.1)

**MUHOJIR O'ZBEKLAR AXLOQI VA UALAR MA'NAVIY-MA'RIFIY YUKSALISHINING
TARIXIY ILDIZLARI XUSUSIDA**

(1917-1991 YILLAR)

Sh.Hayitov¹, I.Saidov²

¹*Buxoro davlat universiteti, professor*

²*Samarqand davlat universiteti, professor*

Annotatsiya. Maqolada 1917-1991 yillarda sovet hokimiyatining noinsoniy siyosati tufayli muhojirlikka mahkum etilgan o'zbeklar axloqi, ma'naviy-ma'rifiy darajasi masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilingan. Asosiy e'tibor xorijdagi o'zbeklarning axloqiga ta'sir ko'rsatgan omillar va ularda o'zlikni saqlab qolish bilan bog'liq jihatlarga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Axloq, ma'rifat, ma'naviyat, tarbiya, hurmat, mehmondo'st, to'y, ta'ziya, tijorat, Vatan, doston, xalq qo'shiqlari.

XX asr dastlabki o'n yilliklarida, avval Rossiya imperiyasi, keyinchalik sovet mustabid tuzumi davrida Turkiston mintaqasidan minglab oilalar muhojirlikka ketishga majbur bo'ldilar. Sovet hokimiyatiga qarshi kurash yillarda (1917-1924 yillar), yer-suv islohotlari (1925-1927 yy.) qulqlashtirish va jamoalashtirish siyosati davrlari (1928-1933)da, 1937-1938 yillardagi mislsiz qatag'onlarda, Ikkinci jahon urushi bosqichida (1939-1945 yy) asirga tushish va turli omillar tufayli xorijga muhojirlik jarayoni goh kuchayib, goh pasayib davom etib turdi. Bugungi kunda Osiyo, Yevropa, Amerika, Avstraliya Ittifoqi kabi qit'alarning o'nlab mamlakatlarda umrguzaronlik qilayotgan o'zbeklar xorijda «o'zbek diasporasi»ni tashkil etdilar. Muhojir o'zbeklarga nisbatan "eski o'zbeklar" va "yangi o'zbeklar" atamalari qo'llanilmoqda. Sovet hokimiyati yillarda (1917-1991 yy) muhojirlikka o'tgan, Vatanidan yo'llari ayri tushgan o'zbeklar va ularning O'zbekistonda va xorijda dunyoga kelgan farzandlari shartli ravishda "eski o'zbeklar" sifatida nomlanadi. Ortda qolgan XX asr ilm-texnika, kommunikatsiya-axborot texnologiyalar sohasida buyuk kashfiyotlar asri bo'ldi. Biroq, inson omili va ajdodlar tarixini xotirlash o'zining dolzarblik ahamiyatini saqlab kelmoqda. Vatanjudolik hukmi taqdiriga bitilgan o'zbeklar o'z ajdodlari yurtiga o'zgacha mehr-muhabbat bilan yashadilar. Ular o'zbek tiliga, milliy o'zlikni saqlashga, milliy urf-odat va an'analarga sodiq qolishga imkon qadar intildilar. SHu sababli xorijdagi o'zbeklar 1960- yillarda O'zbekistondan o'zbek tilida beriladigan "Vatandosh"radiosi eshittirishlarini his-tuyg'u va mehr bilan, butun vujudlari qulqoqqa aylanib tingladilar. Ayrim o'zbekchilikka mos kelmaydigan xabarlar ularni ranjitgani ham tarixiy haqiqat. Pokiston Respublikasining Karochi shahrida yashagan Jo'ra Qori Bo'tako'z (bu insonga "Surgun", "Olaqarg'a" deb ham laqab qo'yishgandi) 1960- yilda O'zbekistonga yo'llagan maktubida: "Men ilk bor o'zbekcha eshittirishlarni eshitib, qalbim faxrga to'ldi. Har kuni radiosи bor bir do'stimning uyiga borib, uni bitta xonasi borligi uchun ko'chada turib radio eshitishga ruxsat oldim. Xabarlar berilishi boshlanishi bilan ko'zlarimda g'am va quvонch yoshlari oqa boshlardи,-deb yozadi. [1]. 1929-1930-yillarda muhojir bo'lган Mo'minjon Andijoniy Saudiya Arabistonidan turib: "Eshittirishlaringiz orasida ba'zan qulqlarimizga butunlay yot bo'lган "ohang"larni eshitmoqdamiz. Yirtiq bo'lsa ham, o'zining qaddrон chaponini tashlashni istamagan muhojir vatandoshlaringiz ana shunday ohanglarni uncha sevmasligini, aksincha, doimo milliy ashulalarimizni, maqom kuylarimizni seva-seva eshitib zavqlanishini, albatta, bilsalaringiz kerak, degan mulohazadaman",- deb yozadi [2].

Jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida axloqiy tarbiya muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Xulq-atvordagi insoniy jihatlar har bir kishini, har bir oilaning ma'naviy barometrini belgilagan.

Sovet hokimiyati yillarda ma'naviy sarchashmalarimizdan ajralib qolayozdik. Oxir-oqibatda ajdodlar o'gitini unutib, "sovetcha tarbiya" asosida axloqning "yevropacha modeli" qolipiga kirildi.

Xorijdagi o'zbeklar esa asrlar osha avloddan -avlodga o'tib kelgan sharqona odob va axloq me'yorlariga amal qilish, farzandlarini shu asnoda tarbiyalash tamoyillariga amal qilganliklari kuzatiladi. Boy tarixga ega bo'lган xalqimizning axloq va yuksak ma'naviy jihatlari qadimda yaratilgan va ular "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Xoldorxon", "Ravshanxon" kabi xalq dostonlarida o'z aksini topgan. Insonga xos bo'lган mehr-muhabbat ko'rsatish, mard va jasur bo'lish, haqiqat va adolat tomonida turish, ota-onaga, Vatanga cheksiz sadoqat, xalq tashvishi bilan yashash kabi jihatlar ushbu ma'naviy xazinamizda jamuljam bo'lgan. Muhojir o'zbeklarning keksa avlodni o'zga xalqlar

orasida qanchalik qiyinchiliklar bilan yashamasin, oila a'zolari bilan "dostonxonlik" muloqotlarida bo'lib turishni kanda qilishmagan. Xalq lapar va qo'shiqlarini o'zları bilan dunyoning o'nlab davlatlariga olib borishgan.

Muhojir o'zbeklarning keksa avlodlari bilan qilingan ko'pgina muloqotlarimizdan shunga amin bo'ldikki, ular otaning farzand, shuningdek, farzandning ota-onasi oldidagi farzlari haqida muqaddas dinimiz buyurgan vazifalarni muhim, deb bilishadi. Farzandlar iymon-e'tiqodli, halol va pok insonlar bo'lib etishishlari uchun diniy ilmlardan yaxshigina xabardor bo'lishlari kerakligi, har qanday ilm amali bilan go'zal ekanligi ular suhabatida bosh mavzulardan biri hisoblanadi. Bu o'rinda muhujir o'zbeklar orasidan Sharq dunyosida e'tirof etilgan diniy ulamolar yetishib chiqqanligini qayd etib o'tish o'rinni bo'lardi. Makkadagi Um-ul qaro universiteti professori, doktor Muhammad Said Hasan, muallimlar tayyorlash maktabining ustoz, doktor Muhammad Umar Toshkandiylar o'zlarining bir qator kitob va risolalarini arab tilida chop ettirishgan. Saudiya Arabistonilik o'zbek Abdulhakim Xalifa Ismoil shunday degan edi: "Saudiyada o'zbek bo'lgan Abdulazim Abdulfattoh qori Qo'qandiy, Muhammad Sayyid Hasan Qori, No'mon Toshkandiy singari din arboblari va olimlar bilan faxrlanishadi. Bu ulug' insonlar nomi arablar o'rtasida ham izzat-ikrom bilan tilga olinadi" [3].

Sovet hokimiyyati yillarda O'zbekistondagi o'zbeklarning xulq-atvori, kundalik turmushi, madaniy hayotidagi salbiy tendensiyalar 1980-1990 yillarda yurtimizga tashrif buyurgan xorijlik millatdoshlarga yaqqol namoyon bo'lgandi. Istiqlol arafasida ajdodlari vataniga tashrif buyurgan Zuhiddin Mirza Obid Turkistoni: "O'zbekistonda bolalar ta'lim-tarbiyasi yetarli darajada emas. Bundan tashqari to'y va shunga o'xshash ma'rakalarda ortiqcha xarajatga yo'l qo'yilayotgani, haddan tashqari odam to'planib, noz-ne'matlar isrof bo'layotgani meni tashvishga soldi. Zararli o'tkir ichimliklarni haddan tashqari iste'mol qilish ham yaxshilikka olib kelmaydi. Insonning olamdan o'tishi bilan bog'liq marosimlar uchun ortiqcha xarajatlarga ham aslo hojat bo'lmasa kerak", - deb fikr bildirgandi [4]. Boshqa bir saudiyalik vatandoshimiz Abdullajon Ismoil o'g'li Ahmadbek al-Turkistoni: "To'ylarda spirthi ichimliklar ichilishi menga g'ayritabiyy tuyuldi. Ichimlik iste'mol qilishdan saqlanish, to'g'risi hazar qilish kerak, chunki ichimlik ichish katta gunoh va tarbiyani buzadi. To'ylarda ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yilar ekan, sunnat to'ylarini ixcham o'tkazib tejalgan mablag'ni bolani o'qishi va yaxshi inson bo'lib yetishishi uchun sarflanmog'i lozimdir", -degandi. [5].

Muhujir o'zbeklar axloqiy-ma'naviy masalalar haqida fikr yuritishar ekan, ular istiqomat qilayotgan o'zbeklar orasida daydilik, ichkilikbozlik, o'g'rilik, qotillik, ayollar va atrofdagilarga nisbatan hurmatsizlik katta uyat ekanligini qayd etadilar. Qarzni o'z vaqtida qaytarmaslik, avlodlar davomchisi hisoblangan xotin-qizlarga dag'al munosabat bo'lish ularda gunohiazim hisoblangan. Ular iltifot va takallufda shirinsuxanlik, g'urur va insoniy tuyg'ularni, e'tiqod, iymon va vijdonni saqlash kerakligiga e'tiborni qaratishadi. Shuning uchun Y.Yakvalxo'jaev: "Vatandoshlarimiz (muhujir o'zbeklar) muhtojsiz kun kechirish uchun tinimsiz mehnat qilishadi, qaysidir boyning marhamatini kutib turishmaydi? "sadaqa qiling, yaxshilar"- deb qo'llarini cho'zishmaydi, uyat hisoblashadi. Muhojirlar, masalan , "Halimbek afandim" –deb shirin so'z bilan murojaat etishadi"- deb yozgandi [6].

Islomiy axloq ruhida tarbiya ko'rgan xorijdagi o'zbeklarning aksariyati "spirtli ichimliklar "Qur'on Karim"da harom qilingan", -deb aroq va vinodan hazar qilishadi, o'g'rilikni o'ta tubanlik, inson xulq-atvorida sharmandalı nuqson deb bilishadi. Ular yashaydigan mahallalarda qulf-kalit qilingan xonodon, do'kon, rasta bo'Imaganligi, ayrimlarida eshik ham mavjud emasligi, namoz payti sotuvchi ham, xaridor ham machit sari intilib, do'konlar ochiq qoldirilganligi to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Saudiya Arabistonida istiqomat qilgan Abdullajon Turkistoniying eslashicha, uning oilasi bir payt Saudiyanidan Istanbul (Turkiya)ga dam olish uchun jo'nab ketganida, hovlisining eshiklarini qulflashni unutishgan. Bir oydan keyin safardan oila qaytib kelganida, hamma buyumlar o'z joyida turgan, buning sababi,- deydi A.Turkistoni,- odamlarning dinga e'tiqodi, dilida iymoni borligidandir. Agar insonlar halol va to'g'ri bo'lsa, iymon-e'tiqod qalbi hamda vujudiga singsa, qonun –qoidalarga amal qilsa, o'g'rilik, qotillik kabi jinoyatlar bo'lmaydi,-deb fikr bildirishadi. Inchunun, o'lkamizda xonliklar davrida uchta jinoyatga, ya'ni o'g'rilik, fohishabozlik, xun olishga o'lim jazosi belgilangan.

Muhujir o'zbeklar istiqomat qilgan aksariyat mamlakatlarda, eng boy xonadonlarda ham mehmonorchilikda dasturxonga tortiladigan noz-ne'matlar va taomlar me'yordidan ortiqcha emas. Bu qitmirlikdan emas, balki isrofarchilikka yo'l qo'ymaslik uchun qo'llanilgan vositadir. Alloh kalomi

“Qur’on”dagi “A’rof” surasining 31-oyatida “yeb-iching va isrof qilmang. Cnunki, u isrof qiluvchilarni sevmas”. Yohud, “Furqon” surasining 43-oyatida “Ular infoq qilganlarida isrof ham xasislik ham qilmaslar. U ikkisi o’rtasida mo“tadil bo‘lurlar” kabilar mavjudligi islomiy tarbiyadan yaxshigina xabardor o‘zbeklarning turmush tarziga singgandir.

Muhojir o‘zbeklar o‘zaro quda-andachilik aloqalarini o‘rnatgan bo‘lib, to‘y-ziyofatlarini xususiy yohud davlat tomonidan belgilangan to‘yxonalarda o‘tkazishadi. To‘y marosimlari har kimning o‘z moddiy qudratiga qarab o‘tkaziladi. Quda-andachilik rishtalari ijtimoiy tabaqaviy holatga qarab bog‘lanadi.

Sharq mamlakatlarida sunnat to‘ylarini katta va dabdabali qilib o‘tkazish odat tusiga kirmagan. O‘g‘il farzand dunyoga kelsa, qulog‘iga azon aytildi, unga chiroyli ism qo‘yiladi. Oilada dunyoga kelgan o‘g‘il farzandni 7, 14, 21 kunlik bo‘lganida yoki kasalxonadayoq sunnati qilib qo‘yishadi. Ularda musulmonchilikda odat tusiga kirgan “aqiqa” marosimi o‘tkaziladi. Chaqaloqning ota-onasi yo bobosi qo‘y so‘yb yor-ubirodarlar, qavm-qarindoshlariga ziyofat beradi. Agar o‘g‘il farzand tug‘ilsa ikkita, qiz farzand oilada dunyoga kelsa, bitta qo‘chqor so‘yb ziyofat berilgan. Ziyofatga so‘yiladigan qo‘y oriq bo‘lmasligi va sog‘lom bo‘lishi kerak. “Aqiqa” marosimi farzandning aynan otasi tomonidan emas, qudratiga qarab bobosi yohud yaqin qarindoshi tomonidan o‘tkazilishi ham joiz hisoblanadi [7].

Kelin-kuyov to‘ylari o‘zbek va turk xonandalari ishtirokida yoki o‘zbekistonlik mashhur qo‘shiqchilar ovozi yozib olingen texnik vositalar ko‘magida ham o‘tkazilgan. Muhojir o‘zbeklar mumtoz o‘zbek qo‘shiqchiligi san’atiga chuqur hurmat va e’tibor bilan qaraydilar. 1990- yil bahorida Namangan viloyatidan Turkiyadagi tog‘asini uyiga mehmon bo‘lib borgan Umarjon Usmonjonov Adanadagi o‘zbek Turdiali afandining qiz uzatish to‘yida qatnashib: “Biz o‘zimiz bilan taniqli xonandalalar Komiljon Otaniyozov, Sherali Jo‘raev, Ortik Otajonovlar ovozi yozilgan plastinkalar olib borgan edik. Ular ovozini to‘yda to‘planganlar tinch o‘tirib, ko‘zda yosh bilan bir-birlarini quchoqlab, xursand bo‘lib e’tibor bilan tingladilar. Plastinkalar qayta-qayta qo‘yilib, magnitonlarga yozib olindi. To‘yda 200 kishi ishtirok etdi, isrofgarchiliklarga aslo yo‘l qo‘yilmadi,-deb eslagandi[8]. Yuqoridagi fikrdan ko‘rinib turbdiki, ularda baxt to‘ylarida ham asosan ixchamlik sari yo‘l tutilgan. Shuning uchun Saudiya Arabistonining Madina shahrida yashagan, asli qo‘qonlik Muhammad Ayyub Maqsud Ali o‘g‘li: “O‘g‘il, ya’ni sunnat to‘yi sizlarda juda katta bo‘lar ekan. Bizda bu to‘y yo‘q. Go‘dakni shifoxonadayoq do‘xtirlar sunnati qilib qo‘yadi. Lekin tug‘ilish sharofati ila oldida (ziyofat) bo‘ladi. O‘g‘il tug‘ilsa ikki qo‘y, qiz tug‘ilsa bir qo‘y so‘yiladi. Lekin bu ham qodir bo‘lganlarga farz. Bizda o‘g‘il uylantirish, qiz to‘ylarimiz bo‘ladi. Lokigin boyaga aytganimdek, kim qodirligiga qarab qiladi”-deb fikr bildirgandi, 1991 yilda. [9].

Ta’ziya marosimlarida muqaddas islom dini buyurgan qoidalar asosida ish ko‘rish muhojir o‘zbeklar hayotida muhim o‘rin tutadi. Ularda marhum vafot etganida baqirib, dod-voy solish, yig‘lash, murdaning ruhini bezovta qiladi,-deb hisoblanadi. Inson tirikligida unga mehr-muhabbat ko‘rsatish, holidan xabar olish, yaxshiliklar qilish kerakligi, vafotidan keyin marhumning haqiga duo o‘qish farz qilingandir. Inson abadiyat dunyosiga ketganidan so‘ng, uning ortidan qilingan sarfxarajatlar bilan bog‘liq dabdabali marosimlar muhojir o‘zbeklarda mavjud emas. Ayniqsa, Sharq mamlakatlaridagi o‘zbeklarda ta’ziya marosimi uzoq cho‘zilmaydi, janzoa o‘qilib, marhum qabristonga olib borilib, 10-15 daqiqada dafn etilganidan so‘ng, yaqin qarindoshlaridan tashqari barcha o‘z uyi va ishiga tarqaladi. Marhumning “uchi”, “yettisi”, “yigirmasi”, “qirqi” kabi marosimlar Saudiya Arabistoni o‘zbeklarida bid‘at hisoblanadi. Isrofgarchilikka qo‘l qo‘yiladigan bunday marosimlar o‘rniga, beva-bechoralarga xayr-sadaqa ularish savob a‘mol sifatida qabul qilingan [10]. Marhum vafotidan so‘ng uning ibratli, ijobiy xislatlarini eslash, hayit kunlarida xayr-ehson qilish kabilar muhojir o‘zbeklar orasida keng tarqalgan.

Xullas, muhojir o‘zbeklar XX asrda dunyoning turli mamlakatlarida kam sonli bo‘lib yashashlariga qaramay milliy urf-odat, milliy til, milliy o‘zlikni saqlab qolib, axloq va odobda ulug‘ bobokalonlarimiz pand-nasihatlariga munosib bo‘lishga intildilar. Ular oilasida ulg‘aygan farzandlar ma’lumotli, tarbiyalı, 3-4 ta xorijiy tillarning egalari, zamonaviy innovatsiyalardan xabardor, “bir osham halol luqma”ni o‘z peshona teri bilan topib kun ko‘rish darajasidagi shaxslar bo‘lib yetishdi. Ota-onaga hurmat, ajdodlar tili va yurtiga mehr-muhabbat, vijdon va iymon bobida ibrat ko‘rsatish ularning kundalik turmush mazmuniga aylandi.

Istiqlolning ortda qolgan chorak asrlik davrida milliy qadriyatlarimiz tiklanib, ma’naviy sarchashmalarimizdan bahramand bo‘lish orqali bugungi O‘zbekistonda ham jamiyat a’zolarida

komillik sari ijobiy natijadar ro'y bermoqda. Istiqlol avlod iymon-e'tiqodli, ijobiy xulqlarni o'zida mujassamlashtirgan insonlar bo'lib voyaga yetayotganligi esa ota-bobolarning asriy orzu-umidlari amalga oshayotganligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. O'zRMDA. 2661-F. 1-r. 105-h. 16-v.
2. O'zRMDA. 2661-F. 1-r. 106-h. 12-v.
3. Зохидов А., Раҳмонов О. Дўстликка хизмат қилсин // Коммуна. 1990 йил 2 июнь
4. Усмонов Э. Ватанни қўмсауб //Мулоқот; 1991. – №1. – Б. 64.
5. Ҳайитов Ш., Собиров Н., Легай А. Хориждаги ўзбеклар. – Тошкент: Фан; 1992. – Б. 34.
6. Яқвалхўжаев Ё. АҚШ да 60 кун //Ёш куч. 1991. – №7. – Б. 10-11.
7. Бобохонов Ш. Исломда "ақиқа" масаласи // Шарқшунослик. №5. – Тошкент: Фан, 1994. – Б. 109-112.
8. "Ватандош" радиостанцияси жорий архиви. "Ватан соғинчи ўртаган диллар" эшиттириш, 1990 йил 7 май.
9. Ватандош ташрифи // Тошкент ҳақиқати. 1991 йил 11 октябрь.
10. Ҳайитов Ш., Сайдов И. Хориждаги ўзбеклар тарихи ва этнографияси. – Самарқанд: 2015. – Б. 142.

Ш.Ҳайитов, И.Сайдов
ОБ ИСТОРИЧЕСКИХ КОРНЯХ
ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО
РАЗВИТИЯ УЗБЕКОВ-ЭММИГРАНТОВ
(1917-1991ГГ.)

В статье анализируются с научно-теоретической точки зрения нравственность и духовно-просветительские вопросы в отношении эммигрантов, пострадавших из-за не гуманной политики советской власти в 1917-1991 гг. Основное внимание уделяется факторам, повлиявшим на сохранение национального самосознания и самобытности эммигрантов-узбеков.

Ключевые слова: просвещение, духовность, воспитание, честность, уважение, гостеприимство, свадьба, похороны, предприниматель.

УДК: 9:322

ДВИЖЕНИЕ «ТАЛИБАН» ПОСЛЕ 2014 Г: СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ

A.Умаров

*Академия государственного управления при Президенте Республики Узбекистан,
старший научный сотрудник-соискатель*
E-mail: akram.umarov@gmail.com

Аннотация. В статье анализируется деятельность движения «Талибан» в Афганистане после вывода международных сил содействия безопасности и значительного сокращения иностранного военного контингента в стране после 2014 г. Впоследствии объявления о смерти руководителя движения муллы М.Омара в 2015 г., талибы сталкиваются с рядом внутренних и внешних вызовов в своей деятельности. Однако, несмотря на растущее давление на «Талибан», движению удается успешно противостоять афганским силам безопасности, консолидироваться и оставаться доминирующим антиправительственным вооруженным объединением.

Ключевые слова: Афганистан, Талибан, талибы, безопасность, переговоры.

Вывод основной части международного военного контингента к концу 2014 г. серьезно повлиял на сложившийся расклад сил в Исламской Республике Афганистан (ИРА). На фоне

Sh. Khayitov, I.Saidov
ABOUT THE MORALITY OF UZBEK-
EMIGRANTS AND THE HISTORICAL
ROOTS OF THEIR SPIRITUAL-
CULTURAL DEVELOPMENT (1917-
1991)

The following article scientifically and theoretically reveals and analyzes the morality of Uzbeks who were the victims of emigration because of inhuman policy of soviet government and its spiritual-cultural degree. Main attention is paid to the factors influencing on the morality of uzbeks and the aspects of self identification.

Keywords: enlightenment, spirituality, breeding, honesty, respect, hospitality, wedding, funeral, businessman.

снижения поддержки афганских сил национальной безопасности со стороны международных союзников, роста внутриполитических противоречий по вопросу формирования коалиционного правительства сторонниками А.Гани и А.Абдуллы, падения темпов экономического роста и других негативных тенденций движение «Талибан» начало предпринимать активные действия в противостоянии с правительственные силами. При этом талибы ставят целью увеличить территорию своего влияния, объемы финансирования и количество сторонников.

Так в апреле 2015 г. движение объявило о начале т.н. «весеннего наступления» под названием «Азм» против Афганских национальных сил безопасности (АНСБ) [5]. Одним из фактов является также публикация движением «Талибан» в тот же месяц биографии своего лидера Муллы Мухаммада Омара в виде документа из пяти тысяч слов на пяти языках [24]. Публикация включала детальное описание повседневных занятий находящегося в бегах лидера и даже подробности его личной и семейной жизни. Она была направлена на то, чтобы опровергнуть слухи о его гибели и прояснить спорные факты из жизни муллы Омара — не появлявшегося на публике с момента вторжения сил под руководством США в Афганистан в 2001 г.

Однако уже в июле 2015 г. движение подтвердило распространяемую СМИ информацию о гибели своего лидера в 2013 г. [24]. После длительных споров и недовольства ряда руководителей талибов в сентябре новым лидером движения был избран мулла Ахтар Мансур [12]. Один из видных командиров движения мулла Дадулла заявил о своем неподчинении новому руководителю и начале самостоятельной деятельности [23]. Однако он был убит в ходе боев между различными фракциями талибов в ноябре 2015 г. Наряду с ним еще ряд влиятельных членов движения М.Расул, Х.Рахмани, А.Разак объявили о своем несогласии избранием нового лидера талибов и оказывали сопротивление новому руководству [6]. Многие талибы опасались, что А.Мансур может пойти на чувствительные уступки представителям правительства и согласиться на мирный процесс в ущерб интересам движения [11]. Кроме того, ряд членов движения неодобрительно относились к наличию значительных личных бизнес-интересов нового лидера в Пакистане и ОАЭ [19].

Ахтар Мансур – преемник муллы М.Омара

Мулла А.Мансур ранее занимал должность заместителя муллы М.Омара [9] и был одним из его близких людей. Сразу после выдвижения он назначил своими заместителями известного богослова движения муллу Х.Ахундзада и полевого командира С.Хаккани, лидера одноименной группировки, которая считается наиболее боеспособной и жестокой частью талибов [26]. Также он смог заручиться поддержкой сына М. Омара муллы М.Якуба [11]. Эти усилия способствовали его сохранению лидерства внутри движения.

В период лидерства А.Мансура в движении «Талибан» можно выделить следующие основные тенденции:

1. Движение «Талибан» не имеет жесткую иерархическую систему, что выражается в практически независимой тактической деятельности проталибовских полевых командиров. Однако в последнее время наблюдались отдельные признаки постепенного снижения эффективности стратегического управления всеми составными частями движения со стороны единого центра. Местные представители талибов старались все в большей степени осуществлять более самостоятельную деятельность исходя из собственных узких интересов.

2. В январе 2015 г. представитель Исламского государства Ирака и Леванты (ИГИЛ) ал Аднани заявил о расширении территории деятельности организации на Афганистан и объявил одного из командиров пакистанского «Талибан» Хафиз Саид Хана губернатором «провинции Хорасан» [16]. Ряд террористических групп и полевых командиров в стране заявили о переходе на сторону ИГИЛ. Примечательным обстоятельством является то, что среди перешедших на сторону «Исламского государства» были ряд бывших членов и командиров движения «Талибан». К примеру, экс-командир талибов А.Хадем объявил себя «заместителем наместника Хорасана» ИГИЛ [16]. А.Хадем после освобождения из тюрьмы в Гуантанамо в 2007 г., за короткое время превратился в одного из видных руководителей движения, даже стал вторым человеком в военной компоненте талибов [8]. Он активно вербовал в свои ряды людей в провинции Гельменд, но был убит в результате удара с БПЛА контингента НАТО в феврале 2015 г. [3].

Талибы не приветствовали возникновения новой организации на территории ИРА, которая не подчинялась им и во многом восприняли ее в качестве экзистенциальной угрозы. В результате этого, произошли боестолкновения между последователями «Талибан» и ИГИЛ в ряде афганских провинций. После перестрелок между сторонниками ДАИШ и талибами были убиты около 27 человек в провинции Фарах в мае 2015 г. [25]. Также члены ИГИЛ захватили около 10 талибов и убили их в провинции Нанхангар в июне 2015 г. [13]. По итогам этих боевых действий, талибам удалось отстоять собственное доминирующее положение в стране. Последователи же ИГИЛ в основном закрепились в ряде уездов провинции Нангархар, Кунар и Нуристан, поскольку в этих регионах традиционно отсутствовало подавляющее влияние талибов или других повстанческих группировок, а также исходя из близости границы с Пакистаном, с которого внедрение на территорию Афганистана боевиков дало мощный толчок расширению ИГИЛ.

3. В вопросе проведения переговоров с правительством Афганистана в руководстве талибов отсутствует общая согласованная линия. Ряд лидеров движения выступают за переговорный процесс и примирение с Кабулом. Они объясняют свою позицию необходимостью официального вхождения талибов в состав руководства страны, при этом надеясь и опираясь на поддержку сторонников движения получить все значимые посты государства. Кроме этого они полагают, что контакты с правительством страны и международным сообществом будут способствовать легитимации и официальному признанию движения «Талибан» в мире.

В то же время отдельные руководители движения выступают резко против каких-либо контактов с правительством в Кабуле и США. Они считают, что с выводом международных сил преимущество в противостоянии с АНСБ перешло на их сторону, и нет необходимости в ведении переговоров. Они последовательно выступают за ожесточенное противостояние с правительственные силами и международным военным контингентом, а также за силовой захват власти в Афганистане. Срыв, намеченных на август 2015 г. переговоров талибов с правительством страны при участии представителей Пакистана, США и КНР путем объявления незадолго до этого о смерти лидера движения муллы Омара, вероятно, также вызвано внутренними противоречиями относительно перспектив диалога с правительством ИРА.

4. Движение «Талибан» продолжало наращивать свое влияние и пыталось преодолеть внутренний раскол. Возросшая активность и достигнутые успехи движения вызывают озабоченность как внутри Афганистана, так и за его пределами. Только за май-июль 2015 г. в Афганистане было зарегистрировано около 6100 инцидентов в сфере безопасности, из них 79 % составляли вооруженные боестолкновения и подрывы взрывчатых веществ [21]. Количество жертв среди гражданского населения составило около 3700 чел. в 2014 г., что явилось самым высоким показателем с 2009 г. [2]. В большинстве случаев инциденты и убийства были совершены именно представителями талибов.

Специалисты миссии ООН в Афганистане в октябре 2015 г. оценили уровень угрозы в около половине из 398 административных районов страны как «высокий» и «экстремальный», что является самым худшим показателем после начала военной операции США в 2001 г. [20]. Согласно опросам населения в 2015 г., всего лишь 28 % афганцев считают уровень безопасности удовлетворительным в местах их проживания по сравнению с 35 % в 2014 г. и 45 % в 2013 г. [10].

Показателем глубоких проблем в профессионализме и подготовленности АНСБ является захват членами движения «Талибан» г. Кундуз на севере Афганистана в сентябре 2015 г. Впервые за последние 14 лет с начала операции «Несокрушимая свобода» талибам удалось захватить крупный административный центр и удерживать его в течение 15 дней [18]. Атака на Кундуз имела в определенном смысле и символическое значение, поскольку произошла в преддверии первого года правления тандема Гани-Абдулла.

Примечательно, что контингент афганских вооруженных сил в городе перед наступлением талибов составлял более 7000 чел., но они не смогли дать отпор нескольким сотням боевикам. Для проведения операции по восстановлению контроля над городом были привлечены дополнительные силы из других провинций и ограниченный контингент американского спецназа при поддержке авиации США [15].

Показательным является и то, что в последнее время силы талибов концентрируется вокруг административного центра провинции Гильменд г.Лашкаргах. В настоящее время правительственные силы потеряли контроль над 10 из 14 районов провинции и талибы вплотную приблизились к границам Лашкаргаха [7]. При этом примечательно, что в провинции расквартирован 215-корпус Афганской национальной армии¹. В ходе обсуждения складывающейся ситуации в Гильменде с афганской стороной, экс-командующий силами коалиции генерал Дж.Кэмбелл раскритиковал афганских офицеров за «плохое управление» подразделениями. По его мнению, коалиционные силы усердно тренируют местных военных, но из-за отсутствия дисциплины эта деятельность не приносит должного результата. Генерал подчеркнул, что обстановка опасная и ставки очень высоки, но не в его силах «заставить сражаться» афганскую армию. Для того, чтобы это произошло, правительственные войска должны захотеть очистить страну от боевиков «больше, чем этого хотят» на Западе [7].

5. Указанные факты свидетельствуют, что после некоторого спада в деятельности талибов в начале и середине прошлого года, движение постепенно восстановило свои силы и возможности. Лидер группы А.Мансуру пытался постепенно взять под полный контроль все элементы движения. С целью решения этой задачи А.Мансур стремился демонстрировать всеохватность и широкие возможности движения во всех регионах страны.

Лидер движения предпринял ряд успешных шагов по консолидации власти в своих руках. В 2015 г. был убит один из главарей фракции талибов, не признавших новое руководство, мулла Дадулла. В апреле 2016 г. СМИ сообщили об аресте еще одного главаря данной группы муллы Расула в Пакистане. В этом же месяце А.Мансур объявил о назначении старшего сына муллы Омара муллы М.Якуба главой талибской военной комиссии в 15 провинциях Афганистана, в то время как брат муллы Омара мулла Абдул Манан получил место главы движения по религиозным вопросам. Кроме того, лидер талибов включил в руководящий состав организации представителей непуштунских национальностей: таджика Ш.Шарифа, узбека М.Абдул Рахмана, а также туркмена (имя неизвестно) [26]. Возможно, активизация проталибских объединений и других сил в приграничных с Туркменистаном и Таджикистаном территориях в последнее время также связана с этим решением и желанием показать собственное влияние в местах, где традиционно движение не было широко представлена. Данные обстоятельства способствовали укреплению власти А.Мансура внутри движения «Талибан».

6. В то же время А.Мансур отверг ряд предложений четырехсторонней координационной группы (Афганистан, Китай, Пакистан и США) по урегулированию конфликта в Афганистане о проведении встречи между Кабулом и руководством талибов в феврале 2016 г. для мирных переговоров между противоборствующими сторонами [4]. Данная группа провела к настоящему времени 5 встреч и пока не добилась перелома во взаимоотношениях талибов и правительства страны [14]. Ликвидация А.Мансура 22 мая 2016 г. в результате атаки с военного беспилотного летательного аппарата США на территории пакистанской провинции Белуджистан [1] привела к замораживанию деятельности этого формата. Неудача координационной группы связана следующими обстоятельствами:

1) Объявление весеннего наступления талибами, а также резкие заявления ряда официальных лиц в Кабуле о необходимости полноценной борьбы с движением «Талибан», вероятно, являются элементами торга о начале переговоров между этими сторонами. Каждый из противников перед вступлением в переговорный процесс пытается занять выгодные позиции и не был готов обсуждать с противоположной стороной условия мира на данном этапе.

2) Талибы не имеют внутреннего консенсуса относительно контактов с правительством в Кабуле. В то же время, глава движения А.Мансур не обладал достаточным авторитетом и влиянием для объединения вокруг себя всех сторонников движения. Его убийство и избрание новым лидером муллы Х.Ахунзады [22] застопорили переговорный процесс, поскольку требуются новые усилия и время для установления контактов с пришедшим к власти руководством талибов и выяснения его позиций по диалогу с правительством ИРА.

¹ В среднем численность корпуса в различных армиях стран составляет около 20-40 тыс. чел.

3) В правительстве Афганистана также отсутствует общее видение перспектив переговоров с талибами. Ряд влиятельных политиков и объединений не поддерживают данную идею и призывают руководство страны к военному противостоянию с движением.

4) Исламабад на данном этапе, вероятно, не заинтересован в скором урегулировании конфликтной ситуации в Афганистане и сотрудничества талибов с Кабулом. Возможно, Пакистан полагает, что внедрение отдельных талибов в нынешнюю политическую систему страны, как предполагают поддерживающие переговоры с ними внутренние и внешние силы в Афганистане, приведет к снижению возможностей Исламабада влиять на ситуацию в соседней стране. Официальная поддержка пакистанской стороной данного переговорного формата преследует цели представления себя «в выгодном свете» миротворца на международной арене, а также для обыгрывания в своей внутриполитической повестке в контексте объявленной решительной борьбы с проявлениями терроризма.

X.Ахундзада – компромиссный выбор движения «Талибан» и его возможные дальнейшие действия

Убийство А.Мансура внесло определенные волнения в ряды талибов, поскольку в течение 9 месяцев было объявлено о смерти уже второго лидера движения. Однако на этот раз во избежание дальнейших внутренних противоречий уже через 3 дня после гибели А.Мансура было объявлено об избрании новым руководителем движения мулла Х.Ахундзада, известного духовного лидера талибов. Представляется, что талибы на этот раз решили избрать компромиссную фигуру, которая пользуется поддержкой среди многих обычных членов движения. Его заместителями были назначены сохранивший свой пост С.Хаккани и мулла М.Якуб [27].

Представляется, что новый состав руководства движения находит больше поддержки на всех уровнях объединения «Талибан». С.Хаккани, ответственный за военную компоненту, известен в качестве опытного полевого командира, бескомпромиссного противника АНСБ и организатора многих резонансных операций талибов. А сын муллы М.Омара мулла М.Якуб ассоциируется у представителей талибов сохранением преемственности в движении, приверженностью традициям, принципам и большим успехам группы в прошлом. Вместе с тем, нельзя исключать и то, что постепенно занимающий все более высокие посты в движении «Талибан» 27-летний М.Якуб проходит некий процесс подготовки к более высокому положению и в перспективе может возглавить талибов.

Полагаем, что дальнейшая деятельность движения «Талибан» под началом нового лидера и развитие ситуации в Афганистане может развиваться по следующим сценариям:

Сценарий 1.

Убийство муллы А.Мансура, вероятно, было согласовано всеми ведущими участниками современного процесса урегулирования конфликта в Афганистане. Отказ талибов от переговоров с правительством в Кабуле ударило по имиджу практически всех внешних и внутренних сил, которые были вовлечены в организации встречи представителей движения «Талибан» и правительства страны. В то же время подозрения в тесном сотрудничестве А.Мансура с представителями Ирана [17] могли не устроить ряд внешних сил, активно участвующих во внутриполитическом устройстве Афганистана.

Данное обстоятельство могло подвигнуть эти силы к объединению усилий для демонстрации их возможностей оказания давления на талибов. Даже Исламабад, ставленником которого считался мулла Мансур, после его ликвидации беспилотником США на пакистанской территории ограничился лишь демонстративным дипломатическим протестом американской стороне, избегая резких заявлений в адрес Вашингтона. Возможно, они полагают, что новое руководство талибов будет более договороспособным и учтет их интересы при переговорах с Кабулом. Частая смена лидера движения ослабляет его и ударяет по морально-психологической готовности талибов к продолжению противостояния с правительственные силами.

Сценарий 2.

Не исключено, что устранение противоречивой фигуры муллы Мансура, которому не удалось за прошедшее время найти поддержку всех членов движения, с лидерства будет способствовать консолидации талибов. По мнению экспертов, новый глава движения мулла Х.Ахундзада обладает высокой степенью уважения практически у всех слоев талибов. Его

радикальные религиозные познания и длительная успешная работа в учебных заведениях по подготовке талибов служат основанием для его знакомства и поддержке среди большинства членов движения. Назначение его заместителями С.Хаккани и сына муллы Омара муллы Якуба также может помочь объединению всех фракций талибов и активизации подрывной деятельности движения на всей территории страны. В свою очередь, внутреннее и военное усиление талибов будет торпедировать возможности налаживания контактов между движением и правительством ИРА.

Сценарий 3.

Несмотря на неожиданную гибель лидера движения и назначение нового руководителя нынешний статус-кво в Афганистане сохранится. Талибы и правительственные силы будут вовлечены в вялотекущий конфликт и будут стремиться занять более выгодные позиции до вступления в переговорный процесс. Внешние и внутренние силы также будут имитировать активную деятельность по налаживанию переговорного процесса между противоборствующими силами, при этом оставаясь заинтересованными в сохранения нынешнего расклада сил в стране.

В целом, талибы, несмотря на растущие разногласия внутри движения, остаются пока главной силой, противостоящей правительству в Кабуле и имеющей значительную поддержку среди пуштунского населения Афганистана. В настоящее время движение не намерено идти на какие-то уступки правительству в Кабуле. Также талибы настроены решительно против заметного присутствия ИГИЛ в стране. Внутренний раскол в организации требует от нового лидера Х.Ахундзада решительных действий для установления собственного единоличного правления. В ряду таких шагов можно рассматривать успешное противостояние с правительственные силами и устранение сторонников ДАИШ с традиционных территорий присутствия талибов.

Продолжающийся вялотекущий внутренний конфликт в Афганистане остается серьезным источником угроз и вызовов безопасности региону ЦА. Растущая нестабильность в стране, ожесточенное противостояние различных сил и вмешательство во внутренние процессы ведущих держав мира делают ситуацию в стране неопределенной и трудно прогнозируемой. В то же время излишняя «драматизация» процессов и алармизм в оценке современного положения в Афганистане не отвечает интересам стран ЦА.

Adabiyotlar.

1. Adam Entous and Jessica Donati. How the U.S. Tracked and Killed the Leader of the Taliban. // The Wall Street Journal, May 25, 2016. <http://www.wsj.com/articles/u-s-tracked-taliban-leader-before-drone-strike-1464109562>
2. Afghanistan Development Update. // The World Bank, October 2015. p.1
3. Afghanistan drone strike 'kills IS commander Abdul Rauf'. // BBC, 9 February 2015. <http://www.bbc.com/news/world-asia-31290147>
4. Ankit Panda. Road to Quadrilateral-Backed Peace Talks Uncertain as Taliban Refuse to Participate. // The Diplomat, March 07, 2016. <http://thediplomat.com/2016/03/road-to-quadrilateral-backed-peace-talks-uncertain-as-taliban-refuse-to-participate/>
5. Bill Roggio. Afghan Taliban announces new 'spring operations'. // The Long War Journal, 22 April 2015. <http://www.longwarjournal.org/archives/2015/04/afghan-taliban-announce-new-spring-operations.php>
6. Borhan Osman. Toward Fragmentation? Mapping the post-Omar Taleban. // Afghanistan Analysts Network, 24 November 2015. p.2
7. Borhan Osman. Why capturing Helmand is top of the Taleban's strategic goals. // Afghanistan Analysts Network, 28 December 2015. <https://www.afghanistan-analysts.org/why-capturing-helmand-is-top-of-the-talibans-strategic-goals/>
8. Daesh terrorists gaining ground in Afghanistan: UN. // Press TV, 26 September 2015. <http://www.presstv.ir/Detail/2015/09/26/430744/Afghanistan-Daesh-UN-Takfiris-Taliban>
9. David Kilcullen. Blood Year: The Unraveling of Western Counterterrorism. Oxford University Press, 2016. p.182-183

10. Enhancing Security and stability in Afghanistan, Department of Defense, 1225 Report, December 2015, p. 17
11. Jibril Ahmad. Taliban's Mullah Omar died of natural causes in Afghanistan, son says. // Reuters, Sep 14, 2015. <http://www.reuters.com/article/us-pakistan-taliban-idUSKCN0RE0RC20150914>
12. Joanna Plucinska. A Divided Afghan Taliban Has Finally Accepted Its New Leader, Reports Say. // Time, 17 September 2015. <http://time.com/4037785/taliban-mullah-omar-new-leader-akhtar-mansour/>
13. John Hall. ISIS terrorists ambush and behead 10 Taliban fighters in Afghanistan. // The Daily Mail, 8 June 2015. <http://www.dailymail.co.uk/news/article-3114979/ISIS-terrorists-ambush-behead-10-Taliban-fighters-Afghanistan-bloody-rivalry-terror-groups-intensifies.html>
14. Joint Press Release: The Fifth Meeting of the Quadrilateral Coordination Group (QCG) of Afghanistan, Pakistan, the United States and China. The U.S. Embassy in Islamabad (Pakistan), May 18, 2016. <http://islamabad.usembassy.gov/pr051816.html>
15. Joseph Goldstein and Mujib Mashalept. Taliban Fighters Capture Kunduz City as Afghan Forces Retreat. // The New York Times, 28 September 2015. <http://www.nytimes.com/2015/09/29/world/asia/taliban-fighters-enter-city-of-kunduz-in-northern-afghanistan.html>
16. Lwj Staff. Islamic State appoints leaders of 'Khorasan province,' issues veiled threat to Afghan Taliban. // The Long War Journal. 27 January 2015. http://www.longwarjournal.org/archives/2015/01/islamic_state_appoin.php
17. Michael Kugelman. What Was Mullah Mansour Doing in Iran? // Foreign Policy, May 27, 2016. <http://foreignpolicy.com/2016/05/27/mullah-mansour-iran-afghanistan-taliban-drone/>
18. Obaid Ali. The 2015 Insurgency in the North (3): The fall and recapture of Kunduz. // Afghanistan Analysts Network, 16 October 2015. <https://www.afghanistan-analysts.org/the-2015-insurgency-in-the-north-3-the-fall-and-recapture-of-kunduz/>
19. Richard Spencer. New Taliban leader Mullah Mansour 'is businessman protected by Pakistan'. // The Telegraph, 05 Oct 2015. <http://www.telegraph.co.uk/news/worldnews/asia/afghanistan/11913113/New-Taliban-leader-Mullah-Mansour-is-businessman-protected-by-Pakistan.html>
20. Rod Nordland and Joseph Goldstein. Afghan Taliban's Reach Is Widest Since 2001, U.N. Says. // The New York Times, 11 October 2015. <http://www.nytimes.com/2015/10/12/world/asia/afghanistan-taliban-united-nations.html>
21. SIGAR, Quarterly Report to Congress, October 30, 2015, p. 94, <https://www.sigar.mil/pdf/quarterlyreports/2015-10-30qr.pdf>.
22. Sune Engel Rasmussen and Jon Boone. Afghan Taliban appoint Mullah Haibatullah Akhundzada as new leader. // The Guardian, 25 May 2016. <https://www.theguardian.com/world/2016/may/25/taliban-new-leader-death-confirmed-mullah-mansoor-haibatullah-akhundzada>
23. Taimoor Shah and David Jolly. Leader of Taliban Splinter Group Allied With ISIS Is Killed. // The New York Times, 1 December, 2015. <http://www.nytimes.com/2015/12/02/world/asia/leader-of-taliban-splinter-group-allied-with-isis-is-killed.html?r=0>
24. Taliban admit covering up death of Mullah Omar // BBC, 31 August 2015. <http://www.bbc.com/news/world-asia-34105565>
25. Taliban-ISIS turf war kills 27 in Afghanistan. // The Daily Star, 28 May 2015. <http://www.thedailystar.net/world/middle-east/taliban-isis-turf-war-kills-27-afghanistan-88150>
26. Thomas Ruttig. The New Taleban Deputy Leaders: Is there an obvious successor to Akhtar Mansur? // Afghanistan Analysts Network, 10 February 2016. <https://www.afghanistan-analysts.org/the-new-taleban-deputy-leaders-is-there-an-obvious-successor-to-akhtar-mansur/>
27. Waheed Massoud. Afghan Taliban announce successor to Mullah Mansour. // BBC, 25 May 2016. <http://www.bbc.com/news/world-asia-36375975>

A.Umarov

**2014 YILDAN SO'NG «TOLIBON»
HARAKATI: HOLATI VA ISTIQBOLLARI**

Maqolada Afg'onistondagi "Tolibon" harakatining 2014 yilda mamlakatni xavsizlikni ta'minlashga ko'maklashuvchi xalqaro kuchlarning tark etishi va tashqi qurolli kuchlar kontingentining keskin qisqarishidan so'nggi faoliyati tahlil qilingan. Harakatning asoschisi va ko'p yillik rahbari mulla M.Umar vafot etganligi to'g'risida 2015 yilda e'lon qilingandan keyin toliblar ko'plab ichki va tashqi xavflarga duchor kelmoqda. Biroq "Tolibon"ga nisbatan tazyiq kuchayishiga qaramay, harakat hukumat kuchlariga qarshi muvaffaqiyatl Kurashayapti, birlashayapti va mamlakatdagi yetakchi siyosiy kuchlardan biri bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: Afg'oniston, Tolibon, toliblar, xavfsizlik, muzokaralar

A.Umarov

**THE "TALIBAN" MOVEMENT AFTER
2014: STATE AND PROSPECTS**

The article analyzes the activities of the movement "Taliban" in Afghanistan after the withdrawal of International Security Assistance Force and a significant reduction of foreign military forces in the country after 2014. Since the announcement of the death of the founder and the permanent leader Mullah M.Omara movement in 2015, the Taliban has faced a number of internal and external challenges in its functioning. However, despite the increasing pressure on the "Taliban", the movement manages to successfully confront the Afghan security forces, to consolidate and to remain the dominant anti-government armed group.

Keywords: Afghanistan, Taliban, Talibs, security, negotiations.

UDK: 9:615.89

FARG'ONA VODIYSI XALQ TABOBATI TADQIQODCHILAR NAZDIDA

X.S.Jumanazarov

*O'zRFA Tarix instituti, katta ilmiy xodim-izlanuvchi*E-mail: urshid_87@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'tgan asrning ilk choragida Farg'ona vodiysi xalq tabobatiga doir materiallar tahlil qilingan. Xalq tabobatining ahvoli, davolash an'analar, jamiyatda tutgan o'rni masalalarini adabiyotlarda yoritilishi va davr tuzumining tabobatga munosabati o'lkada faoliyat yuritgan tadqiqotchilar asarlari misoldida tadqiq qilangan.

Kalit so'zlar: mistik va empirik tabobat, tabib, dorivor giyoh, sartarosh, zamonaviy tibbiyot, etnografik tadqiqot.

Mustaqillikdan keyingi yillarda bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlar kabi etnologiya fani sohasida ilmiy-nazariy va metodologik izlanishlar amalga oshirildi. Natijada o'zbek xalqi madaniyatiga xos bo'lgan turli an'analar, marosimlar hamda urf-odatlar katta mashtabda o'rganildi va ayrim muhim masalalarini tadqiq qilish davom etmoqda.

Etnologiya sohasida o'rganilishi lozim bo'lgan yo'nalishlardan biri xalq tabobati bilan bog'liq an'analardir. Etnologlarning bu sohaga bo'lgan qiziqishi o'tgan asrda yuzaga kelgan bo'lsa ham[1], o'zbek xalqining tabobat an'analarini etnologik yo'nalishda mukammal tadqiq qilinmagan..

Tarixiy etnografik tadqiqotlardan ma'lumki, dastlab o'zbek xalq tabobatini o'rganish XIXasr oxiri va XXasr bosqlarida boshlangan bo'lib, aynan bu davrda yurtimizda tadqiqot olib borgan Rossiyalik olimlar, harbiylar va sayohatchilari ilmiy izlanishlar olib borishgan[2]. Mazkur tadqiqotlarda ayrim hollarda davrning siyosiy maqsadlari, tuzumning o'lka xalqlarining milliy madaniyatiga bo'lgan munosabati yaratilgan asarlarda ham ta'sir ko'lamini ko'rsatgan bo'lsa-da, biz o'sha vaqtida an'anaviy xalq tabobatimizga doir ayrim qimmatli ma'lumotlarni olishmiz mumkin. Jumladan, Farg'ona vodiysi tadqiqotlariga bag'ishlangan asarlarning aksariyatida vodiy aholisining xalq tabobati bilan bog'liq qarashlari, an'analarini keltirilgan. Aksariyat hollarda rus vrachlarining, etnograflarining kuzatuvlari natijasida bu sohaga doir ma'lumotlar yaxlit holatga keltirilgan.

Farg'ona vodiysida yashab, mahalliy xalqning tibbiy bilimlari va xalq tabobati an'analarini o'rganganlardan biri V.I. Kushelevskiy hisoblanadii. Lekin afsuski muallifning o'zi haqida mayjud materiallardan to'loqonli ma'lumotlar berilmagan. Biroq ayrim manbalar orqali shifokor Qo'qon

shahrda yashab, faoliyat olib borganligini va 1889- yildan Farg‘ona viloyati tibbiyot bo‘lmidan rahbarlik qilganligini bilish mumkin [3]. V.I. Kushelevskiy 1900 -yil yanvar oyida vafot etgan [4].

Muallifning eng yirik asari Farg‘ona vodiysi tibbiy geografiyasi va sanitar holatiga bag‘ishlangan bo‘lib, u uch jiddan tashkil topgan [5]. Kitobning uchinchi jildining 17-bo‘limi xalq tabobatiga bag‘ishlangan. Muallif o‘lka xalq tabobatini uch guruhga, afsungarlik [6], empirik [7] va aralash tabobatga ajratib tadqiq qilgan.

Muallifning yozishicha, afsunga asoslangan tabobat diniy tasavvurlar bilan bevosita aloqador bo‘lib, bu bemorning ruhiy olami va uni tabiblar tomonidan biror g‘oyaga ishontira olish bilan bog‘liqdir. Muallif mahalliy xalqlarni so‘z magiyasiga asoslangan tabobat doirasida bir qancha muqaddas qadamjolarga qatnashini hamda har bir qadamjoyga ma’lum bir kasallikdan forig‘ bo‘lish uchun borish an’ anasi mavjudligi haqida ma’lumot beradi. Masalan, Konibodomdagi Ko‘kyo‘tal ota nomli qadamjoyga sil va ko‘kyo‘tal kasaliga shifo istab borilsa, Namangandagi Poshsho ota qabriga boylik so‘rab, Bobo ota qabrini esa farzand ilinjidagi ziyoratchilar ziyorat qilishadi [8]. Lekin muallif qadamjolarda o‘tkaziladigan marosimlar haqida batatsil ma’lumot bermagan. Mistik tabobatning navbatdagi ko‘rinishi sifatida *parixon, duoxon, azaimxon* [9] va *qorilarning* bemorlarni dardidan forig‘ qilish maqsadida Qur‘oni karim hamda boshqa islomiy kitoblardan duolar o‘qish jarayonini keltiradi. Muallif 1882-yil Namanganda bepushtlikni davolavchi duoxon haqida ma’lumotlarni qayd etadi. Muallif bunday “tabib”larga nisbatan salbiy fikrda bo‘lib, asosan davolash natijasi zararli tugagan holatlarni ko‘proq yoritgan. Jumladan, kasalliklarni noto‘g‘ri davolashda din vakillari ham bevosita ishtirok etishini ko‘rsatish maqsadida, ruhiy kasal bemorni saraton chillasida 3 kun bog‘langan holatda duo o‘qish bilan tuzatmoqchi bo‘lishganini tasvirlaydi [10]. Aholi kasalliklarni Allohnning qahri kelishi yoki uning amri bilan yuzaga keladi deb bilishgan. Kasallikdan saqlanish, ko‘z tegishi, ishi yurishishi hamda turli balo-qazolarni bartaraf qilish maqsadida turli tumorlardan foydalangan. Tumor- duo yozilgan qog‘oz burchak shaklda buklanib, ustidan latta mato bilan himoyalangan bo‘ladi [11]. Tumor yoki duo tumor ichida bo‘ri tirnog‘i, qobonning [12] tishi, har xil toshlar, muqaddas buyumlar ham bo‘lishi mumkin.

Kitobda empirik tabobatga doir qismini o‘rganishda tabobatga oid bir qancha etnografik an’ana va udumlar bilan tanishishimiz mumkin. Muallif empirik usulda davolovchilarni alohida hurmat bilan tilga oladi. Ya’ni tajribada to‘plangan bilim va an’anaviy usullar bilan davolash xalq orasida asrlar davomida ajdodlardanavlodlarga o‘tib kelmoqda. Asrlar davomida bu usul sayqallanib katta tajribani o‘zida mujassam etganligini ta’kidlagan. Bu usulni yashovchanligi ustoz-shogird (otadan-o‘g‘ilga, hakimdan yordamchisiga o‘tgan holatda) an’analariga binoan ish yuritilishi sabablidir. Bu davrda vodiyida davlat ixtiyoridagi maxsus maktablar bo‘limgan, bu sohani o‘rganmoqchi bo‘lgan shaxs o‘ziga ustoz tanlagan hamda ustoz-shogird munosabatlari asosida ma’lum muddatda ustozning yonida (tabibning uyida) bo‘lib, ustozining bemorlar bilan muomala qilishi, tashxis qo‘yish hamda dori buyurish kabi jarayonlarini kuzatib, ko‘zi pishib borgan.

Muallif bevosita tabiblarni xalq orasida tutgan o‘rni borasida to‘xtalar ekan, aksariyat maxalliy aholini sinalgan tabiblari bo‘lib, odatda ularga murojaat qilishgan. O‘scha davrdagi tabiblarning tibbiyot xodimlaridan ustun jihatni bemorlar bilan qiladigan muomalasida edi. Ya’ni tabib yurtdoshlarining rasm-rusumlari, taomillarini yaxshi bilgan, bemor bilan yaqin kishisidek gaplashib, dasturxon atrofida suhabatlashib unga tashxis qo‘ygan [13]. Tabiblar o‘z bemorlarini qancha pulga davolaganini sir tutgan [14], bemorlarni ro‘yxat tuzmasdan, ortiqcha ovoragarchiliksiz qabul qilgan va kerak payti bemorni uyiga bir necha marotaba tashrif buyurgan.

Aholiga qulaylik tug‘dirish maqsadida mahalliy tabiblar mavjud bozorlarning rastalarida o‘zlariga joy hozirlashgan. V. Kushilevskiy tabibni bozorda bemorlarni qabul qilib, o‘scha yerni o‘zida dori tayyorlab berganligini qayd etadi. Tabiblarni bozorlarda faoliyat yurtishi haqida boshqa manbalarda ham ma’lumotlar uchraydi [15]. Har bir tabib o‘z davrida dori tayyorlovchi farmasevt va uni sotuvchi ham bo‘lgan [16]. Muallif yozganidek, mahalliy tabiblar dorilarni o‘zlarini tayyorlab tarqatishgan, uzoq hududlarga esa attorlar yordamida yetkazilgan [17]. Dori tayyorlashda asosan mahalliy o‘simliklar ildizi, moyasi va barglaridan, turli minerallardan hamda hayvonlarni tana a’zolaridan foydalilanigan. Dorilar damlama, xapdori, maz, yaraga bog‘lovchi malham (plastr) ko‘rinishda bo‘lgan [18]. Dorilarni tayyorlanishi hamda ayrim xomashyolari qattiq sir tutilgan. Bundan faqatgina tor doiradagi shaxslargina xabardor bo‘lgan.

Muallif shaxsiy kuzatishlari natijasida xalq orasida mashhur bo‘lgan dorivor vositalarni ro‘yxatini tuzadi. Bunda asosan bozorlarda xaridorgir bo‘lgan mahsulotlar asos qilib olinganini ta’kidlaydi. Ayrim dorivorlar haqida halq qarashlarini ham keltirib o‘tadi, masalan: o‘ziga to‘q oilalarning barchasida mumiy bo‘lib, mahalliy xalq uni odam miyasining yog‘idan olinadi [19] deb faraz qilgan. Kitobda 17 ta turli mineraldan ishlangan dori vositalari hamda dori tayyorlashda ishlatiladigan 105 ta giyoh va 10 ga yaqin hayvon va xasharot turlarini nomma-nom keltirib o‘tgan [20]. E’tiborli tomoni shundaki, muallif har bir mahsulotini qayerdan keltirilishi va nimaga davo bo‘lishi, undan dori tayyorlashda miqdor darajalariga ham imkon qadar to‘xtalgan. Shu bilan birgalikda o‘sha davrda tabiblar orasida mashhur bo‘lgan “Shifo-i qulb” (Yurak kasalligini davolash) nomli kitob haqida to‘xtalib, uning 26 ta bo‘limi haqida bat afsil ma’lumot bergen [21]. Bu bo‘limlarning har biri alohida kasallikka bag‘ishlangan bo‘lib, davolash usullari keltirilgan.

V. Kushelevskiy vodiyya tibbiy xodim sifatida faoliyat yuritganligi sababli bu hududda kuzatiladigan kasalliklar ro‘yxatini ham tuzadi va bu xastaliklarni mahalliy tabiblar tomonidan qanday davolashi borasida ham to‘xtalib, 36 ta mudom kuzatiladigan kasalliklarni keltirgan [22]. Jumladan, nafas yo‘llari yallig‘langanda mahalliy aholi bo‘zani qaynatib, iliq holga kelgach ichishgan. Muallif bo‘za haqida ilk bor Sibirda eshitgani va vodiyya tayyorlangan bo‘zaga mingdevona [23] qo‘shilishini aytadi.

O‘lkada tabiblarning jarrohlik amaliyoti borasida ham bir qancha ma’lumotlar uchraydi. Bu davrda qon olish (qortiq) hayvon shoxlari bilan amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ayrim paytlarda zulukdan ham foydalanishgan. Singan suyaklar esa asrlar osha saqlangan taxtakach qo‘yish bilan davolangan. Tabiblar tomonidan qo‘llaniladigan umumiyl usullardan massaj, parxez, issiq vanna qabul qilish, quyosh nuri ostida cho‘milish bo‘lgan [24].

Kitobning “Xalq tabobati” bo‘limini o‘rganib aytish mumkinki, muallifning o‘zi zamonaviy tibbiyot xodimi ekanligi, mahalliy tabiblarga (asosan mistik yo‘nalishda) nisbatan salbiy jihatlarni bo‘rttirib, rus vrachlari faoliyatini ijobjiy baholash maqsadida bu davrda tabiblarni o‘lkadagi vrachlarga nisbatan “bozori chaqqon”ligini hazm qilolmaydi. Shundan kelib chiqib tabiblarni savodsizlikda, ko‘rko‘rona davolashda, sanitariya-gigiyena qoidalariga muntazam amal qilmaslikda ayblaydi. Hattoki, “Farg‘onada ruslar kelguniga qadar ilmiy tabobat bo‘Imagan” - degan fikrni ilgari suradi [25]. Tabobatga oid kitoblarning aksariyati arab, fors, xitoy tillarida ekanligi hamda tabiblarning til bilmasligi tufayli, ular mutoala qilishdan mahrum degan xulosa beradi. Mahalliy tabiblarga nisbatan o‘lka tibbiyot xodimlarining salbiy qarashlari boshqa manbalarda ham ko‘plab uchraydi [26]. Aytish mumkinki, bu davr siyosatining bir ko‘rinishi bo‘lib, mazkur hukumat olib kirgan tashkil qilgan zamonaviy tibbiyotni keng yoyish maqsadida tabibilar faoliyatini turli diniy g‘oyalari va boshqa noilmiy qarashlar bilan qorishgan holda talqin qilingan. Muallif ham o‘zining iqtisodiy holatini tibbiyot orqali yaxshilash mumkinligini tushungan holda tabiblar haqida asosan subyektiv fikr bildiradi. To‘g‘ri, o‘sha davrda ham turli yolg‘onlar bilan yoki bilimsizligi tufayli kasallarga ziyon yetkazib, haqiqiy hakimlar obro‘sini to‘kuvchilar ham bo‘lgan yoki ayrim zamonaviy tibbiyot yutuqlari hatto tabiblarimiz uchun ham yangilik edi. Masalan: yuqumli kasalliklarga qarshi emlash, jarrohlik amaliyotlari, xavfli yaralarni tezda tuzatish kabilalar shular jumlasidan. Lekin tabobat bilan tibbiyotni o‘zaro qarama-qarshi qo‘yishning o‘zi xato edi. Chunki zamonaviy tibbiyotning ravnaq topishining asosiy sababi xalq tabobatidir. Muallif xalq tabobatiga ikkinchi darajali masala sifatida qarasada, o‘z kitobida vodiyl xalq tabobati tarixi, davolash usullari, nazariy bilimlari hamda ustoz-shogird an‘analari borasida birqancha qimmatli fikrlarni aytadi. Demak, bu davrda xalq tabobatini uch turi (yuqorida keltirildi) ham vodiyliliklar orasida ma’lum o‘ringa ega bo‘lib, har biri o‘z mijozlariga ega edi. Shu bilan birgalikda tibbiyot ham katta tezlikda xalq orasiga kirib singib borishini ko‘rishimiz mumkin. O‘ylaymizki, muallifning ushbu asari turli siyosiy qarashlar hamda shaxsiy munosabatlari uchun emas, balki o‘sha davrdagi vodiyl tabobatining umumiyl ahvoli va yutuqlarini ochib bera olganligi uchun ham ilmiy va amaliy qiymatga ega asar hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Архангельский Г. Историко-медицинский аспект изучения народной медицины // Советское здравоохранение. 1985. № 12. –С. 57-62.; Арон К. Латышская народная медицина. Рига. 1966.; Брехман И. Народная медицина в свете теории информации // Этнографические аспекты изучения народной медицины. Тез.всесоюз. науч. конф. 10–12 марта 1975. Л. 1975.; –С.

Cook. Medicine and the Australian aboriginal: a century of contact in the Northern Territory. «The Medical Journal of Australia». 1966. vol. 1, № 14.; Joder D. Folk medicine // Folklore and folklife. Chicago, 1972. P.34.; Гумаров В.З. Башкирская народная медицина. Уфа. 1985.; Минько Л. Народная медицина Белоруссии. Минск. 1969.; Торэн М. Русская народная медицина XIX начала XX века. М.1982.

2. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казан. 1886.; Вульфсон Э. Как живут сарты. М. 1908.; Гейерь И. Путеводитель по Туркестану. Т. 1901.; Монтерверде Н., Гаммерман А. Туркестанская коллекция лекарственных продуктов Музея Главного ботанического сада. Л. 1927.; Рождественский М. Хазрет-Аюбский теплый воды и Джалаль-Абадская санитарно-гигиеническая станция // Ежегодник Ферганской области. Том 1. Новый Маргелан. 1902. – С. 60-90.; Логофеть Д. Бухарское ханство под русским протекторатом. Сп. 1911.; Ушамуаллиф. Страна бесправия- Бухарское ханство и его современное состояние. Сп. 1909.; Терентьев М. Туркестань и туркестанцы // Вестник Европы. Том-V. Сп. 1875. – С.65-112.; Троицкая А. Лечение больных изгнанием злых духов (кучурук) среди оседлого населения Туркестана // Бюллетень Среднеазиатского Государственного университета. Вып. 10. Т. 1925–С. 145-155.

3. http://radoslovnaya.org/ru/wiki/index/index/page_id/8239/name/Кушелевский+Валериан+Устинович

4. Чулков Н.П. Русская провинция некрополь. М.1996. – С. 459.

5. Кушелевский В. Материалы медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Новый Маргелан. 1891.

6. *Мистик* (мистика) – тасаввұф, илохиётга, ғайритабиий күчларга ишониш // Русча-ўзбекча словарь. I-том. – Т.1983. 562-б.

7. Эмтирик-тажриба йўли билан, факат тажрибага асосланиб, бирор нарсани тажриба йўли билан аниқламоқ // Русча- ўзбекча словарь. II-том. Т.1984. 765-б.

8. Кушелевский В. Материалы медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Новый Маргелан. 1891.– С. 238.

9. Кушелевский В. Ўша асар. – С. 238-239.

10.Кушелевский В. Ўша асар. –С. 240.

11.Кушелевский В. Ўша асар. –С. 236.

12.Қобон-ёввой чўчқа, тўнғиз. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Т. 2007. V-жилд. 317-бет.

13.Кушелевский В. Ўша асар. –С. 243.

14.Сейфулмулуков И. К вопросу о табибизме в Узбекистане // Медицинская мысль Узбекистана. 1928. № 9-10. –С. 67.

15.Масалан: Галкин 1902 йилда чоп қилинган «Военно-статистическое описание Хивинского оазиса» асарида айтилишича табиблар даволаш билан бозорларда шуғулланишлари, ҳар бир табибнинг бозорда маҳсус дўкони бўлиб, бу дўконларда турли касалликларга даво бўладиган дорилар сотилиши, шу ернинг ўзидаёқ беморни кўриб, ташхис қўйиши, даволаши мумкин. Ғойибов М. ва бош. Хива табобати. Т. 1995. 29 б.; Қадимда машхур моштабилар хам бозорда дон маҳсулотлари билан савдо қилганлиги ва шу ерда келган беморларга ёрдам қўрсатилганлиги ҳақида ҳа маҳлумотлар бор. Бу хақда батафсил қаранг: Абдужаббор Муҳаммад Собир ўғли. Моштабиб. Т. 2001.

16.Кушелевский В. Ўша асар. - С. 244. Шишов А. Сарты // Сборник материалов для статистики Сыр-Дарьинской области. Том XI. Т. 1904. С. 382.

17.Кушелевский В. Ўша асар. С. 244.; Огудин В. Аптекари народной медицины мусульманского востока // Э.О. М. 2001. С. 112.

18.Кушелевский В. Ўша асар. –С. 244.

19.Кушелевский В. Ўша асар. –С. 252.

20.Кушелевский В. Ўша асар. –С. 245-259.

21.Кушелевский В. Ўша асар.–С. 268-269.

22.Кушелевский В. Ўша асар. –С. 271-277.

23.Мингревона-Ҳиди одамни гангитадиган бир хил ўт (тиббиётда ишлатилади) // Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Том II. –Т. 2006. 595-б.

24.Кушелевский В. Ўша асар. –С. 261.

25.Кушелевский В. Ўша асар. –С. 236.

26.Бу ҳақда батафсил қаранг: Богдан Рык. Бухарские хирурги (этнографический очерк) // Туркестанский ведомости. 1903.№ 53.; Логофет Д. Бухарское ханство-под русским протекторатом. Том II. –Т. 1911. Гел. Восточная медицина // Правда Восток. 1927.; Сейфулъмюлуков И. К вопросу о табибизме в Узбекистане // Медицинская мысль Узбекистана. 1928. № 9-10.

Х.Джуманазаров
ИССЛЕДОВАТЕЛИ ОБ
АЛЬТЕРНАТИВНОЙ МЕДИЦИНЕ В
ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

Эта статья имеет дело с испытаниями, которые зависят от альтернативной медицины Ферганской долины в первом квартале прошлого века. Были проанализированы условия альтернативной медицины, традиции, их роль в обществе, их решения, как было показано в книгах в период заповеди медицины, исследования науки, которые внесли свой вклад в этой области.

Ключевые слова: мистическая и эмпирическая медицина, лекарь, лекарственное растение, цирюльник (сартараш) современной медицины, этнографические исследования.

X.Djumanazarov
ALTERNATIVE MEDICINE OF
FERGANA VALLEY RESEARCHES'
OUTLOOK

This article deals with trials, which depend on alternative medicine of Fergana valley in the first quarter of the last century. It was analyzed with the conditions of alternative medicine, traditions of treatment, its role in the society, its solutions how to be shown in books and period centuries commandment to medicine, the researches of sciences who invested in this field.

Keywords: visionary and empiric quackery, quack, medicinal plant, barber, ethnographic research.

UDK 341.76 (575.1)

XALQ DIPLOMATIYASIGA ASOSLANGAN O'ZBEKISTON – TURKMANISTON HAMKORLIGI TARIXIDAN

G'.R.Mirzayev

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, katta ilmiy xodim-izlanuvchi

E-mail: gulom1403@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq diplomatiyasi tushunchasi va o'zbek xalq diplomatiyasining rivojlanishi O'zbekiston va Turkmaniston davlatlari hamkorligi misolida yoritilgan. Shuningdek, «O'zbekiston – Turkmaniston» do'stlik jamiyatining ikki mamlakat hamkorligini xalq diplomatiyasi asosida taraqqiy ettirishi hamda o'zbek va turkman xalqlarining tarixiy do'stona aloqalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: «O'zbekiston jamiyati», «O'zbekiston – Turkmaniston» do'stlik jamiyati, do'stona aloqalar, hamkorlik, madaniy tadbirlar, milliy qadriyatlar

Ma'lumki, xalq diplomatiyasi qadimdan insonparvarlik g'oyalariga asoslangan madaniyma'naviy va ma'rifiy hamkorlikning o'zaro manfaatlari tamoyillarini rivojlantirish hamda mustahkamlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Shu bois, milliy hunarmandchilik va savdosotiqning muayyan darajada taraqqiy etishi natijasi o'laroq uzoq va yaqin mamlakatlar bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi, turli urf-odat va madaniyatga ega bo'lgan xalqlar bilan muloqatga kirishishi xalq diplomatiyasining ravnaq topishdamuhim omil hisoblangan [1]. Davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek, «O'zbekiston barcha mintaqalar bilan, jahondagi hamma mamlakatlar bilan hamkorlik qilishdan manfaatdordir. Biz bu hamkorlik rishtalarini mustahkamlab, O'zbekistonni teng huquqli, siyosiy va iqtisodiy sherik deb biladigan barcha davlatlar bilan munosabatlar o'rnatishga tayyormiz» [2].

Tadqiqotchi R. Jo'rayevning fikricha, xalq diplomatiyasi – umumiylilik va xususiylikning qonuniy zaruriyati bo'lib, o'zida munosabatlarning barcha shakllarini, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy muloqotlar hamda aholining barcha qatlamlarini – dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, dindorlar, ziyolilar, ishchilar, talabalar, o'quvchilarni ham jamlay oladigan xalqaro munosabatlarning

mushtarak shaklidir[4]. Bir so'z bilan aytganda, bu – qadimiy xalqona munosabatlari va har xil mafkuraviy, siyosiy, diniy qarashlar, manfaatlardan xoli beg'ubor vata'sirchan hamda samarali tarzdagi diplomatiyadir. Demak, xalq diplomatiyasi xalq va hukumat manfaatlari ifodasini ta'minlab, hududimizda ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini ro'yobga chiqaradi. Binobarin, xalq diplomatiyasi hukumat tarkibiga kirmaydigan jamoat birlashmalarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy munosabatlari shaklidir. Har qanday demokratik davlat, eng avvalo, o'z xalqining manfaatlарini ifoda etadi. Ya'ni, bugungi xalq diplomatiyasi alohida mayjudbo'lmay, hukumat tasarrufidagi diplomatiyaning tarkibiy qismidir. Darvoqe, xalq diplomatiyasining insonparvarlik mohiyati shundaki, ya'ni turli moddiy va ma'naviy madaniyatga ega xalqlarni bir-biri bilan tanishtirish, ular o'rtaida o'zaro do'stlik va xayrioxohlik hamda tinch-totuvlikni qaror toptirish uchun ko'maklashuvchi faol jamoat shaklidir [6].

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi va xalq diplomatiyasiga asoslangan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalari ko'p yillik tarixga ega. Demak, xalq diplomatiyasi haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo, hozirgi paytda samarali tarzda faoliyat yuritayotgan O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari Kengashi tarixiga nazar tashlash maqsadga muvofiqdir. O'tgan asrning 20-yillari oxirida Toshkent shahrida chet mamlakatlar bilan madaniy aloqalar jamiyatining O'rta Osiyo bo'limiga asos solindi. U 1947 yildan «O'zbekiston bo'limi», 1953 yildan esa «O'zbekiston jamiyat» deb atala boshlandi. Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, bu jamiyat o'sha davrga nisbatanolganda deyarli faoliyat yuritmasdi [7].

Ochig'ini aytganda, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin mazkur jamiyat mazmunan va shakl jihatidan butunlay yangilandi. Xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalarni yanada rivojlantirish, zamon talabiga ko'ra yuksak bosqichga ko'tarish hamda xalq diplomatiyasini yangicha ruhda ravnaq toptirishning muhim davri boshlandi. Ushbu jamiyat dastlab «Xalqaro madaniy-ma'rifiy aloqalar milliy uyushmasi», deb nomlandi. Qisqa vaqt ichida suveren davlatimizning milliy manfaatlari nazarda tutgan, turli xil yot g'oyalar ta'siridan xoli bo'lgan xalq diplomatiyasi asoslari ishlab chiqildi va hayotga tadbiq etila boshlandi. Xalqaro munosabatlarning yanada rivojlanishi natijasiga ko'ra, ushbu jamiyat 1997-yil 15-maydan «O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari Kengashi» sifatida ta'sis etildi [8].

Ta'kidlash joizki, Kengash va uning qoshidagi jamiyatlar, xalqlar o'rtaida tinchlik asosida hamkorlik faoliyatini o'rnatish hamda do'stona munosabatlari mustahkamlash, umuminsoniy g'oyalar va qadriyatlarni targ'ib qilish, chet el jamoatchiligi va xorijda istiqomat qilayotgan yurtdoshlarimizni o'zbek xalqining tarixi, madaniyati, an'anlari, urf-odatlari bilan tanishtirishda ko'maklashish kabi vazifalarni bajaradi. Shu bois ham Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari Kengashini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniasosida Kengash va uning tarkibidagi jamiyatlarning faoliyati uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratib berildi.

O'zbekiston Respublikasini mustaqil demokratik davlat hamda madaniy, ilmiy va gumanitar aloqalarda munosib faol sherik sifatida namoyon etishida jamiyatlar faoliyati muhim o'rin tutadi. Istiqlol yillarda O'zbekiston xalqi, uning tarixi va madaniyati bilan chet el jamoatchilagini yaqindan tanishtirish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirildi. Chunonchi, «O'zbekiston – Frantsiya» (1991 yil), «O'zbekiston – Isroil» (1992 yil), «O'zbekiston – Germaniya» (1993 yil) kabi o'nlab do'stlik jamiyatlar singari 1998 yil noyabr oyida «O'zbekiston – Turkmaniston» do'stlik jamiyat tashkil etildi. Hozirgi paytda O'zbekiston do'stlik jamiyatlar Kengash qoshida 34 ta xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy faoliyat olib boradigan do'stlik jamiyatlar, ularning viloyatlardagi bo'limlari va 20 dan ortiq chet davlatlarda unga turdosh tashkilotlar madaniy, iqtisodiy, ilmiy va turizm sohalarida xalq diplomatiyasiga asoslangan keng ko'lamli faoliyat olib bormoqda [8].

Qayd qilish lozimki, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtaida do'stona hamkorlikni yangicha, ya'ni zamon talablari darajasida yo'lga qo'yish va rivojlantirish muammolari hamisha Prezident Islom Karimovning diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, uning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 23 fevraldag'i birinchi sessiyasida ta'kidlaganidek: «Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlik milliy xavfsizlikning asosiy shartlaridan biridir. Xalqlarimiz tarixi, madaniyati, an'anlari, diniy e'tiqodining mushtarakligi mamlakatlarimiz o'rtaisdagi amaliy hamkorlik va hamjihatlikning asosiy poydevori hisoblanadi. Bizning maqsadlarimiz bir, taqdirimiz bir». Darhaqiqat, ushbu g'oyalar Markaziy Osiyo davlatlarining hozirgi paytda xalq diplomatiyasi

asosidagi hamkorlik aloqalari taraqqiyotida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Darhaqiqat, O'zbekiston va Turkmaniston davlatlarining xalq diplomatiyasiga asoslangan hamkorligini rivojlantirishda O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari Kengashi, «O'zbekiston - Turkmaniston» do'stlik jamiyat, Respublika Baynalmilal madaniyat markazi hamda Respublika turkman madaniyat markazlari faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, «O'zbekiston - Turkmaniston» do'stlik jamiyatish diplomatiyasi asosida o'zbek va turkman xalqlarining azaliy munosabatlarini mustahkamlash maqsadida o'z oldiga qo'ygan vazifalarni quyidagicha belgilagan:

- O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o'rtasida do'stlik, hamkorlikni yanada rivojlantirish va madaniy-ma'rifiy rishtalarni bog'lash hamda mustahkamlash;
- Turkmanistonda mamlakatimizning suveren demokratik va huquqiy davlat, madaniy-ma'rifiy, ilmiy, tinch xo'jalik yuritishda faol hamkor sifatidagi har tomonlama va obyektiv tasavvurlarning shakllanishiga ko'maklashish;
- hukumatga qarashli bo'limgan xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT va YUNESKO tizimidagi ixtisoslashgan tashkilotlar hamda institutlar, shuningdek boshqa xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish;
- O'zbekiston Respublikasi haqida axborot- ma'lumot fondlari va ma'lumot banklarini barpo etish, madaniy-ma'rifiy aloqalar masalalari bo'yicha konferensiylar, simpoziumlar, seminarlar o'tkazish, Turkmaniston jamoatchiligini mamlakatning madaniyat, san'at, ilm-fan, ta'lim-tarbiya sohalarida erishgan yutuqlari bilan tanishtirish;
- badiiy jamoalar va yakka ijrochilarining konsertlarini, tele va kinoko'riklarini, badiiy asarlar va xalq ijodiyoti namunalarini, eksponat va fotoko'rgazmalarini, O'zbekiston va Turkmanistonga bag'ishlangan kompleks tadbirlarni tashkil etish va shu kabi hamkorlikka doir masalalalarni o'zining asosisi, deb e'tirof etiladi [9].

Ma'lumki, har bir do'stlik jamiyati raisligiga bevosita mamlakatimizdagi Vazirliklar, Oliy ta'lim muassasasi rektorlari yoki tashkilotlar rahbarlari saylanadi. Jumladan, «O'zbekiston - Turkmaniston» do'stlik jamiyati Raisligi vazifasini mamlakatning Xalq ta'limi vaziri bajaradi.

Darhaqiqat, jamiyat tomonidan ikki mamlakat diplomatiyasini rivojlantirish va mustahkamlash borasida o'tgan yillar mobaynida qator madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda.

Chunonchi, jamiyatning amalga oshiradigan tadbirlar rejasidan kelib chiqqan holda 2010-yil 23-sentabr kuni O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari Kengashi tomonidan o'tkazilgan "Tasanno-2010" xalqaro oshpazlar ko'rik tanlovida turkman tomonining ishtiroy etishi qo'llab-quvvatlanib, ularga Jamiyat nomidan esdalik sovg'alarini topshirildi. 2010-yil 27-noyabr kuni esa, Turkmanistonning O'zbekistondagi Elchixonasida Turkmaniston davlatining mustaqillik kuni va Neytraliteti e'lon qilingan kuni munosabati bilan tadbir tashkil etilganligi O'zbekiston va Turkmaniston davlatlarining xalq diplomatiyasi asosida hamkorligi mustahkamlanib borayotganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, 2011 yil 5-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yillik yubileyi munosabati bilan Jamiat tomonidan «Mustaqillik yillarida ta'lim tizimining rivoji hamda ta'limning do'stlikni rivojlantirishdagi o'rni» mavzusida davra suhabatini o'tkazilishi va 2011 yil 13-dekabr kuni Jamiat tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligi hamda Turkmaniston Neytralitetining 16 yilligiga bag'ishlangan tadbirning tashkil etilishidan erishilgan natija shu bo'ldiki, O'zbekiston va Turkmaniston davlatlarining mustaqilligini o'zbek va turkman xalqi hayotidagi tarixiy ahamiyati, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishdagi roli hamda Turkmaniston Neytralitetining do'stona munosabatni mustahkamlashdagi mohiyati haqida bat afsil ma'lumot berildi.

Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlarida ko'p ming yilliklar mobaynida nishonlanib kelinayotgan Navro'z bayramiga doir tadbirlarni jamiyatning muntazam tashkil etib kelishi ikki mamlakat xalq diplomatiyasining muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Ushbu an'anadan kelib chiqqan holda, 2012 yil 31-mart kuni Jamiat a'zolari ishtiroyida umumxalq Navro'z bayramiga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi. Tadbirda Navro'z bayramining ikki xalq tarixi va taqdiri mushtarakligini mustahkamlashdagi roli yana bir bor e'tirof etilib, o'zaro yaqin qo'shnichilik munosabatlari yildan-yilga rivoj topib borayotganligiga e'tibor qaratilgan bo'lsa, 2015-

yil 20-mart kuni o'tkazilgan navbatdagi tadbirida esa ushbu bayramning milliy urf-odatlarni rivojlantirish va insonlar o'rtasidagi o'zaro mehr-oqibatni kuchaytirishga xizmat qilishi haqida so'z yuritilgan [3].

Shuningdek, jamiyat davlatlararo xalq diplomatiyasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari Kengashi bilan ham mustahkam aloqani yo'lga qo'yishgan. Jumladan, O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari Kengashining 15 yilligiga bag'ishlab 2012-yil 25-may kuni Kengash tomonidan «Xalq diplomatiyasi – xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni mustahkamlash omili» mavzusida o'tkazilgan anjumanda 11 nafar jamiyat a'zosi faol ishtirok etdi. Respublika Baynalmilal madaniyat markazi, Respublika turkman madaniyat markazi, Turkmanistonning O'zbekistondagi elchixonasi va «O'zbekiston – Turkmaniston» do'stlik jamiyati hamkorligida 2015-yil 19-iyun kuni Turkmaniston Betarafligining 20 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanda jamiyat ijrochi direktori o'z ma'ruzasi bilan ishtirok etib, O'zbekistonda millatlararo totuvlikning ta'minlanishi, ta'lim tizimida barcha millat vakillariga ta'lim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilganligi va mavjud turkman tilidagi maktablar faoliyati haqida to'xtalib o'tdi [5].

Umuman olganda, «O'zbekiston – Turkmaniston» do'stlik jamiyati mamlakat xalqlari o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalarni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, o'zini-o'zi boshqaradigan, hukumatga qarashli bo'lmasa respublika ko'ngilli jamoat birlashmasidir. Jamiyat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonun va boshqa me'yoriy hujjatlari asosida olib boradi [9].

Haqli ravishda, O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lining o'tgan chorak asri davomida xorijiy mamlakatlar, jumladan Turkmaniston davlati bilan xalq diplomatiyasi zamirida asrlarga tatigulik ishlarni amalga oshirdi. Mamlakatimizda tashkil etiladigan har bir madaniy tadbirda boshqa millat vakillari kabi turkman millatiga mansub yurtdoshlarimiz ham faol ishtirok etishmoqda. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilab berilgan barcha huquq va erkinliklardan unumli foydalanib mamlakatijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida islohotlarni amalga oshirishda munosib xizmat qilib kelmoqda.

Albatta, «O'zbekiston – Turkmaniston» do'stlik jamiyati faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyat bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turkman millatiga mansub yurtdoshlarimiz ishtirokida ko'plab madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkillashtirsa, ikki mamlakat xalq diplomatiyasi rivojida muhim omil bo'lardi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etayotgan O'zbekiston va Turkmaniston davlatlari hamkorligining xalq diplomatiyasi asosida rivojlanishida «O'zbekiston – Turkmaniston» do'stlik jamiyati faoliyati muhim ahamiyat kasb etib, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash hamda madaniy hamkorlikni taraqqiy topishida bosh omil bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar

- Каримов И.А. Ватан сақдагоҳ каби муқаддасидир. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.–Т. 3.– Б. 51.
- Каримов И.А. Олий мақсадимиз. Тошкентдаги дипломатия корпуси ва республикада фаолият олиб бораётган журналистлар билан учрашувда сўзлаган нутқи / 1995 йил 29 декабр. // Бунёдкорлик йўлидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. Т. 4. – Б. 199.
- Абидов З. Халқ дипломатияси – халқлар ўртасидаги дўстлик ва ҳамкорликни мустаҳкамлаш омили // Ўзбекистон. № 1-2. – Тошкент: 2012. – Б. 14.
- Жўраев Р.Т. Ўзбекистон халқ дипломатиясининг халқаро муносабатлардаги роли: Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзган диссертация. – Тошкен: 1999. – Б. 24.
- Иброҳимов Н. Халқ дипломатиясини фаоллаштириш – асосий мақсад // Ўзбекистон. № 1/2. – Тошкент, 2003. – Б. 2.
- Ирзаев Б. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда мусиқа маданиятининг ривожланиши. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б. 84-85.
- Ўзбекистон хорижий мамлакатлар билан дўстлик ва madаний-маърифий алоқалар жамиятлари Кенгаши жорий архivi материаллари. Шахсий архiv.

8. «Ўзбекистон хорижий мамлакатлар билан дўстлик ва маданий-маърифий алоқалар жамиятлари Кенгашини қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида» ПФ-1785-сонли Фармон. 1997 йил 26 май / Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997. 4-5-сон, 166-модда. // http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=216119. Мурожаат этилган сана: 15.02.2016.
9. Ўзбекистон - Туркменистан дўстлик жамияти архив материаллари. Шахсий архив.

Г. Мирзаев

**ИСТОРИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА
УЗБЕКИСТАНА И ТУРКМЕНИСТАНА НА
ОСНОВЕ НАРОДНОЙ ДИПЛОМАТИИ**

В этой статье освещено понятие народной дипломатии и узбекской народной дипломатии на основе сотрудничества Узбекистана и Туркменистана. Также, развивается общество дружбы «Узбекистан-Туркменистан» на основе народной дипломатии.

Ключевые слова: «Общество Узбекистан», общество дружбы «Узбекистан-Туркменистан», дружеские отношения, культурные мероприятия, национальные традиции.

G. Mirzayev

**FROM THE HISTORY OF
COOPERATION BETWEEN
UZBEKISTAN AND TURKMENISTAN
BASED ON NATION DIPLOMACY**

In this article the concept of population diplomacy and the development of Uzbek national diplomacy are explained as an example of communication between Uzbekistan and Turkmenistan. Moreover, the improvement of “Uzbekistan-Turkmenistan” friendship society by leaning on the cooperation of two countries is given in brief.

Keywords: “The society of Uzbekistan”, “Uzbekistan-Turkmenistan” friendship society, friendly communications, cooperation, cultural actions, national convention

UDK: 9 (575.1)

TURKISTONDA TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH TARIXIGA OID MUHIM BIR

HUJJAT

S.Muhiddinov

Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Maqolada 1894-yili “Turkiston viloyatining gazeti”da bositgan “Turkiston viloyatidagi madrasalarning katta mudarrislariga berilgan hukumat va ularga buyurilgan xizmat xususida ta'yin bo'lgan dasturulamal” nomli rasmiy hujjatning asl matni berilib, uning o'lkada ta'limdi boshqarish tarixini o'rganishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: milliy ta'lim, ta'limdi boshqarish, ma'nani yetuk shaxs, demokratik davlat, ta'lim madaniyati, huquqiy demokratiya, umuminsoniy qadriyat.

O'zbekiston hududi insoniyat tarixidagi sivilizasiyalar uchun makon bo'lgan mintalardan hisoblanadi. Bu hududda ilm-fan taraqqiyoti qadimdan bugungi kunga qadar izchil uzviy bog'liqlikda kechgan. Ilm-fan va ta'limgagi ushbu bog'liqlikning har qaysi davri tadqiq etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammo bo'lib, uni yechishda hamma vaqt ham manbalarning yetarli bo'lmaganligini ta'kidlash lozim. Ayniqsa Turkiston hududida ta'lim tizimining XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi holati to'g'risida ko'plab manbalar tarjima qilinmagan. Ularni tarjima qilish, izohlash, nashr ettirish mintaqqa tarixi, ta'lim va madaniyatini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa bugungi kunda malakali kadrlar tayyorlash tizimidagi alohida muammo bo'lib, qonun hujjatlarida alohida qayd etilgan [1].

Keyingi yillarda o'tmishda yaratilgan madaniyatimiz tarixiga oid asarlarni o'rganish va tadqiq qilish sezilarli darajada jonlandi. Ta'lim tarixini o'rganish borasida ham ko'pqirrali izlanishlar olib borilayotgani diqqatga sazovordir. Jumladan, I.Ostonaqulovning bu boradagi tadqiqotlari ilmiy ahamiyatga ega. Unda “Turkiston Viloyatining gazeti”da 1894 yili bositgan Ibn Yaminbekning “Turkiston viloyatidagi sartiya madrasalarida katta mudarrislarga berilgan dasturil amal xususida”

sharh berilgan va manbaning bugungi kundagi ahamiyati ochib berilgan edi[2]. Maqola ilmiy jihatdan yangilik bo'lishi bilan birga uning muallifi to'g'risidagi ma'lumotlar ham o'quvchi e'tiborni tortadi. Maqola tahlilida Ibn Yaminbekning sharhlari to'liq keltirilgan. Faqat ayrim matnlarning asliyati emas, balki hozirgi adabiy tildagi bayoni berilgan. Dastlab ushbu manbaning qisman tarjimasi Ibn Yaminbek tomonidan "Turkiston viloyatining gazeti"ning 1894 -yil, 15- mart, 15-sonida boshilgan.

Darhaqiqat, mazkur hujjat o'sha vaqtdagi Turkiston general-gubernatori Baron Vrevskiy imzosi bilan tasdiqlagan va matbuotda rus va o'zbek tillarida e'lon qilingan. Dasturil amal matniga kirish so'zi yozilmagan [3].

Biz quyida dasturil amalning o'zbek tilidagi variantini to'liq holda o'quvchi e'tiboriga havola qilishni rejalashtirdik. Matn mazmuni quyidagicha:

Turkiston viloyatidagi madrasalarning katta mudarrislariiga berilgan hukumat va olarg'a buyurilgan xizmat xususida tayin bo'lgan dasturil amal.

1. *Har bir madrasaning ikki yoki ikkidan ziyoda mudarrisi bo'lsa, shundog' madrasani oning katta mudarrisi boshqarib boradur.*

2. *Madrasaning mudarrisi bir bo'lsa, onga madrasaning katta mudarrisi hukumati beriladir.*

3. *Har bir madrasaning kichik mudarrislari, mutavallilari va mullalari o'z madrasalarining katta mudarrisig'a itoat qilib, aning nizomig'a muvofiq qilg'on talab va farmoyishlarini bajo keltirsalar kerak.*

4. *Har bir madrasaning katta mudarrislari lozimdurki, madrasalar ustidan qarab turgan inspektoring va ham boshqa Russiya mansabdorlarining nizomig'a muvofiq qilg'on farmoyishlarini bajo kelturadurlar.*

5. *Madrasalarda paydo bo'lg'on har qandog' voqyea va hodisalarning xabarini ul madrasaning katta mudarrisi taaxir qilmasdan inspekturg'a yetkazib tursalar kerak.*

6. *Madrasada istiqomat qilib turgan odamlarning biri nogohonda o'lib qolsa, va yo madrasaning imoratiga o't paydo bo'lsa, yo bul tariqa shaqovat va falokat madrasaga tushsa katta mudarris ul voqyeaning xabarini ham inspekturg'a va ham uyezd hokimiga va yo uchastkovuyg'a yetkursa kerak.*

7. *Har bir madrasaning katta mudarrislari har yil jaddiyning (dekabr) avvalida shul madrasaning mudarrisi va mutavallisi va mullasining nom daftarini (ro'yxatini) qilib mullalarning qaysisi adno (quyi) va qaysisi avsat (o'rta) va qaysisi a'lo ekonini va mullalarning qaysisi adnolik va qaysisi avsatlik va qaysisi a'lolik darajasidagi kitoblarni (sinf jurnali), necha yildin beri o'qib turgonini zikr aylab, mazkur daftarni inspekturga bersa kerak.*

8. *Katta mudarrisning o'z madrasasining vaqflaridin va vaqflarining mahsulotlaridin xabari bo'limasa, ul xabarni madrasaning mutavallisidin talab qilsa anga joyizdur.*

9. *Har yil hudning (fevral) avvalida katta mudarris inspekturg'a ma'lum qilsa kerakki, o'tgan yil madrasaning avqofidin qancha mahsulot bo'ldi va ul mahsulotlardin katta mudarris va mutavalli va mulla va boshqa ahli madrasa o'rtasida qancha pul taqsim qilingandur deb va madrasa avqofining ko'paygoni va kamaygonidin ham mazkur mazkur fursatda inspekturg'a xabar bersa kerak.*

10. *Madrasaning shipirlib ozoda tutmakligini oning katta mudarrisi ehtiyyot qilib tursa kerak.*

11. *Va yana mutavalli madrasaning shikast va rextini baqadri zarurat bartaraf qilg'onini katta mudarris ehtiyyot qilib tursa kerak.*

12. *Madrasaning shikast va rextig'a va ham vaqf surobi va do'konni, hammom va boshqa shu tariqa vaqf imoratlarining shikast va rextig'a ketgan pulning hisobini inspekturg'a manzur aylamak uchun mutavallidin talab qilmoqi katta mudarris joyiz va ravodur.*

13. *Madrasaning kichik mudarrislari mudarrislik lavozimini bajo kelturgonlarini katta mudarris ehtiyyot qilib tursa kerak.*

14. *Madrasaning kichik mudarrislari, mutavallilari va mullalari o'rtasida janjal va xarxasha paydo bo'lsa, katta mudarrisg'a lozimdurki, avvalo janjal qilishkonlarning o'rtalariga sulh tarxini solg'ay, ammo vaqtiki sulh to'g'risida qilg'on say'i sudmand bo'limasa ul janjalning xabarini inspekturg'a yetkurub, ondin rahbarlik so'rasa kerak.*

15. *Biror madrasaning katta mudarrisi tahsil vaqtida kasal bo'lib qolgoni uchun va yo boshqa jihatdin anga lozim xizmat ishini bajo kelturmakka ojiz kelsa, betaaxir () va betavaqquf () inspekturg'a xabar qilsa kerak.*

16. Yangi keladurgon mullalarni madrasaga kirguzub, olarg'a hujra olib bermaklik katta mudarrisning ixtiyorida bo'ladur. Ammo ul mullalarning yoshi 30 din katta bo'lmanini ehtiyyot qilib tursa kerak va yana lozimdurki, madrasaga yangidin kelgan mullalarning kim ekonligidin va olarning vatanlari qayda ekonidin ogoh bo'lg'ay.

17. Mullalarning tarki istiqomat va tarki dars va har xil behuda ishlar qilmasligini katta mudarris ehtiyyot qilib tursa kerak.

18. Mullalarning har biri adnolikda va avsatlikda va a'lolikda, ya'ni har bir kitobda (har yillik jurnalda) yetti yildin ko'p o'qub qolmaslig'ini katta mudarris extiyot qilib tursa kerak.

19. Biror mulla muddati olti oy yoki olti oydin ziyoda madrasada tarki istiqomat qilib va ham ammo tarki dars etsa, ya'ni, o'z mudarrisidin o'qimay yursa shundog' mullaning madrasadin ixroj qilinmoqqa sazovor ekanligini katta mudarris inspekturg'a ma'lum qilsa kerak.

20. Mudarrislar va mullalar boshqa ahli madrasaning o'rtasida taqsim qilinmog'i odamlarni orasida taqsim tartibig'a muvofiqi taqsim qiling'onini katta mudarris extiyot qilib turadur. "Vaqf daromadini kichik mudarrislar va mullalar va g'ayri odamlarni orasida taqsim qilingon vaqtida rost va to'g'rilik bilan taqsim qilinmog'i xususida qarab nozir bo'lmoqqa katta mudarris qarab turadir".

21. Vaqf daromadini kichik mudarrislar va mullalar va g'ayri odamlarni orasida taqsim qilingon vaqtida rost va to'g'rilik bilan taqsim qilinmog'i xususida qarab nozir bo'lmoqqa katta mudarris qarab turadir. O'z madrasasining mudarrislaridin o'qib turg'on mullalarg'a berilgonini katta mudarris extiyot qilib tursa kerak.

22. Har yil tahsil vaqtining oxirida katta mudarris o'z madrasasining boshqa mudarrislari bilan birgalashib adnolikdin avsatlikka va avsatlikdin a'lolikka o'tmakka layoqati bor mullalarg'a imitihon qiladur.

23. Puchta markalarg'a sarf qilinmasun deb jami mudarrislarg'a ijozat berilgandurki, inspekturg'a yuboriladurgon xatlarini tegishli uyezd hokimlarining mahkamalaridin yuborg'aylar.

24. Biror bir mudarris ushbu dasturil amalda tayin qilingon xizmat ishlarini bajo keltirmasa inspekturdin ta'zir (xayfsan) topadur.

25. Inspektur biror mudarrisg'a usti ustig'a uch martaba ta'zir qilsa, tartibg'a muvofiq o'rnidin ixroj qilinsa kerak [4].

Bu dasturulamal shunisi bilan ahamiyatlici, uning matni bizga Podsho Rossiyasi davrida Turkistonda ta'lim ishlari ahvoli, muammolari va hukumatning maorifni boshqarish siyosati to'g'risida muayyan tasavvur beradi. Shu bilan birga Turkiston ta'lim tizimi haqida bugungi kunda jamoatchilik ongiga o'rnashib qolgan ayrim noto'g'ri tushunchalarni bartaraf etishga ham ko'mak beradi. Masalan, ko'pchilik ziyojolar orasida Turkiston madrasalarida ilgari talabalar 21 yil o'qigan, natijada odamlarning umri behudaga sarf bo'lgan, degan xulosa mavjud. Buning sababi bizda "Madrasa bu maktabdan keyingi oliy o'quv yurti" degan tushunchaning ustivor ekanligi bilan izohlanadi.

Holbuki, ilgari garchi masjidlar qoshida maktablar bo'lgan bo'lishiga qaramay, katta madrasalarda ta'lim uch bosqichda, ya'ni *adno* (quyi), *avsat* (o'rta) va a'lo (yoki oliy) tartibda olib borilgani ma'lum bo'lmoqda. *Adno* –boshlang'ich ta'lim 7 yillik, *avsat* – o'rta ta'lim 7 yillik va a'lo – oliy ta'lim 7 yillik bo'lgan. Jami 21 yilni o'z ichiga oladi. Demak, bizning tasavvurimizdag'i "madrasada 21 yil o'qish" uchun talaba 16 yoki 18 yoshga to'lgandan keyin boshlanadigan jarayon emas, balki talabaning 7 yoki 8 yoshidan boshlangan jarayon hisoblanadi. Ya'ni hozirgi oliy o'quv yurtlari qoshida liseylar bo'lganidek, madrasalar qoshida ham 7-8 yoshdan boshlab bolalar savod chiqarishi uchun tashkil etilgan kurslar mavjud bo'lgan va keyinchalik ular "o'z odami" sifatida madrasaning *avsat* bosqichiga qabul qilinib, tashqaridan o'qishga kelgan 14-15 yoshli o'smirlar bilan birga o'qishni davom ettirishi mumkin bo'lgan.

Buni aniqroq tasavvur qilish uchun O'zbekistondagi hozirgi uzluksiz ta'lim tizimi bilan o'tmishdagi tartibni qiyoslash kifoya. Ya'ni, hozir 7 yoshda maktabga qabul qilingan bola 9 yil umumta'lim maktabda o'qydi (16 yoshga yetadi), keyin 3 yil kollejda yoki 3 yil liseyda o'qydi (18 yoki 19 yosh), so'ng 4 yil bakalavr bosqichida ta'lim oladi (22 yoki 23 yosh), keyin 2 yil magistraturada ta'limni davom ettiradi (25 yoki 26 yosh), magistraturani tugatgandan keyin 3 yil mutaxassisligi bo'yicha stajirovka muddatini o'taydi, (28 yoki 29 yosh), nihoyat 3 yil doktoranturada o'qishi mumkin (31 yoki 32 yosh).

Demak, mazkur davrdagi 7 yoshdan boshlangan uch bosqichli ta'lim jarayoni $7+7+7=28$, jami 28 yil bo'ladi. Hozirgi O'zbekiston sharoitida 7 yoshdan boshlangan ta'lim jarayoni $9+3+4+2+3=28+(3)=31$. Buni quyidagi jadvalda qulayroq ifodalash mumkin.

Turkiston madrasalarida uzlusiz ta'lim bosqichlari (1924 yilgacha):

Nº	Oila va maktabgacha tarbiya	Adno (quyi yoki boshlang'ich)	Avsat (o'rta)	A'lo (yoki oliv)	Jami
1	7	7	7	7	28

Hozirgi O'zbekistonda uzlusiz ta'lim tizimi:

Nº	Oila va maktabgacha tarbiya	Umu-miy majbu-riy ta'lim	Kollej (kasb-hunar ta'li-mi)	Oliy ta'lim (bakalavriat)	Oliy ta'lim (magistratura)	Oraliq staji-rovka muddati	Katta ilmiy xodimizlanuvchilik instituti	Jami
1	7	9	3	4	2	3	3	31

Shundan kelib chiqib aytish o'rinniki, ilgari madrasalarda xalq farzandlari o'z sharoitidan kelib chiqib, xohlasa masjid matabida o'qish bilan kifoyalanib, tirikchilik, kasb-kor bilan band bo'lgan. Ayrimlar madrasaning *ando* (quyi) bosqichida savod chiqarib, shu yerning o'zida o'qishni davom ettirgan. Ayrimlar *avsat* (o'rta) bosqichini tamomlab, keyingi bosqichda o'qimagan. Ayrim iqtisodiy jihatdan ta'minlangan, homiyli, shu bilan birga irodali, iste'dodli chanqoq talabalar a'lo bosqichida o'qishni davom ettirib, madrasani mukammal xatm qilish bilan bitirishgan. Ayrim talabalarning madrasada 35 yoki 40 yoshga yetib, ham umrini behuda o'tkazishi esa bugungi kundagi 45 yoki 50 yoshga yetsa ham ilmiy ish yoqlamay, oliv o'quv yurtida ilmiy darajaga ega bo'lmay ishlab yurgan muallimlarning faoliyatiga o'xshab ketadi (biz ular orasida ilmiy darajasi bo'lmasa ham yetuk mutaxassislar borligini inkor etmoqchi emasmiz).

Shuningdek, hujjatdan ko'rinish turganidek, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistondagi madrasalarda ta'lim muddati (joriy o'quv yili) noyabr, dekabr, yanvar, fevral va mart oyalarida – 5 oy davom etgan. Bahor boshlanishi bilan rasmiy o'qishlar to'xtatilib, kech kuzgacha mudarrislar va talabalar dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdogarlik bilan mashg'ul bo'lishgan. Demak, ta'lim olish bilan asosan qish faslida, "bo'sh vaqtarda" olib borilgan.

Hujjat mazmunidan anglashiladigan yana bir narsa shuki, bugungi kundagi taraqqiy etgan ta'limni boshqarish madaniyati, tizimi, tartibi, xo'jaligi, yong'in xavfsizligi va qonun-qoidalarini ishlab chiqishda o'tmishdagi an'analardan keng foydalaniilgan. Bu esa O'zbekiston hududida ta'lim taraqqiyoti va uni isloh qilish borasidagi qonun hujjatlarida ham o'z aksini topgan [5].

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

– Vatanimiz tarixining XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda ta'lim tizimini isloh qilish, uning qonuniy asoslarini yaratish borasida muhim ishlar amalga oshirilgan bo'lib, bu asos ajodolarimiz har qanday sharoitda ham yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun hamisha qayg'urib kelganligini ko'rsatadi;

– Shuning bilan birga ta'limni takomillashtirish jarayonlari zamon bilan hamnafas ravishda doimo modernizasiyalashib borishi o'ziga xos qonuniyat ekanligidan ham dalolat beradi. Bu hol mazkur modernizasiya jarayonlarini chuqur o'rganishni taqozo qiladi. Bu esa o'sha davr matbuoti sahifalarida bositgan ta'limga oid materiallarni izlab topish, tarjima qilish, tabdil etish va nashr etish dolzarb ekanligini ham ko'rsatadi;

– Madrasalarning o'z boshqaruvchi mudarrislariga ega bo'lganligi, ularning zimmasiga madrasadagi ta'lim, odob-axloq qoidalarining nazorati, yong'in xavfsizligi va favqulodda holatlar bo'yicha javobgarlik, madrasa xo'jaligiga mas'ullik, talabalarini jazolash kabi bir qator ta'lim sifatini nazorat qilish hamda rivojlantirishga qaratilgan omillar yuklatilganligidan va mazkur davrda Turkistonda ta'lim tizimiga naqadar jiddiy e'tibor berilganligi dalolat beradi.

Xullas, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda ta'lim sifatini rivojlantirishga va madrasalar faoliyatini yaxshilashga qaratilgan muayyan qoidalarni o'zida jamlagan mazkur dastur (nizom) Vatanimiz madaniyati tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib qolaveradi. Mazkur manbani

Turkistonda ta'limni samarali boshqarish masalalariga bag'ishlangan noyob hujjat sifatida turli davrlarga oid boshqa manbalar bilan qiyosiy tahlil etish va davrlar o'rtaqidagi ta'lim taraqqiyotidagi o'xshash hamda farqli jihatlarni aniqlash keyingi davr tadqiqotlari bilan bog'liq.

Adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августдаги Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Олий таълим. Меърий хужжатлар тўплами. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 17-52.
2. Остонакулов И. Ўзбекистон миллий таълими тарихидан // ФарДУ Илмий хабарлари. 2015, – №3. – Б. 10-18.
3. Ибн Яминбек. Туркистон вилоятидаги сартия мадрасаларида катта мударрисларга берилган дастурил амал хусусида // Туркистон вилоятининг газети. 1894 й. – №19; 21; 29; 30; 31 / Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси "Нодир" ноёб манбалар зали. F-87.
4. Туркистон вилоятидаги мадрасаларнинг катта мударрисларига берилган хукумат ва уларга буюрилган хизмат хусусида таъйин бўлган дастурил амал // Туркистон вилоятининг газети. 1894, 15 март. – №15 / Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси "Нодир" ноёб манбалар зали. F-87.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1997 йил 6 октябрдаги "Таълим-тарбия ва кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан ислоҳ қилиш, баркамол авлодни вояга етказиш тўғрисида"ги Фармони // Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Т.5. – 384 б.

C. Мухиддинов
**ВАЖНЫЙ ДОКУМЕНТ ОБ ИСТОРИИ
 СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ
 ОБРАЗОВАНИЕМ В ТУРКЕСТАНЕ**

В статье раскрывается содержание текста под названием «Инструкции о власти старшим мударрисам туземных медресе Туркестанского края», опубликованных в 1894 году на «Туркистонвилоятиннггазети» как источника изучения истории управления образованием в крае.

Ключевые слова: национальное образование, управление образованием, демократическое государство, культура образования.

S. Muxiddinov
**THE IMPORTANT DOCUMENT
 ABOUT MANAGEMENT SYSTEM OF
 EDUCATION IN TURKESTAN**

The article reveals the source content of the text under the name "Instructions about the Power to the Senior Mudarrisa of Native Madrasahs of Turkestani Edge", published in 1894 on "The newspaper of Turkiston region" of studying history of management of education in edge reveal.

Keywords: national education, morally mature, democratic state, culture of education

UDK: 9(575.1): 396

**TURKISTON XOTIN-QIZLARINI O'LKDAGI SIYOSIY JARAYONGA JALB
 ETILISHI TARIXIDAN (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)**

D.N.Radjabova

Samarqand davlat universiteti, dotsent

Annotatsiya: Maqola Turkiston jadidlari tafakkuridagi mahalliy xotin-qizlarning huquqini erkaklar bilan tenglashtirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, jumladan, davlat dumasiga saylovlarda faol qatnashishi, davlat vazifalarini bajarishdagi o'rnini belgilash kabi masalalarining tahliliga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Turkiston, jadidchilik, taraqqiyot, maorif, saylov, Davlat Dumasi.

XX asr boshida jadidlar Turkistonda ma'rifat, ilm-fan, madaniyat, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jabhalarda kurash olib bordilar. Ular mahalliy xalqni ozodlikka, istiqlolga, mustaqillik uchun kurashga chorladilar. Shu yo'lda musulmon xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqda bo'lishlari, Turkistonning jamoat ishlarida qatnashishlari g'oyalarini ilgari surdilar. Shundagina Turkiston ravnaq etishi, rivoj topishini uqtirganlar.

1917 yilgi Rusiyada va asosan Turkistonda bo‘layotgan siyosiy voqealar yuqorida ta’kidlangan masalalarda asosiy rol o‘ynadi. Chunki, Dumaga bo‘layotgan saylovlarda xotin-qizlarning ishtiroki ham asosiy rol o‘ynashini jadidlar yoqlab chiqqanlar. 1917 yil 20 avgustda Marg‘ilon shahrida mahalliy «Sho‘roi Islom» tashkiloti faollari yig‘ilishi federalistlar firqasi sho‘basi tuzish munosabati bilan qabul qilingan maromnomasining 4 bandida quyidagilar yozilgandi: «Millatning yigirma yoshga yetub, ahliyat paydo qilg‘on har bir fardi: er bo‘lsun, xotun bo‘lsun, - sind, din va mazhab ayrimasiga boqmasdan saylamak va saylanmak haqina molikduru» [1].

1917 yilgi fevral voqealaridan keyin Turkiston jadidlarining xotin-qizlar muammosi borasidagi faoliyatları ancha kengaydi. Chunki muvaqqat huqumat dasturiga ko‘ra mamlakat milliy o‘lkalarida, xususan, Turkistonda ham barcha aholiga ilk bor saylash, shahar Dumasiga saylanish imkoniyati berilgan edi. Shuning uchun ham Turkiston jadidlari vaqtli matbuot sahifalarida o‘z maqola va chiqishlarida xotin-qizlarning saylov jarayonida faol ishtirok etishi, siyosiy mustaqillik va demokratiyani joriy etish bilan bog‘liq ishlar, ko‘ppartiyaviylikning va keng jamoatchilik faolligining o‘ta zarurligi, ular o‘rtasidagi kelishmovchiliklar va qarama-qarshiliklar salbiy oqibatlarini targ‘ib etdilar. «Xo‘jabaqo marbut bo‘lgani sababli Turkistonda musulmon xotinlarining saylov ishlarida ishtiroklari juda og‘ir. Holbuki, xotinlarning saylovga ishtiroklari Turkiston musulmoni uchun hayot-mamot masalasidir», - deydi Zaki Validiy. U xotin-qizlarning saylovda ovoz berishlari katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi va M.Behbudiy, A.Fitrat va H.Muyinlar qatori bu vazifalarni amalga oshirishga harakat qiladi. Shuningdek, musulmon xotin-qizlarning saylovda qatnashishlarining ahamiyatini M.Behbudiy quyidagicha yozadi: «Toshkent shahrida 48 ming ruslar va askarlar bor. Bunga nisbatan 44 ming musulmon erkaklar va 39 ming musulmon ayollar yashaydi. Agar saylovda ayollar ishtirok qilishmasa, albatta, ruslar saylovda muvaffaqiyatga erishishlari mumkin»[2].

Shuning uchun M.Behbudiy «Ulamo» jamiyatni a‘zolarini bu masalaga jiddiyroq munosabatda bo‘lishlarini qayta-qayta takrorlaydi. Chunki ulamochilar saylovda musulmon xotin-qizlarning ishtirok etishlariga qarshi chiqib, hatto, ayollarni erkaklarga qo‘shilmagan holda alohida saylov uchastkalarining tuzilishi xususida ham bir fikrga kelmagan edilar. Maqolada M.Behbudiy sho‘rodagi ziyolilar «Ulamo» jamiyatiga bir kecha-kunduz muhlat berib, ayollarni shariat asosida saylovda qatnashishlariga qat’iy javob berishlarini talab qilgani, lekin hozir javob olinmaganligi haqida ham o‘z fikrlarini yozgan [2].

Bu haqda Abdurauf Fitrat quyidagilarni yozgan edi: «Mana endi eski hukumat bitdi, eski adolatsizliklar ko‘tarildi. Yangi hukumatimiz xalq hukumatidir. Xalq istaklarini bajo qildiradigan hukumatdir. Shahar ishlarini o‘z qo‘limizga topshirmoqchi bo‘ldi, shahar Dumasiga vakillar ta’sis qilmoq uchun saylov berdi. Yosh, qari, boy, qashshoq, er, xotun, 20 yoshdan yuqori bo‘lgan butun odamlar bu saylovga kelib tovush bersinlar dedi. Shahar Dumasiga rusdan, musulmondan, juhuddan (har millatdan) o‘z sanog‘iga qarab vakillar olurlar. Qaysi millatlarning vakillari ko‘proq bo‘lsa, shahar Dumasini shu millat foydasigaga qarab ish qilur... Shahar dumasining ahamiyatini bilsak o‘z shahrimizning ixtiyorini o‘z qo‘limizga olmoqchi bo‘lsak, boshqa ishlarimizni qo‘yib saylov kuni, saylov yeriga kelurmiz, shahar Dumasiga o‘z vakillarimizni ko‘proq kirgizurmiz» [3].

A.Fitrat so‘zlaridan bilish mumkinki, jadidlar o‘zbek xalqiga xos, milliy xususiyat bo‘lgan tinch yo‘l bilan jamoatchilik murojaati orqali, Dumadagi bahslar yo‘lidan borib, xotin-qizlar muammolarini hal qilamiz degan niyat bilan harakat qilganlar. Chunki xotin-qizlar jamiyatining har bir sohalarida faoliyat ko‘rsatishlari teng huquqli bo‘lishlari kerakdir. Jadidlarning g‘oyalariga ko‘ra o‘lka xotin-qizlarning jamiyatning teng va haqiqiy a‘zosiga aylantirishning birdan-bir yo‘li ularning ma‘naviy va ma‘rifiy ravnaq etishidadir, tabiat ato qilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishdadir. Shu bilan birgalikda, ular yanada muhim shartlar sifatida milliy matbuotdan boshqa millatlar tajribasidan unumli foydalanishni, maktablar, jamiyatlar, kutubxonalar va qiroatxonalar joriy etishni tavsiya etganlar. Shuni qayd etish joizki, musulmon xotin-qizlarning shahar Dumasiga bo‘ladigan saylovlarda qatnashi masalasiga bo‘lgan munosabat milliy demokratiyaning o‘zida ham xilma-xilligicha qolgan edi. Misol uchun, Zaki Validiy «Saylovda musulmon xotin-qizlarning ishtiroki» nomli maqolasida Turkiston xotin-qizlarning saylovda ovoz berishlari katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi [4]. Toshkentdagagi «Sho‘roi Islom»ning 1917 yil 19 iyunda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishiha musulmon ayollarinig Duma saylovlarida qatnashishi to‘g‘risidagi fikrlarda, agarda duma saylovlarida «musulmonlarning ruslarga mag‘lub bo‘lishlari sobit bo‘ladurg‘on bo‘lsalar, ayollarning hoziri kerakdir», - degan xulosalar qilingan, shu bilan birga Toshkent ulamochilaridan «ayollarni paranji ila va alohida ayol

komissiyalari xuzurida erkaklarga qo'shilmasdan bormoqlariga ishtiroki masalasini jadidlar vaqtli matbuot sahifalarida e'lon qilib turdilar hamda ularning javoblari rus va musulmon matbuotida e'lon qilinishi so'raladi. Lekin bu xildagi murojaatga, Mahmudxo'ja Behbudiy ma'lumotiga ko'ra, o'n marta qaytarilishiga qaramasdan, ulamochilar tomonidan javob olinmagan [2].

«Ulamo»chilarning bunday harakatlari 1917 yil 21 iyunda Andijonda bo'lib o'tgan «Sho'roi Islom»ning umumiylajlisida qattiq tanqid ostiga olinadi. Bu haqda andijonlik taraqqiyatparvar Shams Najmiy: «Ajabo asrlardan beri to'y, aza, ma'raka, sir, ziyofat, mozorlarga chiqib yurgan xotinlarni ihtiisob etmagan zotlar, emdi o'z dini va milliy huquqlarimizni qo'lga keltirmoq uchun ayollarning munday odob va hijob doirasida saylovga qatnashmoqlariga ne qarshilik ko'rsaturlar», - deb hisoblaydi [5]. Xotin-qizlarning davlat va jamiyat ishlariga jalb etish nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatga ega ekanligini hikmatlarda ham tasdiqlaydi. «Yana bir narsani unutmangki, yurtni idora qilish ilmini bilib, shuning amaliyoti bilan mashg'ul bo'lish xotunlar ko'nglini poklaydi, bolalari qoshida martabasini orttiradi» [6].

Hotin-qizlarning qozilik vazifasini bajarishlari haqidagi masala o'sha davrda shunchalik dolzarb ediki, hattoki mustamlakachilar manfaatlarini ifoda etadigan matbuot organlarining sahifalarida bunga munosabat bildirilgan. Hattoki Ismoilbek Gasprinskiy ham «Doru r-rohat» asarida ham amirning rafiqasi Hadicha bonuning davlatni boshqarish ishlariga aralashishi, ayollar qozi (sudy) kabi turli vazifalarda ishlashi to'g'risida yozar ekan, bu bilan xotin-qizlarning ijtimoiy faoliyatda erkaklardan kam ish bajarmasligini ko'rsatadi» [7], - deb yozadi tadqiqotchi G.Rahimova. «Xotun kishi qozi bo'la oladimi?» degan savolga bunga qarshi munosabatda bo'lgan kishilar «Xotun kishini qoziligi mutlaqo durust emas, negakim aqli qisqa bo'lgan uchun hukumat majlislarida erkaklarga muomila qilmoqni uddasidan chiqmasa kerak», deb javob beradilar. Lekin ba'zi taraqqiyatlik musulmoniyalar aytadurlarkim, musulmoniya xotunlari xususida erkaklarga barobar bo'lib qozilik mansabiga ta'in bo'lsalar ham bo'ladur» degan fikr ham bor edi» [8].

Turkiston milliy demokratlari, ma'rifatparvarlari xotin-qizlarning Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojida qatnashishlarini qo'llab -quvvatlashga chaqirdilar.

Shu o'rinda buxorolik Zuhriddin Fathiddinzodaning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinnlidir: «Ey, Turkistonlik Vatandoshlarim! Biz shuncha xotin-qizlarimizga yomon ko'z bilan qaraymiz. Biz shuncha xotunlar haqqiga shafqat va marhamatsizlik qilamiz. Yetar endi, bu bechoralarni asorat zanjirida tutmoq, yetar jaholat chuquriga itqitmoq. Agarda bizlar xotin-qizlarimizni bu holda ilm va tarbiyadan mahrum qilaversak, o'zimizga zo'r zararlar kelturamiz. Kelajak zamonlarda bularidan vujudga keladurg'on va bularning quchog'ida o'sadurog'on ajodolarimizning johil va nodon qolishiga o'zimiz sabab bo'lurmiz. Keling, endi g'aflat ko'rpasini uyimizdan irg'itib, birlik va ittifoq ila bir millat an'analarini jaholat panjasidan qutqaraylik, adolat va insoniyat yuzasidan bu Vatan onalariga tartiblik maktablar ochib beraylik. Mana kelajagimiz. Saodat va baxtiyorligimiz shul xotin-qizlar tarbiyasiga kelib teriladur» [9].

Bu fikr ayollarning o'zları tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan edi: «Erkaklardan ko'proq qizlar uchun latta-puttalar uchun isrof qiladurg'on so'mlaringizni din va dunyo uchun kerakli bo'lgan tarbiya va ta'lim yo'lig'a sarf qilmoqligingizni va bu birgina bo'lsun bizlar uchun tartiblik maktab ochib bermog'ingizni tamanno qilurmiz» [10], deb ular otalaridan so'raganlar. Orenburg shahridagi xotin-qizlar esa «Turkiston viloyatining gazeti» orqali Davlat Dumasiga yuborgan arizalarida «Biz musulmoniya zaifalari uchun tamomiy odamizod huquqlarini talab qilgaysizlar!» - deb deputatlarga murojaat qilganlar [11].

Lekin ko'rib chiqilayotgan davrda Turkiston xotin-qizlarining o'z huquqlarini himoya qilib, munosabat bildirishlari tabiiy hol bo'lgan edi deb, aytib bo'lmaydi. Chunki xotin-qizlarga nisbatan bo'lgan g'oyaviy munosabatda jadidlar ko'p qarshilikka uchraganlar. Hattoki, «ziyolilar (jadidlar – D.R.) Shahar dumasi va ta'sis majlisiga ayollardan delegatlar yuborish masalasida dindorlar bilan kurash olib boradi. Markazda chaqirilgan umummusulmon Qurultoyida Ubaydulla Xo'jayev Turkiston ayollarini ozod qilish masalasini ko'taradi, - deb, ma'lumot beradi Munavvar Qori va davom etib, - mahalliy ziyolilar ayollarni ozod qilish uchun kurashgan», - jadidlarning bu masalada asosiy yo'nalishini ifodalab bergan [12].

Bu intilishlardan ko'rindan, Turkiston jadidlari mavjud tuzumning salbiy tomonlarini, ravnaq etish uchun g'ov bo'layotgan nodonlik, xurofiy turmush sarqitlarini ochiq-oydin ko'rsatib bergenlar. Ular Turkistondagi vaqtli matbuot orqali ma'rifat, ilm-fan, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotga

erishish yo'llarini asriy sharqona an'analarga, islom aqidalarini zamon va xalq manfaatiga moslab isloh qilishga chaqirgan. Shuning uchun ham jadidlar musulmon xotin-qizlarni ozodlikka chiqarishga, teng huquqli qilishga, shu bilan taraqqiyot yo'liga, ilm-fan, ma'rifatga, dunyoviy ishlarni o'rganishga chaqirganligi, undaganligi ularning xizmatlari beqiyosligini ko'rsatardi. Eng asosiysi, erkaklar bilan teng huquqda jamoat ishlarida qatnashishlari, saylovlarda ishtirok etishlari uchun qilgan sa'y-harakatlari Turkiston ma'rifatparvarlarining sharq mamlakatlarida birinchilardan bo'lib intilganligini ko'rsatardi.

Adabiyotlar

1. Турк адами марказияти (федералист) фирмасининг маромномаси // Фан ва турмуш. 1990. – №7. – Б. 6-7.
2. Беҳбудий М. Марказий Шўромизда // Хуррият. 1917. 3 июл.
3. Фитрат А. Сайлов яқинлашди // Хуррият. 1917. 11 август.
4. Валидий Заки. Сайловда мусулмон хотин-қизларнинг иштироки // Кенгаш. 1917. 25 июн.
5. Шамс Нажмий. Сайлов муносабати ила хотунлар масаласи // Хуррият. 1917. 25 июл.
6. Ҳикматлар // Мулоқот. 1998. – №2.
7. Раҳимова Г. Жадидлар ва аёллар масаласи // Адабий мерос. 1992. – №2 (59).
8. Хотун киши қози бўла оладими? // Туркистон вилоятининг газетаси. 1912. 15 июл.
9. Фатхиддинзода З. Ҳуқуқи нисвон // Садои Туркистон. 1914. 10 дек.
10. Подшоҳоним Жалилова. Идорага мактублар // Садои Туркистон. 1914. 24 декабр.
11. Туркистон вилоятининг газетаси. 1908. 30 март.
12. Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларимдан (жадидчилик тарихидан лавҳалар). - Т.: Шарқ, 2001. Б.62.

D.N.Radjabova

**"ИЗ ИСТОРИИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ
ЖЕНЩИН ТУРКЕСТАНА В
ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ КРАЯ"
(КОНЕЦ XIX- НАЧАЛО XX ВВ.)**

В данной статье рассматриваются вопросы активного участия женщин Туркестана периода конца XIX – начала XX вв. в общественной и политической жизни края, в частности, в выборах в Государственную Думу, в управлении краем, уравнении прав женщин с мужчинами.

Ключевые слова: Туркестан, джадидизм, развитие, просвещение, политические выборы, Государственная Дума.

D.N.Radjabova

**FROM THE HISTORY OF WOMEN'S
INVOLVEMENT IN POLITICAL
PROCESSES OF TURKESTAN
WITHIN THE PERIOD OF LATE 19TH AND
20TH CENTURIES**

This article considers active participation of Turkestan females in social and political life of the region, particularly, in the election to State Duma, province administration, the equalization of women with men during the period of late 19th and early 20th centuries.

Keywords: Turkestan, Jadidism, development, enlightenment, political elections, State Duma

UDK: 378(09)(575.1)

O'RTA OSIYO MADRASALARI TA'LIM TIZIMI TARIXIDAN

N.H.Xushvaqtov

Samarqand davlat universiteti, talaba

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'rta Osyo, xususan, Mavarounnahr hududida XIV-XVI asrlarda faoliyat olib borgan madrasalar, ularning joylashishi, tarixi, moliyaviy ahvoli va ulardagagi ta'lif tizimi, o'qitilgan fanlar, o'quv jarayonining tashkil etilishi bo'yicha ma'lumotlar tarixiy manbalarga asoslangan holda keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mavarounnahr, Buxoro, Samarqand, Turkiston, ta'lif, madrasa, tarix, fan.

Sharqning qadimiy shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent insoniyat tarixiy sivilizatsiyasi markazlaridan hisoblanadi. Bu hududlarda jamiyat taraqqiyotiga asos bo'luvchi ilm o'choqlari rivojlangan. Madaniyat maskanlaridan biri bo'lgan Samarqandda ham ilm-fan hamma zamonlarda qadrlanib, yuksaklarga ko'tarilgan. O'rta asrlarda Sarmarqandda madaniyat va fanning yetuk allomalari yashab ijod etishgan. Bunday allomalarining yetishib chiqishida madrasalarning o'rni beqiyos bo'lgan.

“Madrasa” – arabcha so‘z bo‘lib, “o‘rganmoq” degan ma’noni anglatadi. Yaqin va O‘rtta Sharq mamlakatlari madrasalarida davlat boshqaruvi xizmatchilar, ziyoililar, ulamolar va maktabdorlar tayyorlangan. Madrasalar dastlab VII-VIII asrlarda arab davlatlarida paydo bo‘lgan. Keyinchalik IX-XIII asrlarda islom diniga e’tiqod qilinadigan mamlakatlarda, jumladan, O‘rtta Osiyoda ham keng tarqalgan [1]. IX asrning boshida dastlab Buxoroda, keyinchalik Samarqandda arab-musulmon ta’limining ilk kurtaklari paydo bo‘lgan [2]. Sharqshunos olim akademik V.V.Bartoldning ma’lumotiga qaraganda, Samarqand atrofidagi Abgor mavzeyining Xargun qishlog‘ida yashagan dehqon 848-yilda ikki o‘g‘lini shaharga o‘qishga yuborgan [3].

Samarqand madrasalari haqidagi dastlabki ma’lumotlar XI asr manbalarida uchraydi. Bularning ichida eng mashhurlaridan biri 1066-yilda barpo qilingan Ibrohim Tamg‘och Bug‘roxon (1052-1068) madrasasidir. Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida keltirilishicha 937-yil tashkil etilgan “Forjak” madrasasi O‘rtta Osiyodagi dastlabki madrasalardandir [4]. Shundan buyon bunday oliy o‘quv dargohlari ta’lim an’analari doirasida faoliyat yuritib kelgan. Shu davrdan boshlab ilk o‘rta asrlar madrasalari soni orta borgan. Movarounnahr o‘lkasida temuriylar hukmronligi davrida madrasalar faoliyatiga katta e’tibor berilgan. Mo‘g‘ullar istibdodidan ozod bo‘lgan bu hududda yana ta’lim tizimi tiklana boshlagan. Amir Temur ta’limga katta e’tibor bergan. Ma’lumotlarga qaraganda, temuriylar davrida birinchi bo‘lib Bibixonim madrasasasi ochilgan. Rus olimi N.Ostromov Amir Temur haqida “... u sharq xalqlarining tarixiy an’alarini yaxshi bilgan, olimlarni, shayxlarni, din ulamolarini hurmat qilgan”, – deb qayd etadi [2].

Samarqandda 1907-yilda 40 ga yaqin madrasa faoliyat olib brogan va ularda mingdan ortiq talaba ta’lim olgan. Samarqanddagagi Sherdor madrasasida bir mudarris, 100 nafar talaba uchun 60 ta hujra va 2 ta katta darsxona bo‘lgan. Tarixiy manbalarning ma’lumot berishicha Sherdor madrasasida ta’lim olgan talabalarning savodxonlik darajasini Abu Tohir Xo‘ja juda yuqori baholaydi. 1820-1821-yillardagi zilziladan so‘ng Tillakori madrasasining ko‘rkam ko‘rinishi buziladi. Buxoro amiri Haydar tomonidan qayta tiklanadi. Shundan so‘ng bu madrasada 2 ta mudarris rahbarligida 80-85 nafar talaba 54 ta hujra va 2 ta darsxonada talim olgan.

Buxorodagi Ko‘kaldosh madrasasi hovlisi ikki qavatli 160 hujra bilan o‘ralgan bo‘lsa, Toshkentdagagi Ko‘kaldosh madrasasi hovlisining atrofidagi hujralar soni 38 tani tashkil etadi. 1907-yilda Toshkentda 23 ta madrasada 815 talaba ta’lim olgan. Qo‘qondagi Hokim Oyim madrasasida 3 mudarris 83 ta hujrada 200 tolibi ilmga ta’lim bergan. Markaziy Osiyoda mashhur bo‘lgan Nosriddin Ubaydulla Xo‘ja Ahror (1404-1490) ilmli kishilarga juda katta hurmat bilan qaragan va ularning ilm o‘rganishlari uchun sharoit yaratib bergan, vaqf yerlaridan pul mablag‘lari ajratgan. Samarqand va Toshkentda madrasalar bunyod ettirgan [2].

V.L. Vyatkinning xabar berishicha, Samarqanddagagi Xo‘ja Ahror madrasasida 1907-yilda ham mudarrislari bo‘lgan va talabalarga ma’ruzalar o‘qishgan. Rossiya imperiyasi davrida bu madrasa “Madrasai safed” (“oq madrasa”) nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Xonliklar davri manbalarida keltirilishicha, Shayboniyxon ilm-fanga e’tiborli xonlardan bo‘lgan. Shayboniyxon umrining oxirlarida Samarqandda madrasa qurilishini boshlagan, lekin uning 1510-yilda halok bo‘lishi sababli madrasa qurilishi to‘xtab qolgan. Madrasa qurilishi uning o‘g‘li Temur Muhammad Sulton tomonidan davom ettirilib, Mehr Sulton Xonim tomonidan qurib bitkazilgan va unda to‘rtta mudarris faoliyat olib borgan [2].

Tarixiy manbalarga ko‘ra, O‘rtta Osiyoda IX asrдан XX asrning boshlariga qadar 386 ta kattakichik madrasalar faoliyat olib [5]. Bu kabi misollarni juda ko‘plab keltirishimiz mumkin.

Madrasalarda ta’lim asosan dars uchun ajratilgan hujralarda olib borilgan. Madrasa ish boshlaganda tolibi ilmlarning bilim saviyasi – darajasi aniqlanib, ular uch – a’lo (yuqori), avsat (o‘rta) va adno (past) guruhga ajratilgan. Bu o‘rinda shuni ham eslatish joizki, tolibi ilmning qaysi guruhga mansubligini bilish maqsadida, ular imtihon qilingan. Imtihonni mayloni Qozizoda Rumiy rahbarligidagi maxsus hay’at o‘tkazgan. Tolibi ilmlarni imtihondan o‘tkazish marosimida ba’zan Mirzo Ulug‘bek ham qatnashgan. Bu davrdagi madrasalarda “Madrasat ul-ibtidoiya (boshlang‘ich ta’lim)” 9-10 yil, “Madrasat ul-sonaviya (o‘rta ta’lim)” 8 yil va “Madrasayi oliya (oliy ta’lim)” kabi uch bosqichdan iborat ta’lim tizimi amal qilgan.

N.Ostromovning ma’lumot berishicha, madrasalarning o‘quv kursiga quyidagilar kirgan: tilshunoslik (arab va fors tillari), mantiq, dinshunoslik, fiqh, shariat, Qur‘on va hadislarni o‘rganish. O‘qitish tizimi pedagogika va amaliyot qismlaridan tashkil topgan. Butun kurs 20 yildan kam

bo‘Imagan muddatni tashkil etadi. Talabalarga umumiy o‘quv kursi predmetlaridan tashqari arifmetika va geometriya ham o‘rgatilgan. Bundan tashqari, madrasalarda matematika, fizika, kimyo, tarix, geografiya kabi fanlar mujassamlashgan bilimlar musulmon olimlari asarlari yordamida o‘rgatilgan. Amaliyotchi shifokorlar Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” kitobidan foydalanganlar. Madrasat ul-sonaviyada o‘qitish mantiqdan boshlangan va keyinchalik dinshunoslik o‘rgatilgan. Imom Umar Nasafiy kitobi asosiy qo‘llanmalardan biri bo‘lgan. O‘quv yilining 5-6-yillarida chuqurlashtirilgan mantiq o‘tilgan bo‘lsa, 7-8-yillaridan boshlab metafizika o‘rgatilgan. Oliy ta’lim qismida o‘tiladigan dinshunoslik fani Mulla Jalolning o‘quv qo‘llanmasi asosida o‘qitilgan bo‘lsa, fiqh “Hidoya” asari asosida o‘qitilgan.

Shuningdek, temuriylar davrida turli mutaxassislar tayyorlaydigan madrasalar ham faoliyat ko‘rsatgan. Muhammad Sulton madrasasi amir va amaldorlar xonadonlarining farzandlaridan davlat ma’muriyati va harbiy boshqaruv uchun zarur bo‘lgan mutaxassislar tayyorlash, ta’lim-tarbiya berishga mo‘ljallangan. Manbalarning ma’lumot berishicha, Go‘ri Amir maqbarasi Muhammad Sulton o‘limi munosabati bilan Amir Temur farmoniga binoan qurilgan [6].

Qutbiddin Sadr madrasasida ilmi salosa (tafsir, hadis, fiqh), sarf va nahv (arab tili grammatikasi), mantiq va boshqa ilmiy sohalar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlangan. Mazkur madrasada 1427-1428-yillarda Xoja Ahrori Vali ta’lim olgan.

Madrasalarda har bir guruh talabalari alohida o‘quv dasturi asosida o‘qitilgan. Fanlar dars jadvali asosida o‘qitilgan. Talabalar bir darsni o‘tib bo‘lishganlaridan so‘ng keyingilariga borishgan. Har bir o‘tiladigan dars ikki soatdan iborat bo‘lganligi haqida N.Ostraumov ma’lumot beradi. Boshqa ilmlardan dars beruvchi har bir mudarrisga esa har bir guruhdan 10 tadan, jami 30 ta tolibi ilm biriktirilgan. Ana shu tarzda madrasayi oliyadagi mudarrislarning soni 10 nafargacha yetgan, shunga munosib ravishda hofiz, musdir, mu‘id va boshqa xodimlar ham belgilangan. Madrasayi oliya xonaqohida farosh, tabbox (oshxona xodimi), imom, noqit ham tayinlangan. O‘sma davr taomiliga ko‘ra boshqa madrasalarda bo‘lgani kabi madrasayi oliyada ham haftaning to‘rt kuni – shanba, yakshanba, dushanba, seshanba kunlari rasmiy dars bo‘lib, ikki kun – chorshanba va payshanba mustaqil mutolaa kunlari, juma (bozor) kuni esa dam olish kuni deb hisoblangan.

Madrasayi oliyada o‘qish jarayoni bir o‘quv yilda yetti oy davom etgan. O‘quv yili mezon oyining birinchi kuni (21-sentabr) da boshlanib, hamal oyining birinchi kuni (21-mart) da tugagan. Hamal oyidan (21-martdan) mezon oyigacha (21-sentabrgacha) bo‘lgan muddat, ya’ni mart oyining oxiridan, aprel, may, iyun, iyul, avgust oylari va sentabrnning 21-kunigacha ta’til hisoblangan. Bu davrda tolibi ilmlar turli ishlar (dehqonchilik, hunarmandchilik, masjid imomligi va boshqalar) bilan shug‘ullanganlar. Ayrim talabalar esa madrasayi oliyada qolib, mustaqil ilm o‘rganishini davom ettiravergan [5].

Madrasayi oliyada talabalarning ta’lim olish muddati sakkiz yildan o‘n olti yilgacha belgilanib, shu muddat ichida talabalar qaysi guruhga mansub bo‘lsa, o‘shanga muvofiq oylik (naqd dinor) va oshlik (arpa, bug‘doy) bilan ta’minlangan. Ko‘rsatilgan muddat tugagach, talabalarni moddiy jihatdan ta’minalash to‘xtatilgan. Shunisi ham borki, talabalarning hammasi ham mazkur muddatda madrasayi oliyani tugata olmagan. Bunday talabalar ko‘p yillar o‘z hisobidan o‘qib, ayrimlari madrasani tugatishga tuyassar bo‘lgan, ayrimlari esa o‘qishni tashlab ketib qolgan. Madrasayi oliyani bitirgan tolibi ilmlarga mudarrislik qilish mumkinligini bildiruvchi, bosh mudarris tomonidan tasdiqlangan ijozatnama – diplom berilgan. Shunday ijozatnama –diplomlardan biri hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida R 10683-sh raqam bilan saqlanadi. Madrasalar turli davrlarda suronli yillar guvohi bo‘lgan. 1868 - yilda Samarqandda bo‘lgan rus sharqshunosi V.V.Radlov “O‘rta Zarafshon vohasi” nomli maqolasida Ulug‘bek madrasasi haqida ma’lumot berib, uning 24 ta hujrasi saqlanganligini aytib o‘tadi. Mirzo Ulug‘bek madrasasi uning vafotidan (1449-yil) so‘ng XX asr boshlarigacha o‘z faoliyatini olib brogan bo‘lib, madrasalarning moliviyah ahvoli haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, bu haqda ayrim ma’lumotlarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Chunonchi, Ulug‘bek madrasasiga Buxoro amirligi davrida vaqfdan 40 rubl kelib turgan. Har bir mudarris yiliga 10 rubldan maosh olgan. Toshkentdag‘i Xoja Ahror madrasasi eng qadimiy madrasalardan hisoblanadi. Ushbu madrasaga yiliga 2000 rubl vaqf hisobidan mablag‘ ajratilgan [2]. Manbalarda ko‘rsatilishicha talabalar kursiga, ya’ni o‘quv yillarining bosqichli tizimiga ko‘ra, stipendiya bilan ta’minlangan.

Shu bilan birgalikda, madrasa mudarrislari va talabalariga moliyaviy mablag'lar ham berib turilgan. M.Tursunovning "Madrasalar ta'limalida adabiyot sabog'i" kitobida O.G.Bolshakovning "Samarqanddagi Ibrohim Tamg'achxonning ikki vaqfi" maqolasiga tayanib madrasa mudarrislari va boshqa xizmatchilariga to'lanadigan ish haqi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan: bosh mudarrisga 2000 dirham, fiqh dars beruvchi mudarrisga 3600 dirham, adabiyotdan dars beruvchi mudarrisga 1200 dirham, Qur'onidan dars beruvchi mudarrisga 1500 dirham, kutubxonachiga 1200 dirham to'langan [3].

XX asr boshlarida Turkistonda faoliyat olib borgan jurnalist N.Ostroumov 1906 yilda ham Ulug'bek madrasasida 60 nafardan ortiq talaba va ikki mudarris ilm bilan mashg'ul bo'lganligini qayd etadi.

Akademik Botirxon Valixo'jayev Samarqand madrasalaridagi ta'lim tizimini tahlil qilib, ulardag'i o'qish-o'qitishning ko'p jarayonlari hozirgi universitetlar ta'lim-tarbiya faoliyatiga o'xshashligini e'tirof etgan va "Samarqand davlat universiteti Mirzo Ulug'bek 1420-yilda asos solgan madrasayi oliyaning bevosita vorisidir" degan fikrni xulosa sifatida keltiradi[7].

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng vatanimiz tarixining tiklanishiga katta e'tibor qaratildi. Jumladan, madaniy meros obyektlari qaytadan ta'mirlanib, ularning tarixi xolisona o'rganila boshlandi. 1755-yilda M.Lomonosov tashabbusi bilan tashkil etilgan Moskva davlat universitetini Mirzo Ulug'bekning Samarqandda barpo etgan madrasayi oliyasini g'arb davlatlaridagi bilim dargohlari bilan qiyoslaganda Sharq ilmiy maktabining ko'lami g'arbg'a nisbatan kengligi oydinlashadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'rta asrlardagi madrasalar o'sha davrning yetuk namoyandalarini yetishtirib chiqarishga katta xizmat qilgan. Bularidan biz Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ali Qushchi, G'iyosiddin Jamshid va boshqa shu kabi nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham dunyo tan olgan olimlarning yetishib chiqqanligini ta'kidlash lozim.

Adabiyotlar

1. O'ralov A., Yusupov R. O'rta Osiyoning ta'lim-tarbiya va ilm-fan maskanlari. – Samarqand: 2005. – 53 b.
2. Остроумов Н.П. Мадрасы в Туркестанском крае. Журнал Министерства Народного просвещения.Новая серия. Часть VII. –СПб.: 1907.–С. 2-6.
3. Турсунова. М. Мадрасалар таълимида адабиёт сабоги. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2010. – Б. 4-19.
4. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий.Бухоро тарихи /Форс-тожик тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Фан,1966.– Б. 84.
5. Ширинов Т.Ўзбекистонда таълим тарихи ва ривожланиш босқичлари. – Самарқанд: 2010.– Б. 4-11.
6. ШириновТ., Мамараҳимов Қ., Бердимуродов А.. Самарқанд. Тарихий маълумотнома. – Тошкент: 2007.– Б. 74.
7. Валихўжаев Б. Самарқандда олий таълим – мадрасайи олия – университет тарихидан лавҳалар. – Самарқанд: 2001. – Б. 7.

Н.Хушвактов

ОБ ИСТОРИИ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ МЕДРЕСЕ СРЕДНЕЙ АЗИИ

В данной статье освещены некоторые вопросы медресе и их роли в истории, а также финансовая структура системы образования, обучаемых предметов, организация учебного процесса в Средней Азии в XIV-XVI веках. В освещении проблемы использованы письменные источники.

Ключевые слова: Мовароуннахр, Самарканд, Бухара, Туркестан, образование, медресе, история, наука.

N. Khushvaktov

HISTORY OF EDUCATION SYSTEM IN MADRASSAHS OF MIDDLE ASIA

The article is about some information about madrassahs, their role, history, financial position, the education system, taught subject, process of teaching in middle Asia, esp. in the territory of Movarounnahr in XIV-XVI centuries on the basis historical sources.

Keywords: Movarounnahr, Samarkand, Bukhara, Turkistan, education, history, scientist.

UDK: 9(575.1)

**Gerold Lembning “Amir Temur hukmdor va sarkarda” asarida Sohibqiron siyomosi
M.K.Yakubov**

Urgench davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli ingliz tarixchisi Gerold Lembning “Amir Temur hukmdor va sarkarda” asarida Sohibqiron siyomosi eritilishi haqida ayrim fikrlar bildirilgan. Maqolada Amir Temur bilan bog‘liq tarixiy voqealar, buyuk sarkarda haqida tarixiy asarlar va ko‘plab dunyoning tarixchilarining fikrlari eritilgan.

Kalit so‘zlar: tarix, tarixiy voqealar, tarixiy asar, siymo, hukmdor, qiro, dramaturg, yozuvchi.

Insoniyat tarixida hech bir jahongirga halihanuz Amir Temurga ato etilgan muzaffariyat in’omi nasib etmagan. Zero, hech qachon, hech qaerda, hech bir jangu mahorabada mag‘lub bo‘lmagan, bu dunyodan faqat g‘olib ketgan hukmdor tanho Amir Temurdir. Bu g‘olibliklar shunchaki beiz ketgan yohud hoyuhavas yoki mahobat nashidasini ilinjida voqe bo‘lgan muzaffarlik emas, balki aniq va qutlug‘ maqsad yo‘lida olib borilgani uchun dunyo taqdiriga daxldor bo‘la olgan g‘olibliklardir.

Ayni shu ulkan va beqiyo tarixiy voqealar Osiyo va Yevropadagi mutaraqqiy kuchlar tafakkur olamini ham junbushga keltirdi. Shu zayldagi Amir Temur shaxsiga nisbatan katta qiziqish Sharqu G‘arbda u haqida to‘plagan ilmiy-tarixiy asarlar qatori, uning zamonidayok rivoyat va afsonalar, badiiy, tarixiy-badiiy va memuar shakldagi (Esdaliklar, Kundaliklar, sayohatnomalar tarzidagi) turli-tuman asarlar paydo bo‘lishiga olib keldiki, bu Amir Temur taxtga o‘tirgandan to‘hozirgacha bo‘lgan olti asrdan ziyodroq vaqtini o‘z ichiga oladi.

Amir Temur siyomosining inglizzabon adabiyotda talqin etilishi haqida bat afsil ilmiy asnoda o‘rganishdan oldin, dastlab Sohibqiron timsolini, ba‘zi bir, bizning fikrimizcha, e’tiborga loyiq tarixiy asarlarda yaratila boshlash jarayonini tahlil etib o‘tishni taqozo etadi. Bu savolga jo‘yali bir javob berish uchun tarixiy adabiyotga Temur va Temuriylar davriga oid ushbu tarixiy asarlarga murojaat etib, bu manbalarning uslubiy xususiyatlarni inobatga olib ish ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Zero, ulardan muayyan darajada badiiylikning primitiv unsurlari mavjudligini unutmaslik kerak.

Tarixiy asarlar deganda, biz, – Edvard Gibonning 1787 yili yozilgan “Rim imperiyasining yakuni va qulash tarixii” (asliyatda: The History of the Decline and Fall of the Roman Empire, Vol. VII), 1928 yil Garold Lembning “Amir Temur hukmdor va sarkarda” (asliyatda Tamerlane, the earth shaker), Devid Nikolning 1990 yili nashrdan chiqqan “Temur davri” (asliyatda: The Age of Tamerlane), Beatris Forbes Mansning “Kembrij stadis in Islamik sivilizeyshn” seriyasida 1999 yilda “Kembrij Yuniversiti Press” nashriyoti tomonidan bosib chiqarilgan “Temuring taxtga o‘tirishi va hukmronligi” (asliyatda: “The rise and rule of Tamerlane”) asari, 2006 yil De Kapo nashriyoti tomonidan bosib chiqarilgan Justin Marotstsining “Temur: islom shamshiri, dunyo zabtкори” (asliyatda: Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the World) deb nomlangan ijod mahsuliga murojaat etishni lozim topdik. Mazkur maqolada biz, faqat, Gerold Lembning “Amir Temur hukmdor va sarkarda” asari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Gerold Albert Lemb (Harold Albert Lamb 1892-1962) – Amerikalik tarixchi olim, ssenarnavis va yozuvchi. U 1892 yil 1 sentyabrda Alpayn, N‘yu-Jhersida tug‘ilgan. Kolumbiya universitetida tahsil olayotgan davrda Osiyo mamlakatlari va ularning madaniyatiga qiziqish paydo bo‘ladi. Yoshlik paytidayoq u yozuvchilik faoliyatini boshladi. Boshida kichik (pulp) jurnallarda keyinchalik nufuzli “Adventure” jurnalida asarlari bosib chiqarildi. 1927 yili Chingizzon hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan kitobi katta muvaffaqiyatga erishdi va shundan keyin umrining oxirigacha ilmiy-ommabop, ko‘p sonli biografik va tarixiy kitoblar yozadi [2, 46]. “Adventure” muharriri, Artur Sallivant Hoffman (Arthur Sullivant Hoffman), Lembning yozuvchilik mahoratiga baho berarkan, shunday deydi: “always the scholar first, the good fictionist second” [3, 784-785] ya‘ni “birinchi navbatda Lemb olim, keyin esa yaxshi yozuvchi”.

1928 yil Lemb Amir Temurga bag‘ishlangan “Amir Temur hukmdor va sarkarda” (asliyatda Tamerlane, the earth shaker) nomli kitobini yozadi. Mazkur asarining kirish so‘zida muallif:

“THE ATTEMPT FIVE HUNDRED AND FIFTY YEARS AGO a man tried to make himself master of the world. In everything he undertook he was successful. We call him Tamerlane. In the beginning he was a gentleman of little consequence-master of no more than some cattle and land in that breeding ground of conquerors, Central Asia. Not the son of a king, as Alexander was, or the heir of a chieftain, like Genghis Khan. The victorious Alexander had at the outset his people, the Macedonians, and Genghis Khan had his Mongols. But Tamerlane gathered together a people. One after the other, he overcame the armies of more than half the world. He tore down cities, and rebuilt them in the way he wished. Over his roads the caravan trade of two continents passed. Under his hands he gathered the wealth of empires, and spent it as he fancied. Out of mountain summits he made pleasure palaces-in a month.

More, perhaps, than any human being within a life he attempted "To grasp this sorry Scheme of Things entire... and then, Remould it nearer to the heart's desire." Tamerlane he was, and only as Tamerlane is he known to us to-day" [1, 15].

"Besh yarim asr oldin bir odam butun dunyo egasi bo'lishga harakat qildi. U qanday tadbir qilmasin bu ish unga zafar olib kelgan. Biz uni Tamerlan deb ataymiz. Aslida bu shaxs kichik ahamiyatga ega bo'lgan: bir qancha mol va yer egasi – Markaziy Osiyoda yashagan, buyuk fotihlarni etishtirib bergen hudud. U, Aleksandr Makedonskiy kabi, qirof farzandi, yoki Chingizzondek, qudratli qabila sardorining vorisi bo'Imagan. Zafarli Aleksandr yurishlarida o'z xalqi, makedoniyaliklar boshchiligidagi bo'lgan, Chingizzon o'z navbatida mo'g'ullar ustida turgan. Temur esa atrofiga odamlarni yig'ishga to'g'ri kelgan. Birin-ketin u deyarli dunyoning yarmidan ko'p davlatlarning qo'shinlarini tor mor etdi; shaharlarni vayronaga aylantirib, o'z ra'yiga ko'ra qayta qurgan. Uning nazorati ostida bo'lgan hududlarda ikki qit'a savdo karvonlari o'tgan. Zabt etgan imperiyalar boyliklarini yiqqan Tamerlan, bularni o'z xoxishiga binoan sarflagan. U bir oy ichida tog' cho'qqilarida ajoyib qasrlar qurdirishga qodir bo'lgan" [1, 16].

Lemb o'z asarining "Shoirlar" qismida Amir Temur siyosining Yevropa adabiyotiga kirib borishi tarixi haqida ham to'xtalib o'tgan:

"- Amir Temurning kutilmaganda Yevropa chegaralarida paydo bo'lishi va bu zotning xuddi shu tarzda g'oyib bo'lishi ushbu mintaqaga shoir va dramaturglarining boy tasavvurlarini qo'zg'otdi. Yunon va turklar rivoyatlarining mahsuli sifatida Temur afsonaga aylandi. Biz Temur shaxsiga, dushmani Boyazidga(XVI asrda nemislar Usmonli Sultonni shunday ataganlar) bag'ishlangan bir necha ilk manbalarni topdik. Zamonaviy tarixda buyuk Tartariya xoni deb e'tirof etiladi, – kelib chiqishi Gerodot nasli – Skifiya cho'ponlaridan. Biroq bularning hammasi oxirgi tarix yozmalarida keltirilgan bema'ni rivoyatlarga teng kelmaydi. Ko'p yillar mobaynida Yevropa yozuvchilari nazarida Temur faqat turklar nomi, Anatoliyani zabt etishi yoki Misr sultoni ustidan g'alaba qozongani va Ierusalim hamda Bobilni zabt etish haqidagi sayoz noaniq tasavvurlar bilan bog'lanib kelgan. Yelizavetta davri dramaturgi Kristofer Marlo ham yuqoridagi ma'lumotlardan ortig'ini bilmagan. Temur siyosida Marlo tengsiz kuch-qudrat va sirli Sharqning buyukligini ko'rardi. Dramaturg bu siyomni fojeaviy shaklda tasvir etib, she'riy tarzda ilk ingliz sahna asarini yaratishga muvafaq bo'ldi. Uning "Buyuk Amir Temur"i yunon-fors manbalaridan olingan tasavvurlariga qurilgan" [1, 278].

Tobe qilingan butun Osiyo hukmdorlari qo'shilgan mashhur jang aravasida Temur sahnada paydo bo'ladi:

1586 yil (manbalarda 1587 yil M.Ya) ingliz shoirining ijodiy jo'shqinligi va shijoati bu tragediyani o'limas asarlar sirasiga kiritdi. Marlona Temuri o'zining hokimiyatga va buyuklikga intilishi bilan Amir Temurni eslatadi, binobarin muallifni o'zi ham bu xususiyatlarga befarq emas. Shunisi aniqki, Marlo 1582 yili chiqqan va Temurga oid bir muncha qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirilgan Klaviho kundaliklarining ispan nashri bilan tanish bo'Imagan. Biroq shu paytdan boshlab Evropa tarixchilari Temur siyosiga tez-tez murojaat etgan, lekin ularning talqini noto'g'ri bo'lgan. 1588 yili Leunklavius (Leunclavius), 1600 yili esa Perondinus (Perondinus) Temur haqida yozadilar. Jan de Bek (Jean de Bek) 1595 yili hech kimga ma'lum bo'lgan Al Xusaynning biografiyasining afsonaviy talqinini nashr ettiradi. Oliyanob Richard Nolles (Richard Knolles) Temurni ko'p jiddlik Turklar haqidagi yozmalariga qo'shdi, bu asar 1603 yili chop etildi. Bu ilk yozuvlarning ko'pchilik qismi Perchas sayohatlarida (Purchas, his Pilgrimes 1625) yig'ilgan. 1634 yil P'er Berjeronning "Tartariyaga sayohatlar" (Pierre Bergeron. Voyages en Tartarie) to'plamida tartarlar va musulmonlar haqida ishonchli ma'lumotlar salmoqli tarzda yig'ilgan. Magnon 1647 yili "Buyuk Temur va Boyazid" (Le Grand Tamerlan et Bajazet) nomli o'ziga xos asarni yaratadi. Bu davrdan boshlab Temur xayoti va faoliyatiga xolis baho berish vaqt keladi [1, 279].

Yevropa yaqinida paydo bo'lgan payt, mahalliy qirollar Temurga elchilarini va "Buyuk Temur, Tatariya hukmdoriga" nomli xatlarini jo'natishga shoshildilar. Ingliz qiroli Genrikh IV, o'sha payt u nemis ritsarları bilan o'z qirolligi hududidan tashqarida jang qilayotgandi, notanish fotihni g'alabalari ila qutladi. Frantsuz qiroli Karl VI "Ulug'g'olib va oliv hazratlari Temurga" nomli maqtovlinoma jo'natdi [1, 17].

Yaratganning inoyati ila Kastiliya qiroli Don Genrikh, Temur saroyiga elchi sifatida ritsar Rui de Gonsales Klavixoni jo'natadi. Bu ritsar, zabtkor ketidan Samarqandga borib, Temur haqida o'z xotiralari bilan qaytib keladi. "Temur, Samarqand hukmdori, mo'g'ullarning barcha hududlarini va Hindistonni egalladi. Ulkan ulush hisoblangan Quyosh yerini (Xuroson) ham egalladi. Xorazmni zabt etib, uni bo'ysuntirdi, butun Persiyani va Hindistonni, Tabriz imperiyasi va uning sultonining shahri, ipak hududlarni, Darvoza hududi ila kichik Armaniston, Arzirum va kurdlar yerlarini bosib oldi, Hindiston hukmdorini jangda mag'lub etib, bu hududning salmoqli qismini tortib oldi. Damashqni vayronaga aylantirdi, Halab, Vavilon va Bag'dod shaharlarini o'z izmiga bo'ysundirdi. U turli yer va hududlarga ko'plab yurishlar qildi, ko'p janglarda zafar qozondi (g'olib bo'ldi), ulkan yutuqlarga erishdi. Turk sultonı

– dunyoning eng qudratli hukmdorlardan biri Boyazidga qarshi chiqadi, zafar quchadi va uni xibsga oladi”. Temurni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan va hukmdorning Samarqanddagi saroyida dunyoning turli yerlaridan kelgan hukmron oilalardan bo‘lgan malikalarni, Misr va Xitoy elchilarini kuzatgan Klavixo yuqoridagi satrlarni yozgan. Uning o‘zi, franklar elchisi sifatida, ehtirom va hurmatga sazovor bo‘lgan, chunki “dengizda hatto kichik baliq ham o‘z o‘rniga ega” [1, 18].

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur siymosi nafaqat inglizzabon badiiy asarlarda, balki tarixiy asarlarda ham keng yoritilgan. Biz mazkur maqolada faqat ulardan bittasi haqida ayrim fikrlarmizni bildirib o‘tdik. Yuqorida eslatib o‘tgan boshqa tarixiy asarlarda Sohibqiron siymosi aks ettirilish masalalariga batafsil to‘xtalib o‘tishga keyingi maqolalarimizda xarakat qilamiz.

Adabiyotlar

1. Michigan Library, 2005. – 432 p.
2. Miller John J. Shepherdin a Lamb's Lost Legacy. // The Wall Street Journal. Retrieved July 4, 2010. – pp. 44-57.
3. Twentieth century authors, a biographical dictionary of modern literature. Edited by Stanley J. Kunitz and Howard Haycraft. Third Edition. – New York: The H.W. Wilson Company, 1950. – 1356 p.

М.К. Якубов

ОБРАЗ АМИРА ТЕМУРА В ПРОИЗВЕДЕНИИ ГЭРОЛЬДА ЛЭМБА «ТЕМУР ПРАВИТЕЛЬ И ПОЛКОВОДЕЦ»

В данной статье речь идет об образе Амира Темура в произведении известного английского историка Гэрольда Лэмба «Темур правитель и полководец». В статье описываются исторические события, связанные с Амиром Темуром, а также освещаются исторические источники и высказывания многих историков о деятельности великого правителя.

Ключевые слова: история, историческое событие, историческое произведение, личность, правитель, король, драматург, писатель.

M.K. Yakubov

THE PERSONALITY OF TIMUR THE GREAT IN THE WORK OF HAROLD LAMB “TAMERLANE, THE EARTH SHAKER.”

This article is devoted to the personality of Timur the Great in the work of well-known English historian Harold Lamb “Tamerlane, the earth shaker”. The article describes historical events connected with Amir Timur and enlightens ideas of many historians and historical issues on the life of the great statesman.

Keywords: history, historical event, historical issue, personality, governor, king, dramatist, writer.

UDK: 9(575.1):949.7

O‘zbekiston va Latviya davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalari-yangi bosqichda (1991-2015 yillar)

R.X. Xomitov

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti, mustaqil-izlanuvchi
E-mail: eurodilshod98@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilk bor O‘zbekiston va Latviya davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalari alohida tadqiqot sifatida o‘rganilgan. Unda davlatlar o‘rtasidagi munosabatlар tarixi o‘rta asrlarga borib taqalishi aniq misollar bilan qayd qilingan. Shuningdek 1860 yildan boshlab O‘zbekiston hududiga Boltiqbo‘yi xalqlari ko‘chirib keltirilganligi o‘rganilgan. Unga doir statistic ma’lumotlar berilgan. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston va Latviya o‘rtasida siyosiy muloqatlar mutazam o‘tkazib kelingan, unda iqtisodiy va savdo sohasidagi aloqalarga alohida e’tibor qaratilgan. Qo‘shma korxonalar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Aloqalar, Boltiqbo‘yi, davlatlar, dinamika, iqtisodiy, mustaqillik, muloqot, madaniyat, o‘rta asrlar, statistic, siyosiy, savdo hamkorligi, xalqlar, qo‘shma korxona.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z istiqlolining dastlabli davrida tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab oldi. So‘ngra shundan kelib chiqib davlatimiz rahbariyati uzoq va yaqin qo‘shni mamlakatlar bilan do’stona, o‘zaro tenglikka asoslangan munosabatlarni o‘rnatib olish choralarini ko‘rdi. Jumladan, Boltiq mintaqasida joylashgan Latviya O‘zbekistonning ishonchli sheriklaridan biriga aylandi.

Sababi, bu ikki mintaqada joylashgan xalqlar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari uzoq tarixga borib taqalishi manbalardan ma’lum. Yaniki, ular o‘rta asrlarning dastlabki davridan boshlab savdo

aloqalarni olib borgan. Unga dalil Boltiqbo‘yi va skandinaviya mamlakatlarida o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar vaqtida O‘zbekiston hududida o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan Somoni davlatining tangalari hamda Pomir tog‘i etaklaridagi tarixiy yodgorliklardan Boltiqbo‘yidagi mavjud mashhur qahrabolar namunalarining topilishidir [3].

Uzoq tarixiy yillar davomida shakllangan xalqlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar tarixning turli davrlarida ob‘ektiv shart-sharoitdan kelib chiqib, o‘zgarib turdi. Sababi, XIX asrning oxirlaridan boshlab Rossiya imperiyasi so‘ngra sobiq Sovet ittifoqi amaldorlari tomonidan bu hududlarda imperiyalistik siyosat olib borildi. O‘tkazilgan islohatlar tarkibida xalqlarni asossiz ravishda ko‘chirish siyasati ham turardi. Natijada latishlarning ma’lum qismi turli sabablar bilan O‘zbekiston hududiga ko‘chirib keltirila boshlandi. Ularni aniq raqamlarda tahlil qilsak: 1897 yil aholini ro‘yhatga olish hujjatlari natijalariga ko‘ra, o‘lkada yashovchi latviyaliklar Turkiston aholisi tarkibida eng kamchlikni tashkil qilib, ular umumiylaridan 87 kishini, ulardan erkaklar 68, ayollar 19 nafar ekanligi ro‘yhatga olish hujjatlarda qayd qilinadi [4]. Ular asosan rus pasyolkalarida joylashtirilgani ham ma’lum [1].

Bu jarayonning shakillanishi XIX asrning 60 yillaridan boshlanadi. Shu davrdan e’tiboran, latishlar Turkistonga ko‘chib keltirila boshlangan. 1905 yil o‘lkadagi bu xalqlarning vakillari 150 kishini tashkil etgan bo‘lsa, birinchi jahon urushi yillarida 1500 ming latish ko‘chirib keltirilgan, biroq urush tugagach 600 nafari o‘lkada muqim o‘rnashib qolgan qismi yana boshqa o‘lkalarga majburiy ravishda ko‘chirib keltirilgan [2]. Shundek bo‘lishiga qaramasdan, bu hududda qolgan latishlar barcha sohalarda faol mehnat qila boshlagan. Masalan, XX asrning 20 yillarida o‘lkada kam sonli millatlar qatorida latish seksiyasi tuzilgan. Ikkinci jahon urushidan so‘ng latish millati vakillari yana 1200 taga ko‘paygani arxiv hujjatlaridan ma’lum. 1966 yil Toshkent zilzilasining oqibatlarini bartaraf etishga yordam berish maqsadida esa ko‘plab latishlar ixtiyoriy ravishda Toshkentga kelishgan. 1989 yilgi aholini ro‘yhatga olish materiallarida esa o‘lkadagi bu xalqlarning tarkibi erkaklar 3988 nafar, ayollar 1987 narafni tashkil etgan [5]. Bular natijasida O‘zbekistonda latish xalqlari diasporasi shakillandi. O‘zbekiston Respublikasi o‘z istiqlolini qo‘lga kiritgach, bu hududda istiqomat qilayotgan latviyaliklar hayotida yangi sahifa ochib berdi. Bu borada mamlakatda yaratib berilgan munosib sharoitdan unumli foydalanish imkoniyatini qo‘lga kiritishdi. Bu esa O‘zbekiston va Boltiqbo‘yi mintaqasidagi davlatlar bilan hamkorlik aloqalarida muhim kafolat bo‘lmoqda.

Jahon tarixining XX asr 90 yillarida xalqaro munosabatlar tizimida o‘zgarish yuz berdi. Dunyoning siyosiy xaritasida yangi suverenitetga ega bo‘lgan davlatlar tashkil topdi. Jumladan, O‘zbekiston va Latviya Respublikalari birin-ketin o‘z mustaqilligiga ega bo‘ldi. Shundan so‘ng davlatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar yangi qiyofada o‘rnatila boshlandi. 1992 yilning 3 noyabridan boshlab ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Shu vaqtning o‘zida Toshkent shahrida Latviya Respublikasi o‘z elchixonasini ochdi. 1995 yil O‘zbekiston Respublikasining hukumati Latviya poytaxti Rigada elchixonasini ochdi. So‘gra ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar 1995 yil 6-7 iyun kunlari oliy darajadagi uchrashuvlarda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi bilan Latviya Respublikasi o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida”gi shartnomaga asosida rivojlana boshlandi.

Davlatlar o‘rtasida yuqoridagi kabi oliy darajadagi uchrashuvlar muntazam o‘tkazib kelingan bo‘lib bu uchrashuvlarda O‘zbekiston va Latviya o‘rtasidagi munosabatlar mustahkam huquqiy asosi yaratildi. 1992 yilda O‘zbekiston va Latviya o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilgandan buyon o‘zaro hamkorlikning deyarli barcha sohalarga oid munosabatlarni tartibga solib turuvchi 120 tadan ortiq shartnomalar imzolangan bo‘lib u hamkorlikning huquqiy asosini mustahkamlab turibdi.

O‘zbekiston va Latviya Respublikalari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari mustahkamlanib borar ekan, unung asosiy yo‘nalishini iqtisodiy va savdo-sotiq sohasidagi hamkorlik tashkil etadi. Chunonchi, ikki davlat o‘rtasida tovar aylanmasi 1994 yilda 13 mil.165 ming AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda 300 million AQSH dollaridan oshib ketdi. Sababi, 2014 yilning aprel oyida Rigada O‘zbekiston savdo uyining ochilishi ham muhim o‘rin titmoqda. Biroq, imkoniyat va salohiyat to‘la baholanganda, bu ikki davlat uchun ham uncha yuqori ko‘rsatkich emas.

Shuningdek, hozirgi paytda O‘zbekistonda yaratilgan qulay investitsiya muhitidan foydalangan Latviya ishbilarmonlari 11 ta korxona bunyod etilgan. Ushbu mamlakatning O‘zbekistonda 19 ta yetakchi kompaniyasi o‘z vakolatxonasini ochgan. Ular keng sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida faoliyat olib bormoqda. Ularning ayrimlari faoliyat turlari va hududlardagi joylashuvi quyidagi jadvalda beriladi.

O‘zbekistondagi Latviya bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo‘shma korxonalariningro‘yxati

T.p	Korxona nomi	Tashkil etilgan sana	Faliyat turi	Joylashgan manzili
1.	TELA - TEXTILE O‘zbekiston – Latviya Qo‘shma korxonasi	19.11.2012	Ip gazlama sanoati	Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani N.Boymuradov ko‘chasi, 1-uy
2.	Ma’suliyaticheklanganjamiyatshak lidagi “NOBEL- PHARMSANOAT” chetelkorxonasi	17.11.2007	Xizmat ko‘rsatish	Toshkent shahri
3.	Mas’uliyaticheklanganjamiyatshak lidagi “KAR-RIGTRANS” O‘zbekiston- Latviyaqo‘shmakorxonasi	19.11.2010	Transport – ekispredisiya ishlari va xizmatlari	Navoiy viloyati Karmana tumani Narpay QFY. 9- uy
4.	Mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi «NOVO-YUGRA» xorijiy investisiyalar ishtirokida korxonasi	29.03.2011	Qurilish materiallari sanoati	Navoiy shahri P/Ochilov ko‘chasi 12-uy, 55-xona.
5.	MChJ «SAMARKAND-TOLA» O‘zbekiston- Latviyaqo‘shmakorxonasi	05.03.2004	Transport – ekispredisiya ishlari va xizmatlari	Samarqand shahri Cho‘ponota massivi 67- uy
6.	MChJ «SAMRIN TRADE» Latviya xorijiy korxonasi	11.11.2003	Transport – ekispredisiya ishlari va xizmatlari	Samarqand tumani Dashtiso‘xqo‘rg‘oni
7.	G‘UZOR-TEKS O‘zbekiston – Latviya Qo‘shma korxonasi	01.05.2006	Paxta tolasidan kalava ishlab chiqarish	Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani oqnur qishlog‘i
8.	“FAYZ WOODGROUP” O‘zbek-Latvia qo‘shma korxonasi MCHJ	02.09.2011	Xizmat ko‘rsatish	Toshkent shahri Serg‘ali tumani
9.	Mas’uliyaticheklnaganjamiyatshak lidagi “FAR-BATLTD” qo‘shmakorxonasi	05.12.2013	Xizmat ko‘rsatish	Toshkent shahri Yakkasaroy tumani
10	Mas’uliyaticheklanganjamiyatshak lidagi “ZAVODNVA” O‘zbekiston-Latvia qo‘shma korxonasi	08.11.2007	Xizmat ko‘rsatish	Toshkent shahri Serg‘ali tumani
11.	BRAVOSUT O‘zbekiston- Latviaqo‘shmakorxonasi	07.06.2010	Sut mahsulotlarini qayta ishslash va xizmat ko‘rsatish	Toshkent shahri Serg‘ali tumani

Манбаси: [7].

Statistika ma’lumotlardan ma’lumki, latviyalik ishbilarmonlar O‘zbekistonning asosan Toshkent shahri, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, Latviyada esa O‘zbekistonlik tadbirdorlik ishtirokida 40 dan ortiq qo‘shma korxona tuzilgan. Ular, asosan, mehmonxona ishi, sug‘urta va transport ekspeditorlik biznesi bilan shug‘ullanadi.

O‘zbekiston va Latviya o‘rtasida madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik, aloqalarining muhim yo‘nalishlar qatorida turadi. O‘zbek va latish xalqlari azaldan bir-birining madaniyatini to‘ldirib kelgani tarixdan ma’lum. Xalqlar o‘rtasida o‘xshash taraflar esa buni bog‘lovchi rishta hisoblandi. Buning hisobiga madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlikning ko‘lami yil sayin kengayib bormoqda. Latviyada o‘zbek xalqining noyob tarixiy merosiga katta hurmat bilan qarashi ma’lum. 2004 yil

Rigada mashhur alloma va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek haykalining ochilishi o‘zbek madaniyatiga nisbatan alohida hurmat-ehtiromning belgisi bo‘ldi. Shuningdek, 2006 yilning noyabrida Latviya poytaxtida o‘zbek xalqining yana bir buyuk farzandi Abu Ali ibn Sino haykali ham qad rostladi. O‘zbekistonda ham latish xalqining madaniyati, tarixiy shaxslari qadrlanadi va o‘rganiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston va Latviya bilan barcha sohalarda hamkorlik aloqalarining rivojlanishida do‘slik, ishonch va kelishuvlarga erishishda barcha asoslar mavjud. Bunda mamlakatda shakllangan boltiqbo‘yilik xalqlar diasporasi asosiy kafolatchi va muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Гинзбург А.И. Русское население в Туркестане. –М., 1991. – С.29.
2. Горнухова А.В Миграционные процессы в республиках Прибалтики в XX веке: (дис.канд.истор.н). –М., 2004. –С.46.
3. Половников Н.А. Торговые пути Прибалтийского янтаря в Средней Азии (древность, средневековье). Города и караван-сараи на трассах Великого Шелкового пути // Тезисы докладов международного семинара ЮНЕСКО. Урганч. 1997.-С27-28.
4. Итоги преписи населения 1897 года.
5. Holborn L. The international Refugee organization: A Specialized Agency of the United Nations Its History and Work 1946–1952. M.,2004. C.62.
6. Xalqso‘zi. 2004 yil 8 aprel.
7. <http://www.mfa.uz>

P.X.Хомитов

СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА И ЛАТВИИ НА НОВОМ ЭТАПЕ(1991-2015 ГОДА)

В статье изучены в качестве исследования совместные связи между Узбекистаном и Латвией. В ней точными примерами отмечена история отношений между странами, начинающаяся с средних веков, а также изучено переселение прибалтийских народов на территорию Узбекистана начиная с 1860 г, приведены статистические сведения. В них особое внимание уделяли экономическим связям и торговли, а также даны сведения о совместных предприятиях.

Ключевые слова: связи, Прибалтийские страны, динамика, экономика, независимость, общения, культура, средние века, статистика, политика, торговля, народы, совместное предприятие.

R.Kh.Khomitov

COLLABORATION BETWEEN UZBEKISTAN AND LATVIA STATES ON NEW STAGE (1991- 2015 YEARS)

In this article for the first time joined connections between Uzbekistan and Latvia countries were investigated. Here you will find the history of relationship development between our countries since middle ages on the base of exact examples. There are also statistics data and research about Baltic people movement to the territory of Uzbekistan since 1860. During the years of independence political talks between Uzbekistan and Latvia have been conducted periodically. Special attention was paid to economic ties and trading. There is as well information about joined ventures.

Keywords: links, Baltic countries, dynamics, economics, independence, relations, culture, middle ages, statistics, politics, trade, people, joint venture.

UDK: 1:18(575.1)

**GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS ESTETIK MADANIYATINING
MILLIY VA MAFKURAVIY KO'RINISHLARI**
O.M.G'aybullayev

*Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
instituti, prorektor*

Anotatsiya. Bugungi globalashuv sharoitida O'zbekiston yoshlarining estetik madaniyatini milliy qadriyatlarimiz va milliy mafkura asosida shakllantirish davr talabiga aylandi. Chunki, jahonda sodir bo'layotgan turli ko'rinishdagi mafkuraviy tahdidlar ko'proq yoshlarning ongi va qalbini egallashga urinmoqda. Biz shunday bir sharoitda ularni turli yot g'oyalardan xalqimizga xos milliy mentalitet va yuksak estetik madaniyat asosida saqlab qolishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: globalashuv, estetik madaniyat, mafkura, ma'naviyat, san'at, milliy qadriyatlar, yoshlar, islom dini, diniy ekstremizm, sport, musiqa, ma'naviy tarbiya, adabiyot.

Globalashuv jarayoni xalqimizning ma'naviy qiyofasini o'zgartirish bilan birlgilikda shaxs estetik madaniyatining zamonaviylashuviga, yangilanib borishiga olib kelmoqda. Natijada estetik tarbiya uchun ma'naviy qadriyatlardan qanday foydalanish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Kun tartibidagi muhim muammolardan biri milliy qadriyatlarimiz, axloqiy mezonlarimiz, urf-odat, an'ana va marosimlarimizni axborot maydonida kechayotgan turli qarash va kurashlardan omon-eson olib chiqish bo'lib qoldi. "Bugun biz XXI asrda, deb ta'kidlaydi Islom Karimov – intellektual mehnat birlamchi ahamiyat kasb etayotgan globalashuv va internet asrida yashayotganimizni hisobga oladigan bo'lsak, jahon bozorida raqobat kurashining miqyosi va keskinligi tobora ortib borayotgani bu haqiqatni yana tasdiqlab bermoqda"[1]. Shuning uchun jamiyatda estetik madaniyatni ko'zlangan maqsadlarga qaratilgan puxta reja va dasturlar asosida olib borish ma'naviyatimizning ko'لامи jihatidan kengroq, amaliy jihatdan muhimroq masalaga aylatirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Dunyo O'zbekistonni milliy-madaniy merosi, boy tarixi, tili, madaniyati, urf-odat va an'analarining umuminsoniy g'oyalari bilan mujassamligi, san'at va arxitektura, fan va madaniyat sohasida erishayotgan yutuqlari orqali kashf etmoqda. Demak, biz globalashuv jarayonida passiv qabul qiluvchi tomongina bo'lmay, faol targ'ib qiluvchilarga ham aylanishimiz mumkin»[2]. Shundagina zamonaviy estetik madaniyat va qadriyatlarning asl vorislari va rivojlantiruvchi subyektlari sifatida o'zimizni namoyon eta olamiz.

O'zbek xalqi asrlar davomida shakllantirib va rivojlantirib kelgan milliy-badiiy qadriyatlari bugungi kunda ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini keng qamrab oldi. Buning natijasida «xalqimiz yaratgan o'zbekona qadriyatlар rang-barang va beqiyosdir. Ularning sanog'i taxminan 5-10 mingdan oshadi! Bu gapda lof ham yo'q, mubolag'a ham yo'q. Ammo bir haqiqatni unutmashlik kerak. Gap qadriyatlarning qanchalik ko'p, ozligida emas, balki ma'no, mazmunining teranligi, jamiyat, hayotga avlod tarbiyasida tutgan o'rni, ta'sir kuchidadir. Shunisi hayratlanarliki, o'zbekona qadriyatlarning har biri mustaqil tarixiy, badiiy-estetik, falsafiy-badiiy mukammal asar, deb atalishga haqli» [3].

O'zbek oilasidagi milliy-badiiy qadriyatlarning rivojlanishi bevosita dunyodagi boshqa xalq oilalariga o'xshamas tomonlari bilan ajralib turadi. Chunki, o'zbek xonardonlarida farzandlarga estetik tarbiya berish va estetik didni shakllantirish o'ziga xos jihatlarga ega. Bugungi yosh avlod estetik madaniyatini yuksaltirishda birinchi galda ota-onaning ibratli hayot tarzi, mehnatga, hayotga, jamiyatga bo'lgan munosabatlari, bilim va madaniyat darajalari, mustaqillikni mustahkamlashga qaratilgan dunyoqarashi katta ahamiyatga ega.

Yoshlarning milliy-estetik qadriyatlars asosida shakllanishi va rivojlanishi xalqimizning hayoti, turmush tarzi, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, tili, uning o'tmishi, kelajagi bilan uzviy bog'liqidir. Davlatimiz rahbari yoshlar haqida fikr yuritar ekanlar, "Yangi avlodni tarbiyalash – xalqni tarbiyalash deganidir" [4], deb ta'kidlaydilar. Shunday ekan, bugungi mustaqillik farzandlari va u bilan tengdosh yoshlarmiz ijtimoiy-iqtisodiy sohaning rivojlanishiga bevosita kirib kelganligi, barcha sohalarni o'zlarining yutuqlari bilan zabt etayotganlklari quvonarli holdir.

Bugungi kunda O'zbekiston aholisining 60% ini yoshlar tashkil qilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, islohotlarni yosh avlod tarbiyasiga milliy qadriyatlар ruhida singdirishda katta kuch bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, dunyoda mafkuraviy hurujlar tobora avj olib borayotgan bir paytda yoshlarmizda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijtimoiy-iqtisodiy sohaning o'rni kattadir. Chunki, ta'limning milliy modeliga muvofiq O'zbekistonda ta'lim tizimi ijtimoiy vogelikning barcha jabhasini qamrab olgan. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy sohada, ayniqsa, ta'lim sohasida mafkuraviy immunitetni shakllanishida bu

sohadagi kadrlarni modernizatsiyalash jarayonida yurtimiz qo'shni mamlakatlar va dunyo mamlakatlarda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini kuchaytirishda yoshlarning o'rni katta hisoblanadi.

Keyingi uch yil davomida arab mamlakatlarida keng avj olib kelgan ISHID jangarilik faoliyatining jahon tamadduni va insoniyatga solayotgan xavf-xatarlarini yoshlарimiz chуqur anglab yetmoqda. Ular Misr, Yaman, Suriya, Liviya, Iroq, Turkiya kabi davlatlarda bo'layotgan xunrezliklarning mohiyatini joylarda o'z tengdoshlariga, hamkasblari va keng jamoatchilikka yetkazishda o'zlarining faolliklarini namoyon etmoqdalar. Qolaversa, Yevropaning Fransiya, Belgiya va boshqa davlatlarida bo'layotgan teraktlarning mohiyatini joylarda targ'ibot-tashviqot orqali jamoatchilikka yetkazishlari, yurtimizning barcha hududlarida fuqarolarimiz tinch-xotirjam va kelajakka ishonch tuyg'ulari bilan yuksak estetik madaniyat negizida shukronalik asosida yashayotganliklarini, ogohlilik va hushyorlikni qo'ldan boy bermasligimiz darkorligini doimo yodda tutmoqlari lozim.

Bugungi kunda avj olib borayotgan mafkuraviy kurashlar jarayonida yoshlарimizning ongi va qalbini egallashga bo'lgan urinishlar har qachongidan ham kuchayib bormoqda. Milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizni oyoqosti qilishga harakat qilayotgan nigelizm (hech qanday qonun-qoidani tan olmay, barcha narsani inkor etishga da'vat etuvchi qarashlar) g'oyasini yoyishga bo'lgan har qanday xattiharakatlarni o'z vaqtida anglab yetish va unga qarshi kurashish nafaqat pedagoglarning, balki har bir mas'uliyatli o'zbek xalqi farzandining vazifasidir. Taraqqiyotimizni ko'ra olmaydigan yovuz kimsalar yoshlарimizga ajodolarimiz axloqiy va estetik madaniyat namunalarini qora deb, qora deb kelgan narsalarni oq deb o'rgatmoqdalar va har qanday biz bebahо sanalgan milliy qadryatlarimizga nisbatan begonalik tuyg'usini shakllantirishga intilmoqdalar.

Oxirgi yillarda dunyodagi turli davlatlar, xalqlar, millatlar va dinlar o'rtasiga nizo solish, odamlar orasida turli tahdidlarni keltirib chiqarish niyatida islam dinidan mafkuraviy vositalar sifatida foydalanimoqda. Biz bugun yoshlарimizni mana shunday mafkuraviy yovuzliklardan asrashimiz uchun ularda yuksak estetik madaniyat va ma'naviyatni kamol toptirishimiz maqsadiga muvofiqdir.

Bunday vaziyatda Prezidentimizning 2001 yil 18 yanvardagi F-1331-sonli "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va Respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida"gi Farmoyishiga muvofiq yangi avlod darsliklari, o'quv va metodik adabiyotlar tayyorlash hamda uzlusiz ta'lim tizimiga joriy etilishi yurtimizga kirib kelayotgan ma'naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immuniteti mustahkam bo'lgan avlodni tarbiyalashdagi muhim qadam bo'ldi. Shuningdek, jamoatchiligimiz nazoratini kuchaytirish bugungi kunimizning dolzarb masalasiga aylandi.

Yoshlарimizning ongi va tafakkurida milliy qadriyatlarini yanada kuchaytirish maqsadida 2006 yil 25 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Milliy g'oya va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi PQ-451-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda milliy g'oyani yoshlарimizning kundalik turmush tarziga aylantirish masalasi muhim ahamiyatga egadir.

Har bir o'zbek xonodonida estetik madaniyatni milliy ruhda tarbiyalash, ularda estetik his-tuyg'ularni shakllantirish va nafis tuyg'ularni kamol toptirish asosiy vazifadir. Oilada estetik madaniyatni shakllantirishda tevarak-atrof (qo'ni-qo'shni, mahalla, bog'cha, mакtab va hokazolar)ga bo'lgan zavqiy munosabat, voqelik go'zalligini kuzatish, idrok etish va estetik his, idealni tarbiyalash muhim. Shuningdek, global jarayonlar mevasi bo'lgan, niqoblangan yengil san'at namunalarini emas, balki zamонавији milliy-badiy qadriyatlarga asoslangan estetik madaniyatni rivojlantirish kerak.

Globallashuv davrining mevasi bo'lgan elektron musiqa asboblari milliy musiqiy madaniyatimizga ham singib bormoqda. Afg'on rubobi, sintezatorlar, pianino va akkardionlar, mikrofonlar musiqiy madaniyatimizning ajralmas qismiga aylanib qoldi. Bunday musiqiy asboblardagi integratsion jarayonlar, ayniqsa, estrada janrida keng tarqalgan. O'zbek estradasida qator guruhlar paydo bo'ldiki, masalan, Muhriddin Holiqov, Nuriddin Haydarov, Mahmud Namozovlar «Yalla»dan keyingi o'zbek xalq musiqiy madaniyatini zamонавији tamoyillar bilan boyitdilar. Natijada, mustaqillikdan keyin musiqiy madaniyatimizda yangi, zamонавији estetik qadriyatlar tarkib topdi.

Bundan tashqari, har yili o'tkaziladigan Mustaqillik va Navro'z bayramlari badiiy-estetik madaniyatning serqirra ma'naviy boylik ekanligining isbotidir. Har yili bayram dasturi erishilgan moddiy-ma'naviy yutuqlarimiz fonida yangi zafarlarni ko'zlagan estetik idealning ramzi sifatida amal qiladi. Mustaqillik bayrami – musiqiy merosimiz va zamонавији estetik did, ideal mushtarakligiga yorqin dalildir.

Shu bilan birga, zamонавији o'zbek estrada qo'shiq va musiqalari haqida aytish mumkinki, ayrim guruh, sozanda va xonandalarning globallashuv davrining salbiy ta'siriga berilgan holda san'at ommaviyligini noto'g'ri tushunish hollari ham uchraydi.

Ayrim estrada qo'shiqchilarining qo'shiq matni bachkana va sayoz, musiqalari esa chet el musiqasiga taqlid qilingan, ovozi mikrofon evaziga efirga tarqaladigan xonandalarning nolishlaridan iborat

bo‘ladi. Bunday qo‘sishqlar zamonaviy ma’naviy qadriyatlar orasidan o’tin olishi qiyin. Aksincha, bunday qo‘sishqlar yoshlar didini buzadi, milliy musiqiy madaniyatimiz obro’sini to‘kadi. «Ayrim yosh ijrochi va ijodiy guruhlarning jamoatchilik e’tiboriga taqdim etayotgan «asar»lari san’atning hech qanday talab va mezonlariga javob bermaydi. Nafaqat mavzu va musiqa, ijro usullari, balki sahna harakatlarda ham ochiqdan-ochiq ajnabiyligi «ommaviy madaniyat» guruhlariga taqlid qilish, «yulduzlik» kasaliga chalinish holatlari tez-tez uchrab turayotgani chinakam san’at muxlislarini ranjitasdan qolmaydi, albatta»[5].

Yoshlarimizning estetik madaniyatiga salbiy ta’sir etuvchi bunday xatti-harakatlarga befarq qarab bo‘lmaydi. Bu narsa Yurtboshimiz aytganiday, yuqumli kasalikka o‘xshab ketadi va ma’naviyatimizga xavf tug‘diradi.

Zamonaviy milliy-ma’naviy qadriyatlarning ommalashgan ko‘rinishlaridan biri nikoh to‘ylari va boshqa marosimlarni o‘tkazishda musiqa va ashulardan foydalanishdir.

Bunday marosimlarimizning go‘zal ma’naviy qadriyat ekanligi ma’lum. Bunday marosimlar xalqimiz orasidagi, qarindosh-urug‘lar, aka-uka, opa-singillar, mahalla-kuydagisi chinakam mehr-oqibat, zavqiy munosabatlarga yorqin dalil bo‘la oladi.

Mustaqillik tufayli bu azaliy qadriyatlarning ham yangi estetik ko‘rinishlarga ega bo‘lmoqda. To‘yma’rakalar, marosimlarda musiqa asboblarining qulqoni teshib yuborish darajasidagi jazavasi azaliy to‘y marosimlarimizning estetik ruhiga mos kelmasligi ham ma’lum.

Demak, tarixiy va zamonaviy ma’naviy qadriyatlarning xalq ruhi va faoliyatiga asabiy emas, zavqiy kayfiyat bersa, insonni ilhomlantirib, hayotga, mehnatga va farog‘atga chorlasa jamiyat va shaxs estetik madaniyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanadi.

Estetik madaniyatni yoshlar ongiga singdirish katta ijtimoiy masala. U ona tilidan boshlanib, barcha ijtimoiy-ma’naviy jabhalarni ham qamrab oladi. Inson estetik madaniyatni shakllanishida katta-kichik yoki muhim va muhim sanalmaydigan narsa yo‘q. Hamma narsa – insonni o‘rab olgan tabiiy va ijtimoiy muhit, insonga ta’sir etuvchi barcha ma’naviy-tarbiyaviy va mafkuraviy omillarning roli katta. Bolaning yoshligidanoq estetik madaniyatni mukammal bo‘lsa yaxshi va yomon narsalar farqini chuqurroq anglab yetadi. Mana shunday tushunchalarni yosh bolaning ongiga singdirishda, avvalo, ularning qiziqishlarini hisobga olish lozim. Ayrim hollarda ota-onalar bolalarining qiziqishlarini hisobga olmasdan, o‘zlarini ko‘ngillariga yoqqan mashg‘ulotlarga jalb etishadi. Shuningdek, ba’zi ota-onalar o‘z ishlari bilan band bo‘lib bola tarbiyasiga, uning xulq-atvori va estetik madaniyatiga yaxshi e’tibor berishmaydi. Bunday holatda tarbiyalangan bola jamiyatda o‘zining o‘rnini topishi qiyin kechadi. Shu sababdan har bir ota-onan o‘z bolasining tarbiyasi va estetik dunyosi uchun jamiyat oldida javobgardir. Ijtimoiy hayotimizga «ommaviy tarzda xorij filmlari va nashrlarining kirib kelishi, audio va video kassetalarning keng tarqalishi, hali iyomon-e’tiqodi, milliy o‘zligi to‘la shakllanib ulgurmagan yoxud saviyasi g‘o‘r, mentaliteti sust odamlarga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Kiyinish va muomala odobi, milliy axloqiy mezonlar, musiqa madaniyatida milliylikni xira tortishi, mumtoz musiqa va adabiyotdan, bobolar o‘giti va ibratlaridan, kitob mutolaa qilishdan cheklanish, albatta, milliy qadriyatlarning qimmatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin emas»[6]. Shunday ekan, har bir oila yoshlar estetik madaniyatini faqat xursandchilik, aysh-ishrat, maishatbozlik, tashqi bezirimlik yoki soxta tantanavorlik bilan bog‘lamasdan, go‘zal milliy-badiiy qadriyatlarning asosida kamol toptirib borishi maqsadga muvofiqdir.

Bunday holatlar oddiy o‘zbek oilasida ota-onanining o‘zaro muomala madaniyati, mehr-muhabbati, shirin so‘zları, turmush tarzi orqali yoshlar qalbiga singib boradi. Yuksak estetik madaniyatli insonlar bilan muloqotda bo‘lish, hayotga nisbatan zavq-shavq bilan munosabatda bo‘lish, voqelikni go‘zallik qonunlari asosida idrok etish va o‘zgartirish salohiyatini kuchaytiradi.

Yoshlarning ma’naviy-estetik madaniyatni shakllanishida oilaviy muhit va bolalar dunyosiga ta’sir etuvchi narsalarining naqadar katta tarbiyaviy kuchga ega ekanligini har bir shaxs chuqur anglab yetishi, ayniqsa, o‘zining kundalik faoliyatida estetik madaniyatning axloqiy jihatlarini barchaga milliy qadriyatlarning ruhida yetkazib bersa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Adabiyotlar.

1.Каримов И.А. Мамлакатимизни демократик янгилаш ва модернизация қилишга қаратилган тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириш – бош мақсадимиз // Эришилган мэрралар билан чегараланмасдан, бошлаган ислоҳотларимизни янги босқичга кўтариш – бугунги кундаги энг долзарб вазифамиз. -Т.: Ўзбекистон, 23-жилд, 2015. 109-бет.
Миллий истиқлол гояси. -Тошкент: Akademiya, 2005. 86-бет.

2.Муродов М. Ёш авлод тарбиясида миллий кадриятларнинг педагогик имкониятлари // «Миллий урф-одат, маросим ва анъаналарнинг шахс маънавий камолотидаги ўрни» (семинар-йиғилиш материаллари) -Тошкент: 1998. 16-бет.

3.Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015. 235-бет.

4.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008. 142-бет.

Гулметов Э. Глобаллашув жараёни ва маънавий қадриятлар // Миллий ғоя ва маънавий қадриятлар: назария, методология, амалиёт. -Тошкент: 2004. 143-144-бетлар.

О.М.Гайбуллаев
**НАЦИОНАЛЬНЫЕ И ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ
 ВИДЫ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ
 ЛИЧНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

В настоящее время в условиях глобализации формирование эстетической культуры молодёжи Узбекистана на основе национальных ценностей и национальной идеологии является требованием времени. В мире возникают разные идеологические угрозы, элементы которых пытаются захватить сознание и душу молодёжи. В спожившихся условиях мы должно уберечь их от различных чужих идей или помочи национального менталитета и эстетической культуры.

Ключевые слова: глобализация, эстетическая культура, идеология, духовность, искусство, национальные ценности, молодёжь, исламская религия, религиозный экстремизм, спорт, музыка, духовное воспитание.

O. M. Gaynullaev

**NATIONAL AND IDEOLOGICAL
 TYPES OF AESTHETIC CULTURE
 OF PERSON IN GLOBALIZATION
 PROGRESS**

In condition of globalization in Uzbekistan forming youth on base of aesthetic culture, national value and national ideology is requirement of time. Therefore, miscellaneous ideological threats try to size thinking and soul of youth. In a such condition, we should keep them from different strange thoughts according to our national mentality and marvelous aesthetic culture.

Keywords: globalization, aesthetic culture, ideology, moral, art, national value, youth, islam religion, religion extremizm, sport, music, moral study.

UDK: 575.1

**ФОРМИРОВАНИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА – ФАКТОР БЕЗОПАСНОСТИ
 И СТАБИЛЬНОСТИ**

Р.Ш. Тошкуватова¹, Г.В. Маркова²

Доцент СамГУ¹, преподаватель СамИСИ²

Аннотация. Одной из важных особенностей построения гражданского общества, правового демократического государства выступает дальнейшее повышение роли и статуса идеологического иммунитета, необходимость его концептуально содержательного совершенствования. Статья раскрывает некоторые аспекты формирования идеологического иммунитета как важного принципа развития общества и личности.

Ключевые слова: идеологический иммунитет, феномен, глобализация, национальная идеология, миссионеры, прозелитизм, идея.

В современном мире процесс глобализации охватил почти все социально-политические. В настоящее время прилагаются особые усилия со стороны международных и региональных сил к тому, чтобы подвергнуть полной глобализации и идеологические процессы, в которых наряду с общечеловеческими феноменами особое значение имеют и национальные реалии, особенности и традиции. Поэтому всеохватная глобализация идеологической сферы может вызвать столь опасные и непредсказуемые последствия, которые не только пагубно скажутся в рамках данного общества, но и способные выйти далеко за их пределы, включится в мировые контексты.

Одной из важных характеристик нынешних глобализационных процессов выступает то, что помимо общих изменений и качественных превращений, особое значение приобретают особенности постановки определённых проблем, когда их решение и реализация оказываются тесно связанными между собой. Это ярко демонстрируется на примере глобализации феноменов толерантности и формирования идеологического иммунитета, проблемы которых все более глобализируются и в то же время оптимизируют свои национальности особенности по мере дальнейшего развития общественно-духовных процессов, усиления угроз со стороны различного рода экстремистских идеологических течений и движений.



Реализуемое в Республике Узбекистан широкомасштабное социально-экономическое и духовно-политическое реформирование последовательно проводится в контексте мировых стандартов и учетом национальных особенностей. Президент Республики Узбекистан И.А.Каримов в ряде своих трудов и выступлений в качестве одной из мер призванных повысить эффективность этого процесса предотвратить различного рода пагубные внешние и внутренние воздействия, опасность которых крайне возросла в условиях глобализации выдвинул задачу укрепления идеологического иммунитета с тем, чтобы члены общества, особенно молодежь, глубоко осознавали свою национальную идентичность, окружающую действительность, шли в ногу со временем, не поддавались пагубному воздействию чуждых идей».

В условиях глобализации и ускорения процессов национального реформирования предстает необходимость и эффективность использования историко-философских истоков проблем идеологического иммунитета, который выступает с одной стороны, как важный фактор гармонизации общественно-духовных процессов, а с другой – как необходимое следствие.

Президент И.Каримов выдвигает задачу укрепления в сознании граждан национального мышления и основ здорового мировоззрения. Только национальная идеология способна выступить в качестве общемировоззренческой основы для идеологического иммунитета, духовным стержнем каждого человека, живущего в демократическом обществе. Духовность любого народа имеет решающее значение в определении сегодняшней жизни и судьб будущего поколения. Национальная идеология тесно связана с развитием демократии в условиях которой идеологический иммунитет имеет большое значение. Президент Республики Узбекистан И.А.Каримов отмечает:» С первых дней независимости важнейшей задачей, поднятой на уровень государственной политики, явилось возрождение того огромного бесценного, духовного и культурного наследия, которое в течение многих веков создавалось нашими предками. Возрождение духовных ценностей мы рассматриваем как органически естественный процесс роста национального самосознания, возвращения к духовным истокам народа, его корням».

Одним из составных компонентов духовного наследия является древняя общественно-философская мысль народов Узбекистана, которая играет всестороннюю роль во всех в реализуемых их в нашей стране социальных процессах в качестве идейных источников. В нашей стране, в своё время выдержавшей такого рода террористические и экстремистские удары, которые пытались нанести с позиции не только духовного, но и прямого насилиственного воздействия, с самого начала был поставлен вопрос о возможности их предотвращения и путем развития идеологического невосприятия подобного пагубных угроз, противостояние им. Этот вопрос нашёл своё концептуальное решение в книге Президента И.Каримова «Юксак мъянавият-енгилмас куч». Он подчеркивает необходимость формирования и развития идеологического иммунитета, одним из важных средств в реализации которого выступает использование богатых возможностей философского наследия нашего народа. Особое значение приобретает, по словам Президента И.Каримова, использование таких решающих факторов, как воспитание любви к Родине, верности священной религии наших предков, укрепление национального самосознания, глубокое осознание и осмысление действительности, передовое мировоззрение, способность идти в ногу со временем, принцип человеколюбия и гуманизма.

Историю человечества рассматривают не только как череду сменяющих друг друга событий, но и как историю идейных и идеологических процессов, соответствующих по своему содержанию определенным историческим этапам. Связь идейных процессов с историческим развитием носит объективный и повторяющийся характер, что является отличительным признаком закона. Поэтому взаимосвязь идеологических процессов с историческим развитием выступает как объективный закон общественной жизни.



Идея-это конкретная мысль или совокупность мыслей, содержащих определенную цель и направляющих человека и общество к определенной цели и побуждающих их к действиям для её достижения. Однако не всякая мысль является идеей. Идея – это высший уровень теоретической мысли или совокупности мыслей, содержащих позитивную цель.

Идеология – это система идей, охватывающая всю общественную жизнь или её определенную сферу, воплощающая в себе потребности, цели, интересы, желания, надежды и устремления тех или иных социальных групп, слоев, наций, всего народа, общества и государства. Идеология имеет признаки, которые отличают её от других структурных элементов общественного сознания:

идеология – теоретическое отражение и осознание социальной действительности.

идеология создается, либо обобщается особой группой людей – идеологами.

идеология отражает интересы определенных социальных групп и всего общества в целом.

идеология имеет отчетливо выраженную направленность на действие.

Она выполняет разнообразные социальные функции по внедрению соответствующих идей в сознание людей, идеологическому воспитанию и организации масс для воплощения этих идей в жизнь.

Форма идеи и идеологии – это способ внешнего выражения их внутренней сущности и содержания. Разновидности идей и идеологий представляют собой отражение в их содержании многообразной конкретных сфер жизнедеятельности людей, их интересов, целей, потребностей. Существует множество видов различных идей и идеологий, которые имеют свою особую форму выражения, а также целей и задач.

В мире рождается бесконечное многообразие созидательных идей, и человечество обязано использовать их во благо самого человека. К созидательным идеям относятся, Фараби, Ибн Сины, Амира Темура, А.Навои, Улугбеку, М. Ганди и других ученых и общественных деятелей. Идеи и идеологии должны иметь позитивный характер, возвышать человека, нацию, народ, вдохновлять их и вести за собой для достижения намеченных ими целей.

Созидательные идеи и идеологии служат основной для обеспечения прочности и стабильности общества. Пока в мире существует стремление к прогрессу и созиданию, в обществе всегда будут рождаться передовые прогрессивные идеи, но их претворение требует единства и настойчивости. Об этом говорит Президент Республики Узбекистан И.А.Каримов: «Известно, что для превращения любой болезни, нужно прежде всего, в организме человека создать иммунитет против этой болезни».⁴

Мы также должны привить в сердцах наших детей здоровье отношение к Родине, - матери, к нашей богатой истории, к священной религии наших предков, если нужно, укрепить их идеологический иммунитет.

К разрушительным идеям относится любые идеи, если они направлены против человека и человечества, против созидания и прогресса, мира и стабильности, мира и стабильности, а также идеи, воплощение которых в жизнь впечатывает за собой отрицательные социальные последствия и тормозит развитие общества. Показателями разрушительного характера подобных идей и идеологий служат их негативная социальная направленность и отрицательные последствия. Их рождению способствуют антигуманные устремления, реакционные цели определенных лиц и социальных групп.

С чуждыми идеями нельзя бороться только оружием, насилием, угрозами и жестокостью, что характерно для носителей догматических идеологий; необходимо убеждать и просвещать массы, доказывая свою идейную правоту, раскрывая сущность и содержание идеологий, претендующих на универсальный характер и абсолютную истину, в частности, идеологии агрессивного национализма, религиозного фундаментализма. Идеологии, стремящиеся к насилиственной духовной монополии, лишение всякой перспективы так как они со временем отторгаются общественным сознанием.

Таким образом, против разрушительных идей у обществ личности должен быть идеологический иммунитет, что в конечном счёте призвано способствовать развитию конструктивной идеологии в целом. Формирование и развитие идеологического иммунитета у населения, особенно молодёжи непосредственно связаны с реализуемыми в стране политическими, социально-экономическими и духовными процессами. Однако оптимальность и правильное утверждение идеологического иммунитета определяются тем, насколько успешно происходит освоение молодёжью национальной идеологии, ибо она составляет идеально-духовную основу идеологического иммунитета.

Литература

1. Каримов И.А. «Высокая духовность непобедимая сила»-Ташкент: 2008-С.119-120
2. Каримов И.А. «Наша высшая цель – независимость и процветание Родины, свобода и благополучие народа» Т.: с 481.
3. «Идеология независимости и стоки, проблемы и пути реализации». Т.1994.
4. Каримов И(Каримов И. Идеология – это объединяющий флаг нации, общества, государства. – В кн.: Свое будущее мы строим своими руками. – Том 7, Т.: «Узбекистон», 1999,.82-90)
5. Абдуналиев А.Г. , Усманов Г.Н.Идея национальной независимости и воспитание молодежи.– Т., 2002.

R.Sh.Toshkuvatova, G.V.Markova FORMATION OF IDEALISTIC IMMUNE AS A FACTOR OF SAFETY AND STABILITY

On the formation of civil society and the building democratic state increasing idealistic immune and development its gist is very important task. In this article are discussed ways of development of idealistic immune in youths.

Keywords: idealistic immune, phenomenon, globalization, national ideology, missionary, proselytism, idea.

R.Sh.Toshkuvatova, G.V.Markova MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH-XAVFSIZLIK VA BARQARORLIK OMILI

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish, huquqiy demokratik davlat kurishda mafkuraviy immunitetni oshirish, uning mazmunini takomilashtirish muxim ahamiyat kasb etadi. Maqolada yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ba'zi yunashlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mafkuraviy immunitet, fenomen, globalizatsiya, milliy mafkura, missionerlik, prozelitizm, g'oya.

UDK: 1:502.3

**TABIATGA ESTETIK MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIYANI
ESTETIKALASHTIRISH VA ESTETIKANI EKOLOGIYALASHTIRISH MUAMMOLARI**

A.Q.Aymatov

Samarqand davlat universiteti, dotsent

Annotatsiya. Maqlolada shaxsning tabiatga estetik munosabatini ekologik jihatlari falsafiy tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Unda ekologiyani estetikalashtirish va estetikani ekologiyalashtirishning ilmiy-nazariy ko'rinishlari bugungi kun nuqtai nazaridan o'rganiladi. Mana shunday jarayonda shaxsning voqelikni badiiy-estetik qiyofada ifodalashi, ayniqsa, ekoestetik bosqichlari, funksiyalari va qonuniyatlarini milliylik va san'at bilan uyg'un holda tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Tabiat, jamiyat, badiiy qiyofa, ekologik madaniyat, estetik faoliyat, estetika, shaxs, san'at, borliq, tarixiy meros, iqtisodiyot, milliylik, umuminsoniylik, ma'naviyat, siyosat.

Tabiatni estetik idrok qilish va uni badiiy obrazlarda ifodalashda ekologik ong va madaniyatning roli har bir fan sohasida o'z predmetidan kelib chiqqan holda ilmiy tahlil qilinmoqda. Vaholanki, axborot transformatsiyasida to'g'ri va qayta bog'lanish nazariyasiga ko'ra, insonning har qanday ijtimoiy faoliyati asosida muayyan ehtiyoji, manfaati yoki ularning kompleksi yotadi.

Insonning ekologik ehtiyojlarini badiiy-estetik obrazlarda ifodalash va ular vositasida tabiatni muhofaza qilish faoliyatini rag'batlantirishni, umuman ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan tabiatni muhofaza qilish amaliyotining subyektiv omili sifatida: nazariy bilish va amaliy o'zgartirish yo'nalishlariga ajratish, metodologik ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, buni muammoning gnoseologik va praksiologik jihatlari uyg'unligi sifatida qarash kerak. Muammoga bunday yondashuv insonning tabiatga munosabatidagi merkantil-utilitar manfaatlarga, iqtisodiy determinizmga asoslangan iste'molchilik psixologiyasini bartaraf qilishning obyektiv va subyektiv omillari birligini nazarda tutadi. Lekin ularning har biri (nisbatan mustaqil tarzda) «tabiat-jamiyat-inson» munosabatlarining barcha sohalarini va rivojlanish darajalarini qamrab olishi mumkin bo'lmasa ham, estetik va ekologik madaniyat integratsiyasi xususiyatlariga mos keladi.

Darhaqiqat, ibtidoiy jamiyatda qadimgi odamlarning sodda-primitiv san'at asarlarida turli jonivorlar, o'simliklar obrazini yaratish maqsadi asosida ekologik ehtiyojlar o'z ifodasini topgan. Chunki ularning mifologik dunyoqarashida inson tabiat farzandi hioblanadi. Qadimgi din shakllarida tabiatni ilohiyashtirish ham, teologik afsonalarda ifodalash ham, uni (hayotining asosi sifatida) muhofaza qilish zaruriyatini, ehtiyojini, burchini, mas'uliyatini anglash bilan bog'liqdir. Buni biz O'zbekistonning Sarmishsoy va boshqa joylarda qoya toshlarga chizilgan hayvon va o'simliklar suratlarida mahalliy ekologik muammolarni ifodalashda areal xususiyatlar ustuvorligini ko'ramiz.

Darhaqiqat, XX asr o'rtalariga kelib ekologik muammolar globallashuvi va keskinlashib ketishi bilan, «inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda»[1].

Hozirgi davrda bu muammolar yechimi «tabiat-jamiyat» munosabatlarida insonning tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish faolligiga – shaxs ekologik ijtimoiylashuviga bog'liq bo'lib, jamiyat taraqqiyoti darajasini belgilaydigan asosiy mezonga aylandi. Shu nuqtay nazaridan, tabiatga ekologik munosabatni badiiy-estetik ifodalashni maxsus ijtimoiy hodisa sifatida olib qaralsa, uning bundan keyin ham insoniyat barqaror ekologik tarixiy taraqqiyoti istiqbollarini, sivilizatsiya kelajagini belgilab beradigan muhim subyektiv omilligini ko'ramiz.

Insonning ekologik faoliyatini estetikalashtirish va estetik tafakkur tarzini ekologiyalashtirish, uning tabiatni muhofaza qilish ehtiyojlaridan kelib chiqib, moddiy va ma'naviy hayot asoslarini ishlab chiqish jarayonida namoyon bo'ladi. Bunda ekologik madaniyatning har qanday ko'rinishi va rivojlanish darjasini, bir tomonidan, "tabiat-jamiyat-inson" majmuasidagi: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy munosabatlarida aniq badiiy-estetik mazmun kasb etib, o'z tarixiy davrining umumiyligi ekologik madaniyatidan ajralib qolgan emas, balki uning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Ikkinci tomonidan, ekologik ehtiyoj asosida vujudga kelgan "tabiat-jamiyat-inson" tizimi elementlari munosabatlari mutanosibligi ham, biosfera muvozanatini badiiy-estetik obrazlarda ifodalash ham, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy rivojlanish darjasini ifodalaydi.

Shuning uchun, hatto insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab ijtimoiy-ekologik faoliyatlarini (sodda-primitiv) estetik ifodalash shakllarini tabiiy-biologik ehtiyojlaridan, ya'ni, tabiatni madaniy o'zgartirishi va o'zlashtirishning mutanosibligini ta'minlash muammosidan ajratgan emas.

Ekologik madaniyat o‘z strukturasi va funksiyasiga ko‘ra, nafaqat tabiatni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan “iste‘molga tayyor” ekoestetik badiiy qadriyatlarni, balki ularni yaratish va iste‘mol qilish tarixini ham, usullari va vositalari majmuini ham, texnologiyasini ham, qamrab oladi. Shuning uchun ekologiyani estetikalashtirish va estetikani ekologiyalashtirish jarayonida ekologik madaniyat va ong insonning turmushida, mehnat faoliyatida hamda boshqa ijtimoiy munosabatlari tizimida tabiatni badiiy-estetik o‘zlashtirishdan iborat ijtimoiy-ekologik tajribasini namoyon qiladi[2].

Ilmiy adabiyotlarda ekologik madaniyat, umumiylar dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida: keng va tor ma’nolarda qo‘llanilmoqda. Ya’ni, keng ma’noda, ekologik madaniyat – insoniyatning ijtimoiy-tarixiy faoliyati jarayonida tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan moddiy va ma’naviy qadriyatlari majmuasidir. Tor ma’noda esa, kishilarning muayyan amaliy va nazariy faoliyat maqsadlarini (shu jumladan, tabiiy borliq va uning ichki garmoniyasini), tabiatni muhofaza qilish manfaati bilan bog‘lash san’ati, deb qaraladi [3].

Ekologik borliqni fundamental nazariy bilishda estetikaning ontologik, gnoseologik, metodologik va praksiologik funksiyalari turli amaliy darajalarda – kundalik oddiy urf-odatdar, an’analar yoki murakkab texnik-teknologik madaniyatga asoslangan ekologik faoliyat tarzida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtay nazardan, insonning, umuman, borliqga, xususan, ekologik borliqga munosabatini estetik madaniyat tamoyillari asosida tashkil qilish: bir tomondan, ekologik vogelikka estetik munosabat motivlarini, ifodalash usullari, vositalarining boshqa ijtimoiy ong shakllaridan farqi (maqomi va ahamiyati)ni aniqlashni; ikkinchi tomondan, turli madaniyat sohalarining tabiatni muhofaza qilishdagi moddiy va ma’naviy, nazariy va amaliy faoliyatlarini funksional bog‘lanishlarini nafosat qonunlari asosida tashkillashtirishni taqozo qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ekologiyaning estetikalashish va estetikaning ekologiyalashish darajasi “tabiat-jamiyat-inson” tizimi ma’naviy munosabatlarini uyg‘unlashtirish xarakteriga mos keladi. Xususan, insonning ekologik faoliyati samaradorligi – “shaxs sifatlari” kompleksini estetikalashtirish darajasiga bog‘liq. Lekin, hatto, “tabiat-jamiyat-inson” tizimi elementlarining o‘zaro ekologik munosabati haqida nisbatan mukammal nazariy bilimlarga, amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan shaxsning «estetik va ekologik madaniy saviyasi sifatini» belgilaydigan yagona, universal mezon yo‘q. Chunki har qanday shaxs, mohiyatan individual ijtimoiy mavjudotdir. Bunda asosiy mezon, jamiyat ekologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda, tabiatni o‘zlashtirish uchun o‘zgartirish ratsionalligidir. Bu jarayonda jamiyat ekologik ehtiyojlarni badiiy-estetik obrazlarda ifodalashning ratsionalligi va funksional ahamiyati, insonning tabiatga munosabat yo‘nalishlarini, faqat ekologik ehtiyojlariga mos tarzda o‘zgartirish emas, balki tabiat va inson munosabatlarini nafosat qonunlari asosida oqilona tashkil qilish hamda o‘z ijtimoiy mohiyatini ham ifodalash usulidir.

Shaxsning atrof-muhitga estetik munosabatini va ifodalash usulini, uning ijodiy erkinligini ta’minlaydigan imkoniyat hamda nisbatan mustaqil namoyon bo‘lish shakli sifatida qarash kerak. Lekin, uning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini boshqa ma’naviy-axloqiy qadriyatlardan tashqarida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Zero, tabiatga ekologik munosabatni nafosat qonunlari asosida tashkil qilish, ma’naviy-axloqiy normativ qadriyatlarning reguliyativ funksiyasini istisno qilmaydi, aksincha, «tabiat-jamiyat-inson» o‘zaro ta’sir koevolvutsiyasini ta’minlash vositasi, subyektiv omili sifatida, insoniyat sivilizasiyasini saqlab qolish sharti bo‘lib, barqaror ekologik taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega.

Har qanday yuqori darajada rivojlangan ijtimoiy muhitda ham ekologik ong va madaniyatni badiiy-estetik obrazlarda ifodalash stixiali, avtomatik tarzda sodir bo‘lmaydi. Bunda jamiyat ekologik ehtiyojlarini shakllantiruvchi ijtimoiy-siyosiy muhit majmuasi, ularni qondirish uchun obyektiv shart-sharoit, imkoniyat yaratsa, ekoestetik ta’lim-tarbiya, maorif va boshqa subyektiv omillar uni reallikka aylantiradi. Shuning uchun ham, ijtimoiy-siyosiy muhitning, umuman ekologik madaniyatga, xususan tabiatni badiiy-estetik idrok qilish mexanizmlarini o‘rganishga obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar birligi asosida yondashish, uning yaxlit tizimliligini ta’minlaydi. Bulardan tashqari, ekologiyaning estetikalashish va estetikaning ekologiyalashish jarayoni vujudga kelishi, mavjudlik xususiyatlari va rivojlanish istiqbollarini ko‘rsatish uchun zarur metodologik tamoyil hisoblanadi.

Shu nuqtayi-nazardan, ekologiyani estetikalashtirish va estetikani ekologiyalashtirish yo‘nalishlarini jamiyatning ekologik ta’lim-tarbiya institutlari rivojlanish xususiyatlari va darajalari bilan bog‘lab tahsil qilish lozim. Lekin bu vazifa mahalliy, milliy, hududiy va global ko‘lamlariga ko‘ra nisbiy va shartli. Boshqacha aytganda, uning mahalliy, milliy va hududiy individual xususiyatlari umuminsoniyligining muayyan namoyon bo‘lish shakllaridir. Shuning uchun, aksariyat holatlarda mahalliy yoki milliy darajalarda ekologiyaning estetikalashtirish va estetikaning ekologiyalashtirish xususiyatlari ko‘lamini kengaytirib, umuminsoniy xarakter kasb etishi mumkin.

Hozirgi davrda turli xalqlar, mamlakatlar o‘rtasida global ekologik muammolarni hal qilish ehtiyoji va obyektiv zaruriyati ma’naviy integratsiya jarayonini kuchaytirib, umuminsoniy-universal ekoestetik tafakkur usulini hamda unga mos keladigan amaliy harakatlar globallashuviga sabab bo‘lmoqda. Bu jarayon ekologik va estetik faoliyatni integratsiyalashtirish orqali, nafaqat ekologik muammolarni, balki ularni vujudga keltirgan: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ruhiy-ma’naviy sabablarga ham qarshi kurash imkoniyatlarini vujudga keltirmoqda. Chunki, ekologik muammolarni badiiy-estetik usullar va vositalar bilan hal qilishning mazmun-mohiyatini, jamiyatning: siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy-mafkuraviy va boshqa ijtimoiy munosabatlарini tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish manfaatlari asosida, inson “ekologik sifatlarini” o‘zgartirishga bo‘lgan maqsad va intilishlarni badiiy qiyofalarda ifodalash tashkil qiladi.

Lekin bu murakkab jarayon bo‘lib, uning natijasi jamiyatning moddiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga, ekologik va estetik manfaatlarini anglashga, adekvat usul-vositalarni tanlashga, ayniqsa, an’anaviy shakllangan madaniy merosga vorislik va uni rivojlantirishga bog‘liqidir. Shuning uchun ta’lim-tarbiya tizimida tabiat muhofazasi sohasidagi estetik va ekologik tarixiy merosga ijodiy munosabatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Zero, milliy ekoestetik madaniyat tarixiy merosini umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar tarkibiy qismi sifatida asrab-avaylab, ijodiy rivojlantirish hamda yangi ekoestetik madaniyat yo‘nalishlarini shakllantirish va hayotga joriy etish hozirgi davr talabidir.

Milliy ekoestetik tarixiy merosni tiklash va rivojlantirish murakkab ijtimoiy-ruhiy vazifa bo‘lib, unga ongli, ijodiy munosabat shaxsnинг real ekologik borliq mohiyatini anglashi va badiiy obrazlarda ifodalash usulidir. Shuning uchun bir tomondan, umuminsoniy ekologik maqsad va manfaatlarga mos ekoestetik madaniyatga oid muqobil nazariy ta’limotlarni integratsiyalashtirish, ifodalash vositalarni, usulblarni muvofiqlashtirishini ham; ikkinchi tomondan, ekoestetik madaniyatning «inson-tabiat» munosabatlari ijtimoiy-ma’naviy mazmunini ochish “texnologiyasini” ham, tarixiy merosni ijodiy rivojlantirish usuli sifatida qarash kerak. Chunki, odamlarning «yaqin o‘tmishdagи dunyoqarashiga xos bo‘lgan, inson – tabiat hukmdori, degan tasavvur o‘rnini inson va jamiyat tabiatning bir qismi ekanligini, tabiatni bo‘ysundirish emas, u bilan uyg‘un munosabatlar o‘rnatish zarurligi, deyarli to‘la anglandi»[4].

Shu nuqtay nazardan, ekologiyani estetikalshirish va estetikani ekologiyalashtirish: birinchidan, jamiyat taraqqiyoti darajalariga mos ekoestetik madaniyatning rivojlanishi jarayonida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va boshqa munosabatlar mazmuniغا aylanib boradi. Ikkinchidan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayot yo‘nalishlarining ekologiyalashuvi hamda estetikalashuvi, ularning tabiat muhofazasiga oid o‘ziga xos nazariy va amaliy jihatlarini kuchaytiradi. Uchinchidan, turli ijtimoiy sohalarning nisbatan mustaqil rivojlanishi, ularning ekoestetik funksiyalari differensiyalashuvida namoyon bo‘lmoqda. To‘rtinchidan, «tabiat-jamiyat-inson» tizimi ijtimoiy-ekologik munosabatlari mushtaraklashuvi, ekoestetik madaniyat yo‘nalishlari integratsiyalashuvini kuchaytirmoqda. Beshinchidan, hozirgi davrning asosiy xususiyati – «tabiat-jamiyat-inson» tizimi munosabatlarini baholashda ekoestetik ma’naviy madaniyat mezonlari, tamoyillari ustuvorlashuvi bilan xarakterlanadi.

Ayniqsa, fan-texnika, axborot texnologiyalari, ya’ni insonning tabiatga antropotexnogen ta’sir kommunikatsiyasi, infrastrukturasi jadal suratlar bilan rivojlanayotgan sharoitda, ekologiyani estetikalshirish va estetikani ekologiyalashtirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Zero, insoniyatning hozir vujudga kelgan global muammolari tizimi bevosita yoki bilvosita, umuman madaniyat, xususan, ekologik madaniyat inqirozi bilan bog‘liq. Shuningdek, mustabid tuzumning «tabiiy va mineral-xom ashyo zahiralaridan vahshiylarcha, ekstensiv usulda, juda katta harajatlar va isrofgarchiliklar bilan foydalanishga asoslangan sotsialistik xo‘jalik yuritish tizimining butun mohiyatiga mamlakat ixtiyoridagi beqiyos boyliklarga avaylab munosabatda bo‘lish g‘oyasi butunlay yot edi. Aksincha, boyliklardan bunday foydalanish ikki tuzumning iqtisodiy musobaqasida mamlakatning asosiy dastagi, eksport imkoniyatlarining negizi bo‘lib keldi» [5].

Boshqacha qilib aytganda, global ekologik inqirozning keskinlashuvi, “tabiat-jamiyat-inson” tizimida inson omilining iqtisodiy, moddiy-texnik, intellektual jihatlarini bir tomonlama rivojlantirish natijasi bo‘ldi. Shuning uchun ham, hozirgi kun realligi ekologik faoliyatni estetikalshirish va estetik ongi ekologiyalashtirishga mutasaddi bo‘lgan barcha ta’lim-tarbiya institutlarining mustahkam nazariy-metodologik asoslarini, pedagogik-didaktik innovatsion texnologiyasini yaratishni taqozo etmoqda. O‘z navbatida bu ehtiyojlar turli ijtimoiy ong shakllari, darajalari va madaniyat sohalarini ekologik manfaatlar doirasida integratsiyalashuvi jarayonlari kuchayishiga olib kelmoqda.

Bu jarayolarni yanada kuchaytirish uchun, bizning nazarimizda, bir-biri bilan uzviy bog‘liq quyidagi yo‘nalishlarni oqilona tashkillashtirish zarur, ya’ni birinchisi – estetik va ekologik ta’lim-tarbiyaga mutasaddi ijtimoiy institutlar faoliyatlarini integratsiyalashtirishning: texnik-texnologik, tashkiliy-huquqiy asoslarini, intellektual salohiyat potensialini yaratish; ikkinchisi – insonning tabiatni o‘zgartirish va o‘zlashtirishdan iborat amaliy faoliyatini – moddiy ishlab chiqarishning texnik-texnologik

asoslarini fundamental ekologik nazariy bilimlarga, ilg'or tajribalarga ko'ra oqilona tashkil qilish madaniyatini tarbiyalashdan iborat.

Bulardan tashqari, dunyo demografik vaziyati o'zgarishlari, urbanizatsiya, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish tendensiyasi, ularni ekologik talablarga ko'ra joylashtirish siyosatidagi xalqaro ziddiyatlar kuchayishi, global miqyosda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish madaniyati bilan bog'liq masalalarga munosabatni o'zgartirishni kun tartibiga qo'ymoqda. Chunki bular insoniyat sivilizatsiyasi kelajagini belgilaydigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-mafkuraviy, ma'naviy-madaniy ahamiyatga molik vazifalar bo'lib, odamlarining ham jismoni, ham ruhiy sihat-salomatliliklari, avlodlari taqdiri shu masalalarni ijobji hal qilishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shuning uchun hozirgi davrda ekologiyani estetikalashtirish va estetikani ekologiyalashtirishning kundalik amaliy vazifasi kompleks xarakterga ega bo'lib, jamiyat moddiy ehtiyojlarining uzluksiz o'sib borishini tashkillashtirish va boshqarish (oqilona iste'mol madaniyatini shakllantirish); tabiiy resurslar chegaralanganligini kompensatsiya qilish (yangi, noan'anaviy ekologik toza energoresurslar manbasini yaratish); organizmlarning o'zgarayotgan tabiiy muhitga moslanuvchanligini oshirish (xususan, insonning jismoni va ruhiy adaptatsion potensialini kuchaytirish); biosferaning barqaror va optimal ekologik muvozanatini saqlash ("tabiat-jamiyat-inson" munosabatlari tizimi koevolyutsiyasini ta'minlash)dan iborat. Aynan shu vazifalar, uning umuminsoniylik mohiyati va istiqbolini namoyon qiladi.

Ma'lumki, jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida ekologik faoliyatni madaniy tashkil qilish va oqilona boshqarish tamoyillari, uning ma'naviy-axloqiy meyorlarini, badiiy-estetik ifodalash usullarini, vositalarini takomillashtirib, tabiiy atrof-muhit muhofazasining samaradorligini ta'minlagan. Zero, ijtimoiy ong shakllari, muqobil dunyoqarashlarning ekologiyalashuvi, avvalo, insonlar yashayotgan ijtimoiy-ekologik makonning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jarayonlari ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyat sivilizasiyasining hozirgi globallashuv bosqichiga xos ekologik optimal ijtimoiy-tabiiy tizim va biosfera ekologik muvozanati uchun bir tomonidan, «tabiat-jamiyat-inson» munosabatlari tizimida inson tabiatining badiiy-estetik xususiyatiga mos tub o'zgarishlar talab qilinadi. Ikkinci tomonidan, biosfera evolyutsiyasi jarayonida ekologik muvozanatdagi antropotexnogen o'zgarishlar, ularni badiiy-estetik ideal obrazlarda ifodalashni, jamiyat ekologik borlig'inining asosiy shartlari deb tushunish kerak. Lekin bu ideal badiiy obrazlarning muayyan ekologik borliqqa (mahalliy, milliy, hududiy xususiyatlariga) adekvatligi, ijodkor intellektual salohiyati va ijtimoiy tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Ekologik borliqning mavjudlik holatini realistik aks ettirgan badiiy obrazlar, o'z mohiyati va funksiyasiga ko'ra, bir tomonidan, ijtimoiy ong va dunyoqarash shakllarining ekologiyalashuvi uchun subyektiv omil rolini bajaradi. Ikkinci tomonidan, turli ijtimoiy ong shakllari va dunyoqarash yo'nalishlarining ekologiyalashish jarayonidagi nisbiy mustaqilligi, ekologik borliqni badiiy obrazlarda aks ettirish janr individualligi natijasi bo'lib, ifodalash sohasi va yo'nalishlari xususiyatlarini aniqlashtiradi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, ekologiyani estetikalashtirish va estetikani ekologiyalashtirish jarayoni insonning tabiiy yashash sharoitini yaxshilash ehtiyojlaridan, subyektiv intilishlaridan kelib chiqadi. Ularning ijodiyligi va faolligi – ekologik vaziyatdan nisbatan mustaqil shakllanishi hamda rivojlanishida namoyon bo'ladi. Buni ijtimoiy ongning ijtimoiy borliqdan nisbatan mustaqilligi qonuni tarzida qarash kerak. Lekin bu qonuniyat: 1) "tabiat-jamiyat-inson" tizimi elementlari o'rtasidagi ekologik ma'naviy-madaniy munosabatlar badiiy-estetik obrazlarda aks etadi; 2) bu munosabatlar inson va jamiyat mavjudligining zaruriy sharti va namoyon bo'lish shakli hisoblanadi; 3) insoniyatning global muammolari vujudga kelishi, uning dunyoqarashi, ma'naviy-madaniyati qashshoqligi natijasidir; 4) bu qonuniyatning milliyligi, hududiyligi va umuminsoniyligi nisbiy hamda shartlidir; 5) hozirgi davrda insonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy qarashlarini ham, amaliyotini ham, estetikalashtirish va ekologiyalashtirish jamiyat moddiy va ma'naviy borlig'i asososlarini insonparvarlashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan hamda manfaatlariga mosdir.

Jamiyat rivojlanish darajasini belgilovchi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy munosabatlarning ekologiyalashgan yo'nalishlari, insonning umuman tabiatni muhofaza qilish madaniyatiga, xususan, tabiatni badiiy-estetik idrok qilish san'atiga asos hisoblanadi. Shu bilan birga, ekologik borliqni ham, unga munosabat shakllarini ham, badiiy-estetik obrazlarda aks ettirish san'atining nisbatan mustaqilligi, madaniyat taraqqiyotiga xos sof xususiy hodisasi emas, balki, umumiylikning xususiy holda namoyon bo'lish shaklidir. Chunki, "tabiat-jamiyat-inson" majmuasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimini badiiy-estetik obrazlarda aks ettirish, ularni tashkillashtirish va boshqarish imkoniyati sifatida qaralishi kerak.

Boshqacha qilib aytganda, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy va boshqa munosabatlarni, umuman, ekologik madaniyatdan, xususan, uni badiiy-estetik o'zgartirish va o'zlashtirishdan ajralgan holda tasavvur qilish mumkin emas. Chunki tabiatni

muhofaza qilish ehtiyojlarini anglash ham, badiiy obrazlar yordamida ifodalash ham, mohiyatan, ijtimoiy-ongli faoliyatdir. Ya'ni, aniqroq qilib aytganda, ekoestetik faoliyat – insonning tabiatni muhofaza qilish zaruriyatini anglash, ehtiyojlarini qondirish imkoniyati va vositasi bo'lib hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, insonning ekoestetik faoliyati, uning tor doiradagi utilitar-merkantil manfaatlarini himoya qilishdan iborat vazifa bo'lmasdan, balki umuminsoniyat sivilizatsiyasi kelajagini saqlab qolishga yo'naltirilgan ongli harakatidir. Lekin jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlari muayyan shaxs ekologik faoliyatini estetikalashtirish va estetik dunyoqarashini ekologiyalashtirish bilan uzviy bog'lanib ketgan taqdirdagina, «tabiat-jamiyat-inson» majmuasi munosabatini oqilona tashkillashtirish va boshqarishda muhim subyektiv omil sifatida xizmat qiladi.

Adabiyyotlar

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т: Ўзбекистон, 1997. 114-бет.
2. Фалсафа. Қомусий луғат. –Т.: Шарқ, 2004. 466-бет.
3. Мамашокиров С. Экологик таълим-тарбиянинг методологик масалалари. –Т.: Нур, 1993. 34-бет.
4. Туленова Г. Создать экологически чистую среду. // Экономика и статистика. 1998. № 5. с.68.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: Ўзбекистон, 1998, 503-бет.

A.K.Aymatov

ПРОБЛЕМЫ ЭСТЕТИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИИ И ЭКОЛИРИЗОВАНИЕ ЭСТЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ОТНОШЕНИЯ К ПРИРОДЕ

В статье рассмотрены экологические аспекты эстетического отношения человека к природе как объекта философского исследования. В эстетировании экологии и эколиривации эстетики изучаются научно-теоретические виды. В этом процессе исследуется отражения человеком реальности художественно эстетические, экоэстетические этапы, функции и закономерности, национальные и культурные аспекты.

Ключевые слова: природа, общество, художественный образ, экологическая культура, эстетическая деятельность, эстетика, индивид, бытие, историческое наследие, экономика, национальность, интернациональность, духовность, политика.

A.Q.Aymatov

THE PROBLEMS ESTHETISE OF ECOLOGY AND ECOLOGIES OF AESTHETIC IN FORMING AESTHETIC RELATIONS TO NATURE

In the article are given approaches of ecological aspects aesthetic relations of person to nature as an object of philosophical approach. It studies aesthetic of ecology and ecologies of aesthetic scientifically, and theoretically typically. Inthis process are observed reflection of article aesthetic, ecoaesthetic stages, functions and regularities, national and cultural aspects.

Keywords: nature, society, aesthetic images, ecological culture, aesthetic practice, aesthetic person, being, historical heritages, economy, nationality, internationality, policy.

UDK 1.311.34

TEXNOGEN SIVILIZATSIYA TRANSFORMATSIYASI VA GLOBALLASHUVI

J.A.Ochilov

Samarqand davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

E-mail: samdumofak@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada texnogen sivilizatsiya transformatsiyasi natijasida, universalumuminsoniy qadriyatlarning rivojlanish qonuniyatları, ijobiy va salbiy oqibatlari global ma'naviyatni shakllantirish "mental ehtiyojlar" kontekstida tahlil qilinib, obyektiv shart-sharoitlarini, subyektiv omillarini rivojlantirishning nazariy-metodologik ahamiyati, amaliy yo'nalishlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: texnogen sivilizatsiya, texnogen sivilizatsiya globallashuvi, insonparvarlashtirish, yangi gumanizm, texnogen sivilizatsiya paradigmasi, gumanistik qadriyatlar, texnologik determinizm, determinlashtiruvchi omillar, sivilizatsiyalar globallashuvi, effektiv globallashuv, anomal globallashuv.

Hozirgi davrda dunyoda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarda kechayotgan globallashuv jarayonlari, aytish mumkinki, butun insoniyat qadriyat mo'ljallarini, sivilizatsiya taqdirini u yoki bu tomonga o'zgartirish uchun zarur shart-sharoit yaratmoqda. Shuning uchun globallashuv jarayonining ijobiy natijalarini - ommalashtirish, salbiy oqibatlarini - bartaraf qilish muammolari yechimini topish, jahon hamjamiyati diqqat-e'tibori markaziga qo'yilmoqda. Xususan, texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasi dunyodagi barcha xalqlar va millatlar uchun, bir tomondan, progressiv fan, intellektual

salohiyat, texnika, texnologiya yutuqlaridan, zamonaviy axborot vositalardan foydalanish – umuminsoniy, integrativ-global qadriyatlar shakllanishini, ikkinchi tomondan, aynan shu vositalardan muayyan siyosiy-mafkuraviy utilitar-merkantil manfaatlarga mos foydalanish - antigumanistik, g'ayriaxloqiy "ommaviy madaniyat" tahdidi eskalatsiyasini kuchaytirib yubormoqda. Bunday sharoitda, uning transformatsiyasi umuminsoniyat ma`naviyatiga, sivilizatsiyasi istiqbollariga ijobiy va salbiy ta`sir imkoniyatlarini, usullarini, rivojlanish tendensiyalarini: "ehtiyoj - maqsad - manfaat - vosita - natija" tizimi elementlari munosabatni: mahalliy, milliy, hududiy va global darajalar konteksda o`rganish muhim nazariy, metodologik va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasi va globallashuvi jarayonida bu tizim elementlarining har birini yuksak ma`naviy-axloqiy normalar, demokratik va gumanistik tamoyillar asosida tashkillashtirish, umumlashtirib aytganda - insonparvarlashtirish masalasi, jahon ilmiy hamjamiyati oldida turgan dolzarb muammodir. Zero, nazariy jihatdan olganda, uning ratsional hal etilishi, har qanday global muammo yechimiga universal asos bo`ladi. Hozir gap shu turli muqobil nazariyalarning o`zaro konsensus nuqtasini topib, amaliyotda qo`llash imkoniyatlarini, vositalarini topishda qoldi, xolos.

Texnogen sivilizatsiya globallashuvi maqsadida ham, vositalarda ham, natijalarida ham, bir-biriga tubdan qarama-qarshi ijobiy va salbiy jihatlari asosida – jamiyatni tashkil qilgan ijtimoiy birliklar manfaatlari muqobilligi yotadi. Shu nuqtayi nazardan, texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasi va globallashuvining ijobiy yoki salbiy oqibatlarini, jamiyatga ta`sir yo`nalishlarini, funksional ahamiyatiga ko`ra etikaning – ezzulik va yovuzlik, xarizmatizm va egoizm; estetikaning – go`zallik va xunuklik, iqtisodiyotning – foyda va zarar, siyosatshunoslikning – progress va regress, agressiya va kompromiss, ideologiyaning – bunyodkorlik va vayronkorlik kabi kategoriyalari kontekstida o`rganish, uning mazmuni, mohiyati haqida nisbatan to`liq tasavvurlarni shakllantiradi.

Umuman, falsafiy adabiyotlarda texnogen sivilizatsiya globallashuvi ijtimoiy fenomeniga munosabatda muqobil: radikalizm va liberalizm yondashuvlari kuzatilmoqda. Ya`ni, birinchi yo`nalishga - radikalizm oqimiga mansub olimlar globallashuvni yangi tipdag'i jahon urushi yoki uning avj olishi "ommaviy madanyat"ni shakllantirishi, millatlarni ma`naviy qashshoqlashuvga, inqirozga olib kelib, ularni o`zligini anglamaydigan manqurtlarga - marginallarga aylantirish imkoniyati, degan pessimistik xulosalar ustuvorlik qilsa, ikkinchi - liberalizm ta`limotlarida texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasi va globallashuv jarayoni - insoniyatning umumiyy rivojlanish qonuniyati, uning kelajak istiqbolini ta`minlash imkoniyati tarzida izohlanadi.

Bundan tashqari, hozirgi davrda texnogen sivilizatsiya globallashuv jarayoniga nisbatan shakllangan jahon ilmiy jamoatchilik fikrini, tubdan qarama-qarshi bo`lgan: globalistlar va antiglobalistlarga ajratishni ham, uning natijalariga muayyan manfaatlar asosida yondashuvning namoyon bo`lishi tarzida qaralishi kerak. Lekin texnogen sivilizatsiya trasformatsiyasi va uning globallashuvi natijalariga muayyan manfaatlarga ko`ra yondashishlar, ularga nisbatan muqobil munosabatlarga asosiy sabab bo`lsa ham, baholashning umuminsoniy mezonlari (xalqaro huquq normalari, ma`naviy-axloqiy tamoyillari) shakllangan va har qanday tarixiy davrda o`ziga xos tarzda namoyon bo`lgan. Bu mezonlarni konkret tarixiy zamon va ijtimoiy makonning: iqtisodiy rivojlanish darajasi, siyosiy tizimi xarakteri, ma`naviy-madaniy taraqqiyoti xususiyatlari kontekstida (umuminsoniy gumanistik va demokratik tamoyillarga mos kelishi yoki zidligi nuqtayi nazaridan) baholash kerak.

Umuman globallashuv jarayoni, xususan texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasini retrorspektiv asoslari, tarixiy genezisi tadqiqotiga oid adabiyotlarda, uni qadimiy antik dunyo tarixiy voqeligini belgilovchi muayyan determinlashtiruvchi, harakatlantiruvchi omillar bilan bog`lab izohlash, nisbatan keng tarqagan. Ya`ni, dastlab bu jarayon harbiy-bosqinchilik harakatlarida namoyon bo`lib, keyinchalik: iqtisodiy, geosiyosiy, axloqiy, ma`naviy, madaniy, ekologik, lingvinistik, kommunikatsiyaviy globallashuv shakllari paydo bo`lishi bilan bog`liq, degan umumiyy xulosa chiqarilgan. Darhaqiqat, insoniyatning doimiy o`sib boradigan iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga, siyosiy mavqeini mustahkamlashga, hayot tarzini o`zgartirishga intilishlari ijtimoiy faoliyat ko`lamini, makonini kengaytirishiga olib kelgan. Bunda harbiy kuch ishlatish natijasidagi "zo`raki-majburiy globallashuv" muayyan siyosiy manfaatlarga mos bo`lsa, uning aksi "ixtiyoriy-erkin globallashuv" umuminsoniyatning obyektiv ehtiyojlaridan kelib chiqib, manfaatlari umumiyligiga, demokratik va gumanistik tamoyillarga asoslanishi - oqibatlar xarakterini belgilab bergen. Boshqacha qilib aytganda, harbiy agressiyalar, ekspansiyalar natijasida shakllangan "sivilizatsiyalar" globallashuvi jarayonining ham, oqibatlarining ham, bu tamoyillarga hech qanday aloqasi yo`q, aksincha ular ixtiyoriy-erkin globallashuvning mazmun-mohiyatiga putur yetkazadi.

Zamonaviy sivilizatsiyalar globallashuv jarayoni, insoniyat tarixiy taraqqiyoti istiqbolini belgilaydigan ijtimoiy fenomen sifatida, faqat XX asrning 90-yillardan boshlab ilmiy tadqiqot obyektiga

aylandi va maxsus o`rganuvchi "Globalistika" fani vujudga keldi. Hozir uning nazariy-metodologik asoslari, kategoriyalari tizimi, tushunchalari apparati shakllanib, tarixiy bosqichlarini, yo`nalishlarini, oqibatlarini baholash mezonlarini belgilashga doir muqobil ilmiy ta`limotlar tizimi "konturlari" aniqlanmoqda.

Bu ta`limotlarga ko`ra, "globallashuv" fenomeni, bir tomondan, insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining obyektiv qonuniyati bo`lib, unga real imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, sivilizatsiyalarning (qanday sohalardaligi va ko`lamidan qat`iy nazar) globallashuv tendensiyalari, xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa munosabatlari: integratsiyalashuvini, universallashuvini, internatsionallashuvini determinlashtiruvchi sabab hisoblanadi. Ikkinci tomondan esa uning salbiy natijalari transformatsiyasi va globallashuvi qator yangi ijtimoiy muammolar kompleksini vujudga keltirib, mavjudlarini kuchaytirmoqda. Xususan, texnogen sivilizatsiya salbiy oqibatlari transformatsiyasi: shaxs marginallashuvini, tarixiy qadriyatlar merosidan begonalashib, ularga nigilik munosabatni, "ommaviy madaniyat" eskalatsiyasini, egoizmni, kosmopolitizmni, individualizmni, etnoegotsentrizm, ksenofobiya hodisalari ko`lamini kengaytirib yubormoqda.

Ammo sivilizatsiyalar tarixi globallashuv jarayonining bir-biriga zid bu yo`nalishlarda (ayrim xususiy hollarni e'tiborga olmaganda), ijobiy oqibatlari ustuvorligini ko`rsatmoqda. Zero, jamiyat taraqqiyotida hamma vaqt: ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik, yaxshilik va yomonlik, progress va regress va boshqa antipodlarda ijobiy hodisalar ustuvorligi hal qiluvchi rol o`ynagan, ya`ni aql - hissiyotlardan, umuminsoniy manfaatlar - individual-shaxsiy (ayniqsa, utilitar-merkantil) manfaatlardan yuqori qo`ylgan. Bulardan tashqari, hozirgi zamonda dunyo global sivilizatsiyasini geografik jihatdan, shartli ravishda, "G'arb" va "Sharq"ga ajratish asosida ham, ularning texnogen rivojlanish darajasi asosiy mezon hisoblanadi.

Umuman globallashuv jarayonining ijobiy natijalari, nisbatan universal umuminsoniy normalar shakllanishiga asos bo`layotgan hozirgi sharoitda, "sivilizatsiyalashgan dunyolar" o`rtasidagi ziddiyatlar keskinlashuvini, ularning ma`naviy-madaniy "qashshoqligi", noqisligi, nomukammalligi tarzida baholash kerak. Ya`ni qarama-qarshi ehtiyojlar, manfaatlar va tendensiyalar "sivilizatsiyalar to`qnashuv"ga, qadriyatlar konfliktlariga sabab bo`lmoqda. Agar bu ziddiyatlar dunyodagi turli etnik va konfessional birlıklarning tarixiy shakllangan: siyosiy mavqeい, iqtisodiy ahvoli, ma`naviy-madaniy qadriyat mo`ljallari kontekstida tahlil qilinsa, umuman sivilizatsiya yo`nalishlari, (ayniqsa, texnogen sivilizatsiya) rivojlanish bosqichlari va oqibatlari haqidagi qarashlarni konkretlashtiradi va ularning transformatsiyasi mazmunini, mohiyatini, funktsional ahamiyatini to`g`ri anglashga yordam beradi.

Texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasi va globallashuvi (yuqorida ko`rsatilgan ziddiyatlaridan qat`iy nazar), milliy qadriyatlarning umuminsoniyat ehtiyojlari va manfaatlar asosida integratsiyalashuvini, sintezlashuvini ko`ramiz. Ya`ni sivilizatsiyalar globallashuvida milliy ma`naviy-madaniy qadriyatlar transformatsiyasi obyekt-subyekt munosabatlarini dialektik sintezlashtiruvchi omil hisoblanadi. Shunga ko`ra, texnogen sivilizatsiya globallashuvi, bir tomondan, muayyan (mahalliy, lokal yoki hududiy) ijtimoiy makonda, milliy qadriyatlar transformatsiyasining texnologik integratsiyalashuvchi potentsialini namoyon qiladi. Ikkinci tomondan esa, insoniyatning ijtimoiy munosabatlari globallashuvi darajasini, jahon hamjamiyati ma`naviy integratsiyasi bosqichini belgilaydigan asosiy mezon funksiyasini bajaradi. Bunda texnogen sivilizatsiya natijalarining transformatsiyasini ularga ham asos, ham natija sifatida qarash kerak.

Texnogen sivilizatsiya globallashuvi turli xalqlar, millatlar ma`naviy-madaniy qadriyatları (xususan, transformatsiya usul-vositalari) integratsiyasi natijasida sodir bo`ladi. Shu bilan birga, global texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasi: mahalliy, milliy, hududiy madaniyatlar integratsiyalashuvini namoyon qiladi. Mazkur jarayonlarning asosida umuminsoniy universal-integrativ ma`naviy qadriyatlarga ehtiyoj va uni qondirishga yo`naltirilgan ijtimoiy harakatlar tizimi yotadi. Shu nuqtayi nazardan, ma`naviy-madaniy integratsiyaning hosilasi bo`lgan texnogen sivilizatsiya transformatsiyasi va globallashuvi, insoniyat kelajagini saqlab qolishini determinlashtiruvchi omillaridan biridir.

Lekin mavjud olamshumul muammolarni (xususan, texnogen sivilizatsiya salbiy oqibatlarini bartaraf etish), faqat xalqaro jamjamiyatning hamkorlikda hal qilinishi, muqibili bo`lмаган aksiomatik haqiqat va turg'un postulat maqomiga egadir. Zero, global muammolar yechimi - dunyodagi barcha davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hamda xalqlarning o`zaro kelishilgan yakdil amaliy harakatlarini taqozo qiladi. Prezident Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senating qo`shma majlisidagi ma`ruzasiда: "Bugungi kunda dunyoda sodir bo`layotgan voqealarni xolisona baholar ekanmiz, keskinlik va xavf-xatarlarning tobora o`sib, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, o`z ta`sir doirasini kengaytirishga qaratilgan kurashning, radikalizm, terrorizm va

ekstremizm kabi tahididlarning kuchayib borayotgani barchamizni tashvish va xavotirga solmasdan qo'yaydi", degan xulosasi bu sohada ham xalqaro hamkorlikni taqozo qiladi.

Ammo, obyektiv va subyektiv sabablarga (asosan, turli bahonalarga) ko'ra, bunga hozircha erishishning imkoniyati bo`lmayapti. Chunki, yuqorida aytganimizdek, har bir millat, davlat, mintaqaning o`ziga xos "mental ehtiyojlari", ularni qondirishning potentsial imkoniyatlari, global muammolar yechimidan individual manfaatdorligi mavjud. Shuning uchun hozirgi davr global muammolar tizimini turkumlashtirish, ularni hal qilish tamoyillari va tartibini: mahalliy, milliy va hududiy ehtiyojlarni, individual manfaatlarni e'tiborga olib aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bunda olamshumul muammolar yechimiga muqobil yondashuvlarni umuminsoniy gumanizm va demokratiya tamoyillarga ko'ra tashkil qilishda texnogen sivilizatsiya transformatsiyasining potentsial imkoniyatlaridan foydalanish masalasi, hozircha ochiq qolmoqda.

Xalqaro ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy-mafkuraviy munosabatlar keskinlashayotgan va global-lashayotgah sharoitda: "sivilizatsiyalar dialogi va xalqaro madaniy aloqalarning yangi darajasi" yoki "iqtisodiyot va siyosat rivojlanishining oliy bosqichi, madaniyat rivojlanishining esa, boshlang'ich holati", degan ta`riflarni sivilizatsiyalar salbiy oqibatlari kontekstida qaraydigan bo`lsak, ularni bartaraf qilishning nazariy-metodologik asoslari voqelikdan ajralgan, deklarativ xarakterga egaligini ko`ramiz. Chunki hap qanday sivilizatsiya transformatsiyasi va globallashuvini universal ratsional maqsadiga muvofiqlik tamoyiliga ko`ra baholashda (hozircha, aniq mezonga yoki uning tizimiga ega bo`lmasa ham) umuminsoniy gumanistik mazmuni va demokratik xarakterining ustuvorligi, dominant determinlashtiruvchi omilligi asosiy ko`rsatkich sifatida e'tiborga olinishi kerak.

Shu nuqtayi nazaridan ayrim olimlar tomonidan, sivilizatsiyalar transformatsiyasi, xususan texnogen sivilizatsiya globallashuvining ijobiy va salbiy oqibatlarini insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hayot normalarini, an`analarini hamda kishilarning, xalqlarning an`anaviy hayoti va tafakkur tarzini buzuvchi - anomal globallashuv va ularning hayoti asoslarini ta`minlash sistemasini yaratuvchi - effektiv-ratsional globallashuv jarayonlarini farqlash haqidagi fikrari muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega. Lekin, anomal globallashuvning tom ma`nodagi tsivilizatsiya bilan hech qanday umumiyligi yo`q, balki insoniyat tarixida ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa hayot sohalarining sivilizatsiyalashmaganligi belgisi, ko`rsatkichi sifatida e`tirof etilishi kerak. Shuningdek, texnogeh sivilizatsiyani effektiv-ratsional globallashuv nuqtayi nazaridan baholash ham nisbiy va shartlidir. Shunga ko`ra, sivilizatsiyalarning "effektivlik", "ratsionallik" mezonlari, miqdoriy indekslari dinamik o`zgaruvchanligini, ijtimoiy makon va tarixiy zamon xususiyatlarini e'tiborga olib, konkret differentsiallashgan-individual yondashuvni taqozo qiladi.

O`zbekiston Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch", degan kitobida globallashuv fenomenininining ijobiy va salbiy jihatlarini har tomonlama chuqur yoritib bergan. Xususan, ijobiy tomonlari haqidagi fikri bevosita texnogen sivilizatsiya globallashuviga bevosita taallu?lidir, ya`ni: "Hozirgi paytda uning g`oyat o`tkir va keng qamrovli ta`sirini deyarli barcha sohalarda ko`rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o`rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko`plab yangi ish o`rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda umumlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o`zar yordam ko`rsatish imkoniyatlarining ortishi - tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda" , deb ta`kidlaydi.

Darhaqiqat, bu xulosani mazkur maqola mavzusi doirasida ko`rib chiqsak, texnogen tsivilizatsiya globallashuvi: birinchidan, umuminsoniyatning turmushi va tafakkur tarzini, umuman madaniyat, xususan texnologik madaniyat asosida tashkil etish usuli, vositasi hisoblanadi; ikkinchidan, milliy texnogen sivilizatsiyalarning global jarayonga integratsiyalashuvi tarixiy shakllangan ob`ektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar birligini taqozo qiladi; uchinchidan, jamiyatda texnogen sivilizatsiya globallashuvi jarayoniga adekvat bo`lgan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimi shakllanishi, uninr asosiy sharti va determinlashtiruvchi omildir; to`rtinchidan, texnogen sivilizatsiyaning inson ijtimoiy faoliyati sohalariga ijobiy ta`sirini baholashda, uning universal regulyativ funktsiyasi va real imkoniyati nuqtayi nazaridan qarash kerak; beshinchidan, insoniyat tarixining hozirgi bosqichida vujudga kelgan global muammolar tizimini texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasini oqilona tashkillashtirish, boshqarish orqali, ularning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish va oldini olish mumkin.

Globallashuv jarayonining ijobiy va salbiy oqibatlari haqidagi muqobil falsafiy ta`limotlar, insoniyat sivilizatsiyasi kelajagini saklab qolishdan iborat umuminsoniy muammolar yechimida: mavsumiy deklarativ chaqiriqlardan, mavjud etnoegoistik, etnoegotsentristik stereotiplardan voz kechib, xalqaro

hamjamiyatning amaliy faoliyatga o`tish zaruriyatini e`tirof qilish masalasida umumiy konsensusuga - yakdil xulosaga kelmoqdalar. Biroq, sivilizatsiyalar ma`naviy paradigmalari, mafkuraviy postulatlari dinamik o`zgarishlari bilan insonning globallashayotgan jarayonlarga adaptatsiya imkoniyatlari o`rtasida uzilishlar aniq ko`zga tashlanmoqda.

Shunga ko`ra hozirgi davrning asosiy talabi texnogen sivilizatsiya globallashuvi kommunikativ-integrativ funksiyasini millatlararo ma`naviy-madaniy munosabatlar integratsiyasini konstruktiv-ratsional tashkillashtirishdan, tarixiy meroslarini saqlab qolish hamda ijodiy rivojlantirishdan tashqarida tasavvur qilib bo`lmaydi. Chunki har qanday sivilizatsiyaning atributiv o`zagi bo`lgan "ma`naviyat har doim to`ldirilib turiladigan uzlusiz jarayondir. U o`zgarib boruvchi zamon bilan, uning zaruriy talab va ehtiyojlari bilan uzviy dialektik bog`liqlikda o`zgarib takomillashib boraveradi. Ma`naviyat uzlusiz harakatdagi jarayondir. Fikr, tafakkur, his-tuyg`u tinim bilmaganidek, ularning mahsuli o`laroq ma`naviyat ham doim o`zgarish va yangilanishda bo`ladi".

Dunyo xalqlarining har qanday tarixiy davrda, ma`naviy-madaniy munosabatlari integratsiyasi jarayonida: qadriyatlar merosini, progressiv an`analarini ijodiy rivojlantirish va o`zlashtirish, umuman sivilizatsiyalar, xususan texnogen sivilizatsiya globallashuvining asosiy tamoyili, qonuniyati sifatida namoyon bo`lgan. Zero, sivilizatsiyalar globallashuvining oqibatlari haqida gapirganda, ma`naviy munosabatlari integratsiyasi - umuminsoniy madaniyat universalligi shunday asos yaratadiki, uning atrofida har qanday ijtimoiy faoliyat yo`nalishlari kristallahadi .

Bu hodisa, o`z navbatida, texnogen sivilizatsiya globallashuvi jarayonini ham, milliy va umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasi yo`nalishlarini ham, oqibatlarining ijobiy yoki salbiy xarakterini ham belgilab beradi. Shuningdek, texnogen sivilizatsiya globallashuviga va xalqaro ma`naviy-madaniy munosabatlari integratsiyasiga ehtiyoj - umuminsoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalardagi strategik hamkorlik yo`nalishlarini ham, taktik vazifalarini ham konkretlashtiradi. Lekin dunyodagi barcha davlatlarning texnogen sivilizatsiya globallashuvi umumiyl tamoyillariga birdek amal qilmasliklari, yuqorida aytgpnimizdek, ularning utilitar-merkantil etnoegoistik va egotsentristik manfaatlarini mutlaqlashtirishi oqibatidir. Boshqacha qilib aytganda, texnogen sivilizatsiya o?ibatlari globallashuvidan manfaatdorlikning differensiallashuvini ham, ularning natijasi, deb baholanishi kerak.

Umuman, dunyo miyosida globallashuv jarayonining salbiy oqibatlari keskinlashayotgan sharoitda umuminsoniy va milliy manfaatlarni uyg`unlashtirish asosida global barqaror rivojlanishini ta`minlash - xalqaro munosabatlarning bosh strategik maqsadini tashkil qiladi. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning milliy modellari texnogen sivilizatsiya globallashuvi va ma`naviy-madaniy integratsiya jarayonlaridan mustaqil amalga oshmaydi. Aksincha, global barqaror taraqqiyotning muqobil milliy modellari davlatlar o`rtasidagi: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarni kuchaytirish va kengaytirish zaruriyatini e`tirof qilish nuqtasida umumiyl xulosaga kelmoqdalar.

Bu metodologik tamoyilga asoslanib aytganda, biz tadqiq qilayotgan mavzu doirasida, texnogen sivilizatsiya globallashuvi xalqaro munosabatlari integratsiyasining (sohalaridan qat`iy nazar) asosiy rivojlanish tendensiyalarini, ularning ijobiy natijalarini belgilab bermoqda, ya`ni: birinchisi - dunyodagi turli davlatlar va millatlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabat paradigmalarining: umuminsoniy universal tamoyillarini, xalqaro huquqiy asoslarini, ma`naviy-axloqiy normalarini, siyosiy mexanizmlarini shakllantirmoqda; ikkinchisi - xalqaro munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishning global institutsional tizimi strukturasidagi funksional aloqadorlik ko`lami kengaymoqda; uchinchisi - millatlarning texnogen sivilizatsiyalar globallashuviga mos: fan, texnika, texnologiya, intellektual salohiyat rivojlanishida umuminsoniy-gumanistik va demokratik qadriyatlar ustuvorligini anglash va ularga intilish jarayoni kuchaymoqda. Bu tendentsiyalarning umumiyl maqsadi - har bir millatning o`z tarixiy mental xususiyatlaridan kelib chiqadigan (har qanday tashqi ta`sirlarga qaramasdan) demokratik-huquqiy davlatini va fuqarolik jamiyatini qurishdan iborat. Zero, hozirgi davrda texnogen sivilizatsiyani globallashtiruvchi xalqaro institutsional tizimni, qonuniy-huquqiy asoslarni, ma`naviy-axloqiy normalarni, siyosiy mexanizmlarni, umuman barqarorligini determinlashtiruvchi obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar uyg`unligini ta`minlash, uning salbiy oqibatlarini bartaraf qilishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Umumlashtirib aytganda, global texnogen sivilizatsiya natijalari transformatsiyasining jamiyatga ta`sir yo`nalishlari va imkoniyatlari birinchidan, texnogen sivilizatsiya transformatsiyasi va globallashuvida har qanday milliy davlatning xalqaro mavqeyi va maqomi, uning jahon hamjamiyati bilan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamkorlikdan manfaatdorligiga; ikkinchidan, tarixiy shakllangan milliy texnogen sivilizatsiya an`analarini, merosini saqlashiga, dunyo xalqlari tajribalarini transformatsiyasi va ijodiy rivojlantiruvchi obyektiv shart-sharoitlari subyektiv omillari yetukligiga; uchinchidan, texnogen sivilizatsiya globallashuvining obyektiv karakterini, zaruriyatini, imkoniyatlarini anglash asosida, uning tendentsiyasini, transformatsiyasi yo`nalishlarini prognozlashtirish vazifalarini belgilashga; to`rtinchidan,

umuminsoniy va milliy qadriyatlar integratsiyasini global texnogen sivilizatsiya manfaatlari bilan uyg'unlashtirishning konstruktiv usullarini, ratsional vositalarini yaratishga; beshinchidan, texnogen sivilizatsiya globallashuvining muhim subyekti bo'lgan milliy davlatlar boshqaruv tizimi demokratik xarakteriga bog'liq bo`ladi. Ayniqsa, mafkuraviy qarama-qarshi qutbli dunyoning barham topishi, nazariy jihatdan, umuminsoniy sivilizatsiyani tashkil qilishga, uning salbiy oqibatlarini bartaraf qilishda xalqaro hamkorlikka asos bo`lishi kerak edi. Vaholanki, vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy borliq rivojlanishining tajribalari bevosita va bilvosita sivilizatsiyalar natijasi bo`lgan global muammolar eskalatsiyasini kuchaytirib va keskinlashtirib yubormoqda.

Adabiyotlar

1. Каримов И. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-жилд. Т., 1999. -302-бет.
2. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Тошкент, Ўзбекистон, 2008. - 172 б.
3. Каримов Ислом Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. // Халқ сўзи. 2015 йил, 23 январь.
4. Адилходжаева С.М. Глобализация и вопрос устойчивого развития государства. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 2008 № 3. 55-63 бетлар.
5. Аксюмов Б.В. «Столкновение цивилизаций» как конфликт между традиционностью и современностью. // «Идентичность и диалог культур в эпоху глобализации». Материалы Международной научно-практической конференции. – Бишкек, 2007. С. 9-10 б.
6. Джаббарова Ш. Экономическое сотрудничество стран Центральной Азии – основа культурного сближения народов региона. // «Идентичность и диалог культур в эпоху глобализации». Материалы Международной научно-практической конференции. – Бишкек, 2007. –С. 181-187 б..
7. Кузнецов В. Геокультура. Основы геокультурной динамики безопасности в мире XXI век: культура сеть. М., Книга и Бизнес, 2003. С. 416. (-632 с.).
8. Махкамова Д. Центральная Азия и страны Востока на пути сотрудничества и диалога культур. // Ижтимоий фикр. Инсон хукуклари. 2004. № 2. 17-20 б.
9. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат. Тошкент. “Янги аср авлоди”, 2008. -201 бет
10. Сохранит ли человечество человечность? Доклад Независимой комиссии по международным гуманитарным вопросам. – М., Междунар. отношения, 1989. С. 211 б.
11. Туленова Г. Проблема конфликта в духовной сфере // Ижтимоий фикр. Инсон хукуклари. 2004. №2. -С. 156-160 б.
12. Юлдашева Ф.Методологические проблемы исследования процесса глобализации. // Ижтимоий фикр. Инсон хукуклари. 2008. № 2, 70-75 б.

Дж. А. Очилов
ГЛОБОЛИЗАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ
ТЕХНОГЕННОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

В статье рассматриваются объективные условия и субъективные факторы трансформации результатов глобализации техногенной цивилизации и ее позитивные и негативные последствия в контексте "ментальные потребности" и анализируются теоретико-методологические значения и практические направления и изменения этого процесса.

Ключевые слова: техногенная цивилизация, глобализация техногенной цивилизации, гуманизация, новый гуманизм, парадигмы техногенной цивилизации, гуманистические ценности, технологический детерминизм, детерминирующие факторы, глобализация цивилизаций, эффективная глобализация, аномальная глобализация.

J.A.Ochilov
GLOBOLIZATION AND
TRANSFORMATION OF TECHNOGEN
CIVILIZATION

In the article objective conditions and subjective factors of alienation and marginalization of person in the condition of technogen civilization and the role and matter of the education in the formation of technogen culture are analyzed.

Key words: technogenic civilization, globalization of technogenic civilization, humanization, new humanism, paradigms of technogenic civilization, humanistic values, technological determinism, determining factors, globalization of civilizations, effective civilization, anomalous globalization.

YOSHLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING MA'NAVIY ASOSLARI**A.X.Xolmaxmatov***O'zbekiston Milliy Universiteti, katta ilmiy xodim-izlanuvchi***E-mail:** great-king@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqlolada mamlakatimizda istiqlol davrida shakllangan yoshlarga oid davlat siyosatini samarali amalga oshirishda ma'naviy omillarning o'rni va ahamiyati bilan bog'liq masalalar haqida qisqa fikr yuritilgan. Unda mustaqillik yillarda bu sohada o'zgarishlarning mazmun-mohiyati tizimli ravishda ko'rib chiqilgan hamda ularning natijalari xususida muayyan xulosalar chiqarilgan. Snuningdek, maqlolada yoshlarga oid davlat siyosatining ma'naviy omillari samarasini oshirishga qaratilgan ishlarning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik, demokratik islohotlar, ma'naviyat, jamiyatning ma'naviy qiyofasi, yoshlar, barkamol avlod, yoshlarga oid siyosat, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ma'naviy tarbiya

Mustaqil taraqqiyotining ilk kunlaridanoq qonun ustivor bo'lgan demokratik davlat va rivojlangan fuqarolik jamiyat qurish yo'lidan borayotgan O'zbekiston, hayotning barcha sohalari qatori, yoshlarga oid davlat siyosatida ham o'ziga xos tamoyillarga amal qilmoqda. Bunda avvalo, bu yo'nalishdagi davlat siyosatini tashkil qilishning muayyan tarixiy yo'lini bosib o'tgan mamlakatlar tajribasini o'rganish bilan birga, xalqimizning o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama hisobga olgan milliy strategiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish zarurati chuqur anglab olingani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizning mustaqilligi arafasiga kelib, u mansub bo'lgan sobiq ittifoqdagi yoshlar bilan ish olib boradigan tizim jamiyat rivoji hamda ushbu qatlama taraqqiyotiga to'siq bo'lib qolgan edi. Totalitar mafkura tamoyillariga bo'ysundirilgan bu tizim zamонавиy talablar, o'zgarib borayotgan davr ehtiyojlariga, mamlakatimizning mustaqil taraqqiyoti talablariga javob bera olmasligi yaqqol ko'rinish qolgan edi.

Shuning uchun ham, yurtimizning butun jahonda yoshlar qatlamiga yangicha munosabat shakllanayotgan ayni shu davrda mustaqillikka erishishi, mamlakatimiz hayotining barcha sohalari qatori, bu boradagi islohotlar va yangilanishlarnidavlatimiz siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylantirdi. Mustaqillik davri talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, yurtimizda yoshlar muammosiga alohida ahamiyat qaratildi, ularning manfaat va ehtiyojlarini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratishga kirishildi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq, ya'ni, 1991 yilning 20 noyabrida sobiq ittifoq respublikalari orasida birinchilardan bo'lib, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinganligi buni yaqqol isbotlaydi.

Hozirgi davrga kelib, mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalarini modernizatsiya va isloq qilish, davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish jarayonida yoshlarga oid siyosatni izchil amalga oshirishning samarali yo'llari va usullarini izlab topish va ularni hayotga tatbiq etishga nisbatan talab va ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Prezidentimizning "Bugungi kunda katta umid, orzu-maqsadlar bilan, Vatanim taraqqiyotiga hissa qo'shaman, deb belini mahkam bog'lab maydonga chiqayotgan, azmu shijotli yoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash barchamizning nafaqat vazifamiz, balki burchimizga aylanishi kerak" [1], degan fikri ana shu murakkab va serqirra jarayonning asl mazmun-mohiyatini yaqqol ifodalaydi.

Shu ma'noda, mustaqillikning ilk davridayoq yurtimizning ravnaqi, gullab yashnashi uchun, avvalo, fidoyi, intellektual jihatdan rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab etishtirish, farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamонавиy intellektual bilimlarga ega va XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi dolzarb masalalardan biri sifatida belgilab olingani bejiz emas. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimovning istiqlol davrining o'ziga xos qomusi hisoblanadigan va jumladan, bizning mavzuimiz uchun ham asosiy nazariy-metodologik manba bo'lgan asarlari, ayniqsa "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobining ahamiyatini alohida ta'kidlash joiz. Unda ta'kidlangani kabi, "Istiqlol yillarda mamlakatimizda ma'naviy tarbiyani amalga oshiradigan o'quv muassasalari va umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish eng muhim va jiddiy masalaga aylandi... Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta'limtarbiya sohasida amalga oshirilgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayat barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratdi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi [2].

Yoshlarga oid davlat siyosati qotib qolgan va hech qachon o'zgarmaydigan konstantalarning oddiy yig'indisi emas, balki jamiyat taraqqiyoti va davr talablari ta'sirida muttasil yangilanib, zamonga moslashib boradigan usul va vositalar, amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, turli dasturlar majmuidir. Shu ma'noda, har qanday davrda ham, uning amalga oshirilishi, chuqur dialektik jarayon bo'lib, muttasil o'zgarishlar va yangilanishlarni nazarda tutish zarurligini anglatadi. Yurtboshimizning quyidagi fikri yoshlarga oid davlat siyosatining bugungi kunlardagi eng asosiy maqsad-muddaovalari va ustivor yo'nalishlarini aniqlash va anglashda nihoyatda muhim nazariy dasturulamal bo'lib hisoblanadi: "...yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma'no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o'z atrofida sodir bo'layotgan voqealar haqqoniy ma'lumotlarga, eng muhimi, o'z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lishiga erishish ta'lif-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezoni bo'lishi darkor" [3].

Zamonaviy O'zbekiston tajribasi shundan dalolat beradiki, mustaqillikning o'tgan yillari davomida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohot natijalari, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy, milliy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'analarning asrabavylanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lif ravnaqi yoshlarga oid siyosat samaradorligini oshirish masalalari bilan uzviy bog'liqdir. Bu sohalardagi islohotlar va ularning bugungi kundagi yuksak natijalari ushbu siyosatning samarali amalga oshishini ta'minlashga qaratilgan nafaqat iqtisidiy, siyosiy omillar, balki ma'naviy asoslarining ham nihoyatda mustahkam zaminga tayanishini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Masalaning bu jihatini tadqiq qilgan ba'zi olimlar samarali yoshlar siyosati G'arb civilizatsiyasining bir necha asrlik taraqqiyoti natijasi va bugun uning yutuqlari ushbu sohada aks etmoqda deb hisoblaydilar. Ammo masalani keng tahlil qilish, ayniqsa Sharq qomusiy olimlarining merosini chuqur o'rganish, bu qarashlarning bir tomonlama xususiyatga ega ekanligi, ularda ko'proq evropamarkazchilik tendensiyalari ustivorliginiyaqqol ko'rsatadi. Shu bilan birga, tahlil Sharq xalqlariga xos yoshlar tarbiyasi tamoyillari va bu sohada uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan ma'naviy omillar va urf-odat hamdamilli an'analar zamonaviy O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini tashkil qilish va amalga oshirishning muhim asoslaridan biri bo'layotganidan dalolat beradi.

Ta'kidlash joizki, har qanday mamlakatdagi ilmiy asoslangan va zamonaviy tamoyillarga tayanadigan yoshlarga oid davlat siyosatini samarali shakllantirishjarayoni jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisidiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy, madaniy sohalarda tub o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ushbu yo'nalishdagi xorij tajribasini o'rganish, xususan, G'arbda chop etilayotgan asarlar tahlili mazkur jarayonning iqtisidiy, huquqiy va siyosiy jihatlariga ko'proq e'tibor berilib, ma'naviy-axloqiy asoslariga etarli darajada e'tibor qaritilmayotganini yaqqol ko'rsatmoqda.

Jamiyatning iqtisidiy ta'minlanganligi bilan yoki tegishli qonunlar qabul qilinishining o'ziyoq davlatning samarali yoshlar siyosatini to'la-to'kis shakllantirib qo'ya olmaydi. Bu siyosatningeng muhim vazifalaridan biri yoshlar ongini, ma'naviyatini o'zgartirish va ularning yangi zamonga mos tafakkurini dunyoga keltirishdan iboratdir. Bunday nihoyatda murakkab va serqirra vazifani amalga oshirishda aynan ma'naviy omillarning o'rni va ahamiyati beqiyos. Sobiq ittifoq o'rnida shakllangan ba'zi yaqin va uzoqdagi davlatlarning ayrim mutaxassis olimlari o'z istiqollarining dastlabki yillardanoq ushbu yo'nalishda ham G'arb tajribasini ko'klarga ko'tarib maqtab va uni o'z mamlakatiga ko'chirib o'rnatishga intilayotganlarida G'arb jamiyatida namoyon bo'layotgan ma'naviy tanazzulning ildizlari va negizlari nimalarga kuch berayotgani va qanday natijalarga olib kelayotganini unutib qo'ygan edilar. Bu esa qanday ayanchli oqibatlarga sabab bo'lganini ana shu mamlakatlarning yaqin tarixi yaqqol ko'rsatib turibdi.

Shu bois, ota-bobolarimiz qadimdan bebahbo boylik bo'lmish ma'naviyat va ma'rifikatning yoshlar tarbiyasi, inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy shartlaridan biri deb, bilganlari beziz bo'lmagan. Ma'naviy tarbiya — taraqqiyot taqozosi, jamiyat rivojining o'ziga xos omili ekani shubhasiz. Ammo ayni vaqtida u yoshlarning axloqiy qiyofasi, qalbi va ongini egallayotgan tamoyillar mazmun-mohiyatini belgilaydigan, ya'ni shakllanib kelayotgan avlodning ma'naviyatiga katta ta'sir qiladigan, bu sohadagi ma'naviy mezonlarni shakllantiradigan va mustahkamlaydigan eng muhim omillardan biridir. Prezidentimiz alohida ta'kidlagani kabi ta'lif-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab, ta'lif-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi Asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilli masaladir... Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir» degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifikatparvar bobomizning bu so'zlarini asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa,

hozirgi vaqtida ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi [4].

Ushbu fikrdan ko'rindiki, aynan yoshlari siyosatini amalga oshirishda yuksak ma'naviyatli kishilarni, ya'ni ma'nан barkamol avlodni shakllantirmay turib, bugungi mustaqillik davriga mos yoshlarga xos bo'lgan qadriyatlar, ideallar va tamoyillarni qaror toptirib bo'lmaydi. O'zbekistonning istiqlol yillardagi tajribasini tahlil qilish mamlakatimizda bu masalaga alohida e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatadi. Shu sohada qabul qilingan qonun va qarorlar, farmon va hukumat hujjatlarida yoshlarga oid davlat siyosatini samarali amalga oshirish jarayoni avvalo, butun jamiyat miqyosida ma'naviyatni yuksaltirish uchun eng avvalo, ma'naviy ta'lif-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish, davlat organlari va mansabdar shaxslar, fuqarolarning bu sohadagi tamoyillar va axloqiy talablarga hurmat bilan munosabatda bo'lishlariga erishish, aholining ma'naviy saviyasini yanada oshirish ustuvor vazifa qilib belgilanganligi mamlakatimizda bu jabhaning zarur asoslarining shakllanib borayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu sohada bugungi kunda yana quyidagilarga alohida ahamiyat berish zarurati ortib bormoqda:

- mamlakatimizda mavjud bo'lgan ta'lif tizimining barcha bosqichlarida ta'lif olayotgan va hunar o'rganayotgan yoshlarningyuksak ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik hissi va bu boradagi tamoyillarni amalga oshirishda faollik tuyg'ularini tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish;
- nafaqat talabalar, balki bu vazifani amalga oshirishning eng muhim bo'g'ini bo'lgan barcha ta'lif muassasalaridagi ustoz-murabbiylarning ma'naviyat sohasidagi savodxonligini yanada oshirish, ularning bu sohada butun jahonda ro'y berayotgan voqeа-hodisalar va respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning natijalari bilan tezkor va izchil tanishtirishga mo'ljallangan ommaviy axborot vositalari (jurnal, gazeta, veb sayt va hok.) faoliyatini samarasini oshirishga alohida ahamiyat berish;
- ta'lif tizimi bilan qamrab olinmagan yoshlari qatlamlari orasiga yuksak ma'naviyat tamoyillarini singdirish, targ'ib va tashviq etish samaradorligini muntazam oshirib borish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, bu sohada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish;
- joriy yil uchun mo'ljallangan "Sog'lom ona va bola yili" davlat dasturida nazarda tutilgan vazifalarni bajarish doirasida amalga oshiriladigan faoliyat jarayonida yoshlarga oid davlat siyosatining ma'naviy omillari ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladigan chora va tadbirlarga alohida e'tibor qaratish.

Bularning barchasi, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini samarali amalga oshirishda avvalo, ularning huquq va erkinliklarini inobatga olmasdan, yosh avlodning dunyoqarashi, fikri bilan hisoblashmasdan, uning ma'naviy asoslarini shakllantirib bo'lmasligini ko'rsatadi. Bu siyosat asoslari, zaruriy tarzda, muayyan ma'naviy tamoyillarga amal qiladigan, o'z huquqlari va manfaatlarini xalqi hamda vatani manfatlari bilan uyg'unlashtira oladigan, mustaqil e'tiqod va zamonaviy dunyoqarash egalariga tayanishini O'zbekistonning bugungi tajribasi yaqqol ko'rsatib turibdi. Ayni shunday holdagina har bir yosh inson o'z huquq va burchini chuqur anglaydi, ular ning jamiyatda mavjud ma'naviy mezonlar bilan loqadorligini to'la-to'kis his qilishi mumkin. Yurtimizda huquqiy davlat va rivojlangan fuqarolik jamiyatni asoslarini yaratilayotgan bugungi kun uchun bu nihoyatda muhim, chunki yuksak ma'naviyat demokratik taraqqiyotning zaruriy asosi, ma'nан barkamol avlod shakllanayotganining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi [5].

Xullas, bugungi kunda yoshlari ma'naviy kamolotining eng dolzarb muammolarini hal etishda va ularning jamiyat hayoti hamda davlat boshqaruv tizimlarida faol ishtirotini ta'minlash jarayonida har bir yoshda yangicha tafakkur, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi ma'rifiy ta'lif tizimini doimiy takomillashtirib borish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatimizda yoshlarga xos yuksak ma'naviyat tamoyillarini shakllantirish uchun ular orasidan zarur kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidan, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, mamlakatimizda shakllangan ta'lif va tarbiyaning samarali usullari va vositalarini hayotga tadbiq etish imkoniyatlarini izlab topishning tobora ko'proq ahamiyatga ega bo'lib borayotganidan dalolat beradi.

Shunday ekan, bizbu sohada butun salohiyatimiz va iqtidorimizni ishga solishimiz, xalqimiz kelajagi, yurtimiz tinchligi va jamiyatimiz farovonligi uchun xizmat qiladigan yuksak ma'naviyatli, intellektual etuk avlodni tarbiyalashdek muhim ishga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Buning uchun har birimiz o'z zimmamizga yuklatilgan ulkan mas'uliyatni chuqur his etishimiz, bu yo'lda butun kuch-quvvatimizni ishga solishimiz lozim.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliv saodatdir. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2015. –B. 235.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch”. – T.: Ma’naviyat, 2008.-60-64 b.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2010. – B. 43.
4. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minalash – bizning oliv maqsadimiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2009. T.17. – B.131.
5. A.Ochildev. Madaniyat falsafasi. -T.:”Muharrir” nashriyoti, 2010. – B.54.

A.X.Холмахматов**ДУХОВНЫЕ ОСНОВЫ РЕАЛИЗАЦИИ
МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ**

В данной статье речь идет факторах, связанных с ролью и значением духовно-нравственных аспектов успешной реализации государственной молодёжной политики в годы независимого развития нашей страны. В статье изложен системный анализ осуществленных за годы независимости реформ в данной сфере, а также выработаны соответствующие выводы по результатам их реализации. Также в статье освещена работа по повышению эффективности духовных аспектов реализации государственной молодёжной политики.

Ключевые слова: независимость, демократические реформы, духовность, нравственные основы общества, молодёжь, гармонично развитое поколение, духовная культура молодёжи, молодёжная политика, духовные факторы воспитания

A.X.Xolmaxmatov**SPIRITUAL BASIS OF THE
IMPLEMENTATION OF YOUTH
POLICY**

This article tells about the factors associated with the role and value of spiritual and moral aspects of the successful implementation of the state youth policy in the years of independent development of our country. The article describes a systematic analysis carried out during the years of independence, the reforms in this area, and conclusions on the results of their implementation. The article also contains information about the work to improve the effectiveness of the spiritual aspects of the implementation of the state youth policy.

Keywords: independence, democratic reforms, spirituality, moral bases of society, young people, harmoniously developed generation, spiritual culture of youth, youth policy, the spiritual factors of education

UDK:39**GO‘ZALLIKKA INTILISH – INSONNING ETNOMADANIY XUSUSIYATI SIFATIDA****S.Quvvatov***Samarqand davlat universiteti, o‘qituvchi*

Annotasiya. Ushbu maqolada insonning go‘zallikka intilishi va uning etnomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Go‘zallik tushunchasi estetika fanida o‘rganilishining tarixiy-nazariy tahlil berilgan.

Kalit so‘zlar: go‘zallik, inson, etnomadaniyat, tarix, estetika fani, turmush estetikasi, madaniyat, tarixiy yodgorlik, ekologiya.

Mamlakatimiz fuqarolik jamiyat qurish yo‘lidan borar ekan, bu yo‘lda jamiyatning barcha sohalarida modernizatsiya qilish va diversifikasiya jaryonlarini jadallashtirish ishlarini olib borishni maqsad qilib olgan. Xususan, ta’lim sohasida va kadrlarni tayyorlashning alohida konsepsiysi bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun (1997), “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997) va bir qator qonunlarning qabul qilinishi yurtimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning yaqqol tasdig‘idir. Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimining joriy etilishi, chunonchi, umumiy o‘rtalim, kasb-hunar ta’limi va oliv ta’lim sohasidagi islohotlar ta’lim tizimimizning jahondagi ilg‘or davlatlar ta’lim tizimiga tenglasha boshlaganidan dalolat beradi.

Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, maqsadimizga erishishimiz, yangi jamiyat qurishimiz, siyosatda ham, iqtisodda ham, ma’naviyat sohasida ham barcha islohotlarning taqdiri o‘sib kelayotgan yosh avlodga bog‘liq [1]. Mustaqillik barcha ijtimoiy fanlar, ayniqsa, estetika fanining rivoji uchun ham katta inersiya berdi. Endi biz o‘tmishdagi boy ma’naviy merosimiz durdonalarini go‘zallik tamoyillari orqali tahlil qilish va yangicha ma’no berish imkoniyatiga ega bo‘ldik. “Estetika” fani o‘rtalik maxsus kasb-hunar ta’lim tizimida, oliv ta’limning bosqichlarida o‘quvchi, talaba yoshlarga, bo‘lajak kadrlarga inson

turmushida kerak bo‘ladigan did, go‘zallik, sog‘lom turmush tarzi, chiroyilik, xunuklik, san’atdan zavqlanish, poklanish singari estetik ong unsurlarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Estetika eng qadimgifalsafiy fanlardanbiri. Uning tarixi ikki yarim – uch ming yillik davrni o‘z ichiga oladi. Biroq u o‘zining hozirgi nomini XVIII asrda organ. Ungacha bu fanning asosiy muammosi bo‘lmish go‘zallik va san’at haqidagi mulohazalar har xil san’at turlariga bag‘ishlangan risolalarda, falsafa hamda ilohiyot borasidagi asarlarda o‘z aksini topgan edi. “Estetika” atamasini birinchi bo‘lib buyuk olmon faylasufi Aleksandr Baumgarten (1714–1762) ilmiy muomalaga kiritgan. Bunda u boshqa bir ulug‘ olmon faylasufi Leybnis (1646–1716) ta‘limotidan kelib chiqqan holda munosabat bildirgan edi. Leybnis inson ma’naviy olamini uch sohaga – aql, ixtiyor, hissiyotga bo‘ladi va ularning har birini alohida falsafiy jihatdan o‘rganish lozimligini ta’kidlaydi. Baumgartengacha aqlni o‘rganadigan fan – mantiq, ixtiyorni o‘rganuvchi fan esa axloqshunoslik (etika)ni falsafada ko‘pdan buyon o‘z o‘rnini bor edi. Biroq hissiyotni o‘rganadigan falsafiy fan o‘z maqomiga ega emasdi. Baumgartenning bu boradagi xizmati shundaki, u “his qilish”, “sezish”, “his etiladigan” singari ma’nolarni anglatuvchi yunoncha “aisthetikos” so‘zidan “estetika” (olmoncha “aisthetikos” – “estetik”) iborasini olib, ana shu bo‘shliqni to‘ldirdi [2].

Baumgarten nafosatshunoslikni hissiy idrok etish nazariyasini sifatida ilgari surdi. Lekin ko‘p o‘tmay, u goh “go‘zallik falsafasi”, goh “san’at falsafasi” sifatida talqin etila boshlandi. Nafosatshunoslik fanining eng buyuk nazariyotchilaridan biri Geigel esa o‘z ma’ruzalarining kirish qismida yozadi: “Estetika” degan nom muvaffaqiyatsiz chiqqani va yuzaki ekani sababli boshqa atama qo‘llashga urinishlar bo‘ldi. Masalan, *kallistika* so‘zini ishlatish tavsiya qilindi. Afsuski, bu ham ma’qul emas edi, negaki, ustida so‘z borayotgan fan umuman go‘zallik emas, balki san’atdagi go‘zallikni o‘rganishi kerak. So‘zning o‘z-o‘zicha bizni qiziqtirmasligini nazarda tutib, biz “estetika” nomini saqlab qolishga tayyormiz, buning ustiga, u odatiy nutqqa singishib ketgan. Shunga qaramay, bizning fanimiz mazmuniga javob beradigan ibora, bu – “san’at falsafasi” yoki yana ham aniqroq qilib aytganda – “badiiy ijod falsafasidir” [3].

Inson paydo bo‘lgandan to‘hozirgi kunga qadar moddiy va ma’naviy olamda hayot kechiradi. Olamni anglashga, bilishga, uni ma’naviy o‘zlashtirishga harakat qiladi hamda moddiy va ma’naviy qadriyatlar yaratadi. Inson faoliyat yuritar ekan, doimo tashqi olam bilan, jamiyat bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi va turli tabiiy-ijtimoiy hodisalariga duch keladi. Ba’zan inson bu hodisalaraga hissiy munosabatda ham bo‘ladi. Tashqi olam bilan inson o‘zaro hissiyotli munosabatda bo‘ladi va bu munosabatini in’ikosli hodisalarda aks ettirib boradi. Bu estetiklik o‘z navbatida o‘zida yoqimlilik, foydalilik va hayajonli tuyg‘ularni, affektiv (jazava, junbushga kelish) holatlarni yuzaga keltiradi. Yer yuzidagi insonlar doimo tabiat, jamiyat va ular o‘rtasida munosabatlarda qatnashadilar, mehnat qilib uning natijasidan zavqlanadilar.

Estetika bu bilishning bir tarmog‘i bo‘lib, insonni o‘z hayotini shakllanishi haqida, barkamollik muhiti bilan o‘z naslini va oilasini ta‘minlash va o‘z holatidagi tuyg‘ulariga amal qilishi, barkamollik, uyg‘unlik va go‘zallik haqida tasavvur hosil qilish, tinchlik, maishiy qulaylik va boshqa belgilarni ta‘minlashga rioya qilishni o‘rganuvchi fan tarmog‘i hisoblanadi. Muxtasar qilib aytganda, estetika insonning his-tuyg‘ulari haqida ilmiy bilim bo‘lib, u tabiat va insonning o‘zaro ta’siri, barkamollik, uyg‘unlik va go‘zallikni his qilish asoslarini o‘rgandi. Shunday qilib, zamona viy estetikaning predmeti insonni hayotida go‘zallik, his-tuyg‘u bilan bog‘liq barcha narsalarning namoyon bo‘lishi, kishilarning aql-idroki, iste’dodi dunyoviy ko‘rinishlar bilan ta’sirlashuvi natijasida paydo bo‘lgan muammolar tashkil etadi. Estetika ilmiy haqiqatni bermaydi, lekin narsa va hodisalarining sifatiga hayotiy faoliyat va muvaffaqiyatli sharoitda to‘g‘ri ish qilayotganimizni nazorat qilib turadi.

Insonning ongi hozirgidek tizimlashmagan, rivojlanmagan paytlarda o‘z hissiyotlari, tuyg‘ularini aks ettirish uchun ma’lum ko‘rsatmalari, simvollarini mavjud bo‘lgan. Avlodlarga qadriyatlarni, an’analarni, tabiat hodisalariga bo‘lgan munosabatlarni aks ettiruvchi ijodiyot mahsulotlarini yaratganlar. Bularni biz arxeologiya, etnografiya va antropologlarning ilmiy izlanishlarida ko‘rishimiz mumkin.

Insoniyat madaniyat tarixiga diqqat bilan nazar tashlaydigan bo‘lsak, insoniyat tarixining dastlabki bosqichlarida ham tabiat va inson o‘rtasidagi garmoniyani ifodalovchi san’at asarlarini insonning tabiatga estetik munosabatini belgilovchi urf-odatlarini ko‘rish mumkin. Ya’ni, estetik ong san’at asarlarida “moddiylashgan” va turli usullarda, shakllarda ifodalangan. Dastlab, hali yozuvdan foydalanish paydo bo‘imasdan avval, g‘orlarning devorlariga chizilgan suratlar, tasvirlar asosida ham insonning tabiatga ongi (hozirgi davr nuqtayi nazaridan primitiv va soddaligidan qat’iy nazar) estetik munosabati aks etgan. Keyinchalik esa, xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘lgan: mif, afsona, rivoyat, hikoyat, matal, maqol, dostonlar va boshqa san’at asarlarini shaxs ekologik ongingin tabiatni estetik idrok etish usuli, ifodalash shakli sifatida qarash kerak.

Ibtidoiy davrda toshdan yasalgan mehnat va ov qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari (ular ham toshdan yasalgan), toshdan yasalgan ona haykalchalari, chig‘anoqlar mayda toshlardan, morol (Sibir bug‘usi) va tog‘ echkisi tishlaridan yasalgan ayollar taqinchoqlari va boshqalar moddiy qadriyatlardan tizimini tashkil

etadi. Bu narsalarning barchasidan 50 – 40 million yil oldin (ba’zi manbalarga ko’ra 2 millon yil oldin) yashagan insonlar foydalanishgan va ehtimol, ular tomonidan hissiy-emotsional holat asosida qilingan narsalar ularning amaliy mashg’ulotlarini (mehnat, kundalik hayot, ovchilik vositalari) va go’zalligini (ayollar taqinchoqlari) ko’rsatib beradi deb xulosa chiqarish mumkin[4].

Qadimda oltin yoki kumush ilon o’ralib turgan qadah – zardushtiylik dini tabobatining ilk marosimi tasviridir. Bu esa hozirgi zamon tabobati ramzi sanalgan ilon chirmashgan qadah, zardushtiylik dini tabobatidan ko’chirilganligini isbotlaydi. Ya’ni, ikki aka-uka egizaklar: Xaurvatag va Amirtaglarning olmos qadah ushlab turgan tasviri, uning asosi bo’lgan. Xaurvatag – atrof-muhitdagi muvozanat va monandlik – uyg’unlik homiysi, da’vo – shifo beruvchi; Amirtag esa – abadiyat ato etuvchi va, ayni paytda, alximiya homiysi sanalgan. Abadiyat ichimligi to’ldirilgan qadah – qalbiy ilmlar, koinot qonuni (asha), dunyoviy uyg’unlik, abadiy va qudratli oliv ***Haqiqat*** ta’sirida sodir bo’ladigan barcha o’zgarishlarning ifodasi hisoblangan. Kumush ilon – insoniyatning shakllanish va rivojlanish yo’li ramzi, oltin ilon esa – dunyoviy tadrijot – evolyutsiya va dunyoviy uyg’unlik ramzi sanalgan. Bu ta’limotlar va ramzlar, o’z mohiyatiga ko’ra, estetik ong va madaniyatning dastlabki badiiy ifodalananish bosqichi, deb baholanishga munosib[5].

Tabiat va tabiiy hodisalar insonning emotsiyalini tuyg’ulariga ta’sir o’tkazib, sifatiy o’zgarishlarni vujudga keltirish mumkin. Masalan, bahor fasli yoki kuzgi hazonrezgi paytida shoir she’r yozadi, yozuvchi hikoya yozadi, rassom rasm chizadi. Bularning hammasi tabiat mo’jizalaridan zavqlanish tufayli yuzaga keladi. Bular qanday xususiyat va sifatlar bo’lishi mumkin? Estetika uchun, balki, bu eng asosiy savoldir, chunki bunday xususiyat va sifatlar ta’siri ostida insonlarda shunday kuch va qobiliyat tug’ilganki, shuning uchun avlodlar o’tib odamlarning ijodiy salohiyati rivojiana borgan, ularning yaratuvchanlik qibiliyati tobora takomillashib borgan. Demak, yanada samarali mehnat qurollari, borliqdagi barcha amaliy narsalar, barcha bejamador taqinchoqlar vujudga kelgan.

Arxeologik topilmalar ibrido insonlarning maishiy obyekti va vositalari taqinchoqlari va diniy marosim predmetlari har qanday toshdan ham yasalmasligini ko’rsatadi. Bular, *birinchidan*, daryo yoki dengiz toshlaridan hayvon terisiga ishlov berish uchun to’g’ri va o’tkir to’lqinli qilib sayqallangan va tosh qurol sifatida foydalangan. Ushbu mikrolitlar: ignalar, o’q uchlari va nayzalardan tashlil topgan; *ikkinchidan*, yorqin yoki rangli toshlardan, kiyik (qo’y, echki) tishi yoki chig’anoqtoshlardan maxsus shakllar va ranglardan foydalanib taqinchoqlar yasalgan; *uchinchidan*, toshboltalar esa asosan qattiq, pishiq va ishonchli og’ir toshlardan ishlangan; *to’rtinchidan*, ibrido odam asosan diqqatini tosh, suyak yoki chig’anoq shakliga, undan keyin esa uning qattiqligiga, rangiga va boshqalarga qaratgan.

Qachonki, insonning estetik madaniyati bilan bog’liq go’zallik, nafosat haqidagi ehtiyojlari haqida izlanishlar olib borilishidan boshlab, inson kamolotining bir qator qirralari haqida nazariyalar paydo bo’ldi. XVIII asr o’rtalaridan chiroylilik yoki go’zallik ma’nolarini anglata boshlagan estetika atamasining paydo bo’lishi insoniyatning bu boradagi birinchi qadami bo’ldi. Chunki turli ko’rinishdagi toshlar, chig’anoqtoshlar, suylardan qadimgi odam turli maqsadlar uchun foydalangan, u organik va tabiiy muhitdan foydalanib o’ziga va o’z yaqinlariga, ayniqsa, bolalari va ayollari uchun hamda turmushi, ro’zg’ori uchun kerak bo’ladigan narsalarni yaratgan. Atrof-muhit narsa va hodisalarga mos parametrlar uyg’unlik deb ataladi va u qadimiy kishilar uchun juda yoqimli bo’lgan. Chunki u tabiiy muhit bilan uyg’un yashovchi inson va tirklik olamini o’rab turgan mutanosiblikni yaratadi. Kishilar odatda uyg’unlikni tashqi dunyo bilan o’zaro ta’sirlashib, muhitga moslashib yashashda deb bilishadi. Inson hayotida uyg’unlikning rolini hayot baxsh deb tushunishi, uning bu uyg’unlik muvozanatini ko’tarib turishga intilishi, uni yoqtirishi va hayotiy kuchini ko’payishiga olib kelishi deb taxmin qilish tabiiydir. Insonning atrof-muhitni yoqtirishi va bu yoqtirish insonga optimistik ruh ato qilishi ijobji holatdir. Atrof-muhit bilan uyg’unlikda yashash, hayotni sevish, Vatan tushunchasi va umuman uyg’unlik nazariyi va amaliy jihatlari etika va estetika fanlarida o’rganiladi. Uyg’unlik kategoriyasining estetik nazariyagacha bo’lgan ma’nosini va estetik nazariya asosida o’rganish maqsadga muvofiqdir. Estetika uyg’unlikni go’zallik tushunchasi orqali tahlil qiladi.

Xo’sh, go’zallik nima? Go’zallik haqida biz qanday tasavvurga egamiz? Qadimgi odamlar go’zallikni qanday his qilgan? Obyektlarning tashqi ko’rinishi bu tushunchani anglatadimi? Bu savollarga javob topishda estetika faniga murojaat etiladi.

Go’zallik haqida bir qancha ta’riflar keltirilgan. Bulardan bir qanchasini keltirib o’tamiz. Xususan, A.Sher “Go’zallik tushunchasini subyektdagi yoqimli taassurot, xush kayfiyat va quvonch uyg’otadigan obyektdagi estetik xususiyatni tavsiflashga yo’naltirilgan ilmiy atama”[6] deb biladi. M.Nedonselning fikricha, “Go’zallik – bu individuallikni namoyon qiluvchi hodisa bo’lsa, san’at esa individuallikni sun’iy chizgilariga o’xshatishga intilishdir. Shuning uchun go’zallikni badiiy madaniyat yutuqlarisiz tushintirish mumkin emas”[7]. Go’zallik tushunchasi rus va Yevropa mamlakatlarida turlicha kategoriyalarda

tushintirilgani sababli o'zbek tilida tarjimalari har xil bo'lib kelgan. Bizning fikrimizcha, go'zallikning ikki xili, ya'ni obyektiv asosga ega go'zallik va subyektning didi va tarbiyasi orqali anglashiladigan go'zallikka bo'lish mumkin. Go'zallikning hissiy emotSIONAL xususiyati, lahzaliligi, me'yoriyligi, ma'nodorligi sababli bu to'g'risida qarashlarni xilma-xilligiga sabab bo'lgan.

Insoniyat tarixida azaldan babs-munozaraga sabab bo'lgan muammo bu – qadimiy odamning dunyoqarashi, go'zallikni qanday anglashi va insoniyatning keyingi avlodlari go'zallik haqidagi tasavvurlarining o'zgarishiga nima sabab bo'lgan degan jumboqli savollar mavjud. Ushbu babs-munozaraning mavzusi doimiy davom etadigan, yechimi yo'q savollar qurshovidadir. Ya'ni, estetik histuyg'ular insonda tug'ma bo'ladimi? Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'ladimi? Yoki ijtimoiy muhit ta'sirida yoshi katta insonlarda shakllanadimi? Bu savollar o'tmish mutafakkirlar, xususan, antik davr faylasuflarini, nemis klassik faylasuflarini, klassik tabiatshunoslarni, ko'pgina adabiy va badiiy tanqidchilarini qiyagan va bu savollarga javob izlashga majbur qilgan.

Go'zallikka intilish insonning tabiiy xususiyati yoki dunyonи hissiy idrok etish belgisidir. Qadimgi yunonlar bu jarayonni "aisthetikos" deb nomladilar, ya'ni hissiyotli, his-tuyg'uli bilishdir. Keyingi davrda faylasuflar olamni bir-butun tarzda o'rganib, insonning xususiyati haqida bir qarorga, to'xtamga kelmadilar. Insonning rasional xususiyatlari ko'ra, irrasional sifatlari ko'payib ketganligi insonning barkamollikka erishish uchun ushbu masalalarga oydinlik kiritish asosiy vazifa bo'lib qolgan. Insonning estetik ongi taraqqiyoti ijtimoiy-tabiiy muhitga juda qattiq bog'langanligi sababli asosiy mohiyatidan, tabiiylikdan uzoqlashadi. Shaxs estetik ongi shakllanishida tabiiylik va ijtimoiylik birligi asosiy o'rinn egallaydi. Afsuski, ko'plab kishilar ushbu o'zaro bog'liqlikni anglamaydilar. Ijtimoiy muhit kishilarni estetik ongini o'stirishga, ma'naviy va ijodiy hayotni qurishga va umuman komillikkta tomon intilishiga katta yo'l ochib boradi.

Inson o'z tabiiy iqtidorini ma'lum ijtimoiy muhitda o'stirish, rivojlantirish uchun turli o'z ijodiy faoliyatidan unumli foydalanmaydi. Ko'p odamlar o'z iqtidorini, imkoniyatlarini fahmlamaydi va o'z hayotini erkin qura olmaydi. Vaholanki, inson ijodkor har qanday sharoitda ham o'z ma'naviy, axloqiy qiyofasini namoyon qilishi kerak. Bir qator kuchli ijodkor shaxslar (A.Fitrat, A.Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Oybek) juda og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda ham yashab ijod qilganlar, go'zal milliy qadriyatlarni yaratib ketganlar. Insonning go'zallikka intilishi barcha dimiy manbalarda, falsafiy risolalarda keltirib o'tilgani bejiz emas.

Hozirgi kunda kishilarning estetik ehtiyojlar – go'zallikni his qilish, xunuklikdan qochish, tur mushni go'zallashtirish masalalari va umuman shaxs va jamiyat estetik ongi bir qator muammolar qurshovida qolmoqda. Davr kishisi dunyonи go'zallik asosida o'zlashtirishi uchun bir qator omillar mavjudligiga qaramay estetik ehtiyojlar faoliyat ko'rinishiga o'tmayotir.

Bir vaqtlar go'zallikni san'at, badiiy ijod orqali ruhiy qoniqish, huzurlanish, katarsis holatlari asosida tushuntirilgani bois, hozir ham shu yo'nalishda go'zallikni tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Lekin san'at asarlari va turlaridagi "ommaviy madaniyat" elementlari buni boshi berk ko'chaga yetaklamoqda. Hozirgi kunda san'at bilan bir xil mavqyeda bo'lgan sport ommaviylashib, go'zallikni namoyon etuvchi subyekt sifatida gavdalanmoqda.

Yuqorida bahs-munozaralardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni keltirish lozim deb topdik:

birinchidan, har qanday tarixiy davrda jamiyat estetik ongi va madaniyati rivojlanish darajasi insonning atrof-muhitga estetik munosabatini mavjudligiga qarab belgilangan;

ikkinchidan, jamiyat estetik ongi va madaniyatini rivojlanishi darajasi bilan insonning go'zallikka intilishi o'rtasida dialektik aloqadorlik mavjud bo'lib, ularning o'zaro vorislik munosabatlari doim namoyon bo'laveradi;

uchinchidan, inson o'z hayotiga nisbatan estetik munosabatni shakllantirib, muayyan axloqiy-estetik muammolarni badiiy obrazlarda ifodalashi jamiyatning bir butun estetik ehtiyojidan kelib chiqadi va umumjamiyat manfaatiga mos keladi;

to'rtinchidan, insonning jamiyat va tabiatga estetik munosabatini shakllantirish orqali tarixiy merosi – hozirgi davr san'atida go'zallik muammolarini ko'tarib chiqishi, qadriyatlarning transformasion jarayoni hisoblanadi;

beshinchidan, o'tmishda insonlar hayotini darajasidan qat'iy nazar, diniy cheklardan qat'iy nazar, o'zlarining etnomadaniy xususiyati bo'lgan go'zallikka intilishini rivojlantirganlar va bu bugungi kunda estetik immunitet tushunchasida ifodalanoqda.

Adabiyotlar

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – келажак пойдевори://Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир, 3-жилд. – Т., “Ўзбекистон”, 1996. – 36-б.
2. Бычков В.В. Эстетическое. Новая Философская Энциклопедия. –Т. 4. М., 2001. С. 467.
3. Гегель Г.В. Эстетика. –Т. 1. М. Издательство Искусство, 1968. С.14.
4. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, –Т., 2002. – 70-б.
5. Ҳалимбой Бобоев, Солижон Ҳасанов “Авесто” маънавиятимиз сарчашмаси, –Т., “Адолат”, 2001. – 83-б.
6. А.Шер. Гўзаллик ва хунуклик. (электрон манба)
<http://faylasuf.uz/index.php/falsafa/manaviyat/estetika/175-g-zallik-va-khunuklik> (мурожат этилган сана 04.04.2016)
7. Недонセル М. Введение в эстетику // Западноевропейская эстетика XX века. Вып. 2. –М., 1991. С. 52.

C.Қувватов

**СТРЕМЛЕНИЕ К КРАСОТЕ КАК
ЭТНОКУЛЬТУРНОЕ СВОЙСТВО
ЧЕЛОВЕКА**

В статье анализируются вопросы стремления человека к прекрасному, а также его этнокультурные особенности. Рассматриваются вопросы, историко-теоретические исследования понятия прекрасного в предмете эстетики.

Ключевые слова: прекрасное, человек, этнокультура, история, предмет эстетика, эстетика жизни, культура, исторический памятник, экология.

S.Quvvatov

**THE STRIVING FOR BEAUTY AS THE
ETHNOCULTURAL PECULIARITY OF
PERSON**

Questions of aspiration of man to be perfect and also ethnocultural peculiarities are analyzed. Issues of historical – theoretical researches of studying the term of beauty in the subject of aesthetics are given in this article.

Key words: beautiful, man, ethnosculture, history, subject of aesthetics, aesthetics of life, culture, historical monument, ecology.

UDK: 1:008(575.1)

**GLOBAL O'ZGARISHLAR DAVRIDA MA'NAVIYAT SOHASIDA ISLOHOTLARNI
RIVOJLANTIRISH ZARURATI**

Sh.Mavlanov*O'zbekiston milliy universiteti, katta ilmiy xodim izlanuvchi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallahuv sharoitida ma'naviyat sohasidagi o'zgarishlarning rivojlanishi tadqiq etilgan. Shu bilan birga ushbu jarayonda yuz berishi mumkin bo'lgan muammolar, xususan, ayrim hududlarda yuz berishi mumkin bo'lgan xaos holatlari o'rganilgan, ushbu vaziyatlarda ma'naviyatni yuksaltirish hamda milliy qadriyatlarni saqlab qolish ahamiyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, fuqarolik jamiyat, globalizasiya, qadriyatlар, ta'lif.

Bugungi global o'zgarishlar sharotida dunyo miqyosida babs-munozaraga sabab bo'layotgan va yechimini kutayotgan muammolar ko'lami tobora kengayib bormoqda. Jumladan, ba'zi davlatlarda qo'poruvchilik, harbiylar va tinch aholini qyinoqlarga solish, shavqatsiz jazolash sahnalarini namoyish etish orqali, vahima uyg'otish, tinch hayot tarzini izdan chiqarish, g'oyaviy parokandlikni yuzaga keltirish maqsadida, shuningdek ma'naviyatga zarar yetkazadigan, aqidaparastlik ruhida yo'g'rilgan, o'z mafkuraviy ta'sirlarini muttasil tarzda saqlab turishga qaratilgan tadbirlar tobora xavfli ko'rinishga ega bo'lib bormoqda. Shuningdek, hozirgi vaqtida dunyoning mafkuraviy manzarasida turli vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan tajovuzkor millatchilik, neofashizm, terrorchlik, diniy ekstremizm kabi siyosiy kuchlar va oqimlar faoliyati ham jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bunday muammolarga qarshi kurashishda xalqimizning tarixan shakllangan ma'naviyat sarchashmalari, nodir va bebafo hikmat xazinalari, falsafiy durdonalari, asrlar qa'rida o'zining ulkan ummonga aylanib ulgurgan shoh asarlari, yuksak mangulikni aks ettingan milliy qadriyatlarni ustuvor ahamiyat kasb etadi. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "... bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilish, o'z milliy qadriyatlarni, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi mumkin" [1].

Jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy me'rosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ma'naviyatni yuksaltirmasdan turib jamiyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Yurtboshimiz I.A.Karimovning «Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning xaqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilanish va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatlari olg'a siljishida hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir...» [2] -degan ko'rsatmasi konseptual ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizning ijtimoiy sohalarida olib borilayotgan ishlarning asosida ma'naviylik bilan moddiylilikni uyg'unlashtirish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ma'naviyat jamiyat hayotining shunday bir nozik, ahamiyatli sohasiki, bu borada xo'jakursinga ish qilish ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotimizda kutilmagan turli inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, bu sohada o'zi bo'larchilik va lo'ttibozlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shuning uchun ham kishilarda, xususan yoshlarda yangi ma'naviyatning shakllanishi ancha murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega. Mamlakatimizda tarbiyani hozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma'naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga mumkin bo'ladi. Bu ishga yurtimizning barcha ziyyolilar – o'qituvchilar, jurnalistlar, yozuvchilar, vrachlar, artistlar, barcha rahbarlar birdek mas'uldirlar. Shuning bilan bir qatorda milliy ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omillar va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini chuqur anglab olishimiz juda muhim hisoblanadi.

Inson ma'naviyati uning hattoki uzoq kelajakda ham biomuhit qobig'idan tashqariga chiqib ketmaydi. Chunki davlatimiz rahbari I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajodolar o'giti bilan birga singadi" [3]. Shuning uchun ham ma'naviyat o'zining moddiyligi va predmetga oid-amaliy faoliyati tufayli inson atrof dunyoga kirishib ketgan, biomuhitga uning ijodiy davomi sifatida tushuniladi. V.G.Fedotovaning tadqiqotlarida ma'naviyat tushunchasi ostida ongning sifatga oid xususiyati tushuniladi, vaholanki muallif bu ongning qadriyatga oid mohiyati deb aniqlashtiradi. Z.G.Antoshkina ma'naviyat deganda abadiy va tunganmas bo'lgan go'zallik, ezgulik va haqiqatni izlashga murojaat, voqelikni insonparvarlik tomonga o'zgartirishga qaratilgan ijtimoiy harakatni tushunadi. Zero, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "...ma'naviyat qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, aksincha, doimiy xarakatdagi uzlucksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham muttasil paydo bo'laveradi" [1].

Bugungi global o'zgarishlar davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xususan, jahonning ayrim mintaqalarida tobora kuchayib, ildiz otib borayotgan ma'naviy tahdid xavfi xalqimiz ma'naviyatini asrash barobarida uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini bunday zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan himoya qilishni talab qilmoqda. Zero, ma'naviyatga qarshi qanday tahdid dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin, o'zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o'ylab yashayotgan har bir ongli inson, har bir xalqni tashvishga soladi. Albatta, bunday ma'naviy tahdid va mafkuraviy xurujlar milliy madaniyatimizga bolta urishi, ulardan avvalo farzandlarimiz ko'proq aziyat chekishi mumkinligi, yoshlarda ma'naviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlik ruhini yanada kuchaytirishning taqozo etmoqda. Shuning uchun ham hozirgi davrda oldimizga qo'ygan asosiy maqsad – fuqarolik jamiyatini barpo etish va uni takomillashtirish uchun Milliy dasturda ko'zda tutilgan biliqli, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarashli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlarni tarbiyalashga yanada muhim e'tibor qaratish va bu masalalar ta'lim islohotlarining bosh vazifasi deb qabul qilib, uni amalga oshirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida yaratilgan va amalga oshirilayotgan yangi ta'lim modeli aynan ana shu maqsadga erishish yo'lida o'zining yangicha ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar transformasiyasini shakllantirib bormoqda.

Insonning noyobligi aynan ma'naviyatda yorqin namoyon bo'ladi. Biroq bunga qaramasdan ko'plarga ma'naviyat insonni ziynatlovchi bezak, ayrim hollarda esa uningsiz ham yashash mumkin bo'lgan o'ylab topilgan narsa bo'lib tuyuladi. Ma'naviyat hodisasini o'rganish bizni har bir kishida ma'naviyat muammosini yuzaga keltiruvchi ekzistensial talablar va obyektiv omillarni tushunishga olib keladi. Ertami kechmi biz ma'naviyat haqida o'ylab qolamiz, va u biz uchun ifodalananishning u yoki bu shakliga ega bo'ladi. Ma'naviyatdan tashqarida inson oddiy obyektga, narsaga, hayvonga o'xshab qoladi. Ma'naviyatni ilmiy jihatdan tahlil qilish falsafada endi kengroq o'rganilmoqda, shu sababli bizning

tadqiqotimiz yo‘nalishi hozirgi kunda aktual masalalardan, deb hisoblaymiz. Ma’naviyat insonlar tomonidan global axborot-texnologik ekspansiya va u bilan bog‘liq bo‘lgan insonning tur sifatida yo‘q bo‘lib ketish xavfi oqibatlaridan qutqarib qoluvchi vosita sifatida qabul qilinadi. A.G.Maslou quyidagicha yozgan edi: “Odamlar yaxshiroq bo‘lishlari lozim, aks holda biz barchamiz yer yuzidan yo‘q bo‘lib ketishimiz mumkin, yoki hatto tirik qolsak ham biologik tur sifatida doimiy bosim ostida va vahimada yashashimizga to‘g‘ri keladi” [7]. Shuning uchun mamlakatimizda ma’naviy barkamol insonni, sog‘lom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ma’naviyat – bu hayotning oliv maqsadga muvofiqligini amalgal oshirishga yo‘naltirilgan tafakkurdir. Shuning uchun ham faylasuf olim Ibrohim Karimov “...o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘zi yashashi lozim bo‘lgan jamiyat qonun-qoidalari, odob-axloq normalari doirasida yashash ko‘nikmalarini hosil etish uchun astoydil kurash jarayonidagina u komillik martabasiga erishishi mumkin” [5] deb yozadi. Bu jarayondagi o‘zaro tushunish insonning bu hayotdagi muayyan maqsad va vazifani ishlab chiquvchi, tartiblashtirilgan dunyoqarashni yaratish qobiliyatidan kelib chiqadi. O‘z navbatida bu insonning ideallarga o‘tish yo‘li bilan odatiy insoniy imkoniyatlar chegarasidan chiqqan holda doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirib borishga undaydi.

Ma’naviyat insonni shakllantirish usuli hamdir. Chunki aynan “Inson aynan ijtimoiy muhitda o‘z ehtiyojlarini qondirish va o‘z imkoniyatlaridan foydalanish yo‘lini topadi. U aynan shu yerda o‘z histuyg‘ularini, tabiat ato qilgan samimiylilik, do‘stlik mehribonlik, bag‘rikenglik va iztirob chekish fazilatlarini ko‘rsatadi” [6]. Hozirgi davrda inson ma’naviy borlig‘ini ilmiy va falsafiy jihatdan jiddiy o‘rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Qanday xulq-atvor maqsadga muvofiq bo‘lishini anglash uchun insoniyat ma’naviyatini rivojlanishining eng muhim darajalarini ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi. Bu kabi imkoniyat – komil insonni voyaga yetkazish bilan xarakterlanadi. Uni tarbiyalash insoniyatning va har bir individning jismoniy, texnik va manaviy jihatlarining to‘liq paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

Yosh avlod ma’naviy olamining daxlsizligini asrash uchun ta’lim-tarbiya jarayonida nimalarga asoslanish va nimaga e’tibor qilish kerak, degan savol aksariyat jamiyatshunos olimlar, faylasuflar, gumanitar fan vakillarining diqqat markazida turibdi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Prezidentimiz I.A.Karimov inson ma’naviyatini yuksaltirishda muhim hayotiy omil - ta’lim-tarbiya tizimi rivojiga e’tibor qaratib, ta’limni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi qilib belgiladi. Shuningdek, davlatimiz rahbari ta’lim islohotlarining respublikamiz kelajagi uchun beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, “Ishonchim komil: agar bu islohotni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada bu hayotimizda ijobiy ma’nodagi “portlash effekti”ga, ya’ni uning samarasiga erishamiz”, deb bashorat qilgan edi. Ayni shunday murakkab sharoitda yoshlар ongini rivojlantirish, shu bilan birga ular ongiga yuksak milliy ma’naviyatimizni singdirib borish, eng muhimi bu ishni eski qolipdan foydalangan holda emas, balki bu sohada yangi usularini o‘ylab topishda davlatimiz rahbari pedagog va o‘qituvchilarga ishonch bildirganlar.

Xullas, global o‘zgarishlar sharotida jamiyatning ma’naviy taraqqiyot yo‘li va uning strategik yo‘nalishlarini rivojlantirish va mustahkamlashda quyidagilardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, milliy ma’naviy qadriyatlarni yanada rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish. Buning uchun milliy ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarni yoshlар ma’naviy dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish, yoshlarning o‘zgalarniki qanchalik yuksak bo‘lmasin o‘z millatining qadriyatlari boy, go‘zal va har doim ham zamonaviy ekanligini hamda ustun ekanligini his etishi va o‘z ma’naviyatini boyitib borishning asosiy manbai sifatida qaraydigan bo‘lishiga erishish lozim. Bunday maqsadlarni amalga oshirishda “Ta’lim to‘risidagi” Qonun, “Kadrlar taylorlash Milliy dasturi” muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin va ma’naviy barkamol shaxsning shakllanishiga olib keladi. Mazkur tizimni rivojlantirish orqali biz o‘zining qadr-qimmatini anglaydigan irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan, insonlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat ma’naviy hayotining bosh mezoniga aylanadi.

Adabiyotlar.

1. Каримов И.. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б.16.
2. Каримов И. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.:Ўзбекистон, 299-300-бетлар.
3. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқтол ва тараққиёт йўли // Ўзбекистон: миллий истиқтол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Тошкент: Ўзбекистон,1996. – Б.80
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. -171 б.
5. Каримов И.Ноосфера:геостёсат ва мафкура.-Т.:фан,2007.-162-163 б.
6. История в энциклопедии Дидро и Д.Аламбери.-М.:Наука,1978.-63 с.

7. Maslow A.H. A Theory of Human Motivation // Psychological Review. 1943. P. 370–396.

III.Мавланов

НЕОБХОДИМОСТЬ РЕФОРМ В ДУХОВНОЙ СФЕРЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ПЕРЕМЕН

В данной статье сделан анализ развития духовности в условиях глобализации. А также, проблемы возникающие в данный период, в частности на примере хаоса в некоторых краях, приобретает важность развития духовности и сохранения национальных ценностей.

Ключевые слова: духовность, гражданское общество, глобализация, ценности, образование.

Sh.Mavlanov

THE NEED FOR REFORMS IN THE SPIRITUAL SPHERE IN THE CONTEXT OF GLOBAL CHANGE

In this article the analysis of the development of spirituality in the context of globalization. Also, the problems arising in this period, in particular by the example of the chaos in some territories, acquires the importance of spirituality and the preservation of national values.

Keywords: spirituality, civil society, globalization, values education.

UDK: 321:34(575.1)

FUQAROLIK JAMIYATI VA HUQUQIY MADANIYATIMIZ NEGIZLARIGA BIR NAZAR G'.Pirnazarov

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti,o‘qituvchi

**Har mamlakatda adolat eshigini ochdim,
zulmu sitam yo‘lini to‘sdim.
Amir Temur**

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishning nechog‘lik zarur ekanligi, yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda O‘rta asrlar Sharq mutafakkirlarining tarixiy merosida huquqiy madaniyatni shakllantirishning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, yoshlar huquqiy madaniyati, modernizasiya, ta’lim, Kadrlar tayyorlash milllli dasturi, ma’naviyat, intellektual yetuk avlod.

Fuqarolik jamiyatining asosiy unsuri ayrim shaxs bo‘lsa, fuqarolik jamiyati institutlari, tashkilotlar, guruhlar va hokazolar uni shakllantiruvchi omillardir. Ular shaxs, uning manfaatlari, maqsadlari, niyatlari va hokazolarni ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashadi. Shu sababli iqtisodiy va siyosiy hokimiyatni ajratish, haqiqiy fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi va qaror topishining bosh omili hisoblanadi. Iqtisodiy hokimiyat siyosiy hokimiyat bilan qo‘shilganida muqarrar tarzda iqtisodiy hokimiyatning bir markaz, bir odam yoki shaxslar guruhi qo‘lida jamlanishi yuz beradi. Agar siyosiy va iqtisodiy hokimiyatlar turli markazlar, qo‘llarda jamlansa, ular bir-birini cheklab turadi.

Fuqarolik jamiyati – kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo‘lib inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyatining poydevorini yaratish va uni amalda shakllantirish uchun avvalo u haqdagi g‘oyalar genezisini, asoslarini bilish lozim. Fuqarolik jamiyati va huquqiy madaniyat ma’lum asoslar (iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’naviy) yaratilgandagina shakllanishi mumkin. Bular quydagilardan iborat:

iqtisodiy asos - shaxs va jamiyat manfaatlарining umumiyligiga asoslangan mulk shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy plyuralizm, ko‘p ukladlilik, erkin bozor munosabatlari. Qaysi jamiyatda uning har bir a‘zosi, qandaydir mulkka ega bo‘lishi, o‘z xohishi bilan tasarruf etish, sarflash huquqiga ega bo‘lishi, xususiy mulk daxlsizligi, davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik, huquqiy tarbiya, mehnat va iste’mol faoliyati erkinligining ta’milanganligi.

Ijtimoiy-siyosiy asos – mustaqil davlatlarning tashkil topishi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning ajratilishi. Insonlarning o‘z maqsadlarini himoya qilish maqsadida ma’lum tashkilotlarga birlashishi, hokimiyatlar turli-tuman markazlar, tashkilotlar, siyosiy institutlar qo‘lida jamlangan bo‘lsa, ular bir-birini cheklaydi va muvozanatga solib turadi. Siyosiy plyuralizm, davlat hokimiyati funksiyalarining sekin-asta fuqarolik jamiyati institutlariga berib borilishi. “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” tamoyilining namoyon bo‘lishi. Prezident I.A. Karimov ta’kidlaganidek, “Fuqarolik jamiyati qurish bir qancha vakolatli vazifalarni davlatdan mahalliy hokimiyat organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirishni ko‘zda tutadi”[2].

Huquqiy asosi – inson uchun ahamiyatli bo‘lgan ozodlik, tenglik, adolat qadriyatlarining qaror topishi yuridik tenglikning ta’minlanishi va ularga huquq va erkinliklar berish orqali qonun yo‘li bilan tan olinishi. “Qonun hukmron bo‘lgan joyda erkinlik ham bo‘ladi” (A.Temur). “Adolat - qonun ustuvorligida” tamoyilining amal qilinishi. ...“Fuqarolar bilan davlat o‘zaro huquqlar va burchlar orqali uzviy bog‘liqdirlar. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklari daxlsiz bo‘lib, hyech kim ularni sudning qarorisiz mahrum etishi yoki cheklashi mumkin emas. Ayni vaqtida fuqarolarning o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari bshqa fuqarolarning,davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlariiga zid bo‘lmasligi lozim” [3].

Ma’naviy asos – insonlar o‘z qadr-qimmatiga, jamiyatning asosiy qadriyatlari himoyasiga tura oladigan zaruriyat tug‘ilganda ular uchun kurasha oladigan bo‘lishlari, vijdon erkinligi, ahloqiy normalarga rioya qilish, yagona mafkura dunyoqarashning yakka hokimligining mavjud emasligi, ijtimoiy jarayonlarni demokratlashtirishda bevosita va bilvosita ishtirok etishlari,fuqarolik pozisiyasiga ega ekanligi. “Tafakkur ozod bo‘lmasa,ong va shuur tazyiqda, qullikdan qutulmasa,inson to‘la ozod bo‘lolmaydi. Taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi” [4].

Tarixiylik - fuqarolik jamiyatni va huquqiy madaniyat shakllanishining tarixiy bosqichlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan holda jahon pedagogik tajribasida erishilgan yutuqlardan foydalanish asosida tahlil etish.

Ijtimoiy-huquqiy tafakkur rivoji va huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy sharti – qonun ustuvorligi tamoyilini amaliyotda qo‘llash tajribasini Sharqning buyuk davlat arbobi va sarkardasi Amir Temur (1336–1405) boy ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy merosi asosida ko‘rish mumkin.Uning tuzuklarida davlat tizimi, uni idora qilish usslublari va vositalari, undagi turli lavozim-vazifalar darajasi, tabaqalarning toifalanishi, harbiy qo‘sishlarning tashkil etilishi, jang olib borish mahoratlari, davlat xizmatchilari rag‘batini tashkil etish omillari, adolatli soliq turlarining joriy etilishi, mamlakatni obodonlashtirish tadbirlari milliy davlatchilikning yuksak madaniy va huquqiy darajada shakllantirishga erishganligidan dalolat beradi. “Harmamlakatning yaxsh ikishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvibchiqardim. Pastkash va razil odamlargao‘zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda hadlaridan oshishlariga yo‘l qo‘ymadim. Ulug‘larini va sharaf-e’tiborli kishilarni hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo‘lini to‘sdim» [5, 24].

Ma’lumki, fuqarolik jamiyatini – hayotiyligini va samaradorligini ta’minlovchi – huquqiy davlat doirasidan tashqarida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu ma’noda, Sohibqiron Amir Temuring quyidagi so‘zлari hozirgi zamon bilan hamnafas jaranglaydi: “Tajriba, - deb yozadi u, menga shuni ko‘rsatdiki, din va qonunga tayanmagan hukumat, o‘zining buyuk quadratini uzoq vaqt saqlab tura olmaydi. Uni har qanday yovuz kishi kirishi mumkin bo‘lgan na tomi, na eshigi, na panjaralari bor uyga o‘xshatish mumkin. Shuning uchun men o‘z saltanatimni islom arkonlari va boshqaruvda o‘zim qat’iy amal qiluvchi qonunlar asosida qurdim” [5, 81].

Shu nuqtayi nazardan, muvaffaqiyatli boshqaruv qonuniyatiga ko‘ra, amir Temur rahbarning adolatga tayanishini lozim topgan. Uning fikriga ko‘ra: “Rahbar uchun barcha ishlarda adolatga amal qilishi kerak, u sotilmaydigan va fazilat egasi bo‘lgan odamni vazirlikka tayinlashi lozim, chunki adolatli vazir o‘zi mahdud-rahbar adaolatsizliklarni to‘g‘irlashi mumkin, ammo vazirning o‘zi shunday bo‘lsa, halokat yaqindir” [5, 83]. Sohibqiron fikricha, davlat boshqaruvida yana bir muhim qonuniyat – qonun ustuvorligi. “Qat’iy tartib va qonunlarga amal qilishim baxt-saodatim kaliti bo‘ldi”. Bosh qonunlar sifatida diniy ahkomlarni va ular asosida yozilgan fikrlarni bilgan. Buning barchasi buyuk Temur adaolatli va fozil boshqaruvga alohida e’tibor qaratganligini ko‘rsatib turibdi.

Komil insonlar jamiyatni haqidagi g‘oyalar Alisher Navoiy (1441–1501) siyosiy va adabiy faoliyati asosi bo‘lib xizmat qildi. A.Navoiy ideal ijtimoiy-iqtisodiy tuzum haqidagi qarashlarini o‘zining “Saddi Iskandariy”, “Mahbub ul qulub”, “Payg‘ambarlar va donolar tarixi” va b. asarlarida yoritgan. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzum muammolarini faqat adolatli hukmdor boshqarayotgan va qonun ustuvor bo‘lgan mamalkatda amalga oshishi mumkin. Shunday qilib, A.Navoiy uchun adolat va qonun ijtimoiy taraqqiyotning asosi hisoblanadi.Uning konsepiyasida hukmdor shaxsi alohida ahamiyat kasb etadi. Fazilatli va ideal shaxs haqida mulohaza yuritar ekan Navoiy o‘ziga xos insonparvar nazariyani yaratadi. O‘z nazariyasida mutafakkir, bir tomondan hukmdor va bog‘bonni, boshqa tomondan davlat va bog‘ni solishtiradi. Unga ko‘ra, agar bog‘bon aqli va mehnatsevar bo‘lsa, uning bog‘i gullab-yashnaydi. Huddi shunday agar mamlakatning aqli, dono, adolatli, xalqi uchun qayg‘uradigan va uni sevadigan hukumdori bo‘lsa, u rivojlanib farovonlashadi.

U nazariyotchi va amaliyotchi sifatida davlat siyosatining adolatli asoslari va uning ma’naviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Ayniqsa, adolatsizlik va zulm davlatni tanazzulga, jamiyatni jaholatga olib kelishi to‘g‘risidagi qarashlari o‘z ifodasini topadi: “...davlat ishi bilan mashg‘ul

bo‘lgan amaldorlik chog‘larimda ko‘ngil mulkini turli odamlarning hujumi bulg‘aladi. Goh amirlik o‘rnida o‘tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini so‘rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko‘rsatdim” [6] deydi. Adolatli jamiyat shakllanishining asosiy omili sifatida Navoiy insoniy fazilatlar: adolatlilik, rahmdillik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, vatanparvarlik, vijdonlilik, insonparvarlik va jasoratni keltirib o‘tadi.

Ajdodlarimizning fuqarolik jamiyatni va huquqiy madaniyatning ijtimoiy pedagogik negizlariga oid konseptual merosi va nazariy qarashlari yoshlarimizning huquqiy madaniyatini shakllantirishda mustahkam tarbiyaviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 23 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маъруzasидан. www.uz.uz
2. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан курамиз. – Тошкент. “Ўзбекистон”, 1999.7-жилд 388-бет.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқолол, иқтисод, сиёсат, мафкура. –Т., “Ўзбекистон”, 1996, 1-жилд. 126-бет.
4. Каримов И.А. Ватан саждаох каби муқаддасдир. –Тошкент, “Ўзбекистон”, 1996, 3-жилд. 34-бет.
5. Амир Темур тузуклари. -Т.: Фофор Фулом нашриёти, 1996, 24-бет.
6. Навоий А. Махбуб ул-Кулуб.–Т.: Фофор Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983, –Б.12.

G.Pirnazarov

ВЗГЛЯД В КОРНИ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ И ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

В статье автор раскрывает вопрос необходимости формирования правовой культуры молодёжи, а также исследуется наследие великих мыслителей Востока и значение данного наследия в формировании правовой культуры молодежи.

Ключевые слова: гражданское общество, правовая культура молодёжи, модернизация, образование, Национальная программа по подготовке кадров, духовность, интеллектуально-развитое поколение.

G.Pirnazarov

LOOK BACK AT ROOTS OF LEGAL CULTURE AND CIVIL SOCIETY

In article the author opens a need question formation of legal culture of youth. And also the heritage of great scientists of the East and value given heritage in formation of legal culture of youth is investigated.

Keywords:civil society, legal culture of young people, modernization, education, the National program of personnel training, spirituality, intellectually advanced generation.

UDK: 001:7

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

N.N.Qodirov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va uning mustaqil taraqqiyot bilan bog‘liqligining dolzarb masalalari tadqiq qilingan. Muallif yoshlarining demokratik islohatlardagi ishtirokini, ommaviy axborot vositalari faoliyati kengayishi, ular sonining oshib borish imkoniyatlari bilan uyg‘un holda o‘rgangan. Mustaqillik davrida ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotdagi, mamlakatni modernizatsiyalash jarayonlaridagi ishtiroki, yoshlarining ijtimoiy faolligini oshirish zaruriyati nuqtayi nazaridan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ommaviy axborot vositalari, mustaqillik, yoshlar, islohat, ijtimoiy faollik, fuqoralik jamiyat, demokratiya, iqtisod, taraqqiyot.

O‘zbekistonda mustaqillik davrida demokratik islohatlarning amalga oshirilishi va milliy madaniyatimiz tiklanishidagi, yosh avlodni vatanga sadoqat ruhida, barkamol shaxs sifatida kamol topishida ommaviy axborot vositalarining o‘rniga alohida ahamiyat berildi. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy,

siyosiy jarayonlardagi bevosita ishtiroki uchun huquqiy asos yaratildi va ommaviy axborot vositalarining islohatlar ko‘lamini yoritishdagi faoliyatiga keng yo‘l ochildi, jamiyatda axborot tarqatilishi uchun barcha tashkiliy imkoniyatlardan vujudga keltirildi. 1997 yil 26 dekabrida O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”[1] qonuni qabul qilindi va unda fuqoralik jamiyatni rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy turmushning modernizatsiyalashuvni, mamlakatimizning jahon hamjamiatidagi obro‘si oshib borayotgan sharoitida ommaviy axborot vositalari faoliyatidan kutilgan maqsad va vazifalar belgilab qo‘yildi, shu munosobat bilan ularning yoshlar ijtimoiy faollligini oshirishdagi o‘rniga alohida e`tibor berildi. Demokratik islohatlar ko‘lamida, yoshlar kamolotida, ularning ma`naviy, axloqiy, ekologik tarbiyasida, siyosiy madaniyati yuksalishida, ijtimoiy faollligi oshishida muhim ahamiyat kasb etadigan kundalik va haftalik gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, televideenie va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, internet va boshqa ommaviy davriy nashrlar faoliyatini rivojlandi. Mustaqillik yillarda ommaviy axborot vositalari erkinligi ta`minlandi, yosh avlodni qiziqtiradigan axborotlarni izlash, olish va yoshlar orasida tarqatish huquqidani foydalanashi uchun barcha shart sharoit yaratildi. 1996 yil 30 avgustida “Noshirlik faoliyati to‘g‘risida”gi [2] va “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi, [3] 1997 yil 24 aprelda “Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi [4] hamda “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi [5] 2003 yil 11 dekabrida “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, [6] 2002 yil 12 dekabrida “Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi, [7] O‘zbekiston Respublikasining qonunlari qabul qilinishi yoshlarning axborotlarni qabul qilish va ijtimoiy faollligini oshirishning huquqiy asoslarini mustahkamlashda muhim o‘rin egalladi. SHuningdek, 1998 yil 25 dekabrida “Reklama to‘g‘risida”gi, [8] 1999 yil 20 avgustida “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi[9] qonunlar ham mohiyatan ko‘p jihatdan ommaviy axborot vositalar faoliyatini takomillashuvini, samarodorligini ta`minladi. ularning barchasi fuqoralik jamiyatni sharoitida yoshlar hayotidagi muhim ijtimoiy voqelikka aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 3 iyuldagagi “Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni[10] mamlakat ijtimoiy hayotini demokratlashtirish va erkinlashtirish sharoitida yoshlarning zamonaviy axborotlarga bo‘lgan talab-ehtiyojlarini yanada to‘laroq qondirish, ommaviy axborot vositalari, noshirlik ishlari va matbaachilikni keng ko‘lamda rivojlantirishga ko‘maklashish, axborot xizmatlarining zamonaviy bozorini shakllantirish yo‘lida muhim rol o‘ynadi.

Ta`kidlash lozimki, mamlakatimiz yoshlari uchun muhim ahamiyat kasb etadigan imkoniyat, ya`ni so‘z erkinligi, ommaviy axborot vositalari sahifalarida chiqish, o‘z mustaqil fikri va e`tiqodini oshkora bayon etish huquqiga egaligi qaror topdi. YOshlar ijtimoiy faollligining oshishidagi muhim omillardan biri ularning o‘z ona tilida fikrlarini bayon qilish huquqiga ega bo‘lganligidir. Yoshlarda demokratik islohatlar ta`sirida individual xususiyatlar shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hodisalar, tushunchalarining vujudga kelishida ommaviy axborot vositalari asosiy o‘rin egallaydi. Bunday hollarda yoshlarning axborot olish madaniyatini yuksaltirish lozim, shuningdek islohatlar davomida yoshlar manfaatlarini demokratik tamoyillar bilan ham himoya qilinadi, rivojlantiriladi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Men, avvalambor, yoshlarimizga qarata aytmoqchiman: o‘qing, tarixni o‘rgananing, tarixini, o‘tmishini bilgan odam kelajakda adashmaydi”, - degan fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. [11]

Demokratik islohotlarning chuqurlashuvi sharoitida yoshlar ma`naviy, axloqiy dunyosiga, ayniqsa yoshlarga xorijiy mamlakatlar hududida joylashgan turli ommaviy axborot vositalari orqali o‘z salbiy ta`sirini o‘tkazishga intilayotgan “ommaviy madaniyat”, “terrorizm”, “diniy ekstremizm”, fundamentalizm kabi salbiy oqimlar, g‘oyalarning maqsadi, mohiyatini ilmiy asoslangan fikrlar bilan fosh qilish lozimligi yoshlar ma`naviy dunyosini yuksaltirishni, ularning islohotlar tizimidagi o‘rnidan dalolat beradi va ijtimoiy faollligini oshirish zaruriyatini tasdiqlaydi. Ta`kidlash lozimki, bunday holat bevosita mamlakatimizda huquqiy demokratik davlatning taraqqiyoti va fuqarolik jamiyatining qaror topishi, rivojlanishi, yuksalishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ommaviy axborot vositalari yoshlarning fuqarolik jamiyatidagi faolligiga ijobiy ta`sir ko‘rsatayotgan sharoitda, yoshlarni ma`naviy axloqiy dunyosiga ba`zi hollarda salbiy ta`sir qilayotgan mobil telefonlari, televizor ko‘rsatuvlar, sun‘iy yo‘ldoshlari orqali tarqatilayotgan axborotlar oqimi ko‘payganligini qayd qilish lozim. Axborotni tizimli tarqatishda er shari orbitasida 650 ta sun‘iy yo‘ldoshlar, 150 million ofislardagi va shaxsiy komp`yuterlar, 4,5 milliard mobil` telefonlari ishtirok etmoqda. Hozirgi davrda Xitoyda 500 milliondan, Rossiyada 50 milliondan, O‘zbekistonda 10,2 milliondan ortiq internetdan foydalanuvchi ro‘yxatga olingan. Global lashuvning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ijobiy va salbiy mazmundagi axborotlarning global tarmoqqa chiqishi uchun bir soniya kifoya qilmoqda. [12] Tizimli, muntazam axborotlar oqimi, yoshlar ongiga o‘zinging bevosita ta`sirini o‘tkazib ba`zi hollarda yoshlar vakillari orasida uchrayotgan axloqiy tanazzulga sabab bo‘lmoqda.

Ta`kidlash lozimki, zamonaviy komp`yuter texnikasi yoshlar orasidagi axloqiy barkamollik

shakllanishining muhim vositasi hisoblanadi. Chunki, yoshlar hozirgi globallashuv davrida tarqatilayotgan axborotlarning asosiy qismini kompyuterlar orqali qabul qiladi. Internet tizimi yoshlarning demokratik islohatlardagi faol ishtirokidan kelib chiqib, axborotlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondiruvchi, yoshlarga ijobjiy ijtimoiy, iqtisodiy mazmundagi harakatlarni bajarishga yordam beruvchi vosita rolini bajaradi. Yoshlar va internet orasidagi o‘zaro bevosita munosobat muayyan ijodiy muhitda ro‘y beradi. Yoshlar komp’yuter orqali olib borgan axborot almashinuvini, olgan axborotlar majmuini, jamiyat a`zolari bilan bo‘ladigan munosabati mazmuniga ko‘chiradi, undan faoliyati davomida samarali foydalanadi, ijtimoiy hayotida ijobjiy o‘zgarishlar yaratadi, kelajak ishlariiga doir mustaqil xulosalarni shakllantiradi, pirovard natijada bunday holat yoshlar ijtimoiy faolligiga o‘zining ijobjiy ta’sirini o‘tkazadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydag‘i “Komp’yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi Farmonni bajarish yuzasidan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida strategik vazifalarni amalgaga oshirishga doir chora-tadbirlarni ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyunda “Komp’yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. [13] Qarorda komp’yuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi tasdiqlangan bo‘lib, ushbu dasturda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan respublikada Internet tarmog‘ining milliy segmenti hamda telekommunikatsiyalar infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan, islohatlar tizimida uning amaliy ahamiyatiga ega bo‘lgan vazifalariga alohida e’tibor berilgan. Ushbu tarixiy ahamiyatga molik hujjatda ilmiy asoslangan axborotlarni tadbirkorlik subyektlariga, ta‘lim tizimiga, yoshlarning kundalik turmushiga singdirish vazifasi qo‘yildi, natijada mamlakatimizda yuksak texnologiyalarga asoslangan telekomunikatsion axborot tizimi rivojlandi.

Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi muhim omillardan biri telekommunikatsiya tizimi taraqqiyotiga e’tibor qaratildi, natijada teleko‘rsatuvlarning qabul qilinishi shaharlarda 100 foizni, qishloq rayonlarida 75 foiz hududni qoppladi. Respublikamiz telekommunikatsion tizimi rivojlangan mamlakatlar darajasida ekanligini ta‘kidlash lozim. O‘zbekistondagi xalqaro mintaqaviy va hududiy telekommunikatsion aloqalar tizimi 30 ta kanalga ega bo‘lib, dunyoning 180 ta mamlakatlariga bevosita chiqish imkoniyatlari mavjud, shu jumladan kosmik yo‘ldosh tizimlaridan samarali foydalanilmoqda. O‘zbekistonda internet foydalanuvchilar soni 2013 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 9,815 million, 2014 yilning oxiriga kelib, bu ko‘rsatkich 10,2 millionni tashkil qildi [14].

Globallashuv sharoitida internet axborot tizimi rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy turmush tarzini to‘liq egallagan. Ta‘kidlash lozimki,jamiyatni axborotlashuvi jarayonida internet ulkan axborot makoniga aylandi. Internet tizimi xizmatlarini rivojlantirish, takomillashtirish, ularni jahon standartlariga olib chiqishga urinish tufayli jamiyatni axborotlashtirishga mo‘ljallangan islohotlar amalgaga oshirildi, jumladan jahondagi yetakchi davlatlar tajribasi o‘rganildi.

Jahondagi rivojlangan davlatlar Internet tarmog‘i infratuzilmasi va kompyuterlashtirishni rivojlantirish, modernizatsiyalash bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu borada AQSH oldingi o‘rinlarda turadi, hozir bu davlatda aholining 70 foizi Internetdan foydalanadi. Yevropa hamjamiatida bu ko‘rsatkich 65 foiz bo‘lib, foydalanuvchilar soni bo‘yicha Buyuk Britaniya 27 foiz (6,4 mln. oila), Germaniya 20.7 foiz (7,1 mln. oila), Fransiya 12,1 foiz (3 mln oila)ni tashkil qiladi. Osiyo qit‘asida ham internetdan foydalanuvchilar soni oshib bormoqda. Yaponiyada 75 mln. aholi, 78 foiz yapon korxonalar global tarmoqqa ulangan. Gongkong, Xitoy, Hindistonda, Isroil kabi davlatlarda internet jadal sur’atlar bilan rivojlanayapti [15].

Mamlakatda demokratik taraqqiyot talablariga javob beradigan axborot sohasini jadal, izchil va erkin rivojlanishini ta‘minlaydigan qonunchilik asoslari yaratilgani, uning bozor mexanizmlariga monand ekanligi, moddiy-teknika bazasini mustahkamash bo‘yicha uzoq muddatli loyihibar amalgaga oshirilayotgani, ommaviy axborot vositalari faoliyatiga yangi texnologiyalar tadbiq etilayotgani, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash borasida salmoqli ishlar ko‘lami kengayganiligi, bu yo‘nalishda olib borilayotgan islohatlarning samarali natijasi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida axborot erkinligini ta‘minlash bo‘yicha kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalgaga oshirilishi natijasida media sohasi jadal rivojlandi, ayniqsa nodavlat ommaviy axborot vositalari soni ko‘paydi. Ommaviy axborot vositalari umumiyligi sonida nodavlat sektor ulushi 14,2% dan 78,2%gacha o‘sdi. Ommaviy axborot vositalari soni 2000 yildan 2016 yilgacha bo‘lgan davrda 4 barobardan ziyod oshdi [16].

Ommaviy axborot vositalari sohasida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha Davlat dasturining bosqichma-bosqich amalgaga oshirilishi davomida milliy ommaviy axborot vositalarini yuqori malakali yosh jurnalistlar bilan ta‘minlandi, bu esa tahririyatlar salohiyati, ularning global axborot makonidagi raqobatbardoshligini sezilarli ravishda oshirdi. Axborot sohasini demokratlashtirish borasidagi

dolzarb vazifalarini hal etishda fuqarolik jamiyatni institutlari faol ishtirok etmoqda, ularning faoliyati ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish, yoshlarning demokratik islohotlarjarayonlaridagi faol ishtirokini ta`minlashga xizmat qiladi. Jumladan, Oliy Majlisiga huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoatchilik fondi, Jurnalistlar ijodiy uyushmasi, Milliy elektron ommaviy axborot vositalari assotsiatsiyasi, Jurnalistlarni qayta tayyorlash xalqaro markazi faoliyat yuritmoqda. 2016 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda davlat ro'yxatidan o'tgan ommaviy axborot vositalari soni 1437 taga etdi. Shundan 690 gazeta, 300 jurnal, 96 tele va radiokanal, 332 veb-sayt hisoblanadi [17].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlanish Kontseptsiyasining qabul qilinishi jamiyat va davlatning yangi rivojlanish bosqichida demokratlashtirish va modernizatsiyalash, axborot sohasini liberallashtirish hamda so'z va axborot erkinligini ta`minlash jarayonlariga kuchli ta`sir qildi. Ommaviy axborot vositalarini to'rtinchisi hokimiyatga aylantirish, aholi siyosiy faolligini oshirish, yoshlarni siyosiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Konseptsiyaga muvofiq, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini yanada ta`minlash, ommaviy axborot vositalari mustaqilligi, iqtisodiy erkinligini mustahkamlash, axborot sohasiga bozor mexanizmlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan qonunchilik hujjatlarini qabul qilish bo'yicha keng miqqosli ishlar bajarildi. YOshlarning so'z erkinligiga oid konstitutsiyaviy huquqlarini to'liq amalga oshirish borasida qator tadbirlar ijtimoiy, iqtisodiy hayotga tadbiq etilmoqda. Natijada demokratik islohatlar chuqurlashuvi davrida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy mazmundagi axborotlar yoshlarning doimiy ehtiyojiga aylandi.

Ta'kidlash lozimki, yoshlarni muntazam suradta o'nlab telekanallar, radioeshittirishlar, gazetalar, jurnallar va internet orqali qancha zamona ommaviy axborotlarga ega bo'lishlaridan qat'i nazar zamona ommaviy axborotlarni kutib yashaydilar. Mustaqillik davrida, rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish borasida amalga oshirilgan huquqiy, tashkiliy tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashuv jarayonining kuchayishi, axborot almashinuvining kengayishi natijasida mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xodimlari faoliyatida ham tubdan sifat o'zgarishlari ro'y berdi, ya'ni tezkor va puxta ishlangan ma'lumotlarni o'z vaqtida iste'molchilarga uzatish, to'g'ridan to'g'ri ko'rsatuv va eshittirishlar tashkil etilishi, demokratik islohatlarning dolzarb masalalariga bag'ishlangan maqolalarning internet saytlarda, gazeta va jurnallar sahifasida muntazam e'lon qilinayotganligi ular faoliyati takomillashayotganligini ko'rsatadi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar aholisining Internetga bog'lanish, undan foydalanish darajasi ko'rsatkichlariga nisbatan O'zbekiston bu borada ham oldingi o'rnlardan birini egallagan. Ushbu yutuqlar ommaviy axborot vositalari faoliyatiga doir islohatlarning amalga oshirilganligi natijasida, yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda muhim omil rolini bajarayotganligi, ularning demokratik islohatlardi ishtirokini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, mustaqillik yillarda mamlakatimizda qo'lga kiritilgan tarixiy yutuqlar qatoriga milliy axborot tizimi taraqqiyotini ham kiritish lozim. Buning asosiy sababai demokratik islohatlardan kutilgan natijaga jamiyat a`zolarining axborotlarga bo'lgan qiziqishini, ehtiyoji ta`minlangan holda erishish mumkin. Fuqoralik jamiyatni rivojlanishi bevosita uning institutlari taraqqiyoti, faoliyati kengayishini taqozo qiladi. Ayniqsa, yoshlarning bozor iqtisodiyoti sharoitida, islohatlardi ishtirokinning kengayishi ham bevosita ommaviy axborot vositalari orqali olinayotgan axborotlar mazmuniga bog'liqdir. Bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy munosobatlarning modernizatsiyalashuvi axborotlar tizimi faoliyatining takomillashuvini, samaradorligini doimiy ta`minlashni talab qiladi. Bunday sharoitda ilmiy asoslangan axborotlarning fuqoralik jamiyatni taraqqiyotidagi o'rni muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Fuqoralik jamiyatni rivojlanishida asosiy yaratuvchilik vazifasini bajaruvchi kuch hisoblangan yoshlarning islohatlar ko'lamidagi bevosita va ongli ishtirokini vujudga keltirish, ta`minlash, kengaytirish, mehnat sifatini yuksaltirish, ularning ijtimoiy faolligi darajasiga ham bog'liqdir. Jamiyatning barcha jabhalari modernizatsiyalashuvi sharoitda ommaviy axborot vositalarining faoliyatini yanada takomillashtirish, samaradorligini ta`minlash davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalarining islohatlar mazmuni va maqsadlarini, ko'lamini, yoritish jarayonida yoshlarni faoliyatiga alohida e'tibor berayotganliklari, yoshlarning iqtisodiy soha, ijtimoiy tizimdagagi, nodavlat notijorat tashkilotlari ishidagi ishtiroki bilan demokratik islohatlarda faol qatnashayotganligidan va ularning ijtimoiy faolligi muntazam oshayotganligi belgisidir.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 1998 y. – 1-son, 10-modda; 2002 y., 9-son, 165-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 1996 y., 9-son, 137-modda; 2003 y., 1-son, 8-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2006 y., 28-29-son, 260-modda; 2011 y., 51-son, 542-modda; 2013 y., 1-son, 1-modda, 41-son, 543-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 1997 y., 4-5-son, 110-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 1997 y., 4-5-son, 108-modda; 2001 y., 1-2-son, 23-modda; 2015 y., 52-son, 645-modda.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 2004 y., 1-2-son, 10-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent., 2014 y., 36-son, 452-modda.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 2003 y., 1-son, 2-modda; 2015 y., 52-son, 645-modda.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 1999 y., 1-son, 14-modda; 2002 y., 9-son, 164-modda.
9. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, - Toshkent, 2011 y., 52-son, 557-modda.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 2002 y., 6-7-con, 119-modda.
- 11.Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish—eng oliy saodatdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – B. 117.
12. Muhammad Amin Yahyo. Internetdaggi tahdidlardan himoya. – Toshkent: Mavarounnahr, 2016. – B. 15.
- 13.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyun 200-sonli "Komp'yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. O'zR qonun hujjatlari Lexuz maъlumotlari milliy bazasi. www.lex.uz.
- 14.Toshkent shahrida tashkil etilgan «OAVning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar» mavzusidagi davra suhbat. 25.12.2015. http://www.daryo.uz
15. Bozorov M. Internetning ijobiliy va salbiy jihatlari. To'plam. Yoshlarni axborot-psixologik xurujlardan himoya qilish texnologiyalari: nazariya va amaliyat. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. – Toshkent, 2012. – B.289-290.
16. http://uz24.uz/society/sgnggi-10-yilda-gzbekistonda-bosma-oav-soni-15-barobarga-gsdi
17. www.api.uz-O'zbek matbuot va axborot agentligi.– 14 yanvar 2016 yil.

Н.Н.Кодиров

РОЛЬ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЁЖИ

В статье рассмотрены актуальные вопросы, связанные с ролью средств массовой информации в повышении социальной активности молодежи в условиях независимости. Автор изучил влияние участия молодежи в демократических реформах в связи с расширением деятельности средств массовой информации за годы демократических реформ. В работе сделана попытка исследовать роль средств массовой информации в социально-экономическом развитии и модернизации страны в контексте повышения социальной активности молодежи.

Ключевые слова: средства массовой информации, независимость, молодежь, реформа, социальная активность, гражданское общество, демократия, экономика, развитие.

N.N.Kodirov

THE ROLE OF MEANS OF MASS INFORMATION IN INCREASE SOCIAL ACTIVITY OF YOUTH

In article investigated pressing questions connected with a role of mass media in increase of social activity of youth in the conditions of independence. The author has studied influence of participation of youth in democratic reforms in connection with expansion of activity of mass media for years of democratic reforms. In work attempt to investigate a role of means mass media in social and economic development and country modernization in a context of increase of social activity of youth is made.

Keywords: mass media, independence, youth, reform, social activity, a civil society, democracy, economy, development.

UDK: 008.2(575.1)

SOG'LOM MA'NAVIY RAQOBAT – MILLIY-MA'NAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH
OMILI SIFATIDA
Sh.Sh.Negmatova

Samarqand davlat universiteti, dotsent

E-mail: shaxzoda-83@mail.ru

Annotatsiya. Muallif tomonidan ma'naviy raqobat tushunchasi mohiyatining olib berilishi maqolaning yangilik darajasini belgilab bergan. Shuningdek, maqola bayonida ma'naviy raqobatning obyekti, subyekti, asosiy xususiyatlari batafsil yoritilgan. Xulosa o'rnida, sog'lom ma'naviy raqobat muhitini shakllantirish va yoshlarni ma'naviy raqobatbardosh qilib tarbiyalash milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash omili ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, sog'lom raqobat, nosog'lom raqobat, mafkura, shaxs, ijtimoiy guruh, raqobatbardoshlik, milliy-ma'naviy xavfsizlik.

Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan so'ng, uning rivojlanishi yoki inqirozga uchrash sabablaridan biri sifatida odamlar, mehnat jamoalari, davlatlar o'rtasidagi har xil shakldagi raqobatlashuv jarayonlarini e'tirof etish mumkin. Tarixdan bizga ma'lumki, har qanday millat yoki xalqning tinch va osoyishta yashashlari uchun doimo turli to'siqlar, muammolar bo'lib kelgan. Iqtisodiy, harbiy jihatdan to'liq ustun bo'lgan davlatlar o'zidan kuchsiz davlatning hududlarini egallash, ularning boyliklariga egalik qilish va oqibatda o'z davlati sarhadlarini yanada kengaytirib ulkan davlat tuzishni maqsad qilishgani sir emas. Bunday maqsad yo'lida turli hiyla-nayranglardan ham, harbiy kurashdan ham foydalanilgan va egallangan hududning tub aholisi milliy urf-odatlari va qadriyatlarini, dinini yo'q qilishga urinib, o'zlarining dinini, urf-odatlari, tilini singdirishga harakat qilganlar.

Yuqorida fikrlarni keltirishimizdan maqsad shuki, hozirgi taraqqiy etgan, rivojlangan, sivilizatsiyalashgan XXI asrda ham bu kabi kurashlar boshqa ko'rinishlarda davom etmoqda. Faqat bugungi kunda bunday kurashlar tarixda bo'lganidek ochiq harbiy kuch ishlatalish yo'li bilan emas, balki inson qalbi va ongini egallahdek yashirin faoliyat ko'rinishida olib borilmoqda. Zero, "bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega" [1.113.]. Ya'ni, tashqi tahdidlarning xususiyati shundaki, agar harbiy, siyosiy yoki iqtisodiy tahdidlar amalga oshirilsa ularni sezish, ko'rish mumkin, ammo ma'naviyatga qarshi qilinishi mumkin bo'lgan va qilinayotgan tahdidlarni sezish, bartaraf etish o'ta murakkab hisoblanadi.

Ushbu jarayonlarning tub mohiyatini falsafiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, jamiyat hayotining barcha sohalarida shaxs, inson, ijtimoiy guruh, birlashma, uyushma, tashkilot va mamlakatlarning o'z ehtiyoj va manfaatlarini qondirish uchun o'zaro iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan raqobatlashayotganligining guvohi bo'lamiz. Masalan, bugungi kunda o'zbek xalqi o'zining milliy mafkurasi tamoyillariga to'liq amal qilgan holda, uning mustaqilligiga tahdid solayotgan har xil buzg'unchi g'oya va mafkuralar bilan kurash olib bormoqda. Bu esa mamlakat ichkarisida va tashqarisida ham o'zbek xalqining ma'naviy raqobatbardoshligini ta'minlash masalasini kun tartibiga qo'yemoqda. Bunday masalalar endilikda «raqobat» tushunchasining an'anaviy mumtoz «iqtisodiy qobiq»dan chiqib, yangi «falsafiy qobiq»qa kirganligini ko'rsatadi. Aslida, qadimdan raqobat masalasi ko'pgina mutafakkirlar, olimlar, jamoat va davlat arboblarining diqqatini o'ziga tortib kelgan. Natijada raqobatning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, u keltirib chiqargan ijobiy va salbiy oqibatlar haqida ko'plab ilmiy asarlar yozilgan bo'lib, ularda bir qator g'oyalilar, qarashlar, nazariyalar ilgari surilgan. Bularda, masalan, A.P.Gradov milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik determinantlari haqida fikr yuritar ekan, unga birinchidan, mamlakatning geosiyosiy joylashuvi va undagi ijtimoiy mehnat taqsimoti; ikkinchidan, tabiiy boyliklarning regional joylashuvi; uchinchidan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturalarning xarakteri; to'rtinchidan, hokimiyat tomonidan iqtisodiyotning qanday tarzda boshqarilishini kiritadi [2.120-124]. U raqobatni sof iqtisodiy mazmunda bayon qilishga harakat qilgan holda, masalaning ijtimoiy falsafiy tomonlariga e'tibor qaratmaydi. Professor M.V.Konotopov rahbarligida iqtisodiyot falsafasi va tarixini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda Amerika iqtisodchisi E.Chamberlin(1899-1967)ning «monopolistik raqobat» nazariyasini falsafiy jihatdan tahlil qilar ekan, unda ilgari surilgan «iqtisodiy odam» g'oyasini ma'qullaydilar[3.523.]. Biroq, monopolistik raqobat mahsuli bo'lgan «iqtisodiy odam»ning fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o'rni haqida nazariy va amaliy ahamiyatga molik bo'lgan takliflarni o'rta ga tashlamaydi. Xorijlik olim Porter E.Maykl: «Raqobat o'z o'zidan paydo bo'lmaydi. Raqobat har bir sohadagi iqtisodiy tuzilmalar tarkibida vujudga keladi. Bunga sotuvchi va xaridorlarning bozorda o'rnatgan hokimiyati sabab bo'ladi»[4.37-38.], deydi. Ammo mazkur ilmiy ishda ham raqobat faqat iqtisodiy foyda

olish nuqtayi nazaridan tahlil qilingan bo'lib, sog'lom raqobatni tashkil etish, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy jihatlari, ularning falsafiy tabiatni to'g'risida fikrlar bayon qilinmagan.

Moddiy, ya'ni iqtisodiy ishlab chiqarish bor joyda, ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni ham mavjud bo'ladi. Modomiki, ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni mavjud ekan, unda albatta, ma'naviy raqobat ham mavjuddir. Hayotning dialektik qonuni shuni taqozo etadi. Demak, iqtisodiyot va ma'naviyatning dialektik birligi, ma'naviyatning iqtisodiy hayotning mazmun-mohiyatini belgilash qonunidan kelib chiqqan holda ma'naviy raqobat tushunchasiga quyidagicha falsafiy ta'rif berish mumkin.

Ma'naviy raqobat deb, kishilarning o'zaro tabiat, jamiyat, inson vujudida sodir bo'layotgan narsa, hodisa va voqealarni tushunish, tushuntirib berish, yashashdan maqsadlarini belgilab berish, kun kechirish tashvishlarining echimini topish haqida axloqiylik yoki axloqsizlik, ma'rifat yoki jaholat, ezbilik yoki tubanlik qilishdan iborat bo'lgan g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, diniy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy qarashlarini shakllantirish, ularni targ'ib va tashviq qilish orqali muayyan ustunlikka erishish borasidagi xatti-harakatlariga aytildi.

Globallashuv jarayonlari keskin kechayotgan bugungi sharoitda ma'naviy raqobatning ob'yektini quyidagi uch turkumiga ajratish mumkin.

1. *Tabiatda sodir bo'layotgan narsa, hodisa va voqealar hamda ularning sir-asrorlarini ilmiy jihatdan o'rganish orgali yangi texnika va texnologiyalarni kashf etish, tabiatda ekologik muvozanatni tiklash va saqlash uchun inson aqli va qo'li bilan yaratilgan va yaratilayotgan moddiy narsalar.*

2. *Jamiyat hayotining barcha jabhalarida yuz berayotgan jarayonlar, xususan, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy globallashuv jarayonlarining tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligi, ayniqsa, dunyo aholisi o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikning kuchayib jamiyat taraqqiyotiga katta xavf tug'dirayotganligi, ijtimoiy-ekologik ziddiyatlarni ekofoblik va ekofillik asosida yechishga bo'lgan urinishlar, demografik portlash, energosfera infrastrukturalarini joylashtirish, transmilliy tahdidlar, ekstremizm, terrorizmga qarshi kurash, geoijtisodiy urushlar va ularning oldini olish, yangi dunyoviy tartibning shakllanishida milliy mustaqil davlatlarning o'rnini belgilash kabi bir qator o'zining yechimini kutayotgan masalalar ma'naviy raqobat obyekti aylanib ulgurdi.*

3. *Har bir odam, kishi, shaxs, individlarning moddiy va ma'naviy vujudida sodir bo'layotgan voqe va hodisalar, jarayonlar.* Masalan, hozirgi kunda ruhiy zo'riqishlar avj olayotgan bir davrda har bir odam, kishi, shaxs, individni bioijtimoiy mavjudot sifatida tez qarimasdan uzoq umr ko'rishini ta'minlash masalasini hal etishga qaratilgan «biologik soat», «gen muhandisligi», «hujayralarni eskirishdan himoya qiluvchi RD51D nomli »o'lmaslik molekulasi» deb nom olgan maxsus molekula, «klonlashtirish», «bionik ko'z» va shunga o'xshash yangiliklar, ularning ongsizlik va onglilik faoliyati, huquq va erkinliklar bilan qanday darajada ta'minlanganligi, mustaqil fikrlay olish qobiliyati, bilim olish va kasb-hunar egasi bo'lish, ish bilan ta'minlanganlik, turmush sharoitining darajasi, tevarak atrofdagi bo'layotgan voqealarga munosabati, jinoyat va jazo masalalarining hal etilishi kabilar ham ma'naviy raqobat obyekti sifatida o'ziga joy topgandir.

Ma'naviy raqobat subyektlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. *Odam, kishi, shaxs, individlar.* Chunki ular qanchalik bir birlariga tashqi tarafdan o'xshash bo'lmasinlar, o'zlarining fe'l-atvori, ichki dunyosi, fikrlash qobiliyatlari kabi bir qator xislatlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ana shu farq ularni ma'naviy raqobat subyektiga aylantiradilar.

2. *Ijtimoiy guruuhlar, jamoat tashkilotlari.* Bular o'zlarining oldiga qo'ygan maqsad-muddaolariga yetishda ustunlikni qo'lga kiritish uchun bir birlari bilan ma'naviy jihatdan raqobatga kirishadilar.

3. *Ma'muriy-siyosiy tashkilotlar.* Bular jumlasiga davlat hokimiysi organlari, davlat tasarrufidagi barcha tashkilotlar, ayniqsa, maktablar, o'cta maxsus litsey va kasb-hunar kollejlari, institut va universitet, akademiyalar ham ma'naviy tomonidan raqobatlashadilar.

4. *Xalqaro tashkilotlar.* Masalan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, BMT Jahon sayyohlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va shunga o'xshashlar. Bunday xalqaro tashkilotlar ham o'zlarining g'oya va mafkuralarining ustunligini ta'minlash uchun ma'naviy jihatdan raqobatlashadilar. Shuni unutmaslik kerakki, bizning mustaqil O'zbekistonimiz ham bir qancha xalqaro tashkilotlarning a'zosи sifatida birinchi navbatda tinchlik va barqarorlik, o'zaro foydali hamkorlik, tenglik g'oyalarini targ'ib va tashviq qilib, o'zga davlatlar bilan ma'naviy jihatdan raqobatlashmoqda.

I.A.Karimovning: «Yer yuzida qancha inson yashaydigan bo'lsa, barmog'ining izi ham, ichki dunyosi ham bir xil bo'lgan ikkita odamni topish, uchratish qiyin. Tabiiyki, bu insonlarning fikrlash va yashash tarzi ham bir-biridan farq qiladi. Ta'bir joiz bo'lsa, kimdir Rahmon izmida yursa, kimdir Shayton izmida yuradi»[1.23.], degan fikrlarini metodologik asos qilib olgan holda ma'naviy raqobat subyektlarini o'y-fikr yuritishi va shu asosda sodir etadigan xatti-harakatlariga qarab ikki – sog'lom va nosog'lom ma'naviy raqobatchilar turkumiga ajratish mumkin.

Sog'lom ma'naviy raqobat deb, shaxs, ijtimoiy guruh, jamoa, davlat muassasalari, nodavlat tashkilotlari, uyushma va madaniy-ma'rifiy birlashmalarning o'zaro olamni yovuz kuchlardan qutqazish maqsadida jaholat ustidan ma'rifiy g'oliblikni ta'minlash uchun halollik vaadolat, iymon va e'tiqod, tinchlik va tenglik, o'zaro hurmat va ishonch, yordam va foydali hamkorlik, teran aql, ilmiy bilim va amaliyot asosida sodir etadigan o'y-fikr va xatti-harakatlari aytildi.

Sog'lom ma'naviy raqobatga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarga:

- 1) *ochiqlik* va *oshkorlik*, ya'ni o'zining maqsad-muddaolarini hech kimdan yashirmaslik, sir tutilmasligi;
- 2) *ezgulikka yo'naltirilganlik*, ya'ni maqsadning faqat jamiyatni rivojlantirishga qaratilganligi;
- 3) *beg'arazlilik*, ya'ni o'y-fikrlar va sodir etilayotgan xatti-harakatlarning chin dildan yaxshilik uchun qilinayotganligi;
- 4) *do'stonalik*, ya'ni faqat o'zim emas boshqalar ham moddiy va ma'naviy ne'matlardan bahramand bo'lsin degan tarzda ish tutilayotganligi;
- 5) *halollik*, ya'ni xiyonat va g'irromlikdan xoli bo'lgan tarzda topilgan narsalar evaziga yashashdan ma'naviy ozuqa olayotganligi;
- 6) *insoflik*, ya'ni har bir ishni vijdon amri bilan bajarish, yuzaga kelgan muammolarni esa adolatlari vijdonan to'g'ri hal etishga qaratilganligi;
- 7) *ilmiylik*, ya'ni har bir kishining ilm-fanni chuqur o'zlashtirishlari asosida, ishning ko'zini bilib, puxta amaliy xatti-harakatlarni sodir etishga bo'lgan intilishlari kabilarni kiritish mumkin.

Nosog'lom ma'naviy raqobat deb, jahonda yakka hukmron bo'lishga intilayotgan katta moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan shaxs, ijtimoiy guruh, davlat va jamiyatlardan tashkil topgan yovuz kuchlarning o'zaro ma'rifatli olam ustidan g'oliblikni qo'lga kiritish uchun g'irromilik, aldoqchilik, vijdonsizlik, zo'rlik, qo'rqtish, o'g'rilik, qaroqchilik, ifloslik, ko'rnamaklik, tekinxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik kabilarga asoslangan kurashiga aytildi.

Nosog'lom ma'naviy raqobatga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarga:

- 1) *pinhoniylilik*, ya'ni o'zining maqsad-muddaolarini kishilarining nazaridan yashirgan, maxfiy, sir tutgan holda amalga oshirilishi;
- 2) *yovuzlikka yo'naltirilganlik*, ya'ni jamiyatni faqat yovuzlik bilan boshqarish asosida uni tanazzulga uchratishga qaratilganligi;
- 3) *g'arazgo'ylik*, ya'ni o'y-fikrlar va sodir etilayotgan xatti-harakatlarning o'zgalarning yutuqlarini ko'rolmaslik alamidan chiqish uchun qilinayotganligi;
- 4) *dushmanlik*, ya'ni faqat o'zim bo'lay deb, boshqalarga nisbatan g'animlik qilish uchun zararkunandalarcha ish olib borishga urinishlar;
- 5) *nopoklik*, ya'ni xiyonat va g'irromlik, firibgarlik, o'g'irlik, ko'rnamaklik, poraxo'rlik orqasidan topgan narsalari evaziga o'zini o'zi boy-badavlat, ko'z-ko'z qilib yashashdan shavq-zavq olayotganligi;
- 6) *diyonatsizlik*, ya'ni har bir ishni vijdonini sotish, yuzaga kelgan muammolarni esa insofsiz tarzda, shafqatsizlarcha hal etishga qaratilganligi;
- 7) *adolatsizlik*, ya'ni har bir ishni haqsizlik, adolatsizlik bilan hal etish evaziga g'oliblikni qo'lga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar sodir etayotganligi va shu kabilar doxil bo'ladi.

G'oyalar tarixini o'rganish, shuningdekkii, jahoning bugungi kundagi mafkuraviy manzarasini tahlil qilish ham g'oyalar kurashi va mafkuralar raqobati uzlusiz, muntazam davom etishini, ularning bari inson ongi va ong osti qatlamlariga, uning qalbi va ruhiga yo'l izlashini, bu kurashda odamlarning ma'naviy hayotini egallagan mafkura g'olib kelishini tasdiqlamoqda. Demak, geosiyosatda u yoki bu kuchning qo'li ustun kelishi tobora mafkura va ma'naviyat sohasiga bog'liq bo'lib bormoqda. Shuning uchun ular ma'naviy tanazzul va qashshoqlikni yoyish usulidan foydalanishni ko'zlaydilar. G'oyaviy-ma'naviy raqiblarimiz tomonidan axloqsizlik – shaxs erkinligi deb, behayolik - demokratiya tantanasi deb, targ'ib etiladi. O'zligini, o'z ma'naviyati va milliy g'ururini saqlab qolishga bo'lgan intilishlar muxoliflar tomonidan eskilikka yopishish, ozodlikni bo'g'ish, demokratiya taqchilligi deb talqin qilinadi.[5.3-4.]

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, raqobat jarayonida iqtisodiy hamda ma'naviy jihatlar doimo dialektik aloqadorlikda olib borilgandagina uning samarasini ijobjiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yoshlarimizni ma'naviy raqobatbardosh qilib tarbiyalash davrning ma'naviy tahdidlariga qarshi kurashishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar.

1. Каримов И.А. "Юксак маънавият – енгилмас куч". –Т.: Маънавият, 2008. 113-6.
2. Градов А.П. Национальная экономика. 2-е изд. –СПб.:Питер, 2007.- С.120-124.

3. Конотопов М.В. и др. История и философия экономики: пособие для аспирантов/под ред.д-ра экон.наук,проф.М.В.Конотопова.-2-е изд.,стер. –М.: КНОРУС, 2008.- С.523.

4. Портер Е. Майл. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов. Пер. С анг. – М.: Алпина Бизнес Букс, 2005.- С.37-38

5. Куров М. Маънавий таҳдидларга қарши курашнинг илмий-услубий ҳамда гоявий-мағкуравий асослари// “Маънавий таҳдидлар ва уларга қарши курашишнинг илмий-услубий ҳамда маънавий-мағкуравий асослари” мавзуидаги Республика илмий-назарий конференция материаллари. –Т.: ТИУНМБ, 2010. 3-4 бетлар.

Ш.Ш.Негматова

ЗДОРОВАЯ ДУХОВНАЯ КОНКУРЕНЦИЯ – КАК ФАКТОР НАЦИОНАЛЬНО-ДУХОВНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Статья раскрывает основы понятия духовной конкуренции, определяя степень новшества статьи. Так же автором освещены объект и субъект свойств духовной конкуренции. Основной вывод статьи – обеспечение среды для духовной конкуренции и воспитание молодёжи в духе конкурентоспособной, личности, гармонично-развитый.

Ключевые слова: духовность, здоровая и нездоровая конкуренция, идеология, личность, социальное общество, конкурентоспособность, национально-духовная безопасность.

Sh.Sh.Negmatova

HEALTHY SPIRITUAL CONTENTION – AS A FACTOR OF NATIONAL SPIRITUAL SAFETY

To open the essence conception by the author to contemplate the new level of article likewise, giving an account of the article subject, subject, is illuminated the main peculiarity of spiritual contention. In conclusion that healthy spiritual contention be emphasized the environment takes shape and compete the youth in spiritual courage and to protect national and spiritual courage.

Key words: spiritual, healthy contention, unhealthy contention, ideology, human, social group, compete, spiritual-national protection.

UDK: 1:174

SHARQ MUTAFFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA BOSHQARUV MADANIYATI VA KASB ODOBI MASALALARI

Yo.O.Ernazarova

O'zbekiston milliy universiteti, katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

E-mail: yo_o_e_2211@mail.ru

Annotasiya. Ushbu maqolada sharq mutafakkirlari ta'lomitida boshqaruv madaniyati va kasb odobi masalalari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kasb odobi, boshqaruv madaniyati, rahbarlik qobiliyati, kasbiy faoliyat, kasbiy mahorat, axloqiy fazilatlar.

Ma'lumki mamlakatimiz mustaqillikka erishgach boshqaruv tizimi va boshqaruvchining faoliyati sohalarini isloh qilish, boshqaruv madaniyati va kasb odobi masalalariga katta e'tibor qaratila boshlandi. Negaki, rahbar yuksak malakali, ma'nан barkamol va axloqan pok bo'lmog'i, boshqaruv madaniyatini kasb odobi bilan uyg'unlashtirmog'i lozim. Shundagina u o'z orqasidan xalqni ergashtira oladi, ezgu ishlarni amalga oshirishi uchun ularni ishontira oladi.

Boshqaruv madaniyati, kasb odobi masalalari qadimdan faylasuflar, chunonchi sharq mutafakkirlarining e'tiborida bo'lgan. Ideal rahbar haqidagi mulohazalar Firdavsiyning "Shohnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Imom G'azzoliyning "Dastur ul-muluk", Hiloliyning "Kitob ul-vuzaro", Yoqutning "Irshod", Shabushtiyning "Kitob ud-diyorat", Nizomulmulkning "Siyosatnomma", Kaykovusning "Qobusnomma", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Xondamirning "Dastur ul-vuzaro", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", "Anvori Suxayliy", Kosoniyning "Tanbehiu salotin" kabi asarlarida bayon etilgan.

Sharq Uyg'onish davrining mashhur mutafakkirlaridan biri Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida rahbarlarni qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi toifalarga ajratadi va ularning faoliyati tavsiflarini keltiradi. "Forobiy qarashlariga ko'ra, boshqaruvning ushbu ikki tarmog'iga xos xususiyatlarning aksariyati barcha turdagi rahbariyatga ham tegishlidir. Umuman, agar Forobiy bayon qilgan ushbu fikrlarni alohida rahbarga tegishli degan taqdirimizda ham, ular amaliy faoliyat yuritayotgan va o'z ishini takomillashtirishi zarur bo'lgan rahbarlarga qaratilganligini inkor qila olmaymiz. Qolaversa, rahbarlar o'z kasblariga xos xususiyatlarni amaliy jarayonlarda tezroq va chuquroq o'rganishlari rad etib bo'lmash aniqlikdir. Lekin

kasbiy xususiyatlар va boshqa jarayonlarni mukammal bilgan bilan rahbar bo‘la olmaslik ham shu darajada aniq hodisadir” [1].

Biz bu o‘rinda Forobiyning ijrochi rahbarlar faoliyatida o‘z lavozimiga loyiqlik, ya’ni layoqatlik borasidagi ayrim mulohazalarga to‘xtalib o‘tamiz. Allomaning ta’kidlashicha, “Istak bildirgan yoki shaxsiy manfaat uchun intilganlar emas, balki shu ishga o‘zini bag‘ishlagan kishilargina boshqaruv idoralarida faoliyat ko‘rsatishi lozim. O‘z faoliyati davrida ham, sardor o‘z nomi bilan sardor deb atalishi zarur, agar u boshqalarni bu san‘at (kasb)ga o‘rgatganidan so‘ng o‘z faoliyatidan voz kechsa ham u rahbar deb atalishiga sazovor bo‘lib qolishi kerak. Agar shunday bo‘lmasa u rahbar deb atalishga loyiqlik emas” [5].

Rahbar ijrochi sifatida o‘z funksiyasini amalga oshirish jarayonida muayyan ishni amalga oshirar ekan, avvalambor, uning mohiyatini bilishi bu ishning samarasini, natijasining ijobiy bo‘lishini ta’minlaydi. “...ijrochilar hukm va qarorlarni amalga oshirayotganlarida, amaliy jarayonlarda ular qo‘llanilayotgan obyektlar, jarayonlarning o‘zlariga yaxshi yoki yomon munosabatda bo‘ladilar. Shunday munosabatda bo‘lishi uchun esa o‘sha ayligan narsalarning mohiyatini, yaxshi va oliy sifatlarini, yomon va bema’ni xususiyatlarni bilishlari zarur. Bular ijrochilarning o‘z bilimlarini kamolotga yetkazishi, to‘g‘ri va haqqoniy boshqaruvi uchun kerak” [7].

Forobiy rahbarlarni kompenetli qilib tarbiyalashda rahbarlik qobiliyati bolaligidan bor bo‘lgan kishilarni tanlab olishini tavsija qiladi. “Nazorat qiluvchi idoralar rahbarlari yoshligidan boshlab bu ishlarda faoliyat ko‘rsatgan va shundan katta tajriba to‘plagan, ayni vaqtida zamoni bilan almashinayotgan voqyea-hdisalarga hushyor va ularning to‘g‘risida to‘g‘ri mulohaza yurita oladigan, shuningdek, vaqt vaqt bilan o‘z ustidan nazorat qiladigan, faoliyatini taftish qilib turadigan va davom ettirayotgan mashg‘ulotlariga qunt bilan qaraydigan bo‘lishi zarur” [6].

Mutafakkir bolaligidan rahbarlik qobiliyati bor kishilar har qanday vaziyatda ham aniq yo‘l tutishiga ishonadi. Aynan u rahbarlardagi tabiiy, sog‘lik, farosat, xotira, notiqlik, nafsiyi tiya olish, haqiqatni sevish, oliy himmatlilik, tabiatan odillik, qat’iyat va hosil qilinadigan fazilatlarga donishmandlikka intilish, avvalgi rahbarlarning o‘rnatgan qonun va tartiblarini bilishi, yangi qonunlarning joriy qilish, hozirgi havol va kelajadagi ishlarni payqay olish, notiqlik, harbiy san‘atni bilishi kabilarni muhim ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Forobiy mulohazalariga ko‘ra haqiqiy davlat uch narsa – fozil jamiyat,adolatli tuzum va odil rahbar asosida tashkil topadi va bu davlatning idorasida davlatning uchchala asosi o‘z o‘rnini va vaqt bilan teng ishtirot etadi. Ana shu uchchalasining o‘zaro muvofiqligi, maqsadga ko‘ra bir yo‘nalishdaligi va vazifa jihatidan aniq va haqiqatga qaratilgan xatti-harakati haqiqiy davlatning yuksak taraqqiyotini ta’minlaydi.

Yana bir alloma Yusuf Xos Hojib qarashlarida boshqaruv madaniyati va kasb odobi uyg‘un hodisa sifatida talqin etiladi. U Forobiyydan farqli ravishda rahbarlikni bosh rahbar va yordamchi rahbarlarga tasniflab, ularning xususiyatlarni ko‘rsatib beradi. Bosh rahbar quyisi rahbarlarni adolatli tarzda tanlab olishi, quyisi rahbarlarning tanlash jarayonidagi talablari ularning o‘z kasbini qay darajada bajara olishini ko‘rsatadi. Masalan, bosh vazir bir necha kasblarni bilsin, chunki u bir qancha sohalarni boshqaradi va ularni tushunishi lozim deydi. Alloma boshqaruv tizimida faoliyat ko‘rsatuvchi rahbarlarning o‘z kasbiy xususiyatlari ham borligini alohida ta’kidlaydi va bu bilan u agar rahbar o‘zi boshqarayotgan sohaning kasbini bilmasa uni mukammal boshqara olmasligiga ishora qiladi. Masalan, harbiy vazir jang olib borish taktilasining yaxshi bilsa-yu, kezi kelganda o‘zi jang san‘atini bilmasa, u o‘z sohani mukammal boshqara olmaydi. Yusuf Xos Hojib o‘z davridagi mayjud lavozimlar (hojib, harbiy vazir, eshik og‘asi, elchi, sarkotib, xazinador, dasturxonchi va h.) haqida gapirar ekan rahbar shaxsi qiyofasi masalasiga e’tibor qaratadi.

Boshqaruv bilan bog‘liq qator masalalar “Temur tuzuklari”da ham bayon etilgan. Chunonchi, vazir, beklar, amirlar, qozi, muftiy, muhtasib, sadr, qozikalon mansab egalarining xizmat qilish tuzigi, tartib va qoidalari aytib o‘tilgan. Masalan, vazir mansab darajasi amirlik mansabi bilan barobar va hatto ba’zan undan yuqoriyoq olib ta’riflanadi. “Tuzuklar”ning ikki bobo maxsus vazirlarini belgilashga bag‘ishlangan. Bu boblarning biri “Vazir tutish tuzugi”, ikkinchisi – “Vazirning xizmat kilish tuzugi” deb nomlanadi [3].

Amir Temur davlatni boshqarish vositalari haqida to‘xtalib, unda rahbarning o‘rnini va roliga alohida e’tibor qaratadi. Uningcha, rahbar davlatni boshqarishda to‘rt talabga amal qilishi lozim: 1) Kengash, 2) mashvaratu maslahat, 3) qat’iy qaror, tadbirkorlik, 4) ehtiyyotkorlik [4]. Mazkur to‘rt talab rahbarning faqatgina o‘zagagina bog‘liq bo‘lgan subyektiv hodisa bo‘lmashdan, balki muayyan ijtimoiy-siyosiy munosabatlardan iborat obyektiv shart-sharoitlar xamdir. Negaki, bu amaliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun davlat boshqaruvini rahbarning shaxsiy fazilatigagina bog‘lab qo‘yib bo‘lmaydi.

Hazrat Navoiyning mamlakatni boshqarish, odil hukmdor bilan bog‘liq g‘oya va mulohazalari uning “Xamsa” dostonlari, “Mahbub ul-qulub” pandnomasi, “Nazm ul-javohir”, “Tarixi muluki Ajam”,

“Munshaot”, “Vaqfiya” kabi asarlarida o‘z ifodasini topgan. Shohning mamlakat taqdirida, xalq xayotida tutgan mavqyei Navoiy tomonidan islomiy tushunchalar bilan bog‘langan, “Zilli ilohiy” (“Xudoning soyasi”) deb hatto ilohiylashtirilgan va shu ma’noda ma’lum darajada an’anaviy mazmunga ega. Navoiy – “Hayrat ul-abror” dostonining “Sultonlar haqidagi bob...”ida Xalq qo‘y galasi bo‘lsa, shoh ularni bo‘rilardan asrovchi cho‘pon (“shubon”), mamlakat bog‘ bo‘lsa, shoh shu boqqa ishlov berib, undagi mevali daraxtlarni sug‘orib, ularning qurishiga yo‘l qo‘ymovchi dehqon (bog‘bon)dir! – deydi [2].

Biroq, masalaning murakkab tomoni shundaki, shohlik mavqyeini egallagan hukmdorlar hamma vaqt ham o‘z burchlariga sodiq qolib, zimmasidagi vazifalarga izchil amal qilib, xalq va mamlakat manfaatlarini ko‘zlab ish tutavermaganlar, zulmga, talonchilikka yo‘l qo‘yanlar, maishatbozlikka berilganlar, adolat bilan el-yurtni boshqarish o‘rniga yomonlarni qo‘llab-quvvatlaganlar. Uning "Mahbub ul-qulub" asarida ushbu muammo talqiniga oid maxsus fasl ("Odil salotin zikrida") mavjud.

Navoiyning ushbu ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-axloqiy nuqtayi nazardan muhim masalaga doir qarashlari “Saddi Iskandar” dostonida asarning bosh qahramoni - Iskandar timsoli orqali ancha mukammal aks etgan deyish mumkin. Shuningdek “Hayratul-abror”da ham “Salotin bobida”gina emas, Husayn Boyqaro bilan bog‘liq boblarida, Badiuzzamonga nasihat qismida bu masalaning bir qancha muhim qirralari yoritilgan. “Farhod va Shirin”, “Sab’ai sayyor”da esa, uning axloqiy jihatlari an’anaviy tarzda namoyon etilgan. Masalan “Sab’ai sayyor”da Bahrom yurtniadolat bilan boshqarishga ahd qiladi, ammo keyin maishatga berilib, o‘z ahiddan chekinadi. Lekin unda mardlik va jasoratlilik fazilatlari ham borki, bu kabi xususiyatlar har qanday shoh uchun el-yurtini boshqarish va himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Buyuk donishmand Husayn Voiz Koshifiy asarlarida ham adolatli boshqaruv masalalari keng ko‘lamda yoritilgan. Jumaladan “Axloqi Muhsiniy” asarida odil shohlar, tadbirkor vazir va amirlar, sofdil mulozimlar haqida ajoyib ibratli fikrlar, nasihat o‘gitlar, shunga muvofiq qator rivoyatlar, hikoyatlar keltirilgan. Shukr, sabr, adab, oliyhimmatlilik, azmu iroda, jiddu jahd, adolat, saxovat, avf kabi axloqiy fazilatlar boshqaruv madaniyati va kasb odobining asosi ekanligi tahlil etilgan. Chunonchi, bu axloqiy sifatlarga podshodan tortib, oddiy mulozimgacha ega bo‘lishi, ammo shu bilan birga har bir mansab egasining mavqyei, salohiyatidan kelib chiqadigan vazifa va u taqozo etadigan axloqiy sifatlar mavjudligi haqidagi qarashlarida ham aks etadi.

Sharq mutafakkirlari ta'limotida ushbu masalaga xos umumiylig shundaki, boshqaruv madaniyatining asosi adolat, tadbirkorlik, ehtiyyotkorlik, notiqlik, qat'iyat, haqiqatparvarlik, kasb odobi esa halollik, insoniylik, farosat, nafsiyi tiya olish, oliv himmatlilik kabi axloqiy-falsafiy tushunchalar uyg'unligida namoyon etiladi. Bu xususiyatlar hyech bir davrda o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Bu esa sharq mutafakkirlari merosini zamonaviy nuqtayi nazardan tadqiq etish ehtiyojini keltirib chiqaraveradi.

Adabiyotlar.

1. Равшанов Ф. Миллий раҳбаршунослик: тарих ва тажриба. –Т. Академия. 2007. –Б. 68-69.
 2. Раҳбар ва ходим /муаллифлар жамоаси. –Т., Академия, 1997. –Б. 129
 3. Темур тузуклари. Форсчадан Алихон Соғуний ва Хайбулло Кароматов таржимаси. Faфур Гулом номидаги “Адабиёт ва санъат” нашриёти, Тошкент, 1991, 74-85 бетлар.
 4. Темур тузуклари. Форсчадан Алихон Соғуний ва Хайбулло Кароматов таржимаси. Faфур Гулом номидаги “Адабиёт ва санъат” нашриёти, Тошкент, 1991.
 5. Форобий Фозил одамлар шахри-Т., -Б. 20
 6. Форобий Фозил одамлар шахри-Т., -Б. 21
 7. Форобий Фозил одамлар шахри-Т., -Б. 26

Ё.О.Эрназарова

**ВОПРОСЫ КУЛЬТУРЫ УПРАВЛЕНИЯ
И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ В УЧЕНИЯХ
ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ**

Восточные интеллектуалы, преподающие в данной статье рассматриваются вопросы, связанные с культурой управления и профессиональной этики.

Ключевые слова: профессиональная этика, культура управления, лидерство, профессиональная деятельность, профессиональные навыки, моральных качеств.

Yo.O.Ernazarova

QUESTIONS OF MANAGEMENT CULTURE AND PROFESSIONAL ETHICS OF EASTERN THINKERS TEACHINGS

Eastern intellectuals teaching in this article describes issues related to the management culture and professional ethics.

Keywords: professional ethics, management culture, leadership, professional activity, professional skills, moral qualities.

UDK:301**OILA VA AVLODLAR TARIXINI O'RGANISHGA SOTSILOGIK YONDASHUV****S.M.Kalanova***O'zbekiston milliy universiteti, katta ilmiy xodim-izlanuvchi*E-mail: sabo_77@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada oila va avlodlar tarixini o'rganish uslublariga hamda avlodning jamiyatdagi va oiladagi vazifalari xususidagi faktik misollarga to'xtalib o'tiladi. Shuningdek, "avlod" tushunchasi kundalik hayotda, belletristik (prozaik) asarlarda va OAVda keng qo'llanilsa-da, ilm-fanda u qadar keng tarqalmaganligi, shu sababli ham unga tarix, xususan vatan tarixi sohasida qanchalik kam murojaat qilingan bo'lsa, sotsiologiya yo'nalishida ham ushbu mavzuda mamlakat miqyosida tadqiqot ishlari olib borilmaganligi kabi dolzarb muammolar ilgari suriladi. Atoqli sotsiologlarning avlodlar tarixi va undagi munosabatlarning tahliliga doir fikrlariga to'xtalib, "moddiy" va "ma'naviy" kategoriya hamda oila va nikoh, avlod munosabatlarida "sotsial" kategoriyalarning ahamiyati xususidagi fikrlari atroflicha ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: avlod, oila, oila-nikoh instituti, sotsial guruhlar, ijtimoiylashuv, davriy avlod.

Sotsiologiyaning tarmoq yo'nalishi sanalgan "Oila sotsiologiyasi" fanining tadqiqot ob'ektini, tabiiyki, birinchi navbatda oila va nikoh munosabatlari tashkil etadi. Bu fan tarmog'i oila instituti uchun xarakterli bo'lgan barcha sotsial munosabatlarni qamrab oladi va tahlil etadi. Jumladan,

- oilalarining soni va tarkibi, oila-nikoh institutining assosiy vazifalari;
- oilaning sotsial institut va kichik sotsial guruh sifatidagi xususiyatlari;
- nikoh va mavjud ajralishlarning sabablari;
- zamonaviy oilalarda kechayotgan mavjud rejalashtirish jarayonlariga turtki berayotgan obyektiv va subyektiv omillar;
- oilaviy nizolarni keltirib chiqaradigan sotsial muammolar va ularni bartaraf etish choratadbirlari;
- oila-nikoh munosabatlarining shaxsni jamiyat va ijtimoiy hayotdagi mavqesini belgilash, uning (shaxs) o'z-o'zini sotsial nazorat qilish va tartibga solib turishida oila instituti qadriyatlarining o'rni;
- oila-nikoh munosabatlarining rivojlanib borishida tarixiy shart-sharoit va an'analarning avlodlar o'rtasidagi vorislikka ta'siri va h.k. [1].

Oldinga qo'yilgan maqsad, ya'ni avlodlar tarixini sotsiologik tahlil qilar ekanmiz, amerikalik tadqiqotchi G.Millzning bu jabhada bildirgan fikr-mulohazasi diqqatga sazovorligini ta'kidlash mumkin: "YUqori malakali tarixchi yoki bo'lmasam biror bir sohadan hech qanday xabardor bo'lmagan kishi o'z o'tmishini esga olmoqchi bo'lsa, tabiiyki, o'tmishning mavjud dalillarini xotirada tiklamoq uchun, uni har kim o'zi egallagan bilimlarga asoslanib tahlil qiladi. Xotira va uning asosini tashkil etadigan qaysidir tushunchalar, mental stereotiplarning negizi hisoblanadigan andozali (qoliplashtirilgan) nazariya yoki mifologik mulohazalarni ta'sirli qilib bildirish, yoki ma'noli namoyon etish uchun, kishilar o'zlarining hayotiy tajribalariga tayanib, o'tmishning har bir daqiqasini "linza"da ko'rib turgandek tasvirlamoqchi bo'ladilar. Ma'jози (metafora) ma'noda keltirilgan ushbu "linza"ning yordamida olingen ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, u mavjud holatning ma'lum bir qismini aniq ifodasini tasvirlab berishi mumkin, biroq mavjud holatning aniq ifodasini beradigan "fokus" yo'qolishi mumkin [2].

Ma'lumki, tadqiqotchilar, xususan tarixnavis olimlar o'tmishni tahlil etishda ikki xil munosabat, ya'ni "madaniy yondashuv" va "sinfiy yondashuv" mavjudligini e'tirof etadilar. Xususan, tadqiqotchi Xobsbaum tarixda bo'lib o'tgan jarayonlarning tasnifini berishda "uzun XIX asr" va "qisqa XX asr" atamasini ishlataladi. Uning fikricha XIX asr jarayonlari bir xil ifodalangan holatda uzoq davom etdi. XX asr voqeliklari esa 1914-1985 yillar orqali o'z intihosiga etdi [3]. Aytish joiz, so'nggi yillarda yuz berayotgan hodisalar, ayniqsa internet axborot makoni tarix g'ildiragini yanada tez aylanishiga turtki berib yubordi.

Sotsiologiyada avlod tushunchasi turli avlovlarning xatti-harakatlarini, ularning boshqa avlodlardan farqini o'rganib, sotsiologik tahlil etish nuqtai nazaridan so'nggi yillarda muammo bir qadar chuqur yoritildi. Avlodbirlik sifatida sotsial (oila) sathida ham tavsiflanishi mumkin. Masalan, avlodning integratsiyalashtiruvchi belgilari sifatida sotsial, ya'ni yosh bilan bog'liq o'xshash xususiyatlar (yoshlar, qariyalar) hamda umumiy sotsial-tarixiy tajriba va taqdir ham ko'rsatiladi.

"Avlod" tushunchasi kundalik hayotda, belletristik (prozaik badiiy) asarlarda, OAVda keng qo'llanilib, ilm-fanda u qadar keng tarqalmagan. Shu sababli, unga tarix, xususan Vatan tarixi sohasida qanchalik kam murojaat qilingan bo'linsa, sotsiologiya yo'nali shida ham ushbu mavzuda mamlakat miqyosida tadqiqot ishlari olib borilmagan. Vaholanki, yozma manbalar vujudga kelgunga qadar mayjud biografik va tarixiy ma'lumotlar avloddan-avlodga vorislik asosida quyidagi formula asosida etkazilgan: "A dan V tug'ildi, undan esa S dunyoga keldi". Aynan ushbu formula esa individual va jamoaviy xotira hamda o'zlikni anglash mansublikni shakllantirib bordi. Avlod munosabatlarini tahlil etish, sotsiologiya sohasida O.Kont va J.Millarga tegishli bo'lib, ular avlodlar almashinuvini tarixni harakatga keltiruvchi kuch sifatida qaraydilar. Nemis sotsiologi V.Diltey shaxs ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) jarayonida yosh darajasi muhim ahamiyat kasb etishini biologik va sotsial omillar bilan bog'lab, uni quyidagi ko'rsatkichlarda olib qarashni tавсиya etadi: 15 yosh, 30 yosh va 33 yosh, aynan shu yosh ko'rsatkichlari yoshlikni belgilovchi davr bo'lib, undan keyin esa organizmda avlodning etuklik davridagi almashinuv jarayoni kechadi [4].

XX asrning o'rtalari va oxiri, ayniqsa XXI asr insoniyatning misli ko'rilmagan darajadagi o'zini namoyon etish asri bo'immoqda. Uning oldida sotsial, kasbiy mahorat, iqtisodiy, hududiy ko'rsatkich ko'لامи qisqa fursatda zabit etiladigan bo'lindi. Avloddan-avlodga asrlar mobaynida o'tib, sir saqlanib kelgan har qanday kasb turi, hohish tufayli arzimagan vaqtida sifatli o'zlashtirilishi, va hatto unga jiddiy o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Genealogik hujjatlar (shajara, nasabnomma) qaysidir avlodlarga uzoq davr katta "minbar" va "sahna"da turish imkonini bergen bo'lsa, zamонавија jamiyatda ushbu avlodlarning obro' va nufuzini keyingi vorislari ushlab qololmasliklari ma'lum bo'ldi. Agar, ko'chmanchi turklar, afrika va yoki arab qabila boshliqlari o'zlarining etti va undan ko'p ajododlarini nomma-nom sanab bergen bo'lsalar, hozirgi kunda ko'pchilik o'z buvasini, ayrimlargina buvasining buvasini kimligini aytib berishi mumkin.

Globalizatsiya tufayli migratsiya va urbanizatsiya jarayonlarining oshishi ham oilaviy munosabatlarni, ham avlod munosabatlarini chigallashtirib bormoqda. Oqibatda sotsiologiya va zamонавија tarixnavislikda "kogorot avlod" atamasi vujudga keldi. "Kogort" – bir kasbga ixtisoslashgan, maqsad va qiziqishlari bir tomonga yo'naltirilgan tengdosh kishilar guruhi. Sotsiumda esa bir avlod kishilari qatnashadigan bo'ldilar, bu esa o'z navbatida zamонавија avlodlarning o'zaro munosabatga kirishish chegaralarini mutlaqo uzaytirib yubordi. Masalan, mahalla faoliyatida yosh va o'cta yosh kishilarning qatnashmasligi, yoki ta'lim tizimida "kattalar ta'limi" (androgogika, geragogika)ning kamligi yoki umuman yo'qligi, maktablarda erkak o'qituvchilar sonining kamayib borishi va h.z.

Sotsiologlardan V.Diltey va M.Veberlar avlodlar tarixi va undagi munosabatlarni tahlil qilar ekanlar, insonlar hayotida "moddiy" va "ma'naviy" kategoriylar alohida ahamiyat kasb etishini isbotlaydilar. Keyinchalik E.Dyurkgeym, K.Mangeym va X.Ortega-i-Gassetlar oila-nikoh va avlod munosabatlarida "sotsial" kategoriyasining o'ta muhim ahamiyat kasb etishini yozadilar. Xususan, K.Mangeym "avlodlar ittifoqi" atamasini qo'llaydi. Ortega o'z asarlarida sotsiumdagi mavjud qadriyatlar va ularning avlodlar tarixida tutgan o'rnini tahlil etadi. U avlodlardagi biologik va sotsial o'zgarishlarning inson tanasida 15 yil "qadam" asosidagi miqdoriy o'zgarishlar bilan baholaydi, ya'ni 15-30 yosh - yoshlilik, 30-45 yosh-tashabbuslar davri, 45-60 yosh – "hokimiyatga bog'lanib qolish" davri [5].

Davriy nuqtai nazardan olib qaraladigan bo'linsa, avlodlar tarixini G'arbning individuallik va Sharqning jamoaviylik pozitsiyasidan turib tahlil etish XX asr sotsiologlari X.Bekker, X.Shuman, J.Skot, D.Kertser va T.Shaninlarning asarlarida o'z ifodasini topadi. Jumladan D.Kertser migrantsiya jarayonlarining avj olishi natijasida "avlodlar ajralishuvi" atamasini ishlatadi, X.Bekker ilmiy texnikaviy taraqqiyotdan kelib chiqib "avlodlar o'rtasidagi maqom (status) va kasblarning o'zgarishini e'tirof etadi. T.Shanin sho'rolar davri avlodlarini "urush va turg'unlik yillari avlodlari"ga ajratib tahlil etadi. Sho'ro tuzumi davrida ma'lumki, kollektivlashtirish davri, qatag'onchilik davri, urush yillari

davri, keyinroq esa 60-yillar “shestidesyatniki”, 70-yillar yoki “turg‘unlik yillari”, hamda 80-yillarning ikkinchi yarmidagi “qayta qurish” davri avlodlari va ularning dunyoqarashlari to‘g‘risida fikr-mulohazalar bildiriladi [6].

Har bir davrning ruhini shartli ravishda “taqdir” bilan qiyoslasa bo‘ladi, deydi M.Xaydeger. Qaysidir bir avlod ma’lum bir davrda yashab, o‘zining baxtli o‘tmishi bilan faxrlansa, yana qaysidir bir boshqalari, o‘z o‘tmishlaridagi achchiq qismatni esga olishni ham istamaydilar. Lekin, unutmaslik kerak, baxtli davrni ham, o‘sha achchiq qismatlar davrining “ijodkor”lari ham shu davrga mansub avlodlar bo‘ladilar. Bizning fikrimizcha, tarixiy davrning baxtli yillari yoki achchiq qismatli bo‘lishiga asosan shu davrning yetuk avlodlari sababchi bo‘ladilar.

Avlod va oila o‘rtasidagi davriy yondashuv sotsial ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv vakillari asosiy e’tiborni oila mustahkamligi, yoki, aksincha, uni zaiflashtiruvchi holatning ichki mazmuniga emas, balki uning davriy rivojiga qaratadilar. Bunday qarashga ko‘ra; a) oila hayotining ma’lum bir davrida beqarorlik omillari yashirin ko‘rinishda bo‘ladi; b) boshqa bir davrida bu kabi omillar oila a’zolari tomonidan anglanadi, lekin ular shunchaki noqulaylik deb baholanadi va ular bilan kelishib ketadilar; v) nihoyat, beqarorlik omillari sifat jihatdan boshqa mazmun kasb etadi va oilani izdan chiqaradigan sabablarga olib keladi [7].

Albatta, oila hayotidagi beqarorlik holatlarini davrlashtirish muammoni oydinlashtiradi, ammo barcha savollarga javob bera olmaydi.

Avlodlar almashinuvini jadallahishiga turtki berayotgan zamonaviy omillar: INTERNET tarmog‘ining ijtimoiy hayotga jadal kirib kelishi; aholining migratsiya jarayonidagi ishtirokining faollashuvi; mamlakatlarning globallashuv jarayonida umumiyligi ishtiroti; dunyo yoshlaringin jadal sur’atlarda ingliz tilida muloqot qilishga o‘tib borishi; avlodlar almashinuvida mansublik (identichnost) masalalari. Rossiyalik tadqiqotchi B.Dubin “avlod” tushunchasi to‘g‘risida quyidagi fikrni bildiradi: “Umumiy dastlabki nigoh bilan qarashda avlodni sotsial aloqaning shakli va harakatdagi individlar ramziy birdamligining fokusi sifatida tasavvur qilish mumkin: bunda sen (men) boshqalar, ya’ni, xuddi “o‘zing” singarilar bilan gorizontal o‘q bo‘yicha hayolan birdek ko‘rinishning me’yoriy chegarasini tashkil etayotganini his qilamiz” [8]. Bunda sotsiologik qoidalar asosida “avlod” kategoriyasi va uning chegarasi to‘g‘risidagi tasavvurlarning ko‘rsatkich birligini ajratib ko‘rsatish lozim bo‘ladi.

“Avlod” kategoriyasi va chegarasi to‘g‘risidagi tasavvurlar ko‘rsatkichi: Bir avlod o‘z o‘rnini ikkinchisiga bo‘shatib berayotganda, u bilan birqalikda faoliyat yuritgan sotsiomadaniy me’yorlar, aniqrog‘i bir necha yondosh avlodlarni davriy birlashtirib turgan umumiyligi ramzlar hamda ramziy ifodalar ham eskiradi. Bu xususda nemis sotsiologi K.Mangeym shunday yozadi: “Har bir avlodning o‘z vaqt o‘lchovi va tarixiy-madaniy makoni mavjud. Jamiyatda avlodlar almashinuvi – inson hayotining biologik sur’atiga asoslangan universal jarayon sanaladi. Uning natijasida madaniy makonda yangi ishtirokchilar paydo bo‘ladi, bu makonning eski aktor (ishtirokchi)lari esa sekin-asta yo‘qolib boradi; istalgan avlod a’zolari tarixiy jarayonning xronologik cheklangan bo‘lagida harakat qila oladi va shuning uchun to‘plangan madaniy merosni keyingilarga tinimsiz uzatib borish lozim” [9].

Vorislik– sotsial voqe’lik sifatida: “Vorislik umrini yashab bo‘lgan eski va eskining bag‘rida kurtak otib kelayotgan yangi o‘rtasidagi muhim aloqadorlik shaklidir. Bu jarayonda eski batamom inkor etilmaydi, balki undagi ayrim xususiyatlar yangida o‘zining takomillashgan va mukammal shaklida takror paydo bo‘ladi”.

Vorislikdagi sotsial hamjihatlikka oid mulohazalar: “Zamonaviy jamiyatda yoshlari muammosining ikki jihat mavjud: yoshlari biz (jamiyat)ga nima berishi mumkin va yoshlari biz (jamiyat)dan nimani kutishi mumkin”? Bizning davrimizda internet tarmog‘iga muttasil bog‘lanib qolgan yosh avlod kitob, gazeta va jurnallar “shaydosi” bo‘lgan katta avlod bilan qanchalik sotsial aloqadorlikda bo‘la oladi? Bugun ingliz tilini mukammal o‘zlashtirib borayotgan bolakaylar 10-15 yil o‘tib ijtimoiy hayotga kirib kelgach, shu vaqtida 50-60 yoshda bo‘lgan aholi qatlami (masalan, ziyoli kishilar guruh) bilan dunyoqarashda vorisiylik bo‘lishi mumkinmi? XX asrning o‘rtalari va oxiri, ayniqsa XXI asr insoniyatning misli ko‘rilmagan darajadagi o‘zini namoyon etish asri bo‘lmoqda. Uning oldida sotsial, kasbiy mahorat, iqtisodiy, hududiy ko‘rsatkich ko‘lamni qisqa fursatda zabit etiladigan bo‘lindi. Avloddan-avlodga asrlar mobaynida o‘tib, sir saqlanib kelgan har qanday kasb

turi, xohish tufayli arzimagan vaqtida sifatli o‘zlashtirilishi, va hatto unga jiddiy o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin. Genealogik hujjatlar (shajara, nasabnomma) qaysidir avlodlarga uzoq davr katta “minbar” va “sahna”da turish imkonini bergen bo‘lsa, zamonaviy jamiyatda ushbu avlodlarning obro‘ va nufuzini keyingi vorislari ushlab qololmasliklari ma’lum bo‘ldi.

Avlodlar taqdiri va qismati: Davriy nuqtai nazardan olib qaraladigan bo‘linsa, avlodlar tarixini G‘arbning individuallik va Sharqning jamoaviylik pozitsiyasidan turib tahlil etish XX asr sotsiologlari X.Bekker, X.Shuman, J.Skot, D.Kertser va T.Shaninlarning asarlarida o‘z ifodasini topadi. Jumladan D.Kertser migratsiya jarayonlarining avj olishi natijasida “avlodlar ajralishuvi” atamasini ishlataldi, X.Bekker ilmiy texnikaviy taraqqiyotdan kelib chiqib “avlodlar o‘rtasidagi maqom (status) va kasblarning o‘zgarishini e’tirof etadi. T.Shanin sho‘rolar davri avlodlarini “urush va turg‘unlik yillari avlodlari”ga ajratib tahlil etadi. Sho‘ro tuzumi davrida ma’lumki, kollektivlashtirish davri, qatag‘onchilik davri, urush yillari davri, keyinroq esa 60-yillar “shestidesyatniki”, 70- yillar yoki “turg‘unlik yillari” hamda 80- yillarning ikkinchi yarmidagi “qayta qurish” davri avlodlari va ularning dunyoqarashlari to‘g‘risida fikr-mulohazalar bildiriladi. Har bir davrning ruhini shartli ravishda “taqdir” bilan qiyoslasa bo‘ladi. Qaysidir bir avlod ma’lum bir davrda yashab, o‘zining baxtli o‘tmishi bilan faxrlansa, yana qaysidir bir boshqalari, o‘z o‘tmishlaridagi achchiq qismatni esga olishni ham istamaydilar. Lekin unutmaslik kerak, baxtli davrni ham, o‘sha achchiq qismatlar davrining “ijodkor”lari ham shu davrga mansub avlodlar bo‘ladilar. Bizning fikrimizcha, tarixiy davrning baxtli yillari yoki achchiq qismatli bo‘lishiga asosan shu davrning yetuk avlodlari sababchi bo‘ladilar.

Mustaqillik avlodlari: O‘zbekiston sharoitidan kelib chiqsak, mamlakatning mustaqillikni qo‘lga kiritganiga 23 yildan oshdi. Avlodlar orasidagi farqni beradigan darajani 10-12 yil muddatli “qadam” bilan o‘lchasak, bugun biz ikkinchi avlodning faoliyatini kuzatishimiz mumkin. Birinchi avlodni “o‘tish davri” bilan, ikkinchi avlodni esa “globallahuv va axborotlar asri” ta’siridagi “avlod” sifatida tasavvur qilish mumkin. Jamiat doim rivojlanishda ekan, bizning xohishistaklarimizni ba‘zi vaqtida har doim ham to‘liq namoyon etmaydigan yangi avlod shakllanib boraveradi. Biz ham o‘z ota-bobolarimiz singari “hozirgi bolalar butunlay boshqacha, bizning vaqtimizda hammasi o‘zgacha edi” – deb qolaveramiz. Bir avlod ichidagi avlodlararo ziddiyatlar ular o‘rtasidagi sotsial aloqalarni buzilishi yoki mustahkamlanishi omili bo‘lishi mumkin. Kattalarning yosh avlodga salbiy munosabati va ular o‘rtasidagi ziddiyat qadim davrlardan mutafakkirlarning diqqatini jalb etib kelgan. Masalan, Sokrat o‘z zamonasi yoshlarining yomon odatlari, kattalarni hurmat qilmasligi, ota-onalari bilan gap talashishi, o‘qituvchilarni azoblashidan noligan. Avlodlar o‘rtasidagi ziddiyatlar ko‘plab badiiy asar va pedagogikaga oid risolalarda tasvirlab berilgan. Shunday bo‘lsa-da, avlod kategoriyasi va uning sotsial dinamikasini tadqiq etish zarauriyati bugungi milliy sotsiologiya oldiga muhim dolzarb vazifalarni yuklaydi.

Adabiyotlar

- Бурова С.Н. Социология семьи и брака. / Социология. Мн., 1998. – С 399-345.
- Mills G.W. Power, Politics and People. N.Y., 1963.P.406.
- Қаранг: Шанин Т. История поколений и поколенческая история. С. 18-19.
- Дилтей В. Введение в науки о Духе. М.: 2000. С.180.
- Дюргейм Э. О разделении общественного труда. М., 1996. Манхейм К. Консервативная мысль: // Диагноз нашего времени. М., 1994. С-572-671. Ортега-и-Гассет Х. Вокруг Галилея: Избр. Труды. М., 1997. С. 233-403
- Шанин Т. Революция как момент истины. 1905-1907-1917-1922 гг. М., 1997., Фитцпатрик Ш. Сталинские крестьяне. Социальная история Советской России в 30-е годы: Деревня. М., изд-ва 2001.
- Голофаст В. Б. Порядок распределения функций и напряженность в семье (теоретический аспект) // Динамика изменения положения женщины в семье. - М., 1992, с.48.
- Дубин Б. Поколение: смысл и границы понятия. / В кн: Отцы и дети: Поколенческий анализ современной России. М.: Новое литературное обозрение, 2005. – С. 64.
- Мангейм К. Идеология и утопия. М.: ИННОН, 1976. С.90.

С.М.Каланова

**СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К
ИЗУЧЕНИЮ ВОПРОСОВ СЕМЬИ И
ИСТОРИИ**

В данной статье освещаются методики изучения вопросов семьи и истории поколений, также предоставляются фактические примеры ответственности поколений в обществе и семье. Несмотря на то, что понятие "поколение" широко используется в повседневной жизни, белатристических (прозаических, художественных) произведениях и СМИ, в науке оно не распространены, в данной связи в статье выдвигаются актуальные проблемы малоизученности данного понятия как в истории, в особенности истории Родины, так и недостаточности широкомасштабных исследований в области социологии. Рассматриваются точки зрения ведущих социологов относительно истории поколений и их отношений, категорий "материалный" и "духовный", семья и брак, "социальные" категории в родственных связях.

Ключевые слова: поколения, семья, институт семьи-брачка, социальные группы, социализация, поколения времен.

S.M.Kalanova

**THE SOCIOLOGICAL APPROACH TO
THE STUDY OF FAMILY ISSUES AND
THE HISTORY OF THE DESCENDANTS**

This article deals with methods of study family issues and the history of generations, it is also provided actual examples of generations of responsibility in society and the family. Despite the fact that the concept of "generation" is widely used in daily life, novelistic (prose, art) works and the media, in science, it is not common, in this regard, article put forward urgent problems insufficiently explored this concept in history, especially the history of the motherland and the failure of large-scale research in the field of sociology. We consider the point of view of leading sociologists on the history of generations and their relationships, the category of "material" and "spiritual" marriage and family, "social" category in kinship.

Key words: generation, family; Institute of family marriage, social groups, socialization, generation gap.

UDK: 981.709

OMON MUXTORNING “FFU” ROMANIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI AN’ANALARI

Sh.Davronova

Buxoro davlat universiteti, katta ilmiy xodim-izlanuvchi

Annotatsiya. Maqolada istiqlol davri o‘zbek romanlariga xos xarakterli xususiyatlar hamda ularda Sharq xalqlari og‘zaki ijod an’analaring sintez qilinishi masalasi xususida OmonMuxtoring “Ffu” romani misolida so‘z yuritiladi. Ijodkor haqqoniylar xarakterlar yaratish, qiziqarli sujet chizig‘i hamda betakror badiiy shakllar hosil qilishda folklor an`analaridan ijodiy foydalandi. Asarda xalq og‘zaki ijodi namunariga xos hayotbaxsh an’analor badiiy sintez qilingan.

Kalit so‘zlar: roman, Sharq xalqlari og‘zaki ijodi, adabiy an’ana,adabiy ta’sir, adabiy sintez.

Istiqlol davri o‘zbek adabiyotida xalqning o‘zligiga qaytishi, ma’naviy olamida yuz bergan o‘zgarishlar, milliy an’ana va qadriyatlar ifodasi masalasiga alohida e’tibor qaratildi. “Bugungi ijodkor o‘z haqiqatini topishga, uni muqobil badiiy shakllarda ifodalashga intilmoqda. Odatda, ko‘ngildagi haqiqatni xalq dildagi haqiqat bilan uyg‘unlashtirish, aniqrog‘i, ijtimoiy haqiqat oqimidan o‘z haqiqatini topish va uni badiiy-falsafiy talqin etish to‘lg‘og‘i qiyin kechadi. Shu bois, turli janrlarda, ayniqsa, romanchilikda tajribalar qilish badiiy ijodning bosh tamoyiliga aylanib bormoqda. Bu esa yaxshi tamoyil” [1]. Ayni jarayonlar xalq qalbiga yaqinroq borish, uning ruhiyatini chuqurroq anglash imkoniyatlarini ochdi. Ijodkorlar oldida folklor asarlarini chuqur o‘rganish, ularga xos sodda, ravon, shuningdek, teran va sermazmun haqiqatlarning mohiyatini ochishga intilish, bunday namunalar imkoniyatlarini o‘rganish zarurati tug‘ildi. Natijada o‘zbek adabiyotida xalq ertaklari, dostonlari, afsona va latifalari ruhida yozilgan, ularga xos hayotbaxsh an’analarni badiiy sintez qilgan namunalar dunyoga keldi. Ushbu xususiyat roman janrida yanada yaqqolroq ko‘zga tashlandi.

Ijodkorlar chinakam hayotiy, haqqoniylar xarakterlar yaratish uchun xalq og‘zaki ijodi boyliklaridan ijodiy foydalandilar.Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, Shoyim Bo‘tayevning “Qo‘rg‘onlangan oy”, Omon Muxtoring “Ffu”, Erkin A‘zamning “Shovqin” romanlari fikrimizga dalil bo‘la oladi.

Omon Muxtoring “Ffu” romanida xalq og‘zaki ijodi an’analari badiiy sintez etilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Adib asarni rivoyat-roman deb ataydi. Haqiqatan, roman sujeti ertaklar, rivoyatlarning sujetiga o‘xshab ketadi. Ma’lumki, rivoyat - “Biror tarixiy hodisa yoki kechmish voqeani fantastik tarzda tasvirlovchi asar” [3]. Aynan shunday nomlanish ham adibning xalq rivoyatlariga xos xususiyatlarni chuqur o‘rgangan va romanda badiiy shakl tanlashda ayni shu xususiyatlardan foydalanganligini ko‘rsatadi. Ijodkor asar voqealarini o‘tmishdan tanlaydi va “Bu yozganim barchasi – eski gap”, degan izoh bilan romanni boshlaydi. Asar muqaddimasidan so‘ng esa “O‘tgan zamonda, o‘zimiz tomonda, - bir viloyat bor; viloyat shaharlaridan birida – katta bozor (Shahrisabz bozorini eslaysizmi, G‘ijduvon bozorinimi!?) – lekin u xuddi hovuz; chuqurlikda joylashgan; bu yerga atrof tepaliklardan odamlar tushib kelishar edi” [2]. Voqealar ro‘y berayotgan joy tasvirining o‘ziyoq kitobxonga qaysidir tarixiy maskan haqida gap ketayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Ayni paytda ushbu joyning mavjudligi real haqiqat bo‘lmagani holda ijodkor uni “o‘zimiz tomonda” deb izohlaydi. Demakki, romanda rivoyatlarga xos bo‘lgan uzoq o‘tmishga oid haqiqatlar haqida oydinlashtirga qaratilgan janriy xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Qolaversa, ijodkor bozor haqidagi ma’lumotlarni yanada oydinlashtirish maqsadida uni G‘ijduvon yoki Shahrisabz bozorlariga o‘xshashligini ham ta’kidlaydi, ya’ni adibning ushbu pozitsiyasi kitobxonda o‘tmish, tarix haqida so‘zlayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Ammo asar voqealarini yozuvchi fantaziysi hosilasidir. Muallifning roviyona uslubdagi hikoyasi ham romanning rivoyat-roman deb atalishini asoslaydi. Yuqorida keltirilgan parchadan ko‘rinyaptiki, asardagi zamonda-tomonda, bor-bozor kabi so‘zlar ohangdoshlik, qofiyadoshlik kasb etgan holda xalq ertaklari tiliga xos bo‘lgan sa’j san’ati asosida tizilgan.Roman qahramonlari ham o‘tmish davr odamlarini eslatadigan belgilarga ega. Romandagi Haydar Maxsum, Mulla Toshpo‘lat kabi obrazlar chinakam o‘zbekona xarakteri, qiyofasi, ma’naviy olami bilan yodda qoladi. Qahramonga Mulla deb murojaat qilinishi ham uni mashhur xalq qahramoni Mulla Nasriddingga yaqinlashtiradi. Haydar Maxsum obrazining esa o‘zidagi ichki sezgi, noyob iqtidor bilan insonlarni o‘ylantirayotgan, chorasiz ahvolga solib qo‘ygan muammolarni anglab olish qobiliyatiga egaligi diqqatni tortadi.

“Ffu” romanida bozorda “Barcha yoymachilardan chetda, qo‘qon do‘ppini qiyshiq qo‘ndirgan chuvak yuzli bir kishi eski po‘stak ustida o‘tirar; uning oldida sotadigan hech vaqo ko‘rinmas edi!”, deb Haydar Maxsum timsoli tasvirlanadi. Eng avvalo, qahramon ajabtovurligi, risoladagidek odamlardan farq qilishi bilan o‘quvchi e‘tiborini tortadi. Bir qarashda folklor asarlaridagi hajviy qahramonlarni eslatuvchi ushbu personajning yana bir diqqatni o‘ziga tortadigan jihatni uning sir-sinoatga to‘la ko‘rinishidir. U Mulla Toshpo‘latga aqlini sotadi. Mulla Toshpo‘lat esa uning aqlini o‘g‘li uchun sotib oladi.

Ammo adib asar so‘ngida qahramonning haqiqiy qiyofasini, oddiy insonlarga xos xarakterga ega bo‘lgan belgilarni ochib ko‘rsatadi. Uning ushbu ko‘rinishi esa bozordagi hech vaqo sotmasdan yoymachilardan chetda turib, hammani hayratga solgan ko‘rinishiga mutlaqo teskari edi: “Men afsungar ham, avliyo ham emasman! Oz-moz ilmim bor; uning ham foydasi yo‘q... Beshta qiz chiqardim; o‘zi bo‘lmas ekan! Mening aqlim ham haminqadar! O‘g‘lingizga duodan nimadir tegib, nimadir mos kelgani – tasodif. Xudoning irodasi! Balki, xudo mening nolamni eshitgandir.?? Biz g‘ariblarmiz, gadolarmiz! Bu dunyoda tagi-polarmiz! Hech qachon kosasi oqarmagan... Axir o‘ylamaysizmi, aqlim ish bersa, men shunchalik qashshoq yasharmidim?! O‘zimga en bo‘lomagan sizga bo‘y bo‘lamanmi?!” [2].

Ma’lumki, folklor asarlarida afandi timsoli ijtimoiy muammolar xarakteridan kelib chiqib, bir necha qiyofalarni o‘zida namoyon etadi. Afandi - hazilkash, afandi - tanqidchi, afandi - masxaraboz, afandi - merov, afandi - donishmand ko‘rinishlari jamiyatdagi munosabatlar tartibi, muammo va kamchiliklari haqida muayyan tasavvur hosil qilishga ko‘mak beradi.

“Ffu” romanidagi Mulla Toshpo‘latda afandi merovlik belgilari, Haydar Maxsumda esa afandi donishmandlik xususiyatlari yuz ko‘rsatgan. Chunki Mulla Toshpo‘lat aql bozorda sotilmadigan, moddiy qimmatga ega bo‘limgan tushuncha ekanligini anglay turib ham Haydar Maxsumning gaplariga ishonadi va undan umid qila boshlaydi. Uning xarakterida oddiy xalqqa xos ishonuvchanlik, soddalik, qolaversa, sarguzashttalablik belgilari ochiq-oydin namoyon bo‘ladi. Mulla Toshpo‘lat o‘g‘lini risoladagidek odamlar qatoriga kirishi, uning tarbiysi uchun aniq amaliy chora-tadbirlar ko‘rish o‘rniga sehr-jodu, duoning kuchiga tayanishni afzal deb biladi. Har bir aql sotib olishlar natijasi o‘g‘lida behad kutilmagan va katta o‘zgarishlarni yuzaga chiqarishi, balki Haydar Maxsum taxmin qilganidek, tasodif bo‘lishi mumkindir, ammo Mulla Toshpo‘lat qatorida ushbu o‘zgarishlar kitobxonda ham beixtiyor qiziqish uyg‘ota boshlaydi. Qahramondagi keyingi o‘zgarishni o‘yuvchi qabul qilish holatiga tayyor bo‘la boshlaydi. Biroq yozuvchi ushbu o‘zgarishlar karomatini muayyan bir real sabab bilan izohlashni lozim topmaydi. Asarning ayni ana shu o‘rinlarida ham xalq og‘zaki ijodi namunalariiga xos bo‘lgan xususiyatlari: insoniyatning qadimgi va ibridoiy tasavvurlari, tabiat qarshisidagi ojizliklari, ezunglik va yovuzlik o‘rtasidagi raqobatning ijobiy yakun topishiga bo‘lgan ishonchlari ko‘rinadi. Qahramon ezunglik, ma’naviy tarbiya, ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq atrofidagi muammolar qarshisida o‘zining insoniyat tafakkuri, va tabiatiga xos bo‘lgan ibridoiy belgilarni namoyon qiladi: ilohiy qudrat, sehrli kuchlar, duo va joduning qudratiga bo‘lgan g‘ayriッシュuriy e‘tiqodini Haydar Maxsumning yoniga qayta-qayta najot istab borish orqali ayon etadi. Haydar Maxsum esa dili dardli, umuman olganda, qandaydir muammolar qurshovida qiynalayotgan insonlarning psixologik holatlarini yaxshigina ilg‘ay oladi va o‘zining tashqi qiyofasiga sirla tus berish, o‘zini ajabtovur xislatlarga ega qilib ko‘rsatish orqali tarbiyalashga muvaffaq bo‘ladi. Ayni xususiyatlari bilan u o‘zbek xalq ertaklari syujetida uchrab turuvchi donishmand, sehrgar, chol kabi obrazlarni eslatadi. Biroq yozuvchi turmush yetishmovchiliklari va xarajatlarining ko‘pligi boisidan uning o‘zini ham bu ishdan manfaatdor sifatida talqin etadi. Aynan ana shunday talqin ayrim g‘ayrioddiy harakatlari (masalan, bozorda e‘tiborni jalb etadigan ko‘rinishdagi qiyofasi) dan qat’i nazar Haydar Maxsumni real hayotga yaqinlashtiradi.

Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi namunalariiga mansub asralarning aksariyati “murod-maqsadiga yetibdi”, qabilida ijobiy yakun bilan natija topadi. Omon Muxtorning “Ffu” romani sujeti yakunida ham aynan ana shunday poetik yechimning guvohi bo‘lamiz. Mulla Toshpo‘latning o‘g‘li Toshtemir turmushi nihoyat o‘zining to‘g‘ri o‘zaniga tushib oladi. Yozuvchi bunday to‘xtamga hayot haqiqatidan asos topish orqali erishadi. Qahramonni hayotni mustahkam muvozanat ostida saqlab qolish qudratiga ega bo‘lgan yuksak insoniy tuyg‘u – muhabbat o‘zgartiradi, undagi o‘ziga bo‘lgan ishonch hissini mustahkamlaydi. Nigorga nisbatan tuygan samimiymunosabati, pinhoniy kechinmalari yigitda mulohazakorlik, sabrlilik, ezunglik qilishga moyillik xususiyatlarini tarbiyalaydi. Ayni jarayonda

yozuvchining asar orqali ifoda etmoqchi bo'lgan g'oyaviy maqsadi yuzaga chiqadi. "Oh-oh!", "Iy-y", "Ffu" kabi bor-yo'g'i uchta mazmunan noaniq bo'lgan tovushlar yig'indisi orqali o'z tasavvuri, tafakkuri, hissiy kechinmasini ifodalashdan nariga o'tolmagan o'g'il asar voqealari rivojida ajabtovur kechmishlarni boshdan kechirib, yangi-yangi fe'l-atvorlarini otasi ko'z o'ngida namoyon eta boshlaydi. Yaxshilik qilishga intilish, atrofdagilarning qadri va o'rni haqida fikr yuritish, ajdodlar merosiga munosabat, erkin, teran, ertangi kun farovonligi ta'minoti xususida fikrlash, chamalash, ildam odim uchun harakatlar muhabbat va sadoqat sari intilish qahramonni shaxsiy qarashlarga, mustaqil xarakterga ega etib boradi. Hayot sinovlari va saboqlari esa unda nihoyat chin insoniy fazilatlarning shakllanishini ta'minlaydi. Voqealar oqimi shuni ko'rsatyaptiki, roman yechimi optimal yakun bilan nihoyalanyapti. Ayni ana shu xususiyati ham asarni xalq og'zaki ijodi namunalari sujeti, kompozitsiyasiga xos belgilarning namoyon bo'layotganligini ko'rsatib turadi. Haqiqatan ham ezzulik va namunali hayot kechirishni istab yo'lga chiqqan, jamiki amallari, xatti-harakat va istaklari bilan o'zida yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishga muttasil intilgan inson, tabiiyi, mustahkam iroda, kuchli shaxsiyat va keng dunyoqarashga ega bo'la boradi. Toshtemirda esa asta-sekinlik bilan bo'lsa-da ana shunday xislatlar yuzaga kela boshlaydi. Shu bois bo'lsa kerak, Mulla Toshpo'lat endi o'g'lining kelajagi uchun ortiq qayg'urmay qo'yadi. Chunki Toshtemirning keyingi hayoti borasida uning ayni paytdagi qilayotgan amallari natijasida Mulla Toshpo'latda qanoat va ishonch hislari paydo bo'lib ulgurgan edi.

Qolaversa, roman matnida tez-tez ko'zga tashlanib turuvchi maqol va matallar, xalq og'zaki ijodi namunalarida uchraydigan betakror poetik detallardan foydalanilishi ham asarning badiiy qimmatini oshirgani qatorida qahramonlar ma'naviy olamini teran ochishga xizmat qiladi. "Qornimga yig'lamayman, qadrimga yig'layman", "dard ustiga chipqon", "ishing tushsa, kichikni ham aka deysan, kuchukni ham" kabi ko'plab maqol, matal va iboralar asarning tiliga jozibadorlik baxsh etadi.

O.Muxtorning "Ffu" romani tahlili misolida shunday xulosaga kelish mumkinki, istiqlol davri adabiyotida xalqning milliy qiyofasi va xarakterini teran namoyish qilish maqsadida xalq og'zaki ijodi an'analaridan foydalanildi. Xalq og'zaki ijodi namunariga xos bo'lgan axloqiy-tarbiyaviy funksiya keyingi davrlarda yozma adabiyot manbalarining ham yetakchi tasvir va talqin obyektiga aylantirildi.

Adabiyotlar.

- Саримсоқов Б. Абсурд маънисизлиkdir. / Ўз.АС, 2002, 27-сон.
- Мухтор О. Ффу. / Аёллар мамлакати ва салтанати. –Т.: Шарқ, 1997, 5-76-б.
- Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изохли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1983. – 3766.

Ш.Давронова

УСТНЫЕ НАРОДНЫЕ ТРАДИЦИИ РОМАНА ОМАНА МУХТАРА «ФФУ»

В статье представлены ключевые характеристики особенности узбекских романов, написанных в период независимости, а также их синтез в творческом описании восточного народа на примеру роман "Ффу" Омана Мухтара. Очень тонкий мягкий подход чувствуется в создании творческих реальных характеров интересных сюжетов, а также неповторимые художественные образы или же формы были созданы путём прикосновения близко к фольклорным традициям. В произведении художественно, чутко анализируются традиции, наполненные энергией и жизнью. И все эти светлые, добрые традиции ярко выражены в произведении, в виде народных сказок, легенд, былиц и анекдотов. Воспитательно-духовная цель и развитие не оставляет читателя равнодушным. Именно воспитательные, духовные стороны имеют главную роль и лидеруют в романе, которые безусловно связаны с народным фольклорным творчеством.

Ключевые слова: роман, восточноеустное народное творчество, литературная традиция, литературные влияние, литературный синтез.

Sh.Davronova

THE ORAL NATIONAL TRADITIONS OF THE NOVEL "FFU" BY OMON MUXTOR

Crucial characteristics of uzbek novels written during the Independence Period and their synthesis about the narrative creation of Oriental people were mentioned the novel "Ffu" by Omon Muxtor in the article. The author used to create tradition work creatively of folk-lorereal characters, interesting events and unrepeatable literary forms. It is literary synthesized popular tales, epic poems, legends and humours and its specific life-giving traditions. It is also considered the leading ideologic essence, content educational peculiar to sample of folr-lore.

Keywords:novel, Eastern folklore, literary traditional,literary affect, creative activity, literary syntheses

UDK: 39(575.1)

ZARAFSHON VOHASIDAGI TOPONIMLARNING ETNIK XUSUSIYATLARI VA URUG‘-QABILA NOMLARI BILAN BOG‘LIQLIGI

Sh.E.Eshonkulov

Samarqand davlat arxitektura qurilish instituti

E-mail:eshonkulov78@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada etnonimlarning etnik xususiyatlari haqida qiziqarli ma'lumotlar ochib berilgan. Bundan tashqari, bugungi kunda hududlar toponimikasini to'plash va ularning etnik xususiyatlarini ham aniqlab, izohli lug'atini yaratishga asos bo'luvchi maqola sifatida e'tirof etish mumkin. Shu bilan birgalikda ushbu maqolada, toponimlar tarkibidagi etnonimlarni mukammal tadqiq etish xalqimizning etnogenezi va etnik tarixini va etnografiyasini o'rganishda ham bevosita material bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: etnonim, toponim, etnogenez, etnografiya, qangli, qanqa, kanguy, qabila.

Davlat Mustaqilligi qo'lga kiritilgandan keyingi o'tgan yigirma besh yil mobaynida Prezidentimiz I.A.Karimov rahbarligida olib borilgan ichki va tashqi siyosat bugungi kunga kelib to'g'ri, xalqchil siyosat ekanligi keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etilmoqda. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, mamlakatda olib borilayotgan milliy-etnik siyosat ham O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan yuzdan ortiq millat va elat vakillarining manfaatlariga to'la mos keladi. Holbuki, hozirda olib borilayotgan ushbu milliy-etnik siyosat Respublika hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatları, tili, madaniyati, diniy e'tiqodi, urf-odat va an'analarini hurmat qilish, avaylash va rivojlantirish maqsadlariga yo'g'rilganligi bilan ahamiyatlidir.

Hozirgi paytda Zarafshon vohasidagi, xususan, Samarqand viloyatidagi hududlar toponimikasini to'plash va ularning etnik xususiyatlarini ham aniqlab, izohli lug'atini yaratish muhim masala deb qaralmoqda. Zero, qadimdan atalib kelinayotgan toponimlarning ko'pchiligi etnomimik xususiyatga ega. Ular hozirgacha yetarli darajada yig'ib, etnik jihatdan mukammal o'rganilgan emas. Hozirgacha to'plashga arziydigan juda ko'p etnotoponim xususiyatga ega bo'lgan bunday toponimlar Samarqand shahar atrofi va barcha tumanlarida mavjudirki, ularning etnik xususiyati mukammal o'rganilib, ularning izohli lug'ati tuzilmagan. Toponimlar tarkibidagi etnonimlarni mukammal tadqiq etish xalqimizning etnogenezi va etnik tarixini va etnografiyasini o'rganishda ham bevosita material bo'lib xizmat qiladi. Zero, etnonimlar xususiyatlari xalqimizning ibtidoiy urug‘ va qabila birlashmalari tarkibini eslatadi. Chunki davrlar o'tishi bilan bunday qadimiy qabila-urug‘lar va ular birlashmalarining nomlari faqat joy nomlari tarkibidagina saqlanib, toponimlarga aylangan.

Jumladan, Bulung‘ur va Jomboy tumanlari hududlarining ba'zi qishloqlarida bo'lib, toponimlarni to'plashda joy nomlari tarkibida ko'plab etnonimlar mavjudligi aniqladik. Masalan, bolg‘ali, do'rmon, kildon, kal, minglar, mang‘it, mitan, mo'g‘ul, nayman (tepa), ochamayli, saroy, sarlar, saryuzli, uyas (uyas-solin), suloqli (qishloq), tig‘iriq, turkman, xitoy poyon, xitoy bola, shuvoqli, chuyut, chuviloq, cho'bat, qang‘li, mirza qang‘li, qarapchi, qipchoq, sarqipchoq, qirqlar, qirq (qishloq), qiyot, qo'shtamg‘ali, qo'ng‘iroq, yomon qo'ng‘iroq, qiyonli (qishloq), katta qiyonli (qishloq), yomon qiyonli (qishloq), oqtom qiyonli (qishloq), qo'shtamg‘ali, qozoq ovul, o'tab (qishloq), o'roqli, isori, erganakli, erganak (qishloq), g‘oyr, g‘ojir va boshqalar shular jumlasidandir. Manbalarda bu etnonimlarning etnik xususiyatlari haqida qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Ushbu maqolamizda ulardan ba'zilarini havola etamiz.

Qang‘li toponimi etnik xususiyati haqida. Bu toponim aslida etnik xususiyatga ega bo'lib, o'zbek xalqi tarkibidagi eng qadimgi urug‘-qabila nomidir. Bu nom eng qadimgi yozma manbalardan hozirgi davrda ham O'zbekiston, chunonchi, Samarqand viloyatining Jomboy tumani hududida toponim va so'zlashuv tilida 92 bovli urug‘lardan biri sifatida qayd etiladi. (Bu nom "Avesto" kitobida "Kanqa", ya'ni tur qabilalarining siyosiy va diniy markazi, qarorgohi Qanqa atalgan. Shuningdek, bu qabilalar "Shohnoma" asarida "turlar", Potolemeyda "Qandar" (qang‘ar), xitoy manbarida qanqa, kanguyshakllarda uchraydi)[1]. Keyinchalik ular yashagan hududlar ham shu shakllarda atalib kelgingan.

Qang‘ atamasining ma'nosи turlicha izohlanadi. Chunonchi, Rashiduddin Fazlulloh al-Hamadoniyning «Jome' ut-tavorix» asarida yozilishicha, qang‘li o'g'iz birlashmasiga qo'shilgan qabilalardan biri bo'lib, ular aravani birinchi bo'lib kashf qilganlar. Rashididdin arava turkiy o'zbek

tilida qangli atalgan deydi va Qang'li qabilasining nomi ana shundan kelib chiqqan, deb izohlaydi. Lekin qangli so'zini professor V.V. Reshetov «O'zbek tili» (1-qism, fonetika. Toshkent, 1959) darsligida, va N.A. Baskakov «Tyurkskie yaziki», (Moskva, 1960) nomli kitobida qangli so'zi xitoycha arava ma'nosida, uning «qang-qang» tovushi asosda kelib chiqqan, deb izohlanadi[2]. Demak, arava qatnovida chiqqan tovushlardan hosil bo'lgan taqlidiyo's z asosda qang' qabilasining nomi yuzaga kelgan deb qaralgan.

Xitoy manbalari asosida Kanguy toponimi miloddan avvalgi III-II asrlarda ham ma'lum bo'lgan deb qaraladi. Tarixiy manbalarda Sirdaryoning o'rta havzalarida, aynan Toshkent viloyatining janubi-g'arbida kanki qabilalari yashaganligi haqida ma'lumotlar bor. Olimlarning xulosasi ko'ra, "Avesto" dagi qanqa bilan xitoycha kanguy atamalarining o'xshashligini hisobga olganda, Kanguy qabilasi birlashmasining qarorgohi Bityan Toshkent viloyatining Sirdaryo yaqinida joylashgan Kanka shahar xarobasi bo'lib chiqdi. Bu qarorgoh qishkisaroy hisoblangan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qangli qabilasi 92 bovli o'zbek elati qatoriga kiruvchi urug' va qabilalar orasidagi eng qadimgilaridan biri sifatida qaralib kelingan. Jumladan, Rashiduddin Fazlulloh al-Hamadoniyning «Jome' ut-tavorix» va Abulg'ozzi Bahodirxon asarlarida ham katta va qadimiy urug'lar sifatida ko'rsatilgan. Abulg'ozzi Bahodirxon yozishicha, Xorazmshoh davrida 60 ming qanglining Qashqar tomonidan Xorazmga ko'chib kelib o'rashib qolganligini aytadi. Demak, bu qabila qadimda hozirgi Xitoydan Mug'uliston hududlarida ham yashashgan.

N.A. Aristov qangli qabilasini eng qadimgi turkiy qabilalardan biri deb hisoblashi bilan birga, uni eramizdan oldingi 160-159 yillardayoq Sirdaryoning chap qirg'og'iga o'tib Zarafshon vodiysini egallagan va Amudaryo bo'ylab Xivagacha borib yetgan deb ko'rsatadi. Qangli etnonimi Samarqand viloyatning Bulung'ur, Jomboy, shuningdek, Jizzaxning G'allaorol, Zomin, Sirdaryo, Toshkent shahrining atrofida, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida ham uchraydi. Demak, qang'li urug'lari qadimda respublikamizning deyarli barcha viloyatlarda yashaganlar. Ularning yashab kelgan hududlar aholishevasiga moslashgan, shuning uchun ham til jihatdan o'zbek adabiy tilga yaqinlashish xususiyatlari kuchli bo'lgan. Ba'zi manbalarda Samarqand hududidagi qangliklarning 4 ta tarmog'i ham bo'lganligi qayd etiladi: taroqli, bolg'oli, irg'oqli va joytamg'ali kabilar[3].

Ming haqida. Ming 92 bovli o'zbek elatinning eng katta va e'tiborli qabilalaridan biridir. Qariyalar ming, yuz va qirqni o'zbek elatinning uch ustunidan biri deb hisoblaydilar. Mingning vakillari Samarqand atrofida, xususan Urgut tumanida, Qo'qon va Farg'ona, shuningdek, Balx tomonlarida ko'proq yashagan. Bu hududlarda ularning toponimga aylangan nomlari mavjud. Ammo mingning bo'linishiga oid materiallar deyarli uchramaydi. Faqat so'nggi vaqtlardagina X. Doniyorov boshchiligidagi olib borilgan dialektologik kuzatuvda (1959-1960 yillarda Samarqandning Urgut tumanidagi Alaxotin qishlog'ida istiqomat qiluvchi 71 yoshli Xo'jamurodov Begali bobo va shu tumanning Robot qishlog'ida yashovchi 68 yoshli Berdiev Nurmat bobolar suhbati orqali mingning bo'linishi to'g'risida ba'zi ma'lumotlar olishga muvaffaq bo'lingan edi. Xo'jamurodov Begali boboning aytishiga ko'ra, ming urug'i vaxtamg'ali, to'g'ali, bog'lan va jarat deb 4 ga bo'lingan. Berdiev Nurmat bobo esa mingni 7 ga bo'lib ko'rsatgan edi. Bular: vaxtamg'ali, to'g'ali, bog'lan, o'ramas, jarat, jalmat va ramadondir.

Yuz va uning bo'linishlari haqida. Qariyalarning naql qilishlariga ko'ra, yuz 92 bovli o'zbek urug' va qabilalari orasida eng katta qabila hisoblanadi. Ayniqsa, mingning ko'p a'zolari sipohilashib (shaharlashib), o'z urug'larini unutib yuborganlaridan keyin xalq orasida yuzning mavqeい yanada oshgan bo'lsa kerak. Yuzning bo'linishi mingning bo'linishiga nisbatan ancha aniq (lekin shunga qaramasdan yuzning bo'linishi ham hali to'liq aniqlangan deb bo'lmaydi). Toshkent, Sirdaryo va Samarqand viloyatlaridan yig'ilgan materiallarga ko'ra yuz, avalo, uchta katta bo'lakka bo'linadi: Marqa bolasi, qarabich, rajab bolasi. Marqa o'z navbatida ikki katta bo'lakka bo'linadi: a) uyas-solin, b) xitoyizi (xitoy yuzi). Ular o'z navbatida yana bir necha bo'lakka bo'lingan:

Uyasoltiga bo'linadi: kerayt, kal, norin, uyas, oqchepkan, ko'sa, boymoqli yoki cho'pqon. Bular Samarqand viloyatining ko'pgina tumanlarida toponim (etnotoponim) tarzda uchraydi. Ular asosan Bekobod, Zomin, Jizzax, G'allaorol va O'rategpa tumanlarida yashaydi. Uyas-solin ham o'z navbatida oltiga bo'linadi: davlay, jobuvli, tog'ay, to'bi, qirsodiq, lapkarach, shodmon to'bi. Ularning ko'philigi asosan Jizzax va Zominda hamda G'allaorol tumanida, qisman O'rategpa va Samarqand viloyatida ham yashaganlar. Lekin ularning nomi ham asosan toponim ma'nosida mavjud.

Xitoyizi (xitoy yuzi) 12 nomga bo'linadi: quriqozon, tig'iriq, beshkubi, bog'machchoyi, hoji bolasi, mug'ol, uvol(olmasuvon), hojibachcha, xonxo'ja, nebo'sa, qoraqursoq, sortjuzi, qarapchi. Bular asosan Bulung'urtumanida, shuningdek, Zomin, Jizzax viloyatining Zomin va G'allaorol tumanlarida, qisman Surxondaryoda ham yashaganlar. Yuzning qarapcha degan katta bo'lagiga Samarqand Toshkent, Sirdaryo, Farg'ona, Andijon viloyatlariha hamda Tojikiston (Xo'jand) hududida yashovchi qarapchi qo'qoniqushtamg'ali, ochamayli, parchayuz, o'yuvli urug'lari kiritilgan. Yuzning rajaq bolasi degan katta bo'lagiga esa asosan Samarqand va Sirdaryo viloyatlariha yashovchi tuyoqli, chol, beshjuz, choljuvut, beshkal singari bir qancha urug'lar kiradi. Bularidan tashqari, o'roqli, so'loqli, quyonquloqli, sirligi, og'ar(oqar) kabi urug'lar ham uchraydi (lekin bular haligacha yetarli o'rganilgan emas).

Qirqlar. Qirq 92 bovli o'zbek elatiga kiruvchi urug' va qabilalar ichida ming va yuzdan keyingi uchinchi katta son bo'lib hisoblanadi. Qariyalar uni yuzning ukasi deb hisoblaydilar. Aslida mingni ham, yuzni ham va qirjni ham siyosiy birlashmalar natijasida yuzaga kelgan etnik birlashmalar deb atash haqiqatga mos bo'lsa kerak. Hozircha biz ularni «qabila» deb ataymiz. Qirq asosan Samarqand, G'allaorol va Bulung'ur, Jizzax, Zomin, Bekobod, O'rteppa tomonlarda ham yashaydi. Qirq avvalo 6 ta katta bo'lakka bo'linadi. Bular: qoraqo'ysi, chort, qoracha, moltop, mulkush, chaprashli va chortkesardir. Qirqning qoracha bo'lagi G'allaorolning Uzun buloq qishlog'ida yashovchi Xolbo'ta boboning ma'lumotiga ko'ra 4 ga bo'linadi: balqi, jang'g'a (yangi), chekli, ko'chchekli, chuvulloq. Qirqning moltop bo'lagi Moltop qishlog'ida yashovchi Sayfin boboning ma'lumotiga ko'ra 4 ga bo'linadi: boylar tupi, kavush tupi, Oyuv (ayiq) to'pi va beklar to'pi. Bularidan tashqari G'allaorol, Jizzax, Bulung'ur tumanlarida yashovchi qirqlar orasida kuya bosh, ko'k gumboz qirq, Sug'unboy, quyonquloqli, qoshiqa buloq, to'q cho'ri, uch qiz, qo'sh qavut qirq, qora chivar, o'yuvli, tanligi singari etnonimlar ham uchrab turadi.

Qo'ng'iroq. Qo'ng'iroq ham 92 o'zbek qabilasidan biridir. Qo'ng'iroq qabilasida Rashididdin Kazviniy va Abulg'ozzi Bahodirxonlarda asli mo'g'ul qabilalari orasida ko'rsatilgan. Ko'pgina kishilar «Qo'ng'iroq» so'zini «qo'ng'ir» va «ot» so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan deb o'ylashadi. Lekin, ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda, bu so'z aslida mo'g'ulcha bo'lib, qoraqarg'a degan ma'noni bildiradi. Surxondaryoda yashovchi ba'zi qariyalar qo'ng'irotni Qozog'iston tomonidan ko'chib kelgan deb aytishadi. Qo'ng'irotlarning asosiy qismi Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlariha yashaydi. Ularda Samarqandda, Xorazmda, Qoraqalpog'iston tomonlarda hamda Afg'onistonda ham ancha ko'p (Xiva xonlari qo'ng'irotlarga mansub kishilar bo'lgan). Qo'ng'iroq qabilasining bo'linishlari boshqa urug' va qabilalarning bo'linishlariga nisbatan ancha to'liq va mukammal bo'lib hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida Oqirtma qishlog'ida yashovchi 65 yoshli Hayim polvon Pirimqulovning 1965 yil dekabrь oyida bergen ma'lumotiga ko'ra qo'ng'iroq qabilasi, avvalo qo'shtamg'ali, vaxtamg'ali, qonjig'ali, oyinni va tortuvli degan beshta katta bo'lakka bo'linadi. Bular yana bir nechta bo'laklarga bo'linadi.

Qo'shtamg'ali 16 ga bo'linadi: tilovmat, ko'cha xo'r, bandi kuchuk, cholbachcha, oqpichoq, mapvmish, ko'sa, savribuzar, kal, qoraqalpoq, to'lagit, o'troqi, bormorq, qo'lobi, qorag'osmoq, zambiri. Vaxtamg'ali ham 16 ga bo'linadi: bugajili, oboxli, irg'oxli, qaygili, qozoyoqli, qoraqo'ng'iroq, o'yuvli, ishqili, toroqli, chanchiqli, qiyg'oshli, xondakli, boyomoqli, ochamoyli, gilam bobli, ushkuli.

Qonjig'ali, 14 ga bo'linadi: qo'ldovli. Jelkillak, ko'rtog'ay, to'pqora, moltaka, qora qorabuvra, do'ska, gala, no'g'ay, quyin, ulus, cho'llik, qorag'ursak.

Oyinni (ayilli) 12 ga bo'linadi: qovqa, qochay, qoraqalpoq, to'por, beshbola, chulan, turkman, oyinni, hojibachcha, kal, qora, oqtona, oytamg'ali.

Totuvli urug'iga mansub kishilar asosan Boysun atrofida yashaydi. Qo'ng'irotlar xalq og'zaki ijodining qahramoni Alpomishni tortuvli urug'idan chiqqan deb, Boysunni esa Alpomishning vatani debi biladilar. Tortuvli 6 ga bo'linadi: to'g'iz, mo'ngka, o'r, cho'poq, xurosuni va oboxli.

Qo'ng'iroq qabilasining 5 ta katta urug'iga mansub bo'lgan mayda bo'laklar 64 ta bo'lib, ularning hammasini Hoyim polvon Pirimqulov sanab bergen[4]. Biz bularidan tashqari, tortuvliga tegishli bo'lgan 6 ta mayda bo'lakning har birining o'z navbatida yana bir nechtadan mayda bo'laklarga bo'linishini aniqladik. Masalan, Sho'rchi tumanida yashovchi Oltiboy oqsoqol Xolmatovning bergen ma'lumotiga ko'ra to'g'iz 7 ta mayda bo'lakka, mo'nka va cho'poqlar esa 6 tadan mayda bo'lakka bo'linadi. Boysunda yashovchi Mo'min chopog'on Omonovning ma'lumotiga

ko‘ra tortuvlining o‘r, oboxli va xurosini kabi bo‘laklarining har biri o‘z navbatida yana 4 tadan mayda bo‘lakchalarga bo‘linadi[4]. Bular yuqoridagi 64 ta bo‘linishga kirmaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek urug‘larining tarixi va bo‘linishlarini o‘rganish tarixchi etnograf va tilchi-dialektologiyamizning muhim vazifalaridandir. Chunki o‘zbek urug‘larini o‘rganish xalqimiz tarixini va uning tili tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar.

1. Sanakulov U. O‘zbek xalqi va tilining ildizlari haqida tarixiy manbalar tasnifi.– T.: “Navro‘z”,– B.107.
2. Doniyorov X. O‘zbek xalqining shajara va shevalari.-T. Fan, 1968.
3. Аристов. Н.А. Заметки об этническом составе, СПб., 1897. Ст. 98.
4. Sanaqulov U. O‘zbek xalqi va tili tarkibidagi o‘g‘uz komponentining etnologiyasi (shajarasi). – Samarqand: SamDAQI nashri, 2013.– B. 47.

III.Э.Эшонкулов

ЭТНИЧЕСКИЕ СВОЙСТВО ТОПОНИМОВ В ТЕРРИТОРИИ ЗАРАФШАН И ИХ СВЯЗЬ С ИМЕНАМИ ПЛЕМЕН

В этой статье рассматривается интересные факты этнических свойств этнонимов. Кроме того сбор местной топонимики и распознавание этнических свойств, рассматривание статьи как основу для создания толкового словаря. Также статья рассказывает об оптимальном исследовании этнонимов в составе топонимов и служит материалом для изучения этногенеза, этнической истории этнографии нашего народа.

Ключевые слова: этноним, топоним, этногенез, этнография, қангли, қанқа, кангуй.

SH.E.Eshonkulov

ETHNIC PROPERTIES OF TOPOONYMY IN ZARAFSHAN TERRITORY AND IT'S CONNECTION WITH NAMES OF TRIBES

This article discusses the interesting facts of ethnic properties of ethnonyms. In addition, collecting local toponymy and identification of ethnic properties and viewing the article as a basis for the creation of explanatory dictionary. This article also tells about an optimal research of ethnonyms as part of toponymy, and serves as the material for the study of ethno genesis, ethnic history and ethnography of our people.

Keywords: Ethnonym, toponymy, ethno genesis, ethnography, qangly, qanqa, qanguy, tibe.

UDK:42:494.3

BAXT TUYG‘USINI IFODALOVCHI KONSEPTNING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA VERBALLASHUVI

T.K.Mardiyev

Samarqand davlat chet tillar instituti, mustaqil izlanuvchi

E-mail: tulkimardiyev@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada «baxt» konseptining ingliz va o‘zbek tillarida badiiy asarlari, maqol va paremiologik lug‘atlarida verballahuvni hamda «baxt» tushunchasining ijtimoiy hayotdagi barcha jabhalarga uzzviy bog‘liqligi namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Verballashuv, tuyg‘ular, leksema, baxt, baxtsizlik, kompetent-definitsion, ahloqiy, tasavvurlari, qadriyat, insoniy, hislatlar.

Ingliz va o‘zbek tillarida inson tuyg‘ularini ifodalovchi tushunchalardan biri “happiness” va “baxt” leksemalari sanaladi. Baxt leksemasi alohida konsept sifatida o‘ziga xos ishonch tuyg‘ularini anglatsa-da, muhabbat, do‘slik tuyg‘ulari bilan ham bog‘lanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida ko‘p hollarda muhabbatga erishish baxt konseptiga bog‘lanib ketadi. Zero, muhabbatga erishish baxtli hayot mazmuniga erishish tushunchasini ham ifodalandaydi.

Badiiy adabiyotlarda insonlar o‘rtasidagi baxt va baxtsizlik dualligi tolening muruvvati bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu duallik nafaqat oliy kuchlarning ta’sir etish obyekti, balki o‘z erki va insonga ta’sir etish qobiliyatini ko‘rsatuvchi yaxshiliklar obyekti ham bo‘lishi mumkin.

Baxt o‘ziga xos tuyg‘u, ya‘ni baxtli hayot mazmuniga erishish tushunchasini ifodalandaydi hamda bunday baxtga erishmaslik xususiyatlari ham mavjud bo‘lib, baxtsizlik diada konseptini yuzaga chiqaradi. Baxt baxtsizlik bilan yonma-yon yashaydi. Baxtga asta-sekin erishilsa, baxtsizlik esa qanot qoqib keladi. Baxtsizlikdan omadsizlik ma’nosи kelib chiqadi. Lug‘aviy izohlar va kompetent-definitsion tahlil shuni ko‘rsatadiki, baxt inglizcha “happeness” deyilsa, omadsizlik ma’nosи esa “Unhappiness” leksemasi bilan ifodalanadi..

Omadisizlik baxtsiz hodisadir. Bunda kutilmagan ko'ngilsizlik namoyon bo'ladi. Hozirgi vaqtida baxt va baxtsizlik dualligi turli sohalar bilan ham bog'lanadi. Ular orqali inson hayotidagi baxtlilik, baxsizlik kabi tushunchalar namoyon bo'ladi. Bunday munosabatni aks ettiruvchi turli shakldagi leksemalar mavjud. Ular bir yadroga, ya'ni "baxt" konseptiga borib bog'lanadi. Shuning uchun ham baxt konseptini mustaqil konsept sifatida ham qarash mumkin bo'ladi.

Shu narsa bizga ma'lumki, har bir inson hayoti davomida baxtli hayot kechirish, baxtsizlikdan qochib yashashga intiladi. Insonning bilimi, hayotiy tajribasi ortib borar ekan, uning baxt-saodat haqidagi tasavvurlari o'zgarib, shakllanib boraveradi. Insoniyat tarixiga e'tibor bilan qarasak, ushu tushuncha yoki konsept to'g'risidagi insonlarning fikrlari, g'oya va tasavvurlari izchillik bilan bog'lanib borganligini kuzatish mumkin. O'tmish mutafakkir olimlari o'z asarlarida "baxt" konseptining turlicha holatlarda namoyon bo'lishini isbotlab, ijtimoiy hayotda insonning eng olyi tuyg'ularidan biri ekanligi ta'kidlaganlar. Bu borada xalq tilida ham juda ko'p hikoya va rivoyatlar, hikmat va maqollar - paremiyalar yuzaga keltirilgan.

"Baxt tushunchasi har kimda har xil tushuniladi. Chunonchi, donishmandlardan biri o'z o'g'liga yozgan xatida baxt, saodat va hayot haqida shunday deb yozadi: "Aziz, o'g'lim, so'zimga diqqat bilan qulq sol. Baxtim yo'q, deb zorlanuvchilar qatoridan joy olma, g'ayrat qilsang, muroding hosil bo'ladi. Ehtimol, ba'zi ishlaring tilaganingdek muvaffaqiyatli bo'lib chiqmasligi mumkin, lekin sen bunga qayg'ulanib noumid bo'lma. G'ayrat va jasoratingdan ajralma. Og'ir va mashaqqatli bo'lib ko'ringan narsadan haqiqatda ko'p muhim va xayrli natija hosil bo'lishi mumkin. Ahamiyatsiz narsalarga, moddiy bezaklarga ko'p aldanma. Fazl, kamol egasi bo'lishga intil. Tarixda o'tgan ulug'lar hayotidan ibrat ol. Muloyim, shafqatli va marhamatli bo'l. Bularning barchasi baxt-saodatga erishishning negizlaridir" [5]. Suqrot shunday deydi: "Oz narsaga qanoat qilgan odam davlatmanddir, negaki bunday qanoat uning ma'naviy boyligidan dalolat beradi. Dunyoda odam yenga olmagan narsa bo'lmaydi, shuning uchun aslo qo'rhma, o'zingga berilgan quvvat va g'ayratlarinigni surf qilib, olg'a intil. Baxt va saodat osmondan tushadi yoki kutilmagan holda qo'qqisidan vujudga chiqadi deb o'ylama. Shu o'nya borsang, dunyoning nodon odamlaridan biri hisoblanasan" [2]. Baxt faqat mol-dunyo, martaba yoki o'tkinchi his-tuyg'ulardangina iborat emas. Allohning har bir bergen ne'mati baxtdir. Ikki olam sarvari Muhammad Mustafo (s.a.v) dedilarki: "Kim o'z uyida omonlikda, jasadi salomatlikda, kunlik taomi bo'lgan holda tong ottirsa, xuddi unga butun dunyo jamlangandek bo'ladi".

Rivoyat qilinishicha, qadim zamonda bir odam baxt izlab, donishmandning oldiga boribdi va undan: "Men dunyoda eng baxtli bo'lmochiman. Bunga qanday erishsam bo'ladi?" - deb so'rabdi. Donishmand unga maslahat berib shunday debdi: "Mamlakatni kezib, surishtirib, men baxtliman, degan odamni topasan va uning ko'ylagini so'rab olib kiyasan. Qarabsanki, sen dunyoda eng baxtli odam bo'lasan". U xursand bo'lib, eng baxtli odam podshoh bo'lsa kerak, deb shohning oldiga boribdi. "Siz baxtlimisiz?" - so'rabdi u. Unga javoban podshoh hamma narsasi yetarli ekanligini lekin xalqni va xazinani boshqarishida ko'plab muammolar borligini aytibdi. Shundan so'ng vazirlar, qozilar, savdogarlarga uchrashibdi. Ularning hech biri baxtliman, deya olishmabdi. Nahotki, birorta odam baxtli bo'lmasa, degan o'y bilan chekka bir qishloqqa borishga qaror qilibdi. Uzoqdan bir dehqonni ko'ribdi. U ashula aytib omochda yer haydayotgan ekan. Yaqinroq borib qarasa, dehqonning boshida eski do'ppi, egnida yirtiq chopon, oyog'ida eski choriq lekin xursandligi yuz-ko'zidan bilinib turgan emish. Yigit uning holatini ko'rib: "Shu odam baxtiyor inson bo'lsa kerak" - deb o'yabdi-da, undan: "baxtlimisiz" - deb so'rabdi. Cho'pon: "Men eng baxtli insonman", - deb javob beribdi. Yigit quvonganidan: " Hayriyat murodimga yetdim. Sizdan bir iltimos, ko'ylagizingizni berib tursangiz, bir marotaba kiyaman-u, qaytaraman" - debdi. "O'sha ko'ylakning o'zi yo'q-da, bo'lsa berardim" - debdi dehqon to'nini yechib, yalang'och badanini ko'rsatib. Hayron bo'lgan yigit: Kiygani ko'ylagizingiz bo'lmasa, qanday o'zingizni baxtliman deya olasiz?" - deb so'rabdi. Dehqon: "Bugungi rizqim bor, ertaligini Alloh beradi. Men bugun baxtliman, shu kun bilan yashayman. Mehnat qilib rohatlanaman, tinch u الخلص، oilam, farzandlarim bor, xotirjamman. Shuning o'zi ulug' baxt emasmi?" – debdi. Shunda yigit baxt mol-davlatda emas, balki salomatlik, tinchlik, xotirjamlikda ekanligini tushunib yetgan ekan [5].

Darhaqiqat, baxt tushunchasi har kimda har xil bo'lishi mumkin, lekin uni sotib olib bo'lmaydi. Shogirdlar ustozidan "Baxt pulda emas!" - degan gapni isbotlab berishni so'rashibdi. Ustoz javob beribdi: "Bu gap to'g'ri aytilgan, chunki pulga yaxshi to'shak sotib olish mumkin, uyquni emas, tansiq taomni sotib olish mumkin, lekin ishtahani emas, qimmat dori olish mumkin, sog'likni emas,

xizmatkor yollash mumkin, ammo do'stni emas, ...hayotda pulga sotib olmaydigan narsalar ham bor. Pul bo'lmasa ham u narsalarning borligi yaxshi". Aql ham bir baxtdirki, u hammaga ham nasib qilavermaydi. Darhaqiqat, inson bo'lib yaralganimizning o'zi baxt emasmi? Alloh taolo barchalarimizga baxtli insonlar qatorida bo'lishlikni nasib etsin[www.arxiv.uz]. Ushbu badiiy hikoya va rivoyatlarda inson orzu qilgan va qadrlagan baxt tuyg'usi aks etgan va verbal mazmun ifodalangan.

Abu Nasr Forobiy ham baxt-saodat deganda, insonni kamolotga boshlovchi eng oliy maqsadni nazarda tutadi. "Buning uchun har bir inson baxt-saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o'ziga maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak. Shuningdek, u baxt-saodatga olib boradigan amal va vositalarning nimadan iborat ekanligini bilib olishi zarur. So'ngra esa baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmog'i lozim", - deydi. Olim insonga baxt-saodat o'z-o'zidan kelib qolmasligi, balki har bir inson shaxsan o'zi harakat qilish zarurligini ta'kidlab, baxt-saodatga erishish uchun bo'lgan insoniy xislatlarni to'rt qismga bo'ladi: "nazariy fazilatlar", "tafakkur fazilatları," "yaralma fazilatlar" va "kasb fazilatları". Forobiy nazariy fazilatlar deganda ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni egallashni aytadi. "Bu shunday nazariy bilimdirki, - deb yozadi u, - undan eng so'nggi (yakunlovchi) maqsad-muddao, ya'ni nazariy ilm orqali barcha narsalarni o'z ichiga olgan mavjudotni va faqatgina aql yordamida bilinadigan predmetlar haqida tushunchani hosil qilish ko'zda tutiladi" [2]. Olimning fikricha, "**Tafakkur fazilatları**" hayot jarayonida vujudga keladigan (axloq-odob normalariga rioya qilish, jamiyat qonunlariga bo'ysunish va boshqa fazilatlar) hamda kasb fazilatları bilan bog'liqdir. Keyingi ikki fazilat esa (ya'ni "**yaralma fazilatlar**" va "**kasb fazilatları**") ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Forobiy, ta'lim-tarbiyasiz baxt-saodatga erishish mumkin emasligini e'tirof etadi: "**Baxt-saodatga erishuv yo'lida nimaiki (axloq, kasb-hunar kabilar) yordam bersa, uni saqlash va mustahkamlash, nimaiki zarali bo'lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilish zarur**" [1].

Manbalardan seziladiki, baxt-baxtsizlik kabi konseptual tushunchalar barcha millat adabiyotida keng e'tirof etiladi. Baxt leksemasi yoki konseptining inson kamolotiga erishishdagi ahamiyati to'g'risida dunyoning barcha yetuk mutafakkir olimlari o'z fikrlarini ta'kidlab o'tishgan. Aflatun shunday deydi: "Boshqalarning baxtini o'ylab, o'z baxtimizni ham topamiz" [2]. A.S. Makarenko baxt to'g'risida shunday deydi: "Baxtning zarur tarkibiy qismi-bu to'g'ri yashayotganingga, ortingda xudbinlik, qalloblik, makkorlik, zararkunandalik va yana shunga o'xshash boshqa bir razilliklar yo'qligiga qat'iy ishonishdir". Shuningdek, ingliz adabiyotida "happiness"("baxt") konseptining o'ziga xos tuyg'u munosabatlari ifodalanganini kuzatish mumkin. Inglizlarda "happiness"("baxt") konseptining insonlar taqdiri, uning baxt-saodatga erishishi o'zgalar baxti hisobidan bo'lmashigi, qalbaki baxtning hech kimga kerak emasligi muhim o'rinn egallaydi.

"Your unselfishness cannot entirely comprehend how much my mind has gone on this; but, only ask yourself, how could my happiness be perfect, while yours was incomplete?" [3] Your own feeling tells you that you were not what you are,' she returned. 'I am. That which promised happiness when we were one in heart, is fraught with misery now that we are two [4].

Ingliz va o'zbek maqollarida "happiness"("baxt") konseptini ifodalovchi misollar muhim o'rinn egallaganini kuzatishimiz mumkin: *Kindness brings happiness. Obedience is the mother of happiness. All happiness is in the mind. He is not happy who does not realize his happiness. Happiness is something to do, something to love, something to hope for. You can never be happy at the expense of the happiness of others.*

O'zbek maqollarida ham bunday misollar anchagina. *Baxt kulgu bor uyg'a kirar. Baxt – sandiqda, kaliti – osmonda. Baxtni mehnatdan izla. Baxtni qo'ldan tashlama kabi.*

Ko'rinish turibdiki, "baxt" tushunchasining ijtimoiy hayotdagi barcha jabhalarga uzviiy bog'liqligi namoyon bo'ladi. Yer yuzida baxt haqida o'ylamagan, uni orzu qilmagan inson bo'lmasa kerak. Baxt kim uchundir oila yoki sevgi-muhabbat, kimgadir farzand, kimgadir mol-dunyo yoki amal bo'lishi yoki uzoq vaqt xasta bo'lsa-yu, sog'ayishini yohud o'zga yurtlarda sarson bo'lsa-yu, o'z yurtiga qaytishni baxt deb o'yashi mumkin.

Baxt konseptida ham duallik xususiyati mavjud. Bu baxt va baxtsizlik leksemalari mazmunida aks etadi. Zero, baxt omad keltiradi. Baxtsizlik esa kulfat keltiradi. Baxt ollohol tomonidan berilgan buyuk ne'mat, baxtsizlik esa Ollohol tomonidan berilgan ne'matdan mahrum etilishdir.

Xullas, baxt konsepti mazmunidagi qadr-qiyomatga erishishni barcha inson istaydi. Hamma umr bo‘yi baxtga erishishga intiladi. Baxtga intilish insonning tug‘ma xususiyatidir, shuning uchun ham bu har qanday axloqning negizi bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Abu Nasr Farobi. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy, 1993.-223 b.
2. Abdurozoqova Sh. Tafakkur gulshani. –T.: G‘afur G‘ulom, 1989.-462 b.
3. Charles Dickens, A tale of two cities. Web site at <http://www.planetpdf.com>. Page. 331
4. Charles Dickens, A Christmas Carol. Web site at <http://www.planetpdf.com>. Page. 56
5. www.arxiv.uz.

T.K.Мардиев

ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СЧАСТЬЕ» В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ЯЗЫКАХ

В данной статье рассматривается вербализация (и смысловое значение) концепта «счастье» в английских и узбекских паремиологических словарях, в научных статьях и в художественных произведениях. Также связь и использование понятия «счастье» во всех сферах социальной жизни.

Ключевые слова: Вербализация, чувства, лексема, счастье, несчастье, компетент-дефиниция, нравственность, представление, духовность, человеческое, черты характера.

T.K.Mardiiev

“VERBALIZATION OF CONCEPT, “HAPPINESS” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES”

Verbalization of concept “happiness” in English and Uzbek paremiological dictionaries, in scientific articles and in fiction is being discussed in this article. There you can also see connection and usage of concept “happiness” in all spheres of social life.

Key words: Verbalization, feelings, lexemes, happiness, unhappiness, competent-definition, ethics, imaginations, moral, human, features of character.

UDK: 891.709

UMAR HAYYOM RUBOIYLARI TARJIMASIDA SHOISLOM SHOMUHAMEDOV MAHORATI

B.M.Muhiddinova

Samarqand davlat universiteti, dotsent

E-mail: badiamuslixiddinovna@mail.ru

Annotatsiya. Sharq ruboyichiligidagi Umar Hayyomning o‘rnı beqiyos bo‘lishidan tashqari, uning asliyatdagi mazmunini tarjimada ifoda ettira bilish katta mahoratni talab qiladi. Ushbu maqolada Umar Hayyom ruboiylarini tarjima qilishda Shoislom Shomuhamedovning tarjimon adib sifatidagi faoliyati va badiiy mahorati tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: tarjimonlik mahorat, sharq ruboyichiligi, she’r vazni, qofiya, ohang, tashbeh, istiora, majoz, kinoya, badiiy mahorat, badiiy yuksaklik, badiiy ifoda vositalari.

Shoislom Shomuhamedov Hayyom hayoti va ijodi bilan o‘zbek kitobxonlarini tanishtirish borasida barakali xizmat qildi. U olim sifatida Hayyom hayotini chuqur tekshirib, mazmundor ilmiy maqolalar yozgan bo‘lsa, tarjimon sifatida shoir ruboiylarini kitobxonlarga tortiq etdi. Hayyom hayoti va ijodi ustida uzoq ishlash Sh.Shomuhamedovning ijodiy faoliyatida chuqur iz qoldirdi. Shoir ko‘pgina ruboiylarida Hayyom asarlaridan ilhomlanib, mavzu va mazmunni zamonaga mos tarzda tasvirlashga erishgan.

Sh.Shomuhamedov “Tarjima san’ati” kitobida o‘zining “Ham san’at, ham ilm” degan maqolasi bilan qatnashib, she’riy tarjimaga xos yaxshi fikrlarni bayon etgan. “Boshqa tilda tamomila obruzli tafakkur tahvilidagi xalqlar tilida ma’no va g‘oyalarni aks ettirish qanchalik ahamiyatga molik bo‘lsa, asl nusxaning obrazlar sistemasi va umumiy shakliy xususiyatlarini saqlab qolish ham shunchalik muhimdir. Tarjimada she’rning vaznnini aks ettirish masalasi murakkab nazariy masalalardan biridir. She’rning vaznnini aks ettirish – uning kuyi, musiqasi, binobarin, kayfiyat va tuyg‘ularini aks ettirish demakdir. Sharq she’riga xos ko‘p xususiyatlar, masalan, ichki qofiya, tovushlarning takrorlanib kelishi, alleteratsiya, tarkibli qofiyalar, omonimlik qofiyalar va shu kabilarni tarjimada aks ettirish masalalari haqida ko‘p gapirish mumkin. Shoir tarjimonlar faqat o‘zlari tarjima qilayotgan asarlarning yaralish davri, yozuvchining tarjimai holi va ijodiy uslubinigina emas, balki shu

bilan birga ayni asarning qanday tug'ilganligini, bu asar yaratilgandan so'ngra u haqda va uning atrofida qanday voqealar sodir bo'lganligini ham bilishi zarur. Tarjimon o'zi tarjima qilayotgan har bir shoир ijodining sir-asrorini ochish kerak. Bu ishda hech qanday oldindan tayyorlangan qolip yoki andoza berib bo'lmaydi, balki maxsus she'riy tuyg'u didga ega bo'lish kerak. Tarjima birinchi galda san'atdir, lekin faqat san'atgina emas, to'g'rirog'i bu ham san'at, ham ilmdir, binobarin uni ilmiy asosga ko'chirish zarur" [5]. Sharqshunos olimning tarjima haqidagi so'zi o'z faoliyatida ham yorqin ifodasini topgan.

Endilikda tarjimalarni samarali mehnati va g'ayrati orqasida Hayyom asarlari hozirgacha o'zbek tilida sakkiz marta nashr qilindi. Ayniqsa, 1971 yilda fors, o'zbek, rus tilida nashr etilgan Hayyom ruboilari keng kitobxonlar ommasining sevimli kitobi bo'lib qoldi. Sh. Shomuhamedovning 1963 yili nashr etilgan "Fors-tojik adabiyoti klassiklari" degan kitobidan Hayyom hayoti, ijodi va shoир haqida dunyo adabiyotshunos olimlarining fikri mazmunli bayon etilgan. Kitobdagagi ma'lumotlar Hayyomning hayoti va ijodi bilan qiziquvchi kishiga zo'r ma'naviy ozuqa beradi. Hayyomning ijodi va hayotining xarakterli tomoni shundaki, uning ruboilari na davriy, na milliy chegaralarni biladi, ular umumbashariyat badiiy fikr xazinasini boyitib, bir xalqdan ikkinchi xalqqa, bir davrdan ikkinchi davrga o'tib, adabiy so'nmas nur bilan kishilar qalbiga ziyo sochib kelmoqda.

Umar Hayyom ruboilalarining asliyatdagagi mazmunini tarjimada ifoda ettira bilish katta mahoratni talab qiladi. Shuning uchun shoир ruboilalarini xolis tadqiq etish, ya'ni istiqlol sharofati ila mazkur ruboilarning faqat zohiriy jihatlarigina emas, balki botiniy ma'nolarini ham sharh etish, uning tasavvufiy mohiyatini ham imkon darajasida anglashga intilish bu kunning vazifasidir.

Fors-tojik adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyoti tarixida ham o'ziga xos o'ren tutgan Umar Xayyomning nomi juda ko'p rivoyat va afsonalarga qo'shilgan. Ayrim ruboilalarining maydonga kelishi haqida ham rivoyatlar bor. Biroq shoирning biografiyasi haqida ma'lumotlar juda oz. Umar Hayyom o'z zamonasining yetuk olimlaridan biri bo'lgan. U matematika, astronomiya va falsafaga oid bir qancha asarlar yozib, allaqancha kashfiyotlar qilgan. Ammo u o'zining jahonshumul ilmiy tadqiqotlari bilan emas, nodir she'riy asarlari, ya'ni boy ruboiloyoti tufayli olamga mashhur bo'ldi. Hayyom ruboilalarini mavzusiga qarab, bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Umar Hayyom, avvalo, tabiatshunos olim, astronom va faylasuf sifatida dunyonи bilishga, uning sirlarini tushunishga harakat qiladi. Uning ijodida kishilik tafakkurining butun bir davri o'z ifodasini topgan. Mutafakkir shoир dunyoning tuzilishi, unda odamzotning o'rni haqida o'yga tolar ekan, o'tkir did va chuqur mulohaza bilan insonning dunyoda eng oliy vujud ekanini ta'kidlaydi:

Maqsud zi jumli ofarinish moyem,
Dar chashmi xirad gavhari binish moyem.
In doirai jahon chu angushtari ast,
Be hech shak/k/e, naqshi niginesh moyem. [1, 54-bet]

Shoislom Shomuhamedov fors-tojik tilini yaxshi bilganligi, Hayyom aytadigan fikrni yaxshi his etganligi tufayli bu ruboyni tarjima qilishda ohangdorlikni saqlab qolishga hamda, o'ziga xos qofiya topishga erishib, quyidagicha tarjima qiladi:

Dunyoning tilagi, samari ham biz,
Aql ko'zin qorasi, javhari ham biz.
To'garak jahonni uzuk deb bilsak,
Shaksiz uning ko'zi – gavhari ham biz. [2, 49-bet]

Bu yerda shoир insonni dunyoda oliy mavjudot deb hisoblaydi, ya'ni olamni uzuk deb olsak, unga jilo berubchi yoqut ko'zi inson ekanini ta'kidlaydi.

Uning har bir ruboysi bir hikmat, aforizm darajasiga ko'tarilgan. Hayyom badiiy mahoratiga yuksaklik va teranlik degan ikki so'z bilan baho bersa bo'ladi. U sodda, ammo chuqur mazmunli obrazlar, tashbeh va istioralar, majoz va kinoyalar yordami bilan badiiy yuksaklikka va mantiqiy teranlikka erisha olgan. U o'z ruboilalarida fors-tojik adabiyotida ishlanib, voyaga yeta boshlagan badiiy ifoda vositalardan ham, xalq og'zaki ijodida keng qo'llaniladigan badiiy vositalardan ham g'oyat ustalik bilan foydalanish natijasida erisha olgan.

Umar Hayyom Yevropada fors adabiyotining zabardast namoyondalari Firdavsiy, Muslihiddin Sa'diy, Hofiz Sheroziy kabi shoirlar qatoridan o'ren oldi, hatto ulardan ko'ra ham ko'proq shuhrat qozondi. XIX asrning o'rtalarida ingliz shoiri Eduard Fitsjerald Umar Hayyom she'rlarini ingliz tiliga tarjima qildi. Uning tarjimalari juda erkin bo'lib, hali aniq va aynan tarjimadan uzoq bo'lishiga

qaramay, Yevropada katta shuhrat qozondi. Bu tarjimalar XIX asrning ikkinchi yarmidayoq 25 marta bosilib chiqdi. Shu vaqtidan boshlab, Hayyom ruboiyalarini nashr qilish yildan-yilga orta bordi, uning ijodiga bag‘ishlangan juda ko‘p asarlar yozildi.

Sh.Shomuhamedov ham o‘zbek tilida birinchi marta fors-tojik namoyondalarining hayot yo‘lini mufassal yoritadi, ijodi, yashagan muhitni to‘g‘risida mukammal ma’lumot beradi. Ularning ijodini chuqur tahlil qiladi. Bemalol aytish mumkinki, o‘zbek kitobxonlari Umar Hayyom va boshqa fors-tojik namoyondalarining asarlarini Shoislom Shomuhamedov orqali o‘qib bahramand oldilar.

Biz Umar Hayyom ruboiyalaridan so‘ng Sh.Shomuhamedov ruboiyalarini o‘qib chiqsak, shoir asarlarida Hayyomning ta’siri qanchalik kuchli ekanligini ko‘ramiz. Umar Hayyom ijodini mukammal bilganligi uchun ham Shoislom Shomuhamedovning ko‘pgina ruboiyalarida Hayyom fikrining rivojlantirilganligini ko‘ramiz:

*Tomchi suv daryoda yo‘q bo‘lib ketdi,
Erga chang qo‘ndi-yu ko‘milib ketdi.
Dunyoga kelishing, ketishing nima?
Bir chivin tug‘ildi yo o‘lib ketdi.[2, 59-bet]*

Hayyom bu ruboysiда xalqqa, jamiyatga nafi tegmay, eldan ajralib kun kechiruvchi ayrim maqsadsiz kishilarni qadrsiz chivinga o‘xshatadi. Shoislom Shomuhamedov Hayyomning bu ruboysi ta’siri ostida o‘zining:

*Bir tomchi daryoga yutilib ketdi,
Ko‘p tomchidan daryo quturib ketdi.
Kuch-qudrat istasang, eling bilan bo‘l,
Ko‘pdan quyon qachon qutilib ketdi.*

degan ruboiy yozadi. Bunda shoir inoqlikda hikmat ko‘pligini alohida ta’kidlaydi. Chindan ham, xalqimiz “Yakka otning changi chiqmas, changi chiqsa ham, dongi chiqmas” deb bejiz aytmagan. Har bir inson el-yurtini jon dildan sevib, xalqi bilan hamdam bo‘lsa, ko‘zlagan natijaga orzusiga yetadi.

Umar Hayyom fors va arab tillarida bir qancha she’rlar yozgan, lekin uning ijodida son jihatidan ham, salmoq jihatidan ham asosiy o‘rinni ruboiy egallaydi. Umar Hayyom o‘z ruboiyalarida fors-tojik adabiyotida ishlanib, voyaga yeta boshlagan badiiy ifoda vositalaridan ham g‘oyat ustalik bilan foydalanish natijasida erisha olgan. Hayyom xalq og‘zaki adabiyotida qo‘llaniladigan jonlantirish vositasidan ustalik bilan foydalanar ekan, kulol tepib turgan loy ham tilga kirib, ajoyib so‘zlarni aytadi:

*Bar sang zadam do‘sh sabo‘I koshy,
Sarmast budam, ki kardam in avboshy:
Bom an ba zaboni hol meguft sabo‘,
Man chun tu budam, tu niz chun man boshy.[1, 71-bet]*

Shoir bu ruboiyda aytadigan fikrni tarjimon yaxshi tushunib, uni o‘zbek kitobxonlariga ajoyib ohang bilan yetkaza olgan:

*Mastdim, toshga urdim ko‘zamni bir kun,
Ul ko‘ngil tilidan chiqardi bir un:
Men ham sendek edim, sen ham oxiri
Bo‘lursan meningdek – ranjitmoq nechun.[2, 91-bet]*

Sh.Shomuhamedov Hayyomning barkamol mahoratini sinchkovlik bilan o‘rganib chiqqanligi tufayli uning ruboiyalarini tarjima qilayotgan paytda o‘ziga xos qofiya va ohang tanlay olgan.

Hayyom she’rni esda qoladigan qilish, uning ta’sir kuchini oshirish, undagi fikrlarni lo‘nda, maqsadni yaqqol qilish, kichkina she’r va ruboiyiga ulkan ma’no sig‘dirib, uni katta asarga aylantirib yuborishga juda mohir. Buning uchun xalq og‘zaki rivoyat va afsonalaridan, ulardagi mashhur obrazlardan juda o‘rinli foydalanadi. Sh. Shomuhamedov:

*Tanangda bor ekan tomir, suyak, pay,
Yashayver taqdiring uyidan chiqmay.
Yov Rustam bo‘lsa ham bo‘ying egma,*

Minnat chekma do‘sting bo‘lsa Xotamtoy.[2, 116-bet] deb shoirning quydagi ruboysiini tarjima qiladi:

*Todar tani sust ustuxonu ragu pay,
Az xonai taqdir maneh, be run pay:
Gardan maneh ar hasm buvad Rustami Zol,
Minnat makash ar do'st buvad Hotami Toy.[1, 83-bet]*

Bu ruboiyda xalq ertaklaridagi Rustam va saxiylik timsoli bo'lgan Hotam Toy obrazlari yaratiladi. Shoir bunday xalq rivoyatlari va afsonalaridan o'rini foydalanishi bilan asar ta'sirchanligini oshirgan.

Umar Hayyom ruboilyarini o'qir ekanmiz, bu asarlarning o'zbek adabiyoti taraqqiyotida ham ta'siri borligi seziladi. A.Navoiy, Z.Bobur kabi o'zbek mumtoz adabiyotining zabardast namoyondalari ijodida biz Hayyomona aytilgan ruboilyar va baytlarni ko'plab uchratamiz. Bu hol ko'p asrlardan beri davom etib kelayotgan adabiy hamkorlikni ko'rsatuvchi yorqin misollardan biridir.

Sh.Shomuhamedovning yana ko'pgina asarlarida Hayyom ruboiyotining ta'siri borligini yaqqol ko'ramiz. Shoir sharq adabiyoti vakillari asarlarini o'zbek kitobxonlariga tortiq etish bilan birga, ular ta'siri ostida bir qancha dilbar asarlar yaratdi. Uning ruboilyarida insoniy fazilat, odamiylik, Vatan, elga xizmat, axloq-odob mavzui bosh masala hisoblanadi.

Sh.Shomuhamedovning ruboilyari ixcham, pishiq va purma'noligi bilan kitobxonlarga ma'naviy zavq bag'ishlaydi. Tarjimon o'zbek kitobxonlarini sharq adabiyoti durdonalari bilan tanishtirish, ularni bu bebafo boylikdan bahramand etish yo'lida barakali ijod qildi. Ayniqsa, Umar Hayyom ijodi uning hayotida alohida o'rinn tutadi.

Adabiyotlar

1. Умари Хайём. Рубоиёт. Нашриёти Давлати Тоҷикистон. Сталинобод. 1955.
2. Умар Хайём. Рубоийлар. F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.
3. Саломов F., Комилов Н.. Жаҳонгашта рубоийлар. Таржима санъати (Мақолалар тўплами, 3-китоб). Адабиёт ва санъат нашр., Т.:1976 – 97-169- бетлар.
4. Саломов F., Комилов Н.. Дўстлик кўприклари. Адабиёт ва санъат нашриёти, Т.: 1979.
5. Шомухамедов Ш. Ҳам санъат, ҳам илм. Таржима санъати., мақолалар тўплами. F.Фулом нашр. 1973 й, 42-бет.
6. Брагинский И.С. «Теория художественного перевода как наука». «Проблемы востоковедения». Издательство «Наука», М.:1974. стр. 443.
7. «Ғиёсул луғат». II жилд.«Адиб» нашр. Душанбе, 1987- 366 бет.

Б.М.Мухиддинова

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ МАСТЕРСТВО ШАИСЛАМА ШАМУХАМЕДОВА ПРИ ПЕРЕВОДЕ РУБАИ ОМАРА ХАЙЯМ

Омар Хайям внёс неоценимый вклад в развитие жанра рубаи в поэзии Востока. При этом перевод его рубаи на другой язык, сохраняя содержание и эстетику исходного текста, требует высокое мастерство переводчика. В данной статье исследована переводческая деятельность и художественное мастерство переводчика Шаислама Шамухамедова рубаи Омар Хайяма.

Ключевые слова: переводческое мастерство, рубаи, стихотворный размер, ритм, сравнение, метафора, аллегория, ирония, сарказм, художественное мастерство, художественное развитие.

B.M.Muhiddinova

SHAISSLAM SHAMUKHAMEDOV'S INTERPRETING SKILLS IN TRANSLATION OF RUBAIS OF OMAR HAYYAM

Besides the unique place of Omar Hayyam in western rubaids, it needs great skill to explain his rubais in translation. This article investigate the works and literary skill of Shaislam Shamukhamedov who translates in rubais of Omar Hayyam.

Keywords:translation, skill, western rubaids, rhyme, tone, irony, literary greatness, devices of literary meaning.

UDK 494.3: 891.709

SAID AHMADNING BADIY ASAR TILI VA NUTQ MADANIYATIGA DOIR**QARASHLARI XUSUSIDA****B.Yo'ldoshev¹, D. Yo'ldosheva²***Samarqand davlat universiteti, ¹professor, ²mustaqil tadqiqotchi*E-mail: bek.47@rambler.ru

Annotatsiya. Maqolada taniqli yozuvchi, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmadning badiiy asar tili, nutq madaniyatiga doir ilmiy-nazariy qarashlari tahlil qilinadi, ulkan adibning "Badiiy asar tili masalalari" mavzuidagi "Davra suhbati"ga ishtiroki, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, O'lmas Umarbekov, Tog'ay Murod, Murod Muhammad Do'st singari taniqli yozuvchilarining til ustida ishslash mahoratiga oid fikr-mulohazalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy asar tili, nasriy asarlar tilining musiqiyligi, til haqida bahs-munozara, sarlavha tanlash san'ati, til qisqalikka intilmaydi.

O'zbekiston Qahramoni, Xalq yozuvchisi Said Ahmad (1920-2007) o'z ijodi davomida badiiy asar tili, uning o'ziga xos xususiyatlari, yozuvchilarining o'z asarlari tili ustida ishslash mahorati, nutq madaniyati, ommavviy axborot vositalari (OAV) tili haqida ham muhim fikr-mulohazalarini bildirgan edi. O'tgan asrning 80-yillariga kelib badiiy asar tili masalalariga bag'ishlangan bahs-munozaralar gazeta va jurnallar sahifalarida chop etiladigan bo'ldi. Masalan, ana shunday bahs-munozaralardan biri 1985-yilda «Sharq yulduzi» jurnalida e'lon qilingan bo'lib, «Badiiy til muammolari (zargarlikmi yoki kosiblik?)» deb nomlangan edi [1]. Mazkur «Davra suhbati»da atoqli adiblarimizdan Hamid G'ulomning «Davr ko'zgusi», Mirmuhsinning «Til - javohir» nomli maqolalari, xususan, Said Ahmadning "Boqimonda" jumllalar deb atalgan maqolasi e'lon qilindiki, bular kitobxonlarda katta e'tibor va qiziqish uys'otdi. Haqiqatan ham, adabiy til masalasiga, jumdadon, badiiy til masalasiga keyingi vaqtarda e'tibor ancha susayib qolgan edi. Shu jihatdan qaraganda «Sharq yulduzi» jurnalni tahririyatining bu masalani ko'tarib chiqishi hammaga ham manzur bo'lgan edi.

«Davra suhbati»da berilgan materiallar ichida, hech shubhasiz, taniqli adib Said Ahmadning maqolasi masalaning ko'lami bilan ham, keskin va ochiqchasiga qo'yilishi bilan ham alohida o'rinn egallaydi. Adib o'z maqolasida adabiy til va badiiy stilga taalluqli bo'lgan ko'pgina masalalar haqida kuyinib, ro'yi rost, asosan bilib gapirgan. Maqolada juda muhim masalalar ko'tarib chiqilgan. Shuning uchun ham bu maqola ko'pchilikning alohida e'tiborini qozondi va hozirgi kunga qadar qo'shimcha munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda.

Said Ahmad "Boqimonda" jumllalar nomli maqolasida «Men butun umrim davomida biron o'zbek olimining adabiy til yoki biron asarning tili to'g'risida yozgan maqola yoxud biron kichkinagina kitobchasiga ko'zim tushmadi»[1, 173-bet], - deb yozgan edi. Haqiqatan ham, Said Ahmad biron o'zbek olimi yoki adibining adabiy til haqidagi maqola yoki kitobini o'qimagan bo'lishi mumkin. Lekin shunday deb oshkora yozishi unchalik chiroyli chiqmagan, deb o'ylaymiz.

Darhaqiqat, hech bo'lmaganda Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida adabiy til, unda sinonimlarning roli haqidagi fikrlarni esga olish o'rinnlidir. Shuningdek, A.Qodiriy, Oybek, A. Qahhor, P.Qodirov kabi ulkan so'z ustalari ham badiiy til masalalari bilan maxsus shug'ullanib kelganlar. Masalan, A.Qodiriy badiiy asar tiliga oid «Yozishg'uvchilarimizga» (1926), «O'qish - o'rganish (mayda hikoyalar yozganda so'zni qanday tejash kerak)» (1936), Oybek esa "O'zbek poeziyasida til" (1935) singari maqolalar yozgan, P.Qodirov "Til va dil" (1972), "Xalq tili va realistik proza" (1973) nomli ilmiy risolalar, M.Hakimov "Yozuvchi va xalq tili" (1971) nomli monografiya yaratgan va hokazo.

Masalaga shu nuqtai nazardan qaraganda yuqorida eslatilgan «Davra suhbati»da Said Ahmadning: «Talantli yozuvchi bu holatlarni daftarga yozib yurmaydi...» [1, 173-bet], degan fikri ham bir oz munozaralidir. Chunki, birinchidan, yosh va boshlovchi yozuvchilar uchun yon daftar tutish, lug'at va boshqa xil manbalarni ko'rishning, xususan, til manbalarini o'rganishning ahamiyati juda katta. Ikkinchidan, talantli yozuvchilardan L.Tolstoy, M.Sholoxov, Oybek, A.Qahhorlar ham doim lug'atdan yoki yon daftardan foydalangan va xalq orasida yurib, xalq tilini sinchiklab o'rgangan.

Demak, Said Ahmad to'g'ri aytganidek, talantli yozuvchi tilni amaliy jihatdan mukammal bilishi va uni amalda, shu jumladan, badiiy adabiyotda ham o'rinni qo'llay olishi lozim va shart. Said Ahmadga o'xshagan so'z ustalari bu muhim vazifani o'z ijodlari davomida deyarli bekamu ko'st

bajarganlar, ular o'zlarining shu xizmatlari evaziga jamiyatda, xalq ichida, jumladan, filolog olimlar orasida ham katta obro'ga ega bo'ladilar, adabiy tilda foydalanishning yoki badiiy fikrlashning yoki badiiy nutqning yuksak namunasiga erishadilar. Lekin tilni amalda shunday mukammal darajada yaxshi bilgan kishilar ham bir oz tayyorgarlik ko'rmasalar, tilning tahlilida har xil kamchilik va xatoliklarga yo'l qo'yishlari mumkin.

Tildagi ixchamlitka intilish jarayoni qonun tusiga kirgan, muttasil davom etib turuvchi jarayondir. U, odatda, og'zaki nutqdan boshlanadi va bu holat yozma nutqda, ayniqsa sarlavhalarda va kitoblarning nomlarida, xalq tili va maqollarida ko'p uchraydi hamda ular bora-bora turg'un birikma yoki qo'shma so'zlarga aylanib, tilga tabiiy ravishda singib ketadi. Og'zaki va yozma nutqda boshlangan ana shunday qisqartirishlar ko'pincha dastlabki paytlarda birmuncha erishroq bo'lib tuyulsa ham, davrlar o'tishi bilan tilning umumiyligini qonuniyatiga, umumiyligini mulkiga aylanib qoladi [2].

Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraganda, Said Ahmadning A.Qodiriy, Oybek, A.Qahhor kabi ulkan yozuvchilarimiz asarlarining nomlarini tanqid qilib bunga sababchi «adabiy tanqidning sustligi» deb baho berishi ham unchalik to'g'ri emas. Masalan, Said Ahmad o'z maqolasida «*Mehrobdan chayon*» «*Mehrobdan chiqqan chayon*» yoki «*Mehrob chayoni*» deb atalsa to'g'ri bo'lar edi, deydi. «*Oltin vodiyidan shabadalar*» esa «*Oltin vodiyidan esgan shabadalar*» yoki «*Oltin vodiy shabadalarisi*» deb atalishiga tarafdir bo'lib chiqadi. «*Tobutdan tovush*» yozuvchi fikricha, «*Tobutdan chiqqan tovush*» deb tuzatilishi kerak edi.

To'g'ri, bu asarlar Said Ahmad aytgan tarzda atalishi ham mumkin edi (kontekst ichida bo'lgan taqdirda shunday atalishi lozim edi). Lekin nomlarni qisqartirib berishning qulayligi nuqtai nazardan qaraganda va tildagi ixchamlashish qonuniyatini hisobga olganda ushbu o'rinda A. Qodiriy, Oybek, A. Qahhor kabi ulkan so'z san'atkori, haqiqatan ham, beparvolikka yo'l qo'yganmikanlar?

Bizningcha, undayga o'xshamaydi. Chunki bu adiblarning qay darajada tug'ma talant ekanligi va tilni qay darajada yaxshi bilganligi aniq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ular tildagi ixchamlitka intilish qonuniyatini ham yaxshi bilganlar, deb bemalol ayta olamiz. Darhaqiqat, «*Mehrobdan chayon*» dastavval qulorra birmuncha erishroq tuyulsa.ham, lekin ushbu kontekstda eng ahamiyatli va bir-biri bilan semantik jihatdan munosabatga kirishmagan so'zlarni munosabatga kiritishi nuqtai nazaridan o'quvchining e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Agar uni «*Mehrob chayoni*» deb atasak, obrazlilik, ramziylik va ekspressivlik biroz susaygan bo'lardi. «*Oltin vodiyidan shabadalar*» haqida ham shunga o'xshash fikrni aytish mumkin.

«*Tobutdan tovush*» haqida shuni aytish kerakki, Abdulla Qahhor shu nomni ataylab, bila turib qisqartirgan va ixchamlashtirgan, chunki u keng komponentli nomni dastavval «Dardaqdan chiqqan qahramon» qissasida bergen edi. Demak, adib yangi asarida keng qurilmali (komponentli) nom (sarlavha)ni takrorlab o'tirishni xohlamagan. Qolaversa, yuqorida qayd qilingani singari A. Qahhor ham A. Qodiriyga o'xhab yoki undan ta'sirlanib, qovushmagan so'zlarni qovushtirib (munosabatga kiritib) nom (sarlavha) yasagan. «*Tobut*» va «*tovush*» komponentlarini biriktirib nom (sarlavha) yasash asarning satirik xarakterini (ohangini), ramziy-majoziy ahamiyatini (demak, obrazliligini ham) va ekspressivligini kuchaytirgan. Bu nomda ixchamlididan tashqari tovushlar takrori(uyg'unligi)ham ma'lum ahamiyat kasb etadi.

1985-yilda «Sharq yulduzi» jurnalida e'lon kilingan yozuvchi Said Ahmadning bu maqolasi tilshunos va adabiyotshunos olimlar orasida katta bahs-munozaraga sabab buladi. Shu maqola yuzasidan keyinchalik adabiyotshunos olim T.Rasulov «Til qisqalikka intiladi» nomli maqola bilan «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» (O'zAS) gazetasida chiqish qildi [3]. Gazetaning xuddi shu sonida yozuvchi S.Ahmadning «Til qisqalikka intilmaydi» nomli javob maqolasi ham berilgan edi [4].

T.Rasulovning fikricha, «*Badiiy asar tilida qisqalik qonunlari amal qiladi. Chunki xalqimiz xamir uchidan uzib olingen patir demaydi. Shunga ko'ra A.Qodiriy «Mehrobdan chayon», Oybek «Oltin vodiyidan shabadalar», A.Qahhoresa «Tobutdan tovush» sifatida kashf etgan sarlavhalarni tuzatishga hojat yo'q» [3]. Olimning bu fikriga e'tiroz bildirib S.Ahmad «*Tilning o'zi qisqalikka intilmaydi, qisqa qilish siz bilan bizning qo'limizda. Tabiatning bu bebafo in'omini ehtiyyot qilaylik*» [4], deb o'z javob maqolasini yakunlaydi.*

Said Ahmad ustozlaridan biri, ulkan so'z san'atkori Abdulla Qahhor ijodini shunday baholagan edi: "Abdulla Qahhor hikoyalariagi siqiqlik, so'zni isrof qilmaslik, tagdor gap aytish san'ati men uchun bir darslik xizmatini o'tadi" [5, 594-bet]. Said Ahmad tengdoshi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Mirmuhsinning "Umid" romani haqida so'z yuritar ekan, bu romanning "tili nihoyatda

shirali. Yozuvchi har bir personajga uning xususiyatiga qarab til tanlagan. Shuning uchun ham “Umid” o‘quvchilar qalbiga yo‘l topdi”, - deb ta’kidlagan edi [5, 569-bet]. Yoki Said Ahmad shogirdlaridan biri Nosir Fozilov haqida gapirib, “Men talantli ukam Nosir Fozilovga Jambul umridek uzoq umr, Oybekcha donolik, G‘afur G‘ulomga xos quvnoqlik, Qahhorcha puxta siqiqlik, Uyg‘uncha nafislik va kenglik tilayman”, - deb yozgan edi [5, 585-586-betlar].

Yozuvchi Said Ahmad hajvchilik talanti haqida gapirganda, hajvchining til ustida ishlashi haqida shunday ibratlari fikr-mulohazalarini bildiradi: “...hajvchi xalq tilini, shu tilning butun ranglari-yu ohanglarini boshqalardan ko‘ra nozik his qiladigan va uni juda chiroyli qilib, odamlar chehrasiga tabassum purkaydigan qilib aytib bera oladigan mahorat egasi bo‘lmog‘i kerak. U so‘zni so‘zga urishtirib jaranglatadigan, gap tagiga gap yashiradigan, so‘z bilan odamlar ruhini qitiqlaydigan, tinglovchini og‘ir ruhiy holatdagi muvozanatini buzib, engil, quvnoq, kayfiyat holatiga olib kiradigan bo‘lishi kerak...” [5, 588-bet]. Shu bilan birga, hajvchilikda lof va mubolag‘anining o‘rnini masalasi ham taniqli humorist yozuvchi Said Ahmad e’tiboridan chetda qolmagan edi: “Bo‘rttirish, mubolag‘a masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, faqat hajvchigina emas, jiddiy asar yozadiganlar ham lof, mubolag‘a qilsa, bu qusur emas, bir ijodiy usul deb qarash kerak. Har bir san’atkor o‘z maqsadi yo‘lida tilimizning, adabiyotimizning rang-barang usul, uslublaridan foydalanishi mumkin. Ammo har bir narsaning o‘z me’yori bo‘lishi kerak...” [5, 600-bet].

Shunisi e’tiborliki, Said Ahmad o‘tgan asrning 50-yillarida nohaq ayblanib, besh yil (1951-1955) qamoq jazosiga hukm qilinganda ham onasi Zulfiya aya va turmush o‘rtog‘i, hassos shoira Saida Zunnunovaga yozgan xatlaridabadiy asar tili masalalariga ham alohida e’tibor qilgan edi. Jumladan, u o‘z xatlaridan birida Saida Zunnunovaning “Kaptar” hikoyasi haqidashunday fikrlarni bildirgan edi: “... “Kaptar” hikoyangizni o‘qidim, yaxshi chiqibди. Tilni silliqlang. Jumlalarni qisqaroq tuzing...” [6]. Yoki Said Ahmad o‘z xatlaridan birida ulkan rus yozuvchisi I.Turgenev ijodi haqida shunday fikrlarni bildirgan edi: “Hozirgina Turgenevning “Pervaya lyubov” povestini o‘qib tugatdim. Ajabo, Turgenev asarlarini o‘qiganimda, menda go‘yo ajoyib kuy tinglagandek taassurot qoldiradi. Turgenev chinakam so‘z san’atkori...” [6, 110-bet].

Umuman, Caid Ahmad talqinicha, “o‘z xalqining yozuvchisi bo‘lish uchun G‘afur G‘ulomdek so‘zni o‘ynatadigan, faylasuf Oybekdek o‘zbekona fikr qiladigan, Qodiriydek o‘z tilining eng mayda zarralarigacha ko‘ra oladigan va uni o‘quvchisiga rangin bo‘yoqlarda etkaza oladigan, Qahhordek to‘pponchaning o‘qidek qisqa va o‘tkir til egasi bo‘lishi shart. Til bilmagan yozuvchi orqa etagini yopib adabiyotdan o‘z ixtiyori bilan chiqib ketgani ma‘qul” [7].

Said Ahmadtaniqli adib Murod Muhammad Do‘sni o‘ta milliy yozuvchi, deb hisoblaydi. Buxususiyat yozuvchining “Mustafo” qissasidagi kishilar tasvirida ochiq ko‘zga tashlanadi. CHunki bu qissada tasvirlangan kishilar bir-biriga sira o‘xshamaydi, yozuvchi ularning har biriga alohida til, alohida xulq-atvor bera olgan [7, 17-bet].

Said Ahmad iste’dodli yozuvchi Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi”, “Ot kishnagan oqshom” qissalarini respublika yozuvchilarining plenumida “keyingi yillarda yaratilgan asarlarning eng yaxshisi”, deb baralla aytgan edi. O‘sha yig‘ilishdagi nutqida atoqli adib Tog‘ay Murodni “o‘zbek tilini kuylatgan; o‘zbek tilining jami jilvalarini oftobga solib ko‘rsatgan yozuvchi” [7, 49-bet] sifatida ulug‘lagan edi.

Yozuvchi Said Ahmadning ayrim hikoyalarida qozoq xalqi vakillari nutqida qozoqcha so‘zlarni qo‘llashdek usuldan foydalanilgan. Taniqli adabiyotshunos olma va mohir tarjimon N.Vladimirova bilan suhbatda Said Ahmad bunday usuldagagi obrazlar haqida quyidagicha izoh bergen edi: “Qahramonlar nutqiga qozoqcha so‘zlarni kiritganining sababi shuki, o‘zbek xalqi, o‘zbek o‘quvchisi qozoq tilini yaxshi tushunadi... Umuman, qozoq xalqi vakillarining nutqida shu xalq tiliga xos ayrim so‘z va iboralarni berib borsa, yomon bo‘lmaydi...” [5, 615-bet]. Ana shu suhbatda yozuvchibadiy til mahorati va uni o‘rganish haqidagi quyidagi fikrlarni ham o‘rtaga tashlagan edi: “Keyingi paytlarda bizda so‘z san’atkori degan iboraning o‘zi qoldi, xolos. Yozuvchilar mutlaqo tildan chiqib ketib qolishdi. Men ikki narsani istayman va o‘sim ham shunga alohida ahamiyat beraman. Birinchidan, asarda tilning tiniqligi, ikkinchidan, o‘sha til bergen ruh, qandaydir musiqiylik bo‘lishi kerak...” [5, 617-bet]. Shu bilan birga ulkan adib qahramonlarning ichki dunyosini, ruhiy holatini yorqin tasvirlashda ichki nutqning roliga juda yuksak baho berib shunday degan edi: “Yozuvchi faqat qahramonning tilidagini yozmay, uni ichidan ham gapirtira bilishi kerak. Chunki

ichidan gapirtirilgandagina, qahramonning ichki olami ochiladi. Qahramonningichki olamini, ichidagi bo‘lgan ohangni, ichidagi dardni yozuvchi o‘z tili bilan olib chiqadi...” [5, 618-bet].

Shunisi e’tiborliki, Said Ahmad o‘zi yozgan komediyalarning tiliga ham jiddiy e’tibor berardi. Masalan, adibning “Kuyov” komediyasi aslida mashhur komik aktyor, O‘zbekiston Xalq artisti G‘ani A’zamov uchun yozilgan. Buni Said Ahmadning quyidagi so‘zlari ham to‘la tasdiqlaydi:

“G‘ani A’zamov ham ko‘pdan beri, men ham biron asarda bosh rol o‘ynasam yaxshi bo‘lardi, deb orzu qillardi. “Oltin devor”dagi Mo‘min obrazi unga qanot bergen edi. Men G‘ani aka uchun maxsusus “Kuyov” pesasini yozdim. Asar qahramoniga ham G‘anivoy deb nom berdim. Busan’atkorning jami ijodiy imkoniyatlarini ishga solishni niyat qildim. Pyesa bitguncha necha martalab o‘ziga o‘qib berdim. Pyesa bitib, repetitsiya paytalarida ham u kishidan qutulmasdim. Manavu so‘zga jindek qo‘shing, manavu so‘zni kalta qilib bering, deb turib olaverdi. Oxiri bir kuni qo‘liga pyesani berib, o‘z rolingizni o‘qing, og‘zingizga qarab gaplaringizni tuzataman, dedim. Yaxshiyam, shunaqa qilgan ekanmiz, yozgan gaplarim uning og‘zidan boshqacha, jonli, ohangli, kulgili bo‘lib chiqaverdi. Shu tariqa G‘ani obraziga jon bag‘ishladik” [7, 57-bet].

Shunday qilib, yangi o‘zbek adabiyotining yirik vakili, mohir so‘z san’atkori Said Ahmad o‘zining badiiy asar tili va nutq madaniyatiga doir ilmiy-nazariy qarashlari bilan ham o‘zbek adabiy jarayoning ravnaqiga salmoqli hissa qo‘shgan edi. Uning bu sohadagi xizmatlarini izchil tadqiq etish badiiy nutq uslubiyatining kelgusi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Badiiy til muammolari (zargarlikmi yoki kosiblik?) // Sharq yulduzi, 1985, 1-son. – B. 170-182.
2. Bu haqda qarang: Eltazarov J. Tildagi tejamlilik tamoyili va qisqaruv. – Samarqand: SamDU nashri, 2004. – B. 8-27.
3. Rasulov T. Til qisqalikka intiladi // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1985, 29-mart.
4. Said Ahmad. Til qisqalikka intilmaydi // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1985, 29-mart.
5. Said Ahmad. Saylanma (hikoyalar, komediya, miniatyuralar, adabiy o‘ylar). Uch jildlik. 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1982. – B. 594.
6. Said va Saida (muhabbat va sadoqat maktublari). To‘plab nashrga tayyorlovchi Nodira Said Ahmad qizi Xusanxo‘jaeva. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2015. – B. 82.
7. Said Ahmad. Toshlarda qotgan hayrat (adabiy o‘ylar, xotiralar, hikoyalar). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 17.

Б.Юлдашев, Д. Юлдашева
ВОЗЗРЕНИЯ САИДА АХМАДА О ЯЗЫКЕ
ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ И
КУЛЬТУРЕ РЕЧИ

В статье проанализированы научно-теоретические воззрения Саида Ахмада о языке художественных произведений и культуре речи, освещены участие видного узбекского писателя в полемике «Вопросы языка художественных произведений», а также его мысли о языке писателей Абдуллы Кадыри, Айбека, Гафура Гуляма, Абдуллы Каҳхара, Ульмаса Умарбекова, Тагай Мурада, Насыра Фазылова, Мурада Мухаммада Дуста и др.

Ключевые слова: язык художественных произведений, музыкальность языка прозаических произведений, полемика по вопросам языка художественных произведений, язык не стремится к сокращенности, искусство выбора заголовка, казахские элементы в речи персонажей, внутренняя речь героя.

B. Yuldashev, D. Yuldasheva
VIEWSOF SAID AHMAD
LANGUAGE ARTWORK AND
CULTURE OF SPEECH

The article analyzes the scientific-theoretical views Sayyid Ahmad of the language of works of art and culture of speech, osvesheny part of a prominent Uzbek writer in controversy "Questions of language works of art", as well as his thoughts on language writers Ulmas Umarbeova, Tagay Murad Nasir Fazylova, Murad Muhammad Douste and etc.

Keywords:language arts, musical language of prose works, the title is selected art, language.

**NAVOIYNING “TARIXI MULUKI AJAM” ASARIDA QO‘LLANGAN ARABCHA
O‘ZLASHMALAR**

A.Abduvaliyev, D.Abduvaliyeva

A.Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

Annotasiya. Maqlolada Alisher Navoiyning tarixiy asari “Tarixi muluki Ajam”da qo‘llangan arabiylar leksemalarning eski turkiy til hamda hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: leksikologiya, leksema, arabcha leksema, leksik birlilik, eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili, semantik o‘zgarish, ma’no torayishi, ma’no kengayishi, arxaizm.

Arabcha so‘zlar eski o‘zbek adabiy tilida keng qo‘llangan. Arabcha so‘zlarning o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashish omillari tadqiqotlarda yoritilgan [1-9] B.Bafoyevning statistik ma’lumotiga ko‘ra, Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan barcha so‘zlar 26035 ta [2, 19 b.] bo‘lib, shundan 7973 tasi [2, 29 b.] arabchadir. Xususan, TMA matnida 1188 ta arabcha so‘z qatnashgan bo‘lib, bu asar leksikasining 49 %ini tashkil qiladi. Asarda XV asr o‘zbek adabiy tilida keng qo‘llangan arabcha so‘zlar aks etgan bo‘lib, ular turli mavzuiy guruhlarga oid voqyelik, narsa-hodisalar nomlaridir.

Arabcha o‘zlashmalarining eski turkiy til davriga munosabati. Statistik tahlil asar leksikasida mavjud 1187 ta arabcha so‘zning 174 tasi eski turkiy tilda iste’molda bo‘lganini ko‘rsatdi, bu asar matnidagi jami arabcha o‘zlashmaning 15 % ini tashkil etadi. Arab tiliga xos umumlashtiruvchi otlar: *adab* (199), *adl* (200), *adovat* (201), *ahd* (205), *oqibat* (187), *din* (188), *dunyo* (204), *falak* (212), *fano* (233), *baqo* (233), *adam* (235), *himmat* (199), *hikmat* (202), *izo* (218), *imorat* (225); narsa-predmet nomlari: *kitob* (186), *libos* (208), *alam* II (bayroq) (189), *qalam* (216) va h.k.; shaxsni ifodalovchi so‘zlar: *rasul* (214), *vazir* (215), *hukamo* (195); mamlakat nomlari: *arab* (226), *ajam* (185); belgi xususiyat nomlari: *aziz* (188), *g‘alat* (206), *g‘arib* (187), *ma’lum* (208), *munqalib* (193), *xarob* (215), *olim* (186), *hakim* (194) kabilalar shular jumlasidandir. Ushbu o‘zlashmalar asar matnida lug‘atlarda qayd etilgan ma’nolarda uchraydi.

Arabcha o‘zlashmalarining eski o‘zbek tiliga xos semantik xususiyatlari. Arabcha so‘zlarning eski o‘zbek adabiy tili davriga xos quyidagi qo‘llanish jihatlarini kuzatish mumkin: 1) ko‘plikdagi otlar birlilik ma’nosida qo‘llangan: *af’ol* - “harakat”, “qiliq”, ma’nosidagi *fe’l* so‘zining ko‘plik shakli: ...*sen bu bedodni bu qavmg‘a qilmag‘aning yaxshiroqkim, agar ul sohibi davlat paydo bo‘lsa, sening bu af’olingni istimo‘ qilsa avlodingga‘ ko‘prak nuqson yetkurgay* (215); *atbo‘* - *tobe* so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, “tobe’lar, fuqarolar, qarashli kishilar, tarafdarlar, izdoshlar” ma’nosini ifodalaydi (ANATIL, I, 133). Asar matnida bu leksema ko‘plik ma’nosidan tashqari birlilik ma’nosida ham kelgan (225). *bahoyim* – “to‘rt oyoqli hayvonlar” (202); *vuzaro* (233) - “vazirlar” (ANATIL, I, 383); 2) so‘zlar ko‘plik *mahallot* (232), *havodis* (201), *sifot* (195), *ulamo* (211), *anjum* (229), *aflok* (212), *atfol* (209), *hadoyo* (227), *raoyo* (233), *manosib* (210), *holot* (220) va h. k.; sifatdosh *mutajabbir* (213), *mutakallim* (222), *mutanabbih* (212), *mutanaffir* (200), *mutahayyir* (226) shaklida kelgan.

Asar leksikasida arabcha so‘zlar eski o‘zbek adabiy tili davriga xos ma’nolarda qo‘llangan. O‘zlashmalarining bu davr tiliga xos ma’nolarini quyidagi so‘zlarning semantik tahlilida kuzatish mumkin. “Kishilarning yagona tilda so‘zlashish, yaxlit hududda istiqomat qilish, mushtarak iqtisodiy hayot kechirish, umumiylar madaniyat va ruhiyatga ega bo‘lish asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi” ma’nosidagi *millat* (O‘TIL, 2, 593) o‘zlashmasi eski o‘zbek adabiy tilida 1. “xalq, *millat*”; 2. “din, *mazhab*” ma’nolarida qo‘llanishda bo‘lgan (ANATIL, II, 304). *millat(un)* shakliga ega bu arabcha so‘z asli ko‘p ma’noli *malla* fe’lining “bir-biri bilan birlashtirdi” ma’nosidan yasalgan ot bo‘lib, avval “dini bir kishilar” ma’nosini anglatgan, keyinchalik “tili, yashash joyi, madaniyati, urfdodatining umumiyligiga asoslanuvchi jamoa” ma’nosini anglata boshlagan (O‘TEL, 2, 267). O‘rganilayotgan asar matnida bu o‘zlashma sakkiz o‘rinda “din, mahzab” ma’nosidagina qo‘llanishda bo‘lgan: *Gushtasp zardo‘sht dinin ixtiyor qilib, elni ham ul millatqa kiyurdi...* (197). Quyidagi jumlada *millat* so‘zi *qabul qil-* qo‘shma fe’li bilan sintagmatik munosabatga kirishib “ma’lum bir dinga e’tiqod qilmoq, shu dinga kirmoq” ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan: *Chun Qubod aning millatin qabul qildi* (223).

Arabcha o'zlashmalarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati. Asar leksikasidagi jami arabcha so'zlarning 76 % i hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanadi. Ular hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabatiga ko'ra quyidagilarga ajratildi:

1. *Eski o'zbek adabiy tili davriga xos ma'nolarda qo'llanadigan so'zlar* asar tilida ishlatilgan arabcha o'zlashmalarining asosiy qismini tashkil etadi. Masalan, *avlod* – “farzandlar, o'g'illar, nasi” (185), *adolat* – “haqqoniylilik, insoflilik, shafqatlilik, odillik” (187), *aql* – “idrok, zehn” (237) ma'nolarida qo'llangan. Shuningdek, *imityoz* (230), *insof* (205), *isloh* (191), *koriz* (191), *latofat* (230), *libos* (208) *mag'lub* (234), *mag'rib* (235), *mazmun* (195), *munajjim* (214), *musavvir* (210), *muhayyo* (209), *naqqosh* (211), *nuqson* (215), *saxovat* (221), *g'anim* (219), *haykal* (220), *hodisa* (218) kabi o'zlashmalar ham hozirda eski o'zbek adabiy tili davriga xos ma'nolarda qo'llanadi.

2. *Semantik o'zgarishlar bilan qo'llanadigan arabcha o'zlashmalar.* Asar leksikasida mavjud arabcha o'zlashmalarining ayrimlari hozirgi o'zbek adabiy tilida semantik o'zgarishlar bilan qo'llanadi. So'zlarning semantik strukturasidagi o'zgarishlar ma'no torayishi, muayyan semalarning iste'moldan chiqishi bilan xarakterlanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida semantik o'zgarishlar bilan qo'llanadigan arabcha leksemalar o'zgarish darajasiga ko'ra ikki xildir: a) so'z semantik strukturasida ma'no torayishi, ya'ni muayyan ma'nolarning hozirga kelib iste'moldan chiqishi kuzatiladi. “Hayotdagi muayyan bir holat, vaziyat, ahvol” (O'TIL, 5, 548) ma'nosidagi *hol* o'zlashmasi Navoiy asarlari tilida “on, vaqt, fursat” ma'nosida ham qo'llanishda bo'lgan (ANATIL, IV, 190). Xuddi shu ma'noda TMA matnida tubandagidek ifodalangan: *Bu holda yiroqtin qalin qaro paydo bo'ldi* (202). Hozirgi o'zbek adabiy tilida *hol* o'zlashmasi semantikasida ushbu ma'no kuzatilmaydi (O'TIL, 5, 548). *Azim* – bu so'z asli “buyuk bo'lmoq” ma'nosini anglatuvchi ‘azuma fe'lidan hosil qilingan sifat bo'lib (O'TEL, 2, 20), “ko'rinish, tuzilish, e'tibori bilan g'oyat katta, ulkan” ma'nosini anglatadi (O'TIL, I, 49). Ushbu o'zlashmaning asarda namoyon bo'lgan quyidagi ma'nolari hozirgi o'zbek adabiy tilida kuzatilmaydi. a) “ko'p, benihoya, hisobsiz”: ...*Bani Isroilg'a cherik tortib, azim qatllar qildi* (205); b) “og'ir, qiyin”: ...*otasini o'Iturgondin so'ngra aning ham jismig'a azim ranj tori bo'lub...* (231).

Bisot - bu so'z ko'p ma'noli basata fe'lining “yoydi” ma'nosidan hosil qilingan III bob masdari bo'lib, arab tilida “gilam” ma'nosini anglatadi (O'TEL, II, 76). Hozirgi o'zbek adabiy tilida “shaxsning, ko'pincha, xotinlarning o'ziga tegishli bo'lgan to'plab qo'ygan moli, mol-dunyosi” (O'TIL, 1, 281)ni umumlashtirib ifodalaydi. Ammo eski o'zbek adabiy tilida *bisot* birmuncha xususiy ma'noda aynan “gilam” ma'nosida ham qo'llanishda bo'lgan. Bunga asarda keltirilgan quyidagi majoziy ma'nodagi she'riy misrada guvoh bo'lamiz: *Faridunki olamga yoydi bisot...*(190) Shuningdek, Navoiy asarlari tilida ushbu o'zlashma “shahmat taxtasi” ma'nosida ham qo'llangan: *Ammo Shopur ani yangi boshtin shatranj bisoti vaz'i bila obodon qildi* (210). Bu ma'no ham hozirgi o'zbek adabiy tilida kuzatilmaydi (O'TIL, 1, 281).

3. *Hozirda qo'llanmaydigan arabcha so'zlar.* Asar matnida qo'llanishda bo'lgan o'zlashmalarining 24 %i hozirgi o'zbek adabiy tilida iste'moldan chiqqan so'zlardir. Undagi istorizmlar sirasiga quyidagi so'zlarni kiritish mumkin *sinon* (187) – “nayza uchi”, *harba* (187) “nayza”, *manjaniq* (226) – “manjaniq, palaxmon” kabi xarbiy terminlar; *sarir* (196) – “taxt”, *saqqa* (230) – “e'tiborli kishilar yo'lga chiqqanda yo'l changimasligi uchun yo'lga suv sepuvchi shaxs”, *janibat* (229) – “podshohlar safarga chiqqanda extiyot uchun olib yuriladigan ot”.

Asar matnidagi eskirgan so'zlarning asosiy qismini arxaizmlar tashkil etadi. Ushbu arxaizmlar semantik tabiatini *jibol* (216) “tog'lar”, *tavila* (208) – “otxona”, *tayr* (225) – “qush”, *tifl* (202) – “bola, go'dak, chaqaloq”, ko'plikda *atfol* (209) “go'daklar, yosh bolalar”, *qarn* (201) – “asr”, *qaz(z)*(187) – “xom ipak”, *tilmiz* (197) – “shogird, o'quvchi”, *farsh* (186) – “to'shak, gilam, palos” kabi so'zlar asosida izohlash mumkin.

TMA leksikasidagi arabcha so'zlarning struktur-semantik tahlili eski o'zbek adabiy tilidagi arabcha o'zlashmalarining funsional-semantik xususiyatlari, iste'mol darajasi haqida aniq ma'lumotlar berishi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar

- 1.Абдуллаев Ф. Ўзбек тили лексикасининг баъзи масалаларига доир: Тил ва адабиёт институти асарлари.–Тошкент, 1949, –Б.78;
- 2.Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент, 1983. – Б.19.

- 3.Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1989, –Б.200;
- 4.Боровков А.К. Лексика среднеазиатского “Тефсира” XII-XIII вв. – М.: 1963, –Б.367;
- 5.Камол Ф. Ўзбек тили лексикаси. – Тошкент, 1953, –Б.48;
- 6.Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати (Арабча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2003, –Б.267;
- 7.Тожибоева М. Алишер Навоининг “Илк девон”идаги арабча сўзларнинг лексик-семантик талкини. Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011, –Б.19.
8. Усмонов С. Ўзбек тилининг лугат составида тожик-форс ва арабча сўзлар // Навоийга армугон. – Тошкент, 1968, –Б.63;
9. Ҳасанова Д. Арабча лугавий ўзлашмаларнинг ўзбек тили номинатив ва дериватив тизимидағи ўрни. Филол. фанлари номзоди ...дисс. автореф. – Тошкент, 2011, –Б.21.

Foydalanilgan qisqartmalar

ANATIL – Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati, I-IV jildlar. – Toshkent: Fan, 1983-1985. I – 1983, 646 b; II – 1983, 642 b; III – 1984, 622 b; IV – 1985, 636 b.

O‘TIL – O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I – II . – M.: Rus tili , 1981. Tom. I. – 631; Tom. II. – 715 b.

O‘TIL-5 – O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild, 2006. – 680 b; 2-jild, 2007. – 688 b; 3-jild, 2007. – 688 b; 4-jild, 2008. – 606 b; 5-jild, 2008. – 592b.

TMA – Alisher Navoiy. Asarlar. O‘n besh tomlik. O‘n to‘rtinchi tom. – Toshkent: O‘zFAN, 1967. – 272 b.

O‘TEL – Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (Arabcha birliklar va ular bilan hosilalar). – Toshkent: Universitet, 2003. – 267 b.

А.Абдувалиев, Д.Абдувалиева
ЗАЙМСТВОВАННЫЕ СЛОВА ИЗ
АРАБСКОГО ЯЗЫКА В ПРОИЗВЕДЕНИИ
НАВОИ «ТАРИХИ МУЛУКИ АЖАМ»

В статье подробно описывается отношение арабских лексем, использованных в исторических произведениях Алишера Навои «Тарихи мулуки Ажам» к староузбекскому языку и современному узбекскому литературному языку.

Ключевые слова: лексикология, лексема, арабская лексема, лексические единицы, староузбекский язык, староузбекский литературный язык, семантическое изменение, сужение значения, расширение значения, архаизм.

A.Abduvaliev, D.Abduvaliev
ARABIC BORROWED WORDS IN THE
WORK “TARIKHI MULUKI AJAM” OF
NAVOI

The article presents the thorough analysis of the Arabian lexis which we often encounter in the historical work “Tarikh muluki Ajam” of Alisher Navoi and their influence to the old Turkish and modern Uzbek language.

Keywords: lexicology, lexem, Arabian lexis, lexis unit, ancient Turkish language, old Turkish language, old Uzbek literal language, semantic change, narrowing of meaning, widening of meaning, archaism.

UDK 42.415

PAREMIYALARING XUSUSIYATLARI VA ULARNI MADANIY ME’ROS SIFATIDA

O’RGANISH

A.T.Amanov

Samarqand davlat chet tillar instituti, o‘qituvchi

E-mail:abdugani.telmanovich@mail.ru

Maqola paremiologiyaning dolzarb muammosiga, yani maqol va hikmatli so‘zlarni madaniy me’ros sifatida o‘rganishga bag‘ishlangan. Undan tashqari, maqolada qiyosiy tipologik tahlil asosida uch tildagi (ingliz, rus va o‘zbek) misollar ekvivalentlari bilan birgalikda tahlil qilingan va ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: paremiya, ibora, tizim, semantika, birlik, aloqa, tahlil, xususiyat, ta’rif, mantiqiylilik, til.

Hozirgi zamon tilshunoslari oldiga qo‘yilgan dolzarb masalalaridan biri, paremiyalogiyaning

keng doirada va alohida bir fan sifatida o'rganishdir. Shu jumladan, paremiyalarning boshqa tillar bilan, xususan, o'zbek, ingliz va rus tillaridagi ekvivalentlari bilan qiyosiy tarzda o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Paremiologiya tilshunoslikning frazeologiya, tipologiya, leksikilogiya fanlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, asosan paremiyalarning strukturaviy jihatlari, tildagi uslubiy xususiyatlariga ta'rif beradi. Tilning paremiologik boyligi minglab paremiyalarni o'z ichiga oladi. Til milliy madaniyatning oynasi, uni saqllovchi xazinadir. Har bir xalq yashayotgan joyining tabiyati, u xalqning iqtisodiy tizimi, og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, urf-odatini o'zida aks ettirib, avloddan-avlodga yetkazib berish tilning milliy madaniy semantikatilning hamma qatlamlarida leksikasida ham, grammatikasida ham, hatto fonetikasida ham mavjud. Ammo milliy-madaniy semantika tilning harakatdagi birliliklari iuda ham aniq namoyon bo'ladi. Bunday til birliliklari paremiyalardir. Masalan: *No herb will cure love, (muhabbatga davo yo 'q)*. It's no good to cry over spilt milk (o'tgan ishga salovot). As you sow, shall you mow (ekkaningni o'rasan)

Paremiologiya so'zi grekcha paromia (hikmat) va logos (fan) so'zlaridan olingan bo'lib, ma'lum bir tildagi maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar sistemasini o'rganadigan fan. Demak, paremiologiya koinot qonuniyatlarini kuzatish, tur mush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi, xalqning jamiyatga munosabati, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobjiy fazilatlarini mujassamlashtirgan, avloddan-avlodga og'zaki tarzda ko'chib yuruvchi ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarini o'rganadi. Paremiologiyada fikrni ifodalovchi eng mayda birlik paremiya deb ataladi. Paremiyalar xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lganligi uchun adabiyotshunoslik fanining o'rganish ob'yektidir, chunki bu hikmatli iboralarning ko'pchiligi ko'proq she'riy, parallelizm anafora, qofiyalash, alleteraisya formasiga o'xshaydi va ularda o'xshatish, metafora, taqqoslash, kinoya, piching, kesatish kabi badiiy tasvir vositalari qo'llangan bo'ladi. Masalan: *When hell freezes (tuyaning dumy yerga tekkanda); Nothing is stolen without hands (qo'li qing'irning dili qing'ir). The devil is good to his own (qar'ga qarg'aning ko'zini cho'qimas)*. Paremiyalar so'zlardan tuzilib ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish obyektidir, chunki ular so'zlardan hosil bo'lishiga ko'ra oddiy gaplarga o'xshasa ham, mazmuni, strukturasi, ohangi va boshqa grammatik xususiyatlari jihatidan o'ziga xosliklarga ega.

Paremiyalarning qachon paydo bo'lganligini aniqlash qiyin, lekin shunisi aniqki, ularning ko'pchiligi juda qadim zamonlarda yaratilgan va ular o'zini ijod qilgan xalq bilan birga yashab kelmoqda. Har qanday hikmatli ibora ham ommalashib ketavermaydi, faqat jamiyatdagi ko'pchilik xalqning orzu-umidini, istagini, hayoti va fikrini aks ettirgan hikmatli iboralarga ommalashadi, avloddan-avlodga o'tadi, paremiyalarga aylanadi. *Nothing seek nothing find (harakatda barakat); Nothing can be done without hope (noumid - shayton); Another kettle of fish (o'zganining tilla qozonidan o'zingning mis qozoning yaxshi)*. Maqollar biror narsani lo'nda qilib tasdiqlaydi yoki inkor qiladi: *Like mother like daughter (Onasini ko'rib qizini ol); Look before you leap, strike while the iron is hot (Temirni qizig'ida bos)*.

Har bir paremiya ma'lum bir davrning mahsuli sifatida tug'iladi, yashaydi va ma'lum bir davrga kelib, iste'moldan chiqib ketadi [2, -b.19]. Paremiyalar davrlarning o'tishi bilan silliqlanadi, sayqal topadi, ma'lum qolipga tushadi, tayyor holdagi til birligi sifatida ishlataladi.

Tildagi so'zlar har xil tovushlarlardan hosil bo'lib, bir tushunchani bildiradi. Bu tushuncha esa dunyodagi ko'pchilik tillarda ham mavjud bo'ladi; Masalan: *man, bread, water, wifeva boshqalar*. Bu so'zlar orqali ifodalangan tushunchalar hamma tillarda ham bor, faqat, boshqacha tovush kompleksi bilan talaffuz qilinadi. Demak, tushuncha so'zning ichki tomoni dunyodagi ko'pchilik tillar uchun umumiyl bo'lib, so'zning tashqi tovushlar orqali ifodalanishi esa har bir tilning o'ziga xos xususiyatidir. Ana shundav umumiyl va xususiy hodisalar tilning barqaror hikmatli iboralar paremiyalarga xos bo'lgan xususiyatidir. Masalan, so'roqlab har qanday joyni topish mumkin degan mazmunni anglatuvchi paremiya turli xalqlarda turli so'zlar orqali ifodalaniladi: ruslar «Yazik do Kieva dovedyot» deyishsa, fransuzlar «qulangue a, a Rome va» deyishadi, o'zbeklar esa «So'rabs-o'rabs Makkani topibdi» [3, b. 15] deb aytishadi. Yoki o'zbeklar, tojiklar «Sukut – alomatli rizo» deyishsa, inglizlar «Silence gives consent» deydi. Shunday qilib, bu paremiyalar orqali ifodalangan fikr uning ichki tomoni bo'lib, qanday so'zlar bilan ifodalanishi esa tashqi tomonidir [1, b.12]. Bundan kelib chiqadiki, paremiyalar ichki tomonning bir xil bo'lishi shu xalqlarimizning yashash sharoitlariga

ham bog'liq, chunki hamma xalqlar ham o'z vatanlarini sevadi, mehnatkash xalq esa hamma yerda ham yalqovlarni yomon ko'radi, qo'rqoqlardan jirkanadi, o'zlarining ana shu tuyg'ularini esa qisqa, ixcham paremiyalarda ifodalaydi. *No seek no find. (Islamagan topmaydi); Actions speak louder than words (Gap bilguncha ish bil); Better late than never (Hechdan ko'ra kech yaxshi).*

Xulosa qilib aytganda, paremiologiyaning o'rganish obyekti juda keng bo'lganidek, paremiyalarning tiplari ham xilma-xildir. Ularning hammasi haqida fikr yuritish ancha mushkul va ushbu ilmiy maqolada paremiologik birliliklarning bir qismi: maqol tipidagilari haqida fikr yuritilib, ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritildi.

Adabiyotlar

- Каримов Б.А. Паремийная единица в словарном ракурсе на материале толковых словарей русского и английского языков: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2003. – 21 с.
- Пермяков Г. Л. Грамматика пословичной мудрости. Пословицы и поговорки народов востока. – Москва, 1979. – С.7-68.
- Садриддинова М.З. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент: ИЯЛ, 1985. – 20 с.

A.T.Amanov
**ИЗУЧЕНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ
 ПАРЕМИЙ И ИХ КУЛЬТУРНОГО
 НАСЛЕДИЯ**

Статья рассматривает актуальную проблему паремиологии и изучает пословицы и крылатые выражения, их роль в поддержании культурного наследия разных народов. Более того, в статье приводится сопоставительный и типологический анализ в трёх языках (английском, русском и узбекском) с примерами и эквивалентами на этих языках.

Ключевые слова: паремия, выражение, система, семантика, единица, отношение, анализ, черта, определение, логический, язык.

A.T.Amanov
**INVESTIGATION OF PECULIARITIES OF
 PROVERBS AND THEIR CULTURAL
 HERITAGE**

The article investigates the actual problem of paremiology and studies proverbs and sayings, their role in maintaining cultural heritage of different nations. Moreover, it demonstrates comparative and typological analysis of proverbs and sayings in three languages (English, Russian and Uzbek) with corresponding examples and equivalents in these languages.

Keywords: paremiya, expression, system, semantics, unit, relationship, analysis, feature, definition, object, logical, language.

UDK 81:1

MAKONNING O'ZIGA XOS UNIVERSAL TABIATI

S.A.Ikramova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Maqolada makonning universal tabiatini tahlil qilinadi. Bizni o'rab turgan olamning turli hodisalari va jarayonlari o'rtasidagi makon munosabatlari til sathlari vositalari orqali o'z ifodasini topadi.

Kalit so'zlar: universal tavsifi, makon, ifodalanish yo'li, inson, individ, faylasuf kategoriyasi.

Olimlar makonning o'ziga xos universal tabiatini haqida turlicha fikr bildirib kelganlar. Ularning fikricha, bir tomonidan, odam bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar makon real mavjud va obyektiv hajmlarga ega bo'lsa, ikkinchi tomonidan, makon subyektivdir, zero har bir kishi makon, uzoqlik yoki yaqinlik o'lchovi haqida o'z tasavvurlariga ega va h.k.; ular makonning borliqdagi boshqa hodisalar, jumladan, vaqt bilan bog'liqligini tadqiq etishadi; makonni qabul qilishning dualistik xarakteri va uning chegaralarga egaligiga ishora qilishadi; makonning geografik, ijtimoiy, psixologik, mental va b. turlari mavjudir.

Makon, falsafiy kategoriya sifatida moddiy hodisalarning qayerdadir turish, qandaydir holatdajoylashish, qandaydir shaklda bo‘lish kabi xususiyatlarini aks ettiradi. Makon – moddiy dunyoning umumiy mavjudlik shakli, u ko‘lam, tarkibiy shakllari va tuzilmalarining o‘zaro mutianosibligini belgilaydi. Makon xossalari harakatning tabiatni, darajasi va tezligi bilan aniqlanadi.

Makon kategoriyasining biror bir madaniyatning dunyo manzarasidagi ahamiyatini e’tirof etgan holda V. G. Gak *makon* bu odam atrof borliqni o‘rganish jarayonida qabul qiladigan dastlabki realliklardan biri ekanligini ta’kidlab o‘tgan [2, 128].

Bizni o‘rab turgan olamning turli hodisalari va jarayonlari o‘rtasidagi makon munosabatlari tilda morfologik, sintaksik va leksik til sathlari vositalari orqali o‘z ifodasini topadi. Makonning tilda aks etishida lokativ vaziyat tarkibi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. U bir necha unsurlardan tarkib topadi: lokallashuvchi predmet, oriyentir, ular o‘rtasidagi lokativ munosabat turi, harakat yoki holat subyekti, kuzatuvchi va lokativ munosabatning ibtidosi, ya’ni boshlang‘ich nuqtasidir [1, 6]. Lokalizasiya munosabatini ifodalovchi vositalar tizimini ayrim tadqiqotchilar leksik-semantik kategoriya hisoblaydilar. Bu kategoriyaga mansub birliklar ham xuddi boshqa leksik-grammatik kategoriylar singari shakl va mazmun birligidan iborat bo‘ladi [6, 7]. Lokalizasiya munosabatini ifodalovchi vositalar tizimini ayrim tadqiqotchilar leksik-semantik kategoriya hisoblaydilar. Bu kategoriyaga mansub birliklar ham xuddi boshqa leksik-grammatik kategoriylar singari shakl va mazmun birligidan iborat bo‘ladi [6, 7].

“Dunyoning makoni modeli» atamasi borliqni makon semantikasi bilan birga leksik vositalar yordamida talqin etish tushuniladi [5, 270]. Ye.S.Kubryakova fikricha, *makon* turli hajmlarga ega bo‘lishi mumkin, bu olamni antroposentrik tasavvur qilish bilan bog‘liq: insonning nazari uning atrofidagi obyektlarda qayd etilishi yoki uzoqdagi ufqa yoki yuksakliklarga qaratilgan bo‘lishi mumkin [3, 26]. Bilish va borliqni lisoniy vositalar orqali aks ettirish jarayoni davomida makon katta rol o‘ynaydi. Chunki aynan makon munosabatlari inson ongining fundamental konseptlarining shakllanishi negizida yotadi. Makonning ko‘p o‘lchovli va keng qamrovlligi, uning inson faoliyati va borliqni o‘rganishdagi ahamiyati tabiiy tilda makon haqidagi tasavvurlarni obyektivlashtirish maqsadida turfa xil usullar va vositalarni yaratadi.

Makon va ko‘lam bir biridan farqlanadi. Makon uch o‘lchovli, ko‘lam esa ikki o‘lchovli; ko‘lam – bu yuza, makon esa hajm demakdir. Makon tushunchasi, demak, miqdoriy tushuncha va uni intellektual usulsiz tushunib bo‘lmaydi, ko‘lam esa, aksincha, hisobga moyil va obyektlarning munosabati orqali aniq belgilanadi. V.G.Gak har qanday semantik maydonni to‘laqonli tahlili tadqiqotni ikki yo‘nalishda olib borishni taqozo etishini quyidagicha izohlaydi:

- Maydonni ichidan o‘rganish, uning bo‘linishlari va jihatlarini. Maydon ichida qator strukturalarni ajratish mumkin: makon turlari (o‘lchovlarda): *nuqta-chiziq-yuza-hajm*; makonning tashkillanishuvchioppozisiyalari: *markaz/periferiya; ochiq/yopiq makon*; obyektlarpozisiyasi, ularning makondagi bir biriga nisbatan joylashuvii: *yaqin / uzoq; o‘ngda / chapda* va h.k.; yo‘nalishlar, oriyentasiya; koordinatalar; uzunlik, masofalar, yuzalar, hajm va b. o‘lchovi; makonni qabul qilish: ko‘rinish, aspekt, burchak, nuqtai (nazar), yondashuv.

- Mazkur maydonning boshqa maydon bilan tashqi va aloqa munosabatlarini tadqiq etish. Mazkur yo‘nalish ikki vazifani ado etishni, ya’ni nominasiyalarning boshqa maydondan shu maydonga o‘tishi va, aksincha, shu maydondan boshqalariga o‘tishini o‘rganishni talab etadi. Uning fikricha «odam o‘zini dunyoning markaziga joylashtiradi. Barcha tillarda tana qismlari nomlari predmetlar qismlarini yo‘nalishi yoki joylashishini ifodalashga xizmat qiladi [2, 128].

Makoni ifodalar odam tomonidan yaratilgan yoki u tomonidan payqalgan predmetlar nomalariga borib taqaladi: “nina, o‘q” – **markaz**; “qamar” – **zona** hudud; ingl. plain (“arena”dan) – “harakat joyi” yoki space – “**makon, masofa**”; ingl. volume – “hajm”; angl. fringe (bukv, “popuk, shokila”) – “zona, xudud”. Bizning makonni qabul qilish, uni anglash va makon haqidagi tasavvurlarimiz ayrim chegaralarni zarurat bilan o‘z ichiga oladi.

Hech narsa bilan chegaralanmagan, cheksiz kattalikni biz uchun qabul qilish, anglash va fikran tasavvur qilish mumkin emas. Cheksizlik tushunchasining o‘zi tajribaga asoslanmagan, o‘y-xayolga asoslangan bo‘lib, uning negizida ijobjiy belgi emas, balki inkor etish, tabiiy berilgan belgini, cheklilik belgisini bekor qilish, ya’ni ma’lum ma’noda, psixologik reallikkha nisbatan zo‘ravonlik o‘tkaziladi. Poyon yoki oxirgi chegara har qanday bergilganlikni qabul qilish uchun psixologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

«Makon, – deb yozadi L.B. Lebedeva, – shunday mavjudlikki, undan tashqarida inson o‘zini tasavvur qila olmaydi va uningmakon bilan munosabatlarda kamida 2 psixologik tirkak, tayanch kerak bo‘ladi. birinchidan, ong subyekti - o‘zini doimo ideal makonning markaziga joylashtiruvchi va subyektga qarama-qarshi turuvchi chegara bo‘lmish «Men»yoki uning atrofida makonni yopuvchi chegaralar. Bu kabi umumiy xususiyatlar turli xildagi makon chegaralarini ifodalashda bizga xizmat qiladigan so‘zlarning semantikasida o‘z aksini topadi: *chegara, chet, poyon, chiziq*, - lekin bu so‘zlarning har birida bu o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ladi. Bu azaldan makoniylar so‘zlar - ular har qanday vaziyatlarda, masalan, xabar predmeti makon asosida talqin etilsa hamda turfa xildagi makonlarni tavsiflashda qo‘llanishi mumkin. Bu, xususan, «chegegaralovchi» so‘zlarni ularga yaqin bo‘lgan, biroq azaldan vaqt parametrлari bilan bog‘liq bo‘lgan *nihoya* so‘zidan farqlaydi [4, B.96].

Bizni o‘rab turgan makonni to‘ldirib turuvchi fizik obyekti(jism)larning miqdoriy xossalari, xususan, geometrik (xandasaviy) (makoniylar) ko‘lamlar qiymati orqali ifodalanadi. Ko‘lamlar nomlari: *height – balandlik; dimensions, space limitations, passages-hajm; depth - chuqurlik; distance, radius, range, amplitude – uzoqlik; diameter - diametr, distance-masofa, length-uzunlik; pattern, gauge, calibre-kalibr; volume, extent, size –hajm; length, extension-ko‘lam (bo‘y, en va balandlik); way, line, passage-yo‘l, radius-radius; angle, nook, halve-lever-burchakva* b. parametrik otlarning prototipik kichik semantik sinfini tashkil qiladi. Ko‘lamlar obyektlarni kattaligiga qarabta riflaydi, ya‘ni ularning makonning ma’lum qismlarini egallash xususiyatini aks etadi. Bundan tashqari ko‘lamlar bir necha obyektlarning o‘zaro joylashuvi haqidagi ma’lumotni ham o‘zida olib yurishi mumkin (masofa); obyektlarning kuzatuvchi pozisiyasidan oriyentasiyasi (u, masalan, sodda geometriyadagi fizik jismlarning uzunligi, balandligi va qalinligi o‘rtasidagi ma’lum muvofiqliklarda namoyon bo‘ladi; obyektlar shakli haqida). Makoniylar obyektlarning miqdoriy xossalari haqidagi tasavvurlar, qulochlilik g‘oyalari xilma xil nomakoniylar ishlatalidi, bu tabiiyki, tilda o‘z aksini topadi va parametrik so‘zlarda ma’jizi ma’nolarni yuzaga keltiradi.

Metaforik hodisalar, xususan, semantik maydonida kuzatiladi (*uzun, uzoq kun*), aksiologik baholashlar sohasida (*ko‘ngil kengligi*) mentallik sohasida (*bilimlar va aql kuchi, teranligi, chuqurligi*); faoliyat sohasida (*yuklarni tashish hajmi*), ijtimoiy munosabatlardan sohasida (*yuqori tabavali mehmon, shaharning past tabaqasi, qo‘l ostida ishlaydiganlarga ovozini ko‘tarish, kim bilandir yaqin munosabatlarda bo‘lish*, nomakoniylar, makonga tegishli bo‘laman kattaliklar ko‘lami olamida (*baland harorat, kam maosh*), abstrakt sonlar makonida (*X soni 1000 oshmaydi*) va h.k. Istioraning namoyon bo‘lishidagi bunday turfa xilma xillik ko‘lamlarni boshqa fizik kattaliklardan farqlovchi noyob xususiyati bo‘lmish ularning ko‘rgazmaliligi bilan belgilanadi.

Biror voqyea-hodisa doirasida hodisalarning kechishini belgilash lokallik kategoriyasining asosiy funksional-semantik dominantasi hisoblanadi. Voqyea-hodisalarning lokallashtirish bilan bog‘liq makon munosabatlari izohida «voqyeaviylik»ni o‘z ichiga olgankeng hajm ma’nosidagi otlar orqali ifodalanadi. Bizni o‘rab turgan olamning turli hodisalari va jarayonlari o‘rtasidagi makon munosabatlari tilda morfologik, sintaksik va leksik til sathlari vositalari orqali o‘z ifodasini topadi.

Adabiyotlar.

1. Всеволодова М. В., Владимирский Е. Ю. Способы выражения пространственных отношений в современном русском языке. – М., 1982. – С. 6.
2. Гак В. Г. Пространство вне пространства // Логический анализ языка. Языки пространств: сборник статей / Отв. ред. Н. Д. Арутюнова, И. Б. Левонтина. – М.: Языки русской культуры, 2000. – С. 127-135.
3. Кубрякова Е. С. О понятиях места, предмета и пространства / Е. С. Кубрякова // Логический анализ языка. Языки пространств: сборник статей / Отв. ред. Н. Д. Арутюнова, И. Б. Левонтина. – М.: Языки русской культуры, 2000. – С. 26.
4. Лебедева Л. Б. Семантика «ограничивающих» слов // Логический анализ языка. Языки пространств / отв. ред. Н.Д. Арутюнова, И.Б. Левонтина. - М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. - С. 93-97.
5. Смолякова Н. С. Понятийная категория пространства в семантической категории чуждости // Актуальные проблемы лингвистики, литературоведения и журналистики: Материалы IV научно-методической конф. Молодых ученых 11-12 апреля 2003 г. - Томск: ТГУ, 2003. – С. 269 – 272.

6. Эргашова М. В. Ўзбек тилида локум ва локализация муносабати: Филол. фанлари номзоди... дисс. – Тошкент, 2011. - Б.7.

C. A. Икрамова
**СВОЕОБРАЗНАЯ УНИВЕРСАЛЬНАЯ
ПРИРОДА ПРОСТРАНСТВА**

В статье анализируется универсальная характеристика пространства. Интерес к изучению языковых способов выражения универсальной категории пространства неслучаен, поскольку человек не существует вне пространства.

Ключевые слова: универсальная характеристика, пространство, способ выражения, человек, индивид, природа, философская категория.

S.I. Ikramova
**PECULIAR UNIVERSAL NATURE OF
SPACE**

The article investigates universal category of space. The interest in study of linguistic means of expression of universal category of space is not accidental, because a human does not exist outside of space.

Keywords: universal characteristics, space, means of expression, person, individuality, nature, philosophical category.

UDK: 81.367.7

LOKATIV SINTAKSEMALARING VOSITALARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

N.J.Sulaymanova

Samarqand davlat chet tillar instituti, katta ilmiy xodim-izlanuvchi

E-mail: sulaymanova.nilyusha@mail.ru

Mazkur maqolada turli tizimli tillarda, jumladan, ingliz va o'zbek tillarida lokativlik sintaksemalar va ularning antesedent vositalarini, ularning o'zaro mutanosibligi va hususiyatlarini aniq lisoniy metodlar asosida qiyosiy tahlil qilib o'rganish ilk bor amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: antesedent, anaforik vosita, gap tarkibi, lokativlik, lokativ adessiv, lokativ allativ, matn, sintaksema, substansional.

Mazkur maqolada gap qurilmasida lokativlik kategoriyasini ifodalovchi sintaktik birliklarni boshqa birliklar bilan bo'lgan o'zaro sintaktik aloqalarini aniqlab, ularni yunksion modellar yordamida, ularning differential sintaktik belgilarini komponent modellar asosida sintagmatik yo'naliishda tahlil qilish, ushbu komponentlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini va xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishni lozim ko'rdik. Gap tarkibida lokativlik kategoriyasini bunday kompleks tahlil qilish hozirgacha yoritilmagan ko'pgina jumboqlarning yechimini topish va ularning xususiyatlarini aniqlash bilan aloqador masalalarini aniq tasavvur etishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishildi:

- ishda ingliz va o'zbek tillari materiali zamirida lokativlik o'rnila kelgan sintaktik birliklarni komponent va sintaksemalarga ajratib, qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilishga ilk bor e'tibor qaratildi;

- qardosh bo'Imagan tillar tizimida lokativlikning strukturaviy-semantik talqini maxsus tadqiqot obyekti sifatida birinchi marta o'rganildi;

- lokativlik va uning deyktik holatidagi sintaktik birliklar ifodalagan sintaksemalarning o'zaro mutanosibligi va nomutanosibligi atroflicha oydinlashtirildi;

- badiiy matnlarda lokativlik va uning deyktik holatlarini sintaktik sathda semantikasini lisoniy metodlar asosida tadqiq qilish natijalari sintaktik tahlil va deyktik nazariyalarni, qiyosiy tipologik tadqiqotlarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Matn elementlarini aniqlashda ushbu matnga xos bo'lgan lisoniy tillardan o'r'in ravishlari yoki olmoshlari ergashgan qo'shma gaplar yoki mikromatnda anaforik yoki antesedent vazifasida kelib, bosh gapdagi yoki matndagi sintaktik birliklardan lokativlikni ifodalovchi elementlarga ishora qiluvchi sintaktik birliklarning differential sintaktik-semantik belgilarini aniqlash hamda ularning ifodalagan sintaksemalari lokativ sintaksemalarning qanday variantlariga mos kelishi haqida fikr yuritiladi.

A.Xojoyevning “Anafora parallel tuzilgan nutq parchalari misralar boshida aynan bir elementning takrorlanishidan iborat stilistik figura” deb ta’kidlasa, “Anaforik so‘z esa oldingi so‘z bildirgan shaxs yoki narsaga, oldingi aytilganga ishora qiluvchi so‘z” [3, b. 16].

Lokativ elementli gaplarni sintaksemalarga ajralib tahlil qilinganda, biz lokativ semalarini asosan kategorial differensial sintaktik-semantic belgilardan substansiallik bazasida tahlil qildik. Substansial lokativ sintaksemalar faqat ot so‘z turkumi bilan ifodalangan elementlar doirasida lokativ semalarining variantlarini aniqladik. Ammo, lokativ semalarining variantlariga ishora qiluvchi sintaktik birliliklarning sintaksem tarkibni aniqlash, ularning ifodalangan sintaksemalari substansial lokativ sintaksemalarning qaysi bir variantlariga mutanosibligi yoki nomutanosibligi tilshunoslikda ilk bor qiyosiy tadqiq qilinmoqda. Qo‘shma gaplar va mikromatn doirasida aniqlangan lokativ sintaksemalarga ishora qiluvchi anaforik vositalar asosida tahlil qilindi. Masalan: *1. She stood in the same place where she had stood the previous evening [5, b. 273]. 2. I came to ask if the secretary is in his office: “And will he be here tomorrow?” [5, b. 141]. 3. There was complete silence in the inn. Igor stood there, not knowing what to do [5, b. 20].*

Keltirilgan misollarda in the ... place (1), in ... office (2), in the inn (3) substansial lokativ adessiv sintaksemani ifodalaydi. Ushbu sintaksemaga ishora qiluvchi antesedent so‘zlar where, here va there sintaktik birliklar ham lokativ adessiv sintaksemani anglatib kelmoqda. Ushbu o‘rinda ta’kidlash joizki, where nisbiy olmoshi ergash gapni bosh gap bilan bog‘lovchi vazifasini ham bajaradi. Antesedent so‘zlarning lokativ adessiv sintaksemani ifodalashini isbotlash maqsadida almashtirish eksperiment metodidan quydagicha foydalanish mumkin:

(1) She stood in the same place where she had stood the previous evening → ... she had stood in the same place the previous evening.

(2) I came to ask if the secretary is in his office. “And will he be here tomorrow?” → ... “And will he be in his office tomorrow?”

(3) There was complete silence in the inn. Igor stood there, not knowing what to do → ... Igor stood in the inn, not knowing what to do.

Eksperiment hosilasidan ma’lumki, where, here, there antesedent so‘zlar ham lokativ adessiv sintaksemani ifodalab, tagma’ nodagi yoki substansial lokativ adessiv sintaksemaga mutanosibligi ko‘zga tashlanadi. Ammo where sintaktik birlik here va there lardan farqi shundaki, V.V.Slepesning ta’kidlashicha “... nisbiy olmoshlar differensial sintaktik – semantic belgilardan nisbiylikni yoki relyativlikni ifodalaydi” [2, b. 223]. Demak, birinchi gapda where – lokativ adessiv relyativ sintaksemani ifodalaydi. Keltirilgan misollarda substansial lokativ adessiv sintaksemalar ham antesedent so‘zlar ifodalagan lokativ adessiv sintaksemalar gap qurilmasida yadro predikativ 2 (NP_2) komponentiga tobe bo‘lib, subordinativ aloqa asosida bog‘langan. Navbatda esa substansial lokativ allativ sintaksema va uning antesedent elementlar ifodalagan lokativ allativ sintaksemaga e’tibor qaratmoqchimiz.

1. I never used to visit the park, but now I like going there [5, b. 55].

2. Today Igor was going to the station. He hadn’t been there for two days and yesterday they had unloaded vegetables [5, b. 64].

3. And then all that distance to Siberia whole weeks by train. They’ll get there with motors [5, b. 72].

Ma’lumki, lokativ allativ sintaksema ish-harakatini makon tomon yo‘nalishini anglatadi yoki subyekt suhbatushga ma’lum yoki noma’lum makondan aniq makon tomon qilgan yoki qilayotgan ish-harakatini ifodalaydi. Shuning uchun ham the park (1), to the station (2), to Siberia (3) sintaktik birliklar substansial lokativ allativ sintaksemani ifodalaydi. Ularning antesedentlari “there” ham lokativ allativ sintaksemani ifodalashini eksperiment metodining almashtirish usulidan foydalanamiz.

1. I never used to visit the park, but now I like going there → ... but now I like going to the park.

2. Today Igor was going to the station. He hadn’t been there for two days and yesterday they had unloaded vegetables → ... He hadn’t been to the station for two days

3. And then all that distance to Siberia whole weeks by train. They’ll get there with motors → ... They will get to Siberia with motors.

Tahlilning hosilasidan ma'lumki, lokativ allativ sintaksemani ifodalagan the park, to the station, to Siberia elementlarning differensial sintaktik-semantik belgilariga there ravishi ifodalagan semalar to'liq mos keladi.

Substansial lokativ ablativ sintaksema va uning antesedenti o'rin ravishlari ifodalagan sintaksema haqida gapirsak, lokativ ablativ sintaksema deganda subyektning yoki narsa-predmetning ma'lum makondan uzoqlashishini anglatadi:

The old woman ran out of the station quicker than was decent at her age. She got away from here [5, b. 73].

Gap tarkibidagi out of the station va from here sintaktik birliklar lokativ ablativ sintaksemani ifodalashini isbotlash maqsadida ularni bir-biri bilan almashtirish usulidan foydalanish mumkin:

The old woman ran out of the station quicker than was decent at her age. She got away from here → The old woman ran out of here/there quicker than was decent at her age. She got away from the station yoki faqat from here sintaktik birlikni oxirgi gap tarkibida from the station yoki out of station bilan almashtirish imkoniyati mavjud: She got away from here → She got away from the station/out of the station.

Ingliz tili misolida substansial lokativ sintaksemaning variantlaridan lokativ adessiv, lokativ allativ va lokativ ablativ sintaksemalarning antesedentlari ifodalagan sintaksemalarning mutanosibligi yoki koreferentlik holatlari aniqlandi. Shu borada qayd etish joizki, substansial lokativ sintaksemaning barcha variantlarida nomutanosiblik holatlar uchraydi. Ular haqida navbatdagi fasllarda gap boradi.

O'zbek tili misolida qaralganda substansial lokativ sintaksema variantlaridagi antesedent elementlarning mutanosiblik hodisalarini tahlil qilishda quyidagi faktlarga duch kelish mumkin.

Gap boshida yoki matn o'rtasida substansial lokativ adessiv sintaksema ot bilan ifodalani, uning antesedenti o'rin ravishlaridan iborat bo'lib, ot so'z turkumi singari o'rin payt kelishigi qo'shimchasi yordamida ifodalanadi.

1. Bu institutda saqlanadigan kitoblar o'zbek xalqining bebaho va daxlsiz madaniy boyligidir. Bu yerdagi ko'p kitoblar jahonda yagona nuxxalar hisoblanadi [4, b. 431].

2. Orolda kutib olinishimdan garchi zorlanmasam ham u yerda e'tibor qozonmaganligimi tan olishim kerak [1, b. 155].

3. Men Nottingempshirda tug'ilganman, u yerda otamning uncha katta bo'limgan mulki bor edi [1, b. 5].

Keltirilgan misollarda institutda (1), orolda (2), Nottingempshirda (3) substansial lokativ adessiv sintaksemani ifodalaydi, ularning antesedentlari (bu yerdagi, u yerda) ham lokativ adessiv sintaksemani ifodalab, koreferentlik vazifasini ifodalaydi. Ulardagi mavjud bo'lgan lokativ adessiv sintaksemalarni koreferentlik holatda kelgan lokativ adessiv sintaksemalarni o'zaro bir-biri bilan transformasiyaning almashtirish usulidan foydalanib, ularning bir-biriga mutanosibligini isbotlash mumkin:

1. Bu institutda saqlanadigan kitoblar o'zbek xalqining bebaho va daxlsiz madaniy boyligidir. Bu yerdagi ko'p kitoblar jahonda yagona nuxxalar hisoblanadi → Bu yerda saqlanadigan kitoblar o'zbek xalqining bebaho va daxlsiz madaniy boyligidir. Bu institutdagি ko'p kitoblar jahonda yagona nuxxalar hisoblanadi

2. Orolda kutib olinishimdan garchi zorlanmasam ham u yerda e'tibor qozonmaganligimi tan olishim kerak → U yerda kutib olinishimdan garchi zorlanmasam ham Orolda e'tibor qozonmaganligimi tan olishim kerak.

3. Men Nottingempshirda tug'ilganman, u yerda otamning uncha katta bo'limgan mulki bor edi → Men u yerda tug'ilganman, Nottingempshirda otamning uncha katta bo'limgan mulki bor edi.


Yig'ilgan misollarning guvohlik berishicha substansial lokativ allativ sintaksemaning antesedentlari lokativ allativ sintaksemaga mos kelmasdan, ular asosan lokativ adessiv sintaksemani ifodalaydi.


1. Qulay fursat topildi deguncha Londonga yo'l olar va u yerda ancha vaqt qolib ketardi [1, b. 264].

2. Nagasakiiga soqchilar bilan birga jo'nashimga ruxsat berishini tavoze bilan iltimos qildim. U yerda Yevropaga jo'nash uchun qulay fursat kutajagini aytdim [1, b. 194].

Misollardan ma'lumki, gap tarkibidagi "Londonga", "Nagasakiiga" sintaktik birliklar substansial lokativ allativ sintaksemani ifodalagan, ammo ularning antesedentlari "u yerda" lokativ

adessiv sintaksemani ifodalaydi. Bu gaplarni mutanosib bo'lgan sintaksemalar kabi erkin almashtirish transformasiyasiga tushmaydi.

(1) Qulay fursat topildi deguncha Londonga yo'l olar va u yerda ancha vaqt qolib ketardi
 Qulay fursat topildi deguncha u yerda yo'l olar va Londonga ancha vaqt qolib ketardi

(2) Nagasaki soqchilar bilan birga jo'nashimga ruxsat berishini tavoze bilan iltimos qildim.
U yerda Yevropaga jo'nash uchun qulay fursat kutajagini aytdim  U yerda soqchilar bilan birga jo'nashimga ruxsat berishini tavoze bilan iltimos qildim. Nagasaki Yevropaga jo'nash uchun qulay fursat kutajagini aytdim. Bunday sintaksemalarning, ya'ni antesedent ifodalagan sintaksemalar matn boshida ifodalagan sintaksemalarning nomutanosibligi haqida keyinroq to'xtashga to'g'ri keladi. Ushbu faslda biz asosan substansial lokativ sintaksemalar va ularning antesentlari ifodalagan sintaksemalarning mutanosibligi haqida to'xtalganmiz. Yuqorida qayd etilgan nomutanosiblik o'zbek tilida lokativ allativ posessiv, lokativ posessiv, lokativ ablativ, lokativ elektiv, lokativ translativ, lokativ obyekt sintaksemalarda ham uchraydi:

Mazkur maqlolada lokativlik kategoriyasini qo'shma gaplar va mikromatnda lokativlik doirasida anofara va antesedentlarni ingliz va o'zbek tillari misolida qiyosiy tahlil qilib quyidagi xulosalarga keldik.

Makonga ishora qiluvchi sintaktik birliklarni substansial lokativ sintaksemaning variantlari bilan sintaksemalarga ajratib qiyosiy tahlil qilinganda, ularning o'zaro mutanosibliklarini aniqlaganimizda substansial lokativ adessiv sintaksemani, uning antesedentlari here, there va where sintaktik birliklar ifodalaydi. Faqat where nisbiy olmoshi lokativ adessiv sintaksema bilan birgalikda, bog'lovchi vazifasida kelganda relyativlik sintaksemani ham ifodalaydi. Substansial lokativ ablativ sintaksemaning antesedentlari predlog + ravish from here/from there kabilar yordamida ifodalangan sintaksemalar to'liq lokativ ablativ sintaksemalarga mos kelib, antesedentlar koreferentlik vazifalarini o'taydi.

O'zbek tilida ham substansial lokativ adessiv sintaksemaning antesedentlari bu yerda, bu yerdagi, u yerda kabilar ham o'sha sintaksemaga mutanosib bo'lib, koreferentlik vazifasini bajaradi. Umuman har ikkala til misolida substansial lokativ sintaksemaning variantlarida adessiv sintaksema ingliz tilida in + S, uning antesedentlari where, here, there, o'zbek tilida esa S + da, uning antesedentlari bu yerda, u yerda, allativ sintaksema ingliz tilida S – uning antesedenti there, to + S ↔ there yordamida ifodalaniib o'zaro mutanosiblik bo'lsa, o'zbek tili variantida esa lokativ allativ sintaksemani S + ga yordamida ifodalansa, uning antisedenti u yerda – adessiv sintaksemani ifodalaydi. Qo'shma gaplar va mikromatnlar doirasida substansial lokativ sintaksema variantlari ifodalagan sintaksemalarning antesedentlari ifodalagan sintaksemalar mos kelmasligi mumkin. Substansial lokativ adessiv sintaksemaning ingliz tilida ularning antesedentlari lokativ allativ, lokativ translativ, lokativ agentiv, kvalitativlik yuklatilgan lokativ relyativ sintaksemalarni ifodalasa, o'zbek tilida esa faqat lokativ allativ va lokativ ablativ sintaksemalarni ifodalaydi.

Substansial lokativ ablativ sintaksemaning antesedentlari ingliz tilida lokativ adessiv, lokativ relyativ adessiv, lokativ ablativ, lokativ relyativ obyekt sintaksemalarni ifodalaydi. O'zbek tilida esa substansial lokativ allativ va limitativ sintaksemalarning antesedentlari faqat lokativ adessiv va lokativ ablativ sintaksemalarni ifodalaydi. Substansial lokativ obyekt sintaksemaning antesedentlari ingliz tilida lokativ relyativ adessiv, lokativ relyativ ablativ sintaksemalarni ifodalasa, o'zbek tilida lokativ adessiv va lokativ allativ sintaksemalarni ifodalaydi. Undan tashqari har ikkala tilda substansial lokativ identifikasiyalanuvchi va lokativ identifikasiyalovchi sintaksemalar uchraydi, ularning antesedentlari faqat lokativ adessiv sintaksemani ifodalaydi.

Adabiyotlar

- Жонатан Свифт. Гулливернинг саёҳатлари. – Тошкент: Адабиёт, 1974. – 296 б.
- Слепец В.В. О некоторых синтаксемах в современном английском языке, выраженных относительным местоимением which. Структура и значение предложения // Лингвистические исследования. – Москва: 1982. – С. 223-227.
- Хожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – 192 б.
- Фафур Ғулом. Асарлар. Олтинчи том. – Тошкент: Адабиёт, 1974. – 536 б.
- Rudolf Jasik. St. Elizabeth's square. – Birmingham: Artia, 1964. – 328 p.

Н.Ж.Сулайманова
**СРЕДСТВА ЛОКАТИВНЫХ
СИНТАКСЕМ И ИХ ОСОБЕННОСТИ**

Настоящая статья впервые на основе определенных лингвистических методов и сравнительного анализа исследует локативные синтаксемы и их антецедентные средства, а также их соответствия и особенности в разносистемных языках, в частности, в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: антецедентный, анафорический приём, состав предложения, локативность, локативный адессивный, локативный аллативный, текст, синтаксема, субстанциональный.

UDK 494.3: 891.709

BADIY-ESTETIK IFODADA SHAKL VA MAZMUN MUTANOSIBLIGI

O.S.Yusupova¹, S.M.Umirova²

Samarqand davlat universiteti, ¹katta ilmiy xodim-izlanuvchi, ²mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Poetik asarning mazmun va shakl jihatdan mukammallashishida, o‘ziga xos ijodiy topilmalar, betakror uslub yaralishida, she’ning chinakam ijod mahsuliga aylanishida har bir til birligi, jumladan, sodda gap, uning muayyan turlari ma’lum vazifa bajaradi. Maqolada bir she’r tahlili misolida poetik individuallikni ta’minlashda sintaktik birliliklarning o’rnini, tasviriylik va ekspressiv imkoniyatlari o’rganilgan.

Kalit so‘zlar: emotsiyonal-ekspressivlik, poetik individuallik, badiiy asar sintaksisi, sodda gap, sintaktik takror, sintaktik parallelizm, ritorik so‘roq, gradatsiya.

O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning «Shuhrat aka xotirasiga» she’ri [13.76] umrboqiy mavzu, g‘oya bilan sug‘orilgan asardir. Unda inson va umr, abadiylik va o‘tkinchilik, hayotning achchiq haqiqati – xoki turob bo‘lishga mahkum insoniyat qismati tasvirlangan. Aslida bu mavzu insoniyat bilan yonma-yon yashayotgan ko‘hna mavzulardan biri bo‘lib, U.Azim Umar Xayyom, Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Rumi g‘oyalarini davr va o‘z kechinmalari prizmasidan qayta o‘tkazib, unga yangicha ruh baxsh etgan. Masalan, Umar Xayyom: *Keksa, yosh – hayotga har kimki yetar – Hammasi izma-iz, birma-bir o‘tar. Bu dunyo hech kimgaqolmas abadiy, Ketdilar, ketamiz, kelishar, ketar* deb fig‘on cheksa, biz tahlil qilayotgan she’ning har bandi xuddi shu fikrlarning falsafiy davomidek tuyuladi. *Davlandmand-u xor-u zorlar, bechoralar, Dili but-u, dili yo‘g‘-u, dilporalar, Hukmfarmo poshshohlar-u fuqarolar – Odamizod bu dunyodan o‘tib borar ...Birodarim,«balandman» deb etma g‘urbat, Men – dil bo‘ldim; sen, hech qursa, bo‘lgin suhbat, Men ham turbat, senham turbat – kelsa navbat – Odamizod, odamizod o‘tib borar.* Garchi she’r dunyoning o‘tkinchiligi haqida bo‘lsada, uning zamirida inson shunchaki yashab, dunyodan o‘tib ketishi mumkin emasligi, u o‘ziga xos tarzda yashashi kerakligi, qandaydir ko‘rinishda, qaysidir shaklda bo‘lsa-da, yaxshi nom qoldirishi kerakligi haqida o‘ziga xos da‘vat mavjud. Ushbu she’r xudbin, o‘z nafsi yo‘lida minglab tinch insonlar hayotini barbod qilish, aldash, birovlarini qiyash kabi illatlarga o‘ralib qolgan, shunda ham inson nomini olib yashayotgan ayrim razil kimsalarga tutilgan ko‘zgudir. Shu o‘rinda Prezidentimiz I.Karimovning quyidagi fikrlari ko‘nglimizdan o‘tadi: «Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning ertangi kunini o‘ylab, odamlarni ezgulik, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag‘rikenglikka da‘vat etishga qaratilgan haroratlari so‘zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ya’ni, yozuvchi: «Ey odamizod, ko‘zingni och, sen nima uchun yashyapsan, inson degan yuksak nomga munosib bo‘lish uchun nima qilyapsan?» degan savollarni kitobxon oldida qat’iy qilib qo‘ya olsagina, o‘ylaymanki, o‘zining insoniy va ijodiy burchini bajargani bo‘ladi» [1.12].

She’ning ko‘zga yaqqol tashlanib turgan ikkinchi jihat – shakliy tomoni bo‘lib, unda bo‘laklar uyushishi va takrorlanishi asosida betakror misralar yaratilgan. Shoir bu she’rda takrorning bir necha turidan o‘ziga xos va poetik nutq talabiga mos tarzda foydalaniib, asarning emotsiyonal-ekspressivligini, estetik qimmatini oshirishga erishgan. Masalan, har bir band oxirida *Odamizod bu*

N.J.Sulaymanova
**MEANS OF LOCATIVE
SYNTAXEMES AND THEIR
PECULIARITIES**

The article investigates locative syntaxemes and their antecedent means, their accordance and peculiarities in various languages systems, the English and Uzbek languages in particular basing on definite lingual methods and comparative analysis.

Keywords: antecedent, anaphoric means, sentence structure, locativeness, locative adessive, locative allative, text, syntaxeme, substantional.

dunyodan o'tib borar (9 bandlik bu she'rning 7 bandi takrori aynan bir xil misra bo'lib, oxirgi ikki band takrori *odamizod*, *odamizod* o'tib borar tarzida qisman o'zgargan. Bu o'zgartirish ham mazmunni kuchaytirishga xizmat qilgan) misrasi takror qo'llanilib, kompozitsion jihatdan fikriy va hissiy yaxlitlikni ushlab turuvchi xalqa vazifasini bajargan. Ikkinchidan, asarning ta'sir kuchini oshirgan, uchinchidan, taktlar va intonatsion birliklarning bir xilligini vujudga keltirib, musiqiylikni yuqori darajada ta'minlagan. Misra takroridagi *odamizod* so'zi esa *odamzod* so'zining varianti bo'lib, vazn to'kisligi hamda musiqiy ravonlikni ta'minlashdan tashqari, emotSIONAL-ekspressivlikni oshirgan. Bundan tashqari, musiqiylikni yuzaga keltirishda har bir misrada misra takroridagi tovushlarga mos tovushlar takrori ham mavjud. Masalan, she'rning bиринчи bandida ko'п uchravdigan *t, r, b* tovushlari misra takroridagi *t, r, b* (*odamizod* so'zi oxiridagi *d* tovushining talafuzda jarangsizlashuvini e'tiborga olsak, bu ohangdorlik yanada ortadi) tovushlariga moyillashgan. Bunday tahlilni bandlar bo'yicha she'r yakuniga qadar davom ettirish mumkin:

Birinchi band Misra takrori	t – r – b t – b – r	Qator-qator, qator-qator, saf-saf bo'lib , Odamizod bu dunyodan o'tib borar.
Ikkinci band Misra takrori	n – z – r z – n – r	Navbat bilan tizilganlar, Ezganlar-u ezilganlar; Odamizod bu dunyodan o'tib borar.
Uchinchi band Misra takrori	b – r – o' b – o' – r	Yugurgilab, bir-bir bosib , o'ynab-o'ynab, So'y lab-so'y lab , o'ylab-o'ylab, bu dunyodan o'tibborar.
To'rtinchi band Misra takrori	d – o – r o – d – r	Davlatmand-u xor-u zorlar, bechoralar, Odamizod bu dunyodan o'tib borar.
Beshinchi band Misra takrori	b – o – r o – b – r	Bu qaro yer yutmoqlikdan tolmagaydir, Odamizod bu dunyodan o'tib borar.
Yettinchiband Misra takrori	t – a – b a – t – b	La'nat aytib, Rahmat aytib, Sukut aytib, Odamizod bu dunyodan o'tibborar.
Sakkizinchi band Misra takrori	t – o – r o – t – r	Qator-qator, qator-qator, Afgor-afgor, Odamizod, odamizod o'tib borar.
To'qqizinchi band Misra takrori	b – d – t d – t – b	Birodarim, « balandman»deb etma g'urbat – Odamizod, odamizod o'tib borar.

Tahildan ko'rinib turibdiki, shoir satrlardagi so'zlarning misra takroridagi tovushlarga mos kelishiga ahamiyat bergen. Bu esa yuqorida aytganimizdek, musiqiylik, o'ziga xos ritm uchun asos bo'lgan.

She'rning bиринчи bandida takroriy so'zlar (*Qator-qator, saf-saf, afgor-afgor, yo'q-yo'q, daf-daf, hayf-hayf*) qo'llanilib, emotSIONAL-ekspressivlikni kuchaytirgan. Takroriy so'zlarning bunday qo'llanishi she'rning uchinchi (*o'ynab-o'ynab, so'y lab-so'y lab, o'ylab-o'ylab*) bandida ham uchravdi. Takroriy so'zlar takror san'atidan farqlanuvchi lug'aviy-nutqiyl hodisa bo'lsa-da, badiiy asarda ma'lum uslubiy vazifa bajarishi manbalarda aytib o'tilgan [2. 60-63; 3.12; 6.60; 9.79]. Bundan tashqari takroriy so'zlarning poetik xususiyatlaridan mumtoz adabiyotda hamunumli foydalilanilgan hamda badiiy san'at darajasiga ko'tarilib, bu san'at turi mukarrar deb nomlangan: "Mukarrar – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, bayt misralarida juft yoki takroriy so'zлarni qo'llash. Ilmi badi'ga oid manbalarda mukarrarga berilgan ta'rif biroz farqlanadi: ayrimlarida bitta juft yoki takroriy so'zning ikki yoki undan ortiq o'rinda qo'llanishi mukarrar deyilsa, boshqalarida bayt tarkibida har qanday juft yoki takroriy so'z qo'llash mukarrar sanaladi [12.189]. U.Azim takroriy so'zlardan ham ohangdorlik, musiqiylikni hosil qilish, ham ma'noni kuchaytirish uchun foydalangan. Birinchi bandda takroriy so'zlardan tashqari sintaktik qurilmalar takrori, uyushiq bo'lak hamda sintaktik parallelizm bandni sintaktik jihatdan mustahkamlagan.

*Qator-qator, qator-qator, qator-qator,
Saf-saf bo'lib, saf-saf bo'lib, saf-saf bo'lib,
Afgor-afgor, afgor-afgor, afgor-afgor,
Yo'q-yo'q bo'lib, daf-daf bo'lib, hayf-hayf bo'lib –
Odamizod bu dunyodan o'tib borar.*

She'rning ikkinchi bandi uyushiq ega va misra takroridan iborat bo'lib, uyushiq egalar shoir maqsadini ixcham, lo'nda va esda qolarli tarzda ifodalashda faol ishtirot etgan. Shu sababdan,

A.Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” asarida gap bo‘laklarini bu xilda uyuşdırish ham san’at hisoblanishi ayтиб о‘тілган [7.46].

*Navbat bilan tizilganlar, tizilganlar
Ezganlar-u ezmaganlar, ezilganlar;
«Xudo» degan; tangrini bir sezmaganlar –
Odamizod bu dunyodan o‘tib borar.*

Banddagи zid ma’noli so‘zlar insonlar xarakterini qisqa jumlalarda ochib berishda shoirga qo‘l kelgan. Masalan, banddagи ezganlar-u – ezilganlar so‘zлari; «xudo» degan – tangrini bir sezmaganlar birikmalari fikrimiz isbotidir. Uchinchi bandda insonning qanday yashab o‘tishi

*Yugurgilab, bir-bir bosib, o‘ynab-o‘ynab,
Bu dunyoning yolg‘onidan so‘ylab-so‘ylab,
Goh qornini, goh qadrini o‘ylab-o‘ylab –
Odamizod bu dunyodan o‘tib borar*

mисралари орқали e’tirozga o‘rin qoldirmaydиган darajada ochib berilgan. Bu bandda takroriy so‘z, uyushiq ravish holi shoir maqsadini amalga oshirishga xizmat qilgan. Shoirningxalq og‘zaki ijodida keng qo‘llaniladigan saj’ usulidan unumli foydalangani ham misra jozibasini oshirgan, tabiiy va xalqona chiqishiga sabab bo‘lgan. Banddagи Yugurgilab, bir-bir bosib, o‘ynab-o‘ynab so‘zлari орқали fikr, tasvir holatidarajalanib, muttasil ravishda kuchaytirib borilgan. Hozirgi zamon adabiyotshunosligi va tilshunosligida bu gradatsiya deb yuritilib [6.48; 12.85], shoir bu usuldan har bir bandda foydalangan. Masalan, 1-banddagи yo‘q-yo‘q bo‘lib, daf-daf bo‘lib, hayf-hayf bo‘lib; 2-banddagи ezganlar-u ezmaganlar, ezilganlar; 4-banddagixor-u zorlar, bechoralar; dili but-u, dili yo‘g‘-u, dilporalar misралари fikrimiz dalilidir. Bandlardagi bu darajalanish fikrni ta’kidlashга, mazmunni kuchaytirishga xizmat qilyapti. To‘rtinchi band antonim va o‘zakdosh so‘zlarning qo‘llanishi орқали o‘ziga xoslik hosil qilgan:

*Davlatmand-u xor-u zorlar, bechoralar,
Dili but-u, dili yo‘g‘-u, dilporalar,
Hukmfarmo poshshohlar-u fuqarolar –
Odamizod bu dunyodan o‘tib borar.*

Beshinchi bandda shoir undov so‘z орқали o‘z hayajonini ifodalab, bu holatga befarq qarab bo‘lmaslikni uqtirib, hayajonni kitobxonga ham yuqtirmoqda.

*Bu qaro yer yutmoqlikdan tolmagaydir,
O‘lim aslo o‘z kasbidan tonmagaydir,
Vo darig‘o! Bir kas mangu qolmagaydir –
Odamizod bu dunyodan o‘tib borar.*

She’rdagi hayajon band oxiridagi *kas* so‘zi орқали yana ham oshgan. Shoir nega *inson, odam, kishi* so‘zларини qo‘llamasдан, uning sheva varianti, fors-tojik tilidan o‘zlashgan *kas* so‘zини ishlattyapti? Bir qaraganda, bandning 3-misrasidagi *kasbidan* so‘ziga *kas* so‘zi qofiyadosh bo‘lib, ichki qofiyani hosil qilib turgandek. Ammo she’r mazmuniga e’tibor bersak, shoir bu so‘zga juda katta «yuk» tashlayapti. O‘zbek tilining izohli lug‘атида bu so‘zga quyidagicha ta’rif berilgan: “Kas [f. – kimsa, shaxs] shv. Odam, kishi. Do‘st yig‘latib, dushmanimni kuldirma. Bu sirimni hech bir kasga bildirma” [10.326]. Biroq bu so‘zni o‘qiganda negadir shunga yaqin, salbiy ma’nодаги nokas so‘zi yodimizga kelganligi bois, shu so‘znijobiy ma’noda qabul qila olmaymиз. Shoir bu bilan taskin topmaydi, chunki u hali maqsadiga to‘liq yetgan emas. Shu sababdan u har birtil birligidan emotсional-ekspressivlik izlaydi, har qanday til birligini badiylikka xizmat qildirishga harakat qiladi. Masalan, kesimlik qо‘shimchasi -dir odatda ot-kesim tarkibida bog‘lama vazifasida keladi. Biroq quyidagi misралarda bu grammatik shakl fe‘l-kesimga qо‘shilib, ta’kidni kuchaytirgan va vazn to‘kisligini ta’milagan. *Bu qaro yer yutmoqlikdan tolmagaydir, O‘lim aslo o‘z kasbidan tonmagaydir, Vo darig‘o! Bir kas mangu qolmagaydir – Odamizod bu dunyodan o‘tib borar.* Keyingi bandda ritorik so‘roq gap va sintaktik parallelizm she’rning ta’sir kuchini yanada oshirgan:

*Qarayman-u yuragimda tugар bardosh,
Qanday qilib sizni asray qon-qarindosh?
Ko‘zimda yosh, ko‘nglimda yosh, so‘zimda yosh –
Odamizod bu dunyodan o‘tib borar.*

Yana bir bandda insonning umr oxirida hayotga, taqdirga, qismatga munosabati yuqoridagi misralardagidek ravish holi takrori, uyushiq bo'laklar bilan ifodalangan:

*La'nat aytib, la'nat aytib, la'nat aytib,
Rahmat aytib, rahmat aytib, rahmat aytib,
Sukut aytib, nola aytib – g'oyat aytib –
Odamizod bu dunyodan o'tib borar.*

Sakkizinchi bandda umrning qisqaligi, o'tkinchiligi, har daqiqada o'lim xavfi mavjudligi *ingichka ip* aniqlovchi aniqlanmishi orqali ta'sirli ifodalangan. Chunki bu ip har qadamda uzilib ketishi mumkin. Shunday ekan, inson o'ziga berilgan bu oliy ne'matdan oqilona foydalana bilishi, ezgu ishlari bilan o'zidan yaxshi nom qoldirishi kerak. *Ingichka ip – bul Hayotdan uzilishib... – Odamizod, odamizod o'tib borar.*

Oxirgi bandda shoir undalmani nihoyatda mohirlik bilan o'z o'mida qo'llagan. Chunki U.Azim odamizodga «*birodarim*» deb murojaat qiladi. Bu – shoirning ham shu insoniyat qavmidan ekanligiga, insoniy fazilatlar-illatlar, yutuq va kamchiliklar unda ham mavjudligiga ishoradir. Bandning yana bir sintaktik xususiyati qofiya talabi bilan kesim tarkibi almashganligidadir. Masalan, *g'urbat etmoq – etma g'urbat, bo'lgin suhbat – suhbat bo'lgin, kelsa navbat – navbat kelsa kabi. Birodarim, «balandman» deb etma g'urbat, Men - dil bo'ldim; sen, hech qursa, bo'lgin suhbat, Men ham turbat, senham turbat - kelsa navbat – Odamizod, odamizod o'tib borar. She'rdagi hech qursa* birikmasi kiritma vazifasida kelib, undan oldin kelgan ega mantiqiy urg'u olgan, kiritma esa shoirning qo'shimcha mulohazasini bildirishga xizmat qilmoqda.

Xullas, to'qqiz bandlik bu she'rda misra takrori, gap bo'laklari takrori she'rning shakliy tuzilishiga xizmat qilgan bo'lsa, uyushiq bo'lak, ajratilgan bo'lak, ritorik so'roq, undalma, kiritmalar she'rning mazmunini, ta'sir kuchini oshirgan. Bundan tashqari shoir o'z maqsadiga dastlab shakl orqali erishgan, ya'ni kitobxonni e'tiborini g'ayritabiyy tasvir bilan o'ziga tortgan. Ammo shoir faqat shaklbozlikka qiziqib mazmun tomonini unutib qo'ygan emas, undagi birinchi e'tibor mazmunga qaratilgan. She'rdagi har bir misra borliqning oliy shakli – inson, uning xarakteri, hayot tarzi, o'yayollari haqidadir; shoirning insoniyatniyaxshilik, ezgulikka chorlovidir. Bu bilan shoir o'z oldiga qo'ygan asl maqsadgaerishadi, ya'ni kitobxonga ma'naviy ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda A.Rustamovning quyidagi fikrlari bizning mulohazalarimizni isbotlaydi: «Asosan bilim tashnaligini asarning ma'rifiy tomoni qondiradi, amalni ezgu yo'lga solish vazifasini uning tarbiyaviy jihatni bajaradi va zavq talabiga uning badiiyati javob beradi» [7.21]. Shoirning ushbu she'ri uchala jihatni o'z ichiga olgan ijod namunasidir.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga e'tibor. –Toshkent: O'zbekiston, 2009.– 38 b.
2. Abdurahmonov X. Maqol va matallarda takror komponentlarning qo'llanishi // O'zbek tili va adabiyoti. 1973. №2. –B.60-63.
3. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san'atlar: Filol. fanlari nomz....diss.avtoref. – Toshkent, 1997. – 25 b.
4. Doniyorov X. Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. – Toshkent: Fan, 1988. –208 b.
5. Karimov S.A. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. (O'quv qo'llanma) – Samarqand:: SamDU, 1994. – 72 b.
6. Mirzayev I.K. She'riy matnning lingvopoetik tahlili muammolar: Filol.fan.d-ri... diss.avtoref.– Toshkent, 1992.
7. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent, 1979.–168 b.
8. Suvonova J. Usmon Azim she'riyatida badiiy tafakkur. – Toshkent, 2012.–94 b.
9. Shofqorov A. Mirtemir she'riyatida takrorning ma'noviy-uslubiy xususiyatlari. Filol. fanlari nomz....diss. – Toshkent, 2012. –143 b.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 671b.
11. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent, 1977. – 172 b.
12. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. –397 b.
13. Azim Usmon. Fonus. – Toshkent: Sharq. 2010. –160 b.

**O.С.Юсупова, С.М.Умирова
ОТНОШЕНИЕ ФОРМЫ И
СОДЕРЖАНИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННО-
ЭСТЕТИЧЕСКОМ ВЫРАЖЕНИИ**

В совершенствовании поэтического произведения с точки зрения содержания и формы при создании своеобразных художественных находок, неповторимого стиля, в превращении стихотворения в подлинное произведение искусства выполняет определенные задачи каждая единица языка, в частности, простое предложение и его типы. В статье изучен вопрос статуса синтаксических единиц в обеспечении поэтической индивидуальности, их изобразительных и экспрессивных возможностей на примере одного стихотворения.

Ключевые слова: эмоциальность, экспрессивность, поэтическая индивидуальность, синтаксис художественного произведения, синтаксис простого предложения, синтаксический параллелизм, риторический вопрос, градация.

**O.S.Yusupova, S.M.Umirova
THE PROPORTIONALITY OF
FORM AND MEANING IN THE
(EXPRESSION)
LITERARY (ETHE)AESTHETIC
EXPRESSION**

Every unit of language, for instance, simple sentence, its types hat a peculiar task in perfecting of poetic work in shape and meaning, forming of unique style, forming of poem. The article is imaginative and expressive possibilities, place of syntactic units in poetic individuality at the analyses of one poem.

Keywords: emotional-expressiveness, poetic individuality, syntax of literary work, simple sentence, syntactic repetition, syntactic parallelism, rhytoric question, gradation.

UDK: 81'271.2

**OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TILIDA NUTQ MADANIYATINING
ZAMONAVIY KONSEPSIYASI**

D.M. Teshabayeva

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori
E-mail: dilfuza_bonu@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ommaviy axborot vositalari tilida nutq madaniyatining zamonaviy konsepsiysi haqida fikr yuritilgan. Ommaviy axborotning nufuzi, avvalambor, uning keng xalq ommasiga qaratilganligi bilan izohlanadi. Bunda auditoriyaning o'zi ham OAV xodimlarining professional bilim va malakaga ega bo'lishini taqozo etadi.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, nutq, madaniyat, auditoriya, konsepsiya, jamiyat.

Hozirgi vaqtida jamiyat son-sanoqsiz OAV orqali yangiliklardan tezda voqif bo'lishdek katta va tezkor imkoniyatlarga ega bo'ldi. Axborot qanday tarzda qabul qilinmasin, u, baribir, til vositalari orqali o'z ifodasini topadi. I. A. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida: "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi" [1, B.83], - deya ta'kidlaydi.

OAV tilining maqomi ikki omilga, ya'ni biz til istilohini qaysi ma'noda tushunishimiz va OAV tili milliy tilning funksional turlari orasida qanday o'rinn egallab turganligiga bog'liq bo'ladi.

Hozirda OAV tili milliy tilning barcha funksional turlari orasida hukmron o'rinni egalladiki, unda barcha funksional uslublarning resurslari mujassamlashgan. Boshqacha qilib aytganda, OAV tili bugungi kunda, buni xohlaymizmi, yo'qmi, milliy tilning jamlama obrazidan iboratdir.

N. Mahmudovning fikricha: "... til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. ... millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir" [5, B.3]. A. Rustamov ham til sofligi millat mustaqilligining muhim sharti ekanligini e'tirof etadi [8, B.4].

OAVning paydo bo'lishi va keng tarqalishi inson taqdiriga, xatti-harakatiga, ongiga doimiy ta'sir etib turadi. F. Mo'minov bu haqda shunday yozadi: "Matbuot insonga matn orqali (mantiqiy) ta'sir qilsa, radio ham matn, ham ovoz bilan, televide niye esa, matn, ovoz bilan birga, tasvir ham qo'shilgan holda ta'sir qiladi. Shuning uchun televide niye auditoriyaga ta'sir etish borasida qisqa vaqt – 20-30 yil ichida boshqa vositalardan o'zib ketdi va yetakchi vosita bo'lib qoldi" [6, B.76].

Jurnalist nutqi auditoriya tomonidan me'yoriy nutq sifatida qabul etilgani uchun o'quvchi, tinglovchi yoki tomoshabin, ayniqsa, yoshlar o'zlarining sevimli jurnalistlari, tele- va

radioboshlovchilariga taqlid etishga intiladilar, ularning nutqini “ko‘chira boshlaydilar”. Ana shunda auditoriyaga til vositasida nutqiy ta’sir qilinadi. Jurnalist jamoatchilik fikri va dunyoqarashini shakllantirish uchun o‘tkir tilga ega bo‘lmog‘i lozim. O‘z fikrini lo‘nda va aniq, har qanday informasiyani, turli-tuman voqyealar haqida, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy, ma’naviy taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi axborotni ommaga yetkazishda sodda, tushunarli tilda bayon etishlik jurnalistdan mahorat talab qiladi [7, B.25].

Avvalgi *adabiy so‘zlashuv va oddiy so‘zlashuv nutq madaniyatları* yangi tasnifda *maishiy nutq turi* nomi ostiga birlashtirildi. Bu ular o‘rtasidagi chegaralarni “yuvib yuboradi”. Mazkur yangi atama “so‘zlashuv nutqi madaniyati”, “so‘zlashuv uslubi”, “so‘zlashuv nutqi” kabi tushunchalarning aralashib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Norasmiy vaziyatlarda bunday nomlanishlar har qanday turdagи nutq madaniyati ifodasiga mos keladi. Shuning uchun “maishiy nutq madaniyati turi” iborasi bu fikrni aniqroq ifodalaydi [11, B.56].

Til o‘zi aks ettirgan jamiyat va tabiat kabi murakkab hodisa bo‘lgani kabi, uni ilmiy tadqiq va talqin etishda turfa yondashuvlar mavjudligi ham kuzatiladi. Aynan shu hol til hodisasini turlicha yoritishga sabab bo‘ladi. Azaldan nutq madaniyati insonning umumiy madaniyati tarbiyasida asosiy omil bo‘lib xizmat qilib kelgan. Antik davrdan buyon to‘g‘ri va sof nutq – to‘g‘ri ijtimoiy xulq-atvor belgisi, yuqori darajadagi fuqaro ongliligi namunasi sifatida qadrlab kelingan. “To‘g‘ri nutq madaniyati mazmunini talqin etishni barcha ezguliklar darajasida o‘rnak bo‘la oladigan to‘g‘ri gapirishni ham o‘z ichiga oлган ulkan mazmunni o‘zlashtirish bilan birga o‘rganamiz” [3, B.38].

Nutq madaniyati saviyasini oshirish til taraqqiyotining barcha bosqichlarida ziylolar e’tiborini tortib kelgan. Ommaviy muloqot OAV yaratilgan davrdan boshlab yana ham dolzarblashib qoldi. Uning hal qilinishi adabiy tilga to‘g‘ri munosabat, uni asrash, boyitish, sofligi uchun kurashish kabi bir qancha masalalar yechimi bilan bog‘liqdir.

Nutq madaniyati har qanday kommunikativ vaziyatda, engavvalo, *xatosiz gapirishni* anglatadi. To‘g‘ri fikrlash, to‘g‘ri so‘zlash madaniyat belgisi sifatida tan olinmoqda [10, B.21]. Xatosiz yoza olish, ya’ni “imlo, bu – savodxonlik demak. Savodxonlikesamadaniylikbelgisidir” [9, B.32].

Hozirda nutq madaniyatining zamonaviy konsepsiysi haqida ko‘p fikr bildirilmoqda. “Kultura russkoy rechi” darsligida nutq madaniyatining uch aspekti- me’yoriy, etik, kommunikativlik haqida to‘xtalib o‘tilgan [4, B.15]. Ba’zitadqiqotlarda ularningto‘rtaspekti (me’yoriy, etik, kommunikativ, ritorik) ko‘rsatilgan.

Nutq madaniyatining kommunikativ aspekti eshituvchi tomonidan to‘la anglab olinishi uchun muloqot amaliyotida nutqning kommunikativ muvofiqlik shartlariga amal qilishini taqazo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, tozalik, boylik, ta’sirchanlik, o‘rinlilik, tushunararlilik kabi sifatlar bilan o‘lchanadi.

Nutq madaniyatida kommunikativlik to‘g‘ri va mazmunli nutq tuza olish bilan bog‘liq. Bu xususdagi dastlabki qarashlar Aristotelga tegishli. U notiqlikni san’at sifatida tan oлgan holda, avval yaratilgan nazariya va kuzatuvlarini umumlashtirib nutq sifatlari haqidagi ta’limotni yaratdi. Mazkur ta’limot asosan tushunararlilik prinsipiga tayanadi. “So‘z orqali ifodalanishdagi eng asosiy yutuq bu – tushunarli bo‘la olishlikdir”, [2, B.58] deya ta’kidlaydi Aristotel “Poetika” asarida. U yana shuni ham e’tirof etadi, yaxshi nutqdagi zarur sifatlar – to‘g‘rilik, aniqlik, o‘rinlilik, hammaboplilik, qulqoqa yoqimlilik, soqlik kabilalar aynan tushunararlilikka bo‘ysunadi va uning maksimal darajada namoyon bo‘lishiga olib keladi.

Nutqning aniqligi auditoriya tomonidan OAV matni to‘g‘ri tushunilishini ta’minlovchi yana bir mezondir. OAV matnlarida nutq aniqligiga amal qilish uchun jurnalist so‘z va so‘z birikmalarini ma’noga mos holda qo‘llashi lozim. U nutqni shunday tuzishi kerakki, auditoriya uni noto‘g‘ri anglamasin. OAV matnlarida aniqlikning ikki turi kuzatiladi:faktik; nazariy. Faktik aniqlik deganda jurnalistikada berilayotgan ma’lumotning to‘g‘ri bo‘lishi, buzib talqin etilmasligi nazarda tutiladi. Aniqlikning mazkur turi OAV matnlarining afzalligi sifatida tan olinadi.

Juda ko‘p faktik materiallar shuni ko‘rsatib turibdiki, axborot tarqatish va yetkazish sur’ati oshgani sari uni ifodalash saviyasi yomonlashmoqda. Axborot texnikasi har qanday boshqa texnik vosita kabi insonni nutqiy faoliyatda ham juda passiv, dangasa va yalqov qilib qo‘ymoqda. Axborotning ulkan ummoniga g‘arq bo‘layozgan insoniyat u haqdagi o‘z fikrlarini aytishga ulgura olmayotganligi ham umumiy nutqiy madaniyat saviyasining pasayib ketishiga olib keldi.

Jurnalistning yozma va og'zaki nutqida aniqlikning buzilishi quyidagi holatlarda kuzatilmogda.

Mantiqiy jihatdan voqyelikka zid tushunchani ifodalovchi so'zlarning ishlatalishi. Masalan: "*Endi e'tiboringizni mana bu xatlarga qaratsak*" (R. Yoshlar.); "*Navbatni kuy va qo'shiqqa bersak mm-mm- endi qo'shiq va raqslar tinglab dam olishingizni tilagan holda siz bilan...*" (R. Mash'al.).

So'z ma'nosiga e'tibor bermaslik oqibatida ham aniqlik buzilishi kuzatilmogda: "*O'smirga pichoq yordamida berilgan zarbalardan o'lgan*" (TV.O'z-n.); "...*Xalq vakillarining Butunxitoy majlisi sessiyasida bu masalaga e'tirof qaratildi*" ("Ma'rifat"); "*Guvoхlar inobatga olinmadi*", "*Shu o'rinda biz ba'zi - bir xujjalor va guvoхlar e'tirofini keltirib o'tib...*"; "... *unda nega uy Xoliq boboning mulki deb e'tirof etildi*" ("Xurriyat").

So'zning noo'rin tanlanishi oqibatida: "...*guvoхlarning guvoхlik berishicha*" (TV.O'z-n.). Bu yerda ko'rsatma so'zi ishlatsa, aniqlik buzilishining oldi olingan bo'lar edi. "...*guvoхlarni ko'rgazma berishicha...*", (TV. O'z-ton). Ko'rgazma so'zining o'rniga ko'rsatma bo'lishi kerak.

Nutq o'rinli bo'lsagina, samarali bo'lishi mumkin. O'rinli nutq deb kommunikativ vaziyatning barcha mezonlariga mos keluvchi nutqqa aytildi. Jurnalist nutqida xoh u og'zaki (radio, televiedeniye), xoh yozma bo'lsin, mazmun va stilistik jihatdan o'rinlilikka e'tibor beriladi. Jurnalist matnida gaplar bir-biriga o'rinli bog'lanishi va mazmunan to'g'ri kelishi kerak.

Tinglovchi, o'quvchi va tomoshabin berilayotgan ma'lumotni shubha bilan qabul qilmasligi kerak. Masalan: "... *tib ilmi sultonı Ibn Sino bobomiz g'azablanishdan saqlanishga undagan. Chunki inson g'azablanganda miyaga chiqayotgan qon qaynaydi va keyinroq ana shu qaynab zararlangan qon qaysi a'zoga borib cho'ksa, o'sha a'zo albatta shikastlanar ekan...*" (TV.O'z-ton). *Miyaga chiqayotgan qon qaynaydi* jumlasida jurnalist xuddi bu ma'lumotni o'zidan berayotgandek tuyuladi. Bu yerda uslubiy xatoga ham yo'l qo'yilgan.

Shunday qilib, nutq madaniyatini egallash, ayniqsa, tildan mahorat bilan foydalana olish, birinchi navbatda, aynan jurnalistlar uchun muhim. Zero, qalam ahli uchun til faqat professional faoliyat quroligina emas, balki OAV tili auditoriya tomonidan ongli yoki g'ayrishuuriy tarzda o'zlashtirib olinadigan o'ziga xos "namunaviy" til bo'lib xizmat qiladi. Ana shu namunani, ya'ni til me'yorlarini OAV orqali o'zlashtirgan auditoriya keyinchalik uni o'z nutqida keng qo'llaydiki, bu, o'z navbatida, jamiyatda yangi, to'g'ri yoki noto'g'ri til me'yorlarining qaror topishiga olib keladi. Shu boisdan ham asosiy OAV adabiy tilni shakllantirishga alohida e'tibor qaratadilar, muayyan ma'noda mamlakatda ona tili rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadilar, ya'ni adabiy tilning zamonaviy me'yorlarini shakllantirish va tarqatishning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Каримов И. А. Юксак маънавият - енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 83.
2. Аристотель. Поэтика. Риторика – М., 2000. - С. 58.
3. Горбачевич К. С. Вариативность слова и языковая норма: На материале современного русского языка. - Л.: Наука, 1978. – С. 38.
4. Культура русской речи. Учебник для вузов. – Москва: Норма-Инфра, 2000. - С. 15.
5. Махмудов Н. Ўқитувчи нутқ маданияти. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 3.
6. Мўминов Ф. Журналистика ижтимоий институт сифатида. – Тошкент, 1998. – Б. 76.
7. Пардаев А, Рўзиев Ф, Маҳамадалиев Х. Журналистика тил ва ифода. –Тошкент: Истиклол, 2006. – Б. 25.
8. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Extremum press, 2010. – Б. 4.
9. Салимова С. Матбуот тили ва имло // Ўзбекистон матбуоти. - № 5, 2005. – Б. 32.
10. Сиротинина О. Б. Устная речь и типы речевых культур. // Русистика сегодня. – Москва, 1995. - Вып. 4. - С. 3-21.
11. Сиротинина О. Б. Типы речевых культур и проблема кодификации норм // Словарь и культура русской речи. К 100-летию со дня рождения С. И. Ожегова. – М., 2001. – С. 56.
12. Солганик Г. Я. Место языка СМИ в литературном языке. Перспективы развития. Язык массовой и межличностной коммуникации. – М.: Медиа Мир, 2007.

Д.М.Тешабаева

**СОВРЕМЕННАЯ КОНЦЕПЦИЯ
КУЛЬТУРЫ РЕЧИ В ЯЗЫКЕ СРЕДСТВ
МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ**

В данной статье речь идет о современной концепции культуры речи в языке средств массовой информации. Преимущество средств массовой информации заключается в его восприятии многочисленной публики. Аудитория убеждается в профессиональных навыках и опыте сотрудников СМИ.

Ключевые слова: средства массовой информации, речь, культура, аудитория, концепция, общество.

D.M.Teshabaeva

**MODERN CONCEPTION OF SPEECH
CULTURE IN THE LANGUAGE OF
MASS MEDIA**

This article investigates modern conception of speech culture in the language of mass media. The advantage of mass media is obvious in possibility of large layers of society to get it. Listeners are assured in professional skills and experience of mass media officials.

Keywords: mass media, speech, culture, auditory, conception, society.

UDK: 81.362**BIR YADROLI GAPLAR TARKIBIDA TEMPORALLIK KATEGORIYASINING****IFODALANISHI****G.F. Boltakulova***Samarqand davlat chet tillar instituti, katta ilmiy xodim-izlanuvchisi*E-mail: g.boltakulova78@mail.ru

Annotasiya. Ushbu maqolada bir yadroli gaplar tarkibida temporallik kategoriyasining ifodalanishi chuqur tadqiq qilingan. Maqolada ingliz, rus va o'zbek tillardagi bir yadroli gaplar tahlil qilingan, ular o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar aniqlangan. Maqolaning nazariy mazmuni ko'plab misollar va sxemalar bilan isbotlangan.

Kalit so'zlar: gap, bir yadroli gap, temporallik, kategoriya, bir tarkibli gap, ikki tarkibli gap, kesim.

An'aviy grammaticalarda bir tarkibli gaplar deb yuritilib, ushbu gaplarni aniqlashda yoki ta'riflashda tilshunoslar o'rtasida anchagina munozarali fikrlar mavjud. Inglizshunos olimlardan V. N. Jigadlo, I.P.Ivanova, L. L. Iofiklarning ta'kidlashicha, bir tarkibli gaplar asosan ikki tarkibli gaplarga qarama-qarshi qo'yildi. Ikki tarkibli gaplar gapning asosiy yadrolari bo'lmish ega va kesimdan tashkil topsa, bir tarkibli gaplar esa faqat ega yoki kesimdan tashkil topgan bo'lib, tugal fikrni ifodalaydi va ifodalangan gap bo'lagini tiklash yoki to'ldirishni talab qilmaydigan gaplarga aytildi [4, b. 229].

Rus tilshunoslida sodda gaplar struktur semantik jihatdan uchga bo'linadi: ikki tarkibli, bir tarkibli va bo'laklarga ajralmaydigan (нечленимые) gaplar. Bir tarkibli gaplar deganda, faqat bosh bo'laklardan biri (ega yoki kesim) ifodalangan gap tushiniladi. Ular asosan, infinitiv yoki ot yordamida ifodalanadi [1, b. 91-92]. L. P. Vinokurovaning ta'kidlashicha, bir tarkibli gaplar asosan, ega va kesim o'rnida faqat birgina tashkil qiluvchi markaz mavjud bo'lib, u grammatick ma'no jihatidan ega va kesimning birikib kelish mazmunini tashkil qiladi. Bu gapning yakka tarkibi shaklan egani yoki kesimni eslatishi mumkin [3, b. 231]. Ushbu darslikda bir tarkibli gaplar doirasiga faqat atov gaplar kiritilgan. Bir tarkibli gaplar sintaktik birliliklarning ishtirokiga ko'ra bir tarkibli yig'iq va yoyiq gaplarga bo'linadi. I. K. Friz esa bir tarkibli va ikki tarkibli gaplarni tashniflashda asosan, gap-nutq materiali degan xulosa bilan ikkiga ajratadi: 1. "... all the utterance units that were single free utterance"; 2. "... those that were made up of two or more single free units" [7, b.237].

J.Bo'ronov va boshqalarning ta'kidlashicha, bir tarkibli gaplar (one member sentence) deganda, ega ham kesim ham ishtirot etmaydi. Bu turdagil gaplar bir bosh bo'lakdan iborat bo'lib, u ega ham kesim ham emas. Bir tarkibli gaplar uchun qaysi bo'lak ishlatalganligining ahamiyati yo'q, chunki fikr (yoki emotsiya) shu bir sostavning o'zi orqali anglashiladi [2, b. 302] O'zbek tili akademik grammaticalardan birida berilishicha, bir tarkibli gapning ega yoki kesimi yashirinmaydi va ularni topish ham, jumлага kiritish ham mumkin emas. Ega yoki kesim grammatick jihatdan ifodalangan gaplarga bir tarkibli gaplar deyiladi [6, b. 184]. Aynan ushbu nazariy manbada bir tarkibli gaplar borasida shunday izohlar berilgan: "... bir tarkibli gaplarda ega ifodalangan bo'lsa, u kesimning mazmuni orqali bilinadi yoki kesim ifodalansa eganing mazmuni kesimning mazmunidan anglashilib turadi" [6, b.184]. Oxirgi fikrga e'tibor bersak, bir tarkibli gaplarni aniqlashda biroz chalkashlik mavjud. Ushbu masalada O'.Usmonovning ta'kidlashicha: "Bir tarkibli gaplar qurilmasida egani ham kesimni ham aniqlab bo'lmaydi, ammo ikki tarkibli gaplarda gapning asosiy belgilardan "predikativlik",

“modallik” hamda “prosodika” mavjud bo‘lganidek, bir tarkibli gaplarda ham gapning ushbu belgilari mavjuddir” [5, b. 64-65].

Rus tili misolida sintaksislardan birida bir tarkibli gaplarga shunday ta’rif beriladi: “Односоставными называются предложения, имеющие состав только одного главного члена – сказуемого или подлежащего. В большинстве случаев односоставные предложения имеют только состав сказуемого. Речи встречаются односоставные предложения, имеющие только состав подлежащего” [3, b. 189]. Agarda bir tarkibli gaplarni rus tilidagidek ta’riflasak, unda shunday savol tug‘ilishi aniq. Bir tarkibli gaplar bosh bo‘laklarning (ega yoki kesim) birortasi bilan ifodalansa, ularning egasi yoki kesimi eksplisit tarzda ifodalanmagan to‘liqsiz gaplardan qanday farqi bor degan savol juda o‘rinli.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bir yadroli yoki tarkibli gaplar qurilmasida umuman konsitutsiya yordamida ham egani ham kesimni ham aniqlab bo‘lmaydi.

Umuman olganda bir tarkibli gaplar masalasi anchagina bahstalab masalalardan biri bo‘lib, ularning ifodalanish usuliga ko‘ra turli tillarda har xil tasniflanishining guvohi bo‘lamiz. Masalan, rus tili misolida semantik va struktur jihatda yetti turga ajratadi:

1. Определено-личные (Люблю грозу в начале мая);
2. Неопределенно-личные (В нашем поселке построили новую школу);
3. Обобщенно-личные (Слезами горю не поможешь);
4. Безличные (Светает, мне холодно, ветра нет);
5. Инфинитивные (Тучам солнца не скрыть, войне мир не победить);
6. Номинативные (Зима; Вот и зима);
7. Вокативные (предложения - обращение) [1, б. 92].

O‘zbek tili misolida qaralganda bir tarkibli gaplarning olti turi tan olingan:

1. Shaxsi noma'lum gaplar (Pulini o‘g‘irlab qo‘yishdi);
2. Shaxsi umumlashgan gaplar (Safarga bomaylixotir hozirlanildi; Yomon bilan yo‘ldosh bo‘lma, nodon bilan sirdosh bo‘lma);
3. Shaxsiz gaplar (Tong otdi, yorug‘ tushdi);
4. Nominativ gaplar (Qanday go‘zal! Mana O‘sarjonning dalasi);
5. Indikativ gaplar (Bu qanday aqlsizlik! Mardikor olish);
6. So‘z gaplar (Ha, Shunday, Xo‘p, Nahot, Oh! Voydod! Ura!) [6, b. 185-196].

Ingliz tili misolida qaralganda bir tarkibli gaplarni to‘rt turini e’tirof etadi:

1. Atov gaplar (What a beautiful night! Such character!);
2. Yes va No so‘zlari bilan ifodalangan bir tarkibli gaplar;
3. Modal so‘zlar yordamida ifodalangan bir tarkibli gaplar (of course, certainly, surely);
4. Undov so‘zlar yordamida ifodalangan bir tarkibli gaplar (Well! Oh! My God! My Goodness!) [3, b. 233].

Ingliz tili misolida bir tarkibli gaplarning tasnifi rus va o‘zbek tillarida qilingan tasnifga qaraganda ancha haqiqatga yaqin. Gap tarkibini sintaktik tahlili an’anaviy grammatikalarda bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratib tahlil qilish natijasida shunday xulosalarga kelgan bo‘lishi mumkin. Masalan: rus tilida люблю горозу в начале мая, в нашем поселке построили новую школу, мне холодно gaplari quyidagi eksperiment metodining tiklash yoki almashtirish usullariga tushadi: *Люблю горозу в начале мая - Я люблю грозу...; В нашем поселке построили новую школу - В нашем поселке они построили новую школу; Мне холодно - Я замерз.*

Yoki o‘zbek tilida ham Pulini o‘g‘irlab qo‘yishdi - Pulini ular o‘g‘irlab qo‘yishdi; tong otdi - yorug‘ tushdi. Bu gaplarni har ikkala tilda bir tarkibli yoki bir yadroli gap deb atash qiyin.

Ishimiz bir yadroli gaplar tarkibida temporallik bo‘lganligi sababli, ingliz va o‘zbek tillari misolida lisoniy metodlar yordamida, ya‘ni komponentlarga ajratib tahlil qilamiz.

Ingliz tili badiiy matnda temporallikni ifodalovchi bir yadroli gaplar yunksion modelda ikki chiziq hyech tomonga yo‘naltirilmagan (\Rightarrow) belgi bilan belgilanib, uning differensial sintaktik belgisi (N) bir yadro komponent yordamida ifodalanadi. 1.“Since 1907” 2.“Just before nightfall” 3.“Carolina tonight” 4.“Early tomorrow morning”

Ushbu gaplarda 1907, nightfall, tonight, morning birliklar temporallikni ifodalab, bir yadroli gaplar tarkibida berilgan. Birinchi gapning yunksion va komponent modelini quyidagicha izohlash mumkin, ammo qayd etish joizki since elementi ravish vazifasidami yoki predlog o‘rnida kelganligini

aniqlash lozim. Bu gapda since predlog vazifasida kelgan. Bunday holatni tarjimada ham ko'rish mumkin: *I've not had much fun since the war. Urush bo'lib o'tgandan beri uncha ko'p yaxshilik ko'rmagandim.* Demak, "since 1907" bir yadroli gapni "1907 yildan beri" deb tarjima qilish mumkin. Ta'kidlash joizki, har qanday gap qurilmasida yordamchi so'z turkumlari, yordamchi va bog'lama fe'llar mustaqil funksional vazifani o'zlar yaxlit bajarmaganligi tufayli gap tarkibini sintagmatik yo'nalishda tahlil qilinganda, yunksion va komponent modellarda hamda gapni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishganda ham ular alohida differensial sintaktik-semantic belgilarni ifodalamasdan, mustaqil so'z turkumlari bilan birikib kelib, ularning sintaktik satxda semantic maydonini aniqlashga yordam beradi.

(1) "Since 1907" yu.m. 1. $\frac{N}{P2Nu}$ k.m.1.

Ikkinchi va uchinchi gaplarda asosiy yadro nightfall, tonight bo'lib, ular nolga teng yadro predikativ aloqa asosida gap tarkibida ishtirot etadi, just (2), Carolina (3) tayanch sintaktik birliklarga (nightfall, tonight) subordinativ aloqa asosida bog'lanadi.

(1) Just before nightfall yu.m.2.

(2) Caroline tonight (2) $\frac{\bar{N}D}{S} * \frac{N}{Adv}$; k.m.3.

(2) $\frac{ND}{Adv} * \frac{N}{Prs}$; k.m.2.

Temporallikni ifodalovchi bir yadroli gaplar tarkibida birdan ortiq, tobe komponentlar ham ishtirot etishi mumkin. To'rtinchi gapda asosiy yadro "morning" va unga Early va tomorrow sintaktik birliklar tobe komponentlar bo'lib, yadro komponentga subordinativ aloqa asosida bog'lanadi. Bu gapning yunksion va komponent modellarini quyidagicha izohlash mumkin:

(3) "Early tomorrow morning"

yu.m.3.

$\frac{\bar{N}D}{Adv} * \frac{\bar{N}D}{Adv} * \frac{N}{S}$; k.m.4.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek tili misolida bir tarkibli yoki bir yadroli gaplarni aniqlashda anchagina baxstalab masalalar mavjud. Biz ushbu faslda o'zbek tilida bir tarkibli yoki bir yadroli gaplarni atroflicha tahlil qilmasdan, faqat temporallikni ifodalovchi bir tarkibli gaplarni komponentlarga ajratib tahlil qilish bilan cheklanamiz.


1. Ilk sahar. Tongdan darak yo'q.
2. Ko'klam qorlar erigan.
3. Kuz. Paxta terimi boshlandi.

Bu gaplarda "sahar", "ko'klam", "kuz" sintaktik birliklar mikromatnda bir yadroli gaplar bo'lib, ular bosh kelishikda ifodalangan bo'lib, unda gapga xos intonasiya bo'lib, ular vaqtini, faslni mavjudligini ifodalab kelmoqda.

Birinchi gapda "sahar" yadro komponent, unga "ilk" so'zi tobe komponent o'rnida kelib, tayanch komponentga subordinativ aloqa asosida bog'lanadi. Birinchi bir yadroli gapning yunksion va komponent modellarini quyidagicha izohlash mumkin:

Ilk sahar. yu.m.5.

$\frac{\bar{N}D}{Adv} * \frac{N}{S}$; k.m.5.



Ikkinchi va uchinchi gaplar bir xil yunksion va komponent modellarga tushadi:

2. Ko'klam. 3. Kuz. yu.m.5. $\frac{N}{S}$; k.m.6.

Har ikkala tillarda ham temporallikni ifodalovchi bir yadroli gaplar asosan hafta kunlarini, oylarni, yillarni, soatlarni, daqiqalarni ifodalovchi sintaktik birliklar yordamida ifodalananadi. Bunday gaplarni ham ikki yadroli gaplar kabi yig'iq va yoyiq gaplarga bo'lish mumkin.

Adabiyotlar

1. Бабайцева В.В., Максимов Л.Ю. Современный русский язык. Часть 2. – Москва: Просвещение, 1981. – 372 с.
2. Бўронов Ж., Хошимов У., Исматуллаев Х. English Grammar. Инглиз тили грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 352 б.
3. Винокурова Л.Г. Грамматика английского языка. – Ленинград: Учпедгиз, 1954. – 344 с.
4. Жигадло В.Н., Иванова И.П., Иофик Л.Л. Современный английский язык. Теоретический курс грамматики. – Москва: Изд-во лит-ры на иностр.яз., 1956. – 350 с.
5. Усмонов У. Проблема односоставности и неполноты предложений // Материалы научно-теоретической конференции. – Самарканд: СамГИИЯ, 1999. – С. 63-70.
6. Ўзбек тили грамматикаси. 2 том. Синтаксис. – Тошкент: Фан, 1976. – 560 б.
7. Fries Ch.C. The Structure of English. – New York: Barnes and Noble, 1968. – 298 p.

Г.Ф. Болтакулова

**ВЫРАЖЕНИЕ КАТЕГОРИИ
ТЕМПОРАЛЬНОСТИ В СОСТАВЕ
ОДНОЯДЕРНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ**

Настоящая статья тщательно исследует выражение категории temporальности в составе одноядерных предложений. В статье анализируются английские, русские и узбекские одноядерные предложения, сравниваются и выявляются сходства и различия между ними. Теоретическое содержание статьи подтверждается многочисленными примерами и схемами.

Ключевые слова: предложение, одноядерное предложение, темпоральность, категория, односоставное предложение, двусоставное предложение, частица, сказуемое.

G.F. Boltakulova

**EXPRESSION OF TEMPORALITY
CATEGORY IN THE STRUCTURE OF
ONE-MEMBER SENTENCES**

The article deeply investigates expression of temporality category in the structure of one-member sentences. The article analyzes English, Russian and Uzbek one-member sentences, compares and reveals similarities and differences between them. Theoretical content of the article is proved by numerous examples and schemes.

Key words: sentence, one-member sentence, temporality, category, two-member sentence, particle, participle.

UDK: 494.3

**SHE'RIY TARJIMADA LINGVOPOETIK BIRLIKLER:
J.G. BAYRONNING "ZAMON" SHE'RI TAHLILI ASOSIDA**
A.M. Bumatova

O'zbekiston milliy universiteti, o'qituvchi

Annotasiya: Maqolada she'riy matnni tashkil etuvchi asosiy unsurlar, ularning tahlili va tarjimada saqlanish qonuniyatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: she'riy tarjima, obraz, metafora, shaxslantirish, ritm.

Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilalarga mansub kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. "Tarjimaning asliyatga shaklan va mazmunan monand tarzda yaratilishining birdan-bir sharti tarjimonning o'z tilida asliyomonand lisoniy vositalar tanlab ifoda etishidadir" [3; 68]. Tarjima – bir tildagi matinni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlar aro muloqotning eng muhim ko'rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima, va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nuxsani aks ettirish tarziga ko'ra tafsil, tadbil, sharh kabi ko'rinishlarga ham ega bo'lishi mumkin. Tarjima – murakkab jarayon va ma'suliyyatlari ishdir. Suniy intellekt texnologiyalariga asoslangan avtomatik tarjima tizimlari paydo bo'lib borishiga qaramay tarjima har doim ijodiyl ish bo'lib kelgan va shundayligicha qoladi. Quyida ana shunday ijodning namunasi bo'lmish poetik matn va uning tarjimasi hususida so'z yuritamiz. Misol sifatida Lord Jorj Noel Gordon Bayronning "To Time" she'rini keltiramiz.

Jorj Bayronning "To Time" she'rining birinchi bandi mutlaq hakam bo'lmish vaqtga bag'ishlab, xitob usulda yozilgan mashhur she'rdir. Shoir she'rda vaqtga xuddi tirik odamga gapirgandek, to'g'ridan-to'g'ri murojaat qiladi, ya'ni birinchi bandning o'zidanoq shaxslantirish san'atini ko'rishimiz mumkin. Shoir tomonidan vaqtga turli nisbatlar va tasvirlar beradi. Kuyida shoir tomonidan asliyatda vaqtga

nisbatan qo'llanilgan stilistik birliklarning rus va o'zbek tarjima matnlarida qayta yaratilish darajasining tahlilini keltiramiz. She'r rus tiliga atoqli rus shoiri va tarjimoni Nikolay Ivanovich Gnedich tomonidan, o'zbek tiliga esa atoqli o'zbek tarjimoni Abdurahim Parda tomonidan tarjima qilingan. Asliyat matni o'n banddan iborat. She'rning qofiyalanish sxemasi "abab, cdcd, efe, ghgh..." ko'rinishidadir. She'rning birinchi bandi shunday boshlanadi:

Time! on whose arbitrary wing
The varying hours must flag or fly,
Whose tardy winter, fleeting spring,
But drag or drive us on to die— [1; 292]

Ko'rib turganimizdek asliyat matni vaqtga undalma bilan boshlanib, keyin uning tasviriy ifodasini berish bilan davom etmoqda. Shoirning tasavvurida bu dunyoga vaqt mutlaq hukmrondir; birinchi misradayoq qo'llanilgan "arbitrary wing" birikmasiga e'tibor bersak, odatda ingliz tilida ko'plikda qo'llanilishi mantiqiy bo'lgan "wing" so'zining birlikda kelishi, hamda uning aynan "mutlaq hokimlik qiluvchi", "mantiqqa bo'y sunmaydigan" va "holis" kabi tarjima qiliniuvchi "arbitrary" sifati bilan qo'llanilishida, vaqtning nechog'lik katta kuch va kelishib bo'lmaydigan, rahm shafqat ko'rsatmaydigan tabiatini ochib beradi. Shu bandning keyingi uch misrasida shoir tomonidan vaqtini ta'riflashda o'zaro antonim bo'lgan "flag or fly", "tardy winter, fleeting spring," va "drag or drive" iboralarining qo'llanilishi, Bayronning isyonkor qalbini ochib berishga xizmat qilgan. Mazkur bandda shoir qo'llanilgan metaforik obrazlari vositasida vaqtning tabiatini poetik usulda mohirona xarakterlashga erishgan.

She'rning rus tiliga qilingan tarjimasidan birinchi bandi keltiramiz:

О Время! Все несется мимо,
Все мчится на крылах твоих:
Мелькают весны, медлят зимы,
Гоня к могиле всех живых. [4] (N.Gnedich tarjimasi)

Asliyat matnidagi "Time!" undalmasining tarjimada "O Время!" ko'rinishiga kelganini rus tilining stilistik tuzilishi bilan izohlash mumkin. Nazarimizda, asliyatdag'i hayqiriq ohangi, shu yo'l bilan tarjimada juda yaxshi tiklangan. Ammo tarjimada "flag or fly" antonimik birikmasi "несется" va "мчится" kabi sinonimlar bilan o'girilgan. Shoir asliyatda vaqtning nisbiylik hususiyatiga sha'ma qilib, kim uchundir xuddi bayroq kabi muallaq turgani holda, boshqa birovlar uchun bir zumda uchib o'tib ketishi obrazining o'rni, vaqtning hamma uchun birdek tezkorligi obrazi yaratilgan. Asliyatdag'i "tardy winter, fleeting spring," birikmasidagi sifatlar tarjimada fe'l so'z turkumi bilan o'zgartirilib, "Мелькают весны, медлят зимы" ko'rinishiga keltirilgan, so'z turkumlaridagi ko'chishdan tashqari, tarjimada qish va bahorning o'rni ham almashtaganini ko'rishimiz mumkin. Birinchi bandning oxirgi misrasidagi "drag or drive" iborasi rus tiliga "Гоня" so'zi bilan tarjima qilingan. Mazkur jumlada shoir vaqtning kimnidir avval, kimnidir keyinroq o'z ajali tomon boshlashi haqida gapirar ekan, "sudramoq" va "quvmoq" so'zlarini ishlataldi. Tarjimada esa, vaqt hammani faqatgina o'lim sari quvib borish obrazi yaratiladi. Birinchi bandning boshdan oxirigacha antonimlar asosida qurilganini ko'rishimiz mumkin. Shoir tomonidan vaqtini izohlash uchun tanlagan "arbitrary" sifatining o'zida bir biriga zid keladigan ma'nolarning o'zi, qolgan misralarda esa juft antonimlarning qo'llanilishi fikrimizning yaqqol isboti bo'ladi.

She'rning o'zbek tiliga qilinga tarjimasida ham asliyat shaklining o'zgarganini ko'rishimiz mumkin. Tarjimada she'rning umumiy hajmi o'n band emas, to'qqiz bandni tashkil etadi. Qofiyalanish tartibi, asliyatdagidek saqlangan. Quyida she'rning birinchi bandi tarjimasini keltiramiz:

Uchqur Zamon! Ne bir nasllar,
Karvoningda bir jumla jahon.
Turnaqator o'tgay fasllar,
Beshafqatsan, yovqur beomon. [2;41](A.Parda tarjimasi)

She'rning o'zbek tiliga qilinga tarjimasida asliyatdag'i "Time!" undalmasi o'zbek tilida keng qo'llaniladigan "Uchqur Zamon!" birikmasi bilan o'zgartirilishi, buning ustiga zamon so'zining bosh harf bilan yozilishi, hayqiriq ruhini yanada kuchaytirgan. Ammo, tarjima matnida asliyatdag'i antiteza uslubi yo'qotilgan. Vaqtning asliyatda shoir nazarda tutgan kimgadir mehribon, kim uchundir esa beomon bo'lganligi obrazi, o'zbek tarjima matnida bir tomonlama talqin, ya'ni vatqning faqatgina umuman shafqat bilmaslik obrazi bilan almashtirilgan. Bundan tashqari, asliyatdag'i "arbitrary wing"

birikmasi tushurilib, “flag or fly” antonimik birikmasi “karvon” obrazi bilan almashtirilgan. Asliyatda bir-biriga ma’noviy antonim bo‘lgan “qish-bahor” so‘zлari, tarjima matnida “turnaqator fasllar” ko‘rinishiga kelgan. Asliyatdagi zid ma’nolar, qarama-qarshi obrazlar, kutilmagan o‘zgaruvchanlik va xoatiklik timsoli asosiga qo‘rilgan she’riy kompozisiya, tarjimada bir maromga tushgan, o‘zgarmas, hamda mantiqiy asosga ega obraz bilan almashtirilgan. Asliyatda, shoirning aynan qish va bahor fasllarini zid obrazlar sifatida olgandagi kuchli ta’sir, anchayin mayinlashtirib berilgan. Oxirgi misraning xuddi rus tilidagidek, “drag or drive” antonimlarining o‘rniga butunlay negativ ma’nolarga ega bo‘lgan “beshaftat va yovqur” so‘zлari bilan almashtirilganini ko‘rshimiz mumkin.

She’rning ikkinchi bandi “Hail thou!” undalmasi bilan boshlanadi. Rus tiliga u “Время”, o‘zbek tiliga esa “ochun” ya’ni “dunyo” deb tarjima qilingan. Aslida, “Hail thou!” iborasini o‘zbek tiliga so‘zmaso‘z tarjimasi “Eh, Sen!” ko‘rinishida bo‘ladi. Shoir asliyat matnida, kontekstual konseptlar antonimiyasini yaratishda davom etmoqda. Shoir tomonidan, uning tug‘ilishida, vaqt uni ezguliklar bilan siylagan, bu o‘rinda “boons” so‘zini kontekstdan kelib chiqqan holda “dunyoga kelish” ma’nosida ham tushunish mumkin. Asliyatda, tug‘ilish – ezgulik, ammo yashash – vaqt tomonidan ko‘rsatilayotgan zulmlarga duchor bo‘lish sifatida ham talqin etilgan. Keyingi misralarda shoir “sustain” va “bear” – ya’ni biror bir narsaga juda katta kuch bilan bardosh berish ma’nosiga ega bo‘lgan ikki fe’lni ishlatgani holda, yashashning qanchalik og‘ir ekanligiga urg‘u bermoqda. Bundan tashqari, shoir asarga yangi obraz, yolg‘izlik obrazini kiritmoqda. Bu obraz keyingi bandda kengroq ochib beriladi.

Hail thou! who on my birth bestowed
Those boons to all that know thee known;
Yet better I sustain thy load,
For now I bear the weight alone.

Rus tiliga qilingan tarjimada, “ezgulik-yovuzlik” juftligidagi “ezgulik” tushirib qoldirilgan. Tarjimada vaqt qahramonning tug‘ilishi bilanoq unga achchiq taqdir bitib qo‘yanligiga urg‘u berilmoqda. Tarjimada “sustain” va “bear” so‘zлari bitta qilib “несьшь” so‘zi bilan tarjima qilingan. Ammo bu narsa, asliyat ma’nosining qayta yaratilishiga xalaqit bermagan. Nazarimizda, shoir tomonidan shikoyat ko‘rinishida aytilgan ibora, tarjimada aksioma ko‘rinishiga keltirilishi, she’rning ta’sirchanligini oshirgan.

Меня ты наделило, Время,
Судьбой нелегкою — а все ж
Гораздо легче жизни бремя,
Когда один его несешь!(N.Gnedich tarjimasi)

O‘zbek tilidagi tarjima ham xuddi rus tilidagisi kabi tug‘ilganda taqdim etilgan ezguliklar obrazi tushirib qoldiradi. Zamon – ochun bilan o‘zgartirilib, o‘zbek tiliga xos bo‘lgan beshaftat ochun obrazi yaratilgan. Ammo ingliz va rus tillarida, shoir hayotini yolg‘iz davom ettirajagi, to‘xtab qolmasligi yozilgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilidagi tarjimada shoirning bir maskan topib, yolg‘iz yashamog‘i aytimoqda. Bayronning she’rida shoir yolg‘iz bo‘lsa-da, kurashni davom ettirishi bayon etilgani holda, tarjima matnida, taqdirga tan bergen odam obrazi shakllantirilmoqda.

Bo‘lsang-da beshaftat ochun
Nolimasman g‘amboda, miskin.
Yolg‘izgina bir boshim uchun,
Bir go‘shadan toparman maskan.(A.Parda tarjimasi)

Uchinchi misra yuqorida aytganimizdek, shoirning yolg‘izlanib qolganligining sababini izohlab kelmoqda. Shoir unga berilgan achchiq damlarni birga yengib o‘tishga yordam beradigan do‘sti qolmaganidan shikoyat qilmoqda. Asliyatning birinchi misrasida shoir she’riy ritm va ta’sirchanlikni oshirish maqsadida anastrofa va alliterasiya usullaridan foydalanmoqda.

I would not one fond heart should share
The bitter moments thou hast given;
And pardon thee—since thou couldst spare
All that I loved, to peace or Heaven.

Bu o‘rinda ingliz matnida keltirilgan “should share”, “bitter moments”, “pardon thee”, “since thou couldst spare” va “to peace or Heaven” birikmalarining tarjimasiga to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

Я тяжкой доли не пугаюсь

С тех пор, как обрели покой
Все те, чье сердце, надрываясь,
Делило б горести со мной. (N.Gnedich tarjimasi)

Yuqorida sanab o'tgan birikmalarimiz rus tiliga kuyidagicha o'girilgan: "should share" – "надрываясь, Делило б", "bitter moments" – "горести", "pardon thee" – "не пугаюсь", "since thou couldst spare" va "to peace or Heaven" birikmalrini birlashtirib, – "С тех пор, как обрели покой" tarzida tarjima qilingan.

Yaxshi-yomon kezda hamnafas,
Hamrohlarim o'tgandan buyon,
Bo'lak hyech ne qo'rqita olmas,
Bardosh ila to'zim topgay jon. (A.Parda tarjimasi)

Yuqorida sanab o'tgan birikmalar o'zbek tiliga kuyidagicha o'girilgan: "should share" – "надрываясь, Делило б" – "hamnafas", "bitter moments" – "горести" – "Yaxshi-yomon kez", "pardon thee" – "не пугаюсь" – "Bo'lak hech ne qo'rqita olmas", "since thou couldst spare" va "to peace or Heaven" birikmalri huddi rus tilidagidek – "С тех пор, как обрели покой" – "Hamrohlarim o'tgandan buyon, Bardosh ila to'zim topgay jon" tarzida tarjima qilingan. Shu o'rinda, mazkur she'rnинг aynan shu bandi tarjima jarayonida obrazli transformasiyalarga eng ko'p miqdorda uchraganini aytib o'tish lozim. Masalan, oxirgi ikki misrada, shoир o'zining emas, do'stлarining dunyo tashvishlaridan tinchigani haqida yozmoqda. Bu o'rinda, shoир aynan vaqtning bunga sababchi ekanini "since thou couldst spare" iborasini qo'llash bilan ham ta'kidlab ko'rsatmoqda. Ammo, o'zbek tilidagi – "Bardosh ila to'zim topgay jon" birikmasi, asliyatda shoир emas, uning do'stлari haqida aytilgan misra edi. Shoирning joni bu yo'qotishlardan keyin o'zim topmadi, lekin yaxshigina toplandi, hayot unga chinakam katta maktab vazifasini o'tadiki, bundan keyin bo'ladijan har qanday ko'ngilxushlikni u endi mardonavor yengib o'tishga tayyor turadi. Bu haqda, xususan shoир, keyingi bandda to'xtalib o'tadi.

To them be joy or rest—on me
Thy future ills shall press in vain;
I nothing owe but years to thee,
A debt already paid in pain.

Shoир Vaqtning yovuzligi endi o'ziga ta'sir qilmasligini, vaqtning oldidagi hamma qarzlarini azobu-uqubatda o'tgazgan yillarining badali bilan to'laganini aytmoqda.

Да будет мир и радость с ними!
А ты рази меня и бей!
Что дашь ты мне и что отнимешь?
Лишь годы, полные скорбей! (N.Gnedich tarjimasi)

Rus tilidagi tarjimada "А ты рази меня и бей!" undalmasi kiritilmoqda. Bu asliyatdagи "...on me, Thy future ills shall press in vain" birikmasining tarjimadagi ko'rinishidir. Asliyatda inversiya usuli bilan erishilan ma'no butunligi, tarjimada kuchaytirilib, vaqt ni maga qodir ekanini yana ko'rsatishga undamoqda. Shoир yo'qotadigan narsasi qolmagan kishi sifatida o'zini yo'q qilib yuborishni talab qilmoqda. Nazarimizda, bu asliyatdagи fikrning juda bo'rttirilgan ko'rinishidir.

Balolarni yog'dir mayliga,
Balolarga aylagil duchor.
Giriftoman yillar hayliga,
Azob-u uqubatga giriftor.(A.Parda tarjimasi)

O'zbek tarjimasida ham xuddi shu ruhni ko'rishimiz mumkin. Avvalambor, asliyatdagи birinchi misra tarjimada umuman berilmagani holda, uning o'rniga ikkinchi misra rus tilida yaratilgan ma'noni ikki marta takrorlash bilan kompensatsiya qilingan. Banddagи qolgan ikki misra ham xuddi shu ko'shrinishda tarjima qilingan. Ma'no takroriga tayanib tarjimon qahramonning ichki holatini ko'rsatib bermoqda. Bu tarjimada shoир o'zini vaqt oldida butunlay ojiz va sindirilgan obrazda tasvirlamoqda.

Yet even that pain was some relief;
It felt, but still forgot thy power:
The active agony of grief
Retards, but never counts the hour.

She'rnin beshinchı bandı tasvirlash asosiga qurilgan. Shoır ko'rgan barcha azoblari unga qaysidir ma'noda vaqtning yaralariga vaqtinchalik malham ham bo'lganini ta'kidlaydi. Qattiq qynoqlar, vaqtning besarhad hukmi to'xtatib, vaqt ni yo'q bo'lib qolgani illyuziyasini beradi. Butun olamda harakat to'xtab, hamma narsa vaqtga emas, nihoyasiz yo'qotish azobga cho'lg'angani obrazi yaratilmoqda.

Удел мучительный смягчает
Твоей жестокой власти гнет:
Одни счастливцы замечают,
Как твой стремителен полет! (N.Gnedich tarjimasi)

Ingliz matnidagi oxirgi ikki misra rus tiliga ma'noviy sinonimiya bilan tarjima qilingan. Tarjimada yaratilgan bu obrazlar, yaxshi damlarning tez, bilinmasdan o'tib ketishi, hamda og'ir damda vaqt huddi bir umrga muallaq to'xtab qolishi hissi asosiga qurilgan. Shu bilan birga, shoır tomonidan berilgan yo'qotish azobi va vaqt oliy hukmining qiyosi va qarshilantirilishi obrazi tushurib qoldirilgan.

Bu azoblar dardimga darmon,
Malham bo'lgay qattol qahringga.
Baxti butun, mammun, bearmon,
Boz munosib lutfu mehringga.(A.Parda tarjimasi)

O'zbek tiliga qilingan tarjimada ham aynan shu usulini ko'rishimiz mumkin. Asliyatdag'i "The active agony of grief" misrasi, rus tiliga qilingan "Одни счастливцы замечают" misrasi vositasida o'zbek tiliga "Baxti butun, mammun, bearmon" ko'rinishida tarjima qilinmoqda. Buninig ustiga, o'zbek matni vaqni ham "qattol qahr" ham "lutfu mehr" egasi sifatida namoyon qilmoqda.

In joy I've sighed to think thy flight
Would soon subside from swift to slow;
Thy cloud could overcast the light,
But could not add a night to Woe;

She'rnin oltinchi bandida shoır vaqtning shiddati tez muddatda sekinlashib, shu damlardan ko'proq rohatlanish imkonini berishiga umid qiladi. Ammo, afsuski, bu umid ro'yobga chiqmaydi. Bandda yorug' kunni bulut kelib buzishi mumkin, ammo shusiz ham tim qora tunni bulut bilan yanada qoraytirishning imkon yo'qligi ta'kidlanmoqda. Ya'ni, baxtli damlarda yashayotganlar bu damlarning tez o'tib ketib, uning ortidan baxtsiz damlarning kelishidan qo'rqib yashashlari tabiiy hol; lekin, shoır kabi doimiy g'urbat ichida yashayotgan odamning bu kabi qo'rquvlari bo'lmaydi.

Пусть быстротечности сознанье
Над нами тучею висит:
Оно темнит весны сиянье,
Но скорби ночь не омрачит!(N.Gnedich tarjimasi)

Rus tiliga qilingan tarjimada shoirning fikri juda yaxshi saqlangan. Tarjimon ingliz tilidagi asliyat matni bilan bevosita ishlagani sababli, shoirning asl maqsadini juda yaxshi tushungan va tarjimada qayta yaratgan. Asliyat matnidagi "swift to slow" antonimlari tushurilgan, "could - light" kontekstual sinonimlari esa "темнит весны сиянье" ko'rinishida berilgan bo'lsada, tarjimon qo'llagan kompensasiya, umumiy ma'noga ziyon yetkazmagan.

Lochindayin uchqur parvozing,
Bag'rimizni o'rtagay takror.
Tutqich bermas ko'klaming, yozing,
Kuz-qishingda shunday shiddatkor.(A.Parda tarjimasi)

O'zbek tiliga qilingan tarjimada esa, shoirning fikrlari, ayniqsa, oxirgi ikki misrada o'zgarib ketganini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, bandda shoır faqatgina vaqtning shiddat bilan o'tishidan shikoyat qilmoqda. Ammo yuqorida ko'rib o'tganimzdek, asliyat matnida shoır butunlay boshqa ma'noni nazarda tutgan edi. Tarjimon rus tilida qo'llangan "весны сиянье" birikmasiga asoslangan holda, yilning to'rt fasli shiddat bilan almashinib borishi mantiqiy obrazini yaratmoqda. Ammo asliyat matnini tahlil qilganimizda ta'kidlab o'tilgan – Bayron nazarda tutgan chuqr falsafiy ma'no tarjimada aks etmagan.

For then, however drear and dark,
My soul was suited to thy sky;
One star alone shot forth a spark

To prove thee—not Eternity.

Yetinchi band tasvirlash usulida yozilgan. Mahzunlik va qorong‘ulik og‘ushida qolgan shoir, qalb nigohini olis osmonlarga tikadi. Olislarda yolg‘iz yulduz charaqlab nur sochadi; shoirga hozir uni cho‘lg‘ab olgan zulmat bir kun tugashi umidini beradi. Bu bandni ramziy band sifatida tahlil qilish mumkin. Ya’ni, she’rda tushkunlik ramzi bo‘lmish qorong‘ulikda bo‘lmasisin, kelajak ramzi bo‘lmish samoga qarab, umid ramzi bo‘lmish yorug‘likni izlashi darkor.

Как ни темно и скорбно было

Вокруг меня — мой ум и взор

Ласкало дальнее светило,

Стихии тьмы наперекор. (N.Gnedich tarjimasi)

Rus tiliga qilingan tarjimada asliyatdagi “My soul” birikmasi, “мой ум и взор” birikmasi bilan almashtirilgan. Shoir qalbida paydo bo‘lgan umid, tarjima matnida uning ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lgan osmon jismi bilan o‘zgartirilgan. Bandning oxirgi misrasida shoir “Vaqt – oliy hakam” iborasining har ikkala ma’nosini ham juda yaxshi ochib bergan. Bir tomondan, Vaqt – oliy hakamki, uning hukmidan hech kim qochib qutila olmaydi, boshqa tomondan esa, Vaqt – oliy hakamki, dunyoda hamma narsa o‘tkinchi, mahzunlik o‘rnini xursandchilik, azob o‘rnini rohat, zulmat o‘rnini yorug‘lik egallashi ta‘kidlanmoqda. Shoir “Vaqt” va “Mangulik” (“Eternity”) tushunchalarini qiyoslab, yuqorida aytligan ma’noni yaratishga erishgan. Rus tilida bu ikki ma’noning bir-biriga qarama-qarshiligi “наперекор” so‘zi bilan ifodalangan.

Garchi toldim zulmat qa’rida,

Garchi tildi bag‘rim alamlar,

Koinotning sirli bag‘ridan,

Chorladi boz nurli alamlar.(A.Parda tarjimasi)

O‘zbek tilidagi tarjimada birinchi uch misra tarjimasi yaxshi chiqqan bo‘lsada, oxirgi misradagi “nurli alamlar” birikmasi asliyat matni va rus tilidagi tarjima ma’nolariga mos kelmagan. Tarjimada keltirilishicha, yerdagi g‘amlari yetmagandek, shoirni samo ham o‘zining “nurli alamlar”i bilan siylamoqda. Ammo, asliyat matnining ma’nosini bu fikrning mutlaqo aksidir. Shoirning qalbi, olisda porlagan yulduzda, umid ko‘rmoqda, alam emas.

That beam hath sunk—and now thou art

A blank—a thing to count and curse

Through each dull tedious trifling part,

Which all regret, yet all rehearse.

Vaqt shu qadar beshafqatki, olisdagi shu nur ham so‘ndi. Shoir butunlay zulmatga ko‘mildi. Vaqt endi shoir uchun hech narsaga aylandi. Misrada vaqtga nisbatan “dull tedious trifling” so‘zlarining ishlatalishi, she’rdagi tushkunlik ohangini yanada oshiradi. Shoirning fikricha, hamma odam u his qilgan tuyg‘ularni his qiladi, ammo o‘z vazifasini bajarib, o‘z rolini ijro etib boraveradi. Mazkur bandda shoir allyuziya usulini qo‘llagan, “part” so‘zi zamirida u buyuk ingliz adibi Shekspirning “Dunyo – sahna, odamlar undagi aktyorlardir” degan fikriga sha’ma qilmoqda.

Но луч погас — и Время стало

Пустым мельканьем дней и лет:

Я только роль твержу устало,

В которой смысла больше нет! (N.Gnedich tarjimasi)

Rus tiliga qilingan tarjima shoirning bandga joylagan umumiy ma’nosini yaxshi chiqarib bergan. Asliyatdagi “Which all regret, yet all rehearse” misrasi “Я только роль твержу устало” birikmasiga o‘zgartirilgan. Ya’ni, “all” va “regret” so‘zleri “Ya” va “устало” so‘zlariga almashtirilgan.

Yorug‘ bo‘lsa oyning o‘n beshi,

O‘n beshida hukmron zulmat.

Botdi netay, tole quyoshim,

Bundan buyon g‘am-alam ulfat.(A.Parda tarjimasi)

O‘zbek tarjimoni bandga maqol kiritib o‘giradi. “Oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘u” maqoli odatda, biror bir tushkunlikka tushib qolgan odamga dalda berib, hamma narsa o‘tkinchi ekani, tez kunlarda hamma narsa o‘z iziga tushib ketishini aytganda qo‘llaniladi. Shoir esa, bitta-yu bitta umid uchquni so‘nganidan keyin, ortiq yorug‘ kunlarninn kelishiga ishonchi qolmaganini ko‘rsatmoqda. Shoir uchun bundan buyon oyning har kuni qorong‘u. “Tole quyoshi” ham simvolik

obraz bo'lib, u asliyatda keltirilgan olisdagi yulduz obrazining tarjimasidir. O'zbek tilida "tole yulduzi" iborasining mavjud emasligi bois, tarjimon yulduzning "nuri"ni "quyosh" deb tarjima qilmoqda. Bandning tarjimasi umuman olganda asliyatga yaqin bo'lsada, asliyatdagi allyuziya o'zbek tiliga qilingan tarjimada tushirib qoldirilgan.

One scene even thou canst not deform—
The limit of thy sloth or speed
When future wanderers bear the storm
Which we shall sleep too sound to heed.

To'qqizinchi misrada shoir shu qadar sarhad bilmas vaqtning ham, ba'zi bir narsalarga qodir emasligini ta'kidlamoqda. Shoir vaqtga qarata, u faqatgina tiriklar ustidan hukm qila olishi mumkinligini aytmoqda. Shoir misrada keltingan "future wanderers" birikmasi zamirida o'zidan keyin dunyoga kelib, vaqt oldida xuddi o'zi kabi ojiz bo'ladigan odamlar - darbadarlarni tasvirlamoqda. Vaqt kelib, dunyo bo'ron og'ushida qolgan taqdirda ham, shoir va uning zamondoshlari bundan hattoki bexabar bo'ladilar. "Sleep" bu misrada "o'lim" uchun metafora tarzida qo'llanilmoqda. Zero, hozir oxiri dunyo bo'lib ko'rindigan muammo ham, o'lgan odam uchun chivin chaqqanchalik ham ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Но заключительную сцену
И ты не в силах изменить:
Лишь тех, кто нам придет на смену,
Ты будешь мучить и казнить! (N.Gnedich tarjimasi)

Rus tiliga band juda yaxshi tarjima qilingan. Ammo, tarjimada shoir tomonidan ishlatilgan "sleep" metaforasi tushurib qoldirilgan. "Storm" esa rus tiliga "мучить и казнить" fe'llari bilan tarjima qilingan. Vaqtning shoir tasvirlagan yovqurligi iborasi tarjimada yanada bo'rttirilgan bo'lsa-da, bu kirdikorlar ortiq unga azob bermasligi ma'nosi tarjimada berilmagan.

Qismatimiz azaldan ayon,
Poyon bilmas cheksiz zamonsan.
Bu olamda jumla tirik jon
Barchasiga boz beomonsan.(A.Parda tarjimasi)

O'zbek tilidagi "Qismatimiz azaldan ayon" birikmasi, mantiqan "One scene even thou canst not deform—"ning tarjimasi bo'lishi kerak. Tarjimada ishlatilgan birikmadan kishilarning vaqt va taqdir oldidagi naqadar nochor ekanini ko'rsatmoqda. Ammo, asliyatda bu misra bilan shoir kishilarning emas, vaqtning ham ba'zan ojiz bo'lib qolishi mumkinligini ta'kidlamoqda. Huddi rus tiliga qilingani kabi, o'zbek tiliga qilingan tarjimaning oxirgi ikki msirasida ham asliyatda shoir joylagan ma'no to'liq emas, qisman ochib berilgan.

And I can smile to think how weak
Thine efforts shortly shall be shown,
When all the vengeance thou canst wreak
Must fall upon—a nameless stone.

She'rning oxirgi bandi shoirning oxir oqibat vaqtini mot etishini ifoda etadi. Shoirning vafotidan keyin, uning dushmani bo'lmish vaqt o'zining qasdini olish uchun bor kuchini to'plab, shoirga zarba berganda, uning barcha harakatlari zoye ketadi. Sababi, shoir mangulikka ketgach, undan faqatgina nomsiz tosh qoladi. Shoir bu yerda qabrni nazarda tutmoqda.

И, не страшась жестокой кары,
С усмешкой гнев предвижу твой,
Когда обрушишь ты удары
На хладный камень гробовой!(N.Gnedich tarjimasi)

Rus tilidagi tarjimaga "И, не страшась жестокой кары" birikmasi kiritilgan, bu birikma asliyat matnida berilmagan bo'lsada, she'rning umumiy ruhiyatiga juda mos tushgan. Bundan tashqari tarjimon "nameless stone" birikmasini "хладный камень гробовой" ko'rinishida o'girgan. O'zbek tilidagi tarjimada she'rning o'ninchisini misrasining tarjimasi keltirilmagan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, she'r shoir tomonidan vaqtga to'g'ridan to'g'ri murojaat ko'rinishida bitilgan. Shu sababdan ham, she'rda shaxslantirish san'atiga katta e'tibor berilgan. Har ikkala tarjimada ham, personifikasiya saqlangan. She'rning tushkunlik, mayuslik va insonning vaqt

oldidagi ojizligini ta’riflash ruhida yozilgan. Faqatgina oxirgi misrada, vaqt kelib, vaqt ham ortiq azob bera olmasligi ko‘rsatilgan. She’rda Bayronga xos bo‘lgan shiddat va isyonkorlik ruhi juda kuchli aks etgan. Shoir tomonidan she’rda shaxslantirish, metafora, antiteza, allyuziya, anastrofaning ishlatalishi she’rning ta’sirchanligini yanada oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar rO‘yxati:

1. Byron, Lord George Gordon. “Poems” –Classic poetry series, PoemHunter.com – the world’s poetry achieve – 2004. 297 p.
2. Байрон, Жорж Гордон. “Ушалмаган орзулар”, - Тошкент, “Ўзбекистон”, 2011. – 152 б.
(Жаҳон шеърияти дурданалари)
3. Мусаев, Кудрат. Таржима назарияси асослари. Тошкент 2012, 177 б.
4. <http://rustih.ru/dzhordzh-bajron-k-vremenii>

А.М.Буматова

**ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ
ПОЭТИЧЕСКОГО ПЕРЕВОДА: НА
ОСНОВЕ АНАЛИЗА СТИХОТВОРЕНИЯ
ДЖ.Г.БАЙРОНА “К ВРЕМЕНИ”**

В статье рассматриваются основные элементы создающие поэтический текст, анализ этих составляющих и особенности перевода.

Ключевые слова: поэтический перевод, образ, метафора, персонификация, ритм.

A.M. Bumatova

**LINGVOPOETIC UNITS OF THE
POETIC TRANSLATION: ON THE
BASIS OF THE ANALYSIS OF THE
POEM OF J.G. BYRON "TO TIME"**

The article discusses the main elements and formation of a poetic text, their analysis and translation characteristics

Keywords: poetic translation, image, metaphor, personification, rhythm.

UDK: 37:902

**KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARDA NOMODDIY MADANIY MEROSNI
MUHOFAZA QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING KONSEPTUAL
MUAMMOLARI**

J.A.Mamatqosimov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimini takomillashtirishning konseptual muammolari aniqlangan, tahlil qilingan, tahlil natijalari yuzasidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Nomoddiy madaniy meros, muhofaza, kasb-hunar ta'lifi, kasb-hunar kolleji, madaniyat va san'at kollejlari, konseptual muammo.

Insoniyat yaralishining dastlabki davridanoq nomoddiy madaniy meros (NMM) unga estetik zavq berib, muhim tarbiya vositasiga aylanib borgan. Insoniyat o'z qo'li, ongu-tafakkuri bilan yaratgan NMM namunalari kelgusi avlodning ma'naviy va moddiy rivojlanishiga ta'sir qila boshlagan. Bu jarayonlar va rivojlanish in'ikosida qadim va navqiron o'zbek zaminida o'lmas xalq ijodiyoti va folklor asarlari, hunarmandlik va milliy tomosha san'ati, tabiat va koinotga oid bilim va ko'nikmalar shakllana boshladi hamda uning buyuk namoyondalari yetishib chiqdi.

Bu borada yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Ajodolarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir" [1, 30-31].


Har bitta xalqning nomoddiy madaniy merosi shu xalqning o'zligini ifodalaydi. Nomoddiy madaniy merosning muhofaza qilinishi, saqlanishi va kelgusi avlodlarga yetkazilishi barqaror taraqqiyotga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Chunki, biror xalqning nomoddiy madaniy merosida barqaror taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omil yo'q va bu meros to'laligicha barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi [2, 11].

NMMning uzlusiz ravishda tarbiya jarayonlari bilan bog'liqligini e'tiborga olgan holda uning muhofazasini ta'minlash, ommalashtirish borasida uni ta'lif-tarbiya jarayoniga targ'ib qilish, NMM muhofazasini ta'lif tarbiya jarayoniga targ'ib qilishda tizimlashtirish – NMMning ijtimoiy-tarixiy va huquqiy asoslari, turli fanlar yuzasidan NMMning holatini tahlil etish hamda xulosalashdan iborat bo'lib NMMni muhofaza qilish tizimini takomillashtirishning konseptual muammolari 1-rasmida aks ettirilgan. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida NMMni muhofaza qilish tizimini takomillashtirishning konseptual muammolari tahlili quyidagilardan iborat: *NMMni muhofaza qilishning nazariy muammolari ta'lif jarayonida o'quvchilarga quyidagi konseptual funksiyalarni bajarishdan iborat: a) NMMni muhofaza qilishning ta'lifi funksiyasi; b) NMMni muhofaza qilishning tarbiyaviy funksiyasi.*

a) *NMMni muhofaza qilishning ta'lifi funksiyasi* – ta'lif jarayonida o'quvchilarning NMM muhofazasiga oid bilimlarini shakllantirishdan iborat. O'quvchilarning NMM muhofazasiga oid bilimlari o'quv fanlari orqali rivojlantiriladi. NMM muhofazasiga oid bilimlarni o'quvchilar ta'lif jarayonida o'quv fanlari orqali o'r ganadilar, takrorlaydilar hamda mustahkamlaydilar. Shu bois NMMni muhofaza qilish tizimining ta'lifi funksiyasi muhim NMMga oid bilimlar berishga, masalalar yechishga, axborot va yangi bilimlarni to'plashga, o'quvchining NMMga oid bilimini oshirishga imkon yaratadi. O'quv fanlari orqali NMMga oid bilimlar asosida o'quvchida ko'nikmalar paydo bo'ladi. NMMga oid bilim va ko'nikmalar dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, og'zaki, yozma ishlar jarayonida, yangi mavzu bayonida, o'tilgan mavzularni mustahkamlash, mustaqil ishlarni bajarish va hokazolarda o'zlashtiriladi.

b) *NMMni muhofaza qilishning tarbiyaviy funksiyasi* – NMM muhofazasi, NMM namunalaridan foydalanish va barqarorligini ta'minlash, ommalashtirish, qayta tiklash kabi tarbiyaviy tasavvurlar shakllanishidan iborat. Ta'lif jarayonida NMMning ijodkori va iste'molchisi inson

NMM-inson-jamiyat aloqadorligi ham e'tiborga olinadi. Tarbiyalovchi omil, eng avvalo, ta'lim mazmuni o'quv fanlari orqali amalga oshiriladi.



Rasm 1. NMMni muhofaza qilish tizimini takomillashtirishning konseptual muammolari

NMMni muhofaza qilishning amaliy muammolario – quv fanlari orqali tarbiya obyekti, vositasi hamda natijalari asosida olib boriladi. Obyekt asosidagi tarbiya uzlusiz ta'limning o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lumi xususan, madaniyat va san'at kollejining “Aktyorlik san'ati” va “Rejiissyorlik” yo'nalishidagi o'quvchilari hamda o'qituvchi munosabatida olib boriladi. NMMga oid tarbiya ta'lim vositalaridan foydalangan holda o'quv fanlari orqali beriladi. NMMni muhofaza qilishning amaliy muammolari tajriba-sinov jarayonida amalga oshirilgan.

NMMni muhofaza qilishning ijtimoiy muammolari – NMMga oid tarbiya NMM muhofazasiga oid ijtimoiy muammolarni hal etishda olib boriladi. Ya'ni oila, mahalla, muassasa hamda jamoat joylardagi ijtimoiy NMM muhofazasiga oid muammolar o'rganilishi nazariya bilan amaliyotning bir-biriga bog'liqligini ta'minlaydi.

NMMni muhofaza qilishning huquqiy muammolari – NMMMuhofazasiga doir qonunlarni o'zlashtirish va ularga rioya etishning tarbiyaviy jihatlari o'rganiladi. Tajriba darslarida NMMni muhofaza qilishda huquqiy qonunlar bilan tanishtirildi.


O'quv fanlarini o'qitish jarayonida NMMni muhofaza qilishni o'zlashtirish muammolari barcha fanlar NMMni o'rgangani bois bu jarayonni o'quv fanlaridagi mavzular asosida tahlil etildi.

O'qituvchilarining pedagogik mahoratini NMMni muhofaza qilish maqsadlariga yo'naltirish muammolari har bir NMM muhofazasiga oid muammoni o'quv fanlari orqali tahlil etishni egallay olishi nazarga tutiladi.

Darsdan tashqari o'qishlarni NMMni muhofaza qilish asosida tashkil etish muammolari o'quvchi NMMga oid o'qigan, tomosha qilgan, eshitgan, ishtirot etgan asarini 2-rasmdagi jarayonlarda amalga oshirish mumkin.

Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda NMMni muhofaza qilishni o'zlashtirish muammolari. Dars jarayonini o'quv fanlari orqali tahlil etish muammosi bir mavzuni fanlar bilan

bog‘lanishi nazarda tutiladi. O‘quvchilarda NMMni o‘quv fanlari orqali tarbiyalashda fanlarni to‘g‘ri taqsimlash, o‘quv fanlari orqali amalga oshirish, berilgan topshiriqlarni o‘quv fanlari orqali bajarish, NMMga bo‘lgan munosabatlarni fanlar orqali tahlil etish, fanlar orqali umumlashtirish hamda xulosa chiqarish jarayonlarida amalga oshiriladi. O‘quv fanlari asosidagi dars jarayonida, ya’ni nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlarida hamda darsdan tashqari mashg‘ulotlardan tadbirlar tashkil etish, tanlovlardan o‘tkazish, sayohat, tarbiyaviy soat, mustaqil ishlarni bajarishda, devoriy gazeta chiqarish, rasm mashg‘ulotlari orqali olib boriladi.




Rasm 2. Darsdan tashqari o‘qishlarni NMMni muhofaza qilish asosida tashkil etish muammolari

Darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni o‘quv fanlari orqali bog‘lash muammosi sayohat, tanlovlardan, tarbiyaviy soat, gazeta chiqarish, rasm mashg‘ulotlarida o‘quv fanlari orqali beriladi. O‘quv fanlari orqali NMMni muhofaza qilishni o‘quvchilarda shakllantirishda 3-rasmda ko‘rsatilgan muammolarni hal etish muhim ahamiyatga ega:

O‘quvchilarga NMMni muhofaza qilish yuzasidan ishlab chiqilgan *metodikaga* binoan, tavsiya etilgan mavzular asosida dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quv fanlari asosida pedagogik tajriba-sinov olib borish jarayonida shakllantirildi. NMMni muhofaza qilishni *uzluksizlik hamda uzviylik tamoyillariga* asoslangan holda madaniyat va san‘at kollejining “Aktyorlik san‘ati” va “Rejissorlik” yo‘nalishlarida bosqichlariaro shakllantirildi. Bu jarayonda o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, mustaqil ish shakllari, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda NMM muhofazasi mazmundagi turli topshiriqlardan foydalanish e’tiborga olingan. O‘quv fanlari orqali NMMni muhofaza qilish o‘quvchilarda aniq, tabiiy, ijtimoiy, gumanitar, umumkasbiy va maxsus fanlar tahlili asosida takomillashtirishdan iborat. Shuningdek, NMMning tarixiy, ijtimoiy, siyosiy muammolari ham o‘rganildi. NMMni muhofaza qilish tizimini shakllantirish jarayoni madaniyat va san‘at kollejining “Aktyorlik san‘ati” va “Rejissyorlik” yo‘nalishlari bosqichlarda o‘qitiladigan fanlar yordamida amalga oshirildi.

NMMni muhofaza qilish mazmunidagi mustaqil ishlarni bajarish muammolari. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarining mustaqil ishi o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning muhim vositasi hisoblanadi. Kollej o‘quvchilari mustaqil ishining asosiy vazifasi shaxsiy izlanishlar asosida bilimlarni egallash ko‘nikmalarini va yangi bilimlarni izlashga qiziqishini rivojlantirishdan iborat. NMMni muhofaza qilish jarayonida o‘quvchilarining mustaqil ishlarni tashkil etishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratiladi: o‘quvchilarini NMM muhofazasiga qiziqtirish; iqtidorli o‘quvchilarini aniqlash hamda NMM muhofazasi yo‘naltirish; NMM muhofazasiga oid mustaqil ishlarni

rejalashtirish; NMM muhofazasi jarayonida zamonaviy metodlarni tanlash va amalda qo'llash; ommaviy axborot vositalarida yoritilgan NMMga oid materiallarni mustaqil o'rganish va tahlil etish; mavzuga oid manbalar va o'quv adabiyotlarini mustaqil o'rganish; madaniyat va san'at kolleji miqyosida o'tkaziladigan NMM muhofazasi mavzusidagi konferensiyalarda ishtirok etishga tayyorlash; mavzuga oid tashkil etilgan ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish; mavzuga oid amaliy topshiriqlar va kurs ishlarni mustaqil bajarish; o'quvchilarini NMM muhofazasiga oid amaliy ishlarga o'rgatish.



Rasm 3. O'quv fanlari orqali NMMni muhofaza qilishni o'quvchilarda shakllantirish muammolari

NMMni muhofaza qilish mazmunidagi mustaqil ishlarni bajarish shakllari 4-rasmda aks ettirilgan.

Buklet. O'rganilayotgan NMM namunasiga oid buklet tayyorlanadi. Masalan, "Xalq ijodiyoti" mavzusi bo'yicha buklet tayyorlashda "Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish", "Ona tili va adabiyoti", "Tarix", "Ma'naviyat asoslari", "Estetika", "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarga tayaniladi. Mazkur mavzuning har bir fanda o'rganilishi ochib beriladi. Bukletring bir tomonida mavzuga oid izohlar, ikkinchi tomonida esa rasmlar beriladi.

Referat. Tanlangan mavzu bo'yicha referat yoziladi. Masalan, "O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi" mavzusini o'rganishda ijtimoiy-gumanitar fanlardan "Ona tili va adabiyot", "Tarix", "O'zbekiston Konstitusiyasi" "Shaxs va jamiyat", "Huquqshunoslik", "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar", "Ma'naviyat asoslari", "Estetika" fanlariga asoslanadi. "Ona tili va adabiyot" fanidan NMM mavzusidagi materiallar asosida mashqlar bajarilib, she'r, doston, maqol, topishmoqlar o'qilib, tahlil etiladi. "Tarix" va "Ma'naviyat asoslari" fanlaridan NMMning ijtimoiy-tarixiy asoslari o'rganilib, tahlil etiladi. "Shaxs va jamiyat", "O'zbekiston Konstitusiyasi", "Huquqshunoslik" va "Iqtisodiyot asoslari" fanlarini o'rganishda fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishning NMMga ta'siri, inson va jamiyatga ta'siri, NMM muhofazasi, qabul qilingan qarorlar haqida ma'lumotlar yoziladi va rasmiylashtiriladi.


Krossvord. Misol tariqasida "Xazina" krossvordi tayyorlanadi. Unda NMMning tur va janrlari asosida savollar tuziladi.

Kartochka. NMM muhofazasiga oid savollar tayyorlanadi. Kartochka savollari o'quv fanlari soniga bog'liq holda beriladi.

Albom. "Oltin meros" mavzusi misolida albom tayyorlanadi. Albomning hir bir varag'ida o'quv fanlaridagi NMMga oid materiallar, tushunchalar, rasmlar beriladi.

Ssenariy yozish. NMMning eng ommalashgan namunalari tomosha san'ati yoki urf-odatlar yig'indisida aks ettirilgan bo'lib, o'quvchi ushbularni o'rganishda mahalliy dalillarga asoslanib ssenariy tayyorlaydi. Masalan "Barhayot an'analar" tadbirni uchun mahalliy aholi tomonidan o'tkaziladigan turli urf-odat va marosimlar ssenariysini yozish mumkin.

Audio va video lavhalar. Mahalliy mutaxassislar ijodiy faoliyatiga oid audio va video lavhalar tayyorlaydi. Masalan, baxshichilik, laparchilik, o‘lan va yor-yorlar audio tasmasi, turli urf-odat va marosimlar va hunarmandlar ish jarayoniga oid video lavhalar to‘planadi.



Rasm 4. NMMni muhofaza qilish mazmunidagi mustaqil ishlarni bajarish shakllari

Pedagogik amaliyotda NMMni muhofaza qilishni amalga oshirish muammolari. O‘quvchilarning pedagogik amaliyotlari jarayonida NMMni muhofaza qilish yuzasidan topshiriqlar, ya’ni 1 soatlik NMM mazmunidagi dars va mashg‘ulot ishlanmalarini bajarish inobatga olingan.O‘quv pedagogik amaliyot madaniyat va san’at kollejining “Aktyorlik san’ati” va “Rejissorlik” yo‘nalishlari o‘quv, pedagogik va diplomoldi shakllarida olib boriladi.

Demak, o‘quvchilarda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning konseptual muammolaridan o‘rinli foydalanish o‘quvchining tarbiyasini mustahkamlashda o‘z samarasini beradi. NMM muhofazasiga e’tibor bermaslik – ma’naviyatga, tarixga nisbatan befarqlikni yuzaga keltiradi. Ma’naviyatga nisbatan befarqlikning oldini olish, loqaydlikka yo‘l qo‘ymaslik bugungi ta’limning asosiy maqsadi hisoblanib, Prezident I.A.Karimov ta’kidlaganidek “... yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘sqliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur” [1, 115].

Globallahuv jarayonida shiddat bilan kirib kelayotgan “Ommaviy madaniyat” va uning salbiy oqibatlariga faqatgina biz yuksak ma’naviyat va uning tarkibiy qismi bo‘lmish NMM namunalari bilan quronishimiz mumkin. Ta’kidlangan masalalarni bartaraf etishda NMMni muhofaza qilishning konseptual muammolarining ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o‘quvchilarga sodda tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan muammolarning yechimini topa oladigan hamda ularning oldini oladigan kelajak avlod bunyodkorlariga aylantirishdan iborat. Buning uchun kasb-hunar ta’limida NMM muhofaza qilishning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy jihatlari haqida darslik, o‘quv-metodik qo‘llanma va adabiyotlar yaratish tizimini yanada takomillashtirish zarurligi tadqiqot ishlari jarayonida aniqlandi. Mazkur tadqiqotda kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarida NMMni muhofaza qilishning konseptual muammolari o‘rganildi va qayd etilgan muammolarni hal etish evaziga quyidagi natijalar olindi:

- NMMni muhofaza qilishning nazariy muammolari tahlil etildi;
- NMMni muhofaza qilishning amaliy muammolari pedagogik tajriba-sinov jarayonida o‘rganildi;
- NMMni muhofaza qilishning ijtimoiy muammolari madaniyat va san’at kolleji hayotida tahlil etildi;
- NMMni muhofaza qilishning huquqiy muammolari dars jarayonida o‘rganildi;
- NMMni muhofaza qilish fanlar asosida pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida o‘zlashtirildi;
 - o‘qituvchining pedagogik mahoratga erishish zarurati ta’kidlandi;
 - sinfdan tashqari o‘qishlar o‘quv fanlari asosida tashkil etildi;

– dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda NMMni muhofaza qilishning asoslari o‘zlashtirildi;

- NMMni muhofaza qilish yuzasidan mustaqil ishlar bajarildi;
- pedagogik amaliyotda NMMni muhofaza qilish amalga oshirildi.

Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarida NMMni muhofaza qilishning konseptual muammolarini o‘rganish va tahlil qilish, tahlil natijalarini amaliyotga joriy etish ming yillar davomida shakllangan va taraqqiy etib kelayotgan nomoddiy madaniy merosning davomiyligi va barqarorligini kafolatlaydi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 176 b.
2. Toshmatov O‘.G., Isakulova N.J. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2014. 112 b.

Ж.А.Маматқосимов

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОХРАНЫ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ У УЧАЩИХСЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОЛЛЕДЖЕЙ

Определены и анализированы концептуальные проблемы реформации системы защиты нематериального культурного наследия у учеников профессиональных колледжей, разработаны методические рекомендации по итогам анализа.

Ключевые слова: Нематериальное культурное наследие, защита, профессиональное образование, профессиональные колледжи, колледжи культуры и искусства, концептуальная проблема.

J.A.Mamatqosimov

CONCEPTUAL PROBLEMS OF FORMATION OF THE SYSTEMS OF INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE PROTECTION AT THE STUDENTS OF PROFESSIONAL COLLEGES

Identified and analyzed the conceptual problems of reformation of the system of protection of intangible cultural heritage among students of professional colleges, developed methodological recommendations emanating from analysis.

Keywords: intangible cultural heritage protection, professional education, professional colleges, colleges of culture and art, a conceptual problem.

UDK: 37:2

XUBBINLIK VA AQIDAPARASTLIK ILLATINING QAYTA IDROK ETILISHI

M.Q.O‘razboyeva

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, tadqiqotchi

Annotasiya. Ovloq maskan – sihatgohdagi o‘limga mahkum qilingan, yaqinlariga keraksiz bemorlarning ruhiyati, maskandan tashqarida xudbinlikdan tavallud topgan bemehrlik ko‘rinishi Zulfiya Qurolboy qizining “Kasal qush” hikoyasi qahramonlari tahlili orqali yoritildi.

Kalit so‘zlar: o‘limga mahkum bemorlar, bemehrlik, hayot me’yorining buzulishi, xazon bo‘lgan umr, xudbinlik, bemor, kasallik, begonalik.

Zulfiya Qurolboy qizining “Kasal qush” [1] hikoyasi voqeligidagi qamralgan sihatgohdagi bemorlar hayoti muayyan parchasi kitobxonni ranglari sarg‘aygan, behol va ramaqijon bemorlarning oilaviy turmushi, afsus va nadomatli o‘y-xayollari bilan tanishtiradi. Ularning yaqin o‘tmishi, buguni va ertasi haqida o‘ylashga, tasavvurlarini harakatga keltirishga xizmat qiladi. Kitobxon hikoya mutolaasidan so‘ng asl bemor o‘zgalarga o‘zligini baxshida etib, zig‘ircha ro‘shnolik ko‘rmasa ham, hamon oilasi, uy-joyi, chala qolgan talay yumushlarini butlash haqida jonsaraklik bilan o‘layotgan, sihatgohdagi bechoralarmi yoki bu maskandan tashqarida xudbinlikdan tavallud topgan bemehrlik, deya o‘ylab qoladi. Chunki adibaga qo‘silib, hayot abgor qilgan odamlar so‘nggi manzilidan sog‘lom kishilar yorqin kelajak sari intilayotgan ma’volarga, binobarin o‘z qilmishlari va botiniga ham bir qur nigoh tashlaydi. Shunda odam bolasi o‘zini va sog‘lig‘ini qachon o‘laydi. Umuman, shaxs hayotining qadri va mantig‘i kimgadir fido bo‘lishdamikin deya xayolga toladi. Zotan uning quloqlari ostida yozuvchi masxaraomuz qahqahasi jaranglaydi.

Aslida, farzandlik yoxud ayollik burchini ado etayotgan bu odamlarni dabdurustdan bemehrlikda ayblash ham durust emas. Ammo o‘z vaqtida ahli ayoli va farzandlari tolei uchun moliyu jonini nisor qilgan odamlar nahotki bemorligi hamda kasali yuqishidan hadiksirash tufayli atayin unutilsa. Ehtimol, ularning xavotiri ham o‘rinlidir, ammo bu o‘rinda millatimiz tabiatiga xos andisha qani. Kimningdir bemalol yashashi uchun misqollab moddiy ne’matlar yig‘ish, raxon umr yo‘li barpo etish uchun sog‘lig‘idan kechish evaziga keladigan mukofot - oqibat shumi. Axir, hayot qadri va umr mazmuni o‘zaro mehr-oqibat bilan belgilanmaydimi. Inson qalbida umid va ishonch so‘nib, uning o‘rnini dilgirlik zabit eta boshlasa, hayot kemasiga darg‘alik qilish mumkinmi. Izzat-nafs chekayotgan aziyatdan o‘rtangan tetik va bardam ruh o‘rnini boshvoqsiz og‘ir o‘ylar egallab, kishini har qadamda o‘lim sharpasi ta‘qib eta boshlamasmi. Bemor o‘z vujudini kemirish evaziga jon saqlayotgan ruhi, hayot shami kun sayin so‘nib borayotganini payqaganida, nafas olayotganining o‘zini baxt deb his etsa netong.

Demak, nafas qadriga yetmoq uchun jo‘sinqin hayot emas, balki ekstremal vaziyat tanlash ham bugungi nasrimizning muhim belgilaridan biridir. Zulfiya Qurolboy qiziga qahramon taqdirini ovloq maskan (sihhatgoh) panjarasi va xilvatu sokin, g‘arib qabriston (hayot va o‘lim chegarasi) dan turib tasvirlash mangulikning ma‘yus ohanglarini ifodalash imkonini bergen.

Darhaqiqat, hikoya ritmiga singdirilgan zilday og‘ir kayfiyat o‘limga mahkum bemorlar ichki sezimlariga hamohang. Zulfiya Qurolboy qizi bizni hayot maromi va me’yori buzilib, qismat hukmiga uloqtirilgan mahkum uchun ham o‘lim jo‘n narsa emasligi haqida o‘ylashga undaydi. U qahramonini ona tabiat qo‘yniga yetaklaydi. Xazonrez fasl manzaralari shunday chiziladi: “*Kuz emasmi, butun borliqdan mahzunlik yog‘ilib turganday, bir qarasang, osmonni zil-zambil bulut qoplab, yomg‘ir tomchilaydi, achchiq izg‘irinli shamol esadi, daraxt shoxlarida diydirab turgan yaproqlar shamol har dapqir hamla qilganida hayotga vido aytib, bitta-bitta uzilib tushadi, havo sovib ketadi; bir qarasang, quyosh charaqlaydi, benazir bo‘ladi*”. (106-107- b.) Nazarimizda, ana shu tasvir ohangi, tabiat tantiyu notanti qiliqlari singari uning bir uzvi bo‘lmish hikoyada tasvirlangan odamlar tutumi ham g‘oyatda evriluvchandir. Adiba inson qismatini tabiatga qiyosan chizishga mayl bildiradi. Masalan, bemor ayolini deb o‘zidan kechgan “bebosh” yigit samimiyatiga havas qilish mumkin. Adiba taqdirga qasdma-qasd tarzda muhabbatini ardoqlayotgan yoshlar obrazi misolida inson irodasini mahv etish maholligiga ishora qiladi. Sog‘lom odamlar orasida yashashi mumkin bo‘Imagan - o‘z yaqinlariga b e g o n a, ammo azbaroyi bu dunyodan nom-nishonsiz ketishni tilamagani uchun nosha’riy tarzda begona erkakdan homila orttirgan juvon ruhiyatini anglashga da‘vat etadi. Bizning diqqatimizni unutilgan odamda ham ko‘ngil va xayotga ilinj borligiga qaratishga, demakki qadriyatlarimizga o‘zgacharoq nigoh bilan boqishga intiladi. Shubhasiz, bu holni oqlash ham, qoralash ham mumkin. Lekin ayni holatni keltirib chiqargan simptomlar haqida teranroq o‘ylab ko‘rmaslik mumkin emas.

Usmon chol o‘jarlik bilan o‘zini bardam ko‘rsatishga urinsa-da, u farzandlari mehriga intiq. Bemehrlik bois u yaqinlari qarshisida oyog‘ini uzatib omonat jonni egasiga topshirish baxtidan ham mosuvo. O‘g‘illari va kelinlarining irlganish bilan boqqan nigohlaridan malollangan ota buni sirtiga chiqarmay, ko‘rguliklarini ichiga yutib yashaydi. Qismatga bosh egganlardan biri - so‘nggi ilinjidan ayirlgan juvon ham o‘zining o‘limga mahkum va yaqinlariga keraksiz ekanini biladi.

Hamshira Oydinoy panjara ortidagi biqqi, ikki yuzi yaltirab ketgan to‘ladan kelgan, ammo o‘zini “xokisor” tutayotgan mirquruq eriga har oyda topganini qo‘shqo‘llab topshiradi. Uyidan olisda, sog‘lig‘ini garovga qo‘yib tunu kun ter to‘kayotgan, farzandlari mehriga zor ayoli maoshini qurtday sanab olayotgan er va juvon umrguzaronligi me’yorning buzilish holi. Shuning uchun ro‘zg‘orga baraka kiritish o‘z zimmasida ekani mas‘uliyatini bo‘yniga olmay, ayolini “daromadli ish” bilan band qilib qo‘ygan mirquruq arning tutumlari dilgir kayfiyat uyg‘otadi. Nahotki, jonsarak ayol shu ma‘naviy qashshoq erni taqdir in’omi deb bilsa. Hayotning turfa o‘yinlari, odam bolasi shovqin suronli turmushi va nihoyat poyoniga yetib qolgan umr. Nahotki, u shunchalar qisqa. Odamzot olamni boshiga ko‘tarib chinqirib ko‘z ochganida, umr atalmish ne’mat shunday nihoya topishi va qolganlarning lahzalik alamli faryodlarini istaganmidi. Nazarimizda, bunday xulosalar kitobxonni odatiy deb qabul qilingan ming yillik hayot uyqusidan uyg‘otmoq, olamga bedor nigoh ila boqmoqqa undaydi.

Shubhasiz, axloq falsafasining fundamental kategoriyalardan biri bo‘lgan “burch” tushunchasi inson mas‘uliyati, ijtimoiy tuzilmalar oldidagi majburiyati. U axloqiy qiyofani belgilovchi omil. Ammo burch qalb erkinligi asosida tanlanib, ichki ma‘naviy zaruratga aylanmog‘i, o‘zlikni anglash va

iyomon-e'tiqod yo'lini to'smasligi kerak. Sihatgohdagi bemorlar sadoqat bilan ado etgan burch ham iymon-e'tiqod, majburiyat va hatto mas'ullikdan tashqarida kechgan emas. Biroq bu o'rinda o'sha qadriyat markazida turuvchi inson va uning o'zligi, erki unutilgan. Insonga qayta yashash taqdir qilinmagan ekan, ato etilgan ne'matni yelga sovurishni "burch" deb xaspo'shamoq sog'lom mantiqqa zid. Zotan asl "kasal" lik simtomi o'sha eski aqidaparastlikda. Jo'n hayot tartiblariga sobitlik, "sharaflangan" inson aql idroki so'nggi to'xtami emas. Demak, milliy tafakkur o'sha tartiblarni buzaroq o'ziga yangi yo'llar ochishi, burch inson ma'naviyatidan yanada chuqurroq o'rinn olishi joiz. Ruh xotirjamligiga erishilmash ekan, tafakkur bemorligi tuzalmaganidek, umr arosatda o'taveradi. Binobarin, beparvolik va noshudlik mislsiz iztiroblar olib keladi.

Shu ma'noda, hikoya qahramoni – bayonchi-personajning arosatda o'tgan umr haqidagi o'ylari ko'ngil xotirjamligiga erishmoq so'nggi imkonni. Bu ruhiy tozarish va poklanish, ya'ni iliq xotiralar, toza o'ylar bilan quruqshab borayotgan qalba dunyo shodligini jo qilish imkonni. Qalb qa'rida pinhon hissiyotlarni yuzaga qalqitmoq esa, ayni lahzada o'tmisht va kelajakni birlashtirmoqdir. U jisman yaroqsiz bo'lsa-da, jo'ngina shafqatga muhtoj bemor emas. To'g'ri, hikoya qahramoni butun umr burch, mas'uliyat va tirikchilik tashvishlari uchun shirin hayol va orzularidan voz kechgan. U yorug' olamda bugun undan hazar qilayotgan kimgadir ota va allakimga er. Biroq, endilikda, go'zal xayollari va qalbini larzaga solgan shaffof hissiyotlari qarshisida bo'laklarga bo'lingan vaqt o'chovi butkul ahamiyatini yo'qtgan. U vaqtini yaxlit holda his etadi. Qarangki, ijtimoiy-axloqiy xavotir va tashvish, ikkilanish-qo'rquv iskanjasidan ham xalos bo'ladi.

Binobarin, g'oyatda mustahkam qal'aday tuyulgan o'sha to'siqlardan osongina o'tish uchun kishi o'z-o'zini taftish eta olishi, saxv-xatolariga iqror bo'lib, sukut ostonasidan tazarru sari xatlab o'tmoqqa jur'at hamda qurb topmog'i lozim ekan. Hech bo'lmasa, umr shomida o'sha sukutni buzish, o'zlikni fosh qilish ham ruhiy xotirjamlikni ta'minlash ehtiyoji. Bayonchi-personaj umrining so'nggi kunlarida butun hayoti mazmuni bo'lishi mumkin bo'lgan bokira muhabbatini tan olmagani, himoya qilolmagani tufayli barcha orzulari tumanli masofalar ichra g'oyib bo'lganini anglaydi. O'z vaqtida anglamagan beg'ubor muhabbat sohibasi uchun hamon butun bir dunyo ekanini his etganida odam bolasining yoshiga nisbatan farqlanishi ham, kasallik ham ko'ziga ko'rinnmay qoladi.

U bokira tuyg'ularini hamon ko'z qorachig'iday asrayotgan o'sha "b e g o n a" ayol oldidagi bepapvoligi uchun o'zini kechirmaydi, kechirolmaydi. Chunki unga: "*Mengacha nima bo'lgan edi-yu mendan keyin nima bo'ladi?*", degan adoqsiz o'y tinchlik bermaydi. Kechikkan iqror va tazarru ham yupanch bo'lolmaydi. Mavjudiyatining o'zi bilanoq bir begunoh banda umrini kimnidir kutib o'tishga mahkum, onalik baxtidan mosuvo etganidan iztirob chekadi. "*Ammo hozir faqat seni ko'rishni, olisdan bo'lsa ham ko'rishni istayman, jilla qursa, maktub yoz, qo'ng'iroq qil, gaplash, meni deb dunyodan toq o'tayotganing uchun ta'na-yu malomatlarga ko'mib tashla; shunda men go'shakdan kelayotgan ovozing* (qanchalar alamli bo'lsa-da) *sehriga berilib, hayajon ichida undagi har bir so'zingga, kulgingga* (ana, sen kulyapsan, kulging tovushini eshitdim, chunki... tabassuming sharpasi lablarimga qo'ndi) *asir bo'laman, so'zlarining va kulgingni tinglayman, iliq nafasingni, chindanda mavjudligingni, haroratingni his qilaman; yillar tez o'tgani, ko'p narsani boy berib qo'yganimni, ajal eshik ortida poylab turgani, hayotning boqiy emasligi haqidagi vahimali o'ylar ham nari ketadi, oxir-oqibat qo'rquvdan xalos bo'laman.*"(111- b.)

Ko'rindiki, qahramon kelajagi yo'q muhabbat qurbanini bo'lgan ayolning xazon bo'lgan umri, hijron va sog'inch azoblaridan pora-pora bo'lgan ko'ngli qarshisida o'zini xudbinlikda ayblaydi. Shubhasiz, uni deb dunyodan toq o'tayotgan ayolning ta'na va malomat qilishdan yiroq bir yaratiq ekani ayni kayfiyatni yanada kuchaytiradi. Fikr-xayollar uni g'oyatda tez o'tgan yillar davomida boy berilgan ko'p narsalar, eshik ortida poylayotgan ajal, bebaqo umr haqidagi vahimali o'y va qo'rquv hissidan xalos etadi. Muhibimi, u mehribon bir kishi diydoriga intiq. O'sha sehrli ovoz sohibasi haqida o'ylagani, u bilan xayoliy suhbatlar qurbanida har bir harakat-holatni nazardan qochirmsaslik va undan qoniqish tuyishga ilhaq. Zotan, kulgi - kechirimlilik, iliq nafas - harorat, so'z - mavjudlik belgisi. Illo, masofadan qat'iy nazar, seni ardoqlaguvchi mehribon va mushfiq zot mavjudligi ulkan baxt ekanini hayotga tashna bemorchalik hech kim his qilmasa kerak. Axir, ayni hol tufayli hech kim va hech narsa uning qalbidan ilinj hamda umid tuyg'ularini yulib ololmaydi.

Demak, u o'sha sanamning jimligi-yu ayriliq, ba'zan bostirib keluvchi tushkunlik, tobora xuruj qilayotgan xastalikka bardosh bilan chidaydi. Muallifning lahzani abadiyatga daxldor deb bilish e'tiqodi bemor kishi qalbidagi umid, o'z umrida bir necha kun, ehtimol daqiqqa ichida bo'lsa-da

chinakam baxtiyor bo‘lish ishonchini mustahkamlash, unga hayotsevar ruh bag‘ishlash imkonini bergen. Darhaqiqat, Zulfiya Qurolboy qizi bokira muhabbatiga sodiq qolgan ayolni ardoqlash barobarida, kitobxon qalbiga mo‘jizalarga ishonch va munavvar -ertangi kunga umid ruhini ham indira oladi. Asar so‘nggida esa uni: yuqumli virus emas, balki unutilish, begonalik dahshat ekan. Vaqt uchqur va lahzaning qadri beqiyos degan xulosaga kelishga undaydi.

Adabiyotlar.

1. Zulfiya Qurolboy qizi. Kasal qush. Hikoya. “Sharq yulduzi”, 2013, № 1, - B.101-111.

М.К.Уразбаева ПРОЯВЛЕНИЕ ЭГОИЗМА И ФАНАТИЗМА	M.K.Urazbaeva MANIFESTATION OF EGOISM AND FANATICISM
---	---

Отдаленное место – дух больных осужденных к смерти, отдаленных от родных, образ нелюбви выявленный вне дома за счет эгоизма рассмотрен на примере анализа главных героев Зулфии Куролбой, “Больная птица”.

Ключевые слова: смерть пациентов, недобрых, нарушение standart проживания, превосходит жизнь, эгоизм, пациентов, болезнь, иностранное происхождение.

Remote place - the spirit of the sick persons sentenced to death, far from family, lifestyle dislike identified out by self-interest considered by the example of the analysis of the main characters Zulfiya Kurolboy, "Sick Bird".

Keywords: death of patients, unkind, violation of the standard of living, beggar life, egoism, patients, illness, foreignness.

UDK:371.8

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI EKOLOGIK TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNI TIZIMLI YONDASHUV METODI ORQALI O‘RGANISH

N.Shodiev¹, Sh.Axmedova², M.Po‘latova³

Samarqand davlat universiteti, ¹professor, ²magistrant, ³o‘qituvchi

E-mail: shahzoda_8715@mail.ru

Anotatsiya. Ushbu ishda OTM talabalarini ekologik tarbiya ishiga tayyorlash bo‘yicha ko‘p qirrali va murakkab jarayonni tizimli yondashuv usuli yordamida o‘rganilib, uning ichki tuzilmasi yoritilgan. Shuningdek, talabalar ekologik tayyorgarligini – ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik-psixologik va metodik hamda ilmiy texnikaviy komponentlari namoyon qilinib, bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik tizimdan chiqishidagi tayyorgarligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik tizim, kirish, chiqish, yaxlitlik, tuzilma, ekologik tarbiya, ekologik tayyorgarlik.

Keyingi vaqtarda murakkab pedagogik hodisa, jarayonlarni sistema (tizim)li yondashuv usuli bilan tadqiq qilish pedagog olimlar o‘rtasida katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Murakkab ta’lim – tarbiya jarayonlarini tadqiq qilishning ushbu usuli Afanasev.V.G,[4] YU.K. Vasilev [5], Kuzmina [6], V.A. Slastenin [8], N. Shodiev [10], Muslimov N.A [7], Xadjabaev. A.R [9] va boshqalarning ilmiy ishlaridan keyin ayniqsa keng tus oldi.

Haqiqatdan ham, pedagogik hodisa, jarayonlarni tekshirishning mazkur usuli ta’lim-tarbiya jarayonini yaxlit, bir butun, uyg‘un holatda kompleks o‘rganishga imkon beradi. Umumiy holda tadqiqotni uch bosqich tarzda quyidagicha tavsiflash mumkin:

- tizimning tuzilishi va ishlash pritsiplarini tahlil qilish va tasvirlash;
- tizimning barcha tarkibiy qismlarining o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning o‘zaro bog‘lanishlari va ichki tuzilishlarini tahlil qilish;
- o‘rganilayotgan tizim va boshqa tizimlarning o‘xshashligi va bir – biridan ajralib turadigan tomonlarini namoyon qilish.

Murakkab ta’lim – tarbiya jarayoni tizimining boshqa tizimlardan ajralib turadigan muhim xususiyati – bu uning element va tarkibiy qismlarini o‘zaro mustahkam aloqasi tufayli vujudga keladigan bir butunligi, yaxlitligidir. U holda pedagogik hodisa, jarayonlarni tadqiq qilishga tizimli yondashish deganda biz pedagogik tizimda mavjud bo‘lgan barcha muhim tashqi va ichki aloqalar va tizimlarni hisobga olishni, murakkabroq tizimning tarkibiy qismi bo‘lgan ayrim pedagogik obyektlarni

o'rganishni, o'quv –tarbiya jarayonini ko'zda tutilgan aniq maqsadga samarali erishishida ularning har birining o'rni va rolini namoyon qilishni tushunamiz. Ushbu nuqtayi nazaridan talabalarni matabda ekologik tarbiyani amalga oshirish ishiga tayyorlash muammosi ma'lum maqsadlarga qaratilgan, bir – biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan qator tizim va funksional komponentlardan iborat tizim sifatida qaralishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu tizim o'z navbatida o'zidan kichik qator tizimcha (element)lardan tashkil topishi mumkin. Ushbu tizimchalardan birortasi tahlil qilinganda qolgan barcha tizimcha (element)lar u uchun tashqi muhit hisoblanadi. U holda tahlil qilinayotgan tizimni ushbu muhit bilan "aloqasi" (o'zaro ta'siri) uning "Kirish" va "Chiqish" lari orqali amalga oshadi. Talabalarni matabda ekologik tarbiyani amalga oshirishga tayyorlash tizimining yana bir xususiyati – bu uning to'xtovsiz rivojlanib boruvchanligi, ta'lim –tarbiyaning samarali shakl, usullarini hamda ekologik sohada fan- texnika erishgan yutuqlarni qabul qiluvchanligidadir.

Tahlil qilinayotgan tizimning barcha asosiy komponentlarini, muhim tashqi va ichki aloqalarini qarashga o'tishdan oldin uning yana juda zarur qator xususiyatlarini yoritishga imkon beradigan ta'rifini beramiz. Ulardan biri tizim elementi (komponenti)dir. Element tizimning mayda bo'lagi bo'lib, u boshqa bo'laklarga bo'linmasdan tahlil qilinadi. Tizim elementlari o'rtasidagi "aloqa" tizim elementlarining bir butunligini, yaxlitligini ta'minlaydi. Muhokama qilinayotgan tizim uchun muhim bo'lgan tushunchalardan yana biri-bu uning tuzilma (struktura)sidir. U sistemani tashkil etuvchi elementlar majmuasi va ularni birlashtirish usullarini ifodalaydi.

Talabalar ekologik tayyorgarliklarining yaxlitligiga, uyg'unligiga qo'yiladigan talablarini o'z ichiga oladi:

- matabda ekologik tarbiya vazifalari bilan bog'liq bo'lgan barcha asosiy pedagogik faoliyat turlari (tabiatni muhofaza qilishga oid bilimlar tizimi, tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash, ijtimoiy foydali shaxsiy sifatlarni shakillantirish, tabiatni muhofaza qilish vajlarini rivojlantirish va h.k.)ni oliy matabni bitiruvchi-o'qituvchilar tomonidan bajarilishi;
- darsda, sinfdan tashqari ishda, o'quvchilarning ijtimoiy foydali, unumli mehnat jarayonida va h.k. larda tabiatni muhofaza qilish vazifalarini amalga oshirishni ta'minlash;
- ekologik tarbiya bo'yicha predmet o'qituvchisining ham, sinf rahbarining ham, matab rahbarlarining ham funksiyalarini yuqori saviyada bajarish;
- tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ota-onalar, korxonalar va keng jamoatchilik uchun umumiyo bo'lgan vazifalarni o'z vaqtida va to'g'ri hal qilish uchun ular bilan doimiy ish muloqot o'rnatish va h.k.

Endi talabalarni matabda o'quvchilarning ekologik tarbiyasi ishga tayyorlash tizimining mazmun va jarayon nuqtayi nazaridan qatlamlarga ajratib qarab o'tamiz. Bunda biz ushbu tizimining turlicha qirqimlari borligiga guvoh bo'lamiz. Quyida ularning asosiyalariga to'xtalamiz:

1. Ekologik tarbiya-matabning yagona bo'lmagan muhim vazifalaridan biridir. U bilan politexnik ta'lim, mehnat tarbiyachi, estetik tarbiya va h.k. vazifalar ham yonma –yon turadi. Matabda tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish ishiga qancha to'g'ri yondashilsa mehnat tarbiyasi, politexnik ta'lim, kasb tanlash ham matab oldida turgan ko'plab boshqa vazifalar ham shuncha osonroq va samaraliroq hal bo'ladi.

2. Ekologik tarbiya bo'yicha matab oldida turgan ish ko'p rejaldir. U butun pedagogik jamoa a'zolari tomonidan amalga oshiriladi: predmet o'qituvchilari, sinf rahbarlari, matab rahbarlari va h.k. pedagogik safarbarlikning ushbu tizimida uning har bir bo'g'ining vazifasi va ish mazmuni ham birlar bilan mustahkam bog'langan va umumiy fuknsiyani bajarishga mo'ljallangan tizimchalar sifatida qaralishi mumkin.

3. O'qituvchini ekologik tarbiyani amalga oshirishga tayyorlashning mazmuni va jarayonini tizimli yondashish nuqtayi nazaridan tahlil qilinsa, u holda ushbu tayyorgarlik komponentlari sifatida (ya'ni ushbu tizim o'z navbatida o'zidan kichik tizimchalarga bo'lib qaralganda) qo'yidagi bosqichlar pedagogik ta'lim, o'qituvchilar malakasini oshirish, ularning o'z ustilarida mustaqil ishlab bilim ortirishlarini o'zida aks ettirganligini ko'rsatish mumkin.

4. Oliy pedagogik ta'lim tizimi ko'p funksiyali tizimdir, chunki u jamiyat tomonidan o'qituvchiga yuklatilgan barcha vazifalarini bajarish uchun bo'lajak o'qituvchining tayyorlashga xizmat qiladi.

5. Oliy pedagogik ta'lim mazmunida jamiyatshunoslik, psixologik-pedagogik, umumiy ilmiy,

umumi texnikaviy hamda mutaxassislik profili kabi turkumdag'i o'quv predmetlari mavjud. Tizimli yondashuv yuqorida keltirilgan o'quv predmetlari turkumlarining har birini tizim sifatida qarash orqali ushu turkumlarni tashkil etuvchi o'quv predmetlarining talabalarni maktabda ekologik tarbiyani amalga oshirishga tayyorlashdagi imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Talabalarni maktabda ekologik tarbiya ishini amalga oshirishga tayyorlashning bizlar tomonimizdan qayd etilgan komponentlari ushu tizimning tashqi aloqalarini borligidan dalolat beradi. Biroq, yuqorida ko'rsatilganidek, tizim o'z funksiyasini to'liq bajarishi uchun uning ichki aloqalarini ham yoritish zarur.

Haqiqatdan ham V.G.Afanasev ta'kidlaganidek, tizimni atroflicha bilish uchun dastavval uning ichki tuzilishini o'rganish zarur, ya'ni tizimning qanday komponentlardan tashkil topganligini, uning tuzilish va funksiyalari qandayligini hamda qanday kuchlar, omillar ushu tizimning yaxlitligini, bir butunligini, mustaqilligini ta'minlashini aniqlash lozim bo'ldi.

Bulardan tashqari tizimli tahlil qilish usuli har qanday tizim uchun umumi bo'lган quyidagi obyektlarni - "Pedagogik tizimga kirish", "Pedagogik jarayon", "Pedagogik tizimdan chiqish", "Maqsad", "Teskari aloqa" va hakazolarni o'rganadi.

Talabalarni maktabda tabiatni muhofaza qilish ishiga tayyorlash tizimining tashkil etuvchi komponentlarining asosiy xususiyatlarini atroflicha o'rganishdan oldin ushu tizimning "Kirishi" va "Chiqishi" haqida to'xtalib o'tamiz.

Pedagogik tizimning "Kirishi" da ekologik tarbiyasi turlicha bo'lган abituriyentlar olinadi. Ammo, ularga o'quvchilarni ekologik tarbiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lган pedagogik faoliyatni olib borish uchun zarur bilim va ko'nikmalar yo'q. Pedagogik tizimning "chiqish"ida esa oliy mакtab bitiruvchilari maktabda o'quv-tarbiya ishini, shu jumladan, o'quvchilarni ekologik tarbiyalash ishini amalga oshirishga kasbiy (professional) tayyorlanganligi bilan harakterlanadi.

Talabalarni ekologik tayyorgarligi mazmuniga o'quvchilarni ekologik tarbiyalash nazariyasi va uslubiyati elementlari dahldor bo'lib, ular oliy mакtab o'quv – tarbiya jarayonining barcha bo'g'inlarida shakllanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni maktabda tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan unumli foydalanish ishiga tayyorlash tizimida uning quyidagi tizimlarini belgilab olish mumkin: ijtimoiy tayyorgarlik (ekologik tarbiyani ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy ahamiyati), psixologik-pedagogik tayyorgarlik (ekologik tarbiya ishining mohiyati, maqsadlari, vazifalari, mazmuni, shakl va vositalarini tushunish hamda ushu vazifalarni amalda hal qilish) va ilmiy-tehnikaviy tayyorgarlik (ekologik tarbiyani politexnik prinsip asosida amalga oshirish). Galdagi vazifa ushu tizimni oliy mакtab o'quv rejasiga imkoniyatlari bilan taqqoslashdan iboratdir.

Psixologik-pedagogik tayyorgarlikka o'qituvchining maktabda ekologik tarbiyani o'tkazish uslubiyati masalalarini ham qo'shish zarur. U holda ekologik tarbiyani amalga oshirish bilan bog'liq talabalarning psixologik-pedagogik tayyorgarligi psixologik-pedagogik va metodik predmetlar hamda barcha turdag'i pedagogik amaliyotlar orqali ta'milanadi.

Maktabda ekologik tarbiya ishiga talabalarning ilmiy-tehnikaviy tayyorgarligi oliy mакtabda ushu turkumga kiruvchi o'quv predmetlarini o'rganish bilan bog'langan. Oliy maktabni bitirib chiquvchilar -fizika, biologiya, matematika, mehnat ta'limi, pedagogika va boshlang'ich ta'lim uslubiyati o'qituvchilari va h.k. lar bir-birlaridan ushu tayyorgarlikni (oliy maktabda ta'limning barcha profil (mutaxassisliklari uchun yagona bo'lган psixologik-pedagogik va ijtimoiy tayyorgarliklaridan farqli o'laroq) qanday hajm va mazmunda egalaganliklari bilan farq qiladi.

Yuqorida bayon qilingan materiallardan ko'rindiki, agar predmet o'qituvchisi tabiatni muhofaza qilishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tasavvur qila olmasa, tabiat va uning resurslarini avaylab saqlash va undan tejab-tergab foydalanish vazifalarini (iqtisodiy, axloqiy va h.k.) o'ylab, mulohaza qila olmasa va ulardan o'z mashg'ulotlarida samarali foydalana olmasa, predmet bo'yicha darslar uchun politexnik mazmundagi didaktik materialarni tanlash va ulardan o'rinni foydalanish hamda ekologik mazmunga ega bo'lган darslar uslubiyatini ishlab chiqish malakasiga ega bo'lmasa, u holda uning ekologik tarbiyani tashkil etish bo'yicha faoliyatini ijobiy baholash juda qiyindir. Bunday sharoitda predmet o'qituvchisining ilmiy-tehnik taraqqiyotga mos ravishda o'quvchilarda politexnik va ekologik saviyalarni tinmay kengaytirish bo'yicha ish olib borishi zarurligi haqida gapirish o'rinsizdir. Demak, maktabda o'quv predmetlarini o'qitishda eng muhimi shundan iboratki, fan asoslarini, ularning qonunlarini va shu qonunlar asosida sodir bo'layotgan hodisa, jarayonlarni yoritish

orqali tabiatni muhofaza qilish, ekologik toza texnologik jarayonni, chiqindisiz ishlab chiqarishning ilmiy-tabiyy asoslarini o'quvchilarga chuqur singdirishga erishishdan iborat.

Muhokama qilayotgan ushbu muammo uchun tizimning "Chiqishi"da bo'lajak o'qituvchini maktabda tabiatni muhofaza qilishga tayyorlash mazmunining tarkibini, boshqacha qilib aytganda, oliy maktabni bitiruvchi qanday mazmundagi tayyorgarlik bilan maktabga kelishini ajratib qarash muhimdir.

Ushbu tayyorgarlikning mazmunini-strukturasi quyidagi komponentlar: bilim, malaka (faoliyat usuli), ishga ijodiy yondashish va shaxs sifatlari bilan harakterlanadi.

Ushbu nuqtayi nazardan talabalarni maktabda ekologik tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishga tayyorlash uchun bo'lajak o'qituvchilar oliy maktabda pedagogik ta'limning quyidagi mazmunini egallashlari zarur:

- Hozirgi zamon ishlab chiqarishi va mehnatni ilmiy-tabiyy, texnik- texnologik, iqtisodiy – tashkiliy asoslarini ifodalovchi ekologik toza sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, chiqindisiz texnologiya, tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va uni qayta tiklash hamda tabiatni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan korxona, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatini yaxshilash bo'yicha turli kasb vakillarining mehnat faoliyati haqidagi ilmiy, ilmiy-texnikaviy bilimlar;

- Ishlab chiqarish, mehnat faoliyati haqidagi ekologik xarakterdagi kasbiy bilimlar;

- Ekologik tarbiya bo'yicha psixologik – pedagogik va metodik bilimlar;

- Jamiyatning maktab oldiga qo'ygan buyurtmasi, aholi o'sish va ilmiy-texnik revolyusiyaning tabiatga ta'siri, ekologik falokatga yuz tutgan regionlarda demografik muammolar va hakozolar haqida sotsial ijtimoiy- iqtisodiy bilimlar.

Ushbu maqola yakunida talabalarni maktabda ekologik tarbiya ishiga rahbarlik qilishga tayyorlash tizimsining yana bir muhim xususiyatini-integrativ sifatga ega ekanligini alohida ta'kidlamoqchimiz. Bu yerda gap shundan iboratki, talabalarning maktabda ekologik tarbiyani amalga oshirishga tayyorgarligi yuqorida tahlil qilingan ijtimoiy, psixologik-pedagogik, ilmiy-texnikaviy va hakozo tayyorgarliklar bilan bir qatorda turmaydi. SHu boisdan ham dekanat, kafedra, professor-o'qituvchilar hamda talabalarni maktabda ekologik tarbiyani amalga oshirishga tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan oliy maktabning boshqa bo'g'inalari (rektorat, ilmiy kengash, ijtimoiy tashkilotlar va h.k.) ning galdeg'i vazifasi tahlil qilinayotgan tizim "chiqish"da talabalarning tayyorgarlik darajasi va xarakteriga mos ravishda o'quv rejasidagi turli predmetlar turkum (ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik, metodik, ilmiy – texnikaviy va h.k.)lari, ayrim temalar, predmetlar o'rtasida eng oqilona nisbat bo'lishini ta'minlash uchun maqsadga qaratilgan hamkorlik o'rnatishga erishishlari lozim.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.– Т. : O'zbekiston, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Т.: Sharq 1997.– 32– 61 b.
3. O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni.– Т.:
4. Афанасьев В.Г. Системность общества. М. : Полигиздат, 1980. – 368с.
5. Васильев Ю.К. Политехническая подготовка учителя средней школы. – М. : Педагогика, 1973. – 175с.
6. Кузмини Н.В. Методы системного исследования. Учеб пособие. – Л. : изд. ЛГУ, 1980.– 172с.
7. Muslimov N.A. Bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakillantirish. Monografiya. –Т., 1992.– 42 s.
8. Слестанин В.А. Формирование личности учителя советской школы в процессе профессиональной подготовки. – М. : Просвещение, 1976.– 159с.
9. Хаджабоев. А.Р. Научно– педагогические основы учебно– методического комплекса подготовки учителя труда. – Т. , 1992. – 42с.
10. Шодиев. Н. Теория и практика подготовки студентов к работе по профориентации школьников. – Самарканд, 1983. – 250с.

**Н.Шодиев, Ш.Ахмедова, М. Пўлатова
ПЕРСПЕКТИВНОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ
ВОСПИТАНИЕ БУДУЩИХ
ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ С ПОМОШЬЮ
СИСТЕМАТИЧЕСКОГО ПОДХОДА**

В работе рассматриваются вопросы, связанные с изучением многогранного и сложного учебного процесса по подготовке студентов к экологическому воспитанию школьников с помощью системного подхода. При этом выявлены такие структурные компоненты педагогической системы, как общественно – экономический, психолого-педагогический и методический, научно – технический, а также содержание экологической подготовки будущего учителя, с которым он приходит в школу.

Ключевые слова: педагогическая система, вход, выход, целостность, экологическое воспитание, экономическая подготовленность.

**N.Shodiev, Sh.Axmedova, M. Po'latova
PROMISING ENVIRONMENTAL
EDUCATION OF FUTURE TEACHERS
BY MEANS OF A SYSTEMATIC
APPROACH**

The paper discusses issues related to the study of multi-faceted and complex learning process for the preparation of students for the environmental education of students using a systematic approach. At the same time identified such structural components of the educational system, as a socio - economic, psycho-pedagogical and methodological, scientific - technical and content of the environmental training of the future teacher with which he comes to school.

Keywords: pedagogical system, entrance, exit, integrity, ecological education, economic readiness.

UDK: 37:75.056

**ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МИНИАТЮРЫ БЕХЗАДА НА
ВНЕАУДИТОРНЫХ ЗАНЯТИЯХ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ
ЗАВЕДЕНИЯХ**

Н.М.Ахмедова

Навоинский государственный педагогический институт, соискатель

Аннотация. В статье раскрывается творчество Бехзада, его гениальный талант миниатюриста, масштаб и особенности его живописной миниатюры. Студенты получают представление о роли великого художника XV века в художественной культуре средневековья, в том числе, в современном мире.

Ключевые слова: художественная культура, духовность, художественные ценности, интерес, декоративно-прикладное искусство, древне-зодческое искусство, живописная миниатюра, изобразительное искусство, художественная керамика, художественное наследие.

История воспитывает личность. Желание знать свое прошлое, свои корни присуще каждому человеку. Историческая память необходима для возрождения духовности. Человек, знающий историю своей страны, своего народа – человек, который может мыслить самостоятельно, его трудно сбить с истинного пути, навязать чуждую ему волю. Богатое культурное наследие – один из источников идеологии национальной независимости. Очень важно знать, как шел процесс развития культуры, какие факторы способствовали этому. Как подчеркивал глава нашего государства, достижение благородных целей, стоящих перед народом Узбекистана, будущее страны, ее процветание и благодеяние, то, какое место она займет в мировом сообществе в XXI веке, – все это зависит, прежде всего, от нового поколения, от того, какими вырастут наши дети. Эти мудрые слова ярко отражают суть реализуемой в Узбекистане в годы независимости государственной политики, главным приоритетом которой стала забота о воспитании гармонично развитого молодого поколения – физически здорового и духовно зрелого, интеллектуально богатого, обладающего не только разносторонними знаниями, но и умеющего самостоятельно мыслить, смело смотреть в будущее. В работах и выступлениях И.А.Каримова значительное место отводится студенческой молодежи – будущим специалистам нового поколения, их высокой профессиональной подготовке, воспитанию духовности, формированию, развитию и совершенствованию культуры, гармоничному

развитию, формированию совершенной личности, что Президент рассматривает как «стимул прогресса», «важный фактор прогресса», «основу прогресса Узбекистана», наконец, - «будущее нашей страны»- И.А.Каримов [1].

Обращение к историко-культурному наследию, изучение величайших памятников, представляющих не только национальную, но и мировую ценность, знание выдающихся творцов бессмертных художественных ценностей, ставших национальным и общечеловеческим достоянием, необходимо студентам высших учебных заведений, поскольку эти требования входят в критерии общей и художественной культуры современной молодежи.

На внеаудиторных занятиях – «Художественные ценности Узбекистана», в педагогическом вузе ключевыми темами выделены следующие: «древневосточная миниатюра», «Среднеазиатская живописная миниатюра эпохи средневековья», «Камалиддин Бехзада – наш гениальный предок - выдающийся художник Востока, непревзойденный гений миниатюрной живописи XV века».

Творчество легендарного гения миниатюрной живописи Среднего Востока Бехзада изучается уже с конца XVII века и, по-видимому, еще долго будет притягивать внимание исследователей магией своей светлой гармоничной ауры, чарующей красотой воплощенного в нем многообразного мира природы, глубиной погружения в земную и духовную жизнь человека-труженика и творца [2,3]. В наше время творчество Бехзада требует адекватного истолкования и объяснения, внимательного проникновения в его суть. Анализ известного сюжета облегчает понимание его внутреннего смысла в связи с мировоззрением и культурой эпохи, определение мотивов выбранных художественных средств и пр.

Бехзада – портретист в миниатюрной живописи [4,5]. Иллюстрации Бехзада к поэме Низами «Искандер-наме» демонстрируются на занятиях. Восприятие – рассмотрение... Анализ миниатюры «Искандар, навещающий отшельника в горах», предварительно акцентируется – «Что важно воспринимать, видеть и понимать в миниатюрах Бехзада. В первую очередь – это: тема, сюжет, его компоненты; эмоциональный, подтекст; чистота мысли; внешняя красота; информационно-познавательная нагрузка; композиционная конструктивность по классической схеме: крупнофигурная или мелкофигурная; герои – первого, второго и других планов (как изображены – одежда, головной убор, обувь и другие атрибуты, внимание мельчайшим деталям фигур, образов; изображаемые объекты, их детали, смысл; колорит – колористический эффект; цветовая гамма, ее особенности; цвет, его характеристика; символы, метафоры; природа, ее красота (небо, окружающая среда); мировая гармония, взаимосвязь всего сущего между собой – внешнего – зримого и скрытого философского содержания; внутренний мир миниатюры; собственно-творческий подход к раскрытию темы, проблемы, ее неповторимое решение; авторская индивидуально-творческая манера; авторско-творческое начало; этикетность; эстетика; потребность в глубинном истолковании и раскрытии авторско-творческой тайны миниатюры.

Затем проводится художественно-эстетический анализ миниатюры Бехзада – «Искандар, навещающий отшельника в горах».

Содержание анализа миниатюры:

Миниатюра – всемирная художественная ценность. Хранится в Лондоне, в Британском музее.

Миниатюра-иллюстрация к поэме Низами «Искандар-наме», в основе содержания которой следующий сюжет: беседа идеального правителя Искандара, совестливого, справедливого носителя власти, способного дать людям счастье, стране процветание, с благочестивым аскетом – мудрым, уделившимся от земных дел в поисках совершенствования тела и духа, в целях мистического общения с Богом.

Итак, сюжет: прославленный мудростью и справедливостью правления Искандар, наводит порядок в стране, разоренной неумелым правлением прежнего царя. Но Дербенджский горный замок захватывают разбойники, грабящие караваны и окрестные селения и тем самым нарушающие мирную жизнь в государстве. Стотысячная армия Искандара 40 дней штурмует крепость, но не может взять ее. Искандар идет в горы к отшельнику и просит его о помощи. Молитва аскета производит нужное действие – и Искандар уничтожает разбойников.

Тема миниатюры («Искандар, навещающий отшельника в горах») – Искандар навещает отшельника – именно в горах: Почему Искандар навещает отшельника? Почему в горах? Ответы на эти вопросы в идеально-смысловом содержании изображенной картины, которое раскрывается по мере предельно внимательного и скрупулезного изучения – осмысления – художественно-эстетического анализа миниатюры. Итак, что изображено? Что сразу бросается в глаза? (вверху, в центре, внизу картины).

В глаза бросается скалистый холм с редкой растительностью и темный зев пещеры, у входа в которую сидит отшельник, а перед ним – Искандар – правитель своей страны.

Вверху – узкая полоска ночного ярко звездного неба с опрокинутым месяцем и скромной пейзажный фон: горный замок, очень красивый, богато архитектурно декорированный, захваченный разбойниками (их шесть, они вооружены, озабочены и встревожены).

В центре: горный, скалистый пейзаж – камни, валуны, со скучной растительностью, в основном одноцветный, трудно преодолимый. Словом, скромной горный пейзаж.

Внизу (справа): собеседники - Искандар и отшельник.

Еще правее: бурлящий горный ручей у могучего корня большого платанового дерева.

Внизу – в центре: небольшая группа слуг, стражи Искандара (кто с конем, кто с мулом) – охраняют беседующих.

Как изображены собеседники?

Правитель: молодой, зрелый и статный, крупный мужчина, с мужественным и волевым, но печальным лицом; скромно одетый в зеленоватый халат, с белой чалмой на голове.

Положение правителя: сидит удобно – на коленях, поза почтительна и исполнена достоинства; стройная осанка молодого человека; права рука как бы утверждает, подтверждает, вместе с тем сомневается и просит; ее жест уважительно преданный, выдает рассеянное и отчаянное состояние Искандара.

Отшельник: сидит у входа в просторную пещеру; исхудалый, тщедушный, полураздетый (обнаженный по пояс), седовласый, со слегка склоненной, как бы в печали, непокрытой головой; благородного вида старец, с длинной седой бородой; спокойно вразумляет нервничающего правителя.

Собеседники: сопровождая свою речь внушительными движениями руки, ведут учтивую, неторопливую и обстоятельную беседу, сопровождаемую сдержанными жестами рук.

На каком фоне, в каком окружении происходит беседа?

В глаза бросается могучий горный фон, неприступные камни...

Камни: одухотворены, напоминают своими очертаниями каких-то зверей и фантастических животных, образуют некую мистическую ауру. Крупные камни в скальном грунте имеют причудливо текучие одухотворенные формы. Их преодолел Искандар по пути к мудрому отшельнику. Это – средства мощного и многогранного развития темы.

Другие средства: вертикаль картины, ее развернутость. Так, например, в сцене занятого разбойниками замка; во впечатляющем зрелице картины прекрасного горного замка, вознесенного под самое звездное небо, с опрокинутым месяцем; замка с его величественными фортификационными сооружениями крепостного характера; впечатляют шесть вооруженных луками мужчин в разных частях замкового строения, которые, видимо, его осматривают, обсуждая вопросы самообороны.

Впечатляет массив обширной горной страны, разделенной на группы скалистых цепей, выделяющихся своей разнонаправленностью и переливами по-осеннему неярких красок. Впечатляет массив, пересекающий миниатюру по диагонали. Особенно впечатляет массив обширного горного пространства, пересекающего миниатюру группами скал, неяркие осенние краски: увеличение масштабного охвата картины, иллюзорная глубина и объемность пространства.

Итак, в миниатюре три зоны: с замком вверху, горной местностью в средней зоне, обителюю отшельника–богомольца в нижней зоне.

Как изображены эти зоны?

В верхней зоне: захват разбойниками замка на фоне мрачного темного ночного неба с возмущенным перевернутым месяцем.

В центральной зоне – горная страна, масштабно увеличенная.

В нижней зоне – Искандар, его слуги, свита и охрана – и отшельник. Здесь выделяется слуга с ярким факелом и вооруженные воины.

Почему зона разбойников в верхней части миниатюры, а зона святого отшельника-аскета и государя, озабоченного мыслями о благе государства и народа – внизу?

Сцены вверху – силы зла, насилия. Именно так заострены и придают миниатюре драматизм – это полюс зла нависает над головой Искандара, попирает добро и справедливость – и ему готовится сопротивление. На пути к мудрецу Искандар мужественно преодолел цепи горных круч.

Сцены внизу – символы решения проблемы зла на уровне добра и справедливости.

В миниатюре много овалов. Что это значит?

В нижней части картины, светло и спокойной заметно динамическое движение по кругу – овалу всех линий вокруг собравшихся людей и отшельника. При внимательном рассмотрении – все округляющееся: круглящиеся линии контуров скал, складок гор, поворота ствола платана, овальная площадка перед пещерой – все это формирует в этой части миниатюры некое главное внутреннее движение, которое, нарастая, вливается в пояс горной страны, в том числе, и вершиной, платана, обращенной к замку, как бы плотно и надежно окружая его.

Круглящаяся динамика линий, особенно в нижней зоне, напоминает о движении всего в природе, о «колесе мельницы жизни» (в средневековье именно так понимали схему движения всего сущего на земле).

В картине намек: на поворот событий «от ночи» тьмы – к свету, от зла к торжеству добра. Овалы, крепкий ствол платана с обширной кроной, обращенной к замку, с разлапистыми пламенеющими листьями; животворный источник, светло-приятное освещение нижней зоны факелом, освещивающим разговор собеседников – все эти символы изобразительного контекста, обещающие благополучный исход ситуации, действенную помощь отшельнику.

В миниатюре присутствуют даже четыре основных, по исламскому учению, элемента вселенской материи – земля, воздух, вода и огонь – этой вечно законоприродной гармонии, нарушение которой является преступлением.

В миниатюре два контрастных начала: плохое – разбойники и святое, благородное – отшельник и Искандар.

Миниатюра Бехзада – результат его вдохновенного гениального таланта и высокого воображения, глубокого проникновения вслед за Низами, в глубокие культурные слои того времени, знания художественных ценностей той эпохи. В миниатюре просматривается драматическое начало – именно методом противопоставления элементов сюжета, увязкой событий локального значения с кардинальными проблемами века. И это на почти космическом фоне обширного пространства.

Изображаемый момент показан вдохновенно, глубоко осмысленно, во всех его проявлениях. Надо только глубоко проникнуть во внутренний смысл сюжета, «в каждую деталь миниатюры», в изображенный мир, который показан чарующе совершенным, царственно изящным, с гармонией целого и детального. Надо внимательно присмотреться к героям (все они деятельны, в движении – со смыслом). И тогда тайны миниатюры будут щедро раскрыты.

Студентам интересно знать о влиянии миниатюрного наследия Бехзада на художественную культуру того времени и художественную культуру современную, поэтому проводятся беседы: «Последователи Бехзада в миниатюрной живописи» (Махмуд Музаххаб «Давлат Мухаммади». И др.), «Миниатюры Бехзада – источник новых эстетических и пластических исканий современных художников». По следующему плану: Влияние Бехзада на творчество европейских художников (А.Матисс – «Семья художника»).

Вклад Бехзада в культуру Востока уникален. К нему интерес все возрастает – художников, историков и ученых. Миниатюрная живопись Бехзада была, есть и будет объектом глубокого изучения во всем мире. Творчество Камалиддина Бехзада – не только национальное достояние и гордость, но и общечеловеческая ценность на все века [6].

На такой содержательной, логико-последовательной основе студентам – будущим преподавателям (учителям) гуманитарного профиля раскрывается творчество Бехзада, его гениальный талант миниатюриста, масштаб и особенности его живописной миниатюры. Студенты будут иметь представление о роли великого художника XV века в художественной

культуре средневековья, в том числе, во всем мире – и современном, студенты знать произведения современных художников Узбекистана, в которых очевидно влияние эстетических, пластических и других аспектов миниатюрных шедевров Бехзада. Студенты осведомлены о месте, роли и значении Бехзада не только в современной художественной культуре Узбекистана, но и за рубежом. Осознано творчество великого соотечественника – как национально-культурное достояние, как мировое художественное наследие.

Литература

- Каримов И.А. Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана. – Т.: Шарқ, 1997.– 63 с.
- Ахмедова Н. Духовное пространство Бехзада в искусстве XX века // San”at, 2000. № 2. – С. 34-37.
- Захидов П. Несравненный в живописи (Бехзад) San”at, 2000. № 2. – С. 16-23.
- Исмаилова Э. Бехзада // San”at, 2000. № 2. – С. 5-9.
- Пугаченкова Г. Бехзад – портретист и портрет в миниатюрной живописи Среднего Востока // San”at, 2000. № 2. – С. 10-15.
- Хакимов А. Бехзад – западно-восточный контекст. // San”at, 2000. № 4. – С. 22-24.

N.M.Axmedova

OLIY PEDAGOGIK TA’LIM MUASSASALARIDAGI AUDITORIYADAN TASHQI MASHG’ULOTLARDA BEXZOD MINATURALARINING BADIY- ESTETIK TAHLILI

Maqolada Behzod ijodi uning buyuk iste’dodi, xususan, rassomchilikka oid miniatura bo‘yicha ijodi keng ko‘lamda yoritilgan. Talabalar XV asrning buyuk rassomi, rassom ijodining o‘rta asr hamda hozirgi davr madaniyatida tutgan o‘rni haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar.

Kalit so‘zlar: badiiy madaniyat, badiiy qadriyatlar, qiziqish, amaliy-dekarativ san’at, qadimiy-me’morlik san’ati, rassomlik miniaturalari, tasviriy san’at, kulolchilik san’at, meros san’ati

N.M.Ahmedova

ARTISTICALLY-AESTHETIC ANALYSIS OF MINIATURE OF BEKHZAD ON EXTRACURRICULAR EMPLOYMENTS IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL ESTABLISHMENTS

The article reveals the creative Behzad, his brilliant talent miniature, scale, and especially its miniature paintings. Students gain an understanding of the role of the great artist of the XV century in the artistic culture of the middle Ages, including, in the modern world.

Keywords: artistic culture, mental, artistic value, interest, decorative-applied arts, ancient-architecture art, picturesque miniature, graphic arts, artistic ceramics, artistic heritage.

UDK: 74:37

TASVIRIY SAN’AT VA CHIZMACHILIK FANI VOSITASIDA O’QUVCHILARDA DIZAYNGA OID BILIMLARNI SHAKLLANTRISH

S.Saydaliyev¹, B.Haqberdiyev²

¹Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, ¹o‘qituvchi, ²magistrant

Annotasiya. Maqolada tasviriy san’at va chizmachilik fani vositasida o’quvchilarda dizaynga oid bilimlarni shakllantrish jarayonini uzviyligini va uzlusizligini ta’minlashga oid metodik materiallar berilgan bo‘lib, tasviriy san’at va chizmachilik darslarida ulardan foydalanishga oid metodik tavsiyalaranin grafik misollar orqali bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, chizmachilik, dizayn, shakl, konstruksiya, yorug‘-soya, tatbiq etish, uzlusizlik, samaradorlik, grafik savodxonlik.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda jamiyat hayotining texnologik, axborot va kommunikativ o‘zgarishlarining jadallahib borishida ta’lim mazmunini modernizasiyalash zarurati kelib chiqadi. Yoshlarning intellektual va emotsional rivojlanishi, uning qadriyatlarga yo‘nalishini shakllantirish, ijtimoiy, axloqiy va estetik ideallari, ijodiy faoliyat va kasbni tanlab olishlari tajribasiga bog‘liq.

Dunyo ta’lim maydonida ta’lim shakllariga xos bo‘lgan tadqiqotlarni faollashtirish bolaning ijodiy potensialini ochib berishga yo‘naltirilgan. Buning uchun ko‘pincha o‘quv jarayoniga o‘zida

material va ma'naviy madaniyatni mujassamlashirgan fanlar qo'shiladi. Shaxsning atrof muhitga bo'lgan munosabatlarda mujassamlashgan jamiyat faoliyati va ongingin turli shakllari kabi izlanishlarning yechimi dizaynerlik faoliyati bo'lishi mumkin. Dizaynda estetiklikning obyektiv haqiqatga nisbatan bo'lgan munosabatlari aniqlanadi.

Ma'lumki, dizaynning nazariy asosi – texnik estetika. Ushbu tushunchada ham aqliy ham hissiylik asos topgan. Bu esa o'z navbatida bolaning bilish faoliyatining asosi bo'lib keladi. Shu bilan birgalikda dizaynda ijodiy izlanishning – funksiyadan shaklga va shakldan funksiyaga bo'lgan ikki yo'nalishi bir-biriga musassamlashgan. Dizayn faoliyatining metodi – badiiy tuzulishdir va u fan muhitini umumiyl tuzish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib keladi, uning yuqori estetik bahosi va ratsionalligi undan foydalanishni qulaylashirishni o'ziga maqsad qilib qo'yadi. Dizayn faoliyatining metodi bo'lib badiiy tuzulish (yoki tuzish) xizmat qiladi va u predmetlarni tuzishning umumiyl jarayonida tarkibiy qism sifatida ishtirok etadi, uning estetik va ratsional qard-qimmati bo'lsa, insonda hayotga bo'lgan faol ijodiy munosabatlaini shakllantirishda undan foydalanishning qulay bo'lishini o'ziga maqsad etib qo'yadi.

Dizaynerlik faoliyatida o'quvchilar tahlil, axborotni qaytadan o'rganish orqali o'z ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. U yoki u holatlarda muammoli xolatga duch kelishsa, o'quvchilar bu holatdan aqliy izlanishlar orqali chiqishni o'laydi va bu o'z navbatida tafakkurning harakatchanligi va qayishqoqligini shakllantiradi.

«Dizayn» kursining integrativligi. Dizaynerlik faoliyatining frontalligi va differensiyasi ta'lim jarayonida bilimning to'liq ko'rinishini hosil qiladi, o'rtal maktablarda o'quv jarayonining ruhiy mohiyatini kuchaytiradi, ijodiy potensialni faollashtiradi, ta'lim motivasiyasini o'zgartiradi, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini mukammallashtirishga chaqiradi, o'quvchilarning ijodiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Yuqorida aytib o'tilganlar shaxsning individual sifatlari va aqliy potensialini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Hozirgi paytda dizayn fanini maktabda o'rganish yangilik hisoblanadi va unga o'quv jarayonida asosiy e'tibor qaratiladi. Badiiy tuzulishning kerakli asosi bo'lib chizmachilik xizmat qiladi. Vatanimiz va chet olimlarining ilmiy tadqiqotlarida hamda maxsus va pedagogik adapbyotlarda aytishicha dizaynerlik faoliyati imkoniyatlari maktab ta'limida kam foydalaniladi. Qator subyektv va obyektiv sabablarga ko'ra yo dizaynning alohida yo'nalishlari (masalan, tasviriy san'at va cizmachilik darslarida grafik dizayn elementlari) yoki kam muddatli o'quv kurslari dizaynning asoslari bilan tanishtiradi, lekin badiiy tuzulishning barcha imkoniyatlarini o'zida mujassam etmaydi.

Vatanimiz va chet el olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, dizaynning amaliy uslublarini qo'llaganda o'quvchilarning ijodiy ko'nikmalari 75 va undan ortiq foizni ko'rsatdi. Shuni aytib o'tish joizki, dizaynni o'rganishning asosiy tizimi mayjud emas. Bundan tashqari, hamma maktablarda ham tasviriy san'at va chizmachilik darslari o'tilmaydi. Ushbu qatorga badiiy-estetik bilimlarni chuqur o'rganuvchi maxsus maktablarni ham kengizish mumkin. Hozirgi kungacha dizaynerlik faoliyatining ta'lim jarayonidagi mazmun masalalari, metodikasi va chegaralari aniqlanmagan. Yu.F.Katxanovaning boshlang'ich sinflar uchun o'quv qo'llanmasidan tashqari umuman o'quv qo'llanmalari, darsliklar (professional dizaynerlikka qaratilgan maxsus kitoblardan tashqari), dizaynning yo'nalishlari emas, balki dizayn kursini o'zida mujassam etgan o'quv dasturlari yo'q. Shu bilan birgalikda xorijdagi mamlakatlari maktabida o'tkazilgan tajribalar tahliliga ko'ra, turli yoshdagil o'quvchilar badiiy-estetik faoliyatda yuqori natijalarga erishishmoqda. Mana shu sabali, makatabda dizaynni o'rganilishiga qaratilgan tadqiqotlarimiz chegaralari kengayishini, nazariy va amaliy masalalarni tartibga solish haqida garpitsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Asosan, bu taqdiqot muammozi va badiiy-estetik yo'nashlari chuqurlashtirilgan maktablarda «dizayn» kursining qanday mazmunda bo'lishini, hamda tasviriy san'at va chizmachilik asosida ta'limni to'g'ri tanlashni aniqlab beradi.

Tasviriy san'at va chizmachilik asosidagi dizayn ta'limi samarador bo'ladi, chunki ushbu uslubiy tizim quyidagi ahamiyatga ega:

- o'quvchilar ijodiy faoliyatiga qaratilgan, bilim-ijodiy faoliyatga asoslangan intellektual va amaliy faoliyatni ta'lim jarayonida birlashtirish;
- -gumanizasiya metodologik prinsipiga asoslanitirish;
- o'quv materialini va vazifalar tizimini ketma-ketlikda, poydevor qurish prinsipi asosida mazmunni tuzish.

Avvallo dizaynga oid bilimlarni o'qitish jarayonida tasviriy san'at va chizmachilik dars mashg'ulotlarida fanlararo aloqalari orqali anqlab, o'quvchilarga didaktik materiallarini ishlab chiqishdan lozim. Bunda ikkala fanlarning dasturlarini o'quv rejasi, parametr va guruhlar asosida analiz qilish va ishlab chiqish hamda fanlarni (turli) o'qitishda aniq uzviylikni ta'minlash va har bir fanning dizayninga oid bilimlarni o'quvchilarning qay darajada egallagan o'rmini belgilash.

- ta'lif jarayonida fanlararo aloqalarni qo'llashda birlinchi guruh fanlari ikkinchi guruhga, ikkinchi guruh esa uchinchi guruhga ishlashi kerak.

- har bir fanning xususiy metodikasini pedagogika, psixologiya, ijtimoiy va didaktikasi bilan bog'lash.

- har bir fanning ish dasturini «Fanlararo aloqa» bo'limida rasmiylashtirish, har bir mavzuda darslik nomi, muallifning ismi-sharifi, axborot mazmuni darslikning qaysi betda ekanligi, aniq ko'rsatish;

Tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini integratsiyalashtirish.

a) har bir o'quvchining qiziqishi va o'qituvchini o'rganish hamda muxokama qilishning qisqa muddatli rejalashtirishini ishlab chiqish;

Tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini dizaynga oid bilimlarnirejalashtirishda hisobga olinadigan faktorlar.

1. Bolalarning dizaynga oid bilimlarnirovjanish darajasi – bolalarning yoshi, madaniy rivojlanish darajasi va guruh tarkibi;

2. Guruh tavsifi (sinf), guruhning qiziqishini hisobga olish;

3. Bolalarning yoshi va dizaynga qiziqishining;

4. Bolalarning individual maqsadlari rivojlanishini hisobga olish: o'qitishning maqsadi, o'qitish metodlarining pedagogik strategiyasi, qo'yilgan maqsadlariga erishishda. Strategiya negizida bolaning dizaynga qiziqishlari, uning kuchli tomonlari, bilim olish uslubi va shaxsiy sifatlari yotadi;

o'quvchilarning individual siljishini kuzatish va rasmiylashtirish;

o'quvchining hafta, oy, yil va h.k. davomida siljishi haqida papka; guruhdagi har bir o'quvchining oldiga qo'ygan maqsadi va unga erishish usuli ko'rsatilgan sinfdagi barcha o'quvchilar ro'yxati.

Tabiiy – ilmiy ma'lumotga integratsion yondashish:

– o'quvchilarning borliqni yaxlit holda qabul qilishining shakllanishini hamda dizaynga oid bilimlarni aniqlash;

– o'quvchilarning butun olamni yaxlitligini va o'zaro chambarchas bog'liqligini idrok etish orqaliy dizaynga oid bilimlarni shakllantirish;

– ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lish, zamonaviy bilimlarni egallah;

– ergashtiruvchi g'oyalarni ochish;

– birlik, tabiatning yaxlitligi va izchilligi;

– o'zaro manfaatdor g'oyalalar «tasviriy san'at va chizmachilik» tasviriy san'atda dizaynga oid bilimlarni chizmachilikdan dizaynga oid qoyidalardan foydalanishda ilmiy asoslanganlikning muhimligi.

Qo'yilgan topshiriqlar asosida, quyidagi referat mavzularini ishlab chiqish:

1. Bilim olish, o'qitish, tarbiyalash, shakllantirish integratsiyasi.

2. Ta'lif nazariyasi va qonuniyatlar, umumilmiy tushunchalarning asoslari.

3. Uslub va priyomlar jarayonining integratsiyasi va bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

4. Vaqti qisqartirilgan o'qitish bilimlarining hajmini kengaytirish maqsadidagi bilim, ko'nikma va malakalar integratsiyasi.

Tasviriy san'at va chizmachilik ta'limi tarixi va nazariyasi, ta'lim amaliyotining tahlilidan ayonki, ta'limning bu sohasida ko'rgazmalilik, fanlararo aloqadorlik, uzviylik va uzlusizlik prinsiplari ustuvor tarzda qo'llaniladi. Chunki o'quvchilarda tasviriy san'at va chizmachilik fanlari orqali dizaynga oid bilimlarni shakllantirishda, demakki, badiiy ta'lif sifati va samaradorligini oshirishda bu prinsiplar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, tasviriy san'at asarlarini yaratish qonuniyati ikki o'chovli tasvir sathida amalga oshiriladi. Biroq o'quvchilarda dizayn savodxonlikni shakllantirishda chizmachilik qonuniyatlaridan foydalanishga o'rgatish talab etiladi. Uzlusiz ta'limning barcha turlarida ta'lif sifati va

samaradorligini oshirishning muhim didaktik talablar va sharoitlar mavjud. Shunday shartlarga asoslangan talablar bilan ta'minlanadigan integratsion yondashuvlar ta'limning barcha sohalarda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Har qanday o'quv fanidan ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim pedagogik shartlari mavjud. Shunday shartlar sirasida, shubhasiz, ta'limning didaktik prinsiplari e'tirof etiladi. Ta'limiy jarayonning kontekstidan, muayyan bosqichdagi ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlardan, shuningdek, o'quv fanlarining xususiyatlari kelib chiqqan holda u yoki bu didaktik prinsiplar qo'llanadi.

Adabiyotlar.

1. Ratter M. Pomosh trudnem detyam. – M 1987.
2. Vinogradov V.M. Metodika fakultativnex zanyatiy po chercheniyu. M., «Prosveshenie», 1999.
3. Abdurasilov S., Nurtaev O'.va boshqalar. Tasviriy san'at. 5-sinf. T., «O'zbekiston», 2015.
4. Raxmonov I. Chimachilik. 8-sinf. T., «O'zbekiston», 2015.

S.Saydaliyev, B.Haqberdiyev

ФОРМИРОВАНИЕ У УЧАЩИХСЯ ЗНАНИЙ В ОБЛАСТИ ДИЗАЙНА ПОСРЕДСТВОМ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИССКУССТВА И РИСОВАНИЯ

В статье даны материалы для развития и формирования у учащихся знаний по дизайну и обеспечить неотъемлемость с предметами изобразительного искусства и черчения. В нём приведены конкретные графические примеры и методические указания для уроков по изобразительному искусству и черчению.

Ключевые слова: изобразительное искусство, черчения, пространство, форма, конструкция, светотень, внедрение, преемственность, эффективность, графическая грамотность.

S.Saydaliev, B.Khakberdiev

DEVELOPMENT OF STUDENTS' KNOWLEDGE IN THE FIELD DESIGN BY FINE ARTS AND DRAWING

Materials on development and formation in pupils knowledge of design and ensuring inherence with objects of the fine arts and drawing are given in article. It includes specific graphical examples and methodical instructions for lessons of the fine arts and drawing.

Keywords: graphic arts, drawing, prospect, space, the form, design, introduction, receivership, efficiency, graphic literacy.

UDK: 4; 4 O'z; 37

DAVLAT TILIDA OG'ZAKI VA YOZMA MULOQOTGA O'RGATISHDA TA'LIM JARAYONINI SHAXSGA YO'NALTIRISH MASALALARI

G.A.Asilova

*O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojaxona Qo'mitasi Oliy harbiy bojaxona instituti, dotsent
E-mail: gul_0407@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-talabalar orasidagi hamkorlikning jihatlari to'g'risida fikr yuritilgan. Rus guruhlarda o'zbek tilini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, davlat tili ta'limi, interfaol usullar.

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy hulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi" ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan [1; 19]. Shu bois zamonaviy pedagogik jarayon ta'limni o'quvchi-talabaning shaxsiga yo'naltirish tamoyili asosida tashkil qilishni taqozo etmoqda. Til ta'limida pedagogik va axborot texnologiyalari yosh avlod vakillarining egallayotgan bilimlari chuqur va mustahkam bo'lishiga qaratilib, ularni mustaqil izlanishga, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishga, lingvistik materiallarni qiyosiy tahlil qilish va ular asosida xulosa chiqarishga o'rgatadi. Bunda an'anaviy ta'limdagi kabi tayyor bilimlarni egallashga emas, balki shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim

olishi va tarbiyalanishiga shart-sharoit yaratilmoqda, buning natijasida o‘quvchi-talabalar ta’lim jarayonining eshituvchi passiv obyektidan faol subyektiga aylandilar.

Ma’lumki, uzoq muddat davomida o‘qituvchi ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida, o‘quvchi yoki talaba esa ana shu jarayonning passiv obyekti sifatida faoliyat yuritib keldi. Xususan, rus tilida ta’lim oluvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatishda ko‘p yillar davomida hukmronlik qilgan reproduktiv, ya’ni berilgan matnni qayta hikoya qilish, so‘zlab berish, tayyor suhabat matnnini rollarga bo‘linib o‘qish va so‘zlab berish usuli o‘quvchi-talabalarning olgan bilimlarini amalda mustaqil qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga, xususan, monologik nutqning shakllanishiga to‘sinqinlik qildi. Endilikda ta’lim metodlariga jiddiy e’tibor berish hozirgi kun talabiga aylandi: respublikamizda ta’lim sohasida amalga oshirilgan tub islohotlar nafaqat darsliklardagi mashq va topshiriqlarni tubdan o‘zgartirishni, balki o‘quvchi va talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yangi pedagogik texnologiyalarni darslarga tatbiq etish zaruriyatini ham keltirib chiqardi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘qituvchining e’tiborini ta’lim oluvchilarning shaxsiga qaratadi. U nafaqat o‘quvchi-talabaning aqliy, ruhiy, estetik, ijodiy jihatdan ma’naviyatli shaxs sifatida rivojlanishi, balki unda fuqarolik mas’uliyati shakllanishiga yordam beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning maqsadi shaxsning tanlash, o‘z hayoti va faoliyatiga baho bera olish, hayot mazmunini izlash, ijod qilish, mas’uliyatlilik kabi xususiyatlarini to‘laqonli rivojlantirish uchun sharoit yaratib berishdan iborat.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayoni ishtirokchilari oldiga bir qator shartlar qo‘yadi, masalan:

- tadqiqotchilik (izlanish) tafakkurini rivojlantiruvchi individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqish;
- guruhlar uchun suhabat va kasbiy-rolli o‘yinlar asosida mashg‘ulotlar tashkil qilish;
- o‘quv materialini talabalar tomonidan bajariladigan tadqiqot loyihalari metodini amalga oshirishga yo‘naltirish.

Ta’limni shaxsga yo‘naltirishda o‘qituvchi va talabalarning aniq maqsadga erishishlariga qaratilgan birlgiligidagi faoliyati muhim rol o‘ynaydi. Bu o‘quv materialini nazariy va amaliy jihatdan o‘zlashtirish yo‘llarini belgilab olishni taqozo etadi. O‘qitish metodlari o‘qituvchi va talaba faoliyatining qaysi yo‘nalishda borishi, shaxsga yo‘naltirish jarayonini qanday tashkil etish kerakligini belgilab beradi. Bugungi kun o‘qituvchisi har bir dars mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rar ekan, o‘z oldiga darsni qanday tashkil etish kerak, aynan shu mavzuni yoritishda qaysi didaktik materialdan qay tarzda foydalanish kerak, qaysi metodlardan foydalanish samara beradi, degan savollarni qo‘yadi. Bilamizki, mavzu bo‘yicha ko‘zda tutilgan ta’limiy-tarbiyaviy maqsadlarga erishishda o‘qituvchining o‘z mutaxassisligi doirasidagi chuqur bilimi, intellektual salohiyatining o‘zi etarli emas. Pedagog, shuningdek, o‘z tajribasi hamda o‘zgalar tajribasiga suyangan holda dars o‘tish metodlari ustida ham jiddiy bosh qotirishi kerak.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar dars jarayonida bir qancha turli metodlardan foydalanishni taqozo qilmoqdaki, ushbu metodlarning to‘g‘ri qo‘llanishi mashg‘ulotning ilmiy-nazariy samaradorligini oshiradi, o‘quvchi-talabalarni aqliy va ilmiy jihatdan faollashtiradi. Turli xil pedagogik vaziyatlarda o‘qituvchi va o‘quvchi-talabalarning faoliyati hamda fikrlarining o‘zgarib, almashinib turishi, albatta, dars metodlarini o‘zgartirishga ham sabab bo‘ladi. Bu pirovard natijada o‘qituvchini har bir darsni boshqalariga o‘xshamagan shaklda, o‘ziga xos tarzda tashkil etishga undaydi va o‘quvchi-talabalarda ushbu fanga qiziqish, yangiliklarni ilg‘ab olishga intilish hissini uyg‘otadi.

Ayniqsa oliy ta’lim bosqichida zamonaviy o‘qitish metodlari – intellektual metodlar, innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarning mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy fikr lash qobiliyatlarining rivojlanishiga, ularning yetuk mutaxassis bo‘lish uchun zarur kasbiy fazilatlarga ega bo‘lishlariga ko‘maklashadi.

Kadrlarni ushbu tamoyillarga amal qilgan holda tayyorlab borish ta’limning quyi bosqichlarini yuksak pedagogik mahoratga ega pedagoglar, o‘z sohasining bilimdon kadrlari bilan ta’minalashga yordam beradi va bu o‘z-o‘zidan ta’lim sifatining yaxshilanishiga, uning samarasini oshirishga olib keladi. Chunki umumta’lim maktabida fan asoslari o‘rganilsa, oliy ta’limda zamonaviy fanlar o‘rganiladi va ixtisoslik bo‘yicha ta’lim beriladi. Shuning uchun ham oliy ta’lim muassasasida qo‘llanadigan o‘qitish metodlari faqatgina bilimlarni yetkazish va anglash usullari emas, balki

fan taraqqiyoti jarayoniga tobora kirib borish, uning metodologik va g‘oyaviy asosini ochish usullari hamdir. Demak, ta’lim metodi – o‘qituvchi va talabalarning o‘quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyati usuli bo‘lsa, ta’lim metodikasi muayyan o‘quv predmetini o‘qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini tavsiflaydi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonining o‘zgaruvchan tizim ekanligini unutmagan holda, uni quyidagi ikki qismga bo‘lish mumkin:

- o‘qituvchi bilan talabalar hamkorligi;
- talabalarning o‘zaro bir-birlari bilan hamkorligi.

O‘qituvchi bilan talabalarning hamkorligi o‘qituvchining talabalarga ko‘rsatadigan yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib, ikki tomonning o‘zaro hamkorlik pozitsiyasiga aylanadi. Talabalarning o‘quv faniga qanchalik ixlos qo‘yishi o‘qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchi bilan talabalarning o‘quv faoliyatidagi muhitni to‘g‘ri uyushtirish talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g‘ayratlarini sarflashga undaydi. Ijodiy topshiriqlar hamkorlikda bajarilgandagina bilimlarni o‘zlashtirish samarali bo‘ladi. O‘qituvchining o‘rganilayotgan fan bo‘yicha qaysidir bir ma’lumotga aniqlik kiritish paytida talabalarga yordam so‘rayotganday murojaat qilishi hamkorlik faoliyatini yanada chuqurlashtiradi.

Respublikamizda uzlusiz ta’lim tizimining yaratilishi nafaqat ta’lim mazmunining yangilanishi, balki fanlar o‘quv dasturlari mazmunini uzviylashtirish va optimallashtirish, shu asosda darsliklar va uslubiy qo‘llanmalar yaratishni, ta’lim shakli, metod va vositalarini ham tubdan o‘zgartirish, o‘quvchi va talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan noan’anaviy dars usullarini keng tatbiq yetish zaruriyatini ham keltirib chiqardi. Xususan, keyingi yillarda ta’limda interfaol usullar yordamida o‘quvchi-talabalarning mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirish, ularning o‘qituvchi bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish orqali o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga jiddiy e’tibor qaratildi.

Interfaol usullar talabalarda mustaqil fikrlash, izlanuvchan, tashabbuskor bo‘lish ko‘nikma-malakalarini shakllantirish, ularning ichki iqtidorini yuzaga chiqarish, o‘z fikr-mulohazalarini tortinmay bayon eta olishlariga yordam beruvchi omillardan biridir. Interfaol so‘zi lotincha “*inter act*” birikmasidan (bunda *inter* – o‘zaro, birgalikda; *akt* – faoliyat ma’nolarini anglatadi) o‘zlashgan “interaktiv” atamasining kalkasi asosida yuzaga kelgan [2; 83]. “*Interfaollik* – bu kommunikativ maqsadga erishishga yo‘naltirilgan nutqiy faoliyat, ushbu faoliyat natijalarining nutqiy vositalar bilan birlashishi, muvofiqlashishi va bir-birini to‘ldirishidir” [3; 27]. Interfaol usullar qo‘llanilganda, talabalar o‘qituvchi boshchiligidagi kichik guruhlarga bo‘linib yoki juft holda ishslash orqali muayyan bilimlarni mustaqil o‘zlashtiradilar. Topshiriqlarning guruh a‘zolariga teng holda berilishi talabalarning boshqalardan orqada qolmaslikka, o‘z bilimi, iqtidorini namoyish qilishga intilishini kuchaytiradi, ularning tashabbuskorligini, jamoa bo‘lib ishslash, hamkorlik tuyg‘ularini orttiradi. Ko‘pchilik o‘qituvchilar interfaol metodlarni qiziqarli bo‘lgani uchun qo‘llaydilar, ularning shu jihatiga ko‘proq ahamiyat beradilar. Chindan ham interfaol usullar o‘quv mashg‘ulotlarining qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi, biroq ta’lim jarayoni uchun qiziqarlilikning o‘zi kifoya qilmaydi. Ayrim tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, “Qiziqarlilik – interaktiv metodlarning bitta belgisi, xolos. U asosiy belgi ham emas. Interfaol usullar ta’limning har qanday ilg‘or metodlari kabi kamroq vaqt, kuch va resurs sarflab, ko‘proq didaktik samaraga erishishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir” [4; 7].

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining turlari borasida G.Selevkoning tadqiqotlari diqqatga sazovor bo‘lib, olim tomonidan 100 ga yaqin mustaqil pedagogik texnologiyalar tasniflangan [5]. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar tadqiqi V.P.Bespalko [6], V.V.Klarin [7], V.M.Monaxov [8] va boshqalarning asarlarida aks ettirilgan. Xususan, “*ta’lim texnologiyasi*” (ingl. “an educational technology”) iborasi ta’lim jarayonini yuksak mahorat bilan san‘at darajasida tashkil etish to‘g‘risidagi ta’limot sifatida talqin etiladi. Aynan “texnologiya” termini va uning “o‘qitish texnologiyasi”, “ta’lim texnologiyasi”, “ta’limda texnologiya” kabi shakllariga pedagogik adabiyotlarda 300 dan ortiq ta’riflar berilgan. Masalan, quyidagi ta’rifda texnologiyaning mavjud sifatlari sanab o‘tilgan: “*Texnologiya* – san‘at, mahorat, ko‘nikma, metodlar yig‘indisi, muayyan holatni o‘zgartirishga xizmat qiluvchi jarayon; inson faoliyati va tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy tushuncha; texnik jihatdan ahamiyatlari sifat va qobiliyatning intellektual qayta ishlanishi; qandaydir jarayonni amalga oshirish metodlari haqidagi bilimlar yig‘indisi; amaliyotga joriy qilinishi talab etilayotgan ma’lum bir pedagogik tizim loyihasi. “*Pedagogik texnologiya*” tushunchasi esa ta’lim texnologiyasining joriy

etish taktikasini ifodalaydi va “o‘qituvchi – pedagogik jarayon – tahsil oluvchi” funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosiga quriladi” [9; 16]. YUNESKO tashkiloti tomonidan pedagogik texnologiya tushunchasiga 1986-yilda quyidagicha ta’rif berilgan: “*Pedagogik texnologiya – ta’lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda, butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo’llash va aniqlash tizimidir*” [10]. YUNESKO qoshida tashkil qilingan Ta’limni rivojlantirish masalalari bo‘yicha Xalqaro Komissiya zamонавиу texnologiyalarga ta’limni modernizatsiyalashda harakatlantiruvchi kuch deb baho berdi.

Fikrimizcha, turli ilmiy-metodik manbalarda pedagogik texnologiyalarga berilgan ko‘plab ta’riflardan quyidagi bugungi kunda amalda qo‘llanayotgan ta’lim texnologiyalarining mohiyatini nisbatan to‘liqroq ochib beradi: “*O‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit pedagogik jarayon bo‘lib, o‘quvchining ehtiyojidan va texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir... Pedagogik texnologiyaning asosiy belgilari: loyihalashtirish, amalga oshirish, kafolatli natija*” [11; 12]. Demak, mazkur texnologiyalarni talabalarni bo‘lajak kasbga yo‘naltirish jarayonida ularning qiziqishlari, ehtiyojidan kelib chiqib, qo‘llanadigan samarali usullar deyish mumkin.

Kasbga yo‘naltirish borasida rus guruqlarida o‘zbek tili ta’limining mazmuni va maqsadlari qanday metodlar asosida amalga oshirilayotgani muhim ahamiyatga ega. O‘zbek tilini o‘qitish metodlarini ularning qo‘llanishidagi mushtarak xususiyalar, o‘qitish maqsadi, idrok etish-bilish faoliyati xarakteriga ko‘ra an‘anaviy, retseptiv, reproduktiv, interfaol, ijodiy, qisman ijodiy (evristik), muammoli bayon qilish, loyihalashtirish, tadqiqiy kabi turlarga bo‘lish mumkin. Ta’lim jarayonining o‘qituvchi va talabalarning teng munosabatlaridan tashkil topgan ikki tomonlama xarakterga ega ekanligini nazarda tutib, uni boshqarishda o‘qituvchidan ta’limni to‘g‘ri tashkil etish, ta’lim maqsadlarining amalga oshirilishi va ta’lim natijalari uchun mas’uliyat talab qilinadi. Ammo bu, ta’lim o‘qituvchining to‘la hukmronligi ostida amalga oshiriladigan jarayon, deyishga asos bo‘la olmaydi. Ta’lim jarayoni talabalarning fan asoslarini o‘zlashtirishlariga oid mexanizmgina bo‘lib qolmasdan, balki shaxsning umumiyligi ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmaslik lozim. Hozirgi davr o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishini talab qilmoqda.

O‘zbek tili darslarida o‘quvchi-talabalarlarning mustaqil faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol usullardan foydalanish ularning pedagog bilan hamkorlikdagi faoliyat vositasida o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga asos bo‘ladi. Ayni vaqtida bir qator interfaol pedagogik usullarning har bir ta’lim bosqichida, ketma-ket har bir mavzuda qo‘llanayotganini kuzatish mumkin. Fikrimizcha, ta’lim samaradorligini oshirish uchun interfaol usullar o‘quvchi-talabalarning psixologik va fiziologik xususiyatlari, bilim darajasidan kelib chiqib qo‘llanishi hamda bosqichdan bosqichga murakkablashtirib borilishi kerak. Bunda o‘qituvchi tomonidan biror texnologiya ko‘r-ko‘rona emas, balki ta’lim metodlari va dars shakllarini fan va mavzuning o‘ziga xos jihatlari, pedagogik va psixologik shart-sharoit, o‘quvchi-talabalarning yoshi, hayotiy ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tanlab qo‘llanishi muhim. Jumladan, o‘zbek tilini o‘qitishda ta’limning ilk bosqichlarida ko‘proq narsa-buyumlarning o‘zini yoki tasvirini ko‘rsatish metodidan, o‘rtta va yuqori sinflarda turli jadvallar, chizmalardan, audio va video lavhalardan foydalanish maqsadga muvofiq. O‘rtta maxsus va oliy ta’limda slaydlar, kompyuter, Internetdan yanada kengroq foydalanish ijobiy natija beradi.

Ta’lim shakli, vositalari, metodlari sinfdan sinfga, bosqichdan bosqichga o‘tgan sari oddiydan murakkabga qarab o‘stirib borilgandaqina uning sifat samaradorligi ortib boradi. Fikrimizga rus guruqlarida davlat tili ta’limi metodikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar misol bo‘la oladi. Jumladan, tadqiqotchi S.Adilova tomonidan o‘zbek tili fanini o‘qitishda mashg‘ulotlarnikompyuter vositasida tashkil etishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan, bir qator mavzular bo‘yicha elektron ishlanmalar, elektron darslikka kiritilishi mumkin bo‘lgan ta’limiy dasturlar ssenariylari va loyihasi berilgan [12]. Shuningdek, N.Umarova tomonidan elektron ta’limiy ishlanmalar yordamida talabalarning o‘zbekcha yozma nutqini o‘stirish tamoyillari, mazmuni va usullari, ta’limda multimedia va slaydlar turkumi, Internetdan foydalanish masalalari tadqiq qilingan [13].

Afsuski, bu kabi elektron dasturlarni o‘zbek tilini o‘qitish uchun yaratish borasida hanuzgacha sustkashlikka yo‘l qo‘yilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 28-maydagi “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida ushbu tizimda o‘quv jarayoni tegishli darajada tashkil qilinmayotganligi, mashg‘ulotlar asosan an‘anaviy ta’lim uslublariga tayangan holda o‘tkazilayotganligi, zamonaviy ilg‘or pedagogik va yangi kompyuter, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, Internetning ta’lim jarayoniga sust joriy etilayotganligi ta’kidlab o‘tilgan [14]. Qarorda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish, ta’lim muassasalarini kasbiy tayyorgarlikka ega, zamonaviy fikrlovchi kadrlar bilan ta’minlashga, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng tatbiq etishga alohida e’tibor qaratish belgilab qo‘yilgan.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy axborot texnologiyalari ko‘magida tilni o‘rgatish jarayonining naqadar muhimligi, ushbu jarayonni individuallashtirish va real muloqotga yo‘naltirish imkoniyatlari yuqori ekanligini unutmaslik lozim. Kompyuterlarning hozirgi vaqtida ta’limning ajralmas qismiga aylanishi har bir ta’lim muassasasida Internet tarmog‘iga ulangan til o‘rgatuvchi kompyuter sinflarining jihozlanishini talab qilmoqda. Bu jarayonda kompyuter muloqot kompetensiyasining shakllanishini ta’minlash vazifasini bajaradi, ya’ni, birinchidan, ta’lim va nazoratni suhbat (ikki tomonlama muloqot) rejimida amalga oshiradi; ikkinchidan, grafika, multiplikatsiya va video yordamida real nutqiy vaziyatlarni modelllashtiradi va shu tariqa til muhiti bilan aloqa yaratishga ko‘maklashadi; uchinchidan, nutqiy vaziyatdan suhbat jarayonida rag‘bat, jarayon sifatida foydalanish imkonini beradi; to‘rtinchidan, kompyuter aloqa tarmoqlari orqali o‘rganilayotgan tilda muloqot yuritilishini ta’minlaydi. O‘quv materiali bilan mustaqil ishslashda kompyuterlarni qo‘llash vaqtini chegaralamaydi hamda subyektiv omillarni istisno qiladi. Nazoratning kompyuter vositalari esa mustaqil ishning samarasini oshirishga, natijalarni olishning tezligini, baholashning obyekтивligini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi / Oliy ta’lim me’yoriy hujjatlar to‘plami, 1-qism. – Toshkent: Sharq, 2001.
2. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий. – Москва: ЗАО “ИКАР”, 2009. – 448 с.
3. Til ta’limida audiovizual vositalar / O‘quv-metodik qo‘llanma / M.To‘xtamirzaev tahriri ostida. – Toshkent: Ziyo, 2002. – 86 b.
4. Rajabova I.R. Kasb-hunar kollejlarida adabiyot asarlari samaradorligini oshirishda interfaol usullardan foydalanish yo‘llari: Ped. fan. nom. ... dis. avtoreferati. – Toshkent, 2011. – 28 b.
5. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии/Учебное пособие. – Москва: Народное образование, 1998. – 256 с.
6. Бесспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Просвещение, 1989. – 231 с.
7. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе: анализ зарубежного опыта. – Москва: Педагогика, 1989. – 132 с.
8. Монахов В.М. Педагогическая технология обучения//Педагогический вестник. – Москва, 1996. – №7. – С.1-6.
9. Pedagogik texnologiya: Zamonaviy ilmiy-nazariy asosi. – Toshkent: Ishonch M.S., 2008. – 186 b.
10. Ta’lim texnologiyalari // Multimedia.uz /
11. Ishmuxamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2013. – 279 b.
12. Adilova S.A. O‘zbek tili mashg‘ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish (oliy ta’lim muassasalarini rusiyabzon guruhlarida): Ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 2004. – 152 b.
13. Umarova N.Z. Talabalarning o‘zbekcha yozma nutqini o‘stirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi (texnika oliy o‘quv yurtlarining rusiyabzon guruhlarida): Ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 2007. – 133 b.
14. Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida /

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1761-sun qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 22-sun.

Г.А.Асильова

**ВОПРОСЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
НАПРАВЛЕННОСТИ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В
ОБУЧЕНИИ УСТНОМУ И
ПИСЬМЕННОМУ ОБЩЕНИЮ НА
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЯЗЫКЕ**

В статье рассматриваются аспекты взаимодействия между преподавателем и обучающимися в процессе использования современных педагогических технологий. Проведен анализ особенностей личностно-ориентированного подхода к обучению узбекскому языку в русскоязычных группах.

Ключевые слова: процесс обучения, педагогические технологии, личностно-ориентированное обучение, обучение государственному языку, интерактивные методы.

G.A.Asilova

**THE ISSUES OF PROFESSIONAL
ORIENTATION OF EDUCATIONAL
PROCESS IN TEACHING ORAL AND
WRITTEN COMMUNICATION IN THE
NATIONAL LANGUAGE**

The article examines aspects of interaction between teacher and learners in the process of using modern pedagogical technologies. It was analyzed the peculiarities of application of personality-oriented approach in teaching the Uzbek language in Russian groups.

Keywords: process of learning, pedagogical technology, personality-oriented education, learning the state language, interactive methods.

UDK: 377.4

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY IJTIMOIYLASHTIRISHDA UMUMKASBIY VA
XUSUSIY-METODIK BILIMLAR INTEGRATSIIYASINING ROLI**

S.R.Zohidova

Samarqand davlat universiteti, katta ilmiy xodim-izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy ijtimoiylashtirishda umumkasbiy va xususiy-metodik bilimlar integratsiyasining roli, bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy ijtimoiylashuvi mazmunini integratsiyalashning darajalari, ularning pedagogik amaliyot jarayonida o'z tatbiqini topishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy ijtimoiylashtirish, umumkasbiy fanlar, xususiy-metodik bilimlar.

Jamiyatning barcha sohalarida olib borilayotgan tub islohotlar O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablari asosida shakllangan uzlusiz ta'lif tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yurituvchi ta'lif mussasalari rivojini ta'minlovchi yangi konsepsiyaning yaratilishi uchun zamin bo'ldi. Mazkur konsepsiya uzlusiz ta'lif tizimi hamda ta'lifini insonparvarlashtirish pedagogika fani va amaliyoti oldida turgan asosiyan vazifa ekanligini ko'rsatadi. Mazkur vazifaning dolzarbligini ta'kidlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagicha fikrni bayon etadi: «Xalqimizning boy intellektual merosi hamda umuminsoniy qadriyatlari asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalar darajasida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimining yaratilishi, O'zbekistonni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi»[1].

Zamonaviy pedagogika fanining asosiyan muammosi – mavjud ta'lif paradigmaining obyektiv asoslari va ularning rivojini ta'minlovchi qonuniyat mohiyatini ochib berishdan iboratdir. Mazkur o'rinda, insoniyatning yangi bilimlar hamda fikrlash mezonlariga tayanuvchi yangi paradigmani yaratish zaruriyati namoyon bo'lib, u mazmun, metod, tashkiliy mezonlari hamda kadrlar ta'minoti kabi jihatlarni keng ko'lama aks ettiruvchi ta'lif muammolarini alohida dolzarb masala sifatida oldindi o'ringa olib chiqishini ko'rsatadi.

Ta'lif paradigma (yunoncha *paradigma* – misol, namuna) mohiyatini yangilash zaruriyati qanday omillar bilan izohlanadi?

Insoniyat tarixinining mavjud bosqichi mohiyati ijtimoiy madaniyatning zamonaviy sivilizatsiya, taraqqiyot keltirib chiqargan muammolarini ta'sirida yana bir bor tarixiy sinovdan o'tayotganligi

tavsiflanadi. Ayni vaqtda, jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy jarayonni jadallashtiruvchi texnologik rivojlanishning hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini e'tiborga olib, uni texnogen sivilizatsiya deb atash mumkin. Bunday sivilizatsiyaning asosi muayyan qadriyatlar tizimiga quriladi.

Agar ma'lum jamiyat ijtimoiy-g'oyaviy hamda iqtisodiy inqirozdan chiqish yo'lini topmoqchi bo'lsa, u texnogen sivilizatsiyaning yangi shakldagi ko'rinishi emas, balki yangi rivojlanish bosqichining yakuni tarzida aks etishi lozim. Jamiyatning bunday rivoji ijtimoiy hayotning muhim omillarini hisobga oluvchi, shaxsga yo'naltirilgan insonparvarlikparadigmasing asosiy g'oyasi vazifasini o'taydi.

Bir qator olimlar (V.V.Krayevskiy, E.A.Kryukova, V.V.Serikov) tomonidan ta'limgarayoniga yangicha yondashuvni qaror toptirish yo'llari va ularning mohiyati borasidagi tadqiqotlar amalgalashirilgan. Ular o'z ishlarida kasbiy pedagogik ta'limgarayoniga asosiy vazifasi, o'qituvchining mavjud ilmiy bilimlar bilan qurollantirishdangina iborat emas, balki uning shaxs sifatida o'z mavqeysini belgilab olishi, o'zligini anglashi, ijtimoiy muhitga nisbatan munosabatini shakllantirishda yordam berishi lozim bo'lgan vosita sifatida qaraydilar. Ta'limgarayoniga bilim berishda o'z fikrini yoqlash, mavhumlik va avtoritar mavqeni egallashga urinish hissidan xalos bo'lishni ta'minlash lozim bo'ladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli pedagogik ta'limgarayoniga ijtimoiy paradigmasi mezonlari bilan o'zaro uyg'unlik kasb etadi, jumladan: «...ta'limgarayoniga hamda kasb egallash dasturlarini ongli ravishda tanlash va egallash imkonini beruvchi, zamonaviy o'zgarib boruvchan jamiyatga moslasha oluvchi, o'zining jamiyat, davlat va oila oldidagi burchini his qiluvchi har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish»[2].

Ilmiy dalillarning nazariy tahlili, ularni umumlashtirish va tizimlashtirish, shuningdek, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy pedagogik tayyorgarligini ta'minlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi mezon, yo'nalish va psixologik-pedagogik sharoitlarni aniqlash imkonini beradi. Bular quyidagilardan iboratdir:

- bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy ijtimoiylashtirishga qo'yilayotgan talablarning kasb-hunar ta'limgarayoniga hamda jamiyat ehtiyojlari bilan o'zaro muvofiqligi;
- bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy ijtimoiylashtirishning ta'limgarayoniga hamda ijtimoiy-madaniy muhitga bog'liqligi;
- bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy ijtimoiylashtirishning yuqori darajadagi refleksiv boshqaruvalardan iborat.

Bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligining yuqori darajada bo'lishiga erishish quyidagi holatlар mavjudligini taqozo etadi:

- o'qituvchining kasbiy va shaxsiy shakllanish darajasi bu yo'lda tashkil etilgan jarayonning umumiyligi mohiyatini yorituvchi pedagogik tizim samaradorligiga chambarchas bog'liq;
- o'qituvchining kasbiy jihatdan shakllantirishni ta'minlovchi jarayonlarining tashkiliy boshqaruvi maqsadga muvofiq tarzda takomillashib boradi;
- refleksiv boshqaruvi o'qituvchini kasbiy jihatdan shakllantirishdan ko'zlangan maqsadning natijalanishini kafolatlaydi. Refleksiv boshqaruvi aniq maqsadda tashkil etilayotgan jarayon xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olish, shuningdek, har bir ta'sirni uning mazmunida namoyon bo'luvchi qonuniyatlar bilan muvofiqlashtirishni talab etadi.

Ta'limgarayoniga amalga oshirish jarayonida bo'lajak o'qituvchining pedagogik hamda xususiy-metodik bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoida. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy ijtimoiylashuviga o'ziga xos o'rinni tutuvchi pedagogik shart-sharoitlar va vositalar tizimini aniqlab olish, ta'limgarayonini samarali va to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. Pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonining sifatini oshirishda fanlararo aloqadorlikka erishishning yangi shakllarini topish maqsadga muvofiqdir. Ushbu o'rinda fundamental, xususan, pedagogik va xususiy-metodik bilimlarni o'zlashtirishda fanlararo uyg'unlikni ta'minlash masalasini tahlil etish uchun ularning metodologik asoslari borasida yetarli ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Pedagogik fanlarning gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, matematika va tabiiy fanlar hamda xususiy-metodik fanlar bilan o'zaro aloqasi ko'p qirrali muammodir. Shu bois mazkur muammoga nazariy, metodologik va amaliy jihatdan yondashish taqozo etiladi.

Pedagogik bilim – subyekt tomonidan amalga oshiriluvchi barcha turdag'i faoliyatni yo'liga qo'yish imkonini beruvchi tizim hisoblanadi. U tashkiliy, xo'jalik, ijtimoiy va iqtisodiy mazmunga ega

faoliyatning tarkibiy qismi bo'lib, jamiyat moddiy va ma'naviy hayotining barcha sohalarida pedagogik xususiyatlarning namoyon bo'lishini asoslaydi.

O'z navbatida xususiy-metodik bilimlar bo'lajak mutaxassisda qat'iyatlilik, puxta rejalshtirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni baholay olish, vaziyatga oqilona yondashish kabi sifatlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega. Bu ko'p jihatdan subyektning ijtimoiy va ijtimoiy-pedagogik yo'nalanligi, shuningdek, jamiyat hayotiga tobora chuqur singib borayotgan texnika taraqqiyoti bilan bog'liq.

Matematika va tabiiy hamda gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan bir qatorda xususiy-metodik bilimlar negizida ham pedagogik bilimlar ko'zga tashlanadi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan fikrlar asosida pedagogik va xususiy-metodik bilimlarni integratsiyalash asoslari xususida so'z yuritamiz. Bilimlarni integratsiyalashning muhim asosi sifatida dunyoning moddiy yaxlitligi, materiya va uning rivojlanish qonunlari, xususiyatlari tan olingan umumiy omil bo'lib qoldi.

Bilimlardan foydalanish va sintez qilish asoslari fanlarning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi metodologik, gnoseologik, ontologik va ijtimoiy asoslaridan iborat.

Gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va matematik-texnik fanlar o'zaro bog'liqligining asosi, inson ongida texnikaviy taraqqiyot hamda jamiyat o'rtaisdagi obyektiv bog'liqliklarning aks etish jarayoni hisoblanadi.

Shu bilan birga bilimlarni integratsiyalashda genetik asoslari ham namoyon bo'ladi. Ushbu holat idrok etish tizimlarining o'zaro bog'liqligi, munosabatlarning mayjud tajribalariga asoslanishi bilan bog'liq. Mazkur o'rinda pedagogik bilimlarning shakllanish tarixiga nazar tashlash maqsadga muvofiqdir. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy ijtimoiylashuvi jarayonining mohiyatini o'rganishda quyidagi g'oyalarning ustuvorligini ta'kidlab o'tish joiz:

a) pedagogik bilimlarning yaratilish masalasini ta'lim va tarbiya tizimining qaror topishi hamda inson faoliyatining muhim sohasi sifatida pedagogikaning ham yuzaga kelishi muammosidan alohida o'rganish mumkin emas;

b) ta'lim va tarbiyaning genetik, boshlang'ich asosi metodika va pedagogika, shuningdek, metodik va pedagogik bilimlar o'rtaisdagi yuzaga keladigan munosabatlar hisoblanadi;

v) bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ijtimoiylashuvning genetik mohiyatini tushuntirishning eng samarali metodologik vositasi ta'lim va tarbiyaning kelib chiqishiga nisbatan madaniy-genetik yondashuv sanaladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bosqichida biologik evolyutsiyaning mohiyati o'zgarib, ijtimoiy faoliyat yuzaga kela boshladi. Muhim hayotiy faoliyatlarning yangi turlari paydo bo'la boshladiki, oqibatda mayjud bilimlarni biologik yo'l bilan avlodlarga uzatish mumkin bo'lmay qoldi. Bu borada yangi mexanizmga ega bo'lish ehtiyoji tug'ildi. Mazkur ehtiyoj yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashni yo'lga qo'yish asosida qondirila boshlandi. Biroq ijtimoiy-genetik konsepsiya shaxs tarbiysi xususiyatlarini yetarli darajada tushuntirib bera olmaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ijtimoiylashuvi mazmunini integratsiyalashning quyidagi darajalari mavjud:

1. Funksiyasiga ko'ra integratsiyalash (metodologik, kasbga yo'naltirilgan, muammolik, yaxlitlik, tizimlilik, kommunikativlik, taskilotchilik).

2. Rivojlanish tendensiyasiga ko'ra integratsiyalash (ta'limning ustuvorligi, ta'limning demokratlashuvi, ta'limning insonparvarlashuvi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'limning milliy yo'naltirilganligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilganligi, ta'lim va tarbiyaning uzvii bog'liqligi).

3. Yo'nalishiga ko'ra integratsiyalash (o'qituvchi obro'sini ko'tarish, ta'lim muassasini rivojlantirish, yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish, kasbiy ta'lim – fan – ishlab chiqarish integratsiyasi, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish).

4. Tiplariga ko'ra integratsiyalash (umummetodologik, umumilmiy, xususiy ilmiy, muammoli).

5. Darajasiga ko'ra integratsiyalash (yaxlitlik, didaktik sintez, fanlararo aloqadorlik).

6. Amalga oshirish darajasiga ko'ra integratsiyalash (an'anaviy va noan'anaviy).

Pedagogik va xususiy-metodik bilimlar o'zaro integratsiyalashuvining metodologik asosi sifatida quyidagilar qayd etiladi: umumfalsafiy, gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, matematika, tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va maxsus fanlar asoslari uchun xos bo'lgan qonuniyatlar sanaladi.

Umumfalsafiy asoslar (muayyan dunyoqarashni ifoda etuvchi konsepsiya, tamoyil va kategorial sxemalar to‘plami, xususan, inson va mashinani bir-biri bilan uzviy bog‘liq hodisa deya talqin etuvchi) falsafiy an’analar mazmunida aks etadi.

Pedagogik va xususiy-metodik bilimlarni uyg‘unlashtirish gnoseologik xususiyatga ega bo‘lgan ilmiy bilishning yaxlit jarayonida namoyon bo‘ladigan qonuniyatlarni aks ettiradi.

Pedagogik turkum hamda xususiy-metodik fanlarning texnologik jihatdan o‘zaro yaqinlashuv jarayoni yangi mazmun kasb etmoqda. Ushbu holat ta’lim jarayoniga kompyuter texnikasining jadal tatbiq etish bilan izohlanadi hamda u ta’lim shakllari, metodlari va vositalarini «yaxlit tashkil etuvchi» bo‘lish talabiga to‘la javob bera oladi hamda yangi innovatsion va pedagogik texnologiyalarni shakllanishiga asos bo‘ladi.

O‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini keng ko‘lamda tatbiq etish sharoitida «pedagogik texnologiya» tushunchasining mohiyati o‘zgarmoqda. Mazkur tushuncha dastlab texnologiyaning xususiyatlarini ifoda etishga xizmat qilgan bo‘lsa, hozirda pedagogik texnologiyani mazmunan boyitish ko‘p jihatdan unga muayyan texnik elementlarni qo‘sish hisobiga kechmoqda.

Chunonchi, ta’lim jarayonida kompyuter vositalarini qo‘llash, kompyuterdan o‘rganish obyekti sifatida foydalanish ana shu texnik elementlar sirasiga kiradi.

Pedagogik texnologiyalarni axborotlashtirish jarayonining eng yangi vosita va obyektlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi bois texnik imkoniyatlari oshib bormoqda. Axborot texnologiyalari ta’lim mazmunini qayta shakllantirishga zamin yaratuvchi bir qator shartlarning bajarilishini talab etadi.

Pedagogik, xususiy-metodik va texnologik bilimlar o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyashuvi quyidagilarda ko‘zga tashlanadi:

1. Pedagogik turkum fanlari hamda xususiy-metodik fanlar integratsiyasining didaktik sintezi va fanlararo aloqadorligi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy ijtimoiylashtirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

2. Pedagogikva xususiy-metodik bilimlarning integratsiyasi bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan kasbiy faoliyat jarayonida texnik vositalar, jumladan, kompyuter xizmatidan foydalanish ko‘nikmalarini shakllanishiga yordam beradi.

3. Xususiy-metodik bilimlardan ta’lim berish jarayonining tarkibiy qismlari sifatida foydalanish natijasida pedagogik, xususiy-metodik va texnologik bilimlarning o‘zaro integratsiyasi «vosita-mazmun» (pedagogik bilim - vosita, xususiy-metodik bilim esa - mazmun sifatida) mohiyatiga ega bo‘lgan munosabatni qaror toptiradi.

Didaktik sintez va fanlararo aloqalar texnologik tizimlarni har tomonlama chuqur o‘rganish, psixopedagogik hodisalar mazmunini taqqoslash va ular borasida qaror qabul qilish imkonini beradi.

Oliy ta’lim muassasalar o‘quv rejasidan o‘rin olgan ijtimoiy-gumanitar fanlar, pedagogik turkum fanlar hamda xususiy-metodik fanlar integratsiyalashib, pedagogik amaliyot jarayonida o‘z tatbiqini topadi (1-rasm). Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy ijtimoiylashuvdarajasini zamonaviy ilmiy-pedagogik bilimlar negizida shakllangan psixopedagogik va maxsus tayyorgarligi belgilaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilarini kasbiy ijtimoiylashtirishdan ko‘zlangan maqsad uzlusiz ta’limda pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning psixologik-pedagogik tayyorgarligini ta’minalashdan iboratdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarini tayyorlashning yakuniy maqsadi pedagoglik faoliyat sohasida kasbiy mahorat, mutaxassislik va psixopedagogik bilimlari tizimi hamda bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirishdan iboratdir. Yakuniy maqsad nafaqat bo‘lajak o‘qituvchining mavjud muammolarini hal etishga qodirligini qayd etadi, balki uni umuminsoniy taraqqiyot hamda pedagog kadrlarni tayyorlashning istiqbolli muammolarini hal etishga yo‘naltirishni anglatadi.


Bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy ijtimoiylashtirishning yakuniy maqsadi sifatida quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

- bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy-pedagogik jihatdan tayyorlashda asosiy e’tibor o‘quv fani vositalari, pedagogik faoliyat mazmuni va o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlari asosida shakllantirishga qaratiladi;

- kasbiy-pedagogik faoliyatning mazmuni, vazifalari, ushbu jarayonda hal etiluvchi muammolar va yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan qiyinchiliklar xususida yaxlit tasavvurga ega bo‘lgan holda shaxsiy faollikka erisha olishiga asoslanadi;

- bo'lajak o'qituvchini psixopedagogik nuqtayi nazaridan tayyorlash aniq maqsad, ya'ni pedagogik va psixologik bilimlarning ta'lif muassasasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi bilan belgilanadigan tuzilmasi va mazmuniga yo'naltirilgan;

- bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyatidan kutiladigan va erishish mumkin bo'lgan natijalar o'quvchi shaxsi, uning yo'nalgaligi (talablari, qiziqishi, qadriyatli yo'nalishi, ishi, ongi, sababları); ma'lumot darajasi (bilim, malaka, ko'nikmaları, bilimlarını doimiy ravishda boyitishga intilishi va mahorati); tarbiyalanganlik holati (ma'naviy, estetik, jismoniy, mehnat va hokazo jihatdan); ijtimoiylashuvi (faol kasbiy va ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga tayyorligi, bilim olishni davom ettirishi, ijtimoiy va qadriyatli qoidalarni qabul qilishi); madaniyatiligi (ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini qabul qila olishi, intellektual, iqtisodiy, ekologik, madaniyat, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati, munosabatlari mazmuni va hulq) kabi holat bilan belgilanadi. Kutilayotgan natjalarning eng yuqori darajasi o'qituvchining kasbiy malakasi hisoblanadi.



1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ijtimoiylashtirishda pedagogik va xususiy-metodik bilimlar integratsiyasi

Adabiyotlar.

- Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – T.: O'zbekiston, 1995. – 24 b.
- Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq nashriyotmatbaa konserni, 1997. – 48 b.
- Краевский В.В. Методология педагогического исследования. – Самара. СГПУ, 1994. - 174 с;
- Крюкова Е.А. Личностно-развивающие образовательные технологии: природа, проектирование, реализация. Монография. – Волгоград. Перемена, 2000. – 97 с.
- Сериков В.В. Личностный подход в образовании: Концепция и технологии. Монография. – Волгоград: Школа, 1994. - 152 с.

<p style="text-align: center;">C.P.Zohidova</p> <p>РОЛЬ ИНТЕГРАЦИИ ОБЩЕПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ И ИНДИВИДУАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ</p> <p>В настоящей научной статье рассматривается роль интеграции общепрофессиональных и индивидуально-методических знаний в профессиональной социализации будущих учителей, степень интеграции содержания профессиональной социализации будущих учителей, высказываются мысли об их применении в процессе педагогической практики.</p> <p>Kalit so'zlar: профессиональная социализация, общепрофессиональные предметы, индивидуально-методические знания.</p>	<p style="text-align: center;">S.R.Zokhidova</p> <p>THE SIGNIFICANCE OF GENERAL PROFESSIONAL AND INDIVIDUAL METHODOLOGICAL KNOWLEDGE INTEGRATION TO THE PROFESSIONAL SOCIALIZATION OF THE FUTURE TEACHERS</p> <p>This research paper deals with the significance of general professional and individual methodological knowledge integration to the professional socialization of the future teachers, the degree of integration of the content of the professional socialization of the future teachers, the ideas about their use in the process of pedagogical practice are stated.</p> <p>Keywords: Professional socialization, general professional disciplines, individual methodological knowledge.</p>
--	---

**INSHO VOSITASIDA O'QUVCHILAR BILIM VA TAFAKKURINI
RIVOJLANTIRISH**

M.Hazratqulov, Sh.Nasimova
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Insho yozish jarayoni o'quvchining fikrlash qobiliyatini shakllantirib qolmay, balki uning ichki olamiga muhim ta'sir etuvchi, bola ruhiyatida cheksiz o'zgartishlar yasashga qodir ijodiy mashg'ulot turlaridan biridir. Ushbu maqolada inshoning ta'lif-tarbiya vositasi ekanligining ilmiy asoslari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Sujet, peyzaj, hissiyot, individuallik, epizod, badiiy tasvir, insho, obrazlilik, yozma ish, uzlusiz ta'lif, tasavvur, atrof-olam, ko'nikma, boshlang'ich ta'lif, maktabgacha tarbiya davri, og'zaki matn.

Mamlakatimiz prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasda "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusidagi ma'rzasida so'zlagan nutqi (1997 yil 29 avgust)da "demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa ta'lif samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir" [1.9], deb ta'kidlagan edi.

Insho yozish ko'nikmasini shakllantirish aslida boshlanich ta'lif davridan boshlansa-da, uning elementlarini maktabgacha tarbiya davridayoq kuzatish mumkin. Bola gapirishni boshlaganidayoq narsalar, atrof olam, borliq bilan qiziqa boshlaydi. "Bu nima?" "Nega samalyot ucha oladi?" "quyosh qayerdan chiqadi?" singari savollar paydo bo'la boshlaydi. Ularga javob topishga harakat qiladi. Javob topish asnosida qisman ularga o'z munosabatini ham shakllantiradi. Xuddi shu jarayon, bolaning shaxsiy munosabat bildirish istagi inshoning ilk kurtaklari sifatida bo'y ko'rsatadi. [7.146]

Insho o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, dunyoqarashini shakllantirish bilan birga ta'lif-tarbiyaviy ahamiyat kasb eta oladi. Ayniqsa kichik yoshdag'i o'quvchilar uchun matn asosida tashkil qilingan rivoya shaklidagi insholar muhim o'rin tutadi. Matn mavzusini tanlashda kichik hajmdagi ertaklardan foydalanish samaralidir. Ertaklarning mavzulari xilma-xilligi bilan ham e'tiborni o'ziga jalg qiladi. Ularda turli sarguzashtlar, mo'jizaviy hayot tasviri, adolatning g'alaba qilishi, insonning fazilatlari madhi keng o'rin olgan. Bunday asarlarda ayniqsa, tasviriy san`atlardan, mubolig`adan qayta-qayta foydalaniladi. Eng muhammi tinglovchi yoki kitobxon mubolag`alarning birontasiga shubha bilan qaramaydi. Masalan, "Bulbuligo'yo" ertagida daraxtning barglari zumraddan, mevalari oltindan bo'ladi. Ammo bunday mo'jizalarning sodir bo'lishi hech kimda shubha uyg`otmaydi. Sehrli ertaklarda tilsimli narsa – predmet haqida ham fikr yuritilgan. Masalan: daryoga aylangan oyna, changalzorga aylangan taroq kabi tasvirlarga keng o'rin beriladi. Ertaklarda inson xayoli naqadar cheksiz ekani namayon bo'ladi. Ularda kelajakka ishonch ruhini uyg`otgan. O'z orzuidagi dunyoqarashlarni shakllantirishga muhim manba vazifasini o'tagan. [6.257]

Psixologlarning ta'kidlashicha, bola 3 – 7 yoshdaligida har narsaga qiziquvchan, eslab qolish qobiliyati kuchli va taqlidchi bo'ladi. Ayniqsa, u ko'rgan kinosining, multfilm va eshitgan ertaklarining qahramonlariga o'xshashga harakat qila boshlaydi. Demak, ular Zumradning ijobiy fazilatlar egasi ekanligini anglab yetishgan. Ba'zan onanining erkatoj, tantiq qizini yoki o'sma qo'yayotganda qoshiga o'smani chiroyli qo'ya olmagan qizni qimmatga qiyoslasangiz uning jahli chiqadi. Aksincha, Zumradga qiyos etilgan qizlar hech qachon xijolatda qolmaydilar.

Demak, shaxs tarbiyasi borasida o'qitilayotgan pedagogik-psixologik adabiyotlarimizda, umuman, o'rta ta'lif tizimida yetishmayotgan birlina jihat bu-tarbiya va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi aloqa munosabat shakllarining o'ziga xos qonuniyatları ishlab chiqilmaganligidir. Yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, shaxs tuzilishini-ongi, aqli, tuyg`ularini, uning fiziologik va ruhiy jihatlarini qotib qolgan tushuncha va atamalar bilan emas, balki yangi zamonaviy fan yutuqlari bilan asoslash maqsadga muvofiq bo'lardi.

Sinergetika tushunchasi XX asrning oxirlarida G. Xansi va Prigojinlar tomonidan taklif qilingan bo'lib, bu so'z grekchadan o'girilganda ochiq sistemalardagi struktural elementlari orasida energiya va modda almashinuvni jarayonini anglatadi.

Bu sohada muhim tadqiqotlar olib borayotgan SamDUning “Kvant fizikasi” kafedrasi dotsenti E.Eshmatovning fikricha, o’rgatuvchi o’rganuvchining axborot tizimi bilan tegishli aloqa bog’lay olib, uning ichki energetik strukturasiga tegishli o’zgartirishlar kiritish mahoratiga ega bo’lgandagina o’zining vazifasini bajargan bo’ladi. [4.145]

Bu g’oyaning mohiyati shundan iboratki, biz faqat ko’rgan va isbotlangan narsalarga asoslanib xulosa chiqaramiz. Masalan, tabiatdagi turli hil axborot va energiya almashinuvi jarayonlari (yorug`lik nuri, elektr va radio to’lqinlar)ni kuzatamiz. Shuningdek, bunday jonsiz moddalarning ichki energetik strukturasini va ta’sir jarayonini bevosita fizik asboblar bilan qayd qilish mumkin. Biroq insonda kechadigan ruhiy-psixologik o’zgarishlar ham ana shunday kichik energiyalar o’zgarishi oralig`da yuz bersada, bu jarayonlarni fizik asboblar yordamida nazorat qilish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham biz tashqi ta’sirlar tufayli inson ichki energetik strukturasida yuz beradigan o’zgarishlarni asosan ularning xatti-harakatlariga va munosabatlardagi o’zgarishlariga qarab baholab kelganimiz. Shu sababdan ham tabiiy fanlar va gumanitar fanlar orasida qonuniyatlar yo’q deb hisoblanib kelingan.

Ruhiy-psixologik jarayonlar bilan bog’liq turli-tuman g`ayritabiyy (aslida tabiiy)voqeа va hodisalar bizdan o’z isbotini talab qiladi. Jonsiz predmetlarda mavjud bo’lgani kabi tirik organizmda ham ichki energetik struktura mavjud. Ichki energetik strukturaga ta’sir qilish mexanizmi orqali ba`zi muammolarga aniqlik kiritishga harakat qilib ko’ramiz.

Umumiy o’rtta ta’lim maktabining boshlang`ich sinf o’qituvchisiga “Suv- hayot manbai” mavzusida 1 soatlik tarbiyaviy soat darsini o’tishni taklif qildik. 45 minutlik dars tugagandan so’ng sinfdagi o’ttiz o’quvchini anhor bo’yiga sayrga taklif qildik. Sayr chog’ida kelishilganidek ularning har biriga bittadan qog`ozli qand tarqatib hoziroq yeyishini tayinladik. Oradan o’n minut o’tgach shu narsa ma’lum bo’ldiki, 30 o’quvchidan 13tasi konfet qog`ozini suvgaga tashashgan, 9tasi yerga tashashgan, 4 o’quvchi konfet qog`ozini qo’lida ushlab turgan, qolgan o’quvchilar konfetni yemagan.

Hozirgina “Suv- hayot manbai” mavzusida dars o’tilishiga qaramay, o’quvchilarda hech qanday ta’sir effiki sezilmagan. Qanday xatoga yo’l qo’yildi? Bir necha javoblar tayyor: “o’qituvchi yaxshi dars o’tmagan”, “o’quvchilar darsni yaxshi tinglashmagan”, “o’quvchilar darsda e’tiborsiz o’tirishgan” va boshqalar. Bu javoblarni odatda bitta javob bilan asoslash mumkin. Agar o’rgatuvchi tegishli usulni tanlab o’rganuvchining energetik strukturasiga o’zgartirishlar hosil qila olsagina ta’lim jarayoni bajarilgan hisoblanadi. Demak, ta’lim jarayonini o’rgatuvchining energetik maydoni bilan o’rganuvchining eheregetik maydoni orasidagi axborot almashinuvi jarayoni deb qarash mumkin.

Odatda bu jarayonga fiziologik va psixologik nuqtayi nazaridan yondashilib, ma’lumotlar ko’z, quloq va boshqa tuyg’ular orqali bosh miyaga uzatilishi, bosh miyaning javob reyaksiyasi sifatida orqa miyaga uzatilishi va shunga o’xhash ta’sir vositalar orqali izohlanadi. Aslida bu yerda o’rganuvchi va o’rgatuvchilarning energetik strukturalaridagi axborot almashinuv jarayonigina muhim hisoblanadi. Albatta, bu yerda o’rgatuvchining o’rganuvchi bilan o’zaro axborot almashinishni amalga oshira olish qobiliyati mavjud bo’lishi kerak. Shundagina u o’rganuvchining energetik strukturasiga o’zgartirish yuzaga keltira oladi.

Ikkinchi o’tkazilgan tajriba bunga misol bo’la oladi. Biz bu tajribada yuqoridagi holatni qaytadan takrorladik. Faqatgina bunda boshlang`ich sinf o’qituvchisiga “Suvni asraymiz” mavzusida insho tashkil qilishni tavsiya qildik. Inshoni tashkil etishda o’quvchilarga yordam sifatida “Tomchivoy”, “Bulutcha” singari ertak matnlaridan foydalanildi. O’quvchilar 45 minut mobaynida ertaklar asosida insho yozdilar. So’ng yana o’quvchilar sayrga taklif qilindi.

Tajriba tugagach, yashirin kameradagi tasvirni kuzatdik. Natija quyidagicha: 30 o’quvchidan 3tasi konfet qog`ozini suvgaga tashlagan, 4 o’quvchi yerga tashlagan, qolgan o’quvchilardan o’n nafari nariroqdagi axlat tashlanadigan joyga, konfet qog`ozlarining qolgan qismi o’quvchilarning qo’lida qolgan. Natija yaxshi chiqdi. Bunga sabab o’rgatuvchining tegishli axborotni qay usulda o’rganuvchining energetik strukturasiga singdirishi edi. O’quvchilarning insho yozish orqali voqealarni qayta-ayta analiz-sintez qilishdilar. Shuningdek, jarayonga o’z munosabatlarini ham qo’shdilar. Masalaning eng muhim tomoni shunda ediki, ertaklar bolalar ongiga kirib borishning eng oson va sodda usulidir. Shunday ekan, xabar tarzida berilayotgan axborot dasturi ertak matni tarzida berilganligi bao’quvchilarning insho yozish orqali matnni analiz qilishlari muammoni bartaraf etishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Shu sabab ham ta’lim-tarbiya samarasini ko’rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning ichki energetik strukturasida sistemaviy xususiyatlarni o'zgartirish bu shaxsning fe'l-atvori, ichki dunyosida o'zgartishlar yasash demakdir. Ilmiy xulosalar va tajribalardan kelib chiqqan holda inson vujudidagi yuzaga keladigan ko'zga ko'rinnmas ruhiy-psixologik o'zgarishlar o'ziga xos ilmiy tadqiqni talab etadi. Tahsil va natijalar inson hayotining ma'lum bir izchil qonuniyatga asoslanishini va insoniyatga ezgulik keltirishi mumkin ekanlik tamoyiliga asoslanadi.

Adabiyotlar

1. Karimov I. "Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". Ma'ruza.1997.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat. 2008. 208 s.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent. O'qituvchi. 2011. 246 s.
4. Yusupov M, Abdullayeva.Q. O'qish kitobi. Umumiy o'rtta ta'llim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. 306 s.
5. Shermatov.E. Uzluksiz ta'llim samaradorligini oshirishda senergetika tamoyillarining roli. SamDU.2007. 254 s.
6. Husanboyeva Q. Tahsil adabiyotni anglash yo'li. Toshkent. Sharq.2013. 346 s.
7. O'zbek xalq ertaklari. 1-tom. T. Ma'naviyat. 2010. 380 s.
8. Hazratqulov M. Uzluksiz ta'llim tizimida inshoni tashkil etish metodlari. Samarcand. 2015. 186 s.

М.Ҳазратқұлов, Ш.Насимова
ПРИМЕНЕНИЕ СРЕДСТВА ДЛЯ
РАЗВИТИЯ И МЫШЛЕНИЯ
УЧАЩИХСЯ

Организуя сочинение по картине, необходимо иметь в виду, что данный вид работы не только формирует у учеников самостоятельное мышление, но и оказывает серьезное влияние на внутренний мир учащегося, вызывая в нем значительные изменения. В данной статье рассматривается научное обоснование данного вида работы как учебно-воспитательного процесса.

Ключевые слова: Сюжет, пейзаж, чувство, индивидуальности, эпизод, художественного образа, метафоры эссе, письменные работы, непрерывное обучение, воображение, мир окружающей среды, навыки, образование, дошкольный период, словесный текст.

M.Hazratqulov, Sh.Nasimova
WRITING MEANS TO DEVELOP
STUDENTS' KNOWLEDGE AND
THINKING

Organizing an the essay writing on pictures it is necessary to take into consideration that the given type of work forms in not only the individual thinking but, it also seriously influences on the their inner world causing them to be ready for significant changes. In the present article the scientific basis is considered to be the given type of essay writing as the educational and training means.

Keywords: the story, the landscape, a feeling of individuality, episode, artistic image, the metaphor of the essay, written work, continuous learning, imagination, the world of the environment, skills, education, preschool period, the verbal text.

UDK:321(575.1):37

YOSHLARDA MAFKURA VIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING
IJTIMOIY PEDAGOGIK OMILLARI

Sh.A.Akramova

*O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojaxona Qo'mitasi Oliy harbiy bojaxona instituti o'qituvchisi,
pedagogika fanlari nomzodi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarda globallashuv sharoitida mafkuraviy immunitetni shakllantirish nechog'lik zarur ekanligi, globallashuv jarayonida ma'naviy tahdidlar, uning kelib chiqish sabablari hamda ularni bartaraf etishning ijtimoiy pedagogik omillari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: g'oya, mafkura, globallashuv jarayoni, mafkuraviy immunitet, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning “4.4. Ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’rifiy ishlari”, deb nomlangan bo‘limida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning tashkiliy asoslari ko‘rsatib berilgan. Ularda:

- “Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an’analari, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi.
- Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta’minlanadi.
- Umumiylamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma’rifiy ishlari takomillashtirib boriladi.
- O‘zbekiston mustaqilligi prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sishgaga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta’lim muassasalari ota-onalar, oila, mahalla qo‘mitalari, Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, jamoat tashkilotlari, fondlar bilan o‘zaro puxta hamkorlik qilishi belgilab berilgan.

Bu beziz emas, chunki ilmiy texnik taraqqiyot odamlarga moddiy ne’matlardan foydalanish, ulardan bahramand bo‘lish uchun o‘ta qulay sharoitlar yaratish, bilan birga odamlar orasidagi ijtimoiy munosabatlarda yangi tendensiyalarni ham paydo qiladi. Bu muammoni o‘rganish maqsadida g‘arb ijtimoiy psixologiyasida XX asrning 70-yillarda “shaxsning depersonalizasiyalashuvi” nazariyasi ishlab chiqildi. Ularning qarashlariga ko‘ra yashash o‘ta qulay, komfort, to‘kis, hayotning barcha tarmoqlarida texnika, texnologiya yutuqlari hukmronlik qiladi. Bu esa odamlarning ehtiyoj va istaklarining bir xillashuviga, ularning bir-biridan begonalashuviga, o‘z ichki dunyosida yashashga intilishiga, birov bilan muloqatga vaqt va ehtiyoj qolishida namoyon bo‘ladi. Demak, bozor iqtisodiyoti, texnologik inqilob sharoiti oila, tarbiya, yoshlarda xususan g‘oyaviy tarbiya, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish jabhasida ham sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ana shu o‘zgarishlarni nazarda tutishni taqozo qiladi.

Barcha ziyoli zotlar o‘tmishda ham, hozirda ham yot g‘oyalardan ogoh bo‘lishni, ulardan o‘zni asrashni bilib targ‘ib etadilar. Afsuski, bu oydin haqiqatdan bebahra, ma’rifatsiz va johil kimsalar ulug‘ dinimizni niqob qilib olib, turli xil jinoyatlar va manfur ishlarni sodir etmoqda. Fosiqlar Vatanimiz tinchligi va xalqimiz osoyishtaligini buzishga, taraqqiyot yo‘limizdan qaytarishga harakat qiladilar, shu bilan birga, dinimiz sofligiga ziyon yetkazmoqchi bo‘lishadi.

Riyokorlar o‘z muddaosi yo‘lida ko‘pchilik ergashadigan ta’limotlarni vosita qilib oladi. Bugun, ming afsuski, ko‘pchilik yoshlar buni bilmaydilar. Mana shuning oqibatida aksariyat hollarda o‘tmishdan behabar bo‘lgan, fitna va siyosiy o‘yinlar nima ekanini bilmagan yoshlar “verbobka mutaxassislar”ning ta’sirchan da’vatiga mahliyo bo‘lib, uning yuragini o‘rtab yotgan qora niyatini ilg‘ay olmaydi va yanglish xulosa chiqarib, o‘zi anglamagan va bilmagan holda qabohat domiga tusha boshlaydi.

Shaxsning mustahkam mafkuraviy immunitetini shakllantirishda uni ma’naviyatimizga yot g‘oyalardan profilaktika qilish hamma ijtimoiy kompleks, ya’ni oila, mahalla, ta’lim muassasasi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, “Kamolot”, “Nuroniy”, xotin-qizlar qo‘mitalari, mahalliy xokimiyatlar, deputatlar, fuqarolik jamiyatining barcha a’zolarining vazifasi etib belgilangan va tashkilotlar bu borada kompleks ish olib boradilar. Biroq, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, olib borayotgan profilaktik ishlarnimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga yo‘naltirishning ijtimoiy pedagogik tizimi samarasini talab darajasida emas. Masalan, oila - ilk tarbiya maskani. Ammo statistik ma’lumotlarga qaraganda, diniy oqimlar ta’siriga adashib kirib qolgan yoshlarning 82%ini nosog‘lom, janjalkash oilalarda tarbiyalangan yoshlar tashkil etadi. Bunday oilalardagi yoshlar tarbiyasi o‘z holiga tashlab qo‘yilgan bo‘ladi. Yot mafkuralar aynan shunday oilada tarbiyalanayotgan yoshlarni “verbovka” qilishga intilishadi. Shuning uchun avvalo oilalarda ma’naviy-mafkuraviy tarbiya – inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga ularning muayyan maqsadlarini ifoda etadigan g‘oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga ustuvor ahamiyat qaratilishi talab etiladi.

Diniy aqidaparastlikning paydo bo‘lishi va tarqalishiga sabab bo‘lgan omillar ichida mafkuraviy bo‘shliqning ta’siri alohida o‘rin tutadi. Ya’ni, mutaassib kuchlar ushbu omildan jamiyat a’zolarining yetarli mafkuraviy immunitetga ega bo‘lamanidan unumli foydalanib, ularning qalbi va ongiga ta’sir ko‘rsatishga urinishmoqda. Zero, «g‘oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik millatning birdamliligi va davlatning qudratiga putur yetkazadi, uning taraqqiyotini orqaga surib yuboradi» [1].

Aytish mumkinki, mafkuraviy bo'shliq ko'pincha kishilarda jamiyatdagi mavjud holatni, ijtimoiy muhitni noto'g'ri idrok etishga, uning irodasini boshqa kishiga bo'ysundirish va dunyoqarashida agressivlikni shakllantirishga xizmat qiladigan nosog'lom g'oyalar bilan to'ldirilishiga zamin yaratadi. «Zombilashtirish» deb ataladigan bu texnologiya yaxshi shakllanmagan ma'naviyati, bo'sh iroda va nosog'lom intilishlar muhitidagina ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Yot mafkuralarning jamiyat ichida ildiz otishiga sabab bo'lgan omillar qatoriga, aholining din va dindorlik to'g'risidagi bilim va ma'lumotlari pastligi ham uning yanada rivojlanishiga zamin hozirlaydi. Diniy ekstremizm targ'ibotining maqsadlarida musulmonlar o'rtasida g'oyaviy tashviqot yordamida ta'sir o'tkazish, ikkinchidan, mutaassib kuchlarga tashkiliy yordam ko'rsatish belgilangan. Birinchi buzg'unchi maqsadga erishishga saytlarda joylashtirilayotgan dasturiy, tarixiy, ko'rgazmali, munozarali va shu kabi materiallar xizmat qiladi. Tashkiliy jihatdan yordam berish uchun internetdan aloqa vositasi sifatida foydalanilmoqda. G'arblik tahlilchilar hozir hatto alohida turdag'i xalqaro islom tashkiloti mavjudligi, u o'zining aniq tashkiliy aloqlari bilan emas, balki axborot muhiti bilan ajralib turishi haqida ham gapirishmoqda.

XXI asrda diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning o'ziga xos xususiyati hozirgi sharoitda ma'lum bir hudud yoki mintaqaga xos bo'lmay davlatlar chegaralarini tan olmayotganligida namoyon bo'lmoqda. U tobora globallashib, xalqaro tus olib, tarkibiy va tashkiliy xususiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ular boshqaruv tizimi va rejalahtiruvchi bo'linmalarga o'tayotganligini qayd etish mumkin. Ularning yoshlarga kuchli axloqiy-ruhiy ta'sir o'tkazish hamda jamoatchilik diqqatini qaratish maqsadida tashviqot va targ'ibot ishlariiga qarshi "Fikrga qarshi – fikr, g'oyaga qarshi – g'oya, jaholatga qarshi - ma'rifat" bilan kurashish hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda [2].

Hozirda soha mutaxassislari tomonidan islom mutaassibchiligiga qarshi kurashda faqatgina qat'iy qonun, choralar bilan olib borilishi mumkin emas. Ularning fikricha, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurashda g'oyaviy-aqidaviy tamoyil muhim rol o'ynaydi [3]. Ya'ni, islom aqidaviy ta'limotini uni niqob qilgan mutaassibchilikka qarshi kurashda foydalanish o'rinli bo'ladi.

Yoshi katta, muayyan hayotiy tajribaga ega kishilarning bunday harakatlarga tortilishining ehtimoli past. Biroq, terrologik tadqiqotlar statistikalari zalolat yo'liga kirganlarning asosiy qismi (90 foiz) ni oliy ma'lumotga ega bo'lmagan yoshlarning turli yo'llar bilan diniy ekstremistik guruhlarga jalg etilishi, ya'ni ilmsiz ba'zi yoshlarning ular tuzoqlariga ilinishi mustaqil yurtimiz kelajagi uchun tahdiddir.

Adabiyotlar.

1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. – B. 15.
2. Gusher A.I. Problema terrorizma na rubeje tretyego tsityachiletiya novoy ery. http://www.e-journal.ru/p_euro-st3-3.html
3. Баглиев М.А. Политические аспекты современного исламского экстремизма (на примере Египта) // Интернет: http://planetadisser.com/see/dis_154460.html

Sh.A.Akramova

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА У МОЛОДЕЖИ

В статье автор раскрывает необходимость формирования идеологического иммунитета молодежи в условиях глобализации, рассмотрены вопросы духовных угроз в процессе глобализации, причины возникновения, негативные последствия глобализации, а также социально-экономические факторы предотвращения.

Ключевые слова: идея, идеология, глобализация, процессе глобализации, идеология иммунитет, Национальная программа по подготовке кадров.

Sh.A.Akramova

SOCIAL-ECONOMIC FACTORS OF FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY OF YOUTH

In the article an author exposes forming of ideological immunity of young people in the condition of globalization, in the process of globalization spiritual threats, their reason of origin and negative consequence of globalization and way pre-rotation in a sphere socially-pedagogical aspects.

Keywords: idea, ideology, globalization, process of globalization, ideology immunity, National program on personnel training.

UDK 15:61

**TIBBIYOT MUASSASALARIDA FAOLIYAT YURITUVCHI PSIXOLOG KADRLAR
TAYYORLASH MUAMMOLARI**

Yu.Narmetova

O'zbekiston Milliy universiteti, katta ilmiy xodim-izlanuvchi

Annotasiya. Maqolada tibbiyot muassasalarida faoliyat yurituvchi psixolog kadrlar tayyorlash muammolari ko'rib chiqiladi. Aynan shu sohadagi mutaxassislar qanday kasbiy ko'nikma, malaka va bilimga ega bo'lislari zarurligi, tibbiyot sohasida faoliyat yuritadigan psixolog-konsultantga qo'yiladigan muhim kasbiy sifatlar majmuasi borasida mulohaza yuritiladi. Universitet doirasida tibbiyot muassasalarini uchun psixolog mutaxassislar tayyorlash, ularda muhim kasbiy sifatlarni shakllantirish borasida takliflar kiritiladi.

Kalit so'zlar: tibbiyot psixologiyasi, psixolog-konsultant, psixodiagnostika, psixologik konsultatsiya, muhim kasbiy sifatlar, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy mahorat.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish umummiliy dasturi doirasida oliv o'quv yurtlarini zamon talabiga mos ravishda modernizasiya qilish, ta'limning mazmun-mohiyatini o'zgartirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Ma'lumki, oldingi ta'lim ko'proq akademik bilimlar berishga qaratilgan bo'lqa, hozir unib-o'sib kelayotgan yoshlarning chuqur nazariy bilimlarga ega bo'lishi bilan birgalikda, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ta'limning takomillashuv jarayoni shahdam odimlamoqda. Shu boisdan oliv o'quv yurtlari talabalari doimiy ravishda o'z bilim, ko'nikma va malakalarini yangilab borishlari uchun bugun keng imkoniyatlar yaratilgan.

So'nggi yillarda psixolog shaxsiga qo'yiladigan talablar uning kasb malakasi, kasbiy mahorati, kasbiy tayyorgarligi, o'z kasbining barcha jihatlarini har tomonlama to'liq va puxta egallagan ustasiga xos sifatlari darajasini oshirib borishni taqozo etadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, kasb malakasi, kasbiy mahorat, kasbiy tayyorgarlik darjasini, kasb ustasi kabi tushunchalarning har biriga psixologik ta'rif va izoh keltirilgan. Shu bilan birga, mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyati bir-biriga juda yaqin va umumiyoq o'zakka ega ekanligini hisobga olgan holda ularni umumlashtirib ifodalovchi tushuncha sifatida "professionalizm" deb nomlash maqsadga muvofiq ekanligi juda ko'p mualliflar tomonidan e'tirof etiladi. Psixologiya uchun fundamental xarakterga ega bo'lgan psixologning amaliy faoliyati, avvalambor, psixik aks ettirish orqali taqozo etilgan hayot birligi bo'lib, uning haqqoniy funksiyasi shundaki, u subyektni predmetli dunyoda yo'naltiradi. Boshqacha qilib aytganda, faoliyat - bu reaksiya emas, balki qurilish, o'z ichki o'tishlari va aylanishlari, o'z rivojlanishiga ega tizimdir. Psixolog kasbiy faoliyati, mashg'ulotlar turi kabi, psixologiya sohasiga taalluqli bo'lib, bir nechta sohalar (ixtisosliklarni) va faoliyatning turli-tuman predmetlari - ixtisoslashuvni o'z ichiga oladi. Psixolog kasbiy faoliyati tahlili "professionalism" kategoriyasini qo'llashni taqozo etadi. A.K. Markova "professionalism" talqinining bir nechta jahbalarini ko'rsatib o'tadi. Birinchisi - bu "normativ professionalizm" bo'lib, mehnatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan insondagi shaxs xususiyatlari yig'indisi sifatida qaraladi. Boshqa ma'noda "professionalism" tushuncha sifatida psixik sifatlar zaruriy normativ to'plamiga ega bo'lgan mehnat subyekti xarakteristikasini aks ettiradi. Va niyoyat, professionalizm mehnat subyekti yuqori bahoga loyiq bo'lgandagi normativ funksiyalarini bajarish sifati tushuniladi [4]. A.K. Markova shaxs professionalizmining ikki tomoni va yettita mezon guruhlari, o'ziga xos bosqichlari va pog'onalarini, shuningdek, ichki o'zaro aloqadorligi kasbiy faoliyatning obyektiv jarayonlari sifatida shartlangan beshta professionalizm darajasini ajratib ko'rsatadi. Bu darajalar quyidagilar:

- professionalizmgacha bo'lgan daraja;
- professionalizm;
- superprofessionalizm;
- professional bo'lmagan yoki qalbaki professionalizm;
- professionalizmdan keyingi daraja.

Psixolog faoliyati tahliliga nisbatan olib qaraganda shunga asos borki, birinchi darajada kasbiy tanlash va o'qitish shakllanadi - mutaxassislikni va psixolog malakasini egallash jarayoni amalga oshiriladi, ikkinchi bosqichda kasbiy-shaxslilik faollik bilan motivlashtirilgan psixolog faoliyatiga

professionalning moslashuvi yuz beradi, u kasbning konkret predmetiga ega bo'ladi va kasbiy-shaxslilik jihatidan o'zini o'zi aktuallashtirishga intiladi. Professionalizmning keyingi darajalarida psixolog faoliyatning individual maromiga ega bo'ladi va ijtimoiy kasbiy jihatdan tan olinadi, shaxsning o'zini o'zi dolzarblashtirishga, kasbiy "akme"ga erishishga intilishiga mos keladi. o'z kasbiy salohiyatini to'liq ochgan psixolog, hattoki nafaqa yoshiga yetganda ham professionalizmdan keyingi bosichdagi faoliyatning turli ko'rinishlarida to'plangan ajoyib kasbiy, shaxslilik salohiyatini amalga oshirishga imkoniyat topadi (konsultatsiya, konsiliumlarda ishtirot etish, o'qituvchilik faoliyati va h.k.).

Kasbiy faoliyatga moslashuvning individual shakllarini tahlil etish kengligi va psixolog noprofessionalizmi fenomeni psixologik jabhasi kasbiy dezadaptasiya, shaxsdagi deformatsiya yoki "yonish" shuningdek, uzlusiz kasbiy ta'lif jarayonidagi ma'lum nuqsonlar, kasbiy tajribaning yetishmovchiligi sifatida qarash mumkin.

Bevosita professionalizm kategoriyasi bilan psixik sifatlar yig'indisi, mustaqil va mas'uliyat bilan harakat qilish imkoniyatini beruvchi psixik holat, inson tomonidan ma'lum mehnat funksiyalarini bajarish malakasiga ega bo'lish" sifatida ta'riflanuvchi professional kompetentlik tushunchasi bog'liq. Binobarin, shaxslilik tayyorgarligining bunday darajasi kasbni qabul qilish, ma'lum tadqiqotlarga tayangan holda individual-shaxslilik moslashuvining yuqori darajasi ta'minlanar ekan, professional kompetentlikni mehnat sub'ektning mustaqil va mas'uliyat bilan harakat qilishi, sub'ektning faoliyatga kasbiy-shaxslilik moslashuvining yuqori darajasini saqlagan holda ma'lum mehnat vazifalarini bajarish qobiliyati va malakasiga ega bo'lish imkon beruvchi psixik sifatlari yig'indisi, psixik holati sifatida ta'riflaymiz. Psixolog faoliyati tahlili faoliyatni tadqiq etish metodologiyasida shakllangan ma'lum talablarni hisobga olgan holda quriladi.

Psixologik konsultatsiya kasb sifatida psixologik amaliyotning nisbatan yangi tarmog'i hisoblanadi. Mazkur kasb klinik buzilishlarga ega bo'Imagan, biroq psixologik yordamni izlagan insonlar ehtiyojiga javoban yuzaga kelgan. Shuning uchun psixologik konsultatsiyada, biz avvalambor kundalik hayotda qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan odamlarga to'qnash kelamiz. Muammolari spektri juda keng bo'lib, ishslash joyidagi qiyinchiliklar (ishxonadagi qiyinchiliklar, o'z ishidan yoki kasbidan qoniqmaslik, shaxslararo nizolar, ishdan bo'shash ehtimoli), shaxsiy hayotdagi qiyinchiliklar va oiladagi kelishmovchiliklar, maktabda o'zlashtirmaslik, o'z o'ziga ishonchning yetishmasligi, o'zini o'zi baholash tizimining pastligi, qaror qabul qilishdagi ikkilanishlar, shaxslararo munosabatlarga kirishish va qo'llab-quvvatlashning murakkabligi va h.k.lardan iborat. Boshqa bir tomonidan psixologik konsultatsiya psixologik amaliyotning nisbatan yosh sohasi sifatida hozircha jiddiy belgilangan chegaralarga ega emas, uning doirasiga turli tuman muammolar kiradi.

Psixologik konsultatsiya masalasida qimmatli uslubiy ma'lumotlar G. Shoumarov, U. Qodirov, I. Xojibaevlarning "Oilaga psixologik yordam ko'rsatish asoslari" kitobida to'liq o'z ifodasini topgan [7].

So'nggi yillarda psixologik konsultatsiya tibbiyot psixologiyasiga ham shahdam qadamlar bilan kirib keldi. Psixosomatik kasalliklar ko'rinishlarining ortib borishi, har bir kasallik orqasida psixologik muammoning mavjud bo'lishi, xavotirlanish va qo'rquv somatizasiyasi muammolari tibbiyot muassasalarida ham psixologik konsultatsiyani yo'lga qo'yishni taqozo etmoqda.

Bir qator mualliflar fikricha, tibbiyot muassasalarida psixolog faoliyati ikki qutbli bo'lib, bir tomoni psixologik konsultatsiya, ikkinchi tomoni esa psixoterapiyadan tashkil topadi [2,3,6].

Psixologik yordamni bu ikki sohasining taqsimlanishi murakkab vazifa bo'lib, professional psixolog o'zining nima bilan shug'ullanayotganini aytishi qiyin - konsultatsiya bilan shug'ullanadimi yoki psixoterapiya bilanmi, aniqlab berishi mushkul. konsultatsiyada ham, psixoterapiyada ham aynan bir klient va psixoterapevt shaxsiga qo'yiladigan talablar mavjud bo'ladi. Har ikkala holatlarda ham mijozga yordam konsultant (psixoterapevt) va mijoz o'rtasidagi o'zaro ta'sirga asoslanadi. Bu ikkala sohani bo'lishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklari tufayli ba'zi amaliyotchilar "psixologik konsultatsiya" va "psixoterapiya" terminlarini sinonim sifatida qo'llaydilar. holbuki, juda ko'p mamlakatlarda mazkur kasblar alohida talqin etilsa-da, ularni qisman ajratish uchun asoslar etarlichadir. Bir qator mualliflar, konsultatsiya va psixoterapiyaning o'zaro mutanosibligi haqida gapirar ekanlar, kontinuumning ikki nuqtasini tasavvur qilishni taklif etadilar. Birinchi nuqtada psixolog kasbi ong darajasida hal qilinuvchi vaziyatli muammolarni o'z ichiga oladi va klinik jihatdan sog'lom individlarda yuzaga keladidigan muammolar bilan shug'ullanadi. Mana shu nuqtada konsultatsiya

joylashadi. Ikkinchi nuqtada muammolarni ongsizlik jarayonlariga yo‘nalgan holda tahlil qilish, shaxs strukturasini qayta qurish bilan bog‘liq klinik jihatdan ruhan sog‘lom odamlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish yotadi. Bu yerda psixoterapiya sohasi joylashgan. Nuqtalar orasidagi sohani ham konsultatsiya, ham psixoterapiya deb atash mumkin.

R.Kochyunas psixologik konsultatsiyaning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi:

- konsultatsiya klinik sog‘lom shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, psixologik qiyinchiliklar, nevrotik xarakterdagi shikoyatlari mavjud bo‘lgan, o‘zini yaxshi his qilayotgan, biroq o‘z oldiga bundan keyingi rivojlanishni maqsad qilib qo‘ygan shaxslarga yordam berishni nazarda tutadi; konsultatsiya shaxsnинг buzilishlar darajasidan qat‘i nazar sog‘lom tomonlariga mo‘ljallangan, bu mo‘jal ishonchga
- qaratilgan, ya‘ni "inson o‘zgarishi, uni qoniqtiradigan hayotni tanlashi, o‘z iqtidorini namoyon qilish usullarini izlashi mumkin" degan ishonchdir;
- konsultatsiya ko‘pincha mijozlarning hozirgi va kelajak kuniga yo‘naltiriladi; konsultatsiya odatda qisqa muddatli yordamga mo‘ljallangan (15 ta uchrashuvgacha);
- konsultatsiya shaxs va muhit o‘zaro ta’sirida yuzaga keluvchi muammolarga yo‘naltiriladi;
- konsultatsiyada konsultant ishtirokiga qadriyat sifatida qaraladi; konsultatsiya mijoz shaxsi rivojlanishiga va xulq-atvorini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan.

Tibbiyot psixologiyasining "Psixosomatika" bo‘limida duch kelinadigan psixologik muammolar ko‘lamiga to‘xtaladigan bo‘lsak, yuqoridagi fikrlar mazkur bo‘limga ham tegishli ekanligi shubhasiz. Klinik-psixologik amaliyotda ham deyarli har kuni inson hayotining turli jabhalari bilan to‘qnash kelishga to‘g‘ri keladi. Konsultant mijoz (u albatta qandaydir surunkali psixosomatik kasallik bilan xastalangan bemor) bilan birgalikda uning unchalik e’tiborga molik bo‘Imagan yoki o‘ta muhim muammolarini muhokama qiladi va unga yordam berishga harakat qiladi. Jumladan, kundalik tanlovlardan motivlarini anglab olishda, juda emosional muammolarni va shaxslararo munosabatlardagi chigalliklarni hal etishda, ichki nizolarni yengishda, kasallik va davolash jarayoniga munosabatni o‘zgartirishda va h.k. Ta‘kidlash joizki, hali hanuz mamlakatimizda tibbiyot muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish tuzilmasi aniq belgilanmagan. Tibbiyot psixologiyasida ishlovchi psixolog kim? U qanday maqomga ega? Faoliyatini qanday tashkil etganda u shifokorning yaqin maslahatchisi bo‘la oladi va bemor salomatligini tiklashda ko‘maklasha oladi? Psixosomatik kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarga psixologik konsultativ xizmat qanday tashkil etilishi kerak? Universitetlarni bitirgan psixolog kadrlar tibbiyot muassasalarida davolash jarayonlarida ishtirok etishi uchun qanday bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim? Hozircha bu savollarga to‘liq va aniq javob berish mushkul.

Ta‘kidlash joizki, psixolog-konsultant faoliyati haqida gap ketarkan tibbiyot muassasalarida psixokonsultativ tadbirlarni tashkil etishda psixodiagnostika bilan bog‘liq jarayonlar haqida ham gapirmasdan ilojimiz yo‘q. Bugungi kunda psixodiagnostik metodlardan ko‘r-ko‘rona foydalanish avj olib ketdi. qo‘llaniladigan metodikalarning ishonchlilik darjasasi, validligi, maqsadga yo‘naltirilganligi, interpretasiya muammolari nafaqat tibbiyot psixologiyasida, balki psixologiyaning boshqa tarmoqlarida ham dolzarblicha qolmoqda. Bundan tashqari, shuni ta‘kidlash joizki, amaliy psixolog faoliyati faqatgina psixodiagnostik muolaja bilan yakunlanib qolmaydi. Psixo konsultatsiyani faqatgina psixodiagnostik tadqiqotlar bilan chegaralash professional jihatdan noto‘g‘ridir. Bundan tashqari, gender effekt haqida gapirar ekanmiz, psixodiagnostik metodikalarni tanlashda ham psixolog - mijoz munosabatlarining to‘g‘ri shakllanishiga erishish uchun harakat qilish lozim.

Xo‘sh, tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritadigan psixolog-konsulantlar tayyorlashda nimalarga alohida e’tibor berish lozim? Qanday qilib talabalarda kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni yuqori darajaga ko‘tarish mumkin? Bir qator olimlar shu o‘rinda hech kim psixolog-konsultant bo‘lib tug‘ilmasligi, balki bu kasbga chuqur bilim, o‘tkir zehn, tinimsiz izlanish va mehnat bilan erishilishini ta‘kidlaydilar. Umumlashtirilgan holda aytish mumkinki, konsultantning samarali faoliyati uning shaxs xususiyatlari, professional bilimlari va maxsus ko‘nikmalari bilan belgilanadi. Ushbu omillardan har biri psixologik konsultatsiyaning asosi bo‘lmish sifatlari konsultativ aloqani ta‘minlaydi. Nazariy va amaliy tayyorgarlikning o‘rni muhimligi ta‘kidlansada, konsultant shaxsiga alohida e’tibor qaratiish lozimligini ta‘kilash joiz. O‘z vaqtida M. Balint va Ye. Balintlar "Bilimlarni kitob yordamida olish mumkin, ko‘nikmalar ish jarayonida yuzaga keladi, lekin ularning ahamiyati psixolog-konsultant shaxsisiz chegaralangandir. Agar psixologning shaxs xususiyatlari uni kerakli professional darajaga ko‘tarmasa, psixo

konsultatsiya va psixologik yordam yaxshi istaklarga ega hunarga aylanib qoladi" degan fikrni bildirib o'tgan edilar. Konsultatsiya muvaffaqiyatli bo'lishi uchun qanday shaxs sifatlari birligi bo'lishi lozim? Bu sohada tadqiqotlar ko'p bo'lsa-da, konsultant faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi shaxslilik sifatlariga javob mavjud emas. Odatda muvaffaqiyatli konsulantni tasvirlab, professionallar ham, mijozlar ham "samimiyl", "iliq", "e'tiborli", "ochiq", "qayishqoq", "irodali" kabi kundalik tushunchalarni ishlatadilar. Kasbiy tanlov bo'yicha konsultant uchun zarur bo'ladigan shaxslilik hususiyatlarini aniqlashga qaratilgan urinishlar bo'lgan. AQShning kasbiy orientasiya milliy assosiasiyasi shaxsning quyidagi sifatlarini ajratadilar:

- odamlarga chuqur qiziqish bildirish va ular bilan suhbatda sabrlilik;
- boshqa odamlarning ustanovkalari xulq-atvoriga sezuvchanlik;
- emosional barqarorlik va obekativlik;
- boshqa odamlarda ishonch uyg'ota olish;
- boshqa insonlarning huquqlarini hurmat qilish.

Jahon amaliy psixologiyasida konsulantlarini tayyorlash bo'yicha qo'mita konsultant uchun zarur bo'lgan shaxsning keyingi oltita sifatini ajratib ko'rsatadilar: Insonlarga ishonch, boshqa insonning qadriyatlarini hurmat qilish, ziyraklik, oldindan xulosa chiqarmaslik, o'z-o'zini tushunish, kasbiy burchini anglash.

G.S.Abramova quyidagi xususiyatlarga urg'u beradi: ziyraklik, obyekтивlik, egiluvchanlik, empatiya va konsulantning o'zida xususiy jiddiy muammolarning yo'qligi. Konsultant uchun o'ta zararli qirralarga u avtoritarlik, passivlik, tobeklik, odamovilik, mijozlardan o'z ehtiyojlarini qondirish yo'lida foydalanish, sabrsizlik, pulga munosabatda nevrotik ustanovkani kiritadi. A. Gombs o'z tadqiqotlarida shuni aniqladiki, muvaffaqiyatli konsultant odatda boshqalarni o'z xususiy muammolarini hal qilishga qodir, mas'uliyatni o'ziga ola biladigan bo'ladi. N.Strupp va hammualliflari (1999) "yaxshi konsultant" xarakteristikalarini o'rgana turib, e'tiborlilik, mijozni tinglay olish, iliqlik, do'stona maslahatlarda donishmandlik xislatlarini sanab o'tadilar [1].

A. Storr fikriga ko'ra, ideal psixoterapevt yoki konsultant ochiq, samimiy, o'zini turli toifadagi odamlar bilan bir xil ko'ra oladigan, lekin sentimental bo'lmagan, o'zini o'zi tasdiqlashga urinmaydigan, biroq o'z fikriga ega va uni himoya qila oladigan, o'z mijozlari muvaffaqiyati uchun turib bera oladigan bo'lishi kerak. Adabiyotlar tahlilini davom ettiradigan bo'lsak, ular asosida samarali konsultant modelini ko'rishimiz mumkin [11].

Autentlilik. J.Bugental fikriga ko'ra, mazkur sifat psixoterapevtning o'zakli sifati va ekzistensial qadriyati hisoblanadi. U autentlilikning uchta tarkibiy qismini ko'rsatib o'tadi: hozirgi lahzani to'liq anglash; mazkur lahzada hayot usulini tanlay bilish; o'z tanloviiga mas'uliyatni qabul qilish [6]. Autentlilik qandaydir darajada shaxsdagi juda ko'p xislatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Avvalambor, bu mijozga nisbatan samimiylikdir. Autentlilikka ega inson barcha munosabatlarda, butun xulq-atvorda ham o'zidek bo'lib qoladi. Agar u juda ko'p savollarga javob berishni bilmasa, buni tan oladi. Juda ko'p odamlardagi qiyinchiliklar shu tufayli ham yuzaga keladiki, ular o'zlarini bilmaydigan javoblarni izlab, o'zlarini turli rollarda sinab ko'rishga urinadilar va bunga juda ko'p kuch sarflaydilar. Agar konsultant o'z kasbiy roliga o'ralib qolsa, undan mijoz ham qochadi. Agar konsultant faqatgina texnik ekspert rolini o'ynasa va bunda o'z hissiyotlari, qadriyatlardan qochsa u ishonchni yo'qotadi. Biz mijoz hayoti bilan faqatgina jonli odam sifatida qolsakkina to'qnashishimiz mumkin. Konsultant ana shu nuqtayi nazardan egiluvchan bo'lishi uning mehnat samaradorligini oshiradi [12].

O'z tajribasiga ochiqlik. Bunda ochiqlik boshqa odamlar oldidagi ochiqlik sifatida emas, balki o'z hissiyotlarini qabul qilishdagi ochiqlikdir. Ijtimoiy tajriba bizni o'z hissiyotlarimizni, ayniqsa salbiy hissiyotlarimizni orqaga tashlashga o'rgatadi. Bolaga aytadilar: Jim bo'l, katta bola yig'lamaydi". Kattalarga ham shuni ta'kidlaydilar "Asabiylashma". Boshqalar tomonidan ko'rsatiladigan bosim qayg'u, qo'zg'aluvchanlik va qahrni siqib chiqarishga majbur qiladi. Samarali konsultant har qanday hissiyotlarini, hattoki salbiy hissiyotlarini ham ichiga yutmasligi kerak. Faqat ana shu holatdagina u o'z xulq-atvoriini nazorat qila oladi. Biz o'zimizdagi salbiy hissiyotlarni anglaganimizda vaziyatdagi u yoki bu xulq-atvor usulini tanlay olamiz va anglanmagan hissiyotlarga bizning xulq-atvorimizni buzishiga yo'l qo'yaymiz. Konsultant mijozdagi pozitiv o'zgarishlarga

ta'sir ko'rsatishga qodir bo'ladi, qachonki boshqalardagi va o'zidagi emosional reaksiyalarga nisbatan sabr-toqatli bo'lsa.

O'zini o'zi bilishni rivojlantirish. O'zini o'zi bilishdagi chegaralanishlar mustaqillikning chegaralinishiga olib keladi. Konsultant o'zi haqida qanchalik ko'proq bilsa, o'z mijozlarini ham ko'proq tushunadi. Ye. Kennedy fikricha, o'z ichimizda nima bo'layotganini eshitা bilmaslik stressga moyillikni kuchaytiradi va bizdagi samaradorlikni chegaralab qo'yadi, bundan tashqari, konsultatsiya jarayonida o'z anglanmagan ehtiyojlarini qondiruvchi qurbonga aylanish ehtiyojini oshiradi.

Shaxs kuchi va aynanlik. Konsultant o'zining kimligi, kim bo'lmoqchiligi va hayotdan nimani istayotganligini ham yaxshi tushunishi lozim. U hayotga o'z savollari bilan murojaat qiladi va o'z qadriyatlarini doim tekshirib turadi. Professional ishda ham, shaxsiy hayotda ham konsultant boshqa odamlar umidining oddiy aksi bo'lib qolmasligi kerak, u o'z ichki pozisiyasi bilan harakat qilishi lozim. Bu esa o'zini shaxslararo munosabatlarda qat'iyatli deb his qilishiga yordam beradi.

Noaniqlikka tolerantlik. Juda ko'p odamlar noaniq vaziyatlarda o'zlarini qulay his qilmaydilar. Biroq ta'kidlash joizki, shaxs kamoloti o'zining odatiy tajribadagi xulq-atvor ko'rinishlari bilan "xayrlashish"ga va "tanimagan" xududga ham qadam qo'yishga to'g'ri keladi. Ana shunday vaziyatlarda konsultant uchun o'ziga bo'lgan ishonch juda muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shunday vaziyatlar aslida konsultatsiya "to'qimasini" tashkil qiladi. Axir biz qanday mijoz va muammo bilan to'qnash kelishimizni hech qachon bilmaymiz, bunday vaziyatlarda qanday qarorlar qabul qilish ham biz uchun qorong'u bo'ladi. o'z intuisiyasiga ishonish, qabul qilinayotgan qarorlardagi qat'iyatlilik va tavakkalchilik qobiliyati - bu xislatlarning barchasi noaniqlikka duch kelgandagi zo'riqishni yengishga yordam beradi.

Shaxsiy mas'uliyatni qabul qilish. Holbuki juda ko'p vaziyatlar konsultant nazorati ostida yuz berar ekan, u ana shunday vaziyatlarda o'z mas'uliyatini his qila olishi lozim. O'z mas'uliyatini tushunish konsultatsiyaning har qanday holatida ongli qarorga kelishni osonlashtiradi. Shaxsiy mas'uliyatlilik tanqidni konstruktiv qabul qilishga yordam beradi. Bunday vaziyatlarda tanqid psixologik himoya mexanizmlarini chaqirmaydi, balki faoliyat samaradorligini yaxshilovchi foydali qayta aloqa bo'lib qoladi.

Boshqa odamlar munosabatlardagi chuqurlik. Konsultant odamlarni, ulardagi hissiyotlarni, o'ziga xos qirralarni baholabgina qolmasdan, buni muhokama qilmasdan va yorliq yopishtirmasdan amalga oshirishi kerak. Mijozlar bilan munosabatlarning bunday xarakteri juda muhim bo'lib, boshqa odamlar bilan yaqin va iliq munosabatlarni ushlab turish imkonini beradi.

Real maqsadlar qo'yish. Odatda muvaffaqiyat o'z oldiga katta maqsadlar qo'yishga undaydi, muvaffaqiyatsizlik esa aksincha. Ba'zida mazkur mexanizm buziladi. Samarali konsultant o'z imkoniyatlari chegaralanganligini e'tiborga olishi kerak. Avvalambor, har qanday konsultant u qanday katta tajribaga ega bo'lmasin, hamma ishni hal qiladigan donishmand va qudratli emas. Aslida hech qaysi bir konsultant har bir klient bilan to'g'ri munosabatlarni o'rnata olish va uning muammolarini hal qilish qobiliyatiga ega bo'lmaydi. Chunki bunday optimizm kundalik konsultatsiyada "sovuuq suv" vazifasini o'taydi va o'zini aybdor deb his qilishga olib keladi. Konsultant har tomonlama to'kis bo'lishga intiluvchanlikdan qochishi kerak. Konsultatsiyada biz o'z ishimizni "yaxshi" bajarishimiz mumkin, biroq ideal emas. O'z imkoniyatlari chegaralanganligini tan olmagan konsultant boshqa odamni to'liq bilishi va tushunishi mumkinligi haqidagi illyuziyalar bilan yashaydi. Bunday konsultant to'g'ri va foydali xulosa chiqarish o'rniga o'z xatolari uchun o'zini aybdor deb his qiladi va natijada uning faoliyati samarasiz bo'ladi. o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholashga erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni ko'zlash imkonini beradi.

Empatiya. Samarali konsultant faoliyatining ajralmas va eng kerakli qirralaridan biri empatiyadir. R.Mey malakali konsultativ va psixoterapeutik xizmat ko'rsatishning uchta muhim postulatini ajratib ko'rsatadi [5].

Konsultantning shaxs sifatidagi yetukligi. Konsultant o'z muammolarini hal qila oladigan, ochiq, sabrli va o'ziga nisbatan samimiy bo'lishi kerak.

Konsultantning ijtimoiy yetukligi. Konsultant boshqa odamlarga muammolarini hal qilib bera oladigan, ochiq va mijozlarga nisbatan samimiy bo'lishi kerak. Konsultantning yetukligi - bu holat emas, jarayondir. Shu narsa ta'kidlanadiki, har doim va har qaerda ham yetuk bo'la olmaymiz.

G.S.Abramova [1] fikricha, juda ko'p mijozlar psixologik konsultatsiya va psixoterapiya jarayonida qilinishi kerak bo'lgan vazifalardan birortasini ham bajarmagan holatlar bo'ladi. Biroq bu

o'zaro ta'sir samarasini belgilab berishi ham mumkin. Ish muvaffaqiyati ko'rsatkichi - bu mijozning unga psixologik yordam ko'rsatish jarayonida kechinayotgan holatlariadi o'zgarishlardir. Mazkur o'zgarishlarni ajrata bilish va mijozga ko'rsatib bera olish malakasi mutaxassisning asosiy qoidasidir.

V.S.Lebedeva fikriga ko'ra, psixologning eng muhim sifati -kasbiy kompetentligidir. U o'z ichiga kasbiy bilim, ko'nikma, malakalar va qobiliyatlarni oladi. Kasbiy kompetentlik xarakteristikalariga quyidagilar kiradi: kasbiy imkoniyatlar diapazoni, instrumentariyni etarlicha o'zlashtirish, kasbiy faoliyat usullari va texnologiyalari borasida yuksak malakaga ega bo'lish, novatorlik yondashuvlari va innovasion texnologiyalarni egallagan bo'lish, shaxsiy tashabbuskorlik va professional muloqotmandlik. Psixolog o'z kasbiy kompetentligini doimiy ravishda oshirib borishi, psixologiyaning maxsus muammolari bo'yicha seminarlarda ishtirot etishi ham uning kasbiy kompetentligini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Mualif fikricha, kasbiy kompetentlik talabalik yillaridan shakllanishni boshlaydi va uzoq yillar davom etadi. Har qanday kasbiy guruh faoliyatida o'z normalari, professional xulq-atvor qoidalari, professional etika bo'ladi. Psixologning kasbiy faoliyati alohida prinsiplar va etika qoidalari talab qiladi. Bular:*Kasbiy kompetentlik prinsipi. Boshqa odamga zarar yetkazib qo'ymaslik prinsipi. Ilmiy asoslanganlik va obyektivlik prinsipi. Mijozni hurmat qilish prinsipi. Kasbiy konfidensiallikka rioya qilish prinsipi.*

So'nggi yillarda juda ko'p mamlakatlar psixologlari tomonidan professional faoliyat etikasi ishlab chiqilgan. Biroq fikrimizcha, amaliy faoliyatda psixologik xizmatda aynan etnomadaniy xususiyatlarni hisobga olish ham juda muhim ahamiyatga ega. Psixologik kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish, kasbiy malakalarni puxta shakllantirish, amaliyotlar, praktikumlar, laboratoriya mashg'ulotlari, maxsus seminarlar, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik maslahat, psixoterapiya, trening, sosial trening faoliyatini qayta qurish, davlat ta'lim standartini amaliyotga tatbiq qilishni jadallashtirish muammolari yechimi davlat ahamiyatiga ega ijtimoiy voqekdir. Buning uchun yagona prinsipga asoslangan kadrlar tayyorlash ta'lim tizimi mohiyatidan kelib chiqqan holda o'quv rejasi va dasturlarini ayrim jihatlarini qayta ko'rib chiqish hamda tegishli o'zgartirishlar kiritish, ularni zamon talabiga javob beradigan qilib tuzish maqsadga muvofiq.

Muammoning eng birinchi mazmuniy tasvirlaridan biri S.L.Rubinshteyn tomonidan ilgari surilgan insonning boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlari ham uning o'z faoliyatiga - jasorat ko'rsatish, fidokorona mashaqqatli mehnatga qobiliyati, ijodiy bezovtalik yoki aksincha xotirjamlikka, hamda o'z-o'ziga - o'z kuchiga ishonish, kamtarlik yoki o'zi haqidagi fikrlarning haddan ziyod bo'rttirilishi, manmanlik, o'z kuchiga ishonmaslikka bo'lgan munosabatini belgilab beradi, degan g'oyasida mujassamlashgan [6]. Zamonaviy ilmiy tafakkurga erishish, kuchli texnikaviy inqilob tibbiy amaliyotni uzlusiz ravishda boyitib borish va unga yangidan-yangi tadqiqot, diagnostika va davolash metodlarini kiritib borishni taqozo etmoqda. Ushbu obyektiv jarayonlar natijasida tibbiy faoliyat predmetlari va sferasida yuqori darajadagi differensiallashuv yuzaga kelmoqda.

Zamonaviy sog'liqni saqlash sohasi tibbiy mehnat sohasini, uning subyektdan yuqori professional ma'lumotni talab etuvchi va professional tibbiy faoliyat bilan bir qatorda "birlamchi" va "chuqurlashtirilgan" mutaxassislik sifatida belgilaniluvchi majmualarni ko'rib chiqadi.

Adabiyotlar.

1. Абрамова Г.С. Психологическое консультирование. Академия.М. 2007.
2. Кочюнас Р. Основы психологического консультирования, Академпроект. М. 1999.
3. Конечный Р., Боухал М. Психология в медицине. М. 1999.
4. Маркова А.К. Психология профессионализма. – Знание. М.: Дрофа, 1996. – Б.128с.
5. Мэй Р. Психологическое консультирование. Независимая фирма. Класс М. 2008 г.
6. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. Питер серия Мастера психологии. М. 1990.
7. Shoumarov G'. B., Qodirov U. D., Xojiboyev U. Oilaga psixologik yordam ko'rsatish asoslari. Tafakkur Bo'stoni. T. 2014
8. Bugental J. F. T. The Art of Psychotherapist. N. Y.: Norton, 1987.
9. Gelso C. J., Fretz B. C. Counseling Psychology. N. Y.: Holt, Rinehart and Winston, 1992
10. Kennedy E. On Becoming Counselor: A Basic Guide for Non-Professional Counselors. N. Y.: The Seabury Press, 1977.
11. Storr A. The Heart of Psychotherapy. N. Y.: Methuen, 1980

12. Yalom I. D. The theory and practice of group psychotherapy. N.Y., 1995.P.26-27.

Ю.Нарметова
ПРОБЛЕМА ПОДГОТОВКИ
ПСИХОЛОГОВ КАДРОВ,
ДЕЙСТВУЮЩИХ В МЕДИЦИНСКИХ
УЧРЕЖДЕНИЯХ

В статье рассматриваются проблемы подготовки психологических кадров в медицинских учреждениях. В статье изложено размышление, какими профессиональными навыками, квалификацией и знаниями должен обладать психолог-консультант, работающий в медицинских учреждениях. Также имеются предложения по подготовке психологов специалистов, в формировании их основных профессиональных качеств для медицинских учреждений.

Ключевые слова: медицинская психология, психолог-консультант, психодиагностика, консультация, профессиональные качества, профессиональная подготовка, профессиональное мастерство.

Yu.Narmetova
THE PROBLEMS OF TRAINING
PSYCHOLOGIC STAFF WORKING AT
MEDICAL ESTABLISHMENTS

In the article the problems of psychological training of personnel in medical institutions are considered. The article presents a reflection, what professional skills, qualifications and knowledge required of the psychologist conducting its activities in medical institutions and what key professional skills – the staff in this sphere of activity. Also there suggestions for the training of psychologists specialists in the formation of their core competencies for medical facilities within the university are made.

Keywords: medical psychology, counseling psychologist, psychological diagnostics, psychological counseling, essential competencies, professional training, professional skills.

UDK: 37:681.14

PEDAGOGNING AXBOROT-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI TA'LIM
FAOLIYATIDA LOYIHALASH

I.A.Eshmamatov

O'zbekiston milliy universiteti, katta ilmiy-xodim izlanuvchi

Annotatsiya. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish pedagogning faoliyat natijalarini baholaydi va ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa pedagogning AKT laridagi kasbiy kompetentligini oshiradi.

Kalit so'zlar: informasontexnologiya, innovasion, dolzarb, kommunikatsiya, axborot vositapari, adabiyotlarfondi, elektronkutubxona, vosita.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, hayotimizning barcha jabhalarida bo'lganidek, ta'limgiz tizimida ham islohotlar yo'liga qo'yildiki, bunda ta'limgiz-tarbiya jarayoniga zamonaliv axborot texnologiyalarini olib kirish, ta'limgizni kompyuterlashtirish muammolarini hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.O'qituvchi ta'limgiz mazmunining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi jarayonini boshqaradi, nazorat qiladi, o'qitishning maqsadlariga erishilganlik darajasini aniqlaydi. O'quvchilar bunga javoban teskari aloqa vositasida o'zlarining faoliyatlari haqida o'qituvchiga axborot beradilar. Shu tariqa ta'limgiz jarayoni yaxlit tizimni tashkil etadi.


Ta'limgizning asosiy maqsadi aksariyat hollarda talabaga bilimni tayyor holda berishdan, ma'lumotlarni ularning esida saqlab qolishni ta'minlashdan iborat bo'lgan. Unda o'quvchilarning kelgusi faoliyatida ma'lum amallarni bajarishi, boshqaruv va kasbiy masalalarni hal qilishlariga to'g'ri kelishi e'tibordan chetda qolib ketadi.

Ta'limgizning asosiy vazifasi o'quvchilarda bilimlar hosil qilish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda ular tafakkurini takomillashtirishdan iborat ekan, o'quvchilarga o'qish, yozish, gapirish, tinglash, fikrlash ko'nikmalarini birdek rivojlantirib borish lozim. Bu maqsadni amalgalash uchun dars jarayonida turli mazmundagi mashqlarni bajartirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu tizimda o'qituvchining roli juda muhim. Negaki, u ta'limga maqsadi, ta'limga maqsadiga erishish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy vazifalar, maqsadga erishish va umumiy natijalar orasidagi bosqichlarni qanday nazorat qilish, qanday yordamchi vositalarni qo'llash, ta'limga oluvchi haqida qanday ma'lumotlarni yig'ish, o'qitishning qanday usullarini qo'llash lozimligi, ta'limga oluvchining baho mezonlari qanday bo'lishi kabi ta'limga uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan elementlarni aniqlaydi.

Kompyuter va kommunikatsiya vositalari asosida o'qitish va o'qishning ta'limga tizimiga kirib kelganiga ancha bo'lgan bo'lsa-da, «kompyuterli ta'limga qanday tashkil qilinishi lozim va unda o'qituvchining roli nimadan iborat bo'ladi» degan nuqtayi nazar tadqiqotchilar tomonidan qizg'in munozaralar davom etmoqda. Tahlillar kompyuterli ta'limga o'qituvchi faoliyatini turli yo'nalishlar bo'yicha qisman o'rganilganligini ko'rsatadi. Masalan, ispaniyalik olimlar A.Badia, E.Barberà va C.Sigalés to'rt shakldagi kompyuterli ta'limga tashkil etishda o'qituvchining o'quv kurslaridagi rolini tahlil qilgan : Bu o'rganilgan kurslarda kompyuterli ta'limga o'qituvchining rolini quydagicha tahlil qilishimiz mumkin:

- shakldagi ta'limga mustaqil o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, unda o'qituvchi va o'quvchining bevosita muloqoti nazarda tutilmagan.
- shaklda o'quvchi ekrandagi ma'lumotlar bilan tanishish bilan birga o'qituvchi va o'quvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega.
- shaklda, asosan, o'qituvchi va o'quvchi yuzma-yuz muloqotda bo'ladigan ta'limga nazarda tutiladi, bu jarayonda ham kompyuter va kommunikatsiya vositalaridan foydalaniladi.
- shakldagi ta'limga biror muammoni yechish maqsadida o'qituvchi va o'quvchining bevosita muloqoti asosida tashkil etiladigan o'quv jarayoni. Muammoni yechishning bir necha bosqichida axborot kommunikatsiya texnologiyalar vositalaridan foydalaniladi.



1-rasm

Biz ta'limga kompyuterlashtirishda ishtiroy etadigan 2 toifa o'qituvchilar faoliyatini tahlil qilamiz:

- ta'limga kompyuterlashtirish maqsadida pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashda ishtiroy etayotgan o'qituvchi faoliyati;
- tayyor dastur vositasidan foydalanib ta'limga tarbiya jarayonini tashkil etadigan o'qituvchi faoliyati.

Dastlab pedagogik dasturni loyihalashni loyihalashda ishtiroy etadigan o'qituvchining faoliyati haqida to'xtalamiz.

Tabiiyki, kompyuter yordamidagi ta'limga samaradorligi pedagogik dasturni loyihalashning sifatiga bog'liq. Past sifatli dastur ta'minoti kompyuterning ta'limga vositasini sifatidagi imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishga imkon bermaydi va o'qitish samaradorligini pasaytiradi. Shu bois pedagogik

dasturni loyihalashlar uchun didaktik materiallarni tanlash, o‘quv materialiga pedagogik ishlov berish, ta’limga nisbatan kompyuterni qo‘llash bosqichlari va ketma-ketligini aniqlash bilan bog‘liq qator masalalarni o‘rganish va ularga javob izlash dolzARB masalalardan hisoblanadi. Bularning barchasi o‘qituvchi faoliyatida aks etadi.

Ma’lumki, an’anaviy ta’limda ta’lim maqsadlari, mazmuni, o‘qitish uslublari, nazorat natijalarini baholash kabi ko‘plab jarayonlar tizimsiz, pala-partish tarzda amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, ta’lim ilmiy loyihalashtirilmaydi. Ta’limni kompyuterlashtirishda pedagogik texnologiyadagi yetakchi hisoblangan ta’lim maqsadi, mazmunini loyihalash eng muhim muammolardan biri bo‘lib qoladi. Ularni quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

- o‘quv fanlarini o‘rganishda, eng avvalo, tayanch tushunchalarni o‘rganish darajasini aniqlash va ularni o‘rganishni loyihalash;
- tayanch tushunchalarning ta’lim standartlari, o‘quv dasturlariga mosligi, o‘quvchining kelgusi faoliyati bilan aloqadorligini loyihalash;
- o‘qitish uslublarini loyihalash;
- o‘quvchining tayyorgarlik darajasini loyihalash;
- o‘qitish mazmunining qo‘yilgan maqsad bilan uzviyligini ta’minalash;
- ta’lim uslublarini, ularning qaysi birini darsning qaysi bosqichida qo‘llash zarurligini oldindan loyihalash;
- turli tipdag‘i darslarda bilim va ko‘nikmalarning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini loyihalash;
- o‘qitish jarayonida nazorat va tekshirishning turli usullaridan foydalanishni loyihalash;
- har bir darsda zamonaviy ma’lumotlardan unumli foydalanishni loyihalash;
- o‘quv materiali matnlarini tayyorlashda o‘quv maqsadlariga erishish yo‘llari, vositalari, erishiladigan natijalarni oldindan qayd etish;
- o‘quv predmeti bo‘yicha maqsad va vazifalar bazasini yaratish, baholash orqali uni to‘ldirib borishni loyihalash va h.k.

Yangi materialni o‘rgatish jarayoni o‘quv materialining xususiyatlardan kelib chiqib tashkil etiladi. Nazariy material hajm jihatidan keng bo‘lmasa uni qismlarga bo‘lmay o‘rgatib, mustahkamlashga o‘tgan ma’qul. O‘quv materiali hajm jihatidan keng bo‘lib, uni o‘zaro bog‘langan qismlarga ajratib o‘rgatish imkoniyati bo‘lsa, qismlar bo‘yicha tushuntirish foydali bo‘ladi. O‘quv materialini o‘zaro mantiqan bog‘langan qismlarga ajratib o‘qitish o‘zlashtirilgan bilimning tuzilishini mumkin qadar ongli his qilishga, bu bilimning oldin o‘rganilgan bilimlar bilan aloqadorligini fikran tasavvur etishga olib keladi, bularning barchasi o‘qituvchi tomonidan o‘quv materialiga pedagogik ishlov berish jarayonida hal qilinadi. Shu bois bu jarayon xususida kengroq to‘xtalib o‘tamiz.

Ma’lumki, ta’lim mazmunining asosiy tarkibini o‘quvchilarga o‘rgatish mo‘ljallangan o‘quv materiali tashkil etadi va u o‘z navbatida o‘quv elementlariga ajratiladi. Shuningdek, o‘quv materialining o‘quv topshirig‘i, o‘quv savoli, o‘quv ko‘rgazmasi kabi qator shakllari mavjud.

O‘quv materiali har bir o‘quv predmeti bo‘yicha o‘quv dasturi va darslikda ma’lum bilimlarning modeli tarzida beriladi. Ta’lim jarayoni o‘quv materialini o‘rganishdan iborat ekan, ta’lim jarayoni boshlangunga qadar o‘quv materialini tahlil etish va unga pedagogik ishlov berish lozim. O‘quv materialiga pedagogik ishlov berish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Bunday tadbir o‘quv materialini uning eng kichik birligi bo‘lgan o‘quv elementlariga ajratishdan boshlanadi. Kompyuterli ta’limda ajratilgan o‘quv elementlari ma’lum tizimga solinadi va har bir o‘quv elementi mazmunini ochib beruvchi o‘quv materiali matni tayyorlanadi. «Har qanday o‘qitish tizimida markaziy o‘rinni bilimlarning tayanch tushunchalari egallaydi. Agar ular uslubiy jihatdan mufassal ishlab chiqilmasa, o‘qitishda yuqori samaraga erishib bo‘lmaydi» [1;2]. Shuningdek, «Bilimlarning tayanch tushunchalari avtomatlashgan o‘qitish tizimida muhim o‘rin tutadi: ular mustaqil o‘rganish predmeti psixologik xususiyatlarini aniqlashda tashxis elementi, ta’lim jarayonini optimallashtirish parametri va h.k. hisoblanadi» [1;2].

O‘quv materiali o‘zaro mantiqan bog‘langan qismlardan iborat. Shu tufayli uni qismlarga — o‘quv elementlariga ajratib tushuntirish samarali hisoblanadi. Bayon qilish uslubi o‘quv materialini elementlarga ajratib o‘rgatishda eng qulay ish uslubi sanaladi. Qolaversa, berilgan axborotning hajmi qancha kichik bo‘lib, qancha ko‘p tekshirilsa, ta’lim jarayoni shuncha muvaffaqiyatli boshqariladi. Bayon qilinadigan materialning har bir bo‘lagi mazmunan boy va o‘quvchilarni faoliyatga yetaklovchi

bo‘lishi lozim. Negaki, «O‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga qiziqtirishning asosiy manbalaridan bira ta’lim mazmunidir. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga qiziqishi ortishi uchun ta’lim mazmuni didaktik prinsiplarga to‘la amal qilgan holda yangi hayotiy misollar, dolzarb muammolar, fan yangiliklari bilan boyitilib, o‘quvchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilishi lozim». Bunda tashqari, xorij pedagog va fiziologlari S.Papert ([3], J.Piaget [4], L.Vygotsky va boshqalar yoshlarga ta’lim-tarbiya berishning yangicha muhitini, yangi instrumental vositalar va texnologiyalarni o‘ylab topishni taklif qiladilar. Ularning fikricha, o‘quvchiga tayyor bilimlarni berishdan ko‘ra o‘quvchining o‘zini bilimlarni «kashf» qilishga o‘rgatish lozim. Bunda o‘qituvchining roli o‘quvchilarning bilimlarni «kashf» qilishlari uchun zaruriy muhitni yaratishdan iborat bo‘ladi. Bunday muhit va undagi obyektlarni yaratishda kompyuter asosiy vosita bo‘la olishini S.Papert alohida ta’kidlaydi.

O‘quv materialiga pedagogik ishlov berishning II bosqichida o‘quv savollari ishlab chiqiladi. «Javobi ta’lim mazmunida berilgan so‘roq o‘quv savolidir». O‘quv savollari har bir o‘quv elementi xususiyatlarining o‘quvchi ongida qanday shakllanganligini aniqlash imkonini berishi lozim.

Avvalo, o‘qituvchi tomonidan tayyorlanadigan savollar, yozma va amaliy topshiriqlar, o‘quv-tajriba ishlari o‘quvchilar yoshiga mos, ular uchun tushunarli, aqliy kuchlarini o‘sirish mazmuniga ega bo‘lishi kerak. Bu savol-topshiriqlar mazmuni o‘quvchilarda qiziqish, taajjub, ajablanish hissini uyg‘otadi. Ana shu qiziqish o‘quvchini tafakkur olamiga olib kiradi. Obyekt bilan hissiy bilish jarayonlari shu qadar bog‘lanib ketadiki, bu bilish faoliyatining yuqori chegara darajalarining namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Muloqot jarayonida kompyuter tomonidan beriladigan savollar mazmuni muhim ahamiyatga ega. Savol aniq bo‘lishi, bir qiymatli javobni ko‘zlashi lozim. Javobi faqat «ha» yoki «yo‘q»dan iborat bo‘lgan va o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lgan juda sodda narsalar haqidagi savollardan foydalanish o‘rinsizdir. Ular ko‘zlangan maqsadga olib kelmaslik bilan birga o‘quvchilarning zerikishlariga va muloqotdan bezishlariga sabab bo‘ladi. O‘quv materialiga pedagogik ishlov berishning bu bosqichida mavzuga mos o‘quv topshiriqlari ishlab chiqiladi.

O‘qitish jarayonini, - deb yozadi K.Sholomiy, — shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqichda o‘quvchilar kerakli ma’lumotlarni eslab qolishlari kerak, masalan, tushuncha ta’rifini, uning xususiyatlarini, qoidaning ifodalanishini va h.k. Bunda o‘quvchilar ularni masalalarni yechishda qo‘llay olmaydilar. Ikkinci bosqich mashq qilish bosqichi bo‘lib, birinchi bosqichda o‘rganilgan bilimlar masalalarni yechishda qo‘llaniladi va o‘rganilgan bilimlar ko‘nikma va malaka darajasiga ko‘tariladi. O‘quvchi bayon qilingan materialni to‘liq o‘zlashtirishi mumkin. Biroq aksariyat holda shu material bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quv materialida bayon qilinmagan savollarga javob berishga qiynaladi yoki bilimlarni amaliy masalalarni yechishga tatbiq qila olmaydi. Bunday muammoni bartaraf qilish uchun mashqlar bajartirish muhim o‘rin tutadi.

Pedagogika fanida mashq, topshiriq va masalalar o‘quvchilarda mustaqillik, tadbirkorlik va faollik, fikrlash faoliyatlarini shakllantirishga qaratilgan yetakchi didaktik vosita ekanligi ko‘rsatilgan. Mashqlarni bajarish natijasida o‘quvchilarning fikrlash faoliyati rivojlantiriladi. Shu bilan birga ularning ko‘proq mustaqil fikrlashiga erishiladi, bilish faoliyatida ko‘proq ijodkorlik rivojlantiriladi. O‘quv materialini o‘zlashtirishda shakllantirilgan aqliy faoliyat tafakkurning doimiy rivojlanishiga qaratiladi. Shuning uchun mashq o‘quvchilarning o‘qishida tushunchalarni o‘zlashtirish va qo‘llash jarayonini, ayniqsa, ularni boshlang‘ich shakllantirish jarayonini yengillashtirishda muhim shart bo‘lib hisoblanadi. Zero, «Materialni ongli o‘zlashtirish va xotirada mustahkam saqlashning eng muhim yo‘li mashq va mustaqil ishni doimiy bajarib borishdan iborat».

An‘anaviy o‘qitish tizimida zarur malakalarni shakllantirish ko‘p sondagi mashqlarni takroran bajartirish orqali erishishga asoslangan. Mavjud darslik va to‘plamlarda bir xil turdag‘i mashqlarning ko‘p sonda berilishini ham shu bilan izohlash mumkin. Bizningcha, malaka hosil qilishda mashqlarning bu qadar yuzaki bajarilishini takrorlamasdan, mashqlarning har xil turini tanlash va ularni o‘quvchilar tomonidan ongli, faol bajarishlarini ta‘minlash orqali erishish lozim.

O‘qituvchi o‘quv materialiga pedagogik ishlov berish jarayonida qiyinchilik darajasi yuqori, o‘rtalig‘i bo‘lgan topshiriqlarni va ularga mos nazorat jarayonlarini loyihalashtiradi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchiga sezdirmagan holda unga individual yondashadi. O‘qishda qiyinchilik sezayotgan o‘quvchilarda o‘ziga, bilimiga, iqtidoriga ishonch hissini uyg‘otadi, ulardag‘i ikkilanishlarga barham beradi. Bilimi o‘rtalig‘i va yuqori o‘quvchilarni esa ijodiy izlanishga, ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga undaydi. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning bilimini baholash ham oldindan loyihalanadi. O‘quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash juda murakkab va nozik

jarayon. Shu bois u o‘qituvchidan pedagogik mahorat bilan birga sezgirlikni ham talab qiladi. Xulosa qilib aytganda bunday loyihalash tizimi ta’limning sifati oshirishga va talabalarning qiziqishiga, ilmiy dunyoqarashiga kengaytirishiga va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar.

1. Андреев А.А. Дидактические основы дистанционного обучения в высших учебных заведениях. Дисс. ... д-ра пед. Наук. 1999. – 289 стр.
2. Гришкун В.В. Организация компьютеризированного обучения на базе иерархических данных. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. -Алматы, 1995. -18стр.
3. Rosatelli M.C., Self J.A., Thiry M. LeCS: a collaborative case study system, in G. Gauthier, C. Frasson and K. VanLehn (eds.), Intelligent Tutoring Systems, Berlin: Springer-Verlag, 2000. -P. 232-241стр.
4. Slavin R.E. Cooperative learning: theory, research and practice, Prentice Hall, NJ Warmkessel M.M., McCade J.M. 1997, Integrating information literacy into the curriculum, Research Strategies, Volume 15, Issue 2, 1990. -P. 80-88.

И.А.Эшмаматов

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО- КОММУНИКАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Использование информационно-коммуникационных технологий влияет на оценку деятельности педагога, а также способствует совершенствованию знаний, умений и навыков в научной деятельности. Тем самым формируется профессиональная компетенция педагога по использованию ИКТ.

Ключевые слова: информационная технология, инновация, актуальны, коммуникация, информационные средства, литературный фонд, электронная библиотека, средства.

I.A.Eshmamatov

DESIGNING OF INFORMATION AND COMMUNICATION COMPETENCE OF THE TEACHER IN EDUCATIONAL ACTIVITIES

The use of ICT effects on teacher’s activity evaluation and assists in his/her scientific knowledge, skills and habits’ development as well. Therefore, ICT professional competence of a teacher is being enhanced.

Keywords: information technology, innovation, actual, communication, informative facilities, literary fund, electronic library, facilities.

**UMUMTA'LIM MAKtablARI RAHBARLARI KASBIY
KOMPETENTLIGINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI**

A.M.Shonazarov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, katta o`qituvchi

E-mail: ashonazarov83@mail.ru

Bugungi kunda zamonaviy ta'lismi direktorlarining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rinn tutadi. Ta'lismi boshqaruvidagi bunday o'tkir muammoni hal etish va qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida belgilangan vazifalarni amalga oshirish o'ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanganligi uchun ham ushbu maqloda umumta'lim maktablari rahbarlari kasbiy psixologik mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar:layoqatlilik, qobiliyat, boshqaruv, rahbar, kompetentlik.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda jiddiy islohotlarni amalga oshirish davri boshlandi. Ushbu islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishda Prezidentimiz I.A.Karimovning oqilona boshqaruv siyosatiga asoslangan holda yurtimizni jahon miqyosida barcha tarmoqlarda ijobji natijalarga erishib kelayotganligi barchamizga sir emas.

Darhaqiqat, yurtboshimiz I.A.Karimovning tashabbusi bilan yaratilayotgan ijtimoiy boshqaruvga asoslangan erkin, demokratik fuqorolik jamiyati barpo etish yo'lidan borayotganligimiz va aynan ushbu yo'ladi rivojlanishda ta'lismi o'rni hamda ahamiyati katta ekanligi ham fikrimizni yorqin dalilidir. Shuning uchun ham ta'lismi tizimini yanada takomillashtirish, ijtimoy tarmoqda ushbu sohani o'rnini yuksaltirish hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biridir.

Ta'lismi boshqaruvidagi bunday o'tkir muammoni hal etish va qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida belgilangan vazifalarni amalga oshirish hamda bu borada tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish o'ta muhim masalalardan biridir. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, hozirgi zamon ta'lismi rivojlantirish va samaradorligini oshirish, ta'lismi muassasalarini rahbar kadrlarini faoliyatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda ularning zimmasiga ko'plab vazifalarni yuklaydi. Bu yo'ladi masalalarni hal etish, davlat va jamiyatni yanada rivojlanishiga olib keladi.

Ta'kidlash joizki, o'rganilayotgan tadqiqot doirasidagi izlanishlarni ilmiy asosda talqin qilinganda zamonaviy ta'lismi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligining mexanizmlarini tadqiq etish davomida mavzuni ahamiyatli tomonlariga e'tiborni qaratish lozim.

Masalan, M.A. Choshanov fikricha kompetentlik bu nafaqat muammo mohiyatini tushunish, balki uni hal etish metodlarini egallashdir. Shu sababli ham zamonaviy ta'lismi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini o'rganish uni yanada keng qamrovli tadqiqot markazi ekanligidan dalolat beradi.

Zamonaviy ta'lismi doirasida kasbiy kompetent rahbarlarni topib, ulardag'i mavjud ijtimoiy-apsixologik, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy bilimdonligiga oid qobiliyatlarni nazariy va amaliy tomonidan o'rganib, kasblar misolida boshqaruvga doir farqlilikni keng qamrovli tahlil qilib tavsiyalar ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbiq ta'lismi uchun katta ahamiyatga kasb etadi.

Zamonaviy ta'lismi rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyatini asosida uning intellekt va ahloqiy rivojlanishidir.

Dunyodagi rivojlangan davlatlar qatori yurtimizda ham ta'lismidagi islohotlar jarayonida ta'linda boshqaruvni rag'batlantirish muhim yo'nalish sifatida kelmoqda. Rahbarning kasbiy layoqatlilikini va kompetentlilik fenomenini tadqiq qilishga bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ham o'z ifodasini topgan. Shu sababli zamonaviy ta'lismi rahbarlarining kasbiy layoqatlilik – ishonchlilik, kompetentlilik sifatlari bilan birgalikda rahbarlarning kasbiy – individual hodisa sifatida boshqaruvchi madaniyatini tavsiflashga pedagog-psixolog olimlar tomonidan urg'u berib kelgingan.

Xususan, kasbiy layoqatlilik tushunchasi haqida V.A.Slastenin o'z e'tiborini qaratib, u pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimi direktorlarining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ayniqsa, ta’limni modernizatsiyalash bilan bog‘liq islohotlarning joriy bosqichida ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentlik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Umumta’lim tizimi rahbarlarini boshqaruv faoliyatini amaliy, psixologik, metodik, ishbilarmonlik, tashabbuskorlik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda ularni kasbiy kompetentligini shakllantirishga mansub ilmiy bilim va amaliy ko‘nikmalar bilan boyitib borish zarurdir.

Direktorlarning boshqaruv faoliyatini tadqiq etish davomida kasbiy kompetentlik tashxisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativ, boshqaruv va proyektiv o‘quv guruuhlarini kiritish lozim.

Ta’lim tizimi rahbarlarining boshqaruvga asoslangan bilish faoliyati ko‘p jihatdan o‘rganilayotgan tarmoqning murakkabligi, dinamikasi, nostandardligi, ijtimoiy hodisalarini ajratib turadigan chegaralarning ta’siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbатdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi. Shuning uchun ham rahbarlardagi o‘z-o‘zini tartibga solish xususiyatlari o‘z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, qo‘l ostidagilarga qaratilgan o‘z xatti-harakatini qat’iy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy umumta’lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligining quyidagi turlari farqlanadi:

1.Boshqaruvda psixologik o‘ziga xoslik kompetentligi, bunda rahbar kasbiy faoliyatini etarlicha yuqori darajada egallaganlik, o‘zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati bilan tavsiflanadi.

2.Rahbarning oilada va ijtimoiy tizimda shakllanganlik kompetentligi, bunda boshqaruvchi axloqiy sifatlari hamda odobliligi bilan izohlanadi.

3.Umumta’lim maktabi rahbarining qo‘l ostidagilarni tinglay olish va muomala qila bilish kompetentligi, bunda rahbar intellektual salohiyat, hissiy sifatlar bilan farqlanadi.

4.Boshqaruvchini amaliy ko‘nikmalar, o‘z-o‘zini boshqara olish kompetentligi, bunda rahbar shaxsining irodaviy sifatlari, ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar bilan tavsiflanadi.

Xorijiy davlatlarda shakllangan an'anaga ko‘ra rahbarning kasbiy malakasi mutaxassisligiga doir kompetentligi, uni shakllantirishga qaratilgan ta’lim tizimi esa – bilim, ko‘nikma va malakalar darjasini bilan belgilanadi.

Olib borilgan tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan ta’lim tizimi kompetent rahbarlarni tayyorlashda pedagog kadrlarni kasbiy va shaxsiy psixologik sifatlarini hisobga olish ustuvor masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Umumta’lim maktablariga kompetent rahbarlarni tayyorlashda muhim pedagogik va psixologik shart-sharoitlar sifatida quyidagi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni e’tirof etish mumkin:

- mutaxassisligiga doir zamonaviy talablarga javob bera oladigan me’yoriy va o‘quv metodik hujjatlarni bilish mexanizmi;
- kasbiy sifatlarni rahbarlikka bog‘lash va tegishli ilmiy bilimlarni egallaganlik mexanizmi;
- rahbarda kasbga oid bilim, ko‘nikma va malakalarining yuksakligi, undagi psixologik kasbiy kompetentlik darajasining etarlicha shakllanganligi hamda ilmiy salohiyatga ega bo‘lishi mexanizmi;
- boshqaruvchini ijtimoiy hamda o‘quv-texnologik, o‘quv jarayoni nazariy va amaliy tomondan bilishi mexanizmi;
- moddiy-texnik jihatdan etarlicha bilimdonlik mexanizmi;
- boshqaruvda tashkiliy, o‘quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo‘lga qo‘yya olish qobiliyatiga ega bo‘lish mexanizmi;
- rahbar ta’lim muassasasini boshqarishda iqtisodiy ya’ni, moliyalashtirishdagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish mexanizmi.

Zamonaviy ta’lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini takomillashtirish to‘g‘risidagi ta’rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: Umumta’lim tizimi rahbarining kasbiy kompetentligi – boshqaruv faoliyatida kasbiy kompetentlikni

muhim tomonlaridan biri bo‘lib, rahbarning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha faollashuvga asoslangan ehtiyoj, qobiliyat, layoqatlilik, mahorat, bilimi va qiziqishlarini o‘zida namoyon etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda rahbar ta’lim tizimini boshqarishda:

- boshqaruvni tashkil etishda ijodiy izlanishlar va talabchanlikka moyil bo‘lishi;
- rahbarda o‘zi bajarayotgan ishlarni samarali kechayotganini ko‘ra bilish qobiliyatining mavjudligi;
- rahbar kundalik faoliyatida o‘z-o‘ziga hisob berishi hamda faoliyatidagi kamchiliklar, erishilgan natijalarini tahlil qila olish qibiliyat;
- boshqaruv faoliyatida nazarda tutilgan ishlarni loyihalashtirish qibiliyat.

Ayni paytda ta’kidlash lozimki, rahbarning boshqaruv faoliyatidagi psixologik kasbiy kompetentligini shakllantirishda to‘la kasbiy shakllanishga intilishi, ta’lim tizimini boshqarishdagi ijtimoiy vaziyatlarni idrok etishi, shuningdek, kasbiy qiziqishlariga doir bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi lozim. Boshqaruvda kasbiy qobiliyat, layoqatlilik, boshqaruv doirasidagi bilimlar, ko‘nikmalar, malaka o‘ta muhimdir. Ushbularni namoyon etishga ko‘pchilik rahbarlarda chuqur va doimiy qiziqish paydo bo‘ladi. Ushbu tadqiqotlarda doimiy pedagogik tajribaga ega bo‘lgan alohida kompetent direktorlarni boshqaruvdagi layoqatliligi va qobilyatlarini hisobga olish boshqaruvdagagi mavjud mammolarni hal etishda yordam beradi.

Rahbar o‘z pedagogik jamoasini boshqarishda ular bilan yuzma-yuz suhbatlashish hamda ularni nazorat qilish, nazariy va amaliy tomonidan qo‘l ostidagilarga nisbatan bilimli, tajribali, shuningdek, malakali bo‘lishlari shart.

Kompetentlik - deganda insonning faoliyat predmetiga shaxsiy munosabatidan iborat mos layoqatga egaligi ham tushuniladi.

Pedagog olim N.A.Muslimov kompetentlikni quyidagicha ta’riflagan: «Kompetentlik bu rahbarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatining amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi».

A.X.Mahmudov o‘z ilmiy tadqiqotlariga tayangan holda kompetentlikka quyidagicha ta’rif bergen: «kompetentlik bu doimo o‘zgarib borayotgan sharoitlarda yoki mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali olib borishga imkon beruvchi shaxsga xos integrallashgan sifatlardir».

Rahbarlarda o‘zgalarga ta’sir etish qobiliyati yuksak darajada rivojlangan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Avloniy nomidagi RXTXMOQTIga malaka oshirishga kelgan 124 nafar mакtab direktorlarida “Siz o‘zgalarga ta’sir qila olasizmi?” nomli so‘rovnama ham o‘tkazildi. Zamonaviy rahbar boshqalarga ta’sir qila olsagina jamoani yaxshi samarali boshqara olishi hech kimga sir emas. So‘rovnama natijalarini quyidagi jadvalda umumlashtirdik.

2-jadval.

Direktorlarning boshqalarga ta’sir qila olishi ko‘rsatkichlari

Sinaluvchilar № =124	O‘zgalarga yuqori darajada ta’sir ko‘rsatadiganlar	O‘zgalarga ta’sir qila olmaydiganlar
Maktab direktorlari	41,9 %	58,1 %

Yuqoridagi jadvalga nazar tashlasak, umumta’lim mакtablari direktorlari orasida o‘zgalarga yuqori darajada ta’sir eta oladiganlar 41,9 % ni tashkil etadi. Bunday direktorlar odamlarga ta’sir qilishning, ularning xulq-avorini o‘zgartirishning, o‘qitish, o‘rganish, to‘g‘ri yo‘lga solishning ajoyib imkoniyatlariga ega. Ularning e’tiqodlari quyidagicha: odamlar o‘z qobig‘iga o‘ralib yashamasligi, xudbin bo‘lmasligi kerak. Odamlar o‘zgalar uchun ham nimadir qilishi, o‘zgalarga yo‘l ko‘rsatishi, qilgan xatolarini tushuntirishi darkor. Ular bunday yashashni inkor etuvchilarni ayab o‘tirmaslik kerak, deb hisoblaydilar. Ularda o‘z haqligini isbotlay olish qobiliyati bor.

Maktab direktorlari orasida o‘zgalarga ta’sir qila olmaydiganlar 58,1 % ni tashkil etadi. Afsuski, ular odatda haq bo‘la turib, atrofdagilarni o‘zining haqligiga ishontira olmaydiar. Ular o‘zlarining va atrofdagilarning hayoti qat’iy tartibga, sog‘lom fikrga va yaxshi odatlarga bo‘ysunishi kerak, hayot yo‘lini oldindan bilish mumkin, deb hisoblaydilar. Ular “kuch vositasida” biror ish qilishni yoqtirmaydilar. Ular aksariyat hollarda sabr-qanoatli, bosiqlar. Shu sababli ham ba’zida ko‘zlagan maqsadlariga erisha olmaydilar. Ko‘pincha xodimlar ularni to‘g‘ri tushunmaydi, afsus....

Tadqiqot natijalaridan shu narsa aniqlandiki, hozirda maktablarimizda faoliyat yuritayotgan maktab direktorlarining ko‘pchiligidagi boshqalarga ta’sir etish qobiliyati quyi darajada rivojlangan.

Umumiyligi ta’lim tizimi direktorlarining boshqaruv faoliyatini yanada takomillashuvi va samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

- 1) Rahbarning ishchilarga xayriyohlik va hurmat ruhidagi munosabati;
- 2) Rahbar ta’lim muassasasida faoliyat yuritayotgan pedagoglarni nimaga iste’dodi borligini his etib, bularning barchasini amalga oshirishga imkoniyat yaratib berish;
- Z) Har bir rahbar bajarayotgan ishining natijasini ta’lim tizimi xodimlarida ko‘ra bilishi;
- 4) Rahbarlar o‘zlaridan yuqori tashkilot rahbarlari tomonidan e’tiborga olinishiga va taqdirlanishiga umid qilish;
- 5) O‘qituvchi umummadaniy farovonlikning va o‘z kasbiy mahoratining o‘sishidan manfaatdorligi;
- 6) Har bir vijdonli rahbar yanada yuqori mansabga ko‘tarilishiga umid qilishi va o‘z faoliyatidan mammun bo‘lish;
- 7) Rahbar jamoani qadrlash va sog‘lom psixologik muhit yaratish orqali jamoada nufuzga ega bo‘lishga harakat qilish va niyoyat o‘z-o‘zini hurmat qilishga erishish;
- 8) Rahbar faqatgina rahbarlik faoliyati bilan cheklanib qolmasdan o‘z qo‘l ostidagilardan iste’dodli bo‘lgan kadrlarni rahbarlikka tayyorlash;
- 9) Haqiqiy zamonaviy ta’lim tizimi rahbari bo‘lish uchun doimiy ravishda o‘z ustida ishslash qonuniyatiga amal qilish;
- 10) Rahbar o‘zining qo‘l ostidagilari oldida obro‘li, yuqori malakali, qat’iy va xolis, jamoaning haqiqiy murabbiysi sifatida boshqara bilishi.

Ushbu keltirilgan tavsiyalar asosan umumiyligi ta’lim tizimi rahbarlari ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini o‘rganish va mavjud muammolarini hal etish hamda ularning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar yuzasidan xulosa qiladigan bo‘lsak, zamonaviy ta’lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini o‘rganish va bu boradagi mavjud muammolarini hal etish, o‘quv muassasalari rahbarlarining boshqaruv mahoratiga oid biz yuqorida keltirgan tavsiyalarni tadqiqot obyektlariga tadbiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, zamonaviy ta’lim tizimi boshqaruvchilarini faoliyatini yanada takomillashtirish bilan bir qatorda ularni kasbga oid bilimlarini rivojlantirish asosiy diqqat markazimizdaligi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham umumta’lim tizimini boshqarayotgan rahbarlarga rahbarlik kasb emas, balki u boshqaruvchilik tashabbuskorlikka asoslangan qobiliyat ekanligi to‘g‘risida tegishli tavsiyalar va ko‘rsatmalar ishlab chiqish tadqiqot maqsadi qilib olinishi ham fikrimizning yorqin dalilidir. Ushbulardan kelib chiqqan holda kelgusida rahbar xodimlarni zamonaviy ta’lim tizim faoliyatiga jalb etish va boshqarishning samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetent rahbarlarni tizimda faoliyat olib borishiga mos keluvchi rahbar kadrlar darajasiga ko‘tarish, bu yo‘ldagi mavjud muammolarini bartaraf etilsagina mamlakat rivojlanadi va ijtimoiy tizim ravnaq topadi.

Adabiyotlar.

1. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘kituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. - T.: Fan. - 2004. - 127 b.
2. Maxmudov A.X. Uzluksiz ta’lim jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta’lim. - 2012. - № 4. 8-12 betlar.
3. Karimova V.M., Hayitov O.Ye., Umarova N.Sh. Boshqaruv sohasidagi professional kompetensiya asoslari. Monografiya. / Prof. V.M.Karimova tahriri ostida. – T.: “Fan va texnologiya”.T.: 2008 yil 145-167 betlar.
4. Чошанов М. А. Гибкая технология проблемно-модульного обучения. - М.: Народное обучение. - 1996. - 160 с.

Ж.А.Маматқосимов

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
РУКОВОДИТЕЛЕЙ УПРАВЛЯЮЩИХ
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ**

На сегодняшний день имеет значительное место в ряде сложных (значимых) проблемах подготовке педагогов в формировании профессиональной компетентности директоров в современной системе образования. В выполнение поставленных задач приоритетом достижение целей в управлении системе образования. Поэтому в статье раскрываются психологические механизмы профессиональной компетентности руководителей общеобразовательных школ.

Ключевые слова: склонность, способность, управление, руководитель, компетентность.

J.A.Mamatqosimov

**PSYCHOLOGICAL
MECHANISMS OF THE
PROFESSIONAL COMPETENCY
OF ADMINISTRATORS AT THE
MODERN EDUCATION SYSTEM**

Nowadays the education system is preparing pedagogic forming competency of directors has important place. Made to practice issues is a priority aim in manage of education system. So, in this article analyzed psychological mechanisms of professional competency administrators of the common education schools.

Keywords: ability, inclination leader management, competency.

UDK: 377.3:151

**KASB-HUNAR KOLEJLARIDA PEDAGOG MUTAXASSISLARNI KASBIY
FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI**

N.Shodiyev¹, R.X.Jiyanqulova², S.S.Igamov³, A.A.Raximov⁴

Samarqand davlat universiteti, professor¹, o'qituvchi², o'qituvchi³, o'qituvchi⁴.

Annotatsiya. Mazkur maqolada kasb-hunar kolejlarida mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik jihatlarini asoslash masalasi yoritiladi. Kasb-hunar kolleji “Boshlang‘ich ta’lim va sport – tarbiyaviy ish” ta’lim hamda “Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar” ta’lim yo‘nalishlarida psixologiya kasbiy psixologiyasi, mehnat psixologiyasi fanlari o‘qituvchilarni turli – tuman kasb-hunarlarga yo‘naltirishda mazmuniga milliy qadriyatlarni singdirish muammolari haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy fanlar, bo‘lajak mutaxassislar, qadriyatlar, maxsus fanlar, kasbiy – ruhiy, barkamol, shakllantirish, o‘quv reja, umumkasbiy fanlari bloki, psixologiya, sport psixologiyasi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi malaka talablariga mos holda kasbiy tavsifnomaga asosidagi muayyan kasbga tayyorlov jarayonini amalga oshiradi va bo‘lajak kichik mutaxassislarni mehnat bozoriga zamonaviy raqobatbardosh qilib tayyorlaydi hamda bundagi raqobatbardoshlik: zamonaviy kasblarga mos kasbiy tavsifnomaga va kasbiy malakaga qo‘yilgan talablar; umumkasbiy tayyorgarligi; ijtimoiy va ma’naviy etukligi; kasbiy tashkilotchilik sifatlari; kasbiy tayyorgarlik darajasining kasb standartiga muvofiqligi; kasb tayyorgarlikdagi texnologik sifatlari; kasbiy faoliyatga nisbatan innovatsion yondashuv qila olishligi, vaqt va o‘quv vositalari hamda qurollaridan foydalanishda tejamkorligi bilan baholanadi. Shuning bilan birga KHKda bo‘lajak mutaxassis xalq orasida yashab turmush kechirishga va kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bilim, ko‘nikma, malakalar majmuasini o‘zlashtirishga qaratilgan ongli kasbiy jarayonga tayyorlanadi [1].

Shu sababli ham hozirda KHKlarini bitiruvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning kasbiy-ma’naviy etukligi va intellektual salohiyatliligiga alohida talab qo‘yilmoqda. Bu talabni bajarishga ta’lim-tarbiya jarayonidagi an‘anaviy uslub va texnologiyalar javob bera olmay qoldi. Bunga sabab jamiyat taraqqiyoti darajasi va unga mos mutaxassislar tayyorlash jarayoniga qo‘yilgan talablar takomillashtirilib bormoqda [2].

Bo‘lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda innovatsion o‘zgarishlar qilish lozimligini va bu orqali sezilarli sifat o‘zgarishlari qilib yuqori samaradorlikni qo‘lga kiritish kerakligini taqozo etmoqda. Bunga sabab bular orqali ta’lim mazmunini milliy qadriyatlardan foydalanish negizida modernizatsiya qilishga imkoniyat yaratiladi [4].

Bunday talablar asosidagi ta’lim-tarbiya jarayonini olib borish bo‘lajak kichik pedagoglarning

kasbiy jihatdan intellektual salohiyatini va ma'naviy etukligini yanada rivojlantiradi, ta'lim-tarbiya maqsadlarining dolzarbligini oshirib qaralayotgan jarayonning optimal variantlaridan birini tanlash imkoniyatini beradi va bo'lajak kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi optimal variantlarni qo'lga kiritish quyidagidek ta'lim jarayonining asosiy kategoriylarini hisobga olishni talab etadi: ta'lim metodlari; ta'lim vositalari; ta'lim texnologiyalari; o'qitishga mos ma'lumotlarni tanlab va uni axborotga aylantirish; an'anaviy ta'lim mazmuni bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarga oid ma'lumotlarni integratsiya qilish; olib boriladigan ta'lim mazmunini va unga kiritiladigan ma'lumotlarni tahlil qilish; innovatsion o'qitish xususiyatlarini aniqlash; o'qitishni kompyuterlashtirish; o'qitishning asosiy hamda yordamchi vositalarini aniqlash va ular asosida ta'lim berishning algoritmini asoslash hamda uni joriy etishga tayyorlash. Bu esa o'z navbatida bo'lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash yo'nalishining o'quv rejasi, o'quv dasturlari, o'quv rejasidagi fanlar bloklari va ularning aloqadorligi hamda ularga mos ma'lumotlar bazasiga bog'liq bo'ladi [6].

KHK ning "3141600 - Boshlang'ich ta'lim va sport – tarbiyaviy ish" "maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlari" yo'nalishlari bo'yicha namunaviy o'quv rejaga e'tibor beradigan bo'lsa, unda quyidagi fanlar bloklari bor: umumta'lim fanlari; kasbiy ta'lim fanlari (umumkasbiy va maxsus fanlar) o'quv amaliyoti; pedagogik amaliyot; shuningdek, diplom oldi va boshqa amaliyotlar, kollej ixtiyoridagi soatlar [7].

Ularni o'rganishdan oldin o'quv rejada umumkasbiy fanlari bloki psixologiya va sport psixologiyasi fani mazmun-mohiyatiga oid qisqacha ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Kasb-hunar kollejlari "Boshlang'ich ta'lim va sport – tarbiyaviy ish" yo'nalishi uchun psixologiya va sport psixologiyasi fani 40 soat, "Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlari" yo'nalishi uchun "Psixologiya" fani 80 soat belgilangan bo'lib uning mazmuniga quyidagicha mazmundagi milliy qadriyatlarni singdirish mumkin.

I bo'lim. Psixologiyaga kirish. 1-mavzu. Psixologiya fani haqida... Psixologiya fanining tarixi.

Mamlakatimizda psixologiya fani taraqqiyoti tarixi uzoq o'tmishga va baqquvvat asosga ega ekanligini psixologiya fanining etnopsixologiya tarmog'i uchun zaruriy manbalarni Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» va «O'tmish avlodlar xotiralari» asarlarida, ijtimoiy psixologiya Abu Nasr Forobiyning «Fozil shahar aholisining fikrlari», Abu Ali ibn Sinoning «Donishnama» tibbiyot psixologiyasi va zoopsixologiya va hakozolarga Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» va «Ash-shifo» asarlarida ilk bor ishlab chiqilganligini kichik mutaxassislarga tushuntirib berish

2-mavzu: Hozirgi zamon psixologiyasining vazifalari, metodlari, psixologiyaning metodlari: kuzatish, suhbat, test-biografiya.

Sharqda insonshunoslik, insonni bilish metodikasi bo'yicha ming-ming yillik tajriba mavjud. Insonni bilishning oddiy sharqona bilishning oddiy sharqona usuli pedagogik tashxisda qo'l keladi. Bu borada genetik, biastrologik va biografik metodlar eng ommalashgan usullardir. Genetik metod-butun jahon olimlari tomonidan tan olingan hamda pedagogik-psixologik amaliyotda o'zini oqlagan metod bo'lib, uni sobiq sovet pedagogika- psixologiya fani, ta'lim-tarbiya tizimi inkor qilib keldi, unga amal qilmadi, ya'ni barcha ta'lim-tarbiya oluvchilarga bir xil andozali ta'lim-tarbiya tizimini inqiroziga sabab bo'ldi.

Bolaga tashxis qo'yishda ommalashgan biografik metodning imkoniyatlarini yoddan chiqarmaslik kerak. Chunki, Sharq xalqlarida «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan naql bolaga baho berishda asosiy qoidaga aylangan.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rindan, bolaning qobiliyat, layoqat, tarbiyalanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan ilmiy – tadqiqot metodlari kabi milliy qadriyatlarimizni tiklanishi, shubhasiz, uzlusiz ta'lim tizimining barcha bo'g'lnari amaliyotida munosib o'rinn egallaydi.

3-mavzu. Miya va psixika. Oliy nerv faoliyati.....

Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarida asab tizimining tashqi bog'liq va tananing harakat, tana sezgisini ta'minlab turuvchi borliq funksiyasini juda yaxshi tushungan holda psixologik hodisalarini fiziologik jarayonlarga bog'liqligi to'g'risidagi firklarini birinchilardan bo'lib oldinga surganligini ko'rsatish.

Asab tizimi, bosh miya-bu psixikaning yuz berishini asosi ekanligini, tana va muhit, a'zo va uning funksiyasi har doim o'zaro bog'liklikdaligini, bir butunlikdaligini, tan miyaning funksiyasi

bo'lishini, miya ishining o'zgarishi insonda ruhiy kasalliklarni sodir bo'lishiga olib kelishini ko'rsatish.

Ulug' alloma tomonidan psixik jarayonlarning markazlari miya, sezgi markazi miyaning old qismida, xotira markazi miyaning orqa qismida, xayolning markazi miyaning o'rtasidagi jo'yagining oldindi qismida, o'ylash, fikrlash bilan bog'liq markaz o'rta jo'yakda, ixtiyoriy harakatlanish qobiliyati miyaning orqa jo'yagida joylashgan degan fikrni olg'a surilganligini kichik mutaxassisldarga tushuntirish.

Abu Nasr Forobiy miyani yurak singari odam organizmining markazi deydi. Alloma, shu o'rinda, miya yurakdan qon olishi, unga bo'ysunishini ko'rsatish barobarida, u butun organizmga va uning a'zolariga rahbarlik qilishini va o'z buyrug'iiga bo'ysundirishini ta'kidlaydi.

Ulug' mutafakkirning ushbu fikridan, bir tomonidan, insondagi ruhiy jarayonlar bilan fiziologik-anatomik jarayonlar, psixika bilan organizm o'zaro bog'liq holda mavjud, ikkinchi tomonidan yurak insonning biologik hayotini, miya esa uning ruhiy-ma'naviy hayotini boshqarib turadi, degan xulosa kelib chiqishini o'quvchilarga ko'rsatish.

Forobiyning bu ta'lomi psixik jarayonlarning paydo bo'lishini nerv-fiziologik jarayonga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

II bo'lim. Shaxs va faoliyat. 1-mavzu. Shaxs psixologiyasi. Shaxs rivojlanishining manbadari ... irsiyat.

Davlatimizning ta'lim sohasidagi asosiy hujjatining «Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar» bo'limida «Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va o'qitish uslubiyati...shakllantiriladi », deb alohida ta'kidlanishi o'quvchilar taqdirida irsiyatning muhimligini, uni sobiq soet ta'lum-tarbiya tizimi amaliyotidan farqli ravishda butun jahon pedagogika-psixologiya fani kabi milliy pedagogikamiz tomonidan tan orlinishi, shubhasiz, pedagogik tafakkurimizda ijobiy siljishlarga turtki bo'ldi. Bu esa, o'z-o'zidan ulug' mutafakkirlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan insonni bilish metodikasini-sharqona genetik metod(yondashish)ni o'rganishga, ta'lum-tarbiya jarayoniga joriy etishga imkon beradi.Ya'ni ota-onva boshqa o'tmis avlodlaridan meros bo'lib o'tgan qobiliyat, layoqat, fan(kasb-hunar)ga bo'lgan munosabatni o'rganish imkonini beradi. Buni musiqa qobiliyatni avloddan-avlodga o'tishini mashhur san'atkorlar - Zokirovlar, Uzoqovlar, Rajabiylar kabi sulolalar misolida ko'rish mumkin.

Hozirgi zamon kishisi shaxsiga xos milliy axloqiy xususiyatlar. Forobiy shaxs axloqining sifatlariga to'xtalib, o'zida o'n ikkita tug'ma xislatni birlashtirgan kishi axloqli odam bo'ladi deb uqtiradi, ya'ni, bu mukammal taraqqiy etgan barcha organlari bilan bajarilishi zarur bo'lgan ishlarni osonlik bilan amalgalashadi; barcha muhokama va mulohazalari tez va to'g'ri tushunadigan, bildirilgan fikrlarning chinligini tez payqab oladigan; baquvvat xotirasi asosida ko'rgan, eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esdan chiqarmay yodda saqlaydigan;yuqori darajadagi tez va o'tkir zehni bilan narsalarning alomatiga qarab uning mazmun-mohiyatini tez anglab oladigan; aniq, tushunarli, so'zlaydigan, o'z fikr va mulohazalarini ravon bayon etadigan; bilim olish va o'qishga muhabbatliyuqori, o'rganmoqchi bo'lgan bilimlarni oson o'zlashtiradigan; ovqatlanish, ichimlik iste'mol qilishda ochko'zlik qilmaydigan, qimor o'ynilaridan uzoq yuradigan va ular keltiradigan xursandchiliklardan jirkanadigan; haqiqat va uning tarafdarlarini sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan, ruhi, g'ururi va o'z vijdonini qadrlaydigan, olyjanob ishlarni bajaradigan; dirham, dinor vash u kabi turmush buyumlariga past nazar bilan qaraydigan; adolatni sevadigan, adolatsizlikka, jabr-zulm o'tkazuvchilarga qarshi kurashadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan; adolatli bo'lib, qaysarlik qilmaydigan, o'zbilarmonlikka berilmaydigan, qat'iylik, jasurlik ko'rsatib o'zi zarur deb bilgan ishlarni bajaradigan, bunda ojizlik va qo'rqishni bilmaydigan shaxsdir.

2-mavzu. Shaxs ehtiyojlari, motiv va qiziqishlari. Alisher Navoiy insonning axloqiy fazilatlari to'g'risidagi o'z qarashlarida har bir odam munosib ishlarni shug'ullanishi, o'z nomini yomon, tuban xulq-atvor bilan bulg'amasi, uning martabasi, aqli, shaxsiy qobiliyati, irodasiga qarab ko'tarilishi lozimligi insonga baho berishda uning hayotdagi faoliyati, qilgan ishlari, jamiyatga naf keltirganiga, foydali ishlarni shug'ullanganiga qarab uni qadrli, fazilatli kishi yoki boshqalarga ziyon etkazadigan insonlarning tinch-osoyishtaligini buzadigan kimsalar chin inson emas deb hisoblash barobarida buyuk shoir o'z davrining tabaqalariga mansub bo'lgan tirik shaxs(odil va zolim podsho, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi va riyokor shayx, olim va johil, vafoli va vafosiz savdogar, sahovatli va xasis dehqon yoki chorvador va hakozo) larning barchasini xususiyatlarini «Mahbub ul-qulub»,

«Hayratul abror» asarlarida o‘zaro zid qo‘yib, ularning kishilik jamiyatiga keltirgan foyda va zararlarini aniq dalillar asosida isbotlab bergenligini o‘quvchilarga ko‘rsatish.

Beruniy «...hayotda ko‘p aziyatlar chekan, hatto umrining oxirida turmush qiyinchiliklariga duchor bo‘lgan, ammo har qanday og‘ir sharoitga qaramasdan e’tiqodidan qaytmagani uning o‘z ma’naviy ideallariga naqadar sodiq...» (Islom Karimov) qolib, butun kuchini yig‘ib, bor imkoniyatini ishga solib, ziyraklik va tirishqoqlik qilib, fanning juda ko‘p tarix, falsafa, astronomiya, geodeziya, mineralogiya kabi sohalari bilan shug‘ullanib, o‘zining qiziqishlar doirasining kengligini namoyish qila oldi.

«Beruniy yunon falsafasini o‘rganib, hind falsafasini mutoala qilmoq uchun sanskrit (qadimgi hind tili) ni o‘rgana boshladi: urush, talon-taroj, ommaviy qirg‘inlar bo‘lishiga qaramay fan ahllari o‘z ishlarini davom ettirganliklarini ko‘rsatib berish barobarida ikki orani nafrat va xudbinlik kayfiyatlarini buzib turgan joylarda Beruniy begona odam bo‘la turib bu o‘lka kishilar ahvolini tushuntirishga harakat qildi» (Javharlal Neru).

Ilmiy-tarixiy manbalarda Abu Rayhon Beruniyning vaqtini qanchalik qadrlaganliklari haqida ayrim ma’lumotlar bor. Ulug‘ alloma mutolaa, kitob yozish, tajriba o‘tkazishdan yiliga ikki kunni (birinchisi «Navro‘z olami kirgan kun azondan kechgacha qo‘sib, shudgor qilishga, nihol ekishga, ikkinchisi, boshoqqa birinchi o‘roq tushganda qo’llariga o‘roq olib azondan to kechgacha bug‘doy o‘rgani) o‘zi uchun dam olish deb hisoblar ekan. Shu boisdan «bir daqiqa vaqtini behuda o‘tkazgani, halok bo‘lgani» der ekan.

3-mavzu. Guruh va jamoalar. Jamiyatichilikni shakllantirishda mehnat va tarbiyaning o‘rni Abu Nasr Forobi «Fozil shahar aholisining» fikrlari asari orqali butun shahar (yoki mamlakat) misolida odamlar o‘rtasida tenglik, kasb-hunar tanlashlarida va ishlarida erkinlik, ularning tinchligi va erkinliklariga xalaqit bermaydigan, barchaga barobar munosabatda bo‘ladigan hammaning manfaatini o‘zlarining shaxsiy manfaalaridan ustun qo‘yadigan, hatto voz kechadigan, xalq manfaatini himoya qilishga o‘zlarining kuch-quvvatini ayamaydigan kishilar rahbar (podsho, sulton)lik qiladigan kishilar o‘rtasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzat paydo bo‘lishini talabalarga ko‘rsatib berish: Va teskari, butun fikri-zikri, aql-idroki boylik to‘plash, mol-dunyo orttirishga qaratilgan shahar (jamo) xalqidan chiqqan rahbar (podsho, sulton) lar ham rahbarlikni mol-dunyo orttirishga erta-yu – kech harakat qilgan rahbarlarning qo‘l ostida ishlayotgan shaharaholisida buzuq odatlar, shahvoniy nafs, bir-birini ko‘rolmaslik, nizo-janjallar paydo bo‘lishini muqarrar ekanligini ko‘rsatish.

III bo‘lim. Shaxsning psixik jarayonlar. 1-mavzu: Sezgi. Sezgi turlari va ularning tavsifi. O‘rta Osiyolik jahonga mashhur alloma Abu Nasr Forobi o‘zining «Majmuar Rassoil al-hukamo» asarida sezgilar, ularning moddiy asosi klassifikatsiyalash, oziqlantiruvchi quvvat, ichki va tashqi quvvatlarni muhokama qilgan. Bunda u tashqi ruhiy quvvatlar, ya’ni tashqi buyumlar, hodisalar inson sezgi a’zolariga bevosita ta’sirqilganda vujudga keladigan quvvat, deb ko‘rsatadi. Sezgilarning kelib chiqishi va murakkab jihatdan besh turli tashqi quvvatni qomusiy olim quyidagicha talqin qiladi:

teri-badan sezgisi; ta’m bilish sezgisi; hid bilish sezgisi; nutq sezgisi; (eshitish sezgisi nazarda tutiladi) ko‘rish sezgisi. Bularning hammasini Forobi sezish quvvati deb biladi. Ichki quvvatlarga:

xotira-tasavvur quvvati; xayol quvvati; tuyg‘u – emotsiya quvvati; nutq quvvati; quvvat notiqi tarkibida mantiqiy fikrlash quvvati. Quvvat deganda Forobi insonga xos xususiyat va qobiliyatlarni ko‘zda tutadi. 2-mavzu: Idrok. Idrok va ta’lim jarayoni. Forobiyning odamzod ibtidosi bo‘lmish quvvatlar (so‘zlash quvvati, tanlab olish, xayol quvvati, sezish quvvati)ning mazmun-mohiyatini talabalarga tushuntirish. Jumladan, psixik jarayon sifatida so‘zlash quvvati insonga bilim va hunarni egallashga, o‘zining xulq-atvordagi xunuk va go‘zal harakatlarni ajrata olishga, zararli yoki foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlashga imkoniyat yaratadi.

Tanlab olish quvvati yordamida inson u yoki bu narsani istashi yoki ulardan kechishi, ta’sirlanishi yoki tortishi tufayli unda nafrat yoki muhabbat do’stlik yoki dushmanlik, qo‘rqinch yoki qo‘rqmaslik, g‘azab yoki rozilik, shahvat yoki minnatdorchilik his-tuyg‘uga oid holatlar paydo bo‘lishini talabalarga ko‘rsatish lozim.

His etish xususiyatlari (ko‘rish, eshitish, hid sezish, ta’m maza bilish, teri sezgisi) faoliyatlarini talabalarga yoritib berish asqotadi. Jumladan, ta’m-maza bilish sezgisi orqali inson shirin va achchiqni bir-biridan ajratadi, ammo go‘zallik bilan xunukni, zarar bilan foydani ajrata olmaydi.

Ibn Sino «Tib qonunlari»da ruhiy jarayonlar va dunyonи bilish haqida fikr yuritish barobarida bilish sezgilar yordamida hissiy bilish tushunchalar yordamida fikrlash orqali bilishdan tashkil topishi,

sezgi tashqi narsalarning o‘zi bo‘lmay balki bizning hislarimizda vujudga kelishini, sezgida narsa va hodisalarning ayrim tashqi belgilari, aniq tomonlari bilinsa, aql ularning mohiyatlarini, ichki tomonlarini mavhumlashtirish yordamida bila olishni talabalarga ko‘rsatish.

4-mavzu. Tafakkur. Tafakkur shakllari. Hukm. Forobiyning bilish jarayonini ikki bosqichi, ya’ni hissiy va aqliy bilish haqidagi ta’limotining muhimligini; hissiy bilish sezgilar orqali aniq va moddiy narsalarning bevosita ta’siri natijasida hosil bo‘lishi, aql orqali bilish esa aniq moddiy jismlar orqali emas, ularning ta’sirisiz va ulardan tashqari faqat ruhiy obrazlar asosida vujudga kelishini talabalarga ko‘rsatish.

Abu Nasr Forobiyligi aql-intellekt tushunchasini bir tomondan, psixik jarayon ekanligini va ikkinchi tomondan uni tashqi ta’sir, ta’lim-tarbiya jarayonida vujudga kelishini, aql faqat insonga xos bo‘lgan tug‘ma quvvat – ruhiy kuch bilan bog‘liqligini, har bir o‘quvchi tushunish, fahmlash, muhokama qilish, o‘ylab topish, fikrlash quvvatiga ega ekanligini va bu xususiyatlar bolaning o‘sib kamolga etib borishi bilan yanada rivojlanishigni bo‘lajak kichik mutaxassislarga ko‘rsatish.

Bundan XI asr ilgari Abu Nasr Forobiyligi masalaga e’tibor bergenligini, uning «...ularning ba’zi birlarida kashf, ixtiro quvvati bo‘lmaydi, ba’zilarida esa bu quvvat kamroq bo‘ladi» deb ta’kidlagan so‘zlariga asoslanib kollej o‘quvchilariga har bir shaxsda tafakkur rivojlangan bo‘lishi zarurligi bugungi kun talabi ekanligini uqtirish.

Prezident I.A.Karimov «Yuksak ma’naviyat –engilmas kuch» asaridaturkiy va forsiy tilda so‘zlovchibiron-bir kimsa yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa, degan fikrini davom ettirib «Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, uavliyolarning avliyosi, mutafakkir inson, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoirlarning sultonidir», dedi.

Xalq og‘zaki ijodining noyob durdonasi bo‘lmish «Alpomish» dostonini xalqimiz asrlar davomida yaratgan, o‘z imyon-e’tiqodidek asrab-avaylagan, qancha avlod-ajdodlarimiz «Alpomish» dostoni asosida tarbiyalangan, o‘zligini anglagan, ma’naviy boylikka ega bo‘lganligini ta’kidlab, «demak xalqimiz bor ekan, Alpomish siymosi barhayotdir».

Xuddi shuningdek IV bo‘lim. Shaxsiy hissiyot (1-mavzu. His-tuyg‘ular, Emotsiya. Affekt. Hissiyotning fiziologik asoslari, tuyg‘u , hissiyotning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, shaxsning hissiyotga berilish darajasi,

2-mavzu. Iroda. Shaxsning irodaviy sifatlari. V bo‘lim. Shaxsning psixik xususiyatlari. 1-mavzu. Qobiliyatlar kabi manbalarni o‘rganishda ham milliy - ma’naviy qadriyatlardan foydalanish masalasi ham tadqiq qilindi.

Ushbu sohada olib borilgan izlanishlarimiz natijalari bo‘lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi psixologiya fani mazmuniga milliy-ma’naviy qadriyatlarga oid malumotlarni integratsiyalash ularni kasbiy ma’naviy va ruhiy jihatdan barkamol qilib shakllantirishga mustahkam didaktik asos bo‘la olishligini ko‘rsatdi va bu KHK dagi umumkasbiy va maxsus fanlar va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarida o‘z isbotini topdi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, bayon qilingan ta’lim texnologiyasi negizida ular egallashi lozim bo‘lgan kasb bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy-ruhiy jihatdan barkamol bo‘lib shakllanishi kerak bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalar va malakalar asosini tashkil etuvchi bilimlar majmuasi shakllantiriladi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. - Toshkent.: O’zbekiston. 1995. 23 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch. Toshkent.: Ma’naviyat, 2008. -174b.
3. Shodiev N., Jiyanolova R.X., N.Ziyaeva. Pedagogika fanini o‘rganish jarayonida kichik mutaxassislarni boy milliy merosimiz bilan tanishtirish // Uzluksiz ta’lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Samarqand, 2012.
4. Muslimov N.A.O’qituvchi shaxsini shakllantirishning nazariy-myetodologik omillari://Xalq ta’limi №5-6.2003.73-786.
5. Jiyanolova R.X.Kasb-hunar kollejlarida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy pedagogik asoslari . Monografiya T.: «Fan va texnologiya»- 2015.158 B.
6. Jiyanolova R. Bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda milliy qadriyatlardan foydalanish. //Uzluksiz ta’lim. №4. -T.: 2014.B-115.

7. Jiyanolova R. Pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash// «Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar». IMJ. -T.: 2014. -№2. -59b.

**Н.Шодиев, Р.Х.Жиянкулова,
С.С.Игамов, А.А.Рахимов**

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
АСПЕКТЫ ПРОФОРИЕНТАЦИИ
СПЕЦИАЛИСТОВ ПЕДАГОГОВ В
ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОЛЛЕДЖАХ**

В данной статье освещены психологические аспекты профориентации специалистов в профессиональных колледжах. Приведены рекомендации по внедрения национальных идеологий в вопросах профориентации учителей по предметам психология, профессиональная психология, трудовая психология по направлениям обучений «Дошкольное образование и спорт – воспитательные работы» а также «Воспитательные работы вне школы».

Ключевые слова: профессиональные предметы, будущие специалисты, ценности, специальные предметы, профессионально психический, зрелый, учебный план, общеобразовательные предметы, психология, спортивная психология.

**N.Shodiyev, R.X.Jiyanqulova,
S.S.Igamov, A.A.Raximov**

**PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF
CAREER GUIDANCE TEACHERS IN
VOCATIONAL COLLEGES**

The article highlights the psychological aspects of vocational guidance of specialists in professional colleges. Recommendations on the implementation of national ideologies in matters of career guidance of teachers of psychology, occupational psychology, labour psychology in the directions of training in «Preschool education and sport - educational work» as well as «educational work outside the school.»

Keywords: professional subjects, future specialists, values, special items, professional psychic, mature, curriculum, general education, psychology, sport psychology.

UDK: 331.5

**INNOVATION IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY BUXGALTERIYA HISOBI VA
HISOBOTI MUSTAQIL FAN SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI VA TARAQQIY**

ETTIRILISHI

S.N.Tashnazarov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, dotsent

E-mail: tashnazarov68@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy buxgalteriya hisobining taraqqiy ettirilishi bosqichlarga bo‘lingan, har bir bosqichda erishilgan natijalar bayon etilgan. Uning fan sifatidagi xususiyatlari olib berilgan. Fan sifatida shakllanishiga asos bo‘luvchi omillar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti, buxgalteriya hisobi birliklari, moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti tamoyillari va konsepsiyalari, moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti protsedurasi, moliyaviy steytment.

Mustaqillikka erishish boshqa sohalar kabi buxgalteriya hisobini taraqqiy ettirish, uni xalqaro tamoyillar talablariga uyg‘unlashtirish imkonini yaratib berdi. Rejali-ma’muriy iqtisoddan bozor munosabat-lariga asoslangan xo‘jalik yuritish tizimiga o‘tish borasidagi iqtisodiy islohatlarda buxgalteriya hisobini isloh qilish ham muhim o‘rin tutadi.

Korxonalarda boshqaruv tizimini, jumladan moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotini isloh qilishning ham asosiy tamoyillari mamlakatimiz Prezidenti asarlarida ko‘rsatib berildi. Prezidentimiz I.Karimov e’tirof etganlaridek, “Allaqachon o‘z umrini o‘tab bo‘lgan, boshqaruvning sovet davriga xos eski va yaroqsiz rejali-taqsimot tizimi va lavozimlar nomenklaturasidan qat’iy voz kechishimiz, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan tijorat direktori, mijozlar bilan ishlash va haridlar bo‘yicha loyiha menejeri va boshqa yangi lavozimlarni xalqaro amaliyotga mos ravishda, ularning mansab majburiyati va vazifalarini aniq belgilagan holda, keng joriy etishimiz lozim.”[1].

Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotini isloh qilishdagi vazifalarning asosiy mazmunini xalqaro standartlar talablariga javob beradigan hamda milliy xususiyatlarimizni va bu sohada erishgan ilg‘or yutuqlarimizni tan oladigan yangi milliy buxgalteriya hisobi tizimimizni shakllantirish tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik davrida buxgalteriya hisobining rivojlanishi va uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish davrini uchta bosqichga bo‘lish mumkin:

Birinchi bosqich (1991-1994 yillar) – buxgalteriya hisobining me’yoriy-huquqiy asoslari uchun zamin yaratish;

Ikkinci bosqich (1995-2014 yillar) – xalqaro standartlar talablariga javob beradigan buxgaletriya hisobiga doir me’yoriy - huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etish;

Uchinchi bosqich (2015 yildan e’tiboran) – moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida moliyaviy hisobot tuzishga o‘tish.

Dastlabki bosqichda mustaqillik ostonalarida o‘zbek tiliga davlat maqomi berilishi munosabati bilan korxona va tashkilotlarda moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotini o‘zbek tilida yuritish, buxgalteriya boshlang‘ich va hisobot hujjatlarini o‘zbekcha chop ettirish, buxgalteriya hisobi bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish, buxgalterlarni bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish, ularni qayta tayyorlash kabi o‘ta muhim masalalar hal etildi. Bu borada 1993 yili tashkil etilgan Buyuk Britaniya Now-How fondi tomonidan “Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya sohasidagi o‘qituvchilarining malakasini” oshirish kurslarining tashkil etilganligi va rivojlangan mamlakatlarda tajriba oshirish imkoniyatlarining yaratib berilganligi muhim ahamiyat kasb etdi. Dastlabki o‘zbek tilida buxgalteriya hisobiga oid yo‘riqnomalar va Nizomlar ishlab chiqildi. Bu bosqichda amalga oshirilgan ishlar keyingi bosqichlar uchun chuqur zamin bo‘lib xizmat qildi.

Ikkinci bosqichga 1995 yildan 2014 yillar davomidagi vaqtini kiritish mumkin. Bu davrda buxgalteriya hisobini takomillashtirishda juda katta miqyosda ishlar amalga oshirildi. 1995 yil O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan xalqaro tomoyillar talablariga javob beradigan “Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish harajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarning tashkil topish tartibi to‘g‘risidagi” Nizom ishlab chiqildi va joriy qilindi. Ushbu Nizomga muvofiq xalqaro tamoyillar asosida korxona harajatlari ishlab chiqarish tannarxi, davr

harajatlari, moliyaviy faoliyat harajatlari va favquloddagi zararlarga bo‘lindi va moliyaviy natijalarni bosqichma-bosqich aniqlash tartibiga o‘tildi. Ushbu hujjatning qabul qilinishi va joriy qilinishi balans nettoga o‘tishga imkon yaratib berdi.

1996 yili 30 avgustda “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun buxgalteriya hisobining xalqaro tamoyillar talablariga javob beradigan maqsad va vazifalarini, asosiy tamoyillarini, moliyaviy hisobot va uning konsolidatsiyasi masalalarini yoritib berdi. Mazkur Qonun asosida mammalakatimizda Buxgalteriya Hisobining Milliy Standartlari, “Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to‘g‘risida”gi Nizom, “Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish qoidalari”, “Soliq hisoboti shakllarini tasdiqlash to‘g‘risidagi” Qaror va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilda va amaliyotga joriy etildi.

1998 yil avgustidan e’tiboran hozirgi kunga qadar moliyaviy hisobot tuzish va taqdim qilishning konseptual asoslari va 23 ta buxgalteriya hisobi milliy standartlari ishlab chiqildi.

Ushbu davrda axborot kommunikatsion texnologiyalarining moliyaviy buxgalteriya hisobida keng joriy qilinishiga erishildi. Hisobotlar 1 S Buxgalteriya va boshqa litzenziyalashgan dasturlar asosida tuzilib elektron shaklda uzatish tizimiga o‘tildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov e’tirof etganlaridek, “Tadbirkorlik su’ektlari tomonidan davlat organlariga taqdim etiladigan statistika, soliq va moliyaviy hisobtlarning shakli va davriyligi 1,5-2 marta kamaytirildi” [2].

“Kichik biznes subyektlari tomonidan statistik va soliq hisobotlarini taqdim etish mexanizmlari sezilarli darajada soddalashtirildi. Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining 98 foizi soliq va statistika hisobotlarini topshirishni, bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirishni eski usullardagi qog‘oz to‘ldirish yo‘li bilan emas, balki bevosita – elektron shaklda amalga oshirmoqda” [3].

2015 yildan e’tiboran moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning yangi sifat bosqichiga o‘tishga kirishildi. Bu bosqichni uchinchi bosqich deb e’tirof etishimiz mumkin. Ushbu bosqichning muhim jihatni mammalakatimizdagи yirik xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, aksiyadorlik jamiyatları, tijorat bankları va xalqaro birjalarda eksport va import operatsiyalari amalga oshiradigan korxonalar moliyaviy hisobotini xalqaro standartlar asosida tuzish joriy qilinishi bilan belgilanadi.

Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari asosida tuzishda 2015 yil 24 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Farmoni qonuniy asos bo‘lib xizmat qildi. Ushbu farmonda xalqaro tajribalarni chuqur tahlil qilish va shu asosda zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, ular tomonidan xalqaro standartlar asosida audit va moliyaviy hisobot axborotlarini nashr qilish vazifalari yuklatildi [5].

2016 yilda 14 aprelda kuchga kirgan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi” Qonunning yangi tahriri moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobot tuzish va taqdim qilish masalalariga katta e’tibor qaratildi. Xususan, Qonunning 10-moddasida “Buxgalteriya hisobi subyektlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo‘llashi mumligi” e’tirof etildi [4]. Bu vazifalar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini chuqur o‘rganishni, milliy moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga transformatsiya qilishning uslubiy masalalarini ishlab chiqishni hamda milliy standartlarimizni yanada xalqaro standartlarga imkon qadar yaqinlashtirishimizni taqoza etmoqda. Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarining tan olinishi va unga o‘tishning zaruriyatini Qimmatbaho qog‘ozlar va Birjalarning xorijiy kotirovkalar uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida tuzilishini talab qilinishi bilan ham belgilash mumkin. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning hamda investitsion muhitni yaxshilashning muhim shartlaridan biri ixtiyoriy ravishda xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni taqdim etish bo‘lib hisoblanadi.

Endi, moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotining fan sifatidagi xususiyatlari to‘xtalib o‘tsak. Mahalliy adabiyotlarimizda moliyaviy hisob, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot kabi tushunchalar ishlatilgan va ularni fan sifatida o‘qilib kelingan. Xalqaro tajribalarda “Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti” fan sifatida kiritilgan. Ushbu fanning ta’rif, obyektlari va xususiyatlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti – bu buxgalteriya hisobi birlik (subyekt)larida unga oid Qonun va standartlarida keltirilgan moliyaviy hisobot tamoyillari va qoidalari asosida pulda

o'chaniladigan xo'jalik operatsiyalari yozuvlarini amalga oshirish, o'lhash (baholash), to'plash, interpitatsiya qilish va moliyaviy hisobot ko'rinishida foydalanuvchilarga taqdim qilish tizimidir.

Moliyaviy buxgalteriya hisobiga berilgan ta'rifdan ko'rinish turibdiki, moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti axborotlari axborot foydalanuvchilarga moliyaviy hisobot ko'rinishida taqdim qilinadi. Moliyaviy hisobot masalalarini to'g'ri tadqiq qilish ko'p jihatdan moliyaviy buxgalteriya hisobining mohiyati, xarakterli jihatlari, fan sifatida shakllanishini o'rganishga bog'liq. Chunki, moliyaviy hisobot moliyaviy buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi, uning mahsuli natijasi hisoblanadi. Shu bois, fanning nomiga "hisobot" so'zini kiritish uning tulipligini ta'minlaydi. Tadqiqotlar natijasida moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotining xarakterli xususiyatlarini quyidagi omillar belgilashini ta'kidlashimiz mumkin:

- 1) Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotining an'anaviy protsedurasiga rioya qiladi.
- 2) Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonun, moliyaviy hisobot konseptual asoslari, standartlari va qonuniy talablarga rioya qiladi.
- 3) Axborot foydalanuvchilarga moliyaviy hisobot (steytment) taqdim etadi.
- 4) Menejment tizimining boshqa quyitizimlari bilan mustahkam aloqada bo'ladi.
- 5) Mustaqil fan tarmog'i sifatida shakllangan.

Buxgalteriya hisobining mustaqil ikki quyi tizimga ajralishi uning fan sifatida ham ikkita mustaqil - moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti hamda menejmentlik buxgalteriya hisobi - fanlariga ajralishiga olib keldi.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotining maqsadga va birliklarga ega ekanligi, predmet (obyekt)lari mavjudligi, konseptual asoslari va prinsiplarga tayanishi, o'ziga xos usul va uslublarni qo'llashi, tasdiqlangan protsedurasiga rioya qilishi, natija o'laroq moliyaviy steytment (hisobot)lar tuzilishi, va o'z haridorlariga, yani axborot foydalanuvchilariga egaligi uning fan sifatida shakllanishiga to'liq asos bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Hozirgi kunda moliyaviy buxgalteriya hisobining konseptual asoslari ko'ra yangilanishni talab etadi. Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti asosan moliyaviy holat bilan bog'liq jarayonlar bilan ish tutadi. Shu bois, moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotining obyektlari sifatida moliyaviy holatni aniqlashda ishtirok etadigan elementlarni olish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim qilishning konseptual asoslarda moliyaviy holatni aniqlashda quyidagi elementlar ko'rsatilgan: 1) Aktivlar, 2) Majburiyatlar, 3) Xususiy kapital, 4) Rezervlar, 5) Daromadlar, 6) Xarajatlar, 7) Moliyaviy natijalar (foyda yoki zarar) [38, 9-bet].

Yuqoridagi adabiyotlarni o'rganish asosida moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotining predmetiga quyidagicha ta'rif beramiz: "**Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotining predmeti deb, u o'rganadigan obyektlarga aytildi. Bu obyektlarga aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital va ularning o'zgarishiga olib keladigan biznes operatsiyalari va yakuniy moliyaviy natijalar (foyda, zarar) kiradi.**"

Biz moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotining fan sifatida shakllanishiga asos bo'ladigan omillarni 1-jadvalda umumlashtiramiz.

1-jadval

Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotining fan sifatida shakllanishiga asoslar

Asoslар	Tavsifi
Maqsadi	Foydalanuvchilarga subyektlarlarning moliyaviy holati, uning operatsiyalar ta'sirida o'zgarishi, pul mablag'lari, xususiy kapital harakati hamda moliyaviy natijalar to'g'risida axborot bilan ta'min etish
Birliklari (Hisob subyektlari)	Xususiy korxonalar, o'rtoqlik jamiyatlar, aksiyadorlik jamiyatlar, yirik korporatsiyalar, ishlab chiqarish kooperativi va unitar korxonalar, shu'ba korxonalar, banklar va byudjet tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari
Predmeti (Obyektlari)	Aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, iqtisodiy hodisalar (jarayonlar), yakuniy moliyaviy natijalar (foyda, zarar)
Tamoyil va konsepsiyalari	Uchta fundamental qoida: faoliyatning davomiyligi, doimiylik va jamg'arilish. Moliyaviy steytmentlar sifat tavsifi: tushunararlilik, uyg'unlik, ishonchlilik, taqqoslana olishi.

Metodi (usul va uslublari)	Obyektlarni o'rganishda qo'llaniladigan usul va uslublar majmuasi.
Protsedurasi	Pulda o'lchaniladigan iqtisodiy hodisalarni kuzatish, identifikatsiyalash, o'lchab baholash, qayta ishslash, moliyaviy steytmentlar tuzish va taqdim qilishda bajariladigan buxgalteriya harakatlarining mantiqiy ketma-ketligi .
Jarayon mahsuli (moliyaviy steytment (hisobotlar)	Moliyaviy steytment (hisobot)lar buxgalteriya jarayoni natijasining mahsuli hisoblanadi, foydalanuvchilar tomonidan muhim qarorlar qabul qilishda qo'llaniladi.
Haridorlari mavjudligi (axborot foydalanuvchilari)	Ichki axborot foydalanuvchilar (menejerlar), tashqi axborot foydalanuvchilar (investorlar, davlat soliq xizmati organlari, banklar, davlat statistikasi organlari va boshqalar)

Yuqorida tadqiqotlar asosida qilingan xulosalar asosida **moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti** fanini mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos bo'lувчи omillar o'rganilganligi ham nazariy va amaliy ahamiyat kasb etidi, deb o'ylaymiz. Fanni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, yangi o'quv dasturlariga ham shu nomda kiritilganligi ham maqsadga muvofiqliqdir.

Adabiyotlar

- Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan hususiy mulk va hususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. //Xalq so'zi. 2015 yil 17 yanvar, №11 (6164)/ 3-bet.
- Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernazatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirish-bosh maqsadimizdir. //Xalq so'zi. 2014 yil 6 dekabr, №237 (6167). 2-bet.
- Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan hususiy mulk va hususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. //Xalq so'zi. 2015 yil 17 yanvar, №11 (6194)/ 1-bet.
- O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. Xalq so'zi gazetasi. 2016 yil 14 aprel.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruva uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" farmoni. 2015 yil 24 aprel.

С.Н.Ташназаров
ОСОБЕННОСТИ ФИНАНСОВОГО
БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА И
ОТЧЕТНОСТИ КАК
САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ НАУКИ И ЕГО
РАЗВИТИЕ В УСЛОВИЯХ
ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ

В статье развитие финансового бухгалтерского учета разделены на этапы, описываются достижения на каждом этапе развития. Раскрыты его особенности как самостоятельной науки. Анализированы основные факторы формирующие науку.

Ключевые слова: Финансовый бухгалтерский учет и отчетность, субъекты бухгалтерского учета, принципы и концепция финансового бухгалтерского учета и отчетности, финансовый стейтмент.

S.N. Tashnazarov
IDENTIFY FINANCIAL
ACCOUNTING AND REPORTING OF
INDEPENDENCE SCIENCE AND
DEVELOPMEND UNDER THE
CONDITION OF INNOVATION
ECONOMY

The development of financial accounting is divided into stages and achievements at each stage of development is described in this article. It opens its features as an independent science. Analyzes the key factors of shaping the science.

Key words: financial accounting and reporting, accounting entities, principles and concepts of financial accounting and reporting, financial statement.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiya, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingen asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiyligini qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

**MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA
QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'limasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'chhami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib:
Musahhih:
Texnik muharrirlar:
Dizayner sahifalovchilar:

R. Sh.Toshquvatova, fals.f.n.,dotsent
M.M. Ro'ziboyev
S. D. Aronbayev
X. Sh. Tashpulatov
A. I. Inatov

Muassis: Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.

Telefon: 0 (66) 239-14-07, Faks: 0 (66) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 30.08.2016 yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.
Buyurtma raqami 58. Adadi 500 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.